***Ключевые слова:** маневровые работы, расчеты классов, список отправителей, расчетная производительность вагона, удельное сопротивление в среднем весе, технические характеристики вагона, маневровые полуприцепы, стрелковый вес.*

KIRISH

Bugungi kunda barcha rivojlanib borayotgan davlatlarda, nafaqat temir yo‘l transporti, balki boshqa sohalarni, umuman iqtisodiyotni rivojlantirishning dolzarb muammolaridan biri – energiya va resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda ulardan samarali foydalanish yo‘llarini belgilashdan iborat.

Temir yo‘l transportida lokomotiv xo‘jaligi foydalanish xarajatlarining asosiy qismini tashkil etadi. “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyatida (“O‘TY” AJ) jami foydalanish xarajatlarining 35% ulushi lokomotiv depolariga, 12% yoqilg‘iga va 30% elektr energiyasiga to‘g‘ri keladi [1]. “Rossiya temir yo‘llari” OAJda bu ko‘rsatkich 30% ni tashkil etdi [2]. “O‘TY” AJda bu ko‘rsatkichning ijobiy tomonga o‘zgarishiga asosan yangi resurstejamkor texnika va texnologiyalarni joriy etish orqali erishildi.

Amaldagi tartib-qoidalarga muvofiq manyovr yarim reyslariga sarflanadigan vaqt miqdori yaqinlashtirilgan usul asosida aniqlandi [3-4]. Bunda tarkibdagi vagonlarning turi bir xil deb qaraladi. Vagonlar turidan kelib chiqqan holda ularning harakatidagi o‘rtacha og‘irlikdagi asosiy solishtirma qarshilikni hisoblash bo‘yicha algoritmi va dasturiy ta‘minotlar ishlab chiqilmagan. Ushbu tadqiqotning maqsadi manyovr ishlarida tortuv hisoblarini bajarish uchun poyezdning natur varag‘i asosida (tarkibdagi vagonlarning hisobiy parametrlarini to‘g‘ri aniqlash asosida) vagonlarning harakatiga o‘rtacha og‘irlikdagi solishtirma qarshilikni hisoblashni usulini avtomatlashtirishga doir dasturiy ta‘minot ishlab chiqish va undan foydalanish tartibi yoritishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bugungi kunda temir yo‘l stansiyalari ishini jadallashtirish va yo‘qilg‘i sarfini optimallashtirishga doir bir qancha tadqiqotlar olib borilgan [5-18]. Lekin, poyezdning natur varag‘i asosida (tarkibdagi vagonlarning hisobiy parametrlarini

to'g'ri aniqlash asosida) vagonlarning harakatiga o'rtacha og'irlikdagi solishtirma qarshilikni hisoblashni usulini avtomatlashtirishga doir ilmiy tadqiqotlar etarlicha bajarilmagan.

Ma'lumki, yarim reys bajariladigan vagonlar haqidagi ma'lumot poyezdning natur varag'idan olinadi. Ammo, ushbu natur varaqda vagonlarning raqami va ularga yuklangan yuk miqdori (netto) keltiriladi, ya'ni vagonlarning barcha hisobiy parametrlari ko'rsatilmaydi. Tadqiqot jarayonida manyovr yarim reyslarini bajarish uchun poyezdning natur varag'i asosida vagonlarning hisobiy parametrlarini aniqlashga doir EHM uchun dastur ishlab chiqildi. Natijada, dasturga kiritilgan vagonlarning raqami va ularga yuklangan yuk miqdori (netto) asosida vagonlarning quyidagi hisobiy parametrlari aniqlanadi: m – olib o'tiladigan vagonlarning umumiy soni, $vag.$; Σq_n – olib o'tiladigan vagonlardagi yukning umumiy (netto) og'irligi, t ; $\Sigma K_{o'q}$ – olib o'tiladigan vagonlarning umumiy o'qlari soni, $o'q$; Σq_t – olib o'tiladigan vagonlarning umumiy (tara) og'irligi, t ; Σl_v – olib o'tiladigan vagonlarning umumiy uzunligi, m ; Σq_{br} – olib o'tiladigan vagonlarning umumiy (brutto) og'irligi, t ; $\Sigma \bar{q}_{o'q}$ – olib o'tiladigan vagonlardan o'qqa tushayotgan o'rtacha og'irlik, t .

Manyovr yarim reyslarini bajarish uchun poyezdning natur varog'i asosida vagonlarning hisobiy parametrlarini aniqlash vagonlarning harakatiga o'rtacha og'irlikdagi solishtirma qarshilikni (ω_o^{ff}) hisoblash imkonini beradi.

[19] dan ma'lumki, magistral temir yo'l stansiyalarida ω_o^{ff} ning qiymatini hisoblash uchun vagonlarning hisobiy parametrlarini 3 ta guruhga bo'lib o'rganiladi:

1. O'qqa tushayotgan og'irligi 6 t dan katta bo'lgan 4 o'qli vagonlar.
2. O'qqa tushayotgan og'irligi 6 t dan katta bo'lgan 8 o'qli vagonlar.
3. O'qqa tushayotgan og'irligi 6 t dan kichik va teng bo'lgan vagonlar.

YUqoridagi har bir guruh uchun quyidagi 4 ta vagonlarning hisobiy parametrlari aniqlanadi:

1-guruh uchun:

1.1. O'qqa tushayotgan og'irligi 6 t dan katta bo'lgan 4 o'qli vagonlarning umumiy soni

$$\Sigma m_{br,4}^{q>6} = COUNTIFS(\bar{q}_{o'q}^1 : \bar{q}_{o'q}^m ; "> 6"; K_{o'q}^1 : K_{o'q}^m ; "4"), \text{ vag.} \quad (1)$$

1.2. O'qqa tushayotgan og'irligi 6 t dan katta bo'lgan 4 o'qli vagonlarning umumiy og'irligi

$$\Sigma q_{br,4}^{q>6} = SUMPRODUCT((K_{o'q}^1 : K_{o'q}^m = 4) * (\bar{q}_{o'q}^1 : \bar{q}_{o'q}^m > 6) * q_{br}^1 : q_{br}^m), t. \quad (2)$$

1.3. O‘qqa tushayotgan og‘irligi 6 t dan katta bo‘lgan 4 o‘qli vagonlarning umumiy o‘qlar soni

$$\Sigma K_{o'q,4}^{q>6} = \text{SUMPRODUCT}((K_{o'q}^1:K_{o'q}^m=4)*(\bar{q}_{o'q}^1:\bar{q}_{o'q}^m>6)*K_{o'q}^1:K_{o'q}^m), \text{ o'q. (3)}$$

1.4. O‘qqa tushayotgan og‘irligi 6 t dan katta bo‘lgan 4 o‘qli vagonlarning o‘qlariga tushayotgan o‘rtacha og‘irlik

$$\bar{q}_{br,4}^{q>6} = \frac{\Sigma q_{br,4}^{q>6}}{\Sigma K_{o'q,4}^{q>6}}, \text{ t. (4)}$$

2-guruh uchun:

2.1. O‘qqa tushayotgan og‘irligi 6 t dan katta bo‘lgan 8 o‘qli vagonlarning umumiy soni

$$\Sigma m_{br,8}^{q>6} = \text{COUNTIFS}(\bar{q}_{o'q}^1:\bar{q}_{o'q}^m;" > 6";K_{o'q}^1:K_{o'q}^m;"8"), \text{ vag. (5)}$$

2.2. O‘qqa tushayotgan og‘irligi 6 t dan katta bo‘lgan 8 o‘qli vagonlarning umumiy og‘irligi

$$\Sigma q_{br,8}^{q>6} = \text{SUMPRODUCT}((K_{o'q}^1:K_{o'q}^m=8)*(\bar{q}_{o'q}^1:\bar{q}_{o'q}^m>6)*q_{br}^1:q_{br}^m), \text{ t. (6)}$$

2.3. O‘qqa tushayotgan og‘irligi 6 t dan katta bo‘lgan 8 o‘qli vagonlarning umumiy o‘qlar soni

$$\Sigma K_{o'q,8}^{q>6} = \text{SUMPRODUCT}((K_{o'q}^1:K_{o'q}^m=8)*(\bar{q}_{o'q}^1:\bar{q}_{o'q}^m>6)*K_{o'q}^1:K_{o'q}^m), \text{ o'q. (7)}$$

2.4. O‘qqa tushayotgan og‘irligi 6 t dan katta bo‘lgan 8 o‘qli vagonlarning o‘qlariga tushayotgan o‘rtacha og‘irlik

$$\bar{q}_{br,8}^{q>6} = \frac{\Sigma q_{br,8}^{q>6}}{\Sigma K_{o'q,8}^{q>6}}, \text{ t. (8)}$$

3-guruh uchun:

3.1. O‘qqa tushayotgan og‘irligi 6 t dan kichik va teng bo‘lgan vagonlarning umumiy soni

$$\Sigma m_{br}^{q\leq 6} = \text{COUNTIFS}(\bar{q}_{o'q}^1:\bar{q}_{o'q}^m;" \leq 6"), \text{ vag. (9)}$$

3.2. O‘qqa tushayotgan og‘irligi 6 t dan kichik va teng bo‘lgan vagonlarning umumiy og‘irligi

$$\Sigma q_{br}^{q\leq 6} = \text{SUMPRODUCT}((\bar{q}_{o'q}^1:\bar{q}_{o'q}^m \leq 6)*q_{br}^1:q_{br}^m), \text{ t. (10)}$$

3.3. O‘qqa tushayotgan og‘irligi 6 t dan kichik va teng bo‘lgan vagonlarning umumiy o‘qlar soni

$$\Sigma K_{o'q}^{q\leq 6} = \text{SUMPRODUCT}((\bar{q}_{o'q}^1:\bar{q}_{o'q}^m \leq 6)*K_{o'q}^1:K_{o'q}^m), \text{ o'q. (11)}$$

3.4. O‘qqa tushayotgan og‘irligi 6 t dan kichik va teng bo‘lgan vagonlarning o‘qlariga tushayotgan o‘rtacha og‘irlik

$$\bar{q}_{br}^{q \leq 6} = \frac{\sum q_{br}^{q \leq 6}}{\sum K_{o'q}^{q \leq 6}}, t. \quad (12)$$

Har bir u -guruhdagi ($u=1, 2, 3$) vagonlarning hisobiy parametrlari asosida manyovr harakat tarqibining tezligi 1 dan 60 km/soatgacha bo'lgan har bir km/soat uchun vagonlarning harakatidagi asosiy solishtirma qarshilik quyidagicha hisoblanadi:

1-guruh uchun:

$$\omega_{a.4}^{''(q>6)} = 0,7 + \frac{3+0,1 \cdot v + 0,0025 \cdot v^2}{\bar{q}_{br.4}^{q>6}}, N/kN \quad (13)$$

2-guruh uchun:

$$\omega_{a.8}^{''(q>6)} = 0,7 + \frac{6+0,038 \cdot v + 0,0021 \cdot v^2}{\bar{q}_{br.8}^{q>6}}, N/kN \quad (14)$$

3-guruh uchun:

$$\omega_a^{''(q \leq 6)} = 1,0 + 0,044 \cdot v + 0,00024 \cdot v^2, N/kN \quad (15)$$


Shunday qilib, vagonlarning harakatidagi o'rtacha og'irlikdagi asosiy solishtirma qarshilik quyidagi formula asosida aniqlanadi

$$\omega_a^{''} = \frac{\omega_{a.4}^{''(q>6)} \cdot \sum q_{br.4}^{q>6} + \omega_{a.8}^{''(q>6)} \cdot \sum q_{br.8}^{q>6} + \omega_a^{''(q \leq 6)} \cdot \sum q_{br}^{q \leq 6}}{\sum q_{br}}, N/kN \quad (16)$$

Yuqorida keltirilgan ifoda va shartlar asosida manyovr yarim reyslari bajarilishida ishtirok etadigan vagon(lar)ning hisobiy parametrlarini to'g'ri tanlash orqali vagonlarning harakatiga o'rtacha og'irlikdagi asosiy solishtirma qarshilikni to'g'ri hisoblash mumkin.

NATIJAR VA ULARNING MUHOKAMASI


Tadqiqot jarayonida manyovr yarim reyslarini bajarish uchun poyezdning natur varag'i asosida vagonlarning harakatiga o'rtacha og'irlikdagi solishtirma qarshilikni hisoblashga doir EHM uchun dastur ishlab chiqildi (1-rasm).



T/r	Manyovr tezligi	1-guruh S/Q	2-guruh S/Q	3-guruh S/Q	O'rtacha S/Q
1	0	0.84	1.08	0	1.02
2	1	0.85	1.08	0	1.02
3	2	0.85	1.08	0	1.02
4	3	0.86	1.09	0	1.03
5	4	0.86	1.09	0	1.03
6	5	0.87	1.09	0	1.04
7	6	0.88	1.1	0	1.05
8	7	0.88	1.1	0	1.05
9	8	0.89	1.11	0	1.06
10	9	0.9	1.11	0	1.06

1-rasm. “Manyovr yarim reyslarini bajarishda vagonlarning harakatiga o‘rtacha og‘irlikdagi solishtirma qarshilikni hisoblash” dasturining ishchi oynasi.

Ishlab chiqilgan dasturdan foydalanib va amaldagi usul bo‘yicha 51 ta vagon dan iborat manyovr tarkibidagi vagonlarning harakatiga o‘rtacha og‘irlikdagi solishtirma qarshilikni hisoblandi (2-rasm).



2-rasm. Manyovr tarkibidagi vagonlarning harakatiga o‘rtacha og‘irlikdagi solishtirma qarshilikni hisoblash natijalari

(51 ta vagon dan iborat manyovr tarkibi misolida)

2-rasmdan ko‘rinib turibdiki, amaldagi usul bo‘yicha hisoblangan manyovr tarkibidagi vagonlarning harakatiga o‘rtacha og‘irlikdagi solishtirma qarshilik tezlik 45 km/soatgacha bo‘lgan oraliqda taklif etilayotgan usulga nisbatan doim kichik va tezlik 45 km/soatdan katta bo‘lgan holatlarda doim katta qiymatga ega bo‘lmoqda. Manyovr ishlari asosan 45 km/soatdan kichik tezliklarda bajarilishini inobatga olsak, amaldagi usul bo‘yicha hisoblangan manyovr ishlariga sarflanadigan vaqt va yoqilg‘i miqdori doim haqiqiy miqdorga nisbatan kam qiymat beradi deb xulosa qilish mumkin.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, manyovr yarim reyslarini bajarishga sarflanadigan vaqt miqdorini tortish hisoblari asosida to‘g‘ri hisoblashda vagonlarning harakatiga o‘rtacha og‘irlikdagi asosiy solishtirma qarshilikni aniqlash murakkab masala sanaladi. Bunga asosiy sabab, manyovr harakat tarkibida turli xil vagonlarning mavjudligi va vagonlarning harakatiga o‘rtacha og‘irlikdagi asosiy

solishtirma qarshilikni hisoblashda ularni 3 guruhga (o'qqa tushayotgan og'irligi 6 t ga teng va undan kam bo'lgan vagonlar; o'qqa tushayotgan og'irlik 6 t dan katta 4 o'qli vagonlar; o'qqa tushayotgan og'irligi 6 t dan katta 8 o'qli vagonlar) ajratishidir.

Yuqorida keltirilgan usul va ishlab chiqilgan dasturiy ta'minot orqali poyezdning natur varag'idagi boshlang'ich ma'lumotlar asosida manyovr harakat tarkibdagi barcha vagonlarni 3 ta guruhga ajratish va vagonlarning harakatiga o'rtacha og'irlikdagi asosiy solishtirma qarshilikni hisoblash bo'yicha algoritmi va dasturiy ta'minotlar yaratish hamda manyovr yarim reyslarini bajarishga sarflanadigan vaqt miqdorini tortish hisoblari asosida to'g'ri hisoblash imkonini beradi.

REFERENCES

1. Бабахалов Н.Э., Гуламов А.А. Экономика предприятий железнодорожного транспорта: учебное пособие. – Т.: Fan va texnologiy», 2016. – 140 с.
2. Валеев Н.А. Управление затратами в локомотивном комплексе железнодорожной компании: Дисс. к.э.н. 08.00.05. – М.: МГУПС. – 2016. – 132 с.
3. Нормы времени на маневровые работы, выполняемые на железнодорожных станциях ОАО «РЖД», нормативы численности бригад маневровых локомотивов. М. ОАО «РЖД», 2006. – 102 с.
4. Методические указания по расчету норм времени на маневровые работы, выполняемые на железнодорожном транспорте. МПС РФ. – М.: 1998. – 84 с.
5. F. Jaehn, A. Otto, and K. Seifried, "Shunting operations at flat yards: retrieving freight railcars from storage tracks". OR Spectr., vol. 40, pp. 367-393, 2018, doi: 10.1007/s00291-017-0495-x.
6. Суюнбаев Ш.М. Оперативное планирование эксплуатационной работы в условиях организации движения грузовых поездов по твердому графику / Известия Петербургского университета путей сообщения. – Санкт-Петербург: ФГБОУ ВО ПГУПС, 2010. – №3(24). – С. 15-24.
7. S.K. Khudayberganov, Sh.M. Suyunbayev, Sh.B. Jumayev. Results of application of the methods "Sologub" and Combinator sorting in the process of forming multi-group trains at the sorting station // Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers, 15 (4), 62-72.
8. S.K. Khudayberganov, Sh.M. Suyunbayev, A.M. Bashirova, Sh.B. Jumayev. Results of application of the methods "Conditional group sorting" and

“Combinatorial sorting” during the multi-group trains formation // Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers, 16 (1), 89-95.

9. Dilmurod Butunov Baxodirovich, Sokijon Khudayberganov Kobiljonovich, Shinpolat Suyunbaev Mansuralievich. Modeling of unproductive losses in the operation of a sorting station / European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 2020, Volume 7, Issue 2, Pages 277-290, (https://ejmcm.com/article_2070.html).

10. Суюнбаев Ш.М., Саъдуллаев Б.А. Формирование многогруппных составов на двустороннем сортировочном устройстве / Universum: технические науки (электронный научный журнал). – Российская Федерация: ООО «МЦНО», 2020. – №9 (78). – С. 5-7.

11. Суюнбаев Ш.М., Жумаев Ш.Б., Ахмедова М.Д. Процесс расформирования и формирования многогруппного поезда на железных дорогах АО «Узбекистан темир йуллари» // Транспорт шёлкового пути. – 2020. – №3. – С. 30-38.

12. Суюнбаев Ш.М., Жумаев Ш.Б., Бўриев Ш.Х., Туропов А.А. Темир йўл участкаларида маҳаллий вагонлар оқимини турли тоифадаги поездлар билан ташкил этиш усуллари техника-иктисодий баҳолаш / Academic Research in Educational Sciences (ARES), Vol. 2, Issue 6 (2021), 492-508 б. <https://doi.org/10.24412/2181-1385-2021-6-492-508>

13. Suyunbayev Sh.M., Khudayberganov S.K., Svetashev A.A., Jumayev Sh.B., Mikhayeva D.B., Olimov A.R. The method of determining minimum necessary number of sorting tracks depending on length of a group of wagons // Geintec-gestao magazine innovation and technologies, Volume-11, Issue 2, April 2021. – p. 1941-1960. <https://doi.org/10.47059/revistageintec.v11i2.1810>

14. Suyunbayev Sh.M., Jumayev Sh.B., Khusenov U.U., Nazirov N.N. The improvement decision method of decision on the choice of delivery of wagons to the defined station on the basis of information technologies // International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology (IJARSET) – 2021. – Vol. 8, №2. – pp. 16760-16770.

15. Suyunbayev, Sh.M. and Butunov, D.B. (2019) “Development of classification of the reasons of losses in the work sorting stations” Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers: Vol. 15: Iss. 2, Article 23. Available at: (<https://uzjournals.edu.uz/tashiit/vol15/iss2/23>).

16. Aripov N., Suyunbaev S., Azizov F., Bashirova A. Method for substantiating the spheres of application of shunting locomotives at sorting stations // E3S Web of Conferences, 2021, 264, 05048. <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202126405048>.

17. Суюнбаев Ш.М., Саъдуллаев Б.А. Выбор рационального варианта

организации маневровой работы на станции // Материалы конференции «Приоритетные направления инновационной деятельности в промышленности». – Казань.: ООО «Конверт», 2020. – С. 183-186.

18. Суюнбаев Ш.М., Жумаев Ш.Б., Саъдуллаев Б.А. Кам харажатли тортув ҳаракат таркибини темир йўл станциясидаги манёвр ишларида қўллашнинг самарадорлиги / Academic Research in Educational Sciences (ARES), Vol. 2, Issue 10 (2021), 100-109 б. <https://doi.org/10.24412/2181-1385-2021-10-100-109>.

19. Методика тяговых расчетов для маневровой работы, Москва. 1988 г.

ICHKI BOZORNI BOLALAR OZIQ-OVQATLARI BILAN TA'MINLASHDA MARKETING STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH

Meyliyeva Dilnoza Boboniyoz qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti assistenti

ANNOTATSIYA

Hozirgi davrda bolalar oziq-ovqatlari va ichimliklariga bo'lgan talab tobora ortib bormoqda. Bolalar uchun sotiladigan ba'zi mahsulotlarning umumiy ovqatlanish profili yaxshilanganiga qaramay, bozorni bolalar oziq-ovqat mahsulotlari bilan boyitishda ayrim kamchiliklar va bo'shliqlar saqlanib qolmoqda. Ushbu bo'shliqni bartaraf etishda bolalarga qaratilgan reklama va marketing qanday ahamiyatga ega ekanligini aniq belgilash zarur ahamiyatga ega. Ushbu maqolada ichki bozorni bolalar oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda marketingning roli hamda bolalar va o'smirlarni o'ziga jalb qilishda qo'llaniladigan marketing strategiyalari haqida gap boradi.

Kalit so'zlar: marketing, reklama, brend, bozor segmentatsiyasi.

ABSTRACT

Nowadays, the demand for kids food and beverages is growing. Although the overall nutrition profile of some of the products sold for children has improved, there are still some gaps in enriching the market with food for children. The importance of child-centered advertising and marketing in addressing this gap needs to be clarified. This article discusses the role of marketing in providing the domestic market with kids food and the marketing strategies used to attract children.

Keywords: marketing, advertising, brand, market segmentation.

АННОТАЦИЯ

В настоящее время спрос на детское питание и напитки на рынках растет. Хотя общий профиль питания некоторых продуктов, продаваемых для детей, улучшился, по-прежнему существуют некоторые недостатки в обеспечении рынка детским питанием. Необходимо прояснить важность рекламы и маркетинга ориентированной на детей в устранении этого пробела. В данной статье обсуждается роль маркетинга в обеспечении внутреннего рынка детским питанием и маркетинговые стратегии, используемые для привлечения детей и подростков.

Ключевые слова: маркетинг, реклама, бренд, сегментация рынка.

KIRISH

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining uchinchi yo‘nalishida kichik sanoat zonalarini tashkil etish bo‘yicha, “...faoliyat ko‘rsatayotgan erkin iqtisodiy zonalar, texnopark va kichik sanoat zonolari samaradorligini oshirish, yangilarini tashkil etish” bo‘yicha ulkan vazifalar belgilangan [1]. Bugungi kunda davlatimiz rahbari respublikamiz bo‘yicha qaysi hududga bormasin, o‘sha hududda kichik sanoat korxonalarini tashkil etish, ular orqali mahsulot, tayyor raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish hamda ularni nafaqat ichki bozorga, balki tashqi bozorlarga eksport qilish zarurligini ta’kidlab o‘tdi.

Bugungi kunda kichik sanoat zonalarini tashkil etish orqali ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, tovarlar assortimentini kengaytirish orqali kichik sanoat zonalarini korxonalarini faoliyatini rivojlantirish, ularda marketing tadbirlarini amalga oshirish, kichik sanoat zonalarini korxonalar faoliyatini samarali baholash va kelgusida ularning rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, mahsulot ishlab chiqarish korxonalarida marketing faoliyatini tashkil etish, korxonalar faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha marketing strategiyasini ishlab chiqish muhim o‘ringa egadir.

Hozirgi davrda bolalar oziq-ovqatlari va ichimliklariga bo‘lgan talab tobora ortib bormoqda. Bolalar oziq-ovqat bozorida marketing faoliyatini rejalashtirishda iste‘molchilarning xatti-harakatlarini o‘rganish muhim sanaladi. Talabga ega bo‘lgan mahsulotni yaratish uchun xaridorlar va iste‘molchilarning qanoatlantirilmagan ehtiyojlari borligini aniqlash kerak bo‘ladi. Retseptlarni, qadoqlashlarni o‘zgartirganda iste‘molchi va xaridor ushbu o‘zgarishlarni qanday qabul qilishini tushunish zarur hisoblanadi. Mahsulot qanday qabul qilinishini bilish va o‘rganish hamda agar vaziyat bir ishlab chiqaruvchi foydasiga o‘zgarmasa, o‘z vaqtida yechimlarni izlab topish muhim ahamiyatga ega.

Ko‘pgina mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar bolalar va o‘smirlarni o‘ziga jalb qilish uchun turli xil marketing strategiyalari va usullaridan foydalanadilar. Televiziondagi an’anaviy reklamadan tashqari, kompaniyalar veb-saytlar, ijtimoiy media va mobil qurilmalar orqali yangi raqamli media bilan bolalarni o‘zlariga jalb qiladilar. Ichki bozorni bolalar oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlashda bu kabi marketing strategiyalari va usullari muhim rol o‘ynaydi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bolalar uchun sotiladigan ba’zi mahsulotlarning umumiy ovqatlanish profili yaxshilanganiga qaramay, bozorni bolalar oziq-ovqat mahsulotlari bilan boyitishda

ayrim kamchiliklar va bo'shliqlar saqlanib qolmoqda. Ushbu bo'shliqni bartaraf etish uchun bolalarga qaratilgan reklama va marketing nima ekanligini aniq belgilash kerak.

Bir qancha tadqiqotchilar oziq-ovqat va ichimliklar marketingi o'zgaruvchan bozor imkoniyatlari, texnologiya va tartibga soluvchi muhitga tez moslanadigan dinamik soha ekanligini tan olishadi[2]. Sohadagi marketing amaliyotlarining bolalarga ta'sirini muntazam ravishda kuzatib borish, ularni baholash, ommaviy axborot vositalari va marketing amaliyotlari rivojlanlantirish orqali ichki bozorni bolalar oziq-ovqatlari bilan to'ldirish zaruriyati mavjud. Ushbu masalalarga doimiy e'tibor bolalar uchun sog'lom oziq-ovqat marketingi landshaftini qo'llab-quvvatlashga hamda bolalar uchun yetarli oziq-ovqat mahsulotlarini bozorda shakllantirishga yordam beradi.

Bolalarga qaratilgan marketing

Bolalar va o'smirlarning o'ziga xos tabiati va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, bolalarga yo'naltirilgan marketing - bu chaqaloqlikdan to 14 yoshgacha bo'lgan bolalarga qaratilgan har qanday marketing faoliyati hisoblanadi [3].

Bolalar - bu korxonalarining media yoki marketing rejasi, ishlab chiquvchining belgilashi yoki prognoz qilingan tomoshabinlar, tinglovchilar, o'quvchilar, ishtirokchilar yoki tashrif buyuruvchilar tavsifiga asoslangan maqsadli demografik qatlam hisoblanadi.

Bolalar uchun marketing tadqiqotlariga ko'ra, reklamani joylashtirish vaqtida yoki rejalashtirilgan davomat asosida bolalar auditoriyaning 25 yoki undan ko'p foizini tashkil qiladi [4].

Marketing strategiyalari va usullari

Ichki bozorni bolalar oziq-ovqat mahsulotlari bilan yanda boyitishda mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan bolalarga yo'naltirilgan marketingda keng qo'llaniladigan marketing strategiyalari va usullari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Ota-onalarning farzandlari uchun bo'lgan talab va istaklariga putur yetkazmaslik borasidagi sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlash (bu holatda marketologlar bolalarning ota-onalarini kam ozuqaviy oziq-ovqatlarni sotib olishga chaqirmasliklari kerak);

- Bolalar oziq-ovqat mahsulotlarini o'rtacha hajmda tasvirlash va qadoqlash va to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita ortiqcha ovqatlanishni rag'batlantirmaslik;

- Bolalarning sog'lom ovqatlanishiga yordam beradigan, ayniqsa, ozuqa moddalarining zichligi, energiya zichligi va porsiya hajmi bo'yicha yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish;

• Oziqlanish sifatini yaxshilash uchun mahsulotlarni qayta shakllantirish, jumladan, ko‘proq meva, sabzavot va porsiya o‘lchamlarini, kaloriyalarni, natriyni, tozalangan shakarni mahsulotga qo‘shish va yog‘larni kamaytirish;

• Bolalar uchun parhez bo‘yicha ko‘rsatmalarga muvofiq sog‘lom ovqatlanish odatlarini targ‘ib qilish va meva, sabzavotlar, kam yog‘li mahsulotlar hamda sut kabi sog‘lom mahsulotlarni targ‘ib qilish bo‘yicha sa’y-harakatlarni kengaytirish.

Ichki bozorni bolalar oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlashda brend mahsulotlar marketingi

Bolalarda oziq-ovqat brendi haqidagi bilimlar 3 yoshdan boshlab sezilarli darajada oshadi [5]. Bolalar uchun sotiladigan brend mahsulotlar faqat oziqlanish mezonlariga javob beradigan mahsulotlarni o‘z ichiga olishi kerak. Brend mahsulotlar kompaniyalarga mahsulotlar haqida xabarlar yetkazishda, ishonchlilikni tasdiqlashda, xaridorlarni hissiy darajada bog‘lashda va rag‘batlantirishda yordam beradi va xaridorlarning ma‘lum bir mahsulotga bo‘lgan sodiqligini oshiradi. Brend marketingi xuddi shunday tartibda bolalarning afzalliklari va tanlovlariga ta‘sir qiladi.

Bolalar uchun sotiladigan mahsulotlarning oziqlanish standartlari mahsulotning marketingda qanchalik ko‘zga ko‘ringan yoki boshqa tarzda aks ettirilganidan qat‘iy nazar, faqat ommaviy axborot vositalaridagi reklamada tasvirlangan mahsulotlarga nisbatan qo‘llaniladi. Bolalarga qaratilgan ko‘plab marketing harakatlari faqat ma‘lum mahsulotlarning qisqacha tasvirlarini ko‘rsatadi va buning o‘rniga bolalar e‘tiborini kattaroq brend bilan bog‘liq mahsulotlarga qaratadi. Bunday harakatlar bolalarning butun bozor, kompaniya ichidagi bitta brend yoki mahsulot qatoriga bo‘lgan bilim va afzalliklarini oshirishga qaratilgan bo‘lib, ushbu taniqli brendlarga kiritilgan boshqa mahsulotlar ovqatlanish mezonlariga mos kelishini talab qiladi.

Bolalar uchun marketingda reklamaning o‘rni va roli

Reklama – marketingning eng muhim elementi ekanligi borasidagi asosiy fikrlar shunga asoslanadiki, marketing sohasi rivojlangan mamlakatlar zamonaviy iqtisodiyotining barcha jabhalarini qamrab oladi va bunda firmalar marketing faoliyatining har qanday bosqichi ularning reklama faoliyati bilan bevosita yoki bilvosita aloqaga ega bo‘ladi [6].

Marketing to‘plamining elementi sifatida reklamaning muvaffaqiyati hozirgi paytda ikkita holat – maqsadli yo‘naltirilganlik va sistematik xarakter bilan, shuningdek, oziq-ovqat tovarlarini rejalashtirish, ishlab chiqish va ishlab chiqarish jarayoni, unga talab, narx shakllanishi va sotuv bilan qalin aloqalar bilan asoslanadi.

Hozirgi paytda bolalar uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlari doimiy ravishda murakkablashib, talab omillari sifatida tovarning iste‘mol xususiyatlaridan

ko'ra ko'proq uning imidj-bilding, sifat, yetkazib berish va xizmat ko'rsatish qulayligi, kafolatli ta'mirlash shartlari kabi tavsifnomalari birinchi o'ringa chiqmoqda. Bugungi kunda mahalliy bozorlarda tovarlar jalb etuvchanligining eng muhim elementi tovarlarga sotuvdan keyingi xizmat ko'rsatish bo'yicha xizmatlar darajasi hisoblanadi.

Ichki bozorni bolalar oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda reklamaning maqsadi quyidagi yechimlarni ko'zda tutadi [7]:

- bolalar uchun oziq-ovqat mahsulotlari sotuvini qo'llab-quvvatlash va kengaytirish hamda savdo aylanmasini oshirish;
- ushbu oziq-ovqat turiga ehtiyoj shakllantirish;
- muayyan markali mahsulotlar talabni rag'batlantirish va sotuvni rag'batlantirish;
- bolalar uchun yangi turdagi oziq-ovqat mahsulotini bozorga chiqarish muddatini qisqartirish;
- bolalarning ota-onalarini bolalar uchun tayyorlangan mahsulot va ko'rgazmalarga tashrif buyurishga undash.

XULOSA

Hozirgi axborotlashgan jamiyat reklama bilan chambarchas bog'liq bo'lib, brendlar iste'molchilardan an'anaviy ommaviy axborot vositalari va internet sahifalari orqali moyillik talab qiladi. Ichki bozordagi bolalar oziq-ovqat mahsulotlari bilan bog'liq bo'shliqlarni to'ldirishda marketologlar xaridorlar didini shakllantiradi, ularning fikr-mulohozalarini o'rganadi hamda kerakli kamchilik va sabablarni belgilab beradi. Bu esa shu turdagi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvlarning bozorga erkin kirib borishida hamda ichki bozorda o'z o'rnini topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday sharoitda, hozirgi kunda, dunyo ko'p jihatdan marketing kommunikatsiyalari vositasida shakllanmoqda degan fikr asosga ega deb aytish mumkin.

Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ichki bozorni bolalar oziq-ovqat mahsulotlari bilan boyitishga erishish uchun ikkita asosiy jihatini ko'rib chiqish kerak:

1) bolalarga mo'ljallangan oziq-ovqat marketingi amaliyotini rivojlantirish va joylarini aniqlash;

2) bolalar uchun sog'lom oziq-ovqat mahsulotlari bozori segmentatsiyasini rivojlantirish va nosog'lom mahsulotlar ishlab chiqarishni kamaytirish. Bolalar uchun nosog'lom oziq-ovqat mahsulotlarini sotish jamoat salomatligi uchun asosiy

muammo hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra [8,9], dunyo bolalar va o'smirlarning deyarli uchdan bir qismi ortiqcha vazn yoki semizlikdan aziyat chekmoqda. Shu sababli ham, ommaviy axborot vositalari tomonidan bolalar uchun sog'lom turdagi mahsulotlar reklamasini kengaytirish hamda nosog'lom turdagi mahsulotlarga cheklovlar o'rnatish zarur hisoblanadi.

REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “2017-2021 йиллардаги Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегияси” тўғрисидаги ПФ-4947-сонли Фармони. – Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й.
2. Cheyne A, Mejia P, Nixon L, Dorfman L. Food and Beverage Marketing to Youth. *Current Obesity Reports*. 2014.
3. Harris JL, Sarda V, et al. (2013). Redefining “child-directed advertising” to reduce unhealthy television food advertising to children. *American Journal of PrevJ.D. Williams et al. (2013). Advances in Communication Research to*
4. Reduce Childhood Obesity. *Monitoring Food Company Marketing to Children to Spotlight Best and Worst Practices* (pp. 153–175). New York, New York: Springer Science + Business Media. *entive Medicine*, 44(4), 358– 364.
5. Harris JL, Heard A, Schwartz MB. Older but still vulnerable: All children need protection from unhealthy food marketing. Yale Rudd Center. 2014.
6. Ergashxodjaeva Sh.Dj., Samadov A.N., Alimxodjayeva N.E., Sharipov I.B. Marketing kommunikatsiyasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: “IQTISODIYOT”, 2019. -418 b.
7. Ergashxodjaeva Sh.Dj., Samadov A.N., Alimxodjayeva N.E., Sharipov I.B. Marketing kommunikatsiyasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: “IQTISODIYOT”, 2019. -418 b.
8. Inoyatovna, Kutbitdinova Moxigul, Meylieva Dilnoza Boboniyoz Qizi, and Kambarova Shaxnoza Mirvaxitovna. "Development of branding strategy in the system of marketing of children's goods." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11, no. 5 (2021): 429-434.
9. Harris JL, Schwartz MB, and Munsell CR (2013). *Fast Food Facts: Measuring Progress in Nutrition and Marketing to Children and Teen*

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI NUTQINI KORREKSIYALSHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH

Normatova Maftuna Kengash qizi

Jizzax davlat pedagogika instituti maxsus pedagogika kafedrası o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Zamonaviy jamiyatda bola tug'ilishidanoq texnologik muhitda yashaydi. Bu bolalarning idrokini va o'rganish odatlarini o'zgartiradi, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun qiziqarli bo'lgan raqamli texnologiyalardan foydalanish zarurligini aniqlaydi, ularni ongli ravishda nutq va tilni tuzatuvchi harakatlarni bajarishga undaydi. nutqni o'z-o'zini nazorat qilishni rivojlantirish kerak bo'ladi. Ushbu maqolada, maktabgacha ta'lim muassasasida bolalar nutqi va tilini tuzatishda raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini muhokama qilishni rag'batlantirish, nazariy adabiyotlarni tahlil qilish va nutq terapiyasini tuzatishda ishlatiladigan pedagogik texnologiya vositalarini qo'llash haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, yosh bolalar, logopet, nutq korreksiya, pedagogik va raqamli texnologiyalar.

ABSTRACT

In modern society, a child lives in a technological environment from birth. It changes children's perceptions and learning habits, identifies the need to use digital technologies that are fun for preschoolers, and encourages them to consciously perform speech and language corrective actions. it is necessary to develop speech self-control. This article discusses the use of digital technologies in the correction of children's speech and language in preschool, analyzes the theoretical literature, and discusses the use of pedagogical technology tools used to correct speech therapy.

Keywords: Preschool education, young children, speech therapist, speech correction, pedagogy and digital technologies.

АННОТАЦИЯ

В современном обществе ребенок с рождения живет в технологической среде. Он изменяет восприятие детей и их привычки к обучению, выявляет необходимость использования цифровых технологий, которые доставляют удовольствие дошкольникам, и побуждает их сознательно выполнять действия по исправлению речи и языка. необходимо развивать речевой самоконтроль. В статье обсуждается использование цифровых технологий в коррекции речи и языка детей в дошкольных учреждениях, анализируется

теоретическая литература и обсуждается использование инструментов педагогических технологий, используемых для коррекции логопедии.

Ключевые слова: дошкольное образование, дети раннего возраста, логопед, коррекция речи, педагогика и цифровые технологии.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim muassasasi va uning tashqarisida kengaytirilgan ta'lim berishda, jumladan bolalarning nutqidagi kamchiliklarni korreksiyalashda texnologiyalarning imkoniyatlari har qanday vaqtda va istalgan vaqtda qo'llab - quvvatlanishi va rag'batlantirilishi mumkin. Bolalarning taraqqiyotini baholash va kuzatishga yordam beradigan ta'limga yanada yaxlit yondashuv sanaladi. Raqamli texnologiyalardan foydalanib, turli xil raqamli yechimlar bo'lishi mumkin. Tarbiyachi va bola o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, o'quv jarayonini o'zgartirish, bolalar nutqi va tilini tuzatish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish maktabgacha ta'lim muassasasida ishlash o'quv jarayonida ta'limni, ma'lum ko'nikma va malakalarni egallashni rag'batlantiradi. Maktabgacha ta'lim nuqtai nazaridan, bu alohida ta'kidlanadi. Bir qator tematik sohalarda kompyuterlar bolalarning o'qishi va fikrlashiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, shuningdek, ularning metakognitiv ko'nikmalarining bugungi kunda yanada dolzarbligi aytiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Texnologiya bolalarga bilim olishga yordam beradimi, degan savol tug'iladi? MTM larda texnologiya orqali bunga qanday erishish mumkinligi haqidagi savolli muloqot va hamkorlik, meta -kompetentsiyalar va ijodkorlikka asoslanadi. Raqamli texnologiyalar yordamida rivojlanishi mumkin bo'lgan bolalarning nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etishda turli dasturlar yoki raqamli o'yinlardan foydalaniladi. Ttengdoshlari, shuningdek, bolalar uchun mos dasturiy ta'minotga ega maktabgacha ta'lim muassasalarida nutq va tilni tuzatish ishlarida texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari, albatta, yaratilishi kerak.

Kognitiv harakatlar endi ketma -ket emas, balki parallel ravishda sodir bo'ladi. Va an'anaviy ta'lim u tayyor emas, o'tmishda ishlatilgan usul va metodlar bu bolalarga ko'rinadi. Raqamli texnologiyalarni takomillashtirish orqali, turli yo'llar bilan o'qitish, bolalarga faol bo'lishga imkon berish, o'quv jarayonining ishtirokchilari bo'lishlari va eng muhimi nutqi ravon bo'lishida yordam beradi. Texnologiyadan foydalanganda maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisi qanday usulda va qancha vaqtga tashkil etish kerakligi haqidagi bilim va tushunchaga ega bo'lishi kerak. Bolalar nutqi va tilni tuzatishda raqamli texnologiyalardan foydalanish

maktabgacha ta'lim muassasasida keng foydalaniladi. Bu strategiyalar video o'yinlarni o'ynashga o'tkazildi, ikkinchisi esa birgalikda o'ynash deb nomlanadi. Bu strategiyada bolalar strategiyasi va tillaridan ham foydalanish mumkin.

Tadqiqotlarga ko'ra, bola uchun elektron muhit yordamida tuzatish foiz, o'sish dinamikasi o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori va zamonaviy bolalarning ehtiyojlarini qondiradi. Hozirgi vaqtda bolalarning nutq faolligini faollashtirish va tuzatishda qo'llaniladi. Ko'pincha materiallar bolalarni qiziqitira olmaydi, ijobiy his -tuyg'ularni, harakat qilish istagini uyg'otmaydi. Til va nutqni rivojlantirish uchun maqsadli raqamli materiallar yetishmayapti. Modernizatsiya qilish uchun yangi raqamli vositalarni yaratish to'g'risida ehtiyojlarga mos keladigan o'zgaruvchan pedagogik va tuzatish ish jarayoni til tizimini rivojlantirish va tovushli artikulyatsiyani kuchaytirishga qaratilgan va logoped, bolaning ota -onasi va bola o'rtasida hamkorlikda yagona tizimni shakllantiradi. Raqamli vositalardan foydalanish logopedlarning faqat bir qismi uchun odatiy holga aylandi. Nutq terapevtining asosiy maqsadi - bolaning nutqi va tilini faol ravishda tuzatish o'z-o'zini rag'batlantirish va o'zini tuta bilishni rivojlantirishda ishtirok etadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar - bu pedagogik vositalardan biri va shaxslararo o'zaro ta'sirlarni to'liq almashtiradi, lekin ulardan maqsadli foydalanish bolaning nutq va tilni tuzatish jarayonida ishtirok etishiga ko'maklashishi mumkin. Bu bolalarning o'zi uchun qiziqarli va foydali hisoblanadi. Hozirgi maktabgacha yoshdagi bolalar tezkor muloqot va grafik muhitni xohlaydilar, lekin unday emas yangi aqlli texnologiyalarni sinab ko'rishdan qo'rqadi. Yaxshi tashkil etilgan ta'lim, kontent, texnologiya va o'quvchilar bir -biri bilan o'zaro aloqada bo'ladigan muhit hisobga olingan holda shaxsiylashtirilgan pedagogik va tuzatish ishlarini amalga oshirishda raqamli texnologiyalar qo'l keladi. Raqamli texnologiyalar erta o'qish ko'nikmalarini oshirishga va bolalar nutqidagi kamchiliklarni korreksiyalashda yordam beradi.

REFERENCES

1. Gros, B. (2016). The Alexander, R. (2008). Towards Dialogic Teaching: rethinking classroom talk (4th Edition). York: Dialogos.
2. Bennett, S., Maton, K., & Kervin, L. (2008). The "digitalnatives" debate: A critical review of the evidence. British journal of educational technology, 39(5), 775-786. Retrieved from <https://ro.uow.edu.au/cgi/viewcontent.cgi?article=2465&context=edupaper>

3. Bowman, B., Donovan, M.S., & Burns, M.S. (Eds.) (2000). Eager to Learn: Educating Our Preschoolers (Washington DC, National Academy Press). Retrieved from www.nap.edu/books/0309068363/html/
4. Ching, D., Shuler, C., Lewis, A., & Levine, M. (2009). Harnessing the potential of mobile technologies for children and learning. Mobile technology for children: designing for interaction and learning,. 23-42 doi: <https://doi.org/10.1016/B978-0-12-374900-0.00002-8>

“HAYRAT UL-ABROR” DOSTONINING O‘RGANILISH TARIXI

Behzod Rustamov

Navoiy davlat pedagogika instituti doktoranti

+998973781316

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada “Xamsa” va uning birinchi kitobi “Hayrat ul-abror” dostonining o‘rganilish tarixi to‘g‘risida ma‘lumotlar berilgan. Bundan tashqari maqolada tarixiy, tahliliy va qiyosiy metodlardan samarali foydalaniladi.

Kalit so‘zlar: *xamsa, tasavvuf, doston, qo‘lyozma*

АННОТАЦИЯ

В этой статье представлена информация об истории изучения Хамсы и его первой книге Хайрат уль-Аброр. Кроме того, в статье эффективно используются исторический, аналитический и сравнительный методы.

Ключевые слова: *xamsa, мистика, эпос, рукопись*

ABSTRACT

This article provides information on the history of the study of Hamsa and his first book, Hayrat ul-Abror. In addition, the article makes effective use of historical, analytical and comparative methods.

Key words: *hamsa, mysticism, epic, manuscript*

KIRISH

Sharq xalqlari tafakkuri tarixida chuqur ildiz otgan tasavvuf ta‘limotini yaxshi bilmay turib, Alisher Navoiy dunyoqarashi va adabiy merosini barcha murakkabliklari, falsafiy teranlig‘i bilan to‘liq holda to‘g‘ri, haqqoniy yoritib berish mushkul. Nazarimda, bu masala hamon hal bo‘lmasdan dolzarbligini saqlab qolmoqda. Chunki hozir ham ulug‘ shoir asarlarini “kerakli” va “keraksiz” qismlarga ajratish, orifona mazmundagi she‘rlarini nashrlardan soqit qilib, el ko‘zidan yashirish, “payqamasdan” tadqiqotlarga kiritmaslikka moyillik davom etmoqda. Ba‘zan esa, so‘fiyona ma‘nolarni anglab yetmaganimiz sababli, Bu hol Navoiy dahosini, olamining bepoyonligi va ulug‘vorligini muazzam salohiyati ham ko‘rkamligi bilan idrok etishga xalaqit beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqot jarayonida tarixiy, tahliliy va qiyosiy metodlardan samarali foydalaniladi. Tadqiqot jarayonida Alisher Navoiy dunyoqarashi va adabiy merosini

barcha murakkabliklari, falsafiy teranligi bilan to'liq holda to'g'ri yetkazib berish asosiy vazifalardan qilib belgilangan. Mavzuning dolzarbligini bayon qilishda "Hayrat ul-abror" 1989-yilda chop etilgan nashri metodolik manba sifatida olindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ma'lumki, Alisher Navoiy o'zining buyuk "Xamsa"si bilan o'zbek tili va adabiyoti tarixida o'ziga mangu muhr qo'ydi.

"Xamsa"ning birinchi kitobi "Hayrat ul-abror" dostoni to'g'risida ancha ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Ularni qiyosiy o'rganib, tahlillar darajasini, ular o'rtasidagi tafovutlarni aniqlash masalasiga e'tibor berilmagan.

Ma'lumki, buyuk mutafakkir "Xamsa"ni 1483 yilda yoza boshlab, uni uch yil deganda tamomlagan[1: 2]. Birinchi kitob "Hayrat ul-abror" qachon yozib bitirilgani to'g'risida shoir bunday xabar beradi:

*Hayroti abror ko'rib zotini,
"Hayrat ul-abror" dedim otini.
Nuqtai tarixiki, ahson edi,
Sakkizu sakkiz yuzu sekson edi.*

Demak, "Hayrat ul-abror" hijriy 888-yil, milodiy hisobda esa 1483-yilda yozilgan.

Hiroflik Abdujamil ismli kotib Navoiy tomonidan yozilgan "Xamsa"ning bitgan qismlarini birin-ketin qog'ozga ko'chirib borgan. Ana shu qo'lyozma hozir Toshkentdagi O'zbekiston Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomli Sharqshunoslik institutida 5018 raqamli kortatekada saqlanadi.

Navoiy "Xamsa"sining yana bir nodir qo'lyozmasi Sankt-Peterburgda Saltikov-Shchedrin nomidagi Davlat kutubxonasida saqlanadi. U Hirotning mashhur xattoti Sultonali Mashhadiy tomonidan 1492-yili ko'chirilgan.

Navoiy hayot paytida ko'chirilgan "Xamsa"ning to'rt qo'lyozmasi bizgacha etib kelgan.

Keyingi asrlarda "Xamsa" ko'p marotaba ko'chirib yozilgan, litografik va tipografik usulda nashr qilingan.

Hozir faqat O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomli Sharqshunoslik institutining o'zida Navoiy "Xamsa"sining 75 qo'lyozma nusxasi bor. Bular XV asrdan to XIX asrgacha bo'lgan davrda ko'chirilgan qo'lyozmalardir. Ulardan eng muhimlari Abdujamil kotib qalamiga mansub bo'lgan qo'lyozma, XV asr oxiri va XVI asr boshlarida Hirotda ko'chirilgan № 1679 II qo'lyozmalardir. "Xamsa" qo'lyozmalarining geografiyasi ham keng. Uning O'rta Osiyo va umuman, Sharqning deyarli barcha shaharlarida ko'chirilgani va tarqalgani ma'lum. "Xamsa"

qo‘lyozmasini ko‘chirtirish oson bo‘lmagan. Bu ish ancha diqqat e‘tibor va mablag‘ni talab etar edi. “Xamsa” qo‘lyozmasining tayyorlagan shaharlarda ana shunday imkoniyatga ega adabiy muhit mavjud bo‘lganidan dalolat beradi. [2: 56] Yana bu adabiy muhitda Navoiy ijodi, uning “Xamsa” asariga qanchalar ahamiyat berilganini ham ko‘rsatadi. Navoiy “Xamsa”sining toshbosma nashri 1878-88 yillari Xorazmda amalga oshirilgan. “Xamsa” 1894, 1895 yillari toshbosma usulida Toshkentda ham nashr qilindi.

Navoiy “Xamsa”sining nasriy bayonlari ham Toshkentda bir necha bor bosib chiqarilgan. 1960 yili “Xamsa”ning Porso Shamsiev tayyorlagan to‘la tanqidiy matnini O‘zFA nashriyoti chop etgan.

O‘zFA Beruniy nomli Sharqshunoslik institutida Navoiy “Xamsa”sining birinchi kitobi “Hayrat ul-abror”ning alohida o‘n uch qo‘lyozmasi bor. Ular asosan XIX asrga oid bo‘lib, ettitasi Xorazmda, qolganlari Buxoro, Samarqand, Qo‘qon, Sariko‘l shaharlarida ko‘chirib yozilgan. Mavjud ishonchli qo‘lyozmalar asosida “Hayrat ul-abror”ning ilmiy tanqidiy tekstini birinchi marta tilshunos olim Solih Mutallibov tayyorlagan.

“Hayrat ul-abror” o‘n besh jildli Navoiy asarlari to‘plamining oltinchi jildidan o‘rin oldi (“Toshkent” badiiy adabiyot va san‘at nashriyoti, 1995). Bu kitobni Porso Shamsiev nashrga tayyorlagan, mas‘ul muharriri Abduqodir Hayitmetov.

“Hayrat ul-abror”ning rus tiliga qilingan badiiy tarjimasini Abduqodir Hayitmetovning so‘zma so‘z tarjimasida shoir V.V.Derjavin amalga oshirdi. Bu asar Navoiyning rus tilida bosib chiqarilgan o‘n jildli asarlar to‘plamining III jildida joylashgan (T.,1968).

1974 yili Toshkentda “Hayrat ul-abror”ning hozirgi o‘zbek tilidagi sharhi e‘lon qilindi. Bu sharhni ham Abduqodir Hayitmetov tuzgan.

Navoiy asarlarining 20 jilddan iborat to‘plamida “Hayrat ul-abror” 7-chi jildni tashkil etadi.

A.Hayitmetovning “Navoiyning adabiy-tanqidiy qarashlari”, “Navoiyning ijodiy metodi” va boshqa qator asarlarida “Hayrat ul-abror”ning g‘oyaviy va badiiy xususiyatlari to‘g‘risida muhim mulohazalar bayon etilgan. [3: 43]

“Hayrat ul-abror” to‘g‘risidagi ilmiy tadqiqotlar orasida O‘zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi V.Y.Zohidovning “Мир идей и образов Навои (t., 1967) va “Улуғ шоир ижодининг қалби” (T., 1997) kitoblari alohida o‘rin tutadi. Unda Navoiy ijtimoiy fikrlarining “Hayrat ul-abror”dagi bayoni shoirning boshqa asarlaridagi qator misollar bilan birgalikdagi Navoiy tafakkurining mohiyatini ko‘rsatishda muvaffaqiyat bilan istifoda etilgan.

Akademik I.Sultovning “Навоийнинг қалб дафтари” (Т., 1969) “Хамса”ning yaratilishi to‘g‘risidagi bobda “Найрат ул-аброр” haqida ham so‘z boradi. Filologiya fanlari doktori A.Abdug‘afurovning “Навоий сатираси” (Т., 1966) va “Навоий ижодида сатира” (Т., 1972) asarlarida “Найрат ул-аброр”dagi satirik obrazlar to‘g‘risida qimmatli mulohazalar bor.

Oybek o‘zining “Навоий гулшани” китобида” kitobida (Т., 1967) “Хамса”ning boshqa dostonlari qatori “Найрат ул-аброр” tahliliga qisqa, ammo juda mazmundor bir bob bag‘ishlagan “Навоий гулшани” китобида” Oybek asarlarining 9 jildida qayta nashr qilindi (Т., 1974). Adabiyotshunos Т.Jalolov “Хамса” talqinlari kitobida (Т., 1996) “Хамса” dostonlari to‘g‘risida bayon etgan. Unda “Найрат ул-аброр”ga alohida bo‘lim ajratgan. Bu asar Т.Jalolovning “Нафосат оламида” kitobiga ham kiritilgan (Т., 1974).

Navoiy “Найрат ул-аброр”i va uning Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Jomiylar “Хамса”sining birinchi kitoblari bilan qiyosiy tahlili professor N.M.Mallaevning oliy maktablar yozilgan “Ўзбек адабиёти тарихи” darsligida alohida o‘rin tutgan. Unda muhtaram olim o‘quv dasturi doirasida “Найрат ул-аброр” asarining mazmuni-mohiyati va g‘oyalarini talqin etgan. Bu doston M.Muhitdinov tomonidan Xusrav Dehlaviy asari bilan qiyosiy tahlil etilgan. [4: 76]

Rus tilida “Найрат ул-аброр” to‘g‘risidagi muhim fikrlar professor E.E.Bertelsning “Навои” monografiyasida (М., 1948) mavjuddir. Bu asar E.E.Bertels Tanlangan asarlar to‘plamining “Навои и Джами” jildida qayta nashr etilgan (М., 1965) yana Oybek va Al. Deych tomonidan yozilgan “Алишер Навоий” kitobida (Т., 1968) “Хамса” to‘g‘risidagi bobda “Найрат ул-аброр”ga alohida o‘rin ajratilgan.

XULOSA

Insonning asrlar davomida abadiy hayot, ruhning o‘lmasligi haqida o‘ylab kelgan armonlari, rivoyat-asotirlar bu behudud romantik olam ufqini kengaytirishi bevosita tasavvuf ta’limoti bilan bog‘liqdir.

Ko‘rinib turibdiki, Navoiy “Хамса”sining birinchi kitobi “Найрат ул-аброр” to‘g‘risida anchagina ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Ammo ularning hammasi, umuman, Navoiy ijodiga yoki unda “Хамса”ning tutgan o‘rniga oid ishlarga tegishlidir. “Найрат ул-аброр”ning mazmuni, uning g‘oyaviy yo‘nalishi, obraz va personajlar tahliliga maxsus bag‘ishlangan tadqiqot yaratilgan emas. Doston haqidagi maxsus ishlar hozirgacha faqat “Найрат ул-аброр”ning ayrim nashrlariga yozilgan so‘z boshi yoki so‘nggi so‘zdan iborat bo‘lib keldi.

REFERENCES

1. Алишер Навоий. “Ҳайрат ул-аброр” достони. Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт, 2006.
2. Алишер Навоимй. “Ҳайрат ул-аброр” достони. Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт, 1989.
3. Алишер Навоий. Танланган асарлар. 15 томлик. 13-том. –Тошкент: Фан, 1997.

AMIR TEMUR BOLALIGI

Tursunova Nilufar Hamroqul qizi

Jizzax Davlat Pedagogika instituti talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola buyuk sarkarda, adolatli hukmdor Amir Temurning yoshlik davriga bag'ishlanadi. Buyuk bobokalonimizning qudratli hukmdor bo'lishi taqdiriga bitilganligi, ilohiy qudrat orqali ayon bo'ladi. Buyuklikka erishishida bolalikda egallagan bilim va saboqlarining to'g'risida so'z boradi. Maqolaning ahamiyati yoshlarda vatanparvarlik, har bir buyuklik ortida qattiq mehnat va metin sabr, ilm yotganligini anglatish, odil podsho bo'lgan Amir Temurning bolalik hayoti haqida yoshlarda ko'nikma hosil qilish.

Kalit so'zlar: *Chig'atoyxon, Movarounnahr, Yettisuv, Qo'shgar, Shimoliy Afg'oniston, Kepakxon, orlot, jaloyir, qovchin, barlos, Qorachor no'yon, Ijil no'yon, Ilangiz no'yon, Amir Tarag'ay, Qochuvli Bahodir, Shayx Zayniddin, Takina xotun, Qur'oni Karim, "Al-Mulk", "Tamur", Abdulloh Qutb madrasasi, Amir Kulol, Shayx Shamsuddin Kulol, "samo" marosimi, Samir Tarxon, "Masnaviyi ma'naviy", "Gulshanni roz", Jaloliddin Rumi, Musaviy dini, Islom.*

ABSTRACT

This article is dedicated to the youth of the great commander, just ruler Amir Temur. The destiny of our great ancestor to be a powerful ruler is revealed by divine power. Growing up is about the knowledge and lessons you learn as a child. The purpose of the article is to show the youth patriotism, hard work and perseverance, knowledge behind every greatness, to develop in young people the skills of the childhood of the just king Amir Temur.

Keywords: *Chigataykhan, Movarounnahr, Yettisuv, Koshgar, Northern Afghanistan, Kepakhon, Orlot, Jalayir, Qovchin, Barlos, Karachor Noyon, Ijil Noyon, Ilangiz Noyon, Amir Tarag ay, Qachuvli Bahodir, Sheikh Zayniddin, Takina Khotun, Quran, "Al-Mulk", "Tamur", Abdullah Qutb Madrasa, Amir Kulol, Sheikh Shamsuddin Kulol, "Samo" ceremony, Samir Tarkhan, "Rose of Gulshan", Jalaliddin Rumi, Mousavi religion, Islam.*

АННОТАЦИЯ

Эта статья посвящена молодости великого полководца, правителя Амира Темура. Судьба нашего великого предка быть могущественным правителем открывается божественной силой. Взросление - это знания и уроки, которые вы усвоили в детстве. Цель статьи - показать молодежи, что патриотизм,

трудолюбие и упорство лежат в основе всякого величия, знаний, и рассказать молодежи о детстве справедливого царя Амира Темура.

Ключевые слова: Чигатайхан, Мовароуннахр, Йеттисув, Кошгар, Северный Афганистан, Кепакхон, Орлот, Джалаир, Ковчин, Барлос, Карачор Нойон, Иджил Нойон, Илангиз Нойон, Амир Тарагай, Аль Качувли Баходир, Шейх Зайниддин, Шейх Зайниддин -Мулк », « Тамур », медресе Абдуллы Кутб, Амир Кулол, Шейх Шамсуддин Кулол, церемония « Само », Самир Тархан, « Роза Гульшана », Джалалиддин Руми, религия Мусави, ислам.

KIRISH

Chig'atoyxon avlodi Movarounnahr, Yettisuv, Qo'shg'ar, Shimoliy Afg'onistonni o'z tarkibiga biriktirgan va tarixda Chig'atoy ulusi nomi ila maashxur bo'lgan davlatni 140 yil idora qildi. Lekin Kepakxongacha xonlar Movarounnahrga ko'chib kelishmadi.

Amir Temur avlodlari Qorachor no'yon, keyin uning o'g'li Ijil no'yon so'ng Ilangiz no'yon, undan keyin amir Berkal o'z uluslarini boshqarib kelishgan. Chig'atoy ulusidagi to'rt qabila: orlot, jaloyir, qovchin, barloslar ichida eng kuchlisi va nufuzlisi barloslar bo'lgan. Amir Berkal Amir Temurning bobosi Amir Tarag'ayning otasi bo'lgan. Amir Tarag'ay bahodir, yumshoq ko'ngil, raiyatparvar, mo'min musulmon odam edi [Bo'riboy Ahmedov " Amir Temur " Toshkent "Abdulla Qodiriy xalq merosi" 1995-y 7-bet].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Rivoyatlarga ko'ra, kunlardan bir kuni sohibqironning sakkizinchi bobosi Qochuvli Bahodir tush ko'ribdi, tushida uning qo'ynidan bir yulduz uchib chiqib jamol ko'rgizibdi va shu zahotiyiq so'nibdi, keyin ikkinchisi, uchinchisi, to'rtinchisi yarqirab chiqibdi, bari so'naveribdi. Bu hol yetti marta takrorlanibdi. Biroq sakkizinchi martasida katta porloq yulduz otilib chiqibdi-yu, butun dunyoni yoritib yuboribdi. Mana shu yulduz Amir Temur yulduzi deb taxmin qilinadi. Undan yana bir necha kichik yulduzlar paydo bo'libdi, kata porloq yulduz mag'ribga bosh qo'yib so'ngandan so'ng kichik yulduzlar porlashda davom etibdi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tongda quyosh chiqishi yaqinlashgani sari uning qutlug' nurlaridan olam yorug'roq va yarqiroq bo'ib boradi. Amir Tarag'ayning butun e'tibori musulmonchilikni mustahkamlash va takomillashtirilganiga qaratilgani uchun davlat hududi doim ulamo-yu, fuzalo hojatlarning ado etish qiblasi va oliy majlisi va

solihlar fuqarolar yig'ingohi bo'ldi [Omonulla Bo'riyev "Amir Temur ajdodlari" Toshkent "Qomuslar" 1992].

Amir Temurning otasi Tarag'ay o'rtahol yerlik kishi edi. U kishi Amir Temur tug'ilmasdan oldin tush ko'radi. Unda farishtasifat kishidan qilich oladi va uni to'rt tomonga siltab turgan holda uyg'onadi. Oradan bir yil vaqt o'tib Amir Temur tug'iladi. Uning ismini Shayx Zayniddin tanlab beradi. Bu ism Qur'oni Karimning oltmish yettinchi surasi "Al-Mulk" ning bir oyatidagi "Larza" so'zidan arabchada "Tamur" deb talaffuz qilinadi va Temur so'ziga yaqin [Marsel Brion, Zabihulloh Mansuriy "Men kim, fotih Temur" Toshkent "Yangi kitob" 2019-y 14-bet].

Amir Temur Kesh viloyatidagi Xo'ja Ilg'or qishlog'ida 1336-yil 9-aprel kuni tavallud topgan. Amir Temurning onasi Takina xotun Kesh yurtining obro'li bekalariddan hisoblangan [A. Muhammadjonov "O'zbekiston tarixi 7-sinf" Toshkent "Sharq" 2017-y 109-bet].

Bobomiz qo'llarida ham yozib ham qurol bilan mashq bajarganlar. U madrasaga borganda shu qadar kichik bo'lganki, lavha-taxtaga mumni o'zi surtolmagan. Dastlabki o'qituvchisi mulla Alibek bo'lgan. Mulla Alibekning tishlari to'kilib ketganidan harflarni yaxshi talaffuz qilmagan va bolalar harflarni g'alati o'rgangan. O'qituvchi bolalarni darsni ko'ngildagidek bajarmasa kaltaklagan biroq Amir Temur kaltaklardan benasib qolgan. Chunki Amir Temur o'qituvchisi aytgan narsasini o'qib yozar edi. Keyin yetti yoshlarida Shayx Shamsiddin maktabxonasiga boradi. U yerda Qur'onni o'qib ash'or ham o'rganadi. Shu bilan birga ot minishni ham mashq qildi [Marsel Brion, Zabihulloh Mansuriy "Men kim, fotih Temur" Toshkent "Yangi kitob" 2019-y 23-bet].

Amir Temur yoshligidanoq aql-idrokli, bahodir va kelajagi porloq siymo sifatida tanildi. Mavlono Lutfilloh Nishoburiy aytishicha, Temur yetti yoshligida otasi bilan qarindoshlarinikiga boradi. Bu qarindoshi ko'p molar va qullarga ega bo'lib doimo xavotirda yashar ekan. U Amir Tarag'ayga: "Xudo menga mol-davlat berdi, lekin uni saqlashga ojizman, qullarim sabrli-toqatli emas, farzandlarim salohiyatsiz. Shu sabali mol-u davlatimga ziyon yetishidan qo'rqaman" – debdi. Temur gapga aralashib debdi: "Ey, ota farzandlaringga mol-davlatini bo'lib ber va undan so'ng ularning o'z mulkiga dahl qilgilkim, ular o'zlari bilan ovora bo'lsin. So'ng turk qullarni hind qullarning tepasiga qo'ygilkim, hindlarni o'z amr-farmonlariga bo'ysundirsinlar. Keyin har uch qulni ulardan aqlliroq bir qulning ixtiyoriga topshir. So'ng ularni har birini yettitadan amiri qil. Keyin yetmish qulga bosh bo'lgan yettita qulni bir-birining ta'zim va tarifiga buyur. Ularni ko'zdan qochirma. Chunki ular bir-birlari bilan ko'p suhbatlashadi. O'sha kishi Amir Temur aql-zakovatiga qoyil qolib uning otasiga

debdi: "...Sening bu farzanding jahonga podsho bo'ladi, chunki buni uning shu gaplaridan fahmlab turibman...". So'ng siyohdon va qalam hozirlabo'sha suhbatda Temurdan xat yozdirib oldiki, bunda "uning farzandlari, zurriyodlari va yaqinlaridan xiroj olmasinlar, gunohidan o'tsinlar, uning qavmi tarxon qilinsin".

Temur taxtga chiqqandan so'ng o'sha va'dasida turib o'sha badavlat kishining avlodlariga tarxon unvonini beradi [Hamid Ziyoyev "Buyuk Amir Temur saltanati va uning taqdiri" Toshkent "Ma'naviyat" 2008-y 61-bet].

Zehni o'tkir bo'lgan Amir Temur yoshlik chog'ida Qur'onni 3 yilda yodlab oladi. Keyin Temur ta'lim olish uchun Abdulloh Qutb madrasasiga bordi. Bu madrasada o'qiyotgan kezlari o'zi bilan o'qiydigan yigitni o'ldirib qo'yadi. Chunki u aytgan so'zlar shariatimizga va Chingizxon yarasiga solib ko'rilganda ham o'lim hukmi berilmog'I lozim edi. Bu voqeani Abdulloh Qutbga aytadi. Amir Temurning ustozlari uning gaplarini eshitib, uning bajargan ishi to'g'ri ekanligini aytadi [Marsel Brion, Zabihulloh Mansuriy " Men kim, fotih Temur " Toshkent " Yangi kitob " 2019-y 23-bet].

Temurbek o'n ikki yoshda "poshsho-vazir" o'yinini o'z do'stlari bilan maroq bilan o'ynashni yoqtirgan. Bu o'yinda Temur "podsho", qolgan do'stlarini har biriga bir "mansab" beriladi. Jumladan o'yin o'ynash chog'ida Temur "gunohkor" odamni jazolab "yurt" boshqarardi [www.temurtuzuklari.uz]

U tezda o'q otish, o'tlanib chopishni o'rganadi va urush o'yinlariga mayl ko'rsatadi. Temurbek ovga shu qadar bog'lanib qoladiki, hatto kecha-yu kunduzlarni ovda o'tkazishi mumkin edi. U o'spirinlik va yoshlik yillaridagi bu sport o'yini va harbiy mashg'ulotlari bilan otasi Amir Tarag'aybekka xizmat qilgan maxsus murabbiylar yordamida shug'ullangan [old.uza.uz]

Abdulloh Qutb madrasasidan so'ng Temur Amir Kulolga shogirdlikka tushadi. Amir Kulol ismining tarkibi bo'lmish "amir" lik mansabni emas, oriflar avlodidan ekanligini anglataadi. kulollik uning kasbi bo'lgani uchun hunarmandlar "pirimiz" deb ehtirom etadilar. Amir Temur uning yoniga borganda 80 yoshlarda edi. Uzun soqolli, ko'zlari chaqnab turgan bir kishi edi [Marsel Brion, Zabihulloh Mansuriy " Men kim, fotih Temur " Toshkent " Yangi kitob " 2019-y 23-bet].

Taxminan 14-20 yoshlar orasidagi o'spirin Temurbek juldur choponda Shayx Shamsuddin Kulol huzuriga keladi. Bu paytda shayx atrofdagi darveshlar bilan zikr tushayotgan ya'ni tasavvufda xudonni yodga olish bilan bog'liq "samo" marosimini ijro etayotgan edi. Temur zikr tugashini kutadi. Nihoyat zikr tugab, shayx uning yoniga kelganida, Temur tiz cho'kib, peshonasini uning oyog'iga qo'yadi va shayxning qo'lini o'padi. Shunda Shayx Shamsuddin Kulol darveshlar bilan

Temurning haqqiga duo qiladi. Keyinchalik Temur bu duoni o'z muvaffaqiyatlari sababchisi deb biladi[www.arxiv.uz]

Amir Temur ilm bilan birga har xil jismoniy o'yinlarga ham qiziqqan buyuk bobomiz chaqqonlikni kasb etgan. Yohliklarida uch otni yondostirib chopib birinchisidan uchinchisiga, uchinchisidan birinchisiga sapchib minishni yoqtirardi. Otning taqasini ham o'zi qo'ygan. Yana boshormon chopayotgan otda egar ustidan otning yonboshiga tushib ko'zdan g'oyib bo'lardi. Urush paytlari bu uslub juda qo'l kelgan. Chunki dushman o'q uzsa, ot o'lsa ham Temur o'zini asrab qolardi. Suvda ham yaxshi suzgan. Masalan, Jayhun daryosining u tomonidan suzib, narigi qirg'og'iga o'tganlar. Yarim yovvoyi otlarni qo'lga o'rgatishga ham usta bo'lgan. Agar otga kamand tashlamoqchi bo'lsa o'zini boshqa ot qasdidadek ko'rsatib, vaqtni boy bermay mo'ljallangan ot bo'yniga kamand tashlar edi. Shuningdek, Temur tib ilmi va nujum faniga beparvo bo'lgan. Keyinchalik ham bu fanlardan bexabar qolgan [Marsel Brion, Zabihulloh Mansuriy " Men kim, fotih Temur " Toshkent " Yangi kitob " 2019-y 21-bet].

Temur otasi Tarag'ay mohir ustodlardan bo'lgan Samir Tarxon degan kishini yuqori darajada va fanniy tariqada qilich chopishni o'rgatish uchun da'vat qildi. Samir Tarxon birinchi kuniyoq Temurning bir qo'lini bog'lab, shunday deydi: "Temur endi bir qo'llik kishi bo'lding. Urush maydonida dushmanlar qilichlashar ekan, narigi tarafning kerakli bo'lgan o'ng qo'lini ishdan chiqarishga urinadi. Bunga bir o'q yoki bir nayza hamlasi kifoya qiladi. shunday o'ng qo'lini ishlatib yurgan jangchi har qanday o'likdan farqi bo'lmay qoladi. Ikkinchi qo'lini ishlatishi bilan ikki kishilik o'rinni egallaydi", - dedi.

Samir Tarxon chap qo'lda qurolni ishlatishni Temurga o'rgatadi. O'sha davrlarda harb ilmi bilan birga forsiy tildagi ikkita kitob bo'lib, biri "Masnaviyi ma'naviy", ikkinchisi "Gulshanni roz" deb nomlangan. "Masnaviyi ma'naviy"ni Temur yoqtirmagan. Lekin "Gulshanni roz"ni o'qib zavqlangan.

Jaloliddin Rumiyning "Masnaviyi ma'naviy" asarini yoqtirmaslik sababi unda mahablarning barchasini azoblardan xalos, har qanday dinni ehtirom etish kerak, hech birining ortiq joyi yo'q deb ta'rif etiladi. Amir Temur bobomiz esa islom dinini barcha dinlardan baland deb hisoblaydi. Bunda ularni shunday taqqoslaydi:

"Musaviy dinida dunyoga tavajjuh qilinib, narigi dunyoga e'tibor berilmaydi. Go'yo u dunyo yo'qdek. Isaviylrda esa faqat ohiratga tavajjuhlari bog'lanib dunyo ishlariga o'rin berilmagan. Islom dinida esa dunyo va ohirat fikrida bo'lish tavsiya qilinadi[Marsel Brion, Zabihulloh Mansuriy " Men kim, fotih Temur " Toshkent " Yangi kitob " 2019-y 28-bet].

Temur o'spirin davrlari-yu taxtga o'tirganidan so'ng ham ichkilikka berilmagan. Ilmga qiziqqan vat oat-ibodat qilgan. Qur'oni Karimni o'qigan hamda kambag'al faqirlar holidan xabar olib, ularning g'amini yegan [Sharafiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma" Toshkent "Sharq" 1997-y]

XULOSA VA TAKLIFLAR

Amir Temur tug'ilishidan oldingi bashorat-u ta'birlarga boqsak, u kishining o'zgacha kishi bo'lib tug'ilganligini ko'rishimiz mumkin. U har bir ishda qobiliyatli, tez o'rganuvchi, ilm-ma'rifatni qadriga yetib undan kerakli vaziyatlarda foydalana bilguvchi edi. Yoniga o'ziga sodiq, bahodir hamda aql sohiblarini yig'a olgan. Bularning ko'pchiligi yoshlikda birga o'sgan do'stlari bo'lgan. Biror muhim tadbir oldidan albatta mashvarat o'tkazgan. Donolar fikrini olgan. Ulug'larni og'a qatorida, kichiklarni farzand o'rnida ko'rgan. Yoshlikda olgan bilimlari, ko'rgan voqea va hodisalardan xulosa chiqarib zaruriy tajribalarni to'plagan. Ustozlarni har bir aytgan so'zlarini tinglab unga amal qilgan. Saboqlar davomida o'zinning qobiliyati va tirishqoqligini ko'rsatib o'qituvchilarini lol qoldira olgan. Harb ilmidagi murabbiylari ham undan xursand bo'lishgan. Amir Temur o'z o'gitlarida: "Menda biron kimsaning haqi bo'lsa, haqinni hech vaqt unutmadim. Biron kimsa bilan tanishgan bo'lsam, uni hech vaqt nazarimdan qoldirmadim",-deydi. Yuqorida keltirilgan misoldan ham va'dasiga sodiq, qat'iyatli kishi ekanligini anglaymiz. Amir Temur bajargan ishlar bilan biz avlodlar faxrlanamiz. Amir Temur - xalqimiz g'ururi, shavkatidir.

REFERENCES

1. Marsel Brion, Zabihulloh Mansuriy "Men kim, fotih Temur" Toshkent "Yangi kitob" 2019-y
2. Sharafiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma" Toshkent "Sharq" 1997-y
3. Hamid Ziyoyev "Buyuk Amir Temur saltanati va uning taqdiri" Toshkent "Ma'naviyat" 2008-y
4. A. Muhammadjonov "O'zbekiston tarixi 7-sinf" Toshkent "Sharq" 2017-y
5. Omonulla Bo'riyev "Amir Temur ajdodlari" Toshkent "Qomuslar" 1992.
6. Bo'riboy Ahmedov "Amir Temur" Toshkent "Abdulla Qodiriy xalq merosi" 1995-y
7. www.temurtuzuklari.uz.

HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIP AND NEWS IN THE FIELD

Turdimurodov Golib Azamatovich

North Caucasian Federal University 2nd year undergraduate

Email: golibturdimurodov999@gmail.com

ABSTRACT

Public-Private Partnership is primarily a combination of financial, technological and management resources in the organization of public and business infrastructures as well as in the provision of socially important services. In such cooperation, relations are restored, as is the cooperation of public and private companies. At the same time, it is imperative and important that the division of risks between participants in the public-private partnership agreement is made clear and clear. Relations in this form need a legislative base, where the powers of state bodies are clearly stated. In this article, we will analyze the stages of development of Public Private Partnership, its history and the views and opinions on news in the field.

Keywords: *Public-Private Partnership, Development, New Laws, plans, state program, business cooperation, socio-economic relations.*

АННОТАЦИЯ

Государственно-частное партнерство - это прежде всего сочетание финансовых, технологических и управленческих ресурсов при организации общественной и деловой инфраструктуры, а также при предоставлении социально значимых услуг. В таком сотрудничестве восстанавливаются отношения, как и сотрудничество государственных и частных компаний. При этом совершенно необходимо и важно, чтобы разделение рисков между участниками договора государственно-частного партнерства было четким и ясным. Отношения в такой форме нуждаются в законодательной базе, где четко прописаны полномочия государственных органов. В этой статье мы проанализируем этапы развития государственно-частного партнерства, его историю, а также взгляды и мнения о новостях в этой области.

Ключевые слова: *государственно-частное партнерство, развитие, новые законы, планы, государственная программа, деловое сотрудничество, социально-экономические отношения.*

INTRODUCTION

According to historical data, the state cooperated with private entrepreneurs at almost all times or was in cooperation. By the Middle Ages, relations between

authorities and private individuals acquired a legal form. The expeditions of Christopher Columbus from 1492 year to 1504 year are a vivid example of such a form of cooperation. The Kingdom presents the title of grain to Christopher Columbus. If he successfully completed the journey, he had the right to manage the lands he occupied and use the minerals of those lands. According to the contract concluded in 1491 year, Columbus received around one-eighth of the costs on his own neck. The financial result of the contract was distributed as follows: 90 percent of imported goods and natural resources were transferred to the government, 10 percent were transferred to the account of Christopher Columbus, in addition to expenses incurred.

DISCUSSION AND RESULTS

What is a public-private partnership?

The simplest-looking scheme of power and private business cooperation is as follows:

- the object of the state social infrastructure (for example, a clinic, a road, a kindergarten, a school, etc.)) announces plans to build or modernize and invites investors to tender.
- The private company that won the competition will finance the project (attract capital), build (or modernize) the construction and manage this object throughout the entire life cycle.
- At the end of the term of the contract concluded between a public and a private company, the object is either transferred to the state according to the conditions contained in it, or remains in the hands of a private company. The state, in turn, makes monthly unitary payments, which include all the expenses, credit interest and income of the private partner.

At present, the funds received from the exploitation of the channel constitute a significant share of the currency that will fall into the treasury of Egypt. The construction of the famous Eiffel Tower in Paris is another vivid example of a concession. In 1887, Alexanderustustav Eiffel entered into an agreement with the municipality of the city of Paris. According to him, the tower is provided for him on the basis of the right to rent on condition of 25 years of use. It is also envisaged to pay a subsidy in the amount of 1.5 million gold francs. This was about 25 percent of the cost of building a minaret. The tower justified its costs on account of the money received from the rent of restaurants, giving the right to sell excortions, tickets sold to the lifts for the exit, souvenirs during the operation.

It is observed that the public-private partnership mechanism of Public-Private Partnership has been actively implemented in more than 130 countries in the last 30 years. According to the World Bank, about 15-20 per cent of private investment in infrastructure projects will be involved with this project. Great Britain, France and Germany are the main leaders in terms of the introduction of a public-private partnership in Europe. In general, the total cost of the EU from 2010 to 2016 is 111 billion rubles. 541 public-private partnership projects were implemented in the amount of Euro. Buda education (156 projects) and transport (111 projects) sectors were one of the priority sectors in public-private partnership projects.

The main initiatives for the development of Public-Private Partnership in Uzbekistan.

Various forms of Public-Private Partnership in Uzbekistan, which have been implemented in the last 25 years, have largely been relevant to some sectors of the economy. Such projects were carried out more often in the oil and gas and mining industries. This is due to the fact that investments aimed at these sectors are considered safer than in other sectors of the economy. The agreement on product taqsimlash is one of the most used forms of Public-Private Partnership in attracting foreign investment to sectors related to mineral resources.

The lack of a single legal framework for cooperation between the state and business is one of the main reasons for the good development of Public-Private Partnership in the Republic. Active implementation of measures and measures to attract the private sector to the construction and modernization of social, transport and communication infrastructure in Uzbekistan began in 2017. The introduction of modern rules of Public-Private Partnership was defined as one of the directions of reforming the system of Public Administration in the strategy of actions for the development of Uzbekistan in 2017-2021.

Measures to support and encourage private partners in the public private partnership system.

Pre-school education:

* submission of land plots on an impartial basis for a period of not less than 30 years;

* sale of vacant public property objects to private partners in the value of "zero" purchases;

* Granting preferential loans at an annual interest rate of 15 to 1 year, including with a grace period of 3 years;

* exemption of private partners from payment of deductions to all types of taxes and state funds for a period of 10 years;

* reduce single social payment by up to 5 percent for a period of 10 years;

* exemption of imported equipment and inventory for kindergarten needs from customs duties for a period of 2 years.

Health care:

* preferential lending for up to 20 years at a rate of 6 percent per annum, not more than 8 percent of the total volume of investments.

Water supply and drainage management:

* exemption from payment of all types of taxes and mandatory payments (except for single social payment) for a period of 3 years;

* exemption from customs duties on imported equipment, parts, parts and materials for a period of 3 years.

The law "on Public-Private Partnership" "describes this type of cooperation as" the cooperation of state bodies and private partners for a certain period of time, legally formalized, based on the unification of their resources for the implementation of a public-private partnership project." Public administration bodies, including on-site executive bodies, participate on behalf of the state as partners, and local and foreign investors as private partners.

CONCLUSION

In conclusion, the equality of the public and private partner before the law, transparency of rules and principles in the process of partnership implementation, competition in the selection of the private sector and the Prevention of equity, discrimination and corruption are the main principles of Public-Private Partnership. The agreement on public-private partnership in Uzbekistan can be concluded for a period of 3 to 49 years. In the near future, the system of Public Private Partnership in our country will be further improved through the above-mentioned legislative projects and state programs.

REFERENCES

1. Чернов С. С., Фильченкова М. В. Государственно-частное партнерство: понятие, признаки, внешние эффекты // Бизнес. Образование. Право. Вестник Волгоградского института бизнеса. 2017. № 3 (40). С. 78–82.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi —O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi PF-4947-sonli Farmoni, www.lex.uz - milliy qonunchilik bazasi.

-
3. Davlat-xususiy sherikchiligi o‘zi nima? Agentlik direktori bilan suhbat.
<https://kun.uz/uz/news/2019/06/04/davlat-xususiy-sherikchiligi-oz-nima-agentlik-direktori-bilan-suhbat>
 4. O‘RQ-537-сон 10.05.2019. Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida.
<https://lex.uz/docs/-4329270>
 5. Davlat-xususiy sherikchilik munosabatlarini rivojlantirishning nazariy jihatlari
Flipbook PDF | DOKUMENT.PUB. <https://dokument.pub/davlat-xususiy-sherikchilik-munosabatlarini-rivojlantirishning-nazariy-jihatlari-flipbook-pdf.html>

USE OF VERNIER DIGITAL LABORATORY IN LESSONS AND LESSON ACTIVITIES

Yusupov Fahriddin Tajimamat o'g'li

Fergana Polytechnic Institute

yusupov.fizika@gmail.com , ORCID:0000-0001-8937-7944

Rakhmonov Tohirbek Imomalievich

Fergana Polytechnic Institute

radiofizik2014@gmail.com, ORCID:0000-0002-6080-6159

Tolaboyev Dilmuhammad Xayitali o'g'li

Fergana Polytechnic Institute

dilmuhammad00056@gmail.com, ORCID:0000-0001-6248-845X

Xidirov Dadaxon Sherqo'ziyevich

Fergana Polytechnic Institute

dadaxon89@gmail.com, ORCID: 0000-0003-1391-4250

ABSTRACT

The new task of the school was to form a system among school students, a universal movement, as well as experimental, research, organizational independent work experience and personal responsibility of students, to make learning goals personally important, education powers that define new content. The purpose of the article is to explore the possibilities of using Vernier digital laboratory to develop school students research skills. The research activity involves several steps, ranging from defining the goals and objectives of the research, proposing a hypothesis, conducting the experiment, and presenting it.

Keywords: *Vernier digital laboratory, assessment, optimal combination, digital laboratory mobility, special software, digital microscope*

АННОТАЦИЯ

Новой задачей школы было формирование системы среди школьников, универсального движения, а также экспериментального, исследовательского, организационного независимого опыта работы и личной ответственности учащихся, чтобы сделать цели обучения лично важными, образовательные силы, определяющие новое содержание. Цель статьи - изучить возможности использования цифровой лаборатории Вернье для развития исследовательских навыков школьников. Исследовательская деятельность включает в себя несколько шагов, начиная от определения целей и задач исследования, предложения гипотезы, проведения эксперимента и его представления.

Ключевые слова: цифровая лаборатория Вернье, оценка, оптимальная комбинация, мобильность цифровой лаборатории, специальное программное обеспечение, цифровой микроскоп.

INTRODUCTION

Physics is called experimental science. Many laws of physics are discovered through the observation of natural phenomena or special stage experiments. Experience confirms or refutes physical theories. The sooner a person learns to conduct physical experiments, the more he can hope to become an experienced physicist.

The teaching of physics is a conducive environment for the application of a systematic activity approach, starting with a physics course, based on the specific features of the science. high school includes sections, and learning and understanding them requires advanced imaginative thinking, analysis, and comparison skills.

Particularly effective methods are the use of new information technologies, experimental and project activities, problem-based learning, such as modern elements educational technologies. These technologies allow the adaptive learning process to create the preconditions for the child's participation in the regulation of their learning activities, depending on the individual characteristics of students, the content of education of varying complexity. Only by engaging in the process of scientific knowledge in the field of educational physics can a student's level of motivation be increased. Experiments are one of the most important ways to motivate students, because the ability to experiment is the most important skill. This is the pinnacle of physical education.[1]

The experience of physics allows the practical and theoretical problems of the course to be combined into one whole. As they listen to the learning material, school children begin to get tired and lose interest in the story. Physical experience, especially independent experience, alleviates the inhibitory state of the brain in children. During the internship, students are actively involved in the work. It helps to develop students' skills of observation, comparison, generalization, analysis, and inference. The student physics experiment is a method of general education and polytechnic preparation of schoolchildren. It should be short-lived, easy to set up, and clearly focused on mastering and applying the training material.

METHODOLOGY

The experience allows students to organize independent activities, as well as develop practical skills and competencies. My methodical piggy bank includes 43 frontal experimental assignments for seventh grade only, excluding software lab work.

During an entire lesson, the absolute majority of students will be able to complete and complete only one experimental task. So I chose the smaller experimental tasks they do not take more than 5-10 minutes.

Experience has shown that conducting frontal laboratory work, solving experimental problems, performing short-term physical experiments is several times more effective than answering questions or working on textbook exercises.

But, unfortunately, it is not possible to show many phenomena in a school physics classroom setting. For example, these are micro world events or fast-moving processes or experiments with non-laboratory instruments. As a result, students have difficulty learning because they cannot mentally imagine.

In this case, the computer comes to the rescue, which can not only create a model of such events, but also allow. The modern educational process cannot be imagined without the search for new, more effective technologies that contribute to the formation of self-development and self-education skills. Project activities fully meet these requirements. The purpose of teaching project work is to develop students' independent activities aimed at learning new experiences. It is the involvement of children in the research process that activates their cognitive activity.

Qualitative verification of phenomena and laws is an important feature of the study of physics. It is no secret that not everyone is capable of mathematical thinking. When a child is first introduced to a new physical concept as a result of mathematical changes, then the search for it appears physical meaning, many children have a simple misunderstanding and a strange "worldview" that actually has formulas and events are only needed to describe them. [3] Experimental physics is the study of the world of physical phenomena, the observation of events, the acquisition of experimental data for the analysis of observations, the connection between this phenomenon and a previously studied phenomenon, the introduction of physical quantities and their measurement. allows

Research can be both short-term and long-term. In any case, its implementation mobilizes a number of skills in students and allows the formation and development of the following universal educational activities:

- systematize and generalize the experience of using ICT in the learning process;
- assessment (measurement) of the impact of individual factors on the results of activities;
- planning - determining the sequence of intermediate goals, taking into account the end result

- control in the form of a method of action to deviate from the standard and identify differences and compare its results with the given standard;
- Adherence to safety rules, optimal combination of forms and methods of activity.
- ability to communicate in a team;
- ability to present the results of their activities to the audience;
- Development of algorithmic thinking necessary for professional activity in modern society.

Vernier digital laboratories are equipment for large-scale research, demonstrations, laboratory work for physics, biology and chemistry, design and laboratory work. research activities students. The laboratory includes:

- Distance sensor Vernier Go! Motion
- Vernier Go temperature sensor! Temperature
- Adapter Vernier Go! Link
- Heart rate sensor (manual heart rate monitor)
- Light sensor Vernier TI / TI light probe
- A set of teaching materials
- CosView interactive USB microscopes.

Using Logger Lite 1.6.1, you can:

- Collect and display data during the experiment
- Show data in different ways of choice - in the form of graphs, tables, displays of measuring instruments
- data processing and analysis
- Import / export data in text format.
- Watch videos of pre-recorded experiments.

Newton's Law of Cooling(Thermal Radiation)



1-picture. Study of Newton's cooling law using a virtual laboratory with the Vernier digital laboratory

Newton's Law of Cooling(Thermal Radiation)



2-picture. Study of Newton's cooling law using a videolesson with the Vernier digital laboratory

The lab has a number of advantages: it allows data to be obtained that are not available in traditional learning experiments, and allows the results to be easily processed. Digital laboratory mobility allows for research beyond the scope of the classroom ... The use of the laboratory allows for the implementation of a systematic-activity approach in lessons and classes. Experiments with the Vernier digital lab are visual and effective, allowing students to gain a deeper understanding of the topic.

By applying a research approach, it is possible to create conditions for students to acquire scientific experience and analytical skills. In addition, reading motivation increases active participation in the lesson or course process. Each student will have the opportunity to conduct their own experience, get results, and tell others about it.[6]

DISCUSSION

Thus, we can conclude that the use of Vernier digital laboratory in the classroom allows students to develop their research skills, which increases the effectiveness of teaching and helps to achieve modern educational goals.

List of components:

- interface for data processing and recording;
- special software on a CD-ROM for working with data on a computer;
- special software on a CD for all laboratory equipment to work in Wi-Fi mode;
- sensors for experiments;
- additional accessories for sensors;

Laboratory purpose:

creation of conditions for in-depth study of physics, chemistry and biology with the help of modern technical means;

increase students' activity in cognitive activity and interest in the subjects studied;

creative development and personal qualities;

creating conditions with a limited budget for all students to work simultaneously on the subject under study using modern technical means; research and scientific work.

Laboratory facilities:

operation of all components of the proposed laboratory, interactive whiteboard, projector, document camera, personal tablets and mobile devices of students in one wireless network;

the ability to use different types of tablets operating systems;

conducting more than 200 experiments during primary and secondary schools;

create and demonstrate their experiences;

the ability to transfer data to test students Homework to the student's mobile device;

the ability to view any student's tablet on an interactive whiteboard to display the task completed;

ability to work separately with each of the laboratory components;

ability to collect data and conduct extracurricular experiments.

laboratory equipment for experiments with sensors;

experience for a detailed description teacher with instructions;

plastic containers for laboratory packaging and storage.

Digital labs are the next generation of school science labs. They give you the opportunity:

- reduce the time spent preparing and conducting a frontal or demonstration experiment;

- increase the visibility of the experiment and the visualization of its results, expand the list of experiments;

- field measurements;

- Modernize already familiar experiences.

- With the help of a digital microscope you can introduce each reader to a mysterious and wonderful world where they learn a lot of new and interesting things. Kids, using a microscope, better understand that all living things are very delicate, so

you have to be very careful with everything around you. The digital microscope is a bridge between the ordinary world and the microcosm, which is mysterious, extraordinary and therefore amazing. And everything attracts attention, affects the child's mind, develops creativity, love for the subject.[7] A digital microscope allows you to see a variety of objects magnified 10, 60 and 200 times. With its help, you can not only view the object of interest, but also take a digital photo of it. You can also record objects using a microscope and create short films.

RESULTS

The digital lab kit includes a set of sensors that I use to perform simple visual experiments and experiments (temperature sensor, CO₂ sensor, light sensor, distance sensor, heart rate sensor). Students construct a hypothesis, collect data using sensors, and analyze the data obtained to determine the accuracy of the hypothesis. Use in conducting scientific experiments Computer and sensors in the classroom ensure the accuracy of measurements and allow continuous monitoring of the process, as well as storage, display, analysis and reproduction of data and the creation of graphs based on them. The use of Vernier sensors contributes to the safety of science lessons. A temperature sensor connected to a computer prevents students from using devices that could break mercury or other glass thermometers. I use the tools in physics, chemistry, biology, computer science classes, etc. while working on extracurricular projects. Students will master the following types of activities: cognitive, practical, organizational, assessment, and self-monitoring activities. The following positive effects are observed when using digital laboratories: increase the intellectual potential of schoolchildren; the percentage of students participating in various topics, creative competitions, design and research work will increase and their effectiveness will increase.

- The application of e-learning resources should be important to the impact of changes in the activities of the teacher, his professional and personal development, non-traditional models of start lessons and forms of interaction between teachers and students active independent activity of students based on the emergence of new models of education based on the spread of cooperation.

- This is in line with the main ideas of FGOS LLC, the methodological basis of which is a systematic activity approach, according to which "the development of the student's personality is based on universal assimilation learning activities, knowledge and mastery of the world - the goal and main outcome of education."

- The use of e-learning resources in the learning process provides great opportunities and prospects for students' independent creative and research activities.

• research work ESM allows not only to independently study the descriptions of objects, processes, events, but also to work with them in an interactive mode, to solve. connects problematic situations and acquired knowledge with life events.

CONCLUSION

The use of Werner's digital laboratory in the classroom involves the study and use of mathematical methods to demonstrate a variety of complex functions in different areas of science. Laboratories use advanced simulation technology to create a real-world laboratory environment. In-depth research and studies are conducted by researchers to better understand the experimental procedures. Actual laboratory scenarios are obtained through a live demonstration of the experiment to assimilate information about procedures and laboratory equipment. The visualization and development of graphic symbols is done on the basis of real situations and compared with the corresponding real equipment. The simulations are done interactively using a variety of authoring tools, thereby recreating and simulating a real laboratory environment.

REFERENCES

1. Fakhriddin, Yusupov. "Physics student participation test in the online group homework forum." *International Engineering Journal For Research & Development* 5.8 (2020): 4-4.
2. Mamasoliev, M Sh; Raxmonov, T I.; and Yuldashev, N Kh (2021) "Time kinetics of polariton luminescence of semiconductor crystals under resonant excitation of excitons," *Scientific-technical journal: Vol. 4 : Iss. 3 , Article 10.*
3. Мирзаев, В. Т., Рuzиматова, Б. С., Мадрахимов, М. М., & Ахмаджонов, М. Ф. (2019). Магнитооптические свойства редкоземельных (p3)-ионов в парамагнитных гранатах. In *Фундаментальные и прикладные научные исследования: актуальные вопросы, достижения и инновации* (pp. 34-36).
4. Ruzimatova Barnokhon, & Polvonov Bakhtiyor. (2020). The formation of creative thinking in teaching physics. *International Engineering Journal For Research & Development*, 5(ICIPPS), 5. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/FBZKJ>
5. Sultanov, N A.; Rakhimov, E T.; Mirzajonov, Z; and Yusupov, F T. (2021) "Photoluminescence spectra of silicon doped with cadmium," *Scientific-technical journal: Vol. 4 : Iss. 3 , Article 3*
6. Tokhir, Rakhmonov, Yusupov Fakhriddin, and Tolaboyev Dilmuhammad. "A study in showing logical strategy and demeanor in the middle school." *International Engineering Journal For Research & Development* 5.7 (2020): 7-7.

7. Umarov Abdusattor Ortikovich, and Zaxidov Ibroximjon Obidjonovich. "Maktab fizika kursida o'zgaras va o'zgaruvchan tokni o'rganish" Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, vol. 1, no. 3, 2021, pp. 433-436.

DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI O'QITISHDA MAPLE DASTURI IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH

Chuyanov Xurshid Uralovich

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti

xchuyanov77@list.ru

ANNOTATSIYA

Hozirgi paytda matematik paketlarning o'quv jarayonidagi o'rni va roli bir qancha sezilarli va sifatliroq. Murakkab matematik masalalarni yechishni osonlashtiradi. Matematik paketlardan o'quv jarayonida foydalanish matematik va texnik ta'limning fundamentalligini oshirishni taminlaydi. Talabalarning nazariy bilimlarini amaliyotga qo'llash mahoratlarini oshiradi.

Kalit so'zlar: maple dasturi, tenglama, grafik, funksiya

АННОТАЦИЯ

В настоящее время место и роль пакетов математики в образовательном процессе намного значительнее и качественнее. Облегчает решение сложных математических задач. Использование математических пакетов в процессе обучения расширяет основы математики и технического образования. Повышает способность студентов применять теоретические знания на практике.

Ключевые слова: программа Maple, уравнения, график, функция

ABSTRACT

Nowadays, the place and role of mathematics packages in the educational process is much more significant and qualitative. Facilitates the solution of complex mathematical problems. The use of math packages in the learning process enhances the fundamentals of mathematics and technical education. Improves students' ability to apply theoretical knowledge in practice.

Key words: program Maple, equation, graphic, function

KIRISH

Differensial tenglamalarni o'zlashtirishda Maple dasturi bugungi kunda talabalarga ko'pgina imkoniyatlarni yaratib bermoqda. Xususan oliy ta'limda differensial tenglamalarga oid misollarning yechilishi jarayonida va grafik chizilmasini chizish murakkab bo'lib keladi, Maple dasturi bilan ishlash esa talabalarga ko'pgina yangiliklar va qulayliklar yaratib beradi.

Biz kompyuterdan foydalanib Maple dasturi yordamida differensial tenglamalarni yechish usulini qaraymiz.

Mapleda ODT ni analitik usulda yechish uchun dsolve (eq,var,options) komandasi ishlatiladi, bu yerda eq-tenglama, var-noma'lum funksiya, options-parametrlar. Masalan, $y'' + y = x$ tenglamasi `diff(y(x),x$2)+y(x)=x` ko'rinishda yoziladi. ODT ning umumiy yechimi o'zgarmas sonlarni o'z ichiga oladi, masalan, yuqoridagi tenglama ikkita o'zgarmasni o'z ichiga oladi. O'zgarmaslar Maple da `_C1`, `_C2` ko'rinishda belgilanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ma'lumki, chiziqli ODT bir jinsli (o'ng tomon 0) va bir jinsli bo'lmagan (o'ng tomon 0 emas) ko'rinishda bo'ladi. Bir jinsli bo'lmagan tenglama yechimi mos bir jinsli tenglamaning umumiy yechimi va bir jinsli bo'lmagan tenglamaning xususiy yechimlari yig'indisidan iborat bo'ladi. Mapleda ODT ning yechimi ana shunday ko'rinishda chiqariladi, ya'ni o'zgarmaslarni o'z ichiga olgan qism bir jinsli tenglamaning umumiy yechimi bo'ladi, va o'zgarmas son ishtirok etmagan qismi bir jinsli bo'lmagan tenglamaning xususiy yechimi bo'ladi. dsolve komandasi bergan yechim hisoblanmaydigan formatda beriladi. Yechim bilan kelajakda ishlash uchun, masalan grafik chizish uchun, uning o'ng tomonini rhs(%) komanda bilan ajratish kerak. Endi ba'zi differensial tenglamalarni Maple dasturida yechishni ko'rib chiqamiz.

Misol-1. $y'' - 3y' + y = e^{-x} + x^3$ tenglamani umumiy yechimi topilsin.

> `diff(y(x), x, x) - 3*diff(y(x), x) + y(x) = exp(-x) + x^3` (1)

> `dsolve((1), { y(x) })`

> $y(x) = e^{\frac{(3 + \sqrt{5})x}{2}} _C2 + e^{-\frac{(\sqrt{5} - 3)x}{2}} _C1 + x^3 + 9x^2 + 48x + 126 + \frac{e^{-x}}{5}$

Misol-2. $y' + y \cdot \operatorname{tg} x = e^x \cdot \cos x$ tenglama yechilsin.

> `diff(y(x), x) + y(x)*tgx = exp(x)*cosx` (2)

> `dsolve((2), { y(x) })`

> $y(x) = \left(\frac{\cos x e^{x(\operatorname{tg} x + 1)}}{\operatorname{tg} x + 1} + _C1 \right) e^{-\operatorname{tg} x x}$


Misol-3. $y' + 6y^2 + 3\cos 4x = 0$ tenglamani $y(0) = 1$ boshlang'ich shartdagi yechimi topilsin.

> `diff(y(x), x) + 6*y(x)^2 + 3*ctg4x = 0` (3)

> `dsolve((3), { y(x) })`

> $y(x) = -\frac{\tan\left(3\sqrt{\operatorname{ctg}4x}\sqrt{2}_C1 + 3\sqrt{\operatorname{ctg}4x}\sqrt{2}x\right)\sqrt{\operatorname{ctg}4x}\sqrt{2}}{2}$


```
> restart  
> with(DEtools)  
> DEplot(diff(y(x), x)=-6*y(x)^2-3*cos(4*x),y(x),x=-1..1,y=-1..1,[y(0) = 1], color =  
black) (1-rasm)
```



1-rasm

XULOSA

Differensial tenglamalarni o‘qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish bu dars samaradorligini oshirishda, talabalar erkin misollarni ishlab uni kompyuter orqali tekshirish va kompyuterdan foydalanib Maple dasturi yordamida geometrik obrazlarning grafiklarini yasash, talabalarga ko‘pgina yengilliklar yaratib beradi.

REFERENCES

1. N. Dilmurodov, Sh. Sh. Suvanov Matematik masalalarni Maple, Matlab va MathCAD muhitlarida yechish. – Toshkent: PRINT 25, 2019-238 b.
2. Саботченко С.Е., Кузьмичева Т.Г. Методы решения математических задач в Maple: Учебное пособие – Белгород: Изд. Белаудит, 2001. – 116 с.
3. <http://www.maplesoft.com>

TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT SOHASIDA SMART SHARTNOMALARNING HUQUQIY REJIMI

Sultanova Yulduz Davronbek qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti 4-bosqich Xususiy huquq fakulteti

A potok 1-guruh talabasi

E-mail: yulduz.sultanova@internet.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida smart kontraktlarning huquqiy rejimi haqida bo'lib, Smart kontraktlarning kelib chiqish tarixi va bugungi kundagi o'rni yoritib o'tilgan. Shuningdek, smart shartnomalarni amaliyotda qo'llash jarayonida vujudga keladigan avzalliklar va kamchiliklar sanab o'tilgan.

Kalit so'zlar: smart shartnoma, huquqiy smart shartnoma, Blokcheyn, raqamli vakil, Bitkoin tizimi, kriptovalyuta, tashqi savdo, raqamli tranzaksiyalar.

ABSTRACT

This article is about the legal regime of smart contracts in the field of foreign economic activity, the history of the origin of smart contracts and their current place. It also lists the advantages and disadvantages that arise in the process of putting smart contracts into practice.

Keywords: Smart contract, legal smart contract, Blockchain, digital agent, Bitcoin system, cryptocurrency, foreign trade, digital transactions.

АННОТАЦИЯ

Эта статья о правовом режиме смарт-контрактов в сфере внешнеэкономической деятельности, истории происхождения смарт-контрактов и их нынешнем месте. В нем также перечислены преимущества и недостатки, возникающие в процессе применения смарт-контрактов на практике.

Ключевые слова: смарт-контракт, юридический смарт-контракт, Блокчейн, цифровой агент, система Биткойн, криптовалюта, внешняя торговля, цифровые транзакции.

KIRISH

Barcha sohalarda rivojlanib borayotgan texnika va texnologiya fuqarolik huquqiy munosabatlar orqali namoyon bo'luvchi shartnomalar va xalqaro darajadagi shartnomalarga ham o'z ta'sirini ko'rsata boshladi. Endilikda dunyoning istalgan qismidan turib shartnomalar tuzish va o'larni amalga oshirish bugungi kun

taraqqiyoti uchun qiyinchilik tug'dirmaydi. Hozirgi zamon tili bilan aytganda bunday shartnomalarni smart ya'ni aqlli shartnomalar deb atash mumkin.

Yuqorida qayd etilganidek, texnologiya aniqroq qilib aytganda informatikaning taraqqiyoti smart shartnoma tushunchasining yaratilishiga asos bo'ldi. Bu atama g'oyasini birinchi marotaba AQShlik informatika, kriptografiya va huquq bo'yicha mutaxassisi Nika Sabo tomonidan 1994 yilda ilgari surilgan bo'lib, u mazkur shartnomani «Tomonlar o'rtasidagi majburiyatlarning raqamli vakili, shu jumladan ushbu majburiyatlarni bajarish uchun protokol», deb ta'riflaydi¹.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Smart – shartnoma (inglizcha smart contract – aqlli shartnoma) – biror narsaga egalik qilish to'g'risida ma'lumot yaratish, boshqarish va taqdim etish uchun ishlab chiqilgan kompyuter algoritmi. Tor ma'noda smart – shartnoma blokcheynning biror manzilida joylashgan vazifalar va ma'lumotlar majmuidir².

Keyinchalik 1998 yilda u "Bit Gold" deb nomlangan yana bir raqamli valyutani ixtiro qildi. Bu Bitkoin mavjud bo'lgunga qadar. Ushbu shartnoma o'z-o'zidan bajarilgan va vazifalarni bajarish uchun kodlarga aylantirilgan. Shu o'rinda aytish joizki, smart shartnomalarning amaliyotga kirib kelishi biroz vaqt o'tib ya'ni 2008 yilda blokcheyn texnologiyasining paydo bo'lishi bilan bog'liq. Blokcheyn (inglizcha Blockchain – blok zanjiri) – ma'lum qoidalar asosida tuzilgan ma'lumotni o'z ichiga olgan bloklarning doimiy ketma-ket zanjiri³.

Blokcheyn atamasi Bitkoin tizimida to'liq takrorlangan taqsimlangan ma'lumotlar bazasining nomi sifatida paydo bo'ldi. Shuning uchun blokcheyn texnologiyasini kriptovalyutalar bilan bog'liq operatsiyalar sifatida tushuniladi, ammo ushbu texnologiyani istalgan o'zaro bog'liq axborot (ma'lumot)ni bloklariga qo'llash mumkin⁴.

Ammo Bitkoinning blokcheyn texnologiyasi shartnoma tuzish uchun vazifalarni belgilash imkonini bermaydi, chunki unda faqat tranzaksiya haqida ma'lumot bo'ladi. Shunga qaramay texnologiyalarning rivojlanishi smart – shartnomalarni ishlab chiqish uchun turtki bo'ldi va oradan besh yil o'tib Ethereum ishlab chiqqan blok platformasi smart – shartnomalarni amaliyotda qo'llash imkonini berdi. Bugungi kunga kelib

¹ Bitcoin is not just digital currency. It's Napster for finance.. Fortune (21 января 2014). Дата обращения 19 ноября 2018.

² <https://www.ibm.com/topics/smart-contracts>

³ Satoshi Nakamoto. Bitcoin: A Peer-to-Peer Electronic Cash System. — 2008. — 9 с.

⁴ Артем Генкин, Алексей Михеев. Блокчейн. Как это работает и что ждет нас завтра. — М.: Альпина Паблишер, 2017. — 592 с.

smart – shartnomalardan foydalanish imkonini beradigan bir nechta platformalar mavjud⁵.

Hozirda esa olimlar smart shartnomalarni ikki xil talqin qilishmoqda: «Smart shartnoma» va «Huquqiy smart shartnoma». Smart shartnoma oldindan belgilangan funksiyalarga ko‘ra, muayyan holat yoki shart vujudga kelsa, avtomatik tarzda ishga tushadigan kompyuter kodini anglatadi. Kod taqsimlangan registrda saqlanishi va qayta ishlanishi hamda unga har qanday natijaviy o‘zgarishlar yozilishi mumkin. Huquqiy smart shartnoma tushunchasi esa ikki va undan ortiq tomonlarning o‘zaro, programmali kod yordamida shakllantirilgan va avtomatizatsiyalashtirilgan qonun doirasidagi kelishuvi sanaladi. Demak, smart shartnoma zamonaviy axborot texnologiyalar yordamida yaratiladigan virtual shartnoma bo‘lib, an‘anaviy shartnomaning yangi avlodi deb qarash mumkin.

Xuddi savdo avtomati kabi u faqat kriptoalyuta miqdorini talab qiladi. Qilinishi kerak bo‘lgan yagona narsa ularni shartnomaga yozib qo‘ymoqchi bo‘lgan ma‘lumotlar bilan birga yozib qo‘yishdir. Har qanday shartnoma tayyor bo‘lgunga qadar qoidalar, shartlar va shartlarni belgilash kerak bo‘ladi⁶.

Smart shartnomalardan foydalanuvchilarning fikricha ularning quyidagi afzalliklari tan olinadi:

Tezkorlik. Hujjatlarni qo‘lda qayta ishlash ko‘p vaqt talab etadi va topshiriqlarning bajarilishini kechiktiradi. Smart – shartnomalar avtomatlashtirilgan jarayonni talab qiladi va ko‘p hollarda shaxsiy ishtirokni talab qilmaydi, bu qimmatli vaqtni tejaydi.

Mustaqillik. Smart – shartnomalar uchinchi tomonning aralashuvi ehtimolini istisno qiladi. Shartnomaning kafolati bu vositachilardan farqli o‘laroq, uning yaxlitligiga shubha qilish uchun asos bo‘lmaydigan dasturning o‘zi.

49. Бахадиров, Г. А., Абдукаримов, А., Хусанов, К., Умаров, Б. Т., & РУз, А. Н. (2017). УПРАВЛЕНИЕ И ВЫБОР МОЩНОСТИ УПРАВЛЯЮЩЕГО ДВИГАТЕЛЯ POWER CONTROL AND SELECTION CONTROLLING ENGINE. ХАЛҚАРО ИЛМІЙ-ТЕХНИКАВИЙ АНЖУМАН, 1, 283.
50. Маткаримов, А. А., & Тилавалдиев, Б. Т. (2021). ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ МАШИНОСТРОЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ. *Теория и практика современной науки*, (1), 244-247.
51. Тилавалдиев, Б. Т. (2020). УГОЛ И КОНУС ТРЕНИЯ. *Журнал Технических исследований*, 3(2).
52. Qo'Chqarov, B. U. B., & O'G'Li, A. T. L. (2021). MASHINASOZLIKDA METALL KESISH DASTGOHLARINING MEKANIK ISHLOV JARAYONIDA VUJUDGA KELADIGAN VIBRATSIYA SABABLARI VA UNI BARTARAF ETISH MUAMMOLARI. *Scientific progress*, 2(6), 905-909.
53. Халилов, Ш. З., Абдуллаев, Ш. А., Халилов, З. Ш., & Умаров, Э. С. (2019). Влияние скорости и угла вбрасывания частицы на характер движения

- компонентов зерно соломистого вороха. Журнал Технические исследования, (2).
54. Aminjanovich, U. J., Akhmadjonovic, A. S., & Mukhtoralievna, R. M. (2021). An Effective Cleaner of Raw Cotton from Fine Trash Particles. The American Journal of Engineering and Technology, 3(06), 47-50.
55. Абдуллаев, Ш. А., & Абдуллаева, Д. Т. (2021). НЕФТ ШЛАМИНИ ЭКОЛОГИК ТОЗА ҚАЙТА ИШЛАШ ВА ҚАЙТА ФОЙДАЛАНИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ. Scientific progress, 2(6), 910-917.
56. Халилов, Ш. З., & Абдуллаев, Ш. А. (2020). Влияние скорости воздушного потока на характер движения компонентов зерносоломистого вороха. Проблемы современной науки и образования, (1 (146)).
57. Gapparov, KG, Erkaboev, NJ, Mansurov, YN, & Aksenov, AA (2021). Ikkilamchi babbittlarning strukturaviy tahlili. Metallurg , 65 (5), 549-555.64.
58. Халилов, Ш. З., Гаппаров, К. Г., & угли Махмудов, И. Р. (2020). Влияние травмирования и способов обмолота семян пшеницы на их биологические и урожайные свойства. Журнал Технические исследования, 3(1).
59. Мирзахонов, Ю. У., & Муллажонова, М. М. (2021). Теоретическая Исследование Технологический И Транспортирующим Машины С Плоскоременной Передачи С Натяжным Роликам. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL & APPLIED SCIENCES, 2(10), 161-164.
60. Davidboev, B., Mirzakhanov, Y., Makhmudov, I., & Davidboeva, N. (2020). Research of lateral assembly of the belt in flat-belt transmissions and transport mechanisms. International Journal of Scientific and Technology Research, 9(1), 3666-3669.
61. Набиев, Т. С., & угли Махмудов, И. Р. (2020). ОПРЕДЕЛЕНИЕ ДАВЛЕНИЯ ПРИ ПРЕССОВАНИИ ПОРОШКОВЫХ МАТЕРИАЛОВ. Журнал Технические исследования, 3(1).
62. Набиев, Т. С., Эркабоев, Х. Ж., & Махмудов, И. Р. (2020). О КВАДРАТНО-ГНЕЗДОВОМ СПОСОБЕ ПОСЕВА СЕМЯН ХЛОПЧАТНИКА. In ФУНДАМЕНТАЛЬНЫЕ И ПРИКЛАДНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ (pp. 62-65).
63. Набиев, Т. С. (2020). Высшее образование-высшая цель молодёжи. Школа Науки, (2), 52-54.
64. Тўхтамурод Сахобович Набиев, Ойгул Мавлонова. Об инклюзивном образовании //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 132-137.

KIMYO DARSLARIDA ISHBILARMONLIK O`YINLARIDAN FOYDALANISH

Tashmatova Rahima Vahobovna, dots. k.f.n.,

Samarqand davlat universiteti

Ruziev Ilyos Xakimovich, ass. PhD,

Samarqand davlat universiteti

Tog'ayeva Maftuna Akramovna

I-bosqich magistranti, SamDU O'z-Finlyandiya pedagogika institute

ANNOTATSIYA

Bu maqolada kimyo darslarida ishbilarmonlik o`yinlaridan foydalanishning didaktik sharoitlari, y`ani iShbilarmonlik o`yinidagi faoliyat bosqichma – bosqich rivojlantirilishi, o`yin uchun konflikt holatlar mavjudligining zarurligi, o`yin davomida o`quvchilarning o`zaro faoliyati e`tiborga olinishi, o`yin vaqtini nazorat qilish lozimligi, o`yinda musobaqa elementlari mavjud bo`lishi, o`yin natijalarini baholashi lozimligi haqidagi ma`lumotlar keltirilgan.

Kalit so`zlar: ishbilarmonlik, konflikt, musobaqa, didaktik, innovatsiya, texnologiya, muloqat, ko`nikma.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются дидактические условия использования деловых игр на уроках химии, т.е. постепенное развитие деятельности в деловой игре, необходимость конфликтных ситуаций для игры с учетом взаимодействия учащихся во время игры. о необходимости контроля времени игры, наличии в игре элементов соревнования, необходимости оценки результатов игры.

Ключевые слова: бизнес, конфликт, конкуренция, дидактика, инновации, технология, коммуникация, мастерство.

ABSTRACT

This article discusses the didactic conditions for the use of business games in chemistry lessons, ie the gradual development of activities in the business game, the need for conflict situations for the game, taking into account the interaction of students during the game, There is information about the need to control the time of the game, the presence of elements of competition in the game, the need to evaluate the results of the game.

Keywords: business, conflict, competition, didactic, innovation, technology, communication, skill.

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda kimyo fanini rivojlantirish, ushbu yoʻnalishda taʼlim sifati va ilm-fan natijadorligini oshirish “Ilm, maʼrifat va raqamli iqtisodiyot yili” Davlat dasturining ustuvor vazifalari qatorida belgilangan.

Zero, yoshlarimizni kimyo fani boʻyicha chuqur oʻqitish hududlarda yangi-yangi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish, yuqori qiymat yaratadigan farmatsevtika, neft, gaz, kimyo, togʻ-kon, oziq-ovqat sanoati tarmoqlarini jadal rivojlantirishga turtki beradi hamda xalqimiz turmush sharoiti va daromadlarini oshirishga puxta zamin hozirlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, rivoglanayotgan oʻqitish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qoʻllash oʻqituvchining darsda erishayotgan natijalarining samaradorligiga ijodiy yondoshish daragasini belgilaydi. Shuning uchun biz kimyo darslarida ishbilarmonlik oʻyinlaridan foydalanishning didaktik sharoitlarini koʻrib chiqishni maqsad qilib oldik.

Birinchidan, real hayotdagi professional hayotni imitatsiya etuvchi sharoitlarni oʻyin davomida modellashtirish kerak. Ishbilarmonlik oʻyinlarining asosiy maqsadi murakkab tizimlarni boshqarishda qaror qabul qilishga oʻrgatishdir. Qaror qabul qilish yoki tanlov istalgan faoliyatga xos boʻlgan harakat boʻlib, u faoliyatda muayyan maqsadni belgilaydi. Toʻgʻri qaror qabul qila olish insonda hayotiy tajriba orqali (sinov va xatoliklar) yoki oʻqitishning maxsus usullari yordamida, shu jumladan oʻyinlar orqali ham shakllantiriladi.

Ishbilarmonlik oʻyinida yaratilgan shartli ishlab chiqarish modelini oʻzgartirishlar bilan boʻrttirish kerak emas, ular reallikka maksimal darajada yaqinlashgan hamda ikkilamchi alohida holatlardan holi boʻlishi lozim, chunki ular oʻyin jarayoniga muhim taʼsir oʻtkaza olmaydi. Misol uchun zavod sexi modelini toʻlaligicha yaratish shart emas. Oʻyin boshida sex koʻrinishini tasvirlab berish yetarlidir, chunki shuning oʻzi oʻquvchi yoshlarda muayyan psixologik maqsadni belgilaydi. Soʻngra esa oʻyinda oldindan rejalashtirilgan holatlarni kiritib, oʻquvchi yoshlarga oʻyin vazifalarini berib borish lozim.

Ikkinchidan ishbilarmonlik oʻyinidagi faoliyat bosqichma – bosqich rivojlantiriladi. Oʻyin bosqichlari oʻzaro bogʻliqdir, shu sababli boshlangʻich bosqichlarda olingan oʻquvchi yoshlarning qarorlari keyingi bosqich harakatlariga

ta'sir o'tkazadi. Mazkur bosqichda belgilangan vazifani yechimi optimal varianti ishtirokchilarni fikrlash faoliyatini stimulyatsiya etib, ularda o'z- o'zini boshqarish hamda xatoliklarni tuzatish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Uchinchidan ishbilarmonlik o'yini uchun konflikt holatlar mavjudligi zarurdir. Ular ishbilarmonlik o'yiniga xos bo'lib, uning rivojlanishi jarayonida ham yuzaga keladi yoki o'yin rahbari tomonidan yaratilib undan o'quv maqsadlari kelib chiqadi.

Bunda holatlar murakkablashtirilishi yoki o'zgartirilishi, qo'shimcha vazifalar kiritilishi mumkin bo'lib, buning natijasida o'yin qatnashchilarida yangi sharoitlarda qaror qabul qila olish ko'nikmasi hosil bo'ladi. Ishbilarmonlik o'yini davomida konfliktlar professional tavsifga ega bo'lgan bahs va munozaralar ko'rinishida o'tadi, buning natijasida o'yin qatnashchilari turli muammolarni hal etishadi hamda o'yin sharoitlari o'zgargan taqdirda zarur qaror qabul qilish ko'nikmasi hosil bo'ladi. O'yin rahbari tomonidan rejalashtirilmagan konflikt holatlar ham yuzaga kelishi mumkin, bunday holatlarning yuzaga kelishiga o'sha vazifa bajarilishi davomida qarama-qarshi guruh tomonidan beriladigan yechimning turli variantlari asos bo'lishi mumkin.

Bunday holatda o'qituvchining vazifasi o'quvchi yoshlarning to'g'ri qaror qabul qilishini hamda bajarilayotgan ish ob'yektiv tahlilini nazorat etishdan iborat bo'ladi. Zarur bo'lganda esa yangi yechimning optimal varianti topiladi.

To'rtinchidan ishbilarmonlik o'yini davomida o'quvchi yoshlarning o'zaro faoliyati e'tiborga olinishi kerak. Bilim olish o'yini mazmuni uning qatnashchilari orasida yuqori darajadagi muloqotni ta'minlashi zarur bo'lib, bunga o'rganilayotgan ob'yektning har tomonlama uslubi hamda vazifa yechishning optimal variantini izlash o'rganilayotgan materiallar muammoli bo'lishi orqali erishilishi mumkin.

Muammoli holatlar konflikt holatlarga aylanib, ulardan chiqish yo'li jamoaviy hamkorlik orqali izlab topilishi mumkin bo'lib, bunda boshqa ishtirokchilar tomonidan taklif etilgan variantlar guruh manfaatlarida himoya qilinishi yoki tanqid etilishi mumkin. Shu jihatdan ishbilarmonlik o'yini, nima, qayerda, qachon television o'yinini eslatadi.

Unda tasodifiy kelib chiqqan masalaga javob izlash barcha ishtirokchilarning to'g'ri javobdan manfaatdorligi o'qibatida izlanadi. Bunda ajratilgan vaqt kam bo'lib, bunda muayyan ishtirokchi jamoa oldida o'z javobi tog'riligini isbotlab berishi lozim bo'ladi.

Bilim olish o'yini o'qitishning tanlab olingan uslubi asosida kuchli tarbiya usuliga ham aylanadi, bilim oluvchining o'quv faoliyati uning uchun ijtimoiy jihatdan muhim bo'ladi. Bunday o'yin davomida kuchli va kuchsiz o'quvchi yoshlar orasidagi

to'siqlar yechiladi, o'quvchi va o'qituvchi orasidagi tasnifiy devor qulaydi, avvalo o'qituvchi rollarini o'zi istagan tartibda ajratib berishi muhim bo'lib, bunda u o'quvchilarning fe'l- atvoridan kelib chiqishi mumkin, ammo kelgusida u bu ishni o'quvchilarning fikriga yondoshgan holda bajaradi, chunki o'yinda insonning kutilmagan fe'l-atvorlari namoyon bo'lishi mumkin.

Ishbilarmonlik o'yinida rollarning miqdori va belgilanishidan qat'iy nazar, o'yinda kollektivning o'zaro hamkorligi aks etishi lozim, aynan shu hamkorlik u yoki bu professional faoliyat bilan band bo'lgan insonlar orasidagi real munosabatlarni imitatsiya etadi.

Beshinchidan o'yin vaqtini nazorat qilish lozim. O'yin vazifalarini bajarishga belgilangan vaqt nazorati ishbilarmonlik o'yinining majburiy sharti bo'lib, u o'quvchi yoshlarni tartiblashtiradi, professional tavsifdagi vazifalarni qisqa muddatda bajarishga undaydi.

Oltinchidan ishbilarmonlik o'yinida musoboqaviylik elementlari mavjud bo'ladi. Musobaqa ishbilarmonlik o'yinining muhim elementi bo'lib, u o'yinning to'g'ri borishini ta'minlaydi. G'alaba qozonish, o'zini yaxshi tomondan ko'rsatish, iroda va bilimlarini mobilizatsiya eta bilish o'quvchi yoshlarning e'tiborini kuchaytiradi, axborot almashinishga undaydi va guruh o'yinchilarini birlashtiradi.

Yettinchidan ishbilarmonlik o'yini natijalari baholanishi lozim. Fanni dars berish faoliyati sharoitlarida o'quvchi yoshlarning bilim olishini dars davomida baholash, ularni rag'batlantirish va jarima qilish muhim bosqichdir. O'yin qatnashchilari ishini baholash o'qituvchi zimmasida bo'ladi. Ammo buning uchun guruh o'quvchilari qatoridan ekspert guruhini tuzish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Guruh va hakamlar o'yin boshlanishidan oldin qoidalar bilan tanishishadi va o'yin davomida unga amal qilishadi. Ammo ba'zi bir rolli o'yinlar tashkillashtirish bo'yicha to'xtalib o'tamiz. Dars tayyorlash jarayonida, ya'ni rolli o'yinni tashkillashtirish davomida o'qituvchi birinchi navbatda taxminiy turli kasb mutaxassislari mehnatini tavsiflovchi kasbiy majburiyat, ko'nikmalar, bo'limlar ro'yxati bilan tanishib chiqadi va mazkur dars vositalari yordamida yechilishi lozim bo'lgan vazifalar doirasini belgilaydi. Vazifalar yo'riqnoma ko'rinishida tuzilishi maqsadga muvofiq bo'lib, ular o'z ichiga kasbiy majburiyatlar ro'yxati, asosiy vazifalar va ko'nikmalar ro'yxati kirishi shart. Bundan tashqari katta tashkiliy ishlar ham amalga oshiriladi. O'yin ishtirokchilari plakatlar, grafiklar chizishadi.

Kimyo xonasida ishchi stendlar osilib, ularda dars mavzusi bo'yicha axborot yoritiladi hamda muayyan ishlab chiqarish, unda faoliyat ko'rsatadigan ishchilar (mazkur mutaxassislarni tayyorlovchi o'quv yurtlari, kollej, OTMlar manzillari),

korxonalar rekonstruksiyasining asosiy yoʻnalishlarini aks ettiruvchi jadvallar keltiriladi. Oʻqituvchida oʻyin ssenariysi va oʻyin davomida yechilishi lozim boʻlgan muammolar roʻyxati boʻlishi shart: oʻqituvchi oʻyinning faol qatnashchisi sifatida oʻyinni u yoki bu muammoviy konflikt holatini yaratishga yoʻnaltiradi. Bundan tashqari oʻqituvchining qoʻlida oʻyin davomida kiritilishi lozim boʻlgan tushunchalar, qonuniyatlar, nazariya, formulalarning oldindan tayyorlangan roʻyxati boʻlishi kerak. Masalan, misol uchun mineral oʻgʻitlar mavzusiga bagʻishlangan rolli oʻyinni keltiramiz. Dars oldindan tayyorlanadi. Sinf quyidagi mutaxassislik boʻyicha beshta guruhga boʻlinadi: kimyogarlar, biologlar, texnologlar, agronomlar, ekologlar.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Olimlarning har bir guruhi, oʻz mutaxassisligi nuqtai nazaridan mineral oʻgʻitlar haqidagi materialni oʻrganadi, uni darsga maʼruza sifatida tayyorlaydi. Buning uchun muayyan materiallarni tanlab oladi va mavzu boʻyicha oʻquvchi yoshlar uchun savollarni shakllantiradi.

Darsda quyidagi maʼruzalar eshitiladi: birinchidan, kimyogar olimlarning, “Mineral oʻgʻitlar klassifikatsiyasi” nomli maʼruzasi mineral oʻgʻitlar kolleksiyasi demonstratsiyasi bilan birgalikda oʻqib eshittiriladi va mineral oʻgʻitlarning oziq elementlari miqdori keltirilgan jadval koʻrsatiladi. Ikkinchidan mineral oʻgʻitlarni ishlab chiqarish uchun kerak boʻlgan xomashyoga doir geologlar maʼruzasi tabiiy qazilmalarning Oʻzbekiston xaritasi boʻyicha konlarining koʻrsatilishi bilan amalga oshiriladi.

Mineral oʻgʻitlar ishlab chiqarilishi (texnologlar maʼruzasi) kimyoviy reaksiyalar tenglamalari haqidagi hamda mineral oʻgʻitlar ishlab chiqarilishi haqidagi maʼlumotlar bilan toʻldiriladi. Mineral oʻgʻitlar ahamiyati (agronomlar maʼruzasi) oʻsimliklar faoliyatidagi mineral oʻgʻitlarning rolini koʻrsatuvchi plakatlar bilan birgalikda namoyish etiladi.

Mineral oʻgʻitlarni ishlab chiqarish va qoʻllash bilan bogʻliq boʻlgan ekologik muammolar (ekologlar maʼruzasi) haqidagi maʼlumotlar beriladi. Darsda mineral oʻgʻitlarni aniqlashga doir laboratoriya ishi oʻtkazilishi koʻzda tutilgan. Mutaxassislarning har bir guruhiga uchtdan mineral oʻgʻit beriladi. Vazifa: ularni aniqlash, uni qanday amalga oshirish haqida guruhga aytib va koʻrsatib berishdan iborat. Dars davomida ishtirokchilarning faolligini oshirish uchun mutaxassislarning har bir guruhi boshqa guruhlarga oldindan tayyorlangan munozarali savollarni berishadi. Oʻqituvchi zarur paytlarda ishtirokchilarga umumlashtiruvchi tavsiflarga ega boʻlgan savollar berishi mumkin. Bunda turli didaktik maqsadlarda, yaʼni oʻquvchi yoshlarning oʻqish jarayonini motivatsiya etish maqsadida darsda

qo`shimcha sifatida u yoki bu ma`ruza oldidan muammoviy masala sifatida, shu bilan birgalikda o`rganilgan materialni mustahkamlash maqsadida ham kimyoviy topishmoqlarni berish maqsadga muvofiqdir.

Masalan, birinchidan dalalarda vitamin, omborlarda huddi mina(selitra) non yopib bo`lmas, sepmasa hosil bo`lmas (fosforit uni) unda uchdan biri azotdan, dehqon halos azobdan (ammiak selitrasi). Bunday darsda har bir ishtirokchi o`zini u yoki bu jihatdan ko`radi (mustahkam bilimga ega mutaxassis olim, yaxshi notiq, tadqiqotchi eksperimentator yoki rassom). O`qituvchining vazifasi har bir ishtirokchi darsga qanday hissa qo`shganligini ko`rib uning bilimini to`g`ri baholashdan iboratdir. Tajribalarning ko`rsatishicha o`quvchilar uchun ijobiy baho salbiy bahodan ko`ra ta`sirliroqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilishimiz mumkinki, o`yinli usulini o`quv jarayonida, bundan tashqari, har bir holatda emas, balki tizimli ravishda kengroq qo`llash kerak. Darsda didaktik o`yinlardan tizimli maqsadli foydalanishgina o`quvchi shaxsining asosiy sifatlarini o`zgartirishda ham, o`quv faoliyati samaradorligini oshirishda ham, umuman o`qitishda ham ma`lum natijalar berishi mumkin.

REFERENCES

1. Александрова Т.К., Нефедова В.Е., Федорова Ж.В. Игра как средство активизации учебно-познавательной деятельности учащихся // Химия в школе. - 1989. - №2. - с.79-63.
2. Жарова Л. В. “ Учить самостоятельности ” – М.:Просвещение, 1993.
3. Azizxo`jaeva N.N. Pedagogic texnologiyalari va pedagogic mahorat . Toshkent-2006.74 bet.
4. Голиш Л.В.Технология обучения на лекциях и семинарах ;Учебное пособие.Под общ.ред.акад.С.С.Гулямова.-Т.: ТГЕУ,2005.44с.

EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYADA XORIJIY TAJRIBA

Abdullayeva Maxsuda To'lanovna

Farg'ona davlat universiteti, Ekologiya kafedrası dosenti, q/x.f.n

Maqsudova Gulnora Maxammadjonovna

Farg'ona davlat universiteti, Ekologiya kafedrası o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ekologik ta'lim hamda tarbiyada bir nechta xorijiy tajribalar muhokama qilinadi. Bu borada rivojlangan davlatlarning ekologik tarbiyasini mamalakatimizga ham joriy etish bo'yicha bir nechta muhim tavsiyalar berilgan

Kalit so'zlar: *ekologik ta'lim, xorijiy tajriba, ekologiyalashtirish, atrof-muhit, axborot, tabiat*

АННОТАЦИЯ

В статье обсуждается зарубежный опыт экологического образования и обучения. В связи с этим был сделан ряд важных рекомендаций по внедрению экологического образования в развитых странах.

Ключевые слова: *экологическое образование, зарубежный опыт, экологизация, окружающая среда, информация, природа.*

ABSTRACT

This article discusses several foreign experiences in environmental education and training. In this regard, a number of important recommendations have been made for the introduction of environmental education in developed countries

Keywords: *environmental education, foreign experience, environmentalization, environment, information, nature*

KIRISH

Chet mamlakatlarda ta'lim va tarbiyani ekologiyalashtirish O'zbekistonga nisbatan barvaqt boshlangan. Shimoliy Yevropa va Amerika mamlakatlarida atrof-muhitni muhofaza qilish strategiyasidan uning holatini hamma bosqichda nazorat qilishga tomon qaratildi. Mazkur davlatlarning ichki va tashqi siyosatlarining barcha sohalarida atrof-muhit muhofazasi masalalari kiritilganligi nazoratga olinib, insoniyatning atrof-muhitdagi barcha faoliyati barqaror rivojlanish tamoyillarida to'liq mos kelishiga xalqaro hamjamiyat etibori kuchaytirildi. Yangicha yondoshuvning diqqatga sazovor tomonlaridan biri jamoatchilikka turli xil ekologik axborotlarni erkin olish va tarqatishlariga keng huquqlar berilganligidadir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Ekologik ta'lim va tarbiya orqali kishilarda, jumladan, yoshlarda koinotdagi yagona hayot mavjud bo'lgan Yer sayyorasi haqidagi tasavvurlar, o'z yashash muhiti to'g'risidagi bilimlar, atrofimizdagi olam, tabiat va insonlarni o'zaro uzviy bog'langanlik haqidagi ilmiy-nazariy dunyoqarashlar, o'z o'lkasi va vatanining ekologik tizimlari (ekotizimlari), ularning paydo bo'lishi, evolyutsion rivojlanishi, antropogen o'zgarishi, makon va maydon bo'yicha tarqalish qonuniyatlari, undan kelib chiqadigan hususiyatlari, boyliklari, holati, kelajak istiqbollari, milliy, regional va global miqyosdagi tabiat va jamiyat munosabatlari, amaliy ekologik ko'nikma va malakalar, Yer yuzasi atrof-muhitini muhofaza qilish, uning boyliklaridan oqilona foydalanish va buzilgan tabiat majmularini qayta tiklashga oid muammolarni anglash va ularning yechimini topishga doir to'g'ri qarorlarni qabul qilish kompetensiyasi, ularni tanlagan kasblarga qarab ekologik ta'lim va tarbiya shakllantiriladi va rivojlantiriladi [2, 34-b.].

Ekologik amaliyot – yuksak ekologik ma'naviyatli va ma'rifatli shaxs imkoniyatini uning hayot va mehnat faoliyatida qo'llay olishning motivatsiyalanganlik darajasi. Ya'ni ekologik ong va madaniyatni hayotiy faoliyatda nechoqlik zarur ekanligini his etish va uning ijobiy natijalaridan bahramand bo'la olish sharoitining muayyan ma'muriy boshqaruv birliklar yoki iqtisodiyot tarmoqlari doirasida yaratilganligi. U davlat, jamiyat va korporativ uyushmalarning olib borayotgan ekologik konsepsiyasida, siyosatida, qonunuchiligida, harakatlar dasturi va ish rejalarida, prioritet tadqiqotlar yo'nalishlarida, kadrlar tayyorlash va ularni amalda tatbiq etilganligida namoyon bo'ladi.

Ekologik ta'lim, tarbiya va amaliyot mohiyati uning uch yo'nalishdagi tadqiqot qilish, o'rgatish va amalga joriy etish predmetida o'z aksini topadi: ekotizimlarni (tabiiy va antropogen o'zgargan) muhofaza qilish; ekotizimlarning tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish; buzilgan ekotizimlarni qayta tiklash.

Ekologiyaning maqsadi – hozirgi va kelajak avlodlarning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi ekotizimlar xavfsizligiga erishish uchun ekologik ta'lim, tarbiya va amaliyot birligini ta'minlash. Ushbu maqsadga erishmoq uchun milliy miqyosda quyidagi ekologik tushdagi vazifalarni bajarish talab etiladi: ekologiyaning umume'tirof etilgan ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish; uning tarixi, hozirgi holati va kelajak istiqbollari turli ekotizimlar doirasida uzviy bog'langan holda baholash; ekologik konsepsiya va harakatlar dasturini ishlab chiqish; taktik va strategik ekologik rivojlanish rejalarini qabul qilish; ekologiya va atrof-muhit

muhofazasiga doir kadrlar tayyorlash tizimini qayta ko'rib chiqish; ekologik qonunchilik bazasini har tomonlama tahlil qilish va uni amaliyot bilan bog'lash mexanizmini yaratish; milliy ekologik ta'limning majburiylik prinsipini amalda qo'llash; ekologik ta'limni barqaror rivojlanish qoidalariga mos ravishda qayta ko'rib chiqish kabi masalalarni hal etishga undaydi [9, 2-b.]

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asaridagi ushbu jummalarga e'tibor qaratishimiz ham juda zarur: "Ochiq e'tirof etish kerakki, uzoq yillar mobaynida eski-ma'muriy buyruqbozlik tizimi sharoitida bu muammo bilan jiddiy shug'ullanilmagan. Aniqrog'i, bu muammo ayrim jonkuyar olimlar uchungina tadqiqot manbai, o'z mamlakatining kelajagiga, tabiiy boyliklarini saqlab qolishiga befarq qaramagan, bu haqda qattiq tashvish chekkan odamlarning esa "qalb nidosi" bo'lib kelgan" [1, 3-b.].

Davlat siyosatiga monand ravishda ekologik ta'lim ham kuchaydi. Chet el olimlari bir necha o'n yilliklar mobayonida quyidagi muammolar ustidan izlanishlarni olib bomoqdalar. Masalan:

- V.E.Girusov, V.I.Danilov-Danilyan, H.A. Karmaev, I.I.Kravchenko, G.A.Kuznetsov, H.H. Moiseev, N.F.Reymers, A.D.Ursul, R.G.Barker, W.R.Catton, D.D.Chiras, R.E.Dunlap va boshq. ekologik ta'lim asoslarining falsafiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa jihatlarini;
- G.V.Akopov, A.A.Aldashev, A.A.Brudnyy, E.V.Girusov, A.D.Ioseliani, D.N.Kavtaradze, N.M.Mamedov, V.I.Medvedev, E.I.Cherdimova, B.A.Yasvin, D.H.Meadows, D.L.Meadows, J.Randers, A.W.Wiecker i boshq. Insonlarni tabiatga munosabatini keskin o'zgartiruvchi ekologik ta'lim mazmuni va mohiyati, tuzilishi, ekologik ong va madaniyatni shakllantirish masalalarini;
- S.N.Glazachev, V.P.Gorlachev, N.S.Dejnikova, O.N.Kozlova, I.I.Mazur, O.G.Tavstuxa va boshq. ekologik ta'limning asosiy maqsadi sifatida ekologik madaniyatni shakllantirilishini;
- A.F.Baranov, N.B.Dementev, Yu.I.Mixalchenko, J.B.Moiseeva, O.V.Popova, B.I.Strelets, L.F.Tararina va boshq. Uzluksiz ekologik ta'lim tizimini hamda uning mintaqaviy jihatlarini;
- A.N.Zaxlebniy, I.D.Zverev, V.M.Sen-kevich, G.P.Sikorskaya, I.T.Suravegina, Ch.M.Geesteranus, J.C.Smith, L.F.Schmore, A.J.Suvan va boshq. Umumiy ekologik ta'lim va tarbiyaning nazariy-metodik asoslarini aniqlashni;

- V.I.Blinnikov, G.S.Kamerilova, S.S.Kashlev, A.B.Mironov, O.D.Duncan, S.Foresman va boshq. umumta'lim muassasalarining pedagogik kadrlarini ekologik ta'lim va tarbiyaga tayyorlashni;
- E.I.Efimova, I.N.Kondrashova, H.A.Liz, N.M.Mamedov, K.A.Romanova, U.Halbach va boshq. Turli darajadagi kasbiy ta'lim muassasalarida ekolog mutaxassislarni tayyorlashning turli yo'nalishlarini tahlili va ilmiy-amaliy ishlanmalarni yaratishga harakat qilmoqdalar [7, 38-b.].

MUHOKAMA

Xalqaro standartlarga monand ravishda ekologik ta'limda atrof-muhit haqida, atrof-muhit yordamida va atrof-muhit uchun ta'limlari mavjud. Bu uchta komponent ekologik ta'lim va tarbiyaning bo'laklangan masalalarini bir butun yechimini ta'minlaydi. Masalan, G'arbiy Yevropada bolalar maxsus xo'jaliklarda yovvoyi hamda uy hayvonlari bilan muloqotda bo'lishi, hattoki ularni parvarish qilish orqali ekologik ta'lim va tarbiya uch yoshdan boshlanadi.

Avstriyada kasbiy ekologik ta'lim va tarbiyaga zamin tashyorlash maktab dasturlariga kiritilgan. Masalan, maxsus maktab loyihalarini tashkillashtirish ("Maktab bog'i", "Atrof-muhit tarixi", "Maktabda ekologiya", "Ekologik ustaxona", "Tabiat uchun ijodiyot"); tabiatni muhofaza qilish aksiyalarini o'tkazish ("Ozon", "Alp faoliyati"); turli xil didaktik materiallar va maxsus o'quv qo'llanmalarini tayyorlash; pedagog-ekologlar uchun seminarlar hamda bolalarning ekologik ta'limida ishtirok etuvchi barcha mutaxassislarni qayta tayyorlash kurslari; ekologik ta'lim masalalari bo'yicha jurnal va gazetalar nashri; "Atrof-muhit, maktab va jamoat" shu yo'sindagi maxsus ekologik ta'lim dasturlarini tayyorlash; ekologik ta'lim masalalari bo'yicha umumdavlat ma'lumotlar bankini yaratish; koordinatsion funksiyalarni amalga oshirish; bolalarni ekologik ta'limi bilan bog'liq bo'lgan maktab va maktabdan tashqari ekologik ta'lim, turli loyihalar faoliyatida ishtirok etishni hohishini bildirganlarni o'qituvchi va boshqa mutaxassislarga konsultatsiyalar. Avstriyaning oliy kasbiy ta'lim bosqichida ekologik ta'lim to'g'ridan to'g'ri maxsus va kasbiy fanlarni tanlov asosida o'qitishdan boshlanadi. Umumiy ekologik ta'lim va tarbiya esa umumiy ta'lim tizimiga kiritilgan.

Daniyadagi ekologik ta'lim va tarbiya muammolari barcha pedagogik kasbiy ta'lim tizimiga kiritilgan. Pedagoglarni tayyorlashda majburiy ekologik ta'lim, fanlararo mustaqil ta'lim, tegishli o'quv materiallarning ommabopligida namoyon etgan. Daniya skandinav davlatlari bilan Shimoliy Sipozium o'tkazish va "Skandaniviyada atrof-muhit sohasida ta'lim", "Boltiqlik dengizi", "Shimoliy dengiz" xalqaro va "Toza daryolar", "Kislotali yomg'ir", "Yashil bayroq" milliy ta'lim

loyihalarini amalga oshirish, dengiz sohillarining ekologik holatini kartalashtirish va o'rganish yo'li bilan uzoq muddatli hamkorlik loyihalarning doimiy qatnashchisidir.

Germaniyada ekologik ta'lim yoshlarni atrof-muhit haqidagi tasavvurlarini o'zgartirishga va bilimlarini rivojlantirishga, ularning tabiatni muhofaza qilishga tayyorligini oshirishga, o'sib kelayotgan avlodda ekologik mas'uliyatli xulqni shakllantirishga yo'naltirilgan. Bunda asosiy urg'u inson, jamiyat va tabiiy muhit o'rtasidagi munosabatlarni ochib berishga qaratiladi. Ekologik ta'lim va tarbiyada inson omili asosiy bo'lib, u ekotizimlarni halokatli ifloslanishiga olib kelmoqda, degan dunyoqarash mavjud.

Irlandiyaning ekologik ta'lim va tarbiya quyidagi masalalarni hal qilishga qaratilgan: inson va atrof tabiiy muhit o'rtasidagi aloqadorlikning kompleksligini tushuntirishga yordamlashish; shahar va qishloqlarda iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ekologik munosabatlarga qiziqishlarini rag'batlantirish; har bir tinglovchiga mas'uliyatli ekologik qarorlarni qabul qilish uchun bilim, munosabat, qadriyat va malakani olishi hamda tabiiy muhitni himoya qilish va takomillashtirish uchun zarur amaliy bilim va ko'nikmalarni berish; individual, guruh va jamoa ongida atrof-muhitda faoliyat olib borish va o'zini tutish bo'yicha yangi ekologik modellarni yaratish va uni amalga tatbiq qilish, alohida fuqaro, turli ijtimoiy guruh va jamoalarda tabiatga yangicha munosabatda bo'lishni shakllantirishga yordam berish; aholining keng amaliy ekologik malaka olishlariga yordam berish; ekologik muammolarni aniqlash va tasniflashni shakllantirish, muammoli masala va vaziyatlarni hal etish, ekologik muammolar yechimini qabul qilish jarayonida ishtirok etish, deb qaraladi.

Shvetsiyada ekologik ta'lim va tarbiya 1970 yilda "Yevropada atrof-muhit" yiliga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish arafasida yaratildi hamda atrof-muhit muhofazasi mavzusi yangi to'qqiz yillik majburiy ta'limga kiritildi. Shu bilan birga atrof-muhit masalalari bo'yicha Milliy dastur tayyorlandi va qabul qilindi. Uning talablariga binoan Shvetsiyada pedagog va o'quvchilar uchun yangi o'quv qo'llanmalar va yo'riqnomalar nashr qilindi. Ekologik ta'lim va tarbiya Yevropaning Skandinaviya yarim orolida joylashgan davlatlarning hamkorligidagi birlamchi masalaga aylandi. Shvetsiyaning atrof-muhitni muhofaza qilish jamiyati va ta'lim bo'yicha Milliy agentligi hamkorligida ekologik ta'lim muammolari bo'yicha umumdavlat axborot tizimi yaratildi.

Yaponiyada yuksak ekologik ma'naviyatli shaxsni tayyorlash atrof-muhit sohasidagi ta'lim dasturlari orqali erishilgan bo'lib, u milliy kasbiy tayyorgarlikning barcha bochqichlarini o'zida qamrab olgan. Yaponlar uncha dinga ko'p kirishmaganlar va shuning uchun ham ularda ikonalar o'rnida go'zallik mehrobi

sifatida gulli vaza turadi. Ikebana Yer planetasidagi barcha insonlarga ma'lumdir. Yaponlarning tabiatga munosabati – bu o'zgacha milliy psixologiya bo'lib, uning asosida jamoaviy ong yotadi. Shuning uchun ham ularda ekologik tarbiya qadimiy tarixga egadir.

AQSHning kasbiy ekologik ta'lim va tarbiya turli shakl, yo'nalish va metodologik yondashuv, barcha ta'lim va tarbiya mazmuniga ekologik etikani chuqur kirib borishi, aholining atrof-muhitga ehtiyotkorlik va mas'uliyat bilan munosabatda bo'lishini shakllantirish jarayonida keng ommani, ayniqsa, nodavlat jamoat tashkilotlarini jalb qilish bilan birga olib boriladi.

Rossiya Federatsiyasining ekologiya mutaxassisligi bo'yicha oliy kasbiy ta'limning davlat ta'lim standartlarida ekologlar quyidagi faoliyatni yurgazishi mumkin.

Insonni aqli, bilimi, zakovati, mehnati kabilar sivilizatsiyaga olib keldi. Ularda ma'naviyat, ijtimoiy muhit, ruxiy poklikni keltirib chiqardi. Bugun O'zbekiston davlati oldida tabiiy, ijtimoiy, ruxiy, suv, oziq – ovqat, yashash sharoitini yanada yaxshilash kabi vazifalar turibdi [7, 38-b.].

Odamlar o'zlari yashab turgan hududning ruxiy va ijtimoiy xususiyatlaridan kelib chiqib, ma'naviyatlilik darjasiga ega bo'ladilar.

Avvalo, ekologik ma'naviyat, madaniyat, tarbiya, ta'lim kabi tushunchalarni qisqacha ta'rif berib o'tish joizligini aytib o'taylik.

Ma'naviyat tushunchasi – bu kishining egallagan bilimlari, uning hayotida sinovlardan o'tib, ruxiga singib etgan, butun ijtimoiy sifatlardir. Jamiyat a'zolari ma'naviyati darajasi, ruxiy – psixologik holati ta'sir doirasi uning jamiyatda tutgan o'rni, ya'ni mansabi va mavqeyiga qarab belgilanadi. Shuning oqibatida kishilar rahbarga qarab insoniy sifatlaridan ham ruxiy va munosabat darajalaridan ham namuna oladilar [3, 36-b.].

XULOSA

Odamlar ma'naviyatiga yomon ta'sir etadigan ba'zi bir fazilatlar – manmanlik, qo'l uchida salom berish, boshini viqor ila baland tutib yurish, mensimaslik, balandparvozlik bilan buyruq berish kabilar oadmlarda rahbarga bo'lgan ishonchni yo'qota boradi.

Insondagi yaxshi sifat va fazilatlar asosan oilada va ta'lim tarbiya maskanlarda yaratiladi. Ayniqsa, oliy va o'rta maxsus ta'limda ijtimoiy muhit sog'lom bo'lsa, talabalarning ijtimoiy sifati, tayyorgarlik darajasi va bilimi ham yuqori bo'ladi.

REFERENCES

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent. 2013 (2-nashri)
2. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar i pedagogik mahorat - T.: TDPU, 2003.
3. Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O'quv uslubiy qo'llanma/ Ta'limda innovatsion texnologiya seriyasi. – T.: 2010.- 149 b.
4. Usmonov B.Sh., Raximov F.X., Dusmuxamedova M.X. “Ta'lim, fan va ishlab chiqarish innovatsion korporativ hamkorlik. Ilmiy-uslubiy qo'llanma. Toshkent. “Adabiyot uchqunlari” nashriyoti, 2017 y
5. Jo'raev N. “Avesto mo'jizasi” Toshkent. G'ofur G'ulom nomidagi nashr-matbaa ijodiy uyi. 2013
6. Shodimetov. Yu. Ijtimoiy ekologiya. (darslik). Toshkent. 2003 y
7. Nazarov M. Ekologiya fanidan xorijiy mamlakatlarda olib borilayotgan yangi texnologik va pedagogik texnologiyalar. (Malaka oshiruvchilar uchun) Farg'ona davlat universiteti qoshidagi kadrlar malakasini oshirish bo'limi) Farg'ona. 2018 yil.

**AYOLLARDA TUG‘RUQDAN KEYINGI QON KETISHLARNI OLDINI
OLISH VA ULARGA QARSHI KURASHISH BO‘YICHA
KO‘RSATILAYOTGAN XIZMATLAR SIFATINING MONITORINGINI
TASHKIL ETISH**

Jasur Rizayev Alimjanovich

Professor, Tibbiyot fanlar doktori, Samarqand Tibbiyot Instituti Rektori

Larisa Rubenovna Agababyan

PhD Tibbiyot fanlar nomzodi.

Akusherstvo va Ginekologiya bo‘limi boshlig‘i. Samarqand Davlat Tibbiyot
Instituti

Anvar Ibragimovich Kamalov

Assistant Akusherstvo va Ginekologiya bo‘limida. Samarqand davlat Tibbiyot
Instituti

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada tug‘ruqdan keyingi qon ketishlarda homiladorlik va tug‘ruq davrida ayollarga ko‘rsatilayotgan tibbiy yordam sifatining nazorati, ya‘ni tibbiy yordamning klinik-iqtisodiy samaradorligini baholash, standart talablari, shuningdek, so‘rovnomalar o‘tkazish, bemorlar bilan qayta aloqa bog‘lash, shikoyatlar va murojaatlar bilan ishlash ustuvorligini belgilash yo‘li orqali bemorlarning qanoat hosil qilish monitoringi haqidagi fikr-mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: tug‘ruqdan keyingi qon ketish, monitoring, tibbiy yordam, kasbiy faoliyatni yaxshilash, tibbiy xizmatlar sifatini oshirish.

АННОТАЦИЯ

В этой статье описывается, как контролировать качество помощи, оказываемой женщинам во время беременности и родов при послеродовом кровотечении, Оценивать клиническую и экономическую эффективность помощи, стандартные требования, а также проводить опросы, отзывы пациентов и определять приоритетность жалоб и апелляций. у обратная связь по мониторингу удовлетворенности пациентов.

Ключевые слова: послеродовое кровотечение, наблюдение, медицинская помощь, повышение квалификации, повышение качества медицинских услуг.

ABSTRACT

This article describes how to monitor the quality of care for women during pregnancy and childbirth for postpartum haemorrhage, evaluate the clinical and cost-effectiveness of care, standard requirements, and conduct surveys, patient

reviews and prioritize complaints and appeals. . feedback on patient satisfaction monitoring.

Key words: *postpartum hemorrhage, observation, medical care, professional development, improving the quality of medical services.*

KIRISH

Tug'ruqdan keyingi qon ketish (TKQK) keyingi yillarda onalar o'limining asosiy sababchisi bo'lib kelmoqda. Mamlakatimizda tug'ruqdan keyingi qon ketishlarda (TKQK) tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha xalqaro tavsiyalar asosida tuzilgan va doimiy ravishda yangilanadigan Milliy standartlar mavjud bo'lishi va amalda qo'llanilishiga qaramasdan, muammo o'ta dolzarbligicha qolmoqda [2]. Afsuski, homiladorlarga, shu jumladan TKQKlarda shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatishni tashkil etish bo'yicha ishlar yetarli darajada emas; birlamchi bo'g'in va tug'ruq muassasalari ishida izchil bog'liqlik haqida ma'lumotlar mavjud emas, ayollar shifoxonaga shifokor yo'llanmasisiz kelishadi, bu esa salbiy oqibatlar xavfini oshiradi. Ma'lumki, homiladorlik va tug'ruq davrida ayollarga ko'rsatilayotgan tibbiy yordam sifatining nazorati tarkibini tibbiy yordamning klinik-iqtisodiy samaradorligini baholash, standart talablari, shuningdek, so'rovnomalar o'tkazish, bemorlar bilan qayta aloqa bog'lash, shikoyatlar va murojaatlar bilan ishlash ustuvorligini belgilash yo'li orqali bemorlarning qanoat hosil qilish monitoringi tashkil etadi [5]. TKQKlarning salbiy oqibatlarini tahlil qilganda tibbiy xodimlar va barcha muassasa faoliyatining monitoringi alohida o'rin egallaydi.

I Bo'lim. Tibbiy muassasa faoliyatining monitoringi nima? Maqsadlar, vositalar, indikatorlar.

Monitoring – bu tug'ruqdan keyingi qon ketishlarni oldini olish va ularga qarshi kurashish bo'yicha ko'rsatilayotgan xizmatlar sohasida tizim ishi ko'rsatkichlarini yaxshilash jarayoni ustidan o'rnatilgan doimiy nazoratdir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tug'ruqdan keyingi qon ketishlarni oldini olish va ularga qarshi kurashish bo'yicha ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish natijasida quyidagilarga imkon yaratiladi:

- TKQK sonini va ayol salomatligi bilan bog'liq bo'lgan xavfni kamaytirish
- Onalar kasallanish va o'lim ko'rsatkichlarini pasaytirish
- Qon va qon preparatlarini quyish sonini hamda u bilan bog'liq xavflarni kamaytirish
- Homiladorlar orasida TKQK xavf guruhlarini aniqlash

• TKQK xavfi mavjud bo'lgan ayollar uchun maqbul vaqt va tug'ruq usulini tanlash

• Tug'ruq muassasalarining tibbiy xodimlari va rahbarlari malakasini oshirish

Monitoring vositalari:

• So'rovnoma – TKQKga qarshi kurashish bo'yicha ko'rsatilayotgan xizmat vaqtida tibbiy xodimni kuzatish

• So'rovnoma – Tibbiy xodimni so'roqlash

• So'rovnoma – Tug'ruq muassasalari rahbarlarini so'roqlash

• So'rovnoma – TKQKga qarshi kurashish bo'yicha xizmat ko'rsatilgandan keyin bemorlarni so'roqlash

• So'rovnoma – TKQKga qarshi kurashish bo'yicha xizmatlarni ko'rsatish uchun tibbiy muassasa va uning jihozlanishini baholash

• So'rovnoma – TKQK bo'yicha tibbiy hujjatlarni to'ldirish sifatini baholash

Monitoring indikatorlari:

1. Sog'liqni saqlash vazirligi uchun:

-TKQKlarga qarshi kurashishda dalillarga asoslangan tibbiyot va mavjud xalqaro standartlar asosida tuzilgan zamonaviy texnologiyalarni tadbiq etish bo'yicha Dastur/standartlarning mavjudligi;

-homiladorlikda, tug'ruqda va tug'ruqdan keyingi davrda ayollarga yordam ko'rsatish xizmatlarini muvofiqlashtiruvchi qo'mitaning mavjudligi;

asosiy dorivor vositalar milliy ro'yxatida TKQKlarga qarshi kurashish uchun asosiy vositalar ro'yxatining mavjudligi;

-TKQK bo'yicha xizmatlar ko'rsatadigan muassasalar profile;

-fertil yoshidagi ayollar soni;

-tug'ruqlar soni;

-onalar o'limi;

-onalar kasallanishi;

-TKQK kuzatilgan ayollar soni;

-TKQK kuzatilgan ayol/qarindoshi tomonidan kelib tushgan shikoyatlar soni.

2. TKQK bo'yicha xizmatlar ko'rsatadigan tibbiy muassasalar uchun:

TKQK kuzatilgan ayol/qarindoshi tomonidan kelib tushgan shikoyatlar soni;

tibbiy hujjatlarni olib borish sifati;

tug'ruqdan keyingi qon ketishlarni oldini olish va ularga qarshi kurashish usullari bo'yicha o'qitish Dasturlari va jadvallarining mavjudligi; (ish joyida simulyatsion treninglar bayonnomalari)

• Tug'ruqdan keyingi qon ketishlarga qarshi kurashish uchun dori vositalari, laboratoriya va anjomlarning mavjudligi;

• Qon va qon preparatlari zahiralari, shuningdek donorlar ro'xatining mavjudligi;

3. Tibbiy xodimlar uchun:

- 3 toifali baholovchi karta;

- antenatal parvarish bo'yicha xizmatlar ko'rsatadigan klinikalar uchun – TKQK bo'yicha maslahat berilgan homilador ayollar soni. Tibbiy xodimlarni TKQKda tashxisot va shoshilinch yordam ko'rsatish usullari bo'yicha bilim darajasini imtihon qilish;

- butun jamoani – rahbarlarni, yoshi katta shifokorlarni, yosh shifokorlarni, doyalarni, hamshiralarni TKQKda tashxisot va TKQKni to'xtatish usullari bo'yicha bilim darajasini imtihon qilish;

dalillarga asoslangan tibbiyot asos qilib olingan, mamlakatimiz ehtiyojlariga moslashtirilgan TKQKlar bo'yicha zamonaviy qo'llanma/standartlarning mavjudligi;

II Bo'lim. TKQKlarni oldini olish va ularga qarshi kurashish bo'yicha xizmatlarni ko'rsatishda kasbiy faoliyatni yaxshilash. Kontsepsiyaning qo'llanilishi.

Kasbiy faoliyatni yaxshilash – individual yoki jamoaviy (muassasa) ishning shunday darajaga erishish jarayoni-ki, uning natijasi TKQKlarni oldini olish va ularga qarshi kurashish bo'yicha yuqori sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish bo'lib hisoblanadi. KFni yaxshilash – bu kutilgan tashkiliy (muassasa darajasida) yoki individual natijalarga erishish jarayonidir. KFni yaxshilashdan maqsad TKQKlarni oldini olish va ularga qarshi kurashishda yuqori sifatli, turg'un takomillashuvchi xizmatlarni ko'rsatish hisoblanadi. Bu natijalarga quyidagilarni o'z ichiga olgan jarayon tufayli erishiladi:

- tashkiliy masalalarni hisobga olish;

- ishning kutilgan ko'rsatkichlarini ta'riflash;

- kutilgan haqiqatdagi ko'rsatkichlar orasidagi tafovutlarni belgilash va bu tafovutlarning asosiy sabablarini aniqlash, tafovutlarni bartaraf etish bo'yicha aralashuvlarni tanlash;

amalg oshirilgan aralashuvlardan keyin o'zgarishlarni aniqlash.

Jarayon natijalari quyidagicha erishiladi:

- kutilgan kasbiy darajani tavsiflash bilan;
- kutilgan va haqiqatdagi kasbiy darajalar orasidagi tafovutlarni aniqlash bilan;
- tafovutlarning asosiy sabablarini aniqlashtirish bilan;
- tafovutlarni bartaraf etish uchun yondashuvlarni tanlash bilan;

Robert F.Mager shunday degan edi: “Ishni bajarmaganlik sababini aniqlashtirishga va bu masalani hal etishga yondashuv....”

TKQKlarga qarshi kurashishda ko’rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishga yo’naltirilgan kasbiy faoliyatni yaxshilash jarayonida biz (tibbiy muassasa rahbarlariga) quyidagi savollarni berishni tavsiya etamiz:

- ishdagi kamchilik o’qitish yo’li orqali bartaraf etiladimi? Muammoni boshqa, muvofiqroq yechimlari yo’qmi?
- qaysi yechim eng katta unum beradi?
- agar o’qitish muammoni hal etishda eng yaxshi yechim bo’lsa, mavzu amaliy ko’rinishda berilishi va o’qitishdan so’ng ish faoliyatiga tadbiiq etilishiga qanday kafolat berish mumkin?
- kasbiy faoliyatni yaxshilashga o’qitishdan farqli o’laroq qanday erishiladi?
- ko’p holat bizga bog’liq bo’lmaganligini bilgan holda kasbiy faoliyatni yaxshilashga qanday erishish mumkin?
- kasbiy faoliyatni yaxshilash tibbiy xizmat sifatini oshirish dasturlari bilan qanday ravishda bog’liq?
- xususan kimning darajasini oshirish lozim?

TKQKni oldini olish va unga qarshi kurashish bo’yicha tibbiy xodimlarning kasbiy faoliyatini yaxshilashga yo’naltirilgan siyosatni o’tkazishda, biz ish sifatini yaxshilashga bo’lgan ikkita yondashuvni – rivojlangan ishlab chiqarish korporatsiyalaridagi yondashuv hamda qilingan monitoring tavsiyalarini taqqoslashni tavsiya etamiz.

Yirik ishlab chiqarish korporatsiyalari: Turli o’zgaruvchan (ta’sir ko’rsatuvchi omillar) ustidan nazorat. Zahiralarning yetarliligi – maqsad ulardan to’g’ri foydalanish. O’qitish narxi ma’lum – bu ko’pgina hollarda kasbiy faoliyatni yaxshilashga undaydigan sabab bo’lib hisoblanadi.

Quyida biz tibbiy xodimlar uchun kasbiy faoliyatni yaxshilash hamda TKQKni oldini olish va unga qarshi kurashish bo’yicha ko’rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish o’rtasidagi farqni aniqlashtirib keltiramiz (1-jadval).

1-jadval

Kasbiy faoliyatni yaxshilash va tibbiy xizmatlar sifatini oshirish

Faoliyatni yaxshilash	Sifatni oshirish
Inson xulq-atvori haqidagi fan	Statistika
Ijrochilarga urg’u	Bemorlarga urg’u
Kutilgan ish darajasiga qanday qilib	Zarur bo’lgan ishni hozir qanday

erishish mumkin?	qilib bajarish mumkin?
Inson xulq-atvori masalalari hal etiladi	Tizimli masalalar hal etiladi
Tor fokus	Keng fokus

Kasbiy faoliyatni yaxshilash uchun quyidagi yondashuvlarni qo'llash zarur:

- Undovchi – “qayta aloqa” tizimini ishlab chiqish; moliyaviy jihatdan mukofotlash; yaxshi faoliyatni rag'batlantirish; malakali xodimlarni qo'llab quvvatlashga manfaatdor bo'lgan rahbarlik tizimini o'rnatish;

- Infratuzilmani o'zgartirish – ishni sifatli bajarish uchun zarur bo'lgan yondashuvlar, anjomlar bilan ta'minlash; ishni bajarish bo'yicha qo'llanma, standartlarni yaratish; kadrlarni taqsimlash tizimini yaxshilash; ta'minot tizimini yaxshilash; ko'rgazmali qo'llanmalarni joriy etish;

- Bilimni oshirish bo'yicha yondashuvlar – guruhlariga ajratib o'qitish; ish joyida o'qitish; sinov va xatolarga yo'l qo'yish yo'li bilan o'qitish; mustaqil o'rganish; fikr-mulohazalar tizimi;

III Bo'lim. Tibbiy xizmatlar sifati: tushuncha, mezonlari. Kasbiy faoliyatni yaxshilash bosqichlari.

KFni yaxshilash jarayonining bosqichlari.

I bosqich – Ish ko'rsatkichlarini tahlil qilish. Bu tahlil TKQKda kutilgan va haqiqatdagi yordam ko'rsatish o'rtasida tafovut borligini aniqlash uchun zarur. Agar ishning kutilgan ko'rsatkichlari hali shakllantirilmagan bo'lsa, ularni quyidagi savollarga javob berib shakllantiring:

- TKQKni oldini olish va unga qarshi kurashish borasida bizning muassasamiz nima qilishi kerak?

- Qanday sharoitlarda?

- Biz qanday ko'rsatkichlarga erishishimiz lozim?

Ishning kutilgan ko'rsatkichlarini SSV talablarini, milliy standart/qo'llanmalarni hisobga olib, manfaatdor shaxslarni (rahbarlar, tibbiy xodimlar, bemorlar) maksimal darajada jalb etib shakllantirish kerak.

II bosqich – Tafovutlarning asosiy sabablarini topish. Buning uchun quyidagi savolni berish zarur: “Nima sababdan ishning kutilgan va haqiqatdagi natijalari orasida aniqlangan tafovutlar mavjud?” Hamda, tegishli aralashuvni tanlashdan avval barcha manfaatdor shaxslardan ma'lumot yig'ing va TKQKga qarshi kurashish bo'yicha yomon ko'rsatkichlarning sabablarini aniqlang. Eng ko'p uchraydigan sabablar:

- Bilim va ko'nikmalarning yetishmasligi;
- Dori-darmon vositalari, asbob-uskunalar bilan ta'minotning yetarli darajada bo'lmasligi;
- Qon va uning mahsulotlari zahiralarining yo'qligi;
- Xonalar, anjomlar yoki sarf etiluvchi materiallarning nomuvofiqligi;
- Bemor va jamiyatga e'tiborning jalb etilmasligi;
- Rahbariyat tomonidan qo'llab-quvvatlash/tushunishning yetarli darajada bo'lmasligi yoki umuman yo'qligi;
- Ish sifati haqida qayta aloqaning yo'qligi;
- Bemorning haq-huquqi va tibbiy xodimning vazifalarini aniq anglamaslik.

III bosqich – aralashuvni tanlash. TKQKga qarshi kurashish bo'yicha ishni kutilganidek va haqiqatda bajarilishi orasidagi tafovutlarni bartaraf etish uchun aralashuvlarni tanlang va ishlab chiqing. Barcha aralashuvlarni bir vaqtda o'tkazishning iloji yo'q – tanlanganlar orasida ustuvorini tanlab oling. Xarajatlar va erishiladigan afzalliklarni yaxshilab chamalab ko'ring. Ustuvorliklarni tanlashda quyidagi mezonlarni hisobga oling:

• O'rinalilik – mazkur aralashuv TKQKga qarshi kurashish bo'yicha ishni kutilganidek va haqiqatda bajarilishi orasidagi tafovutlarni haqiqatdan ham bartaraf etishda ko'maklashadimi? TKQKga qarshi kurashish bo'yicha ko'rsatilayotgan xizmat sifatini yaxshilashda samarali bo'ladimi?

• Byudjet – bunday aralashuvga mablag' yetarli bo'ladimi, u turg'un tabiatga ega bo'ladimi?

• Bajarilishi – mazkur aralashuvni qo'llab-quvvatlash uchun infratuzilma mavjudmi? Bu aralashuv mablag'i chegaralangan muassasada muvaffaqiyatga ega bo'ladimi?

• Bemorlar uchun maqbulligi – atrofdagilar va bemorlar mazkur aralashuvni qanday qabul qilishadi? Ular buni qo'llab-quvvatlashadimi?

• Tibbiy xodimlar uchun maqbulligi –muassasa tibbiy xodimlari va rahbarlari mazkur aralashuvni qo'llab-quvvatlashga rozi bo'lishadimi?

IV bosqich– aralashuvni bajarish. Aralashuvni bajarishni boshlang va monitoring tizimini tashkil eting. Kundalik ishlarga o'zgarishlar kontseptsiyasini kiriting, KFni yaxshilash bo'yicha samaradorlikni qo'llab-quvvatlash va maqsadlarga erishish uchun bu o'zgarishning bevosita va bilvosita ta'sirini yaxshilab nazorat qiling.

V bosqich– monitoring o'tkazish va ish ko'rsatkichlarini baholash. Bu bosqich uzluksiz bo'lishi kerak. Ma'lum bir bosqichlar ishning umumiy tashkiliy va

I.Kant o‘z davrining mutafakkiri sifatida sof ilmiy tafakkur, ratsionalizm XVIII asrda Yevropa, xususan, Germaniyada keskinlashib borayotgan ijtimoiy ziddiyatlar, boshlanib kelayotgan ma’naviy inqirozga zamin yaratayotganligini teran anglab yetadi va bunday xavfning oldini olish, bartaraf etish uchun yangicha falsafa, dunyoqarash zarur deb biladi. Va u o‘zining falsafiy ta’linotini yaratadiki, unda “inson ongining nazariy aqldan yuqori, transendental (aprior) bilish qobiliyati mavjudligi va bu qobiliyat tafakkur bilan emas, balki inson qalbi, e’tiqodi va abadiyat g‘oyalari bilan bog‘liqligi haqidagi fikrlarni oldinga surgan” [9,15].

I.Kant san’atni ana shunday tafakkur, nazariy aqldan yuqori turuvchi transendental bilimni hosil qiluvchi inson faoliyatining sohasi deb biladi. Uning fikricha, san’at insonning maqsadga muvofiq faoliyatning shunday sohasiki, unda aprior his-tuyg‘u va aprior aql, tafakkur o‘zaro ichki uyg‘un(garmoniya)likda go‘zallik va ulug‘vorlik mezoni bilan baholaniladigan transendental (ilohiy, intuitiv) bilim hosil qiladi.

Shu ma’noda aytish mumkinki, I.Kant falsafasining negizini Haqiqat, Ezgulik, Go‘zallik oliy qadriyatlarining mazmunini o‘zida uyg‘unlashtirgan (sintezlashtirgan) estetik ong shakli va estetik faoliyat sohasi- san’at tashkil etadi.

I.Kant transendental falsafasining gnoseologik ildizi Sharq falsafasi, aniqrog‘i tasavvuf ta’limoti g‘oyalari bilan tutashdir. Chunki mazkur ta’limotga binoan, inson Haqiqatni (Xudoni) mutlaq Go‘zallik timsoli tarzida eng yuksak his-tuyg‘u,(aprior) ishq orqali bilib oladi va shu tufayli o‘z faoliyatini ezgulik maqsadiga yo‘naltiradi.

I.Kantning zamondoshi G.V.Gegelning falsafiy sistemasida ham san'at muhim o'rin egallaydi. Uning ko'p jildlik "Estetika" deb nomlangan fundamental asarida san'atni, o'zining ob'yektiv idealistik qarashidan kelib chiqqan holda, "bilish va ilohiylikni, ruh haqiqatini o'zida mujassamlashtiruvchi eng teran insoniy maqsadlarini ifodalash usullaridan biridir", deb ta'riflaydi. Va yana mazkur ta'rifga aniqlik kiritib ta'kidlaydi: "san'atning haqiqiy predmeti haqiqat ruhidir"[3,17]. Faylasuf san'atning mazkur xususiyatini, predmetini belgilashda undagi his-tuyg'u va tafakkur uyg'unligini muhim tamoyil deb ko'rsatadi.

Gegel hissiyotni ruh, haqiqatni ifodalash vositasi, tashqi shakli deb emas, balki mohiyatni o'zida mujassamlashtiruvchi mazmun sifatida olib qaraydi. "San'at asari sof hissiyot emas,-deb yozadi faylasuf, -balki hissiyotda namoyon bo'ladigan ruhdur". Binobarin, faylasuf fikricha, san'atning maqsadi ruh, haqiqatning mohiyatini ochib berish bo'lmog'i kerak.

Insonning o'z borlig'ini transendental mohiyatini anglashi san'atning ma'naviyat fenomeni maqomining o'zak masalasi bo'lib, bunga u oddiy mantiqiy usul, tamoyillari, empirik darajadagi hissiyot bilan emas, balki yuksak aprior aql va ruh birligidagi intuitiv bilish orqali erishadi va bunda san'at belgilovchi rol o'ynaydi, deb qaraladi. Zotan, falsafaning asliy "hikmat ilmi (ma'naviyat fenomeni-izoh bizniki) sifatidagi mohiyati borliqni intellektual emas, balki intuitiv bilishida, ruhiyatshunosligidadir" [3-9].

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, I.Kant va G.B. Gegelning falsafasi ta'sirida keyinchalik Yevropada bir qancha, falsafiy-estetik ta'limotlar va san'atdagi oqimlar yuzaga keladi. Ularning aksariyati bir-biridan, asosan, san'atning mohiyati, vazifasi masalalarini his-tuyg'u va tafakkur nisbati hamda darajalarida (oddiy yoki transendental), shuningdek, uning (san'atning) boshqa ijtimoiy ong shakllari- din, falsafa, fan bilan bo'lgan o'zaro munosabatida talqin etishligi bilan farqlanadi [14-15].

O'tgan asr kommunizm mafkurasi hukmronligi davrida G'arb falsafiy-estetik oqimlari, san'atdagi yo'nalishlariga "burjua reaksiya ta'limotlar" degan tamg'a bosilib, asossiz tanqid qilinib kelindi. Ularning insoniyat falsafiy-estetik tafakkuri taraqqiyoti mahsuli o'laroq yuzaga kelgan nazariya, qarashlar ekanligi inkor etildi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, insonning o'z borlig'ini - transendental mohiyatini anglashi san'atning ma'naviyat fenomeni sifatidagi maqomining o'zak masalasi hisoblanadi. Bunga u oddiy mantiqiy usul, tamoyillari, empirik darajadagi hissiyot bilan emas, balki yuksak aprior aql va ruh birligidagi intuitiv bilish orqali erishiladi va bunda san'at belgilovchi rol o'ynaydi. Zotan, san'atning ma'naviyat fenomeni

sifatidagi mohiyati borliqni faqatgina intellektual emas, balki intuitiv bilishida, ruhiyatshunosligidadir. Shunga ko'ra san'atning ma'naviyat mezoni sifatidagi mohiyati uning hus tuygu va tafakkur uyg'unlida namoyon buladi, deb aytish mumkin. San'atning ushbu jihati uning umuminsoniy qadriyat darajasida yarailishi va amal qilishining muhim mezonidir. Shu ma'noda san'at asarlarini yaratishda ijodkor shaxsni ma'naviy borlig'ini va o'zligini shaxs sifatida kamol topishida yuksak umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash muhim ahamiyatga ega bo'lib ayni payda yaratilgan san'at asarlari inson ma'naviy olamini boyitishga hissa qo'shadi.

Bugungi kunda kishilarimiz, xususan, yoshlarimizni umuminsoniy ma'naviy qadriyatlar asosida o'zligini anglashi, ma'naviy barkamol insonlar sifatida voyaga etkazishda milliy qadriyatlarning umuminsoniy ahamiyatga ega falsafiy-estetik g'oyalar, ta'limot, yo'nalishlar bilan yaqindan tanishib, ular haqida estetik dunyoqarashi va tafakkurga ega bo'lmog'i zarur, yangidan-yangi san'at asarlari yaratuvchisi va ijodkoriga aylanishiga turtki bermoq kerak.

REFERENCES

1. Баумгартен, А. Г. (1964). История эстетики. Памятники мировой эстетической мысли/Баумгартен А. Г. М.: *Искусство*, 2.
2. И.Малмберг. (1995). Музиканинг ботиний қирралари. *Сирли олам*. №4, 5-бет.
3. Гегель Г.В. (1977). Философия духа. Том.3. М. "Мысль". стр. 54.
4. И.Кант. (1965). Сочинение. в 6 том. Т-5. Москва. стр.94.
5. Кант И. (1999). Критика чистого разума. Перевод с немецкого. Ростов – на Дону, с- 60, 91.
6. Ма'naviyat. Asosiy tushunchalar izohli lug'ati. Т., G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa uyi, 2010, 300-360-betlar.
7. Olloyorov M. (2003). Estetika. Ma'ruzalar kursi. Samarqand, 86-106.
8. Ш.Қаҳҳорова. (2009). Глобальная духовность является идеологической основой глобализации. Т. «Тафаккур», с.107.
9. Sh.Қаҳҳорова. (2012). Insonparvar dunyoqarash-xaloskor kuch. "Tafakkur" jurnali, 1, 1-son, 15-bet.
10. Платон.Федон. Сочинения. (1970). В 3 томах., т-2.М.:Мысль, с.48.
11. Mavlanovna, A. M., & Kurbanovna, M. M. (2021). Socio-philosophical problems of culture and marginal spirituality. *Academica: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 2579-2583.

12. Mavlanovna, A. M. (2021). Problems of transforming a healthy worldview and creativity into a nationwide movement in society. *Asian Journal Of Multidimensional Research*, 10(7), 32-36.
13. Mavlanovna, A. M. (2020). Moral Issues Of Upbringing A Person In A Healthy Spirit. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 2(09), 354-358.
14. Аллаярова, М., & Нурматова, У. (2018). Некоторые вопросы формирования эстетического отношения человека к природе. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (3-4), 137-140.
15. Mavlanovna, A. M. (2020). Moral Issues Of Upbringing A Person In A Healthy Spirit. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 2(09), 354-358.
16. Zikirov, M. C., Qosimova, S. F., & Qosimov, L. M. (2021). Direction of modern design activities. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 10(2), 11-18.
17. Akmalova, P. D. (2019). The concept of moral personality development in creativity of thinkers of central asia. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 9(1), 135-141.
18. Mavlanovna, A. M. (2020). Symbolism In Art And Metaphorism, Metonymy As A Method Of Aesthetic, Spiritual-Psychological Assimilation Of Existence. *Solid State Technology*, 63(6), 3431-3437.

IJTIMOIIY FALSAFA

Arislanbayeva Zoya Ernazarovna

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "Ijtimoiy-gumanitar fanlar"
kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari nomzodi

ANNOTATSIYA

Ijtimoiy falsafa — falsafa fanining jamiyat va uning taraqqiyoti qonuniyatlarini o'rganuvchi sohasi. Ijtimoiy falsafa insonlarning amaliy faoliyati va ular o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni ham tahlil qiladi. Insonlar turli faoliyatlari jarayonida o'z hayotlari uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlarni, ijtimoiy muhitni yaratadilar va bu jarayonda o'zaro turli munosabatlar o'rnatadilar. Anglaganingizdek, ushbu maqolada ijtimoiy falsafa xususida so'z yuritildi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy falsafa; tafakkur; jamiyat; materialistik talqin.

SOCIAL PHILOSOPHY

Arislanbayeva Zoya Ernazarovna

Uzbek State Institute of Arts and Culture, Associate Professor of "Social
Sciences and Humanities", Candidate of Philosophical Sciences

ABSTRACT

Social philosophy is a branch of philosophy that studies the laws of society and its development. Social philosophy also analyzes the practical activities of people and the social relations between them. In the course of their various activities, human beings create the material and spiritual goods and social environment necessary for their lives, and in the process they establish various relationships with each other. As you can see, this article is about social philosophy.

Keywords: social philosophy; contemplation; society; materialistic interpretation.

СОЦИАЛЬНАЯ ФИЛОСОФИЯ

Арисланбаева Зоя Эрнazarовна

Доцент кафедры социальных и гуманитарных наук Узбекского
государственного института искусств и культуры, кандидат философских наук.

АННОТАЦИЯ

Социальная философия - это раздел философии, изучающий законы общества и его развития. Социальная философия также анализирует практическую деятельность людей и социальные отношения между ними. В

ходе своей разнообразной деятельности люди создают материальные и духовные блага и социальную среду, необходимые для их жизни, и в процессе они устанавливают различные отношения друг с другом. Как видите, эта статья о социальной философии.

***Ключевые слова:** социальная философия; созерцание; общество; материалистическая интерпретация.*

KIRISH

Falsafa odam va olam taraqqiyotining eng umumiy qonunlari, insonning olamdagi o'zni to'g'risidagi fandır. Falsafa «Olam nima?» «Olam qanday?» «Uni bilish mumkinmi?» kabi savollarga javob izlash jarayonida eng qadimiy davrlardan boshlab shakllandi. Ma'lumki, jamiyat o'zaro ijtimoiy munosabatlarda bo'lgan insonlardan tashkil topadi. Insonlarning turli faoliyati ular ijtimoiy hayotining asosiy mazmunini tashkil etadi va jamiyat taraqqiyotini belgilaydi. Ijtimoiy falsafa insonlar faoliyati va ijtimoiy munosabatlarning obyektiv va subyektiv tomonlarini tahlil qiladi. Ijtimoiy falsafaning asosiy masalasi — insonlarning ongi, tafakkuri, borligi, turmushidir. Bu, bir tomondan, ularning maqsadlari, iqtisodiy, siyosiy, axloqiy mo'ljallarini, ikkinchi tomondan, ular hayoti va faoliyatining obyektiv shart-sharoitlarining o'zaro bog'liqligini o'z ichiga oladi. Jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarini idealistik yoki materialistik talqin qilish mumkin. Idealistik nazariya jamiyatdagi barcha o'zgarishlarning sababchisi insonlarning ongi yoki dunyoviy ruh deb tushuntiradi. Unga ko'ra, jamiyatda insonlar ongli ravishda faoliyat ko'rsatadilar, chunki ular biron-bir ish qilishdan oldin uni o'z onglarida, tafakkurlarida o'z maqsadlari va uning mohiyatini aqlan tasavvur qiladilar. Ya'ni, bajaradigan ishlari, faoliyatlarining g'oyaviy, aqliy rejasi uning amaliy natijasidan oldin tuziladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ijtimoiy falsafa jamiyat haqidagi falsafiy bilimlar tizimi sifatida falsafa fanidan kelib chiqqan. Agar falsafa olam va odam munosabatlari tahlili bilan shug'ullansa, ijtimoiy falsafa jamiyat va inson munosabatlarni tadqiq etadi. Agar falsafa olam, uning mohiyati, qonuniyatlari to'g'risidagi fan bo'lsa, ijtimoiy falsafa olamning tarkibiy qismi bo'lgan jamiyat haqidagi falsafiy bilimlar tizimi hisoblanadi. Ijtimoiy falsafa falsafa fani bag'ridan o'sib chiqqan. Uni falsafiy ta'limotlarning o'ziga xos ko'rinishi sifatida tahlil qilmoq lozim. Ijtimoiy falsafa ontologiya, gnoseologiya, metodologiya, antropologiya ta'limotlari bilan bevosita bog'liq, u shu ta'limotlarning jamiyatga izchil tatbiq etilishining natijasi va mahsuli hisoblanadi. Ijtimoiy falsafa borliq falsafasi, antologiya ta'limoti bilan bevosita bog'liq ravishda shakllangan.

Falsafa borliqni bir butun yaxlit olam sifatida olib o'rgandi. Ijtimoiy falsafa borliqning o'ziga xos ko'rinishi, ijtimoiy borliq, uning mohiyati, qonuniyatlarini aks ettirishdir.

Falsafiy bilimlarning rivojlanib, chuqurlashib borishi oqibatida psixologiya, formal mantiq, etika, estetika kabi fanlar ajralib chiqqan. Ayni vaqtda falsafaning jamiyat, insonga bevosita daxldor muammolari va bu muammolar doirasida erishilgan ilmiy bilimlar ijtimoiy falsafaning shakllanishiga sababchi bo'lgan. Ijtimoiy falsafa o'rganish obyekti – jamiyat. Ijtimoiy falsafa kishilik jamiyatining mohiyati, kelib chiqishi, tarkibi haqida bahs yuritadi. Ijtimoiy falsafa jamiyat haqidagi eng umumiy bilimlar, tushunchalar majmui bo'lishi bilan bir qatorda ijtimoiy rivojlanish yo'lida kelib chiqadigan muammolarni oqilona hal etish, jamiyat istiqbolini oldindan ko'rish imkonini beradi. Ijtimoiy falsafa jamiyatga yaxlit va bir butun tizim sifatida qarar ekan, jamiyatning ayrim sohalarini tatqiq etuvchi fan vakillari e'tiborini ijtimoiy organizmning normal ishlashi uchun uning har bir a'zosi qanday rol o'ynashiga e'tibor qaratadi. Ijtimoiy falsafa jamiyatni kishilarning o'ziga xos uyushuvidan iborat ijtimoiy organizm, deb biladi va shu asosida jamiyatning eng kichik subatami – inson ekanligiga diqqatni qaratadi. Kishilik jamiyati va insonning kelib chiqishi, insonning jamiyatga munosabati, uning jamiyatdagi o'rni ijtimoiy falsafa tatqiq etadigan eng muhim muammolaridan biridir. Ijtimoiy falsafa jamiyat va insonni uzluksiz o'zgarib, rivojlanib boruvchi tizim sifatida o'rganadi va ijtimoiy taraqqiyotning mazmun-mohiyati, shakl va ko'rinishlari, ijtimoiy taraqqiyot qonunlari to'g'risida bahs yuritadi. Ijtimoiy falsafa doirasidagi eng muhim muammo – jamiyatni bilish muammosidir. Ijtimoiy falsafa jamiyatda kechadigan ijtimoiy voqea va jarayonlarni ilmiy bilishning metodologik asoslarni ishlab chiqadi.

Ijtimoiy falsafaning asosiy tushunchalari deganda «jamiyat», «inson», «borliq», «ijtimoiy ong», «ijtimoiy munosabat», «ijtimoiy ishlab chiqarish», «ijtimoiy jarayon», «madaniyat», «ma'naviyat», «qadriyat», «obyektiv shart-sharoit», «sivilizatsiya», «subyektiv omillar», «manfaat», «shaxs», «oila, tadrijiy rivojlanishi», «iqtisodiy hayot», «ijtimoiy-siyosiy hayot» kabilar nazarda tutiladi. Ijtimoiy falsafaning fan darajasiga ko'tarilishida G'arb falsafasining yirik vakili, fransuz faylasufi Ognest Kantning o'ziga xos o'rni bor. Uning qarashlarida jamiyatning falsafiy tahlili alohida o'rin tutadi. Kant o'zining «Pozitiv falsafa kursi» kitobida jamiyatni murakkab tuzilishga ega tafakkur shakllari vositasida rivojlanib boruvchi organizm, deb hisoblaydi. Uning fikricha, fan va falsafa jamiyat qonunlarini bilib olish kerak. U jamiyat taraqqiyotini ilm taraqqiyoti bilan bog'laydi va jamiyat pozitiv ilmlar asosida qayta quriladi, deb hisoblaydi.

XULOSA

Ijtimoiy falsafaning nazariy vazifasi ijtimoiy taraqqiyot jarayonining mohiyati, mazmuni va yoʻnalishini asoslab beradi. Uslubiy vazifasi ijtimoiy hayotdagi ayrim hodisa va jarayonlarni turli ijtimoiy fanlar tomonidan tadqiq etishda uning qonuniyatlaridan foydalanishdan iborat. Ijtimoiy falsafaning oldindan aytish vazifasi jamiyat, uning ayrim tomonlari taraqqiyoti, inson faoliyatining yaqin va boʻlajak oqibatlarini oldindan aytib berishdan iborat. Ijtimoiy falsafaning mazkur vazifalari falsafiy tafakkur nazariyasi va uslubini egallagan har bir inson ongining takomillashuvida namoyon boʻladi. Falsafiy tafakkur esa jamiyat taraqqiyotidagi ijtimoiy hodisalarni anglash va amaliy vazifalarni hal qilishning muhim vositasidir.

REFERENCES

1. Bilish falsafasi. — T.: "O'zbekiston" NMIU. 2005.
2. Алексеев П. В. Социальная философия. Москва. 2013.
3. To'rayev B. O. Falsafa tarixiga kirish. Samarqand. 2010.
4. Falsafa asoslari. — Toshkent. "Universitet". 2015.
5. Крапивенский С. Социальная философия. Москва. " Владос". 2011.
6. Choriyev A. Inson falsafasi. Toshkent. 2006.

O‘ZBEK OILALARIDAGI AYOLLARGA NISBATAN ZO‘RAVONLIKNING IJTIMOIIY PSIXOLOGIK ASOSLARI

Ziyavutdinova Xumora Shermamatovna

Andijon Davlat Universiteti

Umumiy psixologiya kafedrası tayanch doktoranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘zbek oilalaridagi ayollarga nisbatan zo‘ravonlik muammosi muhokama qilinadi. Ayollarga nisbatan zo‘ravonlik o‘zi nima, qanday ko‘rinishlari va turlari mavjud ekanligi haqida so‘z boradi. Oilaviy zo‘ravonlik qurboniga aylangan ayollar psixikasidagi o‘zgarishlar yoritib beriladi. Bundan tashqari oilaviy zo‘ravonlik keltirib chiqarishi mumkin bulgan oqibatlar va ularni oldini olish bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

***Kalit so‘zlar :** oilaviy zo‘ravonlik, ayollar zo‘ravonligi, bolalarga nisbatan zo‘ravonlik, zo‘ravon shaxs, xavf omillari ruhiy kamsitilish, iqtisodiy zo‘ravonlik, jismoniy zo‘ravonlik, psixologik zo‘ravonlik.*

ABSTRACT

This article discusses the problem of violence against women in Uzbek families. Violence against women is about what it is, what it looks like and what types it is. Changes in the psyche of women victims of domestic violence are highlighted. It also provides advice on the consequences of domestic violence and how to prevent it.

***Keywords:** domestic violence, violence against women, violence against children, violent personality, risk factors such as mental discrimination, economic violence, physical violence, psychological violence.*

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается проблема насилия в отношении женщин в узбекских семьях. Насилие в отношении женщин - это то, что это такое, как оно выглядит и какие типы. Отмечены изменения психики женщин, ставших жертвами домашнего насилия. Он также дает советы о последствиях домашнего насилия и о том, как его предотвратить.

***Ключевые слова:** насилие в семье, насилие в отношении женщин, насилие в отношении детей, агрессивная личность, такие факторы риска, как психологическая дискриминация, экономическое насилие, физическое насилие, психологическое насилие.*

KIRISH

Keyingi yillarda mamlakatimizda oilaviy zo‘ravonlik muammosiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, xotin-qizlar zo‘ravonligiga oldini olish va unga qarshi kurashish maqsadida 2019 yil 2 sentyabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining qabul qilinishi bu masalaning qanchalik ahamiyatli ekanligini yaqqol isbotidir. Bugungi kunda oilaviy zo‘ravonlik muammosi butun jahonning global muammosiga aylangan.

Oilaviy zo‘ravonlik jinsga asoslangan zo‘ravonlikning eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi. Oilaviy zo‘ravonlik bu - biror-bir oila a‘zosi oilaning boshqa bir a‘zosi tomonidan do‘q-po‘pisa qilinishi, bosim o‘tkazilishi, haqorat qilinishi natijasida vujudga keluvchi jarayon bo‘lib, u oiladagi insonlar o‘rtasida sodir bo‘ladi. Har bir inson oiladagi zo‘ravonlikning qurboni yoki ijrochisiga aylanishi mumkin. Biroq, qayd etilgan holatlarning aksariyati erkaklar tomonidan ayollarga nisbatan sodir etiladi. Oilaviy zo‘ravonlik BMT tomonidan erkaklar va ayollar o‘rtasidagi kuchlarning tengsizligi ifodasi sifatida belgilanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Oiladagi zo‘ravonlik bu yashirish, bostirish, toqat qilish yoki azob chekish emas. Oiladagi zo‘ravonlik holati, agar yuzaga kelsa, kelajakda uning takrorlanishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun uni to‘xtatish kerak. Oiladagi zo‘ravonlik yuzaga kelgan vaziyatda nima qilish kerakligini tushunishga yordam beradigan bir qator oddiy qadamlar mavjud. Oiladagi zo‘ravonlik, xoh bola, xoh kattalar, keksa odam, ayol yoki erkak bo‘lsin, har birimizning qurbonimiz bo‘lishi mumkin. Turmush o‘rtog‘i o‘z xotiniga nisbatan tajovuzni, aksincha, ota-onalar farzandlariga, farzandlar esa ota-onaga, aka-uka va opa-singillarga bir-biriga nisbatan tajovuzkorlikni namoyon qilishi mumkin. Bolalar o‘zlarining birodarlariga yoki opa-singillariga nisbatan zo‘ravonlik shaklida tajovuzkorlikni ko‘rsatishi mumkin.

Oilada o‘zaro muloqot jarayonida tabiiy ravishda nizolar va janjallar paydo bo‘lishi mumkin, ammo ularning hammasi ham zo‘ravonlik emas. Oiladagi zo‘ravonlikda zo‘ravonlik shakllarining takrorlanib turadigan davrlari mavjud.

1-davr. Oilada taranglikning kuchayishi. O‘zaro munosabatlarda norozilik kuchayadi va oila a‘zolari o‘rtasidagi aloqa buziladi.

2-davr. Zo‘ravonlik hodisasi. Og‘zaki, hissiy yoki jismoniy zo‘ravonlik avj oladi, g‘azab, tortishuvlar, ayblovlar, tahdidlar, qo‘rqitishlar bilan birga keladi.

3-davr. Yarashish. Zo‘ravon shaxs kechirim so‘raydi, sababini tushuntiradi, aybni jabrlanuvchiga yuklaydi, ba‘zida sodir bo‘lgan voqeani rad etadi yoki jabrlanuvchini voqealarni bo‘rttirib ko‘rsatishiga ishontiradi.

4-davr. O‘zaro munosabatlardagi tinch davr ("asal oyi"). Zo‘ravonlik davri unutiladi, tajovuzkor kechiriladi. Ushbu bosqich "asal oyi" deb nomlanadi, chunki bu bosqichda sheriklar o‘rtasidagi munosabatlarning sifati asl nusxasiga qaytadi.

Odatda, so‘nggi davr ya‘ni asal oyidan keyin munosabatlar birinchi bosqichga qaytadi va sikl takrorlanadi. Vaqt o‘tishi bilan har bir bosqich oralig‘i qisqaradi, zo‘ravonlik xolatlari tez-tez uchraydi va ko‘proq zarar keltiradi. Zo‘ravonlik qurboni vaziyatni o‘zi hal qila olmaydi.

Shuni ta‘kidlash kerakki, bunday vaziyatda aql bilan ongli ravishda harakat qilish juda qiyin bo‘lib qoladi. Agar insonga eng yaqin odamlaridan tahdid tug‘ilsa, qaror qabul qilish va zo‘ravonlik xolatini tugatish uchun ulkan jasorat talab etiladi. Yuz berayotgan bu sharmandalik xolatini, qarindoshlar, qo‘shnilar yoki ishdagi hamkasblar bilib qolishidan qo‘rqish, ko‘pincha, bu muammoni hal qilishga to‘sqinlik qiladi. Bundan tashqari, bizning mentalitetimizda oilada yuzaga keladigan muammolar haqida sukut saqlash kerak degan qarashlarning mavjudligi muammoni yashirishga majbur etadi. Odatda ko‘pchilik shunday qiladi: jimgina chidaydi va hamma narsa o‘tib ketishini kutadi. Afsuski, bu zo‘ravonlik yana va yana bir necha marta sodir bo‘ladi. Oiladagi zo‘ravonlik va oddiy, shaxslararo nizo o‘rtasidagi asosiy farq mana shu. Uyingizdagi zo‘ravonlikni bir marotaba to‘xtatish to‘g‘risida qaror qabul qilish insonni yanada azoblanishdan qutqaradi. Izlanishlarga ko‘ra, ayollar va qizlar ko‘pincha oilaviy zo‘ravonlikdan aziyat chekishadi. BMT ma‘lumotlariga ko‘ra, dunyodagi ayollarning taxminan 70 foizi hayoti davomida zo‘ravonlikni boshdan kechirgan. Erkaklar ko‘pincha turmush o‘rtog‘i, ota onasi, farzandlari, xonadoshlariga nisbatan tajavvuzkorlik namoyon etsa, ayollarda esa asosan, ota-onalar va bolalarga nisbatan kuzatiladi. Turmush o‘rtog‘i va sherigiga nisbatan zo‘ravonlik kamdan-kam holatlarda qayd etiladi. Oiladagi zo‘ravonlikning bir necha turlari mavjud: jismoniy, jinsiy, psixologik va iqtisodiy.

Jismoniy zo‘ravonlik - bu jabrlanuvchiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita ta‘sir o‘tkazish, jismoniy zarar yetkazish maqsadida, kaltaklash, tan jarohati yetkazish, tanaga og‘ir shikast yetkazish, kaltaklash, turtish, tepish, tarsaki ko‘rinishida bo‘ladi

Jinsiy zo‘ravonlik - bu odam o‘z xohishlariga qarshi jinsiy aloqada bo‘lishga majbur qilish, tahdid qilish yoki aldangan paytdagi zo‘ravonlik harakati.

Psixologik zo‘ravonlik - inson psixikasiga zarar yetkazish, haqorat qilish, qo‘rqitish, tahdid qilish, shantaj qilish, nazorat qilish kabilar

Iqtisodiy zo‘ravonlik - bu moddiy bosim bo‘lib, o‘qishni, ishlashni ta‘qiqlash, moddiy yordamdan mahrum qilish va daromadlarni to‘liq nazorat qilishda o‘zini namoyon qiladi. Shuni yodda tutish kerakki, shaxsiy daxlsizlik va xavfsizlik har qanday shaxsning ajralmas huquqi xisoblanadi. 1948 yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida barcha insonlar zo‘ravonliksiz yashash huquqiga ega ekanligi ta‘kidlangan. Insonni manipulyatsiya qilish va o‘z kuchlarini ko‘rsatish uchun tajovuzkorlar turli xil xatti-xarakatlardan foydalanadilar:

Hukmronlik – zo‘ravon o‘zaro munosabatlar uchun javobgarlikni his qilishlari kerak. Ular turmush o‘rtog‘i va boshqa oila a‘zolari uchun qarorlar qabul qilishadi, ularning nima qilishini aytib berishadi va so‘roqsiz ularga bo‘ysunishni kutishadi. Zo‘ravon o‘z qurboniga xizmatkor, bola yoki hatto uning mol-mulki kabi munosabatda bo‘lishi mumkin.

Xo‘rlik - tajovuzkor o‘z qurbonini nomukammal, kamsitilgan his qilishi uchun hamma narsani qiladi. Bunday vaziyatda, u o‘z qurbonining hech nimaga arziemasligiga va hech kim u bilan boshqa munosabatlarni o‘rnatishini istamasligiga ishonsa, ketish haqida qaror qabul qilish ehtimoli kamroq bo‘lishini kutadi. Ta‘qib qilish, suiiste‘mol qilish, tanbeh berish va ijtimoiy kamsitish qurbonning qadr-qimmatini pasaytirish va o‘zini nochor his qilish uchun qilingan zo‘ravonlik qurolidir.

Izolyatsiya – zo‘ravon qurbonini o‘ziga bog‘liqligini oshirish uchun uni tashqi dunyodan uzib qo‘yishga harakat qiladi. U oilasi yoki do‘stlarini ko‘rishni ta‘qiqlashi yoki hatto ish yoki maktabga borishini ta‘qiqlashi mumkin. Qurbon biror narsa qilishi, biron joyga borishi yoki kimnidir ko‘rishi uchun ruxsat so‘rash kerak bo‘lishi mumkin.

Tahdidlar - tajovuzkorlar, odatda, qurbonlarini o‘zidan uzoqlashishini oldini olish uchun tahdidlardan foydalanadilar yoki ular haqida xabar berolmasligi uchun qo‘rqitishga harakat qilishadi. Zo‘ravonlik qurboniga, farzandlariga, boshqa oila a‘zolariga yoki hatto uy hayvonlariga zarar yetkazish yoki o‘ldirish bilan tahdid qilishi mumkin. U, shuningdek, o‘z joniga qasd qilish bilan tahdid qilishi mumkin, o‘z qurboniga qarshi soxta ayblovlar qo‘zg‘atishi yoki tegishli tashkilotlarga xabar berishi mumkin.

Bezorilik – zo‘ravon o‘z qurbonini bo‘ysundirish uchun turli xil bezorilik xarakatlaridan foydalanishi mumkin. Bunday xarakatlarga tahdid soluvchi ko‘rinish yoki imo-ishoralalar, mol-mulkni yo‘q qilish va uy hayvonlariga og‘riq keltirish kiradi. Bu xolat bo‘ysunmaslik dahshatli oqibatlariga olib kelishi mumkin degan signaldir.

Rad etish va aybdorlik - zo‘ravonlar, hatto, kechirilishi mumkin bo‘lgan narsalar uchun ham kechirim so‘rashga usta. Ular o‘zlarining haqoratli va tajovuzkor xatti-harakatlarini yomon bolalik yoki yomon kun oqibatida ayblashadi va hatto buning uchun o‘z qurbonini ayblashlari mumkin. Zo‘ravon zo‘ravonlikni minimallashtirishi yoki hatto uning sodir bo‘lganligini rad etishi mumkin. U o‘zining zo‘ravonlik va qo‘pol muomalasi qurbonining aybi deya mas’uliyatni unga yuklashga harakat qiladi. Ushbu xarakatlarni o‘z vaqtida tashxislash qo‘pol munosabatlardan chiqish uchun to‘g‘ri tanlov qilishga imkon beradi!

XULOSA

Shuni yodda tutish kerakki, tajovuzkorlar o‘zlarining xatti-harakatlarini boshqarishga qodir - ular buni har doim qilishadi!

- zo‘ravonlar kimga qarshi zo‘ravonlik qilishni tanlaydilar. Ular xafa qilganlarni haqorat qilmaydi, tahdid qilmaydi yoki ularga hujum qilmaydi. Qoida tariqasida, ular yaqin odamlariga, o‘zlarini yaxshi ko‘raman deb da’vo qilganlarga nisbatan zo‘ravonlik ishlatadilar.

- zo‘ravonlar zo‘ravonlikni qachon va qaerda qo‘llashni diqqat bilan tanlaydilar. Atrofdagi ularning zo‘ravonlik xatti-harakatlarini ko‘radigan odamlar bor ekan, ular o‘zlarini nazorat qilishadi. Ular o‘zlarini jamoat joylarida hech narsa bo‘lmagandek tutishlari mumkin, ammo ular qurbonlari bilan yolg‘iz qolishlari bilan zo‘ravonlik qilishadi.

- zo‘ravonlar o‘zlarining zo‘ravonlik xatti-harakatlarini, bu ularga foyda keltirishi mumkinligini ko‘rganlarida to‘xtatishga qodir. Aksariyat zo‘ravonlar, aslida ularning manfaatlariga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan zo‘ravonlik xatti-harakatlarini to‘xtata oladi (masalan, polisiya kelganida).

- zo‘ravonlar ko‘pincha zo‘ravonlikni ko‘rinadigan izlar bo‘lmaydigan tarzda ishlatadilar. Jismoniy zo‘ravonlik bilan g‘azablanib harakat qilish o‘rniga, zarbalarni ko‘karishlar ko‘rinmaydigan joylarga ehtiyotkorlik bilan yo‘naltiradi.

Oiladagi zo‘ravonlik - bu bir oila a’zosining boshqa oila a’zosiga nisbatan qasddan qilingan jismoniy, psixologik va jinsiy xatti-harakatlari, uning huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlarini buzish va unga jismoniy va (yoki) ruhiy azob berish. Shunday ekan bu illatni oldini olish va yo‘q qilish barchamizning vazifamizdir.

REFERENCES

1. Pulatova Sh.A, Murodov A.Sh Zo‘ravonlikdan jabrlanganlar huquqlarini himoya qilish va zo‘ravonlikning oldini olish: Uslubiy qo‘llanma. –T.,Baktria press, 2020. – 56 B.

-
2. O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi // URL: <http://www.lex.uz>
 3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish, shuningdek, oilaviy-maishiy zo‘rlik ishlatishning oldini olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 02.07.2018 yildagi PQ-3827-sonli Qarori// URL: <http://www.lex.uz>
 4. 2019 yil 2 sentyabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikas«Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida» Qonuni

O‘ZBEK-INGLIZ, INGLIZ-O‘ZBEK TARJIMA LUG‘ATLARIDA BOG‘LOVCHILARNING LEKSIKOGRAFIK TALQINIDAGI MUAMMOLAR

Ataboyev Axadjon Djumaqo‘ziyevich

Andijon davlat universiteti chet tillar fakulteti ingliz tili fonetikasi o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘zbek-ingliz tilidagi bog‘lovchilarining tarjima lug‘atlaridagi talqinlari hamda ularning turkumi xususida bahs yuritiladi. Shuningdek, maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi mavjud bog‘lovchilar chog‘ishtiriladi va qiyoslanayotgan har ikki tildagi bog‘lovchilar turlari bo‘yicha o‘xshashliklar va noo‘xshashliklar aniqlanadi, ularning o‘zaro tarjimasidagi muvofiq va nomuvofiq tomonlari mushohada etiladi .

Kalit so‘zlar: *teng bog‘lovchi, biriktiruv bog‘lovchi, ayiruv bog‘lovchi, zidlov bog‘lovchi, maqsad bog‘lovchisi, shart bog‘lovchisi, ekvivalentlik, omonimlik, polifuknsionallik.*

ABSTRACT

This article discusses the interpretations of Uzbek-English connectors in translation dictionaries and their series. The article also compares the existing connectors in Uzbek and English and identifies similarities and differences in the types of connectors in the two languages being compared, and observes similarities and differences in their translation.

Keywords: *equal binding, attachment binding, disjunctive binding, opposing binding, target binding, conditional binding, equivalence, homonymy, polyfunctionality.*

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются трактовки узбекско-английских соединителей в переводческих словарях и их сериях. В статье также сравниваются существующие коннекторы на узбекском и английском языках, выявляются сходства и различия в типах коннекторов на двух сравниваемых языках, а также отмечаются сходства и различия в их переводе.

Ключевые слова: *равное связывание, связывание прикрепления, дизъюнктивное связывание, противоположное связывание, связывание-мишень, условное связывание, эквивалентность, омонимия, полифункциональность.*

KIRISH

Teng bog'lovchilarning tarjima lug'atlardagi talqini masalasi. Biriktiruv bog'lovchilari tarjima lug'atlarida quyidagicha izohlanadi:

and – _{conj.} va, ham; esa.; and – va (bog'lovchi).; and – _{conj.} va, hamda; esa; you and I (siz bilan biz); my wife and I (xotinim bilan men).

O'zbekcha-inglizcha lug'atda *va* bog'lovchisi tarjimasini mavjud emas: *va* bog'lovchisi bosh sifatida berilmagan:

va 1 lit.: (Arabic)

va 2 (long V): Huh! (lack of appreciation).

hamda: and also, as well as.

bilan: (together) with, and; by, from. shu(ning) ~ along with this. (kel)ishi ~ as soon as (he came).

Izohlardan ko'rinadiki, inglizcha-o'zbekcha lug'atda *and* bog'lovchi ekanligi aytiladi; uning ekvivalenti sifatida *va*, *ham*, *hamda*, *esa* ko'rsatiladi. Ammo o'zbekcha-inglizcha lug'atda *va* bog'lovchisi lug'at so'zligidan joy olmagan. Ingliz tilidagi *and* o'zbek tilidagi qaysi bog'lovchiga ekvivalent bo'lishini kuzatganimizda, *hamda* bog'lovchisi, *bilan* ko'makchisiga ekvivalent sifatida ko'rsatilganiga guvoh bo'ldik.

O'zbek-ingliz tilida biriktiruv bog'lovchilari tarjimasini quyidagicha berilgan:

but 1. _{adv} hozirgina; yaqinda; 2. _{prep.} -dan boshqa; -dan tashqari, -dan bo'lak; 3. _{conj} ammo, lekin, biroq; 4. _{pron.} rel. kim bo'lmasin.

but – lekin.

but [bAt] _{conj.} boshqa. bo'lak; -dan tashqari, -dan boshqa; lekin; - then ammo.

yet 2. _{conj.} biroq, har holda, bunga qaramay, lekin, ammo.

ammo: (Arabic) but, though, however.

lek 1 arch. poet.: (Persian) s. lekin.

lek 2: (Russian) lek. lekigin coll.s. lekin. lekin: (Arabic) but; however.

biroq: except, yet.

holbuki: actually, whereas. holsira- coll.s. holsizlan-.

vaholanki: (Persian) whereas, while.

balki: (Persian) perhaps, maybe. balkim: arch. (Persian) s. balki.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Izohlardan ko'rinadiki, o'zbek tilidagi *ammo*, *lekin*, *biroq*, *balki*, *holbuki*, *vaholanki* singari zidlov bog'lovchilarning ekvivalenti sifatida ingliz tilidagi *but*, *yet* kabi birliklar beriladi. Ushbu bog'lovchilarning tarjima lug'atidagi talqinidagi

muammo shundaki, o‘zbek tilidagi *ammo, lekin, biroq, balki, holbuki, vaholanki* bog‘lovchilari sinonim sifatida qo‘llanish imkoniyati mavjud bo‘lishiga qaramasdan, tarjimada ularning barchasi keltirilmaydi: unisi yoki bunisi beriladi. Ingliz tilidagi *but, yet* bog‘lovchilarining tarjimasi nisbatan mukammal. O‘zbek tilidagi zidlov bog‘lovchilari tarjima amaliyotida, asosan, *but* so‘zi bilan berilsa-da, o‘zbekcha-inglizcha talqinda *except, yet, actually, whereas, while* so‘zlari bilan ifodalanadi. Ko‘rsatilgan so‘zlarning aksariyati – boshqa turkumga mansub birlik. Hatto *balki* so‘zi bog‘lovchi sifatida ko‘rsatilmagan; bu so‘zning faqat modal so‘z sifatidagi ma’nosi keltirilgan; unga ekvivalent sifatida *perhaps, maybe* so‘zlari keltirilgan. Vaholanki, bu so‘zga *not only... but also* birikma shaklidagi bog‘lovchisini keltirish maqsadga muvofiq.

whereas _{cj.} 1) holbuki, vaholanki; 2) ga qaramasdan; 3) modomiki.

nevertheless 1. _{adv} ...ga qaramay, ...ga qaramasdan. ... bo‘lmasa ham; biroq, ammo; 2. _{cj.} shunday bo‘lsa-da, shunga qaramay.

otherwise _{adv} bo‘lmasa; aks holda.

Yuqoridagi izohdan ko‘rinadiki, inglizcha-o‘zbekcha lug‘atda *whereas, nevertheless, otherwise* bog‘lovchilari o‘zbek tilida zidlov bog‘lovchi vazifasini bajaruvchi birlik bilan ekvivalent sifatida ko‘rsatilgan; o‘zbekcha-inglizcha lug‘atda zidlov bog‘lovchilari keltirilar ekan, ularning ekvivalenti qatoriga *whereas, nevertheless, otherwise* so‘zlari kiritilmagan. Bundan anglashiladiki, o‘zbekcha-inglizcha lug‘atdagi bog‘lovchilar sirasini grammatik materiallarga tayangan holda to‘ldirish talab etiladi.

O‘zbek va ingliz tilidagi ayiruv bog‘lovchilarining tarjimada berilishida quyidagi holatlar kuzatiladi. Ingliz tilida bu birliklarni ifodalovchi so‘zlar polifunksionallik xususiyatiga ga bo‘lib, bir necha turkumga mansubligi yoki omonimligi ma’lum bo‘ldi. Izohlarni tadqiqot matniga kiritishda bu birliklarning faqatgina bog‘lovchi turkumiga mansub qismining izohi kiritildi.

or I [o;] _{cj.} (sanab ajratish ma’nosida qo‘llaniladi) yoki, bo‘lmasa.

neither... nor _{cj.} u ham emas, bu ham emas; na u, na bu.

both...and, not only... but also bog‘lovchilari tadqiq ob’ektlarimizda berilmagan, ya’ni bu juft konstruksiya ko‘rinishidagi bu vositalar lug‘at so‘zligidan joy olmagan.

O‘zbekcha-inglizcha lug‘atda ayiruv bog‘lovchilari tarjimasi quyidagicha beriladi:

yo 2: (Persian) *or, either... or...*;

yoki: (Persian) *or*;

yoxud lit.: (Persian) *or, or else, otherwise*;

xoh: (Persian) whether..., or...; both... and... ~ kelsin, ~ kelmasin whether he comes or not. ~ yosh, ~ qari both young and old;

goh-goh: (Persian) from time to time, every so often;

na 2: ~...~ neither...nor. ~ xat bor, ~ xabar // There is neither news nor a letter. (Persian).

Tarjimalarning talqinini qiyoslar ekanmiz, o‘zbekcha-inglizcha va inglizcha-o‘zbekcha lug‘atlarda farqlar borligi ma’lum bo‘ldi. Masalan: *or* bog‘lovchisi *yoki*, *bo‘lmasa* deb tarjima qilinsa, *yo*, *yoki* bog‘lovchilarining ekvivalenti sifatida *or* bog‘lovchisi ko‘rsatilgan. *Otherwise* so‘zi ravish deb ko‘rsatilib, *bo‘lmasa*; *aks holda* deb tarjima qilingan, yoxud so‘zi esa *or*, *or else*, *otherwise* deb o‘girilgan, natijada, o‘zbekcha-inglizcha va inglizcha-o‘zbekcha lug‘atlarda aynan bir bog‘lovchining ikki tildagi ekvivalenti bir xilda berilmagan.

Juft qo‘llanuvchi *goh... goh* bog‘lovchisi *from time to time, every so often* deb tarjima qilinadi. Tarjima ekvivalenti sifatidagi ushbu birikmalar ingliz tilida bog‘lovchi vazifasini bajarmaydi, balki harakatning sodir bo‘lish/bajarilish muddatining uzoqligini bildirib, gapda hol vazifasini bajaradi. Ko‘rinadiki, lug‘atda ushbu bog‘lovchi ma’nosi noto‘g‘ri tarjima qilingan. *Goh... goh* bog‘lovchisi ikki sodda gapni yoki uyushiq bo‘lakni bog‘laydi, *from time to time, every so often* konstruksiyasida esa bunday xususiyat mavjud emas.

O‘zbek tilidagi *dam... dam*, *bir... bir*, *ba‘zan... ba‘zan* kabi juft qo‘llanuvchi, ayiruv bog‘lovchisi vazifasini bajaruvchi birliklar o‘zbekcha-inglizcha lug‘atda berilmagan. Tadqiq ob’ekti sifatida tanlangan tarjima matnlarida ham bunday bog‘lovchilar tarjimasiga duch kelmadik: o‘zbek tilidagi matnda ushbu bog‘lovchilar bilan bog‘langan birlik (qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar, uyushiq bo‘lak)lar tarjima matnida tushirib qoldirilgan, mazmun saqlangan holda tarjimada boshqa usul bilan ifodalangan. Bunday xulosa qilish mumkinki, o‘zbek tilidagi bog‘lovchilarning barchasi ingliz tilida ekvivalentiga ega emas.

Ergashtiruvchi bog‘lovchilarning tarjima lug‘atlarda berilishi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi ergashtiruv bog‘lovchilari ma’noviy guruhlari aynan mos kelmasa-da, ayni mazmunli qo‘shma gaplarni bog‘lashi bilan vazifasi mushtarak bo‘lgan bog‘lovchilar ko‘pchilikni tashkil etadi.

O‘zbek tilida aniq bog‘lovchilari sirasiga *ya’ni* so‘zi, *-ki*, *-kim* qo‘shimchalari kiradi. Tarjima lug‘atida *ya’ni* so‘zi tarjimasi quyidagicha beriladi:

ya’ni: (Arabic) in other words, that is to say.

Ko‘rinadiki, bog‘lovchi shunday turkumga mansub vosita bilan tarjima qilinmayapti: birlikning ekvivalenti mavjud emas. *-ki, -kim* qo‘shimcha ko‘rinishidagi bog‘lovchilar o‘zbekcha-inglizcha lug‘atda berilmagan. Demak, ingliz tilida aniqlov bog‘lovchilarini mavjud emasligi tarjimada bir ekvivalent bilan ifodalanishga to‘sqinlik qiladi.

Sabab bog‘lovchilari o‘zbekcha-inglizcha lug‘atda quyidagicha ifodalanadi:
chunki: (Persian) because.

negaki: the reason being (that)...

zero(ki): arch. (Persian) because, by reason that, since.

nainki: really? is it possible? how could...? ~ shuni bilmasang! How could you not know that? ~ shunday desam! How could I have said that? Could I really have said that? (Persian).

Lug‘atda berilgan izohlardan ko‘rinadiki, *chunki (because), negaki (the reason being (that)), zeroki (because, by reason that, since)* bog‘lovchilari ingliz tilidagi sabab bog‘lovchilari bilan ekvivalent sifatida ko‘rsatilgan. Faqat *nainki* so‘zining ingliz tiliga tarjimasi *nahotki (really? is it possible? how could)* yuklamasi sifatida belgilangan.

Xuddi shuningdek, inglizcha-o‘zbekcha lug‘atda *because* bog‘lovchisining ekvivalenti sifatida aynan shu bog‘lovchi ko‘rsatilgan: because _{conj.} chunki.

O‘zbekcha-inglizcha lug‘atda chog‘ishtiruv bog‘lovchisi quyidagicha izohlanadi:
go‘yo(ki): (Persian) as if, as though. bulbuli ~ a fantastic nightingale that sings well and can speak like a man; a gifted speaker.

Inglizcha-o‘zbekcha lug‘atda bu birliklarning ekvivalent ekanligini kuzatish mumkin: as If – shekilli, go‘yo.

O‘zbek tilidagi maqsad bog‘lovchisi toki lug‘atda quyidagicha izohlanadi: toki: (Persian) so that, in order to/that. Sh.Butaevning lug‘ati so‘zligida *so that, in order to* bog‘lovchilari mavjud emas. Boshqa lug‘atda *so that* ko‘makchi sifatida (*so that – uchun*) ko‘rsatiladi. Yana bir lug‘atda ingliz tilida maqsad ma‘noli qo‘shma gaplarni bog‘lovchi vosita sifatida ko‘rsatilgan birlik quyidagicha izohlanadi: *lest* _{ej} bo‘lmasligi (qilmasligi) uchun. Bundan kelib chiqadiki, maqsad bog‘lovchisini ifodalovchi birliklarning ekvivalentligida ham kamchilik mavjud: bu birliklarni lug‘at so‘zligiga kiritish talab etiladi.

O‘zbek tilidagi shart bog‘lovchilarining o‘zbekcha-inglizcha lug‘atlarda berilishini kuzatamiz.

agar(da/chi): (Persian) if; had...; should...; magar – if, should it happen that...

basharti: (Persian) in case, in the event that, should...

mabodo: (Persian) should, lest, in case; perhaps.

modomiki: (Persian) since, as, seeing how.

Ingliz tilida shart va to‘siqsizlik ma’nosini ifodalovchi birliklar o‘zbek tiliga quyidagicha tarjima qilinadi:

if_{cj} 1) agar, agarda; 2) koshki; as ~ go‘yo, go‘yoki.

seeing_{cj} sharoitda, agar, holda, shu shart bilanki (that).

supposing_{cj} agar, agarda, bordi-yu; modomiki; basharti. mabodo.

unless_{cj} agar (agarda, basharti, mabodo, bordi-yu) ...masa.

lest_{cj} bo‘lmasligi (qilmasligi) uchun.

O‘zbek va ingliz tilida shart va to‘siqsizlik ma’nosini bildirgan gaplarni bog‘lovchi vositalarni qiyoslash asosida xulosa qilish mumkinki, bu birliklarning ekvivalentlari mavjud: ikki tildagi bog‘lovchilar tarjima lug‘atlarida ayni shu so‘zlar bilan ifodalangan:

O‘zbekcha-inglizcha lug‘atda	Inglizcha-o‘zbekcha lug‘atda
agar(da/chi) // if;	if // agar, agarda;
magar // if, should it happen that...;	seeing // sharoitda, agar, holda, shu shart bilanki (that);
basharti // in case, in the event that, should...;	supposing //agar, agarda, bordi-yu; modomiki; basharti, mabodo;
mabodo // lest, in case; perhaps;	unless // agar (agarda, basharti, mabodo, bordi-yu) ...masa;
modomiki // since, as, seeing how.	lest // bo‘lmasligi (qilmasligi) uchun.

Aytish mumkinki, o‘zbekcha-inglizcha, inglizcha-o‘zbekcha tarjima lug‘atlarida shart/to‘siqsizlikni ifodalovchi birliklarning ekvivalentlik darajasi nisbatan yuqori. Bizningcha, bu ikki tilda ham shart va to‘siqsizlik ma’nosini ifodalovchi birliklarning mavjudligi, qo‘llanish chastotasi bilan bog‘liq.

Oldin aytilganidek, ingliz tilida ergashtiruvchi bog‘lovchilar aniqlov, payt, sabab, maqsad, shart, to‘siqsizlik, tarz/qiyoslash, natija mazmunli gaplarni bog‘lovchilar tarzida tasniflanadi. Yuqorida qiyoslangan bog‘lovchilardan tashqari bir qancha bog‘lovchi vositalar borki, o‘zbek tilidagi bog‘lovchilar bilan aynan bir vazifani bajarmaydi.

as 1. _{cj} bilanoq; ~ for, ~ to .. .ga kelsak; ~ **if** go‘yoki ~ usual - much - qancha ... bo‘lsa, shuncha ...;

as _{conj.} (time) qachonki; -gan paytda; (causa) ... sababdan, ... bo‘lgandan keyin; (manner) xuddi, o‘xshash; (concession) har holda, qanday bo‘lmasin; qanday; qaysi; nima;

as... as xuddi ...day;
as for, to -ga nisbatan; -ga kelganda;
as if shekilli, go‘yo;
as it were -sa edi;
as soon as bilanoq;
as well shuningdek; ham.

Izohlardan ko‘rinib turibdiki, *as* bog‘lovchisi hamda tarkibida *as* so‘zi bo‘lgan bog‘lovchilar payt, qiyoslash ma‘nolarini ifodalaydi. O‘zbek tilida ular bog‘lovchi, yuklama va olmoshli birikmalar bilan ifodalanadi.

Shuningdek, ingliz tilida ergashtiruvchi bog‘lovchilar sirasiga kiritiladigan quyidagi bog‘lovchilar ham mavjud:

while 1. *cj* jarayonida, mobaynida; u vaqtlarda, vaqtida, paytida.

wherever *cj*. qayerda bo‘lmasin, qayerga bo‘lmasin, qayerga bo‘lsa ham.

whether 1. *cj*. -mi;

until *prep* -gacha, qadar, vaqtgacha.

since 1. *adv* shundan (o‘shandari) beri; 2. *prep* ...dan keyin. (429)

for *prep. cj*. 1) davomida, vaqtida; 2) uchun; 3) sababli; - life umrbod; - ever butunlay; abadiy; ~ example misol uchun, chunonchi; 4)...ga qarshi; medicine ~ a cough yo‘talga qarshi dori.

Ko‘rinadiki, ushbu bog‘lovchilar payt, o‘rin ergash gapli qo‘shma gaplarni bog‘lash vazifasini bajarishga xoslangan.

XULOSA

Shuningdek, kuzatishlarimiz davomida inglizcha-o‘zbekcha lug‘atlar so‘zligidan joy olmagan qator ergashtiruvchi bog‘lovchilar mavjudligi aniqlandi: *on condition (that), so that, in order that, as if (as though), so...that, such ... that, not)so...as, than, so that, in spite of the fact that, though (although)in case*. Sanab o‘tilgan bog‘lovchilar birikma tarzida bo‘lib, murakkab tuzilishga ega bog‘lovchi sanaladi. O‘zbekcha-inglizcha, inglizcha-o‘zbekcha lug‘atlar tahlilidan ko‘rinadiki, ingliz tilidagi tarkibli bog‘lovchilar inglizcha-o‘zbekcha tarjima lug‘atlar so‘zligidan o‘rin olmagan. Kelajakda bu yo‘nalishdagi ikki tilli lug‘atlar yaratishda sanab o‘tilgan biriklarni kiritishga alohida e‘tibor qaratish zarur. Zero, ingliz va o‘zbek tillariaro tarjimada ushbu birliklarni o‘z ekvivalenti bilan ifodalashga erishish tarjima sifatida va madaniyatini bir bosqich yuqoriga ko‘taradi.

REFERENCES

1. Макаренко Е.В. Лексические конкретизаторы союза «но» в сложноподчиненном предложении современного русского языка //

- Неполнозначные слова и проблема их функционального и лексикографического описания: Межвуз. сб. науч. тр. – Ставрополь, 1993. – С.32-37.
2. Муминов О. Lexicology of the English Language. – Тошкент, 2006. – 215 б.
 3. Butayev Sh., Irisqulov A. English-uzbek / uzbek-english dictionary (70.000 words and expressions) / Inglizcha-o‘zbekcha o‘zbekcha-inglizcha lug‘at (70.000 so‘z va ibora). – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti, 2009. – 848 b.
 4. Capell A. A typology of concept domination // «Lingua», 1965. – № 15.
 5. Givon T. Syntax and Semantics: Discourse and Syntax. – New York: Academic Press, 2009. – 416 p.
 6. Gordon E.M. Krilova I.P. A Grammar of Present-day English. – M.: Higher School Publishing House, 1974. – 333 p.
 7. Hermans Th. The translator’s voice in translated narrative. – London: Target 8(1), 23-48p.
 8. Huddleston R. An introduction to English transformational syntax. – London: Longman, 1996. – 276 p.
 9. Inglizcha-o‘zbekcha lug‘at / English-uzbek dictionary (Tuzuvchilar: Darvishova G.K., Darvishova U.K.). – Jizzax, 2006. – 108 b. – B.7.
 10. Inglizcha-o‘zbekcha lug‘at / English-uzbek dictionary (Tuzuvchilar: Darvishova G.K., Darvishova U.K.). – Jizzax, 2006. – 108 b.
 11. Inglizcha-o‘zbekcha lug‘at. 35.000 so‘z va ibora. (Tuzuvchilar: S.Nazarov, F.Nazarova, N.Adizova, D.Poltayeva) –Toshkent: Nisopoligraf, 2013. – 816 b.;
 12. Kaushanskaya V.L. et al. A Grammar of the English Language. – L.: Uchpedgiz, 1963. – 318 p.
 13. Khaymovich B.S, Rogovskaya B.I. A Course of English Grammar. – M.: Visshaya shkola, 1967. – 298 p.
 14. Long R.B. The sentence and Its Parts; A Grammar of Contemporary English. – Chicago and London: University of Chicago Press, 1995. – 684 p.
 15. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D., Mirzaahmedov A. Ona tili. Umumiy o`rta ta`lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. – Toshkent: Ma`naviyat, 2013. – 160 б.
 16. Mengliyev B., Xoliyorov O`., Abdurahmonova N. O‘zbek tilidan universal qo‘llanma. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – 450 b. – B. 233.
 17. Munday J. Style and ideology in translation: Latin American writing in English. – London: Routledge, 2007. – P. 245.

-
18. Newmark P. Approaches to translation. – Oxford: Pergamon Press, 1981, – P.201.
 19. O‘zbekcha-inglizcha lug‘at. Tuzuvchilar: William Dirks (Translation); Temur Davronov Review (Amendments); Eduardo Real Makeup (Database Programming). – Toshkent: The Central Asian Heritage Group, 2005. – 381 b.
 20. O‘zbekcha-inglizcha lug‘at. Tuzuvchilar: William Dirks (Translation); Temur Davronov Review (Amendments); Eduardo Real Makeup (Database Programming). – Toshkent: The Central Asian Heritage Group, 2005. – 381 b.
 21. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V жилдли. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007. 5-жилд. – 592 б.
 22. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V жилдли. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. 1-жилд. – 680 б.
 23. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/as>
 24. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/else>; <https://www.merriam-webster.com/dictionary/else>
 25. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/otherwise>
<https://dictionary.cambridge.org/ru>

XITOIY TILIDA TO'LDIRUVCHI

Qayumov Shohzodjon Baxtiyor o'g'li

Samarqand davlat chet tillar instituti magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada xitoy tilida to'ldiruvchining qo'llanilishi, uning farqlanishi va gapdagi o'rni, turli o'rinlarda turli vazifa hamda ma'nolarda kelishi, vositali va vositasiz to'ldiruvchi haqida ma'lumotlar keltirib, izohlab o'tildi

***Kalit so'zlar:** Xitoy tili, to'ldiruvchi, fe'l-kesimli gaplar, subyekt-predikativ gaplar, vositasiz to'ldiruvchi, vositali to'ldiruvchi.*

ABSTRACT

This article explains the use of fillers in Chinese, its differentiation and place in speech, its occurrence in different functions and meanings in different places, with and without indirect fillers

***Keywords:** Chinese, complement, participles, subject-predicative sentences, infinitive, infinitive.*

АННОТАЦИЯ

В этой статье объясняется использование филлеров в китайском языке, его дифференциация и место в речи, его появление в разных функциях и значениях в разных местах, с косвенными наполнителями и без них.

***Ключевые слова:** китайский язык, дополнение, причастия, предметно-предикативные предложения, инфинитив, инфинитив.*

KIRISH

To'ldiruvchi xitoy tilida 宾语 bīngyǔ deb nomlanadi, shuning bilan birga 受词 shouci deb ham nomlanadi, xitoy tilida to'ldiruvchi harakatning qabul qiluvchisini bildiradi.

To'ldiruvchi egaga tegishli emas, to'ldiruvchi kesimga tegishli bo'lak hisoblanadi. U harakat-holatga tegishli bo'lgan predmetga ishora qiladi, harakat bildirgan holatni yanada to'liqroq, aniqroq bildirib keladi. Shuning uchun ham to'ldiruvchini fe'l (kesim) ning aloqador bo'lagi, tegishli obyektini deyish mumkin. To'ldiruvchi hech qanday yordamchi so'zlarga bog'liq emas, u to'g'ridan-to'g'ri fe'l bilan birikib, fe'lni boshqarish vazifasini qabul qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

To'ldiruvchining farqlanishi va old qismda keluvchi to'ldiruvchi

Ko'pgina vaziyatlarda ma'lum bir til bo'lagini aniqlashda to'ldiruvchi ikki holatda bo'ladi: birinchisi harakatga tegishli obyektни ifodalaydi, ikkinchisi esa fe'ldan so'ng keladi. Mazkur o'rinda fe'ldan so'ng keluvchi muhim holat hisoblanadi. Chunki xitoy tilida to'ldiruvchi to'g'ridan-to'g'ri harakatning qabul qiluvchi tomonidan belgilanmaydi. Masalan, 台上坐着主席团, 我家来了一位客人 gaplarida 主席团 va 一位客人 so'zlari qabul qiluvchi bo'lib, barchasi to'ldiruvchi hisoblanadi. Yuqorida ega gap bo'lagi haqida so'z yuritilganda aytib o'tilganidek, ega ham qabul qiluvchi aloqasiga ko'ra belgilanmaydi. Fe'l-kesimli gaplarda ega va to'ldiruvchining ajratilishi ularning gapdagi kelgan o'rniga ko'ra amalga oshiriladi, odatda fe'ldan oldin kelgan bo'lak ega bo'lagi bo'lib, fe'ldan keyin kelgan bo'lak to'ldiruvchi hisoblanadi. Masalan,

1) 三十个人吃一锅饭。 *Sānshí gè rén chī yīguō fàn.* – *O'ttiz kishi bir qozon ovqatni yeydi.*

Ushbu gapning to'ldiruvchisi 一锅饭 *bir qozon ovqat* bo'lib, mazkur to'ldiruvchi 吃 *yemoq* kesimining obyektни bo'lib, harakatni qabul qiluvchi obyektни bildirib kelmoqda, shuning uchun ham obyekt to'ldiruvchi hisoblanadi. Xitoy tilida obyekt to'ldiruvchi 受事宾语 *shòushìbīngyǔ* deb nomlanadi

2) 一锅饭吃三十个人。 *Yīguō fàn chī sānshí gè rén .* – *Bir qozon ovqatni o'ttiz kishi yeydi.*

Ushbu gapning to'ldiruvchisi 三十个人 (*o'ttiz kishi*), mazkur to'ldiruvchi 吃 *yemoq* fe'lining bajaruvchisi bo'lib, subyekt to'ldiruvchi hisoblanadi. Xitoy tilida subyekt to'ldiruvchi 施事宾语 *shīshìbīngyǔ* deb nomlanadi.

3) 太阳晒着花了。 *Tàiyáng shài zhe huā le.*

90`shamanba.-页-269.

4) 花晒着太阳了。 *Huā shài zhe tàiyang le.*

Uchinchi va to'rtinchi misollarda holat bir xil. Obyekt to'ldiruvchi va subyekt to'ldiruvchidan tashqari, na obyekt to'ldiruvchi va na subyekt to'ldiruvchilar bo'lmagan to'ldiruvchilar turi ham mavjud. Masalan:

5) 这种花叫二月兰。 *Zhè zhǒng huā jiào èr yuèlán.* –

Ushbu turdagi gul eryuelan deb nomlanadi.

Ushbu gapda 二月兰 so'zi to'ldiruvchi hisoblanib, na subyekt va na obyekt to'ldiruvchi hisoblanadi.

6) 我们都是同事。Wǒmen dōushì tóngshì. – Bizlar hamkasblarmiz. Mazkur gapning to'ldiruvchisi 同事 so'zi bo'lib, ot so'z turkumiga oid so'z bilan ifodalangan.

7) 小芳不象她的妈妈，象爸爸。Xiǎofāng búxiàng tā de māmā, xiàng bàba. – Xiaofang onasiga o'xshamaydi, otasiga o'xshaydi.

Mazkur gapning to'ldiruvchisi 妈妈 va 爸爸 so'zlari hisoblanadi, ot so'z turkumiga oid so'z bilan ifodalangan.

8) 我们的宿舍楼前边有一个网球场和一个排球场。Wǒmen de sùshèlǒu qián bian yǒu yí gè wǎngqiúchǎng hé yí gè páiqiúchǎng. – Bizning yotoqxonaro'parasida bitta tennis maydonchasi va bitta volleybol maydonchasi bor.

Ushbu gap to'ldiruvchisi 网球场 va 排球场 so'zlari hisoblanadi. Yuqoridagi to'rtta misolda ifodalangan to'ldiruvchilar subyekt to'ldiruvchi ham obyekt to'ldiruvchi ham hisoblanmaydi.

To'ldiruvchi kesimdan oldin ham kelishi mumkin, bu o'rinda u old qismda keluvchi to'ldiruvchi deb nomlanadi. Xitoy tilida old qismda keluvchi to'ldiruvchi 前置宾语 qiánzhìbīnyǔ deb nomlanadi. Masalan:

9) 我上海去过，广州没去过。Wǒ shànghǎi qùguò, guǎngzhōu méi qùguò.

Men Shanhayga borganman, Guangjouga bormaganman.

Ushbu gapda 上海 va 广州 so'zlari gapda to'ldiruvchi vazifasida kelmoqda, ular kesimdan oldin kelganliklari uchun old qismda keluvchi to'ldiruvchi deb nomlanadi.

10) 他这也不吃，那也不吃。Tā zhè yě bú chī nà yě bú chī.

U buni ham yemaydi, uni ham yemaydi.

Ushbu gapda 这 va 那 so'zlari gapning to'ldiruvchi hisoblanib, old qismda keluvchi to'ldiruvchi deb nomlanadi.

11) 他谁都不认识。Tā shuí dōu bú rènshi. – U hec kimni tanimaydi.

Mazkur gapning to'ldiruvchisi 谁 so'zi bo'lib, olmosh so'z turkumiga oid kishilik olmoshi bilan ifodalangan, old qismda keluvchi to'ldiruvchi hisoblanadi. 12) 这次听写，他一个字也没写错。 *Zhècì tīngxiě, tā yí gè zì yě méi xiě cuò.* – *Shu safargi diktantda u umuman xato qilmadi.*

Ushbu gapda 字 so'zi to'ldiruvchi vazifasida kelib, old qismda keluvchi to'ldiruvchi hisoblanadi, ot so'z turkumiga oid so'z bilan ifodalangan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Old qismda keluvchi to'ldiruvchi chegaralangan. Gapda harakatni qabul qiluvchi subyekt kelib, bundan tashqari gapdagi harakatni qabul qiluvchi obyekt harakatni qabul qiluvchi subyektdan so'ng kelganidagina, bunday obyekt qabul qiluvchi old qismda keluvchi to'ldiruvchi bo'la oladi. Old qismda keluvchi to'ldiruvchi ko'pincha ko'rsatish va tanlash mazmunidagi gaplarda keladi. Misol qilib yuqorida ko'rsatib o'tilgan, tahlil qilingan gaplarni keltirish mumkin.

Agarda harakatni qabul qiluvchi obyekt harakatni qabul qiluvchi subyektdan oldin kelsa, bunday gap subyekt-predikativ gap deb nomlanadi, harakatni qabul qiluvchi obyekt butun gapni tushuntirib beruvchi, hikoya qilib beruvchi obyektga aylanadi, bu bo'lak ega hisoblanadi. Masalan: 11

11 实用现代汉语语法/刘月华等著.-增订本.-北京:商务印书馆,2004.-页-270.

13) 上海我去过，广州我没去过。 *Shànghǎi wǒ qùguò, guǎngzhōu wǒ méi qùguò.* – *Shanhayga men borganman, Guanjouga bormaganman.*

14) 这他也不吃，那他也不吃，不知他要吃什么。 *Zhè tā yě bú chī, nà tā yě bú chī, bú zhī tā yào chī shénme.* – *U buni ham yemaydi, uni ham yemaydi, u nima yeyishini bilmayman.*

15) 谁他都不认识。 *Shuí tā dōu bú rènshi.* – *U hech kimni tanimaydi.*

16) 这次听写，一个字他都没写错。 *Zhècì tīngxiě, yí gè zì tā dōu méi xiěcuò.* – *Bu safargi diktantda u bir so'zni ham xato yozmabdi.*

Shunday turdagi subyekt-predikativ gaplar ko'rsatish yo tanlash mazmunidagi gaplar bo'lishi shart emas. Masalan:

17) 这类书我看过了，还不错。 *Zhè lèi shū wǒ kàn guò le hái bú cuò.* – *Bu turdagi kitoblarni men o'qib ko'rganman, juda yaxshi.*

18) 小李我认识。 *Xiǎolǐ wǒ rènshi. – Xiaolini men taniyman.*

Ba'zi gaplarda fe'l-kesimga tegishli bo'lgan obyekt ikkita bo'ladi, gapda ikkita to'ldiruvchi keladi. Masalan :

19) 张老师教我们汉语。 *Zhāng lǎoshī jiào wǒmen hànyǔ. – Ustoz Jang bizga xitoy tilidan saboq beradilar.*

20) 王老师告诉我们班下午上答疑课。 – *Wáng lǎoshī gàosù wǒmen bān xiàwǔ shàng dāyíkè. – Ustoz Vang bizning guruhga tushlikdan so'ng savollarga javob berish darsi bo'lishini aytdi.*

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi (19, 20) gaplardagi kesim ikki to'ldiruvchiga ega: biri odamga ishora qiladi (yoki guruh, bo'lim, biri predmetga ishora qiladi. Predmetga ishora qiluvchi vositasiz to'ldiruvchi deb nomlanadi, odamga ishora qiluvchi vositali to'ldiruvchi deb nomlanadi. Gapning tuzilishiga ko'ra, vositali to'ldiruvchi kesimdan so'ng keladi, vositasiz to'ldiruvchi esa vositali to'ldiruvchidan keyin keladi, masalan yuqorida berilgan gapda 我们, 我们班 so'zlari vositali to'ldiruvchi bo'lib, 汉语, 答疑课 so'zlari vositasiz to'ldiruvchi hisoblanadi.

REFERENCES

1. В.И.Горелов. Грамматика китайского языка. М., “Просвещение”, 1974
2. Хитой филологиясига кириш. О'quv qo'llanma., Toshkent 2013
3. Хитой тили дарслиги. О'quv qo'llanma., Toshkent 2014.

**COVID-19 PANDEMIYASI DAVRIDA O‘ZBEKISTON
RESPUBLIKASINING XITOIY XALQ RESPUBLIKASI VA KOREYA
RESPUBLIKASI BILAN ALOQALARI**

Abdusalomov Raximjon

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti Tarix fakulteti

Jahon tarixi kafedrasida 2-bosqich magistranti

Ilmiy raxbar: PhD Bahrom Xaynazarov

ANNOTATSIYA

Ilmiy maqolada Covid-19 pandemiyasi davrida O‘zbekistonning asosiy hamkor davlatlaridan bo‘lgan Xitoy va Koreya Respublikasi bilan aloqalari statistik va ilmiy manbalar asosida tahlil etilgan va pandemiyaning ushbu mamlakatlar bilan munosabatlardagi salbiy va ijobiy jihatlari qiyosiy tahlil asosida yoritib berilgan. O‘zbekiston Respublikasining Xitoy va Koreya Respublikasi bilan iqtisodiy-siyosiy va diplomatik munosabatlari Pandemiya boshlanishidan avvalgi bir necha yilda hamda Pandemiya davrida qanday darajada rivojlangani, Pandemiyaning o‘zaro savdo-iqtisodiy aloqalarga ta’siri tahlil etilgan.

Xitoy Xalq Respublikasi va Koreya Respublikasi O‘zbekistonning eng asosiy iqtisodiy-siyosiy va diplomatik sheriklaridan bo‘lib, Pandemiyaning o‘zaro aloqalarga ta’sirini o‘rganish Pandemiyaning ta’sirini kamaytirishga, Iqtisodiy inqirozni birgalikda yengib o‘tishga, turli sohalaridagi hamkorlikni yanada rivojlantirishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: Covid-19 Pandemiya, Xitoy, Koreya Respublikasi, eksport, investitsiya, import, diplomatik, hamkorlik, turizm, gumanitar yordam, vaksina

ABSTRACT

The scientific article analyzes Uzbekistan’s relations with China and the Republic of Korea, two of its main partners during the Covid-19 pandemic on the basis of statistical and scientific sources, and compares the pros and cons of the pandemic on relations with these countries. The development of economic, political and diplomatic relations of the Republic of Uzbekistan with China and the Republic of Korea were analyzed in the years before and during the pandemic, as well as the impact of the pandemic on trade and economic relations.

The People’s Republic of China and the Republic of Korea are among the most important economic, political and diplomatic partners of Uzbekistan, the studying of impact of the pandemic on relations with these countries helps to reduce the

impact of the pandemic, to overcome the economic crisis together, to further develop cooperation in various fields.

Keywords: *the Covid-19 Pandemic, China, Republic of Korea, export, investment, import, diplomatic, cooperation, tourism, humanitarian aid, vaccine.*

АННОТАЦИЯ

В научной статье на основе статистических и научных источников анализируются отношения Узбекистана с Китаем и Республикой Корея, двумя его основными партнерами во время пандемии Covid-19, и сравниваются плюсы и минусы пандемии в отношениях с этими странами. . Было проанализировано развитие экономических, политических и дипломатических отношений Республики Узбекистан с Китаем и Республикой Корея в годы до и во время пандемии, а также влияние пандемии на торгово-экономические отношения.

Китайская Народная Республика и Республика Корея являются одними из важнейших экономических, политических и дипломатических партнеров Узбекистана, изучение влияния пандемии на отношения с этими странами помогает снизить влияние пандемии, преодолеть экономический кризис. вместе для дальнейшего развития сотрудничества в различных сферах.

Ключевые слова: *пандемия Covid-19, Китай, Республика Корея, экспорт, инвестиции, импорт, дипломатия, сотрудничество, туризм, гуманитарная помощь, вакцина.*

KIRISH

2019-yilning dekabrda Xitoyning Uxan shahrida boshlangan va 2020-yil 11-martda Jahon Sog'liqni Saqlash tashkiloti tomonidan Pandemiya deb belgilangan Covid-19 nafaqat insonlarning kundalik hayot tarziga, balki butun dunyo davlatlari o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy diplomatik va boshqa aloqalarga katta ta'sir ko'rsatdi. Bir tomondan Covid-19 Pandemiyasi juda ko'plab sohalarga zarar yetkazgan, davlatlar o'rtasidagi savdo-iqdisodiy aloqalarning pasayishiga, chegaralarning yopilishiga sabab bo'lgan bo'lsa, boshqa tomondan Pandemiya davlatlarning Pandemiya va uning oqibatlarini bartaraf etish, iqtisodiy inqirozdan chiqish borasida hamkorlikni kuchaytirishiga sabab bo'ldi. Bu O'zbekiston Respublikasining asosiy savdo-iqtisodiy va siyosiy hamkorlaridan bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi va Koreya Respublikasi bilan aloqalarida yaqqol sezildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbekiston Respublikasi va boshqa xorijiy mamlakatlar matbuotida Covid-19 pandemiyasining turli davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, diplomatik aloqalarga,

global iqtisodiyot, turizm va boshqa sohalarga ta'siri to'g'risida turli ilmiy maqolalar va tadqiqotlar bo'yicha ma'lumotlar berib borilmoqda. Bundan tashqari juda ko'plab internet saytlari, axborot agentliklari O'zbekistonning Xitoy Xalq Respublikasi va Koreya Respublikasi bilan turli sohalardagi aloqalari haqidagi yangiliklarni muntazam yoritib bormoqda. Ammo shu paytgacha Pandemiya davrida O'zbekiston va ushbu hamkor mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlarga bag'ishlangan umumlashtiruvchi tadqiqotlar e'lon qilingani yo'q.

Shunga qaramasdan mavzu bo'yicha ekspertlar tomonidan bir qancha tadqiqotlar e'lon qilinganligini ta'kidlash joiz. Xususan ekspert Oleg Limanovning "Uzbekistan –China Relations During the Covid-19 Pandemic" analitik maqolasida asosan Pandemiya gacha bo'lgan umumiy sohalardagi hamkorlik tahlil etilgan hamda Pandemiyaning O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarga ta'siri yoritilgan.

Bundan tashqari i.f.d., prof. Raximova Dilfuzaning "Koronavirus pandemiyasining global iqtisodiyotga va O'zbekistonning iqtisodiy hamkor mamlakatlariga ta'siri" maqolasida koronavirus pandemiyasigacha bo'lgan davrdagi iqtisodiy rivojlanish va Pandemiyaning O'zbekiston va asosiy hamkor mamlakatlar iqtisodiyotiga salbiy ta'siri tahlil etilgan. Lekin shuni aytish kerakki ushbu maqola ko'proq iqtisodiy ahamiyatga egadir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Birinchi navbatda Pandemiya O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatiga katta zarar yetkazdi. Bu birinchi navbatda mintaqaning balki butun dunyoning eng katta bozoriga aylanib borayotgan Xitoy Xalq Respublikasida sanoat ishlab chiqaruvining pasayishi oqibatida turli xomashyoga talabning kamayib ketishi natijasida sodir bo'ldi. Davlat statistika qo'mitasi tomonidan berilgan ma'lumotlarga ko'ra 2019-yilda O'zbekistonning umumiy tashqi savdosi 41 mlrd 751 mln AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda pandemiya ta'sirida 36 mlrd 299 mln 300 ming AQSh dollarigacha kamaydi. Shundan eksport 17 mlrd 458 mln 700 ming AQSh dollaridan 15 mlrd 127 mln 700 ming dollargacha tushib ketdi. Import hajmi esa 24 mlrd 292 mln 300 ming AQSh dollaridan 21 mlrd 171 mln 500 ming dollargacha kamaydi. Xitoy Xalq Respublikasiga eksport hajmi 2019-yilda 2 mlrd 528 mln 749 ming AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda 1 mlrd 937 mln 53 ming dollarga kamaydi. Koreya Respublikasiga eksport hajmi ikki baravarga kamayib, 2019-yildagi 102 mln 891 ming dollardan 2020-yil 51 mln 337 ming dollarga tushdi. Xitoy Xalq Respublikasidan import hajmi mos ravishda 5 mlrd 108 mln 629 ming dollardan 4 mlrd 501 mln 121 ming dollargacha tushdi. Koreya Respublikasidan

import hajmi 2019-yilgi 2 mlrd 664 mln 820 ming dollardan 2020-yilda 2 mlrd 99 mln 371 ming dollarga pasaydi [1]

O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi (mln dollar hisobida)[2]

Davlatlar	2018-y	2019-y	2020-y
Xitoy Xalq Respublikasi	6 433,5	7 637,4	6 432,2
Koreya Respublikasi	2 159,1	2 767,7	2 142,4

Lekin shuni aytish kerakki o'tgan 3 yil davomida Xitoy Xalq Respublikasi O'zbekistonning eng katta savdo sherigi maqomini saqlab qoldi. Pandemiyadan oldin ikki tomonlama savdo hajmi bir yilda o'rtacha 30-40 foizga o'sdi. 2020-yilda Covid-19 kelib chiqishi natijasida esa o'zaro savdoda kichik pasayish yuz berdi. Bundan tashqari Xitoy O'zbekiston uchun eng katta bozor bo'lib turibdi. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra 2020-yil Xitoy bilan savdo O'zbekiston tashqi savdosining 12,8 foizini tashkil etdi.[3]

Yaqin vaqtgacha Strategik materiallar qatoriga kiruvchi deb qaraladigan tovarlar (tabiiy gaz, mis, uran, paxta tolasi, mineral o'g'itlar) savdosi O'zbekiston va Xitoy iqtisodiy hamkorligining eng daromadli yo'nalishi bo'lib qolmoqda edi. Ushbu turdagi tovarlar savdosi O'zbekiston eksportining 50 foizidan ko'proq qismini tashkil etadi. Xitoy uchun bu tovarlarning ichida eng muhimi tabiiy gaz bo'lib 2011-yildagi ikki davlat o'rtasidagi o'zaro shartnomaga ko'ra 25 yilga yetkazib berish mo'ljallangan. Shuningdek Szin Pining 2013-yil sentyabrda O'zbekistonga davlat tashrifi davomida tomonlar O'zbekiston-Xitoy gaz quvurini qurish bo'yicha Protokol imzolangan bo'lib bu quvur 25 mlrd kub metr gaz o'tkazish quvvatiga ega bo'lishi mo'ljallangan edi va bu Markaziy Osiyo_XXR o'rtasidagi sig'imi bo'yicha to'rtinchi gaz quvuri hisoblanadi. Bularning barchasi Xitoyning mintaqaviy gaz transportirovka sohasida siyosatida O'zbekistonning roli oshayotganini ko'rsatmoqda.[4]

Bundan tashqari Koronavirus pandemiyasining tashqi bozorlarga ta'siri sababli O'zbekistonda olinadigan tabiiy gazning Xitoyga eksporti 3 baravarga qisqardi. 2019-yilgacha har yili Xitoyning TAPLINE CNPC va O'zbekneftgaz orasida Turkmaniston-O'zbekiston-Qozog'iston-Xitoy gazotransport tizimi orqali 35-38 mlrd kubometr gaz transportirovka qilinadi. 2020 yilga gaz yetkazib berish bo'yicha shartnomalarga ko'ra, Xitoyga 2-6 mlrd kubometr atrofida gaz eksport qilish rejalashtirilgan edi.[5]

2020-yil 1-fevraldan boshlab O'zbekiston Respublikasi Prezidenti topshirig'i bilan Xitoy bilan avialoqa to'xtatildi. Topshiriqqa ko'ra Xitoyda tarqalgan koronavirus O'zbekistonga kirib kelishining oldini olish va epidemiya tarqalgan hududdan fuqarolarni vatanga qaytarish bo'yicha hukumat komissiyasi tuzilgan bo'lib, topshiriqqa muvofiq barcha turdagi parvozlar to'xtatilgan. 2020-yil 15- martda O'zbekistonda dastlabki koronavirus bilan kasallangan bemor aniqlangandan so'ng Koreya Respublikasi va boshqa davlatlar bilan ham aviaparvozlar to'xtatildi va O'zbekiston chegaralari sayyohlar uchun yopildi. Shubhasiz Pandemiyaning jadal rivojlanib borayotgan turizm sohasiga ham jiddiy ta'siri kuzatildi. Xususan 2018-yil birinchi choragida Xitoydan 6,1 ming, Koreya Respublikasidan 5,1 ming sayyoh tashrif buyurgan bo'lsa 2019-yilning shu davrida bu raqamlar o'sib Xitoylik sayyohlar soni 9,4 ming koreyalik sayyohlar soni 6, 8 ming kishiga ko'paygandi. Lekin Pandemiya ta'sirida bu raqamlar kamayib 2020-yilning birinchi choragida Xitoylik sayyohlar 3,7 ming Koreya Respublikasidan tashrif buyurganlar 5,2 ming kishini tashkil etdi. Umuman olganda 2016-yilda O'zbekistonga tashrif buyurgan chet ellik sayyohlar 2 mln bo'lgan bo'lsa, 2019-yil ularning soni 3,3 barobarga ko'payib, 6,7 millionga yetdi. Lekin Pandemiya ta'sirida O'zbekistonga tashrif buyuruvchi sayyohlar soni 1,5 millionga tushib ketdi.

Pandemiya O'zbekiston Respublikasining Xitoy va Koreya Respublikasi bilan tibbiyot sohasidagi hamkorligi rivojlanishiga ijobiy ta'sir qildi. Bu nafaqat O'zbekiston Respublikasining ushbu mamlakatlar bilan ilmiy-texnikaviy hamkorligi rivojlanayotganidan balki bu mamlakatlar bilan diplomatik aloqalarning mustahkamlanayotganidan darak beradi. Chunki ko'plab olimlar ta'kidlaganidek Pandemiyaning yengishda, insonlarning kundalik hayot tarzlarini va iqtisodiyotning tiklanishi samarador vaksinalarning yaratilishi va aholini emlash jarayoniga bog'liq bo'lib qoldi. Bundan tashqari Pandemiya sharoitida yaratilgan samarador vaksinalarning katta zaxirasi bo'y va rivojlangan davlatlar tomonidan egallab olinishi jarayoni kuzatilib O'zbekiston kabi rivojlanayotgan davlat uchun sifatli vaksinani imtiyozli narxlarda olish muhim ahamiyat kasb etardi. Xususan O'zbekiston Respublikasining Xitoydagi elchisi Baxtiyor Saidov va "Sinopharm Group" boshqaruv raisi Lyu Szinchen o'rtasida bo'lib o'tgan uchrashuv chog'ida Xitoy koronavirusga qarshi vaksinani sinash jarayonida O'zbekiston bilan hamkorlikka tayyorligi ma'lum qilindi.

Sinopharm Group" rahbari bilan uchrashuv chog'ida Covid-19 pandemiyasi sharoitida farmasevtika sohasida, dorivor o'simliklar xomashyosini qayta ishlash va

O'zbekiston hududida dori-darmon vositalari ishlab chiqarish bo'yicha loyihalarni hayotga tadbiiq etish borasidagi o'zaro hamkorlikning istiqbollari muhokama etildi.[6]

2020-yil 7-may sanasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin bilan telefon orqali muloqot qildi.

Suhbatda ikki tomonlama hamkorlikka doir va xalqaro ahamiyatga molik masalalar ko'rib chiqildi. Davlat rahbarlari koronavirus infeksiyasiga qarshi davom etayotgan kurashning eng murakkab davrida ko'rsatilgan o'zaro ko'mak va gumanitar yordamni katta mamnuniyat va minnatdorlik bilan qayd etdilar.

Aprel oyining ikkinchi yarmida ushbu xavfli virus bilan kasallanganlarni aniqlash, davolash va reabilitatsiya qilish sohasida Xitoyning ulkan amaliy tajribaga ega yetakchi vrachlari guruhi mamlakatimizda bo'ldi.

O'zbekiston Prezidenti xitoylik mutaxassislar yuksak professional mahorat namoyish etganliklari, ularning mamlakatimiz hududlaridagi mashaqqatli mehnatini alohida ta'kidladi.[7]

Ikki mamlakat sog'liqni saqlash va saniatriya-epidemiologiya nazorati sohasidagi idorali o'rtasida faol almashinuvlarni davom ettirishga kelishib olindi.

Shuningdek siyosiy-diplomatik, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, moliya, energetika, qishloq xo'jaligi, ransport-kommunikatsiya, madaniy-gumanitar va boshqa muhim yo'nalishladagi hamkorlikning holati va uni kengaytirish istiqbollari batafsil muhokama qilindi.

Bungacha Koronavirus tarqalishining dastlabki jarayonida 2020-yil 12-fevral kuni O'zbekiston tomoni Xitoy Xalq Respublikasiga Covid-19 tarqalishiga qarshi shaxsiy himoya vositalaridan iborat gumanitar yordam jo'natgan edi. Shu yilning 3-mart sanasida ikkinchi insonparvarlik yordami Urunchi shahriga yetkazib berildi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Covid-19 epidemiyasi aniqlangach Xitoy Xalq Respublikasi ham bir necha bor insonparvarlik yordamlarini jo'natdi. Jumladan 2020-yil 29-martida Xitoyning "Norinko", "Viyek Tochmash", "Xaytera", "Poli Texnoloji" va boshqa mudofaa sanoati kompaniyalari O'zbekistonga 20 tonna tibbiy buyumlarni insonparvarlik yordami sifatida yubordi.[8] Bundan tashqari 2020-yil 29-aprel va 13-may sanalarida Xitoy ikki marta insonparvarlik yordamlarini jo'natdi.

Shuningdek Koreya Respublikasi 2020-yil 26-aprel sanasida umumiy qiymati 900 ming dollarga yaqin 6,2 tonna og'irlikdagi yuqori texnologik tibbiy uskunalari, Avtomat mexanizimli tibbiy karovatlar va dignostika test tizimlari joy olgan insonparvarlik yordamini yetkazib berdi. Insonparvarlik yordami umumiy 34 tonnaga yaqin bo'lib, 192-ming dollarlik ikkinchi partiyasi 2020-yilning 10-may kuni

Toshkentga yetib keldi. Bundan tashqari 23-may sanasida 2020-yilning oktyabr oylarida ham Koreya Respublikasidan gumanitar yordamlar jo'natildi. Gumanitar yordamlar uchun mablag'larni jalb qilishda, yuklarni yetkazib berishni tashkillashtirishda O'zbekiston Respublikasining Xitoy Xalq Respublikasi va Koreya Respublikasidagi elchixonasi va turli hamkor kompaniyalar, Koreya Respublikasida tehsil oluvchi talabalar va mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi O'zbekistonlik migrantlar ham faol ishtirok etdilar.

O'zaro insonparvarlik yordamlarining almashinuvi O'zbekiston Respublikasining Xitoy Xalq Respublikasi va Koreya Respublikasi bilan do'stlik aloqalarini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Birinchidan bu gumanitar yordamlar koronavirus epidemiyasining oldini olishda muhim rol o'ynagan bo'lsa ikkinchidan o'zaro munosabatlar faqatgina iqtisodiy manfaatdorlikka asoslanmaganiga isbot bo'lib xizmat qildi.

O'zbekiston Respublikasi va Koreya Respublikasi munosabatlarda O'zbekiston hududida yashovchi ko'p sonli koreys diasporasining o'rni beqiyos bo'lib Pandemiya davrida ham bu muhim rol o'ynadi. O'zbekiston hududida koreys millati vakillarining 31 ta milliy madaniy markazi faoliyat olib bormoqda.[9]

Keyinchalik 2020-yilning noyabr oyida O'zbekiston Respublikasi Innovatsiya vazirligi Xitoy tomoni bilan Xitoyda ishlab chiqarilgan vaksining klinik sinovlarining 3-bosqichi O'zbekistonda ham 5ming nafar ko'ngillida o'tkazilishi haqida kelishib olingani haqida ma'lumot tarqatdi. Unga ko'ra sinovlar muvaffaqiyatli o'tgan taqdirda O'zbekiston vaksinani imtiyozli narxlarda sotib olish huquqiga ega bo'lishi va vaksina Markaziy Osiyoning boshqa davlatlariga O'zbekiston orqali tarqatilishiga kelishib olindi.[10] Keyinchalik ushbu sinov jarayonlari O'zbekistonda muvaffaqiyatli o'tkazildi va O'zbekiston ushbu vaksining hammuallifiga aylandi. 2021-yil 27- mart sanasida Xitoydan 1 million dozada Xitoy-O'zbekiston hammuallifligida yaratilgan ZF-UZ-VAC2001 vaksinasi yetkazib berildi.

Pandemiya ta'sirida turli xalqaro sammitlar, davlat rahbarlari, hukumat vakillari va turli idoralar o'rtasidagi uchrashuvlar ham masofadan turib o'tkazila boshlandi. Masalan Koreya Respublikasi Prezidenti Mun Chje In taklifiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 30-oktabrda Shimoliy Iqtisodiy hamkorlik ikkinchi xalqaro forumida ishtirok etib masofadan turib nutq so'zladi.[11] Shavkat Mirziyoyev ushbu forum ishini yuqori baholab pandemiyaga qarshi kurashish borasida quyidagi takliflarni berib o'tdi:

-Koreya kompaniyalari bilan birgalikta tashkil etilayotgan farmasevtika klasteri negizida samarali vaksina va zardoblar, kasalliklarni tez va aniq taqsimlash tizimlarini ishlab chiqish;

-Zamonaviy laboratoriyalar tashkil etish va chegaralarimizdagi sanitariya nazorat punktlarini modernizatsiya qilish;

-Koreya Respublikasining yetakchi oliy ta'lim muassasalari ishtirokida epidemiolog va virusolog vrachlarni tayyorlash;

-tibbiy chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tashkil etish;

-mintaqada epidimiologik vaziyatni monitoring qilish va barvaqt prognozlashtirishning integratsiyalashgan tizimini joriy etish;

Bundan tashqari 2020-yilning 13-aprel sanasida va 6-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Koreya Respublikasi Prezidenti Mun Chje In bilan telefon orqali muloqot qildi. 6- oktyabrdagi muloqot chog'ida Koronavirusning global miqyosda tarqalishining keng ko'lamli O'zbekiston-Koreya aloqalari uchun oqibatlarini kamaytirish maqsadida turli darajalarda faol hamkorlik va muntazam samarali muloqotni davom ettirish muhim ekanligi ta'kidlandi.

Xususan Prezidentlar savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik, o'zaro Tovar ayirboshlashni kengaytirish va hamkorlikni kuchaytirish uchun qulay shart-sharoitni shakllantirish, shu jumladan, zarur huquqiy bazani mustahkamlash va ishbilarmonlik tashabbuslarini ilgari surishga ko'maklashish masalalarini ko'rib chiqdilar.[12]

2021-yil 28-yanvarda esa Shavkat Mirziyoyev Koreya Respublikasi Prezidenti Mun Chje In bilan videoanjuman shaklida uchrashuv o'tkazdi. Ta'kidlash kerakki Pandemiya davrida bunday videoanjumanlar, va telefon suhbatlari soni ortib bordi.

Koreya Respublikasi va O'zbekiston iqtisodiy hamkorligining muhim jihatlaridan yana biri bu mehnat migrantlari masalasidir. Ma'lumki jadal rivojlanayotgan Koreys iqtisodiyoti mehnat resurslariga ehtiyoj sezib kelmoqda. O'z navbatida O'zbekiston uchun fuqarolarini yuqori daromadli, huquqiy himoyasi ta'minlangan ish o'rinlari bilan ta'minlash muhim o'rin tutadi. . 2011-yil 23-avgust sanasida ikki mamlakat hukumatlari o'rtasida bu masalaga oid bitim imzolanib mehnat migrantlarining huquqiy himoyasi mustahkamlab qo'yilgan edi. Birgina 2019-yil 4058 nafar O'zbekiston fuqarosi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi tomonidan Koreya Respublikasidagi turli korxonalar va firmalarga ishga joylashtirilgan bo'lsa 2020-yil Covid-19 pandemiyasi tufayli bu ko'rsatkich 242 kishini tashkil qilgan.[13]

So'ngi 10 yillikda O'zbekistonning Xitoy va Koreya Respublikasi bilan iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorligining rivojlanib borishi va o'zaro savdoning

barqaror o'sishiga qaramasdan O'zbekiston uchun bir nechta salbiy jihatlar ham ko'rinmoqda. Bular orasida o'zaro ikkitomonlama savdoning Xitoy foydasiga salbiy saldoda o'sishini hamda O'zbekiston iqtisodiyotining ba'zi sohalarida (telekommunikatsiya, bank va qishloq xo'jaligi) Xitoy texnologiyalarining ulushi ortishini ko'rish mumkin.[14]

Xitoyning 1992-yildan beri O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritgan to'g'ridan-to'g'ri sarmoyasi allaqchon 9 mlrd AQSh dollardan oshgan bo'lishiga qaramay, bu raqamlar Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi va ba'zi boshqa MDH davlatlaridagi raqamlardan ancha kam. Xuddi shuningdek mamlakatimiz iqtisodiyotiga kiritilgan Janubiy Koreya investitsiyalarining umumiy hajmi 7 mlrd AQSh dollaridan oshgan. Lekin bu sarmoyalarni yanada ko'paytirish imkoniyatlari mavjud bo'lib Pandemiya sarmoyalarni jalb etish va uni o'zlashtirish jarayonlarini ham qiyinlashtirdi.

XULOSA

Covid-19 pandemiyasi davrida kiritilgan cheklovlar O'zbekistonning Xitoy Xalq Respublikasi va Koreya Respublikasi bilan savdo-iqtisodiy, turizm va boshqa sohalardagi hamkorligiga ma'lum darajada salbiy ta'sir ko'rsatgan, so'ngi uch-to'rt yilda jadal o'sayotgan savdo-investitsiyaviy hamkorlikni sekinlashishiga sabab bo'ldi. O'zbekiston va hamkor mamlakatlar hukumatlari Pandemiyaning salbiy ta'sirini kamaytirishga bo'yicha jiddiy harakatlarni amalga oshirdilar. Bu ko'proq o'zaro savdoning keskin tushib ketishini oldini olish, rejalashtirilgan qo'shma loyihalarni davom ettirishga harakat qilishda ko'rindi. Bundan tashqari Pandemiya O'zbekiston uchun iqtisodiy sohadagi rivojlanish yo'nalishlarini qayta ko'rib chiqish, tashqi bozorga bog'liqlikni kamaytirish, xomashyo eksportini qisqartirib tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish kabi masalalarni qayta ko'rib chiqishga undadi. Lekin boshqa tomondan Pandemiya davrida O'zbekistonning Xitoy va Koreya Respublikasi bilan tibbiyot va ijtimoiy gumanitar sohadagi hamkorligi kuchayganini kuzatish mumkin. Buni ayniqsa koronavirusga qarshi vaksina yaratish va uni sinovdan o'tkazish, aholini emlash va o'zaro gumanitar yordamlar almashinuvida ko'rish mumkin.

REFERENCES

1. Bakhtiyor Saidov: Uzbekistan and China: new facets of cooperation and development. www.isrs.uz.
2. Uzbekistan- China Relations during COVID-19 Pandemic. www.cabar.asia.
3. Bahrom Xaynazarov. O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik va hamkorlik aloqalarini rivojlantirishda diasporalarning o'rni. O'tmishga nazar jurnali. 2019. 384-b

UDK:377.5

PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMIDA MAXSUS FANLARNI O'QITISHDA INNOVATSION PLATFORMALARDAN FOYDALANISH

Ziyayev Imomali Nigmatullayevich

Toshkent politexnika texnikumi, direktor o'rinbosari, Toshkent, O'zbekiston
adamantiy_077@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi professional ta'lim tizimi holati, masofaviy ta'limni tashkil etishda mavjud muammo va kamchiliklar, ularni bartaraf etish hamda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash masalalari aks ettirilgan.

***Kalit so'zlar:** ta'lim, xalqaro standartlar, klassifikator, masofaviy ta'lim, elektron platformalar, ilmiy salohiyat.*

ИННОВАЦИОННЫЕ ПЛАТФОРМЫ ДЛЯ ОБУЧЕНИЯ СПЕЦИАЛЬНЫМ ПРЕДМЕТАМ В СИСТЕМЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

АННОТАЦИЯ

На данной статье описываются состояние системы профессионального образования Республики Узбекистан, существующие проблемы и недостатки в организации дистанционного обучения, их устранении и подготовке конкурентоспособных кадров.

***Ключевые слова:** образование, международные стандарты, классификатор, дистанционное обучение, электронные платформы, научный потенциал.*

INNOVATIVE PLATFORMS FOR TRAINING SPECIAL SUBJECTS IN THE SYSTEM OF PROFESSIONAL EDUCATION

ABSTRACT

This article describes the state of the vocational education system in the Republic of Uzbekistan, the existing problems in the organization of distance learning, their elimination and the training of competitive personnel.

***Keywords:** education, international standards, classifier, distance learning, electronic platforms, scientific potential.*

KIRISH

Respublika iqtisodiyotining barqaror va jadal taraqqiyotini ta'minlashda kelajak uchun keng qamrovli, oqilona asoslangan ustuvor vazifalar va yo'nalishlar, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning reja va dasturlari ishlab chiqilmoqda. Mamlakatimizda shakllantirilayotgan, ko'pgina jabhalarda chuqurlashib borayotgan yangicha bozor munosabatlari uzluksiz ta'lim tizimiga, shu jumladan, iqtidorli, tashabbuskor yuqori malakali kadrlar soni va salohiyatini oshirishga xizmat qilayotgan Professional ta'lim muassasalari faoliyatiga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash davrida fuqarolar daromadlari, turmush darajasi va respublikada ishlab chiqarilayotgan yalpi ichki mahsulot hajmini oshirish, natijada yurtimiz mustaqilligini mustahkamlash, xalqimiz farovonligini yuksaltirish maqsadida aholi bandligini ta'minlash uchun yangi ish o'rinlari yaratish, mehnat sharoitlarini yaxshilash bilan birgalikda mehnat resurslari intellektual salohiyatini oshirish vazifalari ham bugunning dolzarb ahamiyat kasb etuvchi masalalari qatoridan o'rin egallaydi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Hozirgi globallashuv va tezkor axborot almashinuvi sharoitlarida har qanday tashkilot, korxonalar va muassasaning zamon talablariga mos ravishda rivojlanishi xodimlarning keng dunyoqarashi va mas'uliyatliliigi, eng muhimi, rahbar va jamoadagi yuqori malakali kadrlarning bilimi, ko'nikmasi, iqtidori, ma'naviyati, boshqaruv qobiliyati, ilmiy salohiyati va boshqa xususiyatlariga bevosita bog'liqdir. Professional ta'lim muassasalarida raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ulardan yurtimiz osoyishtaligi va obodligi, xalqimiz farovonligi yo'lida maqsadli foydalanish qat'iy raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyotining asosiy talablaridan biridir. Chunki yuqorida keltirilgan global masalalarning ijobiy hal etilishida mamlakatimizning ulkan ilmiy, ijodiy, intellektual va mehnat salohiyatining tarkibiy qismi bo'lgan, mustaqillik yillaridan hozirga qadar professional ta'lim muassasalarini bitirib, mehnat bozorida bozor iqtisodiyoti talablariga amal qilib, tashkilotlarda samarali faoliyat ko'rsatib kelayotgan yuqori malakali kadrlarning o'rni ahamiyatlidir. Keyingi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari hamda xalqaro standartlar talablariga mos keladigan professional ta'lim tizimini yaratish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrdagi PF-5812-sonli Farmoni ijrosi yuzasidan Respublikadagi kasb-hunar kollejlari faoliyati tugatilib, xalqaro andozalarga mos bo'lgan, ya'ne YUNESKO

halqaro tasniflagichi(keyingi o‘rinlarda Xalqaro tasniflagich yoki MSKO)ning 3,4,5 darajalariga mos keluvchi professional ta‘lim tizimi joriy etildi. Bunda, xalqaro tasniflagichining 3 darajasiga mos keluvchi kasb-hunar maktablari, 4 darajasiga mos keluvchi idoraviy kollejlari hamda 5 darajasiga mos keluvchi oliy ta‘lim tizimi bilan integratsiyalashgan texnikumlarni ko‘rishimiz mumkin. Hududlarda yangi professional ta‘lim muassasalarining tashkil etilishi, kadrlar tayyorlashning zamonaviy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari hamda sirtqi va kechki bo‘limlarning ochilishi, professional ta‘lim muassasalariga qabul kvotalarining oshirilishi mazkur yo‘nalishdagi muhim islohotlar hisoblanadi. Hozirgi zamon sharoitida professional ta‘lim muassasalarida o‘quv jarayoni belgilangan o‘quv me‘yoriy hujjatlar asosida amalga oshirilayotgan bo‘lib, fanlar bo‘yicha o‘quv dasturlari hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari hamda ishlab chiqarish tarmoqlari ehtiyojlari asosida integratsiyalashtirilgan holda hamkorlikda ishlab chiqilmoqda. Xalqaro andozalarga mos keluvchi professional ta‘lim tizimida qanday muammo va kamchiliklar mavjud? degan savollar tug‘ilishi tabiiy. Bu savollarga javob berishda muammo va yechimlarni quyidagicha izohlashimiz mumkin.

Birinchidan, yaqin yillar ichida butun dunyoda inson salomatligiga salbiy ta‘sir etuvchi yuqumli kasalliklar jumladan, koronavirus infeksiyasi kabi viruslar aholi o‘rtasida gigiena qoidalariga rioya etish, ijtimoiy masofani saqlash kabi profilaktik chora-tadbirlar ta‘lim muassasalarida ham o‘quv jarayonini an‘anaviy shaklidan masofaviy ta‘limga o‘tishga ehtiyoj tug‘ildi. Oliy ta‘lim tizimida aksariyat oliy ta‘lim muassasalarida MOODLE dasturiy ta‘lim platformasi asosida masofaviy ta‘lim tashkil etildi. Biroq ayni shu vaqtda professional ta‘lim tizimida ham o‘quv jarayonini masofaviy tarzda amalga oshirishda “Aqlli ta‘lim” platformalari mavjud emasligi sababli ijtimoiy tarmoqlar va turli xil mesendjerlar orqali o‘quv mashg‘ulotlari olib borildi. Bu esa o‘z navbatida ta‘lim sifatini pasayishi, nazorat tizimidagi muammolar, o‘quv mashg‘ulotlarga bilim oluvchilarning o‘z vaqtida qatnashmasligi, hududlardagi internet tarmog‘idagi muammolar, mashg‘ulot materiallari bit-xajmi turlicha bo‘lgani sababli ulardan foydalanishdagi qiyinchiliklar hamda pedagog xodimlar va bilim oluvchilarda ortiqcha internet trafiklari sarflanishi oqibatida xarajatlarning ko‘payishiga va buning natijasida ayrim bilim oluvchilar dars mashg‘ulotiga qatnashmasligi kabi ta‘lim uzluksizligiga salbiy ta‘sir etuvchi muammolar kelib chiqishiga sabab bo‘ldi. Misol o‘rnida shuni ta‘kidlash lozimki, 2020 yilda birgina Sirg‘ali politexnika kasb-hunar kollejida pandemiya sababli tashkil etilgan “onlayn dars” samaradorligi bo‘yicha o‘tkazilgan so‘rovnomada bilim

oluvchilar hamda ularning ota-onalarining faqatgina 17 foizi ijobiy fikr bildirgan, 83 foiz so‘rovnoma ishtirokchilari bilim sifati pasaygani haqida fikr yuritishgan. Vaholanki, ushbu ta‘lim muassasasi ko‘p yillar davomida bilim berish sifati hamda reytingi bo‘yicha Toshkent shahri va Respublika miqyosida yetakchi o‘rinlarni egallab kelgan.

Ikkinchidan, yangi tashkil etilgan professional ta‘lim tizimida oldingi kasb-hunar ta‘limi tizimidan farqli kunduzgi, kechki, sirtqi ta‘lim shakllari mavjud bo‘lib, pandemiya sharoiti bo‘lmagan taqdirda ham sirtqi ta‘lim shaklida bilim oluvchilarning o‘quv yuklamasi boshqa ta‘lim shakllaridan ancha farq qilishi ta‘lim sifatining pasayishi, bilim oluvchilarning nisbatan kam bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kuzatiladi. Bu kabi kamchiliklarni bartaraf etishda sirtqi ta‘lim shakli bilim oluvchilari ham masofaviy tarzda “ixtiyoriy dars jadvali” asosida bilim olishlari maqsadga muvofiqdir.

Uchinchidan, «Ta‘lim to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq yoshlarning kasblar va mutaxassisliklarni egallashga bo‘lgan qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlash uchun keng imkoniyatlar yaratish hamda professional ta‘lim tizimida dual ta‘limni tashkil etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 29 martdagi 163-sonli Qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq 2021/2022 o‘quv yilidan boshlab professional ta‘lim tizimida “hayot davomida ta‘lim” prinsipi asosida “dual” ta‘lim tizimi joriy etilishi ko‘rsatilgan bo‘lib, bilim oluvchilar hafta davomida kamida 2 kun ta‘lim muassasasida bilim olib qolgan ish kunlari o‘zlarining kasb va mutaxassisliklari mos ravishda korxonalarda yoki ishlab chiqarish tarmoqlarida o‘zlarining amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlashi mumkin bo‘lib, korxonalar va tashkilotlar bilim oluvchilarga ish xaqi to‘lashi nazarda tutilgan. Bu esa o‘z navbatida yoshlarning kasblar va mutaxassisliklarni egallashga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishga sabab bo‘ladi. Biroq, hafta davomida 2 kunlik nazariy yoki amaliy mashg‘ulotlarda egallanadigan bilim va ko‘nikmalar yoshlarning egallanishi lozim bo‘lgan bilim va ko‘nikmalariga qo‘yiladigan minimum talablarga salbiy ta‘sir qilishi mumkin. Shu bois, “dual” ta‘lim tizimi bo‘yicha bilim olayotgan yoshlar 2 kunlik an‘anaviy ta‘lim 4 kunlik masofaviy ta‘lim tizimi asosida “aralash” bilim olishlari maqsadga muvofiqdir. Zero, bilim olish chegarasiz bo‘lib, yosh avlodning qisqa davr ichida samarali bilim olishi va o‘z navbatida ishlab chiqarish tarmoqlari bilan uzviylikni ta‘minlashi mamlakat taraqqiyoti uchun ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi shubhasizdir.

Bugungi kunda professional ta‘lim tizimi faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishda bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2020/2021 o‘quv yili uchun


Respublika kollej va texnikumlariga abituriyentlarning hujjatlarini qabul qilish hamda ro'yxatdan o'tkazishda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining idoraviy kollejlari uchun kollej.edu.uz hamda texnikumlar uchun texnikum.edu.uz onlayn elektron platformasi ishga tushirildi. 2021 yilda esa professional ta'lim muassasalari bilim oluvchilari hamda O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan hamkorlikda professional ta'lim muassasalarida tashkil etilgan ishsiz fuqarolarni bepul kasb o'qitish qisqa muddatli o'quv kurslari tinglovchilarini yagona ro'yxatga olish tizimini yo'lga qo'yish maqsadida prof-talim.edu.uz elektron platformalari yo'lga qo'yildi.

Yuqorida ko'rsatilgan ayrim muammo va kamchiliklarni bartaraf etishda xar bir ta'lim muassasasida "Aqlli ta'lim" elektron platformalarini yaratish maqsadga muvofiq bo'lib, yaratilgan innovasion o'qitish elektron platformalariga ta'lim muassasasida har bir ta'lim yo'nalishlari bo'yicha mavjud o'quv jarayoni elektron platformada aks etishi lozim. Bunda platforma foydalanuvchilarini uch guruhga bo'lish mumkin:

Bilim oluvchi(o'quvchi, talaba, tinglovchi)lar – bilim oluvchilar toifasiga kiruvchi foydalanuvchilar berilgan login va maxfiy kodlar orqali tizimga kirib, dars jadvali asosida berilgan mavzu bo'yicha ma'ruza matni, laboratoriya ishi, amaliy mashg'ulot topshirig'i, vizual materiallardan foydalanishlari mumkin bo'ladi hamda bajarilgan nazorat ishlari, mustaqil ta'lim hamda boshqa vazifalarni elektron shaklda o'qituvchiga yuboradi.(1-rasm)

Pedagog xodim(o'qituvchi, ishlab chiqarish ta'limi ustasi, yo'riqchi va boshqalar)lar – pedagog xodimlar uchun alohida login va maxfiy kod beriladi hamda pedagog xodim toifasiga kiruvchi foydalanuvchilar tizimda o'quv mashg'ulotini to'liq tashkillashtiradi hamda olib boradi. O'quv mashg'ulotini tashkillashtirishda dars mavzusi bo'yicha barcha materiallarni tizimga joylaydi, bilim oluvchilarning mashg'ulotga qatnashishlarini nazorat qiladi, bajarilgan topshiriqlarni tekshiradi hamda baholaydi, o'quv mashg'uloti vaqtida jonli videokonferensiyalarni tashkillashtiradi.

Ma'muriy xodim(administrator) – butun o'quv jarayonini nazorat qiladi, jumladan, pedagog xodimlar va bilim oluvchilar faoliyatini to'liq nazorat qiladi, o'zlashtirish hamda o'quv mashg'uloti borishi monitoringini yuritadi. Pedagog xodimlar va bilim oluvchilarga tizimga kirishlari uchun login va maxfiy kodlar beradi.



1-расм. Билим олувчи (фойдаланувчи) тоифаси учун платформа структураси

Professional ta'lim tizimi uchun "Aqlli ta'lim" elektron platformalarini yaratishda barcha professional ta'lim muassasalari uchun yagona platforma joriy qilish qiyin kechadi, chunki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 7 avgustdagi 466-sonli Qarori bilan tasdiqlangan Nizomga muvofiq ta'lim muassasalarida tegishli kasb va mutaxassisliklar bo'yicha o'quv rejasi asosida o'quv dasturlari ishlab chiqarish birlashmalari, birlashtirilgan oliy ta'lim muassasasi hamda hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlari asosida hamkor tashkilotlar bilan kelishilgan holda tuzilishi hamda tasdiqlanishi ko'rsatib o'tilgan. Bu esa o'z

navbatida ta'lim muassasalaridagi tasdiqlangan o'quv dasturlaridagi mavzular o'zaro mos kelmasligi mumkinligini anglatadi. Bundan tashqari ta'lim dasturlaridagi xar bir mavzu bo'yicha elektron platformaga joylanadigan materiallar xajmi ko'pligi, millionlab foydalanuvchilarining bir vaqtda tizimdan foydalanishlarini inobatga olsak ushbu elektron platformasini yaratishda yuqori sifatli zamonaviy moddiy texnik baza talab etiladi. Platforma yuqori operativ xotirali hamda ko'p sig'imli serverga ulanishiga ehtiyoj tug'iladi. Bu kabi muammolarga yechim sifatida tizim yuklamasini qismlarga bo'lishni ko'rsatishimiz mumkin. Bunda har bir ta'lim muassasasi uchun alohida elektron platformasi yaratilishi hamda alohida server o'rnatilishi maqsadga muvofiq bo'lib, muammolarga yechim bo'la oladi.

XULOSA

Bugungi kunda Respublikamizda axborot texnologiyalari yo'nalishida kadrlar tayyorlash tizimida bir qancha ishlar amalga oshirilayotgan bo'lib, bunga misol tarzida Muxammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining bir necha hududlarda filiallari, "Bir million dasturchi" kabi yirik loyihalar tashkil etilganligini ko'rsatishimiz mumkin. Shu barobarda, professional ta'lim muassasalarida innovasion elektron platformalarni yaratish hamda ulardan foydalanish, doimiy ravishda takomillashtirib borish maqsadida har bir muassasa ma'muriy xodimlarini innovasion elektron platformalar yaratish bo'yicha Davlat byudjeti hisobidan maxsus o'qitish hamda doimiy ravishda malakasini oshirish tizimini joriy qilinishi pedagog xodimlarning axborot texnologiyalari sohasidagi bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishga hamda tizimda yosh avlodni o'qitishda yangicha yondashuvga erishishga zamin yaratadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, hozirgi zamon globallashtirish sharoitida axborot texnologiyalari vositasida kadrlar tayyorlash muhim o'rin tutadi. Zero, kundalik hayotimizda, iqtisodiyotda, ishlab chiqarishda va hayot faoliyatimizning barcha sohalarida axborot texnologiyalaridan keng foydalanishimiz muqarardir.

REFERENCES

1. Qo'ysinov O.A. "Kasbiy pedagogika" fanidan elektron darslik. O'zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligi guvohnomasi №DGU 03392. Toshkent-2015 yil.
2. Qo'ysinov O.A. "Barkamol shaxsni shakllantirish, sog'lom turmush madaniyatiga ega yoshlarni tarbiyalashda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish"

“Mustaqil O‘zbekiston innovasion taraqqiyot yo‘lida” Respublika konferensiya materiallari. – Toshkent-2017 yil.

3. Kuysinov O. “Improving the methodologies of raising the effectiveness of continuous education on the basis of ensuring content consistency” «Actual problems of modern science, education and training» Electronic Journal. July, 2021-7/1. ISSN 2181-9750

4. Ibraymov A. Masofaviy o‘qitish tizimini tashkil etish va o‘quv kurslari mazmunini ishlab chiqishning o‘ziga xos xususiyatlari. O‘zMU xabarlari. – Toshkent, 2016 yil.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrdagi “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5812-sonli Farmoni.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA SAMARALI BILIM BERISH MAQSADIDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VOSITALARIDAN FOYDALANIB DARSNI TASHKIL ETISH

Olimova Dilshodaxon Baxtiyorjon qizi

Qo'qon davlat pedagogika instituti 2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimni takomillashtirishga qaratilgan, hozirgi kunda keng qo'llaniladigan kompyuter texnologiyalaridan foydalanib darsni tashkil qilish, natijada samarali bilim berish haqida fikrlar yuritilgan.

***Kalit so'zlar:** ta'lim, tarbiya, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, elektron taqdimotlar, ko'rgazmalar.*

ABSTRACT

The article focuses on improving the knowledge of primary school students, the organization of lessons using computer technology, which is widely used today, and, consequently, the idea of effective teaching.

***Keywords:** education, training, information and communication technologies, electronic presentations, exhibitions.*

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена вопросам повышения уровня знаний учащихся начальных классов, организации уроков с использованием компьютерных технологий, которые сегодня широко используются, в результате чего обеспечивается эффективное обучение.

***Ключевые слова:** образование, обучение, информационные и коммуникационные технологии, электронные презентации, выставки.*

KIRISH

Ilm-fan – taraqqiyot asosi. Zamonaviy ilm-fan yutuqlariga, innovatsion g'oyalarga tayanmagan davlatning ham, jamiyatning ham kelajagi yo'q. Faqat ilm va ma'rifat, intellektual salohiyat, har tomonlama bilimli kadrlar hisobidan biz O'zbekistonni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqa olamiz[1].

Bugungi kun o'qituvchisiga barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdek mas'uliyatli vazifa yuklangan bo'lib, ta'lim mazmunini takomillashtirishga qaratilgan vazifalarni belgilab olish, zamon bilan hamnafas bo'lib, ta'limning zamonaviy texnologiyalarini joriy etgan holda o'quvchilarda o'z faniga qiziqish uyg'otishlari,

hurmat-ehtirom tuyg'ularini shakllantirib borishlari talab etiladi. Ta'limda ijobiy natijalarga erishish, eng avvalo, yosh avlodga ilmiy bilim asoslarini puxta o'rgatish, ularda dunyoqarash hamda tafakkur ko'lamini kengaytirish, ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirish borasidagi ta'limiy-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish bilan belgilanadi. Bu borada ta'lim-tarbiya jarayoniga ko'plab o'zgartirishlar kiritilmoqda, yangicha yondashuvlar tadbiiq etilmoqda. Shulardan biri, axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanib dars o'tishda mashg'ulotlar samaradorligini oshirishga erishish hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta'lim muassasalarining moddiy texnik va axborot bazasini mustahkamlash, o'quv-tarbiya jarayonini yuqori sifatli o'quv adabiyotlari va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash uzluksiz ta'lim tizimini axborotlashtirish masalasi alohida qayd etilgan. Bundan kelib chiqqan holda ta'lim jarayoniga axborot-kommunikatsion texnologiyalarini joriy etish davr talabi hisoblanadi. Darslarni ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, o'quvchilarni mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga, axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan oqilona foydalanishga o'rgatish, o'qitilayotgan fanni o'zlashtirish sifatini oshirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Bu borada boshlang'ich ta'limni o'qitishda ham turlicha uslublar qo'llanilmoqda. Shulardan biri zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishdir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Zamonaviy axborot texnologiyalarning jadal taraqqiy etib, ta'lim sohasiga jadal kirib kelishi, hayotimizda muhim ahamiyatga ega bo'lib borayotgani bu boradagi bilim va malakalarimizni ham mos ravishda shakllantirishni taqozo etadi. Shuning uchun, boshlang'ich sinflarda kompyuterdan foydalanib dars o'tish tavsiya qilindi. Dars jarayonining muhim yutuqlaridan biri kompyuter texnologiyalari komponentlaridan foydalanishni ta'minlovchi dasturiy vositalarning yaratilishi bo'ldi. Ayniqsa, o'quv jarayonining tashkil qilishda bu dasturiy vositalar alohida ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun yaratilgan elektron darslik, qo'llanma va taqdimotlardan o'quv jarayonida keng foydalanilmoqda. Elektron taqdimotlardan darsda namoyish va ko'rgazmali material sifatida foydalanish o'qituvchiga katta yordam beradi. O'quv materialining elektron taqdimotda animatsiyalar shaklida berilishi o'qitilayotgan mavzuni tushunishni yengillashtiradi va ko'rgazmalilikni oshiradi. Namoyish slaydlarini o'quvchilarga tarqatma material sifatida ham berish mumkin. Elektron darslikdan mustaqil ta'lim olishda va o'quv materiallarini har tomonlama samarali o'zlashtirishda foydalanish mumkin. Elektron darslikda fanning

It is also worth noting that the study of the folklore profile of the image of the world does not allow for a purely synchronous interpretation of linguistic data, since in the space of the folklore text they update the conglomerate of semantic clusters inherited from many cultural and historical eras. . In the semantic field of the folklore language, a diachronic stratification of the material should be made: only under this condition, with a greater degree of objectivity, can we conclude about the specifics of reflecting reality in the folklore image of the world.

Let's move on to the interpretation of the signs (criteria) that determine the originality of the content of the folklore image of the world.

1. The sign of anthropometry. The national language, which is one of the variants of the natural language, contains a wealth of data, according to which ethnocultural information about the postulates of spiritual culture and the peculiarities of the mentality of the Russian people is explained and reconstructed. The backbone of the mentality defined by V. Telia is the self-consciousness of people, represented in the process of functioning of the facts of language (vocabulary, phraseology) in various types of discourses. By the criterion of anthropometry in relation to the folklore image, we understand that the general genre lexicon and its components - folklore nominations - objectify, first of all, "the properties attributed to a person as a linguistic norm and symbol."

2. Ethno-cultural attribute of information. In the course of the study of thematically designed fragments of folk vocabulary as the main procedure for obtaining information, its essence will be an ethno-cultural criterion that defines "the worldview in terms and forms of the native language, combining intellectual, spiritual and volitional features. national character in its typical manifestations."

3. A sign of stereoscopic folklore. The general table of folklore texts reflects the forms of being from the point of view of various types of consciousness: everyday, "pre-scientific, non-classical", mythological, religious, etc., which justifies the stereoscopic nature of the information presented. . Let's comment on the folklore interpretation of some aspects of life from the point of view of "pre-scientific" folk knowledge of language, pedagogy, medicine, meteorology, etc., known first of all, also verbally objectified. Since ancient times, in folklore genres, the postulates of folk science have been artistically brought to perfection, the world of which in modern life, unfortunately, fades into the background, but is firmly archived in folklore texts.

Thus, the metalinguistic awareness of the people is reflected in the texts of different genres and in the statements of performers about the language of folklore.

For example, folk linguistics does not use the terms "epic", "historical song", introduced by scientists into folklore. Since the collection of the classical folk epic, composers have called their works antiques. Information from folk pedagogy is systematically processed by vocabulary and genres, stylistically "refined" from generation to generation in folklore for children, in ritual genres of the calendar cycle, etc. The language of Russian pomes also includes pedagogical sayings for adults. The proverb warns parents: "Mom and dad will not teach - they will be tortured," that is, people will reach those who are not brought up in the family properly. Extensive knowledge of traditional medicine is objectified in the language of spells and incantations, the texts of which are extensive, in accordance with the information contained in them about a person and the world around him, as well as the value that after healing a person's body and soul should remain in harmony with nature: "As on Great Thursday the sun rises, rejoices, shimmers with different colors so that the head does not hurt, does not spin, lives joyfully." Folk meteorology is embodied in the language of signs reflecting the awareness of the farmer, which is based on the principle of independence, a certain rest in orderly activity on earth: "If the blue clouds of the Magi at noon - to harvest." "In order to establish a connection between the color of the clouds at noon of Epiphany and the harvest seven months later, in August, what centuries-old attention should be shown, how much and to what special extent it was necessary to think accurately about agriculture. Folk philosophy settles in time in laconic sayings, in which the experience of generally accepted knowledge about the outside world and adaptive internal human activity crystallizes. The deep meaning of a phrase from a folk tale: "I'll go there - I don't know. where " - in fact refers to the search for a person throughout his life.

4. Selectivity in the reflection of ethno-cultural information. Selectivity as one of the essential features of the content of the folklore image is multifaceted and variable in its manifestation. The reflexive (epistemic) function of the folklore language stems from the cognitive (cognitive) activity of the collective author of folklore works, which, however, does not involve "photographic" copying of the nomenclature, but a selective genre interpretation of folklore parameters. people. life and knowledge of the world. Folklore selectivity stems from the value of heterogeneity of the realities of the surrounding world. Only those who are endowed with deep ethno-cultural significance in the collective consciousness of native speakers are perceived as valuable. Selectively selected denotations of reality are determined by folklore nominations (monolexems, verb complexes), which are not

only linguistic signs, but primarily linguistic and aesthetic ways of expressing ethno-cultural values.

5. From the previous one there is a sign of self-sufficiency of the national image, compensated by its species variability. One of the sides of the variation of the general folklore image of the world is the genre actualization of the primacy of a number of concepts, their features. Thus, in the part of the folklore dictionary correlated with the paremic linguistic picture, a number of concepts covering many spheres of the external and internal world of a person as a representative of the Russian ethnos are realized. In the collection of proverbs V. There are 179 thematic headings that simultaneously highlight universal and country-specific beings in the adaptive behavior of a person in the world around him, in the awareness of his place in it. With the help of the notorious representations, the genre version of the image of the world is modeled, expanded and refined according to the degree of embodiment of the pragmatic intentions of the people as the author of the pariah.

7. Different degree of conditionality of reflected reality. The essence of this distinctive feature is that in folk art everything is referential, taking into account the criterion of conditionality, obligatory in its intense manifestation in some genres (for example, in fairy tales) and permissible in its elements in other genres (for example, in everyday stories). , in animal tales).

6. A sign of uniqueness. Folklore texts contain a specific system of notation, which is motivated by the greatest conditionality of the reflected reality. The sign of uniqueness, closely related to the sign of conventionality, is manifested in the fact that fragments of reality are objectified in the language of folklore as specific "mental constructions". For example, in the epic language, the folk concept of "miracle" manifests itself in the themes of diva, strangeness, strangeness. In the versions of one of the most authoritative epics about Svyatogor for performers, there are three important, interrelated themes: the first theme is the Holy Mountain, symbolizing vertical extension in space (in the sky); the second theme is the strangeness-strangeness of the giant Svyatogor - a great hero living in the Holy Mountains; the third theme is Holy Russia - the habitat (mainly in horizontal space) of people - strong and powerful heroes. On those high mountains, / Na ta świętej Górze, / There was a wonderful hero / Well, the whole world was beautiful... / He did not go to Holy Russia, / His mother did not carry the cheese land [11]. It is in this reference to the epic text, according to V. Toporov, that the connection between the miracle (or diva) embodied in the power of Svyatogor and the motive of his strangeness is realized. A miracle is something so unusual, beyond the ordinary, of its own, that it cannot be

alien to this ("own") model of the human world. Note that in the epic image of the world, the objectification of the concept of "miracle" is explained not by the play of vain imagination, but by the desire of people for self-awareness, which, step by step, stems from the mythopoetic perception of the world. comes to the denial of the "miracle reality" (but not in the vernacular). It should be noted that in the non-folklore language, conceptual signs are being updated, reflecting "mental, spiritual constructions" associated with the national characteristics of the inner world of the Russian person. Signs of the concepts "spiritual aspiration", "dream", in our opinion, are represented by the meanings of words in the author's individual text: "Rosich always wanted the impossible. Eternally hungry in soul, he lived by the chase. Happy Rosich has not yet lived in the world, for himself he has always remained below his dreams " (V. Ivanov. Native Russia").

In his oral literature, people - the collective author - create a linguistic image that differs in a set of essential features through certain ways of linguistic embodiments and methods of description. Therefore, answering the questions: "Is it interesting to study the folklore version of the linguistic worldview? Is she naive? "- we argue as follows. The study of the folklore image of the world is a multifaceted research activity. With the help of a folklore verbal code, a variant of the image of the world is objectified by certain features that, in our opinion, determine its content by no means "primitive" and/or "naive". Folk composers, performers of folklore works, united by a common worldview and ethno-cultural traditions, act as a plot that creates a common genre image in an aesthetic form. The folklore image embodied in texts of different genres stereoscopically presents different models of forms of human existence from the point of view of different types of consciousness.

Here is our definition of the folklore version of the picture of the world. The folklore linguistic picture of the world in its content is a reliable objectification of folk knowledge, ideas, assessment of reality, orientation of a person. The basic information, which is represented in a peculiar way according to the laws of genres by various linguistic methods and techniques, is ethnocultural information about the existence of a person in space and time, about his external and internal world, about cultural traditions, about the mentality of the Russian ethnos.

The conceptual sphere of Russian folklore is a complex anthropocentric structure. Its reflection in the texts of Russian folk tales is based on the Christian worldview, folk Orthodoxy. The components of the folklore concept are such subconceptospheres as "Nature", "Inanimate nature", "Artificial world", "Society", "Family", etc. Education. In the center is the concept of "Man" contained in the

subconceptual sphere of "Society" and "Family". Above is a bipolar structure, one pole of which is the concept of "God", and the other is "Satan". The concept of "Man" as part of the named subconceptospheres is on the same level as the subconceptospheres of "Living Nature" and "Inanimate Nature", because they are defined by them as the creation of God.

By the method of layer-by-layer analysis of the folklore concept, the features of its reflection in the fairy tale and its difference from the general cultural one are established. These differences manifest themselves at the figurative and evaluative level. The conceptual levels of folklore and general cultural representations coincide. The main way to reflect the folklore concept in a fairy tale text is verbalization. It involves language units at different levels, but lexical means play a leading role. An important role is also played by individual lexemes - the names of the concept and mythological concepts. All these units have cultural significance, carry a certain pragmatic load and are regularly reproduced in the texts of Russian folk tales. As a result, their study allows us to comprehensively understand the linguistic image of the world of Russian folklore and the mentality of the ethnos reflected in it. Using the methods of ethnolinguoculturological analysis, cultural interpretation of linguistic signs based on the idea of the mentality, national characteristics of the Russian ethnos, it is possible to identify the pragmatic, connotative and cultural potential of the linguistic units under consideration.

CONCLUSION

The verbalization of folklore representations reflects folk ideas about social hierarchy, family roles, the surrounding world - close, "ours" and distant, unknown, about nature, animals and much more, written in the language. Psychological characteristics of Russians determine the choice of lexical means. Folklore concepts formulated in a folk tale should not be considered as a mirror image of the realities of life.

REFERENCES

1. Apresyan Yu.D. Integral description of the language and system lexicography. Selected works. M., 1995. Vol. 2. p. 39.
2. Bragina A.A. Diachrony in synchrony as a process of language development // Russian language: historical destinies and modernity. Proceedings and materials of the I International. Congress. M., 2001. pp. 8-9.
3. Lurie S. V. Metamorphoses of traditional consciousness. St. Petersburg., 1994. pp. 274.

4. Sokolova T.S. Essays on Russian linguo-folklore studies: monograph. Belgorod, 2002. p. 67.
5. Telia V.N. Connotative aspect of the semantics of nominative units. M., 1986. p. 40.
6. Telia V.N. Russian Russian language: historical destinies and modernity. Priority tasks and methodological problems of the study of the phraseological composition of language in the context of culture // Phraseology in the context of culture. M., 1999.
7. Shmelev A.D. The Russian language picture of the world: imaginary contradictions // Russian language: historical destinies and modernity. Proceedings and materials of the II International. Congress. M., 2004. p. 55.
8. Einstein A. Maxwell's influence on the development of ideas about physical reality // Sobr. nauch. tr. M., 1967. p. 36.

УДК 631.312.44

ТАКРОРИЙ ЭКИНЛАР ЭКИШ УЧУН ТУПРОҚНИ ЭКИШГА ТАЙЁРЛАШНИНГ РИВОЖЛАНИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ

Ҳ.А. Равшанов

ТИҚХММИ Қарши филиали профессори, т.ф.д.

АННОТАЦИЯ

Мақолада такрорий экинлар экиш учун тупроқни экишга тайёрлашнинг ривожланиш йўналишларининг таҳлили натижалари келтирилган.

***Калит сўзлар.** Тупроқ, такрорий экинлар, ресурстежамкор, комбинациялашган машина, агрегат, тупроққа ишлов бериш, энергия, унумдорлик, шудгорлаш, юмшатиш, текислаш, зичлаш.*

DEVELOPMENT DIRECTIONS OF SOIL PREPARATION FOR REPRODUCTION OF REPRODUCTIVE CROPS

ABSTRACT

The article presents the results of the analysis of the development trends of soil preparation for replanting.

***Keywords:** soil, replanting, resource-saving, combined machine, aggregate, tillage, energy, fertility, plowing, loosening, leveling, compaction.*

НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ПОДГОТОВКИ ПОЧВ К РАЗМНОЖЕНИЮ РЕПРОДУКТИВНЫХ КУЛЬТУР

АННОТАЦИЯ

В статье представлены результаты анализа тенденций развития подготовки почвы к пересадке.

***Ключевые слова:** почва, пересадка, ресурсосбережение, комбинированная машина, агрегат, обработка почвы, энергия, плодородие, вспашка, рыхление, выравнивание, уплотнение.*

КИРИШ

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 1 июндаги “2017 йилда бошоқли дон экинларидан бўшайдиган майдонларга такрорий экинларни жойлаштириш, экиш учун талаб этиладиган моддий-техника ресурсларини ўз муддатида етказиб бериш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3027-сонли Қарори аҳолини озик-овқат маҳсулотларига бўлган талабини тўла қондириш,

уларни арзон ва сифатли қишлоқ хўжалик маҳсулотлари билан таъминлаш имконини берди [1]. Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигини ривожланишининг бош йўналишларидан бири - бу ерга ишлов беришнинг илғор усулларидан фойдаланиш, етиштириладиган маҳсулот бирлигига кам меҳнат сарфлаган ҳолда мунтазам, жадал ва юқори ҳосил олиш ҳисобланади. Қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштиришда энг кўп меҳнат ва энергия талаб қиладиган технологик жараёнлардан бири – бу тупроққа ишлов бериш ҳисобланади.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Ҳозирги замон жаҳон амалиётида тупроққа ишлов беришда энергия ва ресурстежамкор, тупроқ унумдорлигини оширадиган, тупроқни экологик ҳимоялайдиган технология ва техник воситаларни ишлаб чиқиш ҳамда қўллаш етакчи ўринни эгаллайди. Қишлоқ хўжалиги экинларини серунум технологиялар асосида етиштиришнинг кенг қўлланилиши туфайли ерга ишлов бериш сифатига талаблар кескин ошиб бормоқда. Қўлланиладиган барча технологиялар замонавий агротехник талабларга жавоб бериши керак.

Бугунги кунда, такрорий экинлар экиш учун тупроқни экишга тайёрлашнинг мавжуд технологияларида кузги донли экинлардан бўшаган далаларда йилнинг ёз фаслида алоҳида-алоҳида ва кетма-кет ерларни шудгорлаш, текислаш, бороналаш, болалаш каби технологик операциялар амалга оширилади. Далаларни шудгорлашда ПЯ-3-35, ПД-4-45, О'Р-3/4-40 ва "Massey Ferguson", "Kverneland", "Lemken" фирмаларининг замонавий хорижий плуглари қўлланилади. Шудгорлашда ҳосил бўлган нотекисликларни, очиқ эгат ва марзаларни ҳамда дала четларини текислаш ишлари ГН-2,8, ГН-4 грейдер пичоқлари билан амалга оширилади. Тупроқни юза қатламини ағдармасдан юмшатиш ЧКУ-4А, ЧК-3,0 чизеллари, бороналаш БЗТХ-1,0; БЗТС-1,0 тишли ва БДТ-3,0, ТДБ-3/5 дискли бороналари ва молалаш ВП-8, МВ-6, МВ-6А мола-текислагичлари ёрдамида талаб даражасида зичлашган ва майдаланган юза қатлам ҳосил қилиш мақсадида ўтказилади [2]. Натижада, оғир тракторлар ва ерга ишлов бериш машиналарининг юриш қисмларининг таъсири остида тупроқ зичланади, физик-кимёвий хусусиятлари ёмонлашади, ҳосилдорлик 12-30% га камаяди, органик моддалар тез парчаланиши туфайли эрозия жараёнлари кучаяди. Тупроқнинг юза қатлами (0 дан 6-7 см гача) таркиби бузилади, пастки қатламлари эса юқори даражада (масалан, тақирли тупроқларда 2,13 г/см³ гача) зичлашиб кетади.

Тупроққа бундай қайта-қайта ишлов бериш меҳнат, энергия ва ёнилғи

сарфини ошишига, тупроқ структурасининг бузилиши ва зичланишига ҳамда такрорий экинларни экиш учун тупроқни тайёрлаш муддатини чўзилиб кетишига сабаб бўлади. Бинобарин, такрорий экинлар экиш учун тупроқни экишга тайёрлашда мавжуд технологияларнинг агротехник, техник-иқтисодий ва экологик кўрсаткичлари ҳозирги замон талабларига жавоб бермайди. Шунинг учун такрорий экинларни экиш учун тупроқни бир ўтишда экишга тайёрлайдиган техника ва технологияларни ишлаб чиқиш долзарб масаладир.

Мамлакатимиз шароитида кузги бошоқли донли экинлар ўрилгандан кейин, уларнинг ўрнига такрорий экинлар етиштириб, қўшимча ҳосил олиш мумкин. Бошоқли донли экинлар йилнинг 15-20 июнида йиғиштириб олингандан кейин, йилнинг яна 120-130 кун иссиқ кунлари давом этади. Бу даврда 2400-3200°C фойдали ҳарорат йиғиндисиди ўсиш даври қисқа такрорий экинлар етиштириш мумкин [3]. Республикамизда суғориладиган бошоқли донли экинлари ва такрорий экинлар экиладиган ерлар 1200 минг гектардан ортиқ майдонни ташкил этади. Қашқадарё вилояти бўйича 2020 йилда 84225 га майдонга такрорий экин сифатида сабзавот, картошка, дуккали дон экинлари, мойли экинлар, озуқа (ем-хашак) ва бошқа экинлар етиштирилган [4].

Жаҳонда қишлоқ хўжалик экинларини етиштириш, улардан юқори ҳосил олиш учун тупроқ унумдорлигини сақлаган ҳолда энергия-ресурстежамкор ва иш унуми юқори бўлган тупроққа ишлов бериш машиналарини ишлаб чиқиш ва қўллаш етакчи ўринни эгалламоқда. Кейинги йилларда Америка Қўшма Штатлари, Канада, Россия, Франция, Германия ва Хитойда такрорий экинлар экиш учун тупроқни тайёрлашда унга ағдармасдан ишлов берадиган комбинациялашган машиналар қўлланилмоқда.

Ўтказилган илмий-техник ва патент адабиётлари таҳлили натижаларига кўра, тупроққа ишлов беришга қўйиладиган замонавий талаблар қуйидаги асосий тамойилларга риоя қилишни тақозо қилади:

- ишловни минималлаштириш (ишлов бериш сонини камайтириш);
- энергия-ресурсларни тежаш (кам энергия-ресурс сарфи);
- тупроқни ҳимоялайдиган (сув ва шамол эрозияси) технологияларни қўллаш.

Жаҳонда бир ўтишда бир йўла тупроқни экишга тўлиқ тайёрлашда сарфланадиган энергия-ресурсларни камайтириш ва иш унумини ошириш бўйича бир қатор, жумладан, қуйидаги ривожланиш йўналишларида илмий-тадқиқотлар олиб борилмоқда:

- юқори техник даражадаги ва минимал энергия сарфлайдиган модуль-

блокни унификациялашган тупроққа ишлов берадиган машиналарнинг оптимал типажини ишлаб чиқиш;

- ағдаргичсиз ярусли плуглар ва комбинациялашган машиналарни ишлаб чиқиш;

- намни сақлайдиган ва тупроқни химоя қиладиган технологиялар учун юқори унумли машиналарни яратиш;

- тупроққа ишлов бериш агрегатларининг қамраш кенглиги ва иш тезлигини ошириш;

- тупроққа ишлов беришда энергия сарфини камайтирадиган ва ресурсларни тежайдиган технологияларни жорий этиш [5].

Республикамизда бир ўтишда бир йўла тупроқни экишга тайёрлаш машиналарни яратишнинг қуйидаги ривожланиш йўналишларини амалда қўллаш мақсадга мувофиқ:

- энергия-ресурслар сарфини камайтириб, иш унуми юқори бўлган технология ва техник воситаларни ишлаб чиқиш;

- бир ўтишда бир неча технологик жараёнларни амалга оширадиган техник воситаларни яратиш;

- тупроқ унумдорлигини сақлайдиган, оширадиган, эрозиядан химоя қиладиган технологиялар ва техник воситаларни такомиллаштириш;

- тупроққа ишлов бериш ва уни экишга тайёрлайдиган технологияларни таъминлайдиган, алмашадиган иш органли ва мосламали кўпфункционали машиналарни амалиётга тадбиқ этиш.

ХУЛОСА

Ўтказилган тадқиқотлар натижаларига кўра, қуйидагиларни хулоса қилиш мумкин:

1. Ўтказилган илмий-тадқиқотларга кўра, такрорий экинлар экиш учун тупроқни экишга тайёрлайдиган ресурстежамкор комбинациялашган машина тупроқни зичланишини олдини олади, эрозиядан химоя қилади, намни йўқолишини камайтиради, меҳнат унумдорлигини оширади, сарф-харажатлар ва тупроқни экишга тайёрлаш муддатини кескин камайтиради.

2. Такрорий экинлар экиш учун тупроқни тайёрлашда моддий ва энергия ресурсларини тежайди, яъни агрегатларнинг даладан ўтишлар сони 3-4 мартагача камайиши ҳисобига тупроққа минимал ишлов бериш таъминланади.

3. Республикамиз қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришида меҳнат ва энергия сарфини камайтириш, ресурсларни тежаш, қишлоқ хўжалик экинларини илғор технологиялар асосида етиштиришда барча технологик жараёнларни сифатли

бажарилишини таъминлайдиган, бир ўтишда бир нечта технологик жараёнларни қўшиб бажарадиган комбинациялашган машиналарни ишлаб чиқиш истиқболлидир.

REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 1 июндаги “2017 йилда бошоқли дон экинларидан бўшайдиган майдонларга такрорий экинларни жойлаштириш, экиш учун талаб этиладиган моддий-техника ресурсларини ўз муддатида етказиб бериш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПҚ-3027-сонли Қарори.

2. Қишлоқ хўжалиги экинларини парваришлаш ва маҳсулот етиштириш бўйича намунавий технологик карталар. 2016-2020 йиллар учун. II-қисм. – Тошкент: ҚХИИТИ, 2016. – 213 б.

3. Эргашев И.Т., Х.Абдурахмонов, Исломов Ё., Исматов А. Такрорий экинларни етиштиришда тупроққа ишлов бериш технологияларига боғлиқлик бўйича олинган натижалар// Агро илм – Ўзбекистон қишлоқ ва сув хўжалиги. Махсус сон.-№(61). 2019 й.

4. Қашқадарё вилояти ҳокимининг 2020 йил 18 апрелдаги “Вилоятда 2020 йил ҳосили учун асосий, такрорий ва боғ, ток, тутзорлар қатор ораларига қишлоқ хўжалик экинлари экишни ҳамда маҳсулот етиштириш ҳажмини кўпайтириш юзасидан қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги НҚ-361/04-сонли қарори, 6-илова, - Қарши, 16-б.

5. Маматов Ф.М., Равшанов Ҳ.А. Такрорий экинлар экиш учун тупроқни экишга тайёрлайдиган ресурстежамкор комбинациялашган машина// “Агросаноат мажмуаси учун фан, таълим ва инновация, муаммолар ва истиқболлар” мавзусидаги Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. – Тошкент, 2019. – Б.252.

METALL YUZASINI KOROZIYABARDOSH QOPLAMALAR BILAN QOPLASHDA KIMYOVIY-TERMİK ISHLOV BERISH AHAMIYATI

Muxammadali Akramov

Shoxrux Rubidinov

Ravshanbek Dumanov

Fargʻona politexnika instituti

sh.rubidinov@ferpi.uz

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada metallarga kimyoviy-termik ishlov berishni metallarga tasiri va usullari keltirilgan.

Tayanch soʻzlar: Dissotsiatsiya, absorbsiya, diffuziya, sementitlash, azotlash, xromlash.

THE IMPORTANCE OF CHEMICAL AND THERMAL TREATMENT IN CORROSIBLE COATING OF METAL SURFACES

ABSTRACT

This article describes the effects and methods of chemical-thermal treatment of dies on melts.

Keywords: Dissociation, absorption, diffusion, cementing, nitriding, chrome plating.

ВАЖНОСТЬ ХИМИЧЕСКОЙ И ТЕПЛОВОЙ ОБРАБОТКИ ПРИ КОРРОЗИОННОМ ПОКРЫТИИ МЕТАЛЛИЧЕСКИХ ПОВЕРХНОСТЕЙ

АННОТАЦИЯ

В статье описаны эффекты и методы химико-термической обработки штампов на расплавах.

Ключевые слова: диссоциация, абсорбция, диффузия, цементирование, азотирование, хромирование.

KIRISH

Mashinasozlik rivojlanib borar ekan xalq xoʻjaligi maxsulotlari sifati ortib, ogʻirligi kamayib bormoqda. Mahsulot sifating ortishiga ishlab chiqarishda zamonaviy dastgoh va moslamalardan, ilgʻor ishlov berish usullaridan foydalanish sabab boʻlmoqda. Mahsulot ogʻirligi kamayishiga sabab hozirgi, mashinalarni koʻplab qismlari zagotovkasi list materiallaridan tayyorlamoqda. Bu esa mashinalarni ishonchliligni oshirish bilan xizmat vazifasini orttirish imkonini bermoqda. Shuni

ham ta'kidlash kerakki hozirgi zamonaviy mashinalarning ko'rinishi, bejirim va ko'rkam jihatidan ajralib turadi [7, 9, 12].

Ma'lumki, ko'pgina metall hamda uning qotishmalaridan tayorlanadigan detellaa termik boshqa ishlovlarga berilishiga qaramay, tashqi muhitlar (havo, suv, kislotaga, ishqor) ta'sirida korroziyaga berilib yemiriladi.

Bularning oldini olish borasida bir necha usullarni o'rganib, metallarni xizmat vazifasini ya'ni korroziyaga bardoshligi orttirishning eng maqbul usuli bu kimyoviy-termik ishlov berishidan foydalanib shtampni ishchi yuzasini sifatini saqlagan holda chidamliligini orttirishdir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Kimyoviy-termik ishlash metall strukturasi va xossalarini o'zgartirish maqsadida uning sirtqi qatlamiga kimyoviy va termik ta'sir etish jarayonidir. Kimyoviy-termik ishlash natijasida korroziyaga bardoshligi, sirtining qattiqligi, yeyilishga chidamliligi, kislotaga bardoshligi kabi xossalari ortadi. Metalldan yasalgan detalni uzoq muddat ishlashini oshirish uchun mustaxkamlash eng samarali usullardan bo'lganligi sababli kimyoviy-termik ishlash mashinasozlikda keng tarqalgan.

O'lchamlari va shakli turlicha bo'lgan detallarga kimyoviy-termik ishlov berib, bir xil qalinlikda ishlov berilgan qatlam olish mumkin. Kimyoviy-termik ishlashda sirtqi qatlamning kimyoviy tarkibi o'zgarishi tufayli detal sirti bilan o'zak xossalarida farq bo'ladi.

Kimyoviy-termik ishlashda qizdirish turli kimyoviy elementli bo'lganligidan bu protsess ushbu elementlar atomlarining temir kristall panjarasiga diffuziyalanishiga asoslangan. Kimyoviy-termik ishlash uchta jarayondan tashkil topgan: dissotsiatsiya - aktiv atomar holatdagi to'yintiruvchi element olish ($2\text{NH}_3 \rightarrow 2\text{H} + \text{N}_2$; $\text{SS}_4 \rightarrow \text{S} + 2\text{N}_2$ va hokazo); absorbsiya - to'yintiruvchi element aktiv atomlarining metall sirtida yutilishi; diffuziya - tuyintiruvchi element atomlarining metall sirtidan ichki qatlamlari tomon surilishi.

Har uchala jarayonning tezligi o'zaro moslangan bo'lishi zarur, absorbsiya va diffuziya uchun to'yintiruvchi element asosiy metall bilan o'zaro reaksiyaga kirishib yo qattiq eritma, yoki kimyoviy birikma hosil qilishi kerak. Agar asosiy metall va to'yintiruvchi element mexanik aralashma hosil qilsa, kimyoviy - termik ishlash mumkin emas. Diffuziyalanuvchi elementning kirib borish chuqurligi to'yinish temperaturasi va davomiyligiga, shuningdek, po'lat tarkibi, asosan legirlovchi elementlarning borligiga bog'liq bo'ladi.

Kimyoviy-termik ishlov berishni har-xil usullari mavjud ulardan sementitlash (detal sirtini uglerodga to'yintirish), sianlash (detal sirtini uglerod va azotga

to'yintirish), borlash (bor bilan to'yintirish), xromlash (xrom bilan to'yintirish) va boshqalar kimyoviy-termik ishlashning ko'p tarqalgan xillaridir.

Sementitlash detal sirtini ma'lum muhitda qizdirib, uglerod bilan diffuznoy tuyintirishdan iborat kimyoviy-termik ishlash jarayonidir[3, 5]. Sementitlash natijasida detal sirtki qatlamining qattiqligi, yeyilishga chidamliligi, egilish va buralishdagi chidamlilik chegarasi ortadi. Ishqalanish sharoitida, katta bosim va siklik yuklanish ostida ishlaydigan shesternya, porshen halqalari, taqsimlash vallari kabi detallar sementitlanadi. Sementitlangan qatlam qalinligi (chuqurligi) 0,5 - 2,5 mm ga yetadi. Detal uchun shartli ravishda detal sirtidan strukturasi perlit bilan ferrit miqdori taxminan bir xil bo'ladigan hudud yarmisigacha bo'lgan sementitlangan qatlam qalinligi olinadi. Termik ishlov berilgandan so'ng sirtqi qatlam strukturasi martensit yoki qattiqligi NRS 60 - 64 bo'lgan ozgina miqdordagi karbidli martensitdan iborat bo'ladi.


Azotlash - sirtqi qatlamning qattiqligini, korroziyaga chidamliligini yeyilishga chidamliligini, oshirish maqsadida ushbu qatlamni azotga to'yintirishdan iborat kimyoviy-termik ishlov berish jarayonidir.

Azotlangan qatlam qalinligi sementitlangan qatlamnikiga qaraganda ancha yuqori bo'lib, 400 - 600°S da ham saqlanadi, vaholanki sementitlangan martensit strukturali qatlam qattiqligi 200 - 250°S haroratda saqlanadi. Tarkibida alyuminiy, xrom, titan bo'lgan 35XMYUA, 40X, 18XGT, 40XNMA kabi legirlangan po'latlar azotlanadi.

Azotlashdan oldin detallar toblanadi, yuqori temperaturada bo'shatilib, ularning mexanik xossalari yaxshilanadi. Azotlangan qatlam qalinligi 0,2 - 0,6 mm ga yetadi. Azotlangan qatlam yaxshi silliqlanadi va jilolanadi. Avtomobil detallari (shesternyalar, tirsakli vallar), shuningdek shtamplar, press qoliqlar va hokazolar azotlanadi. Azotlash natijasida detal o'lchamlari bir oz kattalashadi. Shuning uchun azotlangan detallarning 0,02 - 0,03 mm qalinlikdagi qatlami uzil-kesil silliqlanib olib tashlanadi (masalan, tirsakli val bo'yinlari qayta silliqlanadi).

Azotlash jarayoni to'g'ri tasavvur qilish uchun Fe-N sistemasining holat diagrammasi bilan tanishib chiqdik. Bunday diagramma 1-rasmda tasvirlangan bir fazali sohalar shtrixlab qo'yilgan[2, 4, 6].

Fe-N sistemasida quyidagi fazalar hosil bo'lishi mumkin:



1-rasm. Fe-N sistemasi holat diagrammasining bir qismi.

a)-faza, bu faza azotning α -temirdagi qattiq eritmasi (azotli ferrit). Azotli ferritda 591°S temperdagi 0,42%, 18°S temperaturada esa 0,10% chamasi azot bo‘ladi.

b) γ -faza azotning γ -temirdagi qattiq eritmasi (azotli austenit). Azotli austenit evtektoid temperaturasi (591°S)dan yuqori teperaturadagina mavjud bo‘la oladi. Po‘lat sekin sovitilsa 591°S da azotli austenit parchalanib, evtektoid ($\alpha+\gamma'$) hosil qiladi, evtektoid tarkibida 2,35% azot bo‘ladi. Po‘lat tez sovitilsa, γ -fazadan azotli martensit hosil bo‘ladi.


v) γ' -faza, bu temir nitrid bo‘lib, uning kimyoviy tarkibi Fe_4N formula bilan ifodalanadi; Fe_4N ning kristall panjarasi yoqlari markazlashgan kubdir; γ' -fazada 5,9% azot bo‘ladi .

g) ϵ -faza, bu faza temirning Fe_4N tarkibli nitridi bo‘lib, uning kristall panjarasi geksagonal panjaradir.

Azotlash, odatda 500—600°S temperaturada ammiakli muhitda o‘tkaziladi. Ammiak atom holatdagi aktiv azot ajralib chiqishi bilan parchalanadi: $2NN_3+6N$. Pechga qo‘yilgan germetik berk mufelda bu haroratda azot po‘latning sirtqi qatlamiga kiradi, legirlovchi elementlar bilan kimyoviy reaksiyaga kirishib, xrom, molibden, volfram nitridlarini hosil qiladi. Legirlovchi elementlarning nitridlari po‘lat-ning qattiqligini NRS 70 gacha oshiradi. Azotlangan oddiy konstruksion po‘latlarning qattiqligi pastroq, uglerodli po‘latlarniki esa juda ham past bo‘ladi, chunki ularda maxsus nitridlar hosil bo‘lmaydi. Shuning uchun ham uglerodli po‘latlar faqat korroziyaga qarshi azotlanadi.

Xromni yeyilgan sirtlarga yetkazish jarayoni ko‘pincha 0,25 - 0,3 mm yeyilgan detallarni tiklashda, shuningdek ularni zanglashdan saqlashda qo‘llaniladi.

Xromli qoplamalar ko‘kimsir oq rangda bo‘ladi. Detalga yotqizilgan xrom qattiqligi *NV 800 - 1000*, yeyilish va zanglashga qarshiligi katta bo‘ladi. Xrom bilan tiklangan detallarning xizmat muddati ish sharoitlariga qarab 4 - 10 marta oshadi. Xromli qoplamalarni xom va toblangan po‘latlarga yotqizish mumkin.



**2-rasm. Qattiq yuzali (T) va yeyilishga chidamli (I) xrom qoplamasi.
a) $CrO_3 - 150$ g/l konsentratsiyasi b) $CrO_3 - 250$ g/l konsentratsiyasi**

Xromlash texnologik jarayoni detallarni xromlashga tayyorlash, xususan xromlash, xromlangan detallarni yuvish, zarur bo‘lsa mexanik ishlov berishdan iborat. Xromlashga tayyorlash detallarni kir, moy va zangdan tozalash, silliqlash, ishqorli qaynoq eritmada (kalsiy oksidi va magniy oksidi aralashmasida) yuvish, ishqalash, qaynoq va sovuq suvda yuvish. Xromlanmaydigan joylarni berkitish, detallarni osmaga o‘rnatish, elektrolitik yog‘sizlantirishdan iborat. Detailning tiklanadigan sirti to‘g‘ri geometrik shaklga keltiriladi. Chizilgan va timalgan joylar yo‘qotilib, g‘adir-budirli 0,63 - 0,16 mkm ga keltiriladi. Detallar yuvish tog‘oralarda va qo‘lda yuviladi hamda g‘adir-budirlik darajasiga qarab, tanlangan jilvirtosh bilan silliqlanadi.

Hozirgi kunda muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tomonidan 2017-2021 yillarida O‘zbekiston Respublikasini yanadan rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasida, jumladan «...milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash asosida uning raqobatdoshligini oshirishning strategik yo‘nalishlarini yanada takomillashtirish» [1] vazifasi belgilab berilgan. Mazkur vazifani amalga oshirishda texnologiyalarni ishlab chiqarishga tadbiiq etish, ularni unumdorligini, ishonchliligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqishda olingan natijalar ma‘lum darajada xizmat qiladi. Ishlab chiqarishni qo‘llab quvvatlash va mahsulotlarni mahalliyashtirishga oid juda xam ko‘p farmon va qarorlar qabul qilinmoqda.

XULOSA

Kimyoviy - termik ishlov berishni to'g'ri tanlash list materiallariga ishlov berish jarayonini 1-2 marotaba shtamp chidamliligini ortirishga imkon yaratmoqda. Bu hozirgi zamon mashinasozlik sanoatida juda keng qo'llanilmoqda va iqtisodiy jihatdan sifatli, arzon mahsulot olishda samarali natijalar ko'rsatmoqda.

REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatni birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi-T: "O'zbekiston" NMIU,2016.-56 b.
2. O.Хамроқулов. Автомобил деталларини ишлаш қобилятини қайта тиклаш. «Ўқитувчи» 2002 й.
3. Nodir, T. (2021). Development Of Technology To Increase Resistance Of High Chromium Cast Iron. *The American Journal of Engineering and Technology*, 3(03), 85-92.
4. Turakhodjaev, Nodir, et al. "EFFECT OF METAL CRYSTALLATION PERIOD ON PRODUCT QUALITY." *Theoretical & Applied Science* 11 (2020): 23-31.
5. Рубидинов, Ш. Ф. Ў. (2021). Бикрлиги паст валларга совуқ ишлов бериш усули. *Scientific progress*, 1(6), 413-417.
6. SHIRINKHON, TURAKHUDJAEVA, TURAKHUJAEVA AZIZAKHON, and SAIDMAKHAMADOV NOSIR. "Methods For Reducing Metal Oxidation When Melting Aluminum Alloys." *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology* 7.10 (2020): 77-82.
7. Тураходжаев, Нодир Джахонгирович, et al. "ОҚ ЧЎЯННИНГ БАРҚАРОР СТРУКТУРАСИНИ ТАЪМИНЛАЙДИГАН ТЕХНОЛОГИЯ ИШЛАБ ЧИҚИШ ВА УНИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ШАРОИТИДА ЖОРИЙ ҚИЛИШ." *Journal of Advances in Engineering Technology* 1 (2020).
8. Тешабоев, А. Э., Рубидинов, Ш. Ф. Ў., Назаров, А. Ф. Ў., & Ғайратов, Ж. Ф. Ў. (2021). Машинасозликда юза тозалигини назоратини автоматлаш. *Scientific progress*, 1(5).
9. Рубидинов, Шохрух Гайратжон Угли, and Жасурбек Гайратжон Угли Ғайратов. "КЎП ОПЕРАЦИЯЛИ ФРЕЗАЛАБ ИШЛОВ БЕРИШ МАРКАЗИНИНГ ТАНА ДЕТАЛЛАРИГА ИШЛОВ БЕРИШДАГИ УНУМДОРЛИГИНИ ТАХЛИЛИ." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 1.9 (2021): 759-765.

10. Nomanjonov, S., Rustamov, M., Rubidinov, S., & Akramov, M. (2019). STAMP DESIGN. *Экономика и социум*, (12), 101-104.
11. Рубидинов, Ш. Ф. Ў., & Акбаров, К. И. Ў. (2021). МАШИНАСОЗЛИКДА СОЧИЛУВЧАН МАТЕРИАЛЛАРНИ ТАШИШДА ТРАНСПОРТЕР ТИЗИМЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ. *Scientific progress*, 2(2), 182-187.
12. Рубидинов, Шохрух Ғайратжон Ўғли, and Жасурбек Ғайратжон Ўғли Ғайратов. "ШТАМПЛАРНИ ТАЪМИРЛАШДА ЗАМОНАВИЙ ТЕХНОЛОГИЯ ХРОМЛАШ УСУЛИДАН ФОЙДАЛАНИШ." *Scientific progress 2.5* (2021): 469-473.
13. Тешабоев, Анвар Эргашевич, et al. "Машинасозликда юза тозалигини назоратини автоматлаш." *Scientific progress 1.5* (2021).
14. Рубидинов, Шохрух Ғайратжон Ўғли. "Бикрлиги паст валларга совуқ ишлов бериш усули." *Scientific progress 1.6* (2021): 413-417.
15. Nomanjonov, S., et al. "STAMP DESIGN." *Экономика и социум* 12 (2019): 101-104.
16. Рубидинов, Ш. Г. У., & Ғайратов, Ж. Г. У. (2021). КЎП ОПЕРАЦИЯЛИ ФРЕЗАЛАБ ИШЛОВ БЕРИШ МАРКАЗИНИНГ ТАНА ДЕТАЛЛАРИГА ИШЛОВ БЕРИШДАГИ УНУМДОРЛИГИНИ ТАХЛИЛИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(9), 759-765.
17. Nodir, Turakhodjaev. "Development Of Technology To Increase Resistance Of High Chromium Cast Iron." *The American Journal of Engineering and Technology* 3.03 (2021): 85-92.
18. Рустамов, Мухаммадазим Акбаралиевич. "МЕТОДЫ ТЕРМИЧЕСКОЙ ОБРАБОТКИ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ПРОЧНОСТИ ЗУБЧАТЫХ КОЛЕС." *Scientific progress 2.6* (2021): 721-728.
19. Рубидинов, Ш. Ф. Ў., & Ғайратов, Ж. Ф. Ў. (2021). ШТАМПЛАРНИ ТАЪМИРЛАШДА ЗАМОНАВИЙ ТЕХНОЛОГИЯ ХРОМЛАШ УСУЛИДАН ФОЙДАЛАНИШ. *Scientific progress*, 2(5), 469-473.
19. Turakhodjaev, N., Saidmakhamadov, N., Turakhujaeva, S., Akramov, M., Turakhujaeva, A., & Turakhodjaeva, F. (2020). EFFECT OF METAL CRYSTALLATION PERIOD ON PRODUCT QUALITY. *Theoretical & Applied Science*, (11), 23-31.
20. Рубидинов, Шохрух Ғайратжон Ўғли, and Камолиддин Инхомали Ўғли Акбаров. "МАШИНАСОЗЛИКДА СОЧИЛУВЧАН МАТЕРИАЛЛАРНИ ТАШИШДА ТРАНСПОРТЕР ТИЗИМЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ." *Scientific progress 2.2* (2021): 182-187.

21. SHIRINKHON, T., AZIZAKHON, T., & NOSIR, S. (2020). Methods For Reducing Metal Oxidation When Melting Aluminum Alloys. *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, 7(10), 77-82.
22. Тураходжаев, Н. Д., Одилов, Ф. У., Асатов, С. Н., & Акрамов, М. М. Ў. (2020). ОҚ ЧЎЯННИНГ БАРҚАРОП СТРУКТУРАСИНИ ТАЪМИНЛАЙДИГАН ТЕХНОЛОГИЯ ИШЛАБ ЧИҚИШ ВА УНИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ШАРОИТИДА ЖОРИЙ ҚИЛИШ. *Journal of Advances in Engineering Technology*, (1).
23. Рустамов, М. А. (2021). МЕТОДЫ ТЕРМИЧЕСКОЙ ОБРАБОТКИ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ПРОЧНОСТИ ЗУБЧАТЫХ КОЛЕС. *Scientific progress*, 2(6), 721-728.
24. Umurzakova, G. R., Mukhtorov, D. N., & Mukhammadzhonov, M. S. (2019). Preimushchestva al'ternativnykh istochnikov energii. *Vestnik nauki i obrazovaniya*, (19-3), 73
25. Умурзакова, Г. Р., Мухторов, Д. Н. У., & Мухаммаджонов, М. Ш. У. (2019). Преимущества альтернативных источников энергии. *Вестник науки и образования*, (19-3 (73)).
26. Мухаммаджонов, М. Ш. У. (2019). Исследование использования асинхронных машин при уменьшении энергетических потерь. *Проблемы современной науки и образования*, (12-1 (145)).
27. Mukhammadusyuf, M., Sherzod, P., & Behzod, A. (2020). Study of compensation of reactive power of short-circuited rotor of asynchronous motor. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 625-628.
28. Таиров, Ш. М., & Абдуллаев, Б. Б. У. (2020). Чрезвычайные и критические изменения климата в странах центральной Азии. *Universum: технические науки*, (2-1 (71)).
29. Юсуфжонов, О. Ф., & Файратов, Ж. Ф. (2021). ШТАМПЛАШ ЖАРАЁНИДА ИШЧИ ЮЗАЛАРНИ ЕЙИЛИШГА БАРДОШЛИЛИГИНИ ОШИРИШДА МОЙЛАШНИ АҲАМИЯТИ. *Scientific progress*, 1(6), 962-966.
30. Юсупов, С. М., Файратов, Ж. Ф. Ў., Назаров, А. Ф. Ў., & Юсуфжонов, О. Ф. Ў. (2021). КОМПАЗИЦИОН МАТЕРИАЛЛАРНИ БОРЛАШ. *Scientific progress*, 1(4).

BUXORO VILOYATI KOGON TUMANIDA YER RESURSLARIDAN FOYDALANISH VA BOSHQARISH HOLATINI YORITISH

Azimova Sabinabonu Jahongirovna

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti
buxoro filiali Yer tuzish va Yerdan foydalanish kafedrası o'qituvchisi

Asatova Manzura Axatovna

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti
buxoro filiali Yer tuzish va Yerdan foydalanish kafedrası o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Buxoro viloyati Kogon tumanida yer resurslaridan foydalanish yer resurslarini tasarruf etish, egalik qilish va foydalanish hamda boshqarish huquqlari amalga oshiriladi. Shuning uchun ham yerdan foydalanish tizimining samaradorligi va ekologik xavfsizligi muammolarining hal etilishi aksariyat jihatdan mulkchilik huquqlarining qanday darajada amalga oshirilishiga bog'liq.

***Kalit so'zlar:** yer resurslaridan foydalanuvchilar, yer egaliklari, yer munosabatlari*

ОХВАТ ЗЕМЛЕПОЛЬЗОВАНИЯ И ЗЕМЛЕУСТРОЙСТВА В КАГАНСКОМ РАЙОНЕ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ

Азимова Сабинабона Джахонгировна

Ташкент ирригации и сельского хозяйства Бухарский филиал института
инженеров механизации Преподаватель кафедры землеустройства и
землепользования

Асатова Манзура Ахатовна

Ташкент ирригации и сельского хозяйства Бухарский филиал института
инженеров механизации Преподаватель кафедры землеустройства и
землепользования

АННОТАЦИЯ

В Каганском районе Бухарской области использование земельных ресурсов - это право на управление, владение, пользование и управление земельными ресурсами. Таким образом, решение проблем эффективности землепользования и экологической безопасности во многом зависит от степени реализации прав собственности.

***Ключевые слова:** землепользователи, землепользование, земельные отношения*

COVERAGE OF LAND USE AND MANAGEMENT IN KAGAN DISTRICT OF BUKHARA REGION

Azimova Sabinabonu Jahongirovna

Tashkent Irrigation and Agriculture Bukhara branch of the Institute of
Mechanization Engineers Teacher of the Department of Land Management and Land
Management

Asatova Manzura Axatovna

Tashkent Irrigation and Agriculture Bukhara branch of the Institute of
Mechanization Engineers Teacher of the Department of Land Management and Land
Management

ANNOTATION

In Kagan district of Bukhara region, the use of land resources is the right to manage, own and use and manage land resources. Therefore, the solution of problems of land use efficiency and environmental safety largely depends on the extent to which property rights are exercised

Keywords: *land users, land tenure, land relations*

KIRISH


Yer resurslaridan foydalanish tizimining iqtisodiy mexanizmi yerni tasarruf qilish, unga egalik qilish va undan foydalanish jarayonlarida vujudga keladigan yer resurslaridan foydalanishni boshqarish, tashkil qilish, rejalashtirish va rag‘batlantirishni tartibga solishga qaratilgan davlat va yerdan foydalanuvchilar tomonidan amalga oshiriladigan moliyaviy-iqtisodiy chora-tadbirlar majmuidir.

Muammoni qo‘yilishi. Yerning hududiy va moddiy cheklanganligi, turli toifalarga bo‘linishi va darajadagi unumdorligi undan intensiv, biroq oqilona foydalanish zarurligini taqozo etadi.

➤ Yer resurslaridan foydalanishni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi mohiyati nazariy jihatdan alohida yo‘naltirilgan kategoriya sifatida yoritib berilgan.

➤ Yer resurslaridan foydalanishni boshqarishning jahon tajribasi o‘rganib chiqilgan va mamlakatimizdagi boshqaruv mexanizmi bilan taqqoslangan.

➤ Yer resurslaridan foydalanishni boshqarishda zamonaviy geoaxborot tizimlarini qo‘llash afzalliklari asoslab berilgan.



TAHLIL VA NATIJALAR

So'ngi yillar amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, yer resurslarini soliqqa tortishning amaldagi tizimi takomillashtirishni talab qilmoqda: yer solig'ining miqdori juda ham kam va u yerdan foydalanuvchilarning aniq sharoitlarini, jumladan tabiiy unumdorligi, ekiladigan ekin turlari, joylashishi, zarur vositalar bilan ta'minlanganlik darajasi va boshqa omillarni hisobga olgan holda sust tabaqalashtirilgan, o'zining yer resurslari egalari va undan foydalanuvchilarning o'zaro manfaatlariga mos keladigan rag'batlantiruvchi funksiyasini to'liq bajarmayapti. Bundan tashqari yer solig'i tizimi yer unumdorligini oshirishga, yerdan foydalanuvchilar tomonidan uni asrab-avaylashga yordamlashadigan soliq imtiyozlariga ega emas. Yerdan foydalanishning ijara sharoitlarida yer uchastkasi unumdorligi, joylashgan joyi va boshqa tavsiflarni hisobga olgan asoslangan yer ijarasi haqini o'rnatish muhim masalalardan hisoblanadi. Yer munosabatlarini tartibga solish iqtisodiy jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solishning muhim shakli sifatida davlatning yer siyosatini amalga oshirishga yo'naltirilishi lozim. Uni isloh etishning asosiy bo'g'ini va maqsadi esa bu-

yer unumdorligini saqlagan va oshirgan holda ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlaydigan yerga egalik qilish va yerdan foydalanish shakllarini rivojlantirishdir. Shu bilan birga ko'p yillik amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, yer munosabatlarini isloh qilish hali ko'zda tutilgan natija va samaraga olib kelmayapti: intensiv foydalaniladigan, ayniqsa sug'oriladigan yer maydonlari qisqarib bormoqda, ularning sifati yomonlashmoqda va binobarin mazkur yerlarda ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari pasayib ketmoqda. Bunday sharoitda ushbu muammoni yechishning eng muhim yo'nalishlaridan biri, bizningcha, iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan yer resurslaridan foydalanish yuzasidan iqtisodiy jarayonlarni davlat tomonidan tartibga soluvchi tizimni shakllantirishdir. Bu esa o'z navbatida turli xil shakl va uslublar yordamida amalga oshiriladigan iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy tavsifdagi kompleks tadbirlarni o'z ichiga oladi. Davlat tomonidan tartibga solishning har xil shakllari orasida yerlardan oqilona foydalanish muammosini yechishda asosiy rol iqtisodiy tartiblashga berilishi lozim. Bizningcha, yer resurslaridan foydalanishni iqtisodiy tartibga solish yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish va rag'batlantirishga qaratilgan iqtisodiy mexanizm tarkibi va bosqichlari yig'indisini o'z ichiga oladi. Demak, yer resurslaridan foydalanish tizimining iqtisodiy mexanizmi nazariy jihatdan yerning o'ziga xos xususiyatlari, yerga bo'lgan mulkchilik munosabatlarining o'zgarishi, yerning qiymati, yer solig'i, yer ijarasi va yer rentasi kabi jarayonlarning o'zaro yaxlitligini nazarda tutadi. Ularning har birini o'zaro bog'liqlikda tahlil qilish yer resurslaridan foydalanish tizimining iqtisodiy mexanizmini asoslashda muhim omil bo'lib xizmat qilishi bilan birgalikda yer resurslaridan foydalanish tizimini erkinlashtirishda qaysi iqtisodiy usullardan qanday foydalanish yuqori samaradorlikni ta'minlashda ustuvor ahamiyatga egaligini belgilashda ham yordam beradi.

Bugungi kunda olib borilayotgan islohotlar shuni ko'rsatadiki, yer egaligi va yerdan foydalanuvchilar, mulkdorlar har bir yer maydoni uchun elektron axborot bazasi ya'ni GAT tizimidan foydalanish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqish va yer axborotlari bilan tanishtirishdir. Yer resurslaridan foydalanishda Kogon tumani misolida ko'rib chiqadigan bo'lsak yer resurslarini elektron reestr o'tqazish va muammolarini yer kadastri hujjatlarini, yer monitoring va yer tuzish ishlarini mantiqiy tahlil qilishdan iborat.

XULOSA

Bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatimiz qishloq xo'jaligining asosini tashkil etuvchi yer resurslarini samarali boshqarish, boshqaruvning yangi zamonaviy mexanizmlarini joriy etish, bu boradagi jahon tajribasini tahlil qilish va

uning afzal tomonlarini sohada qo‘llash va chet el yetuk mutahasislari bilan tajriba almashish, yer tuzish, yer monitoring, yer kadastr yo‘nalishlari bo‘yicha internet ma‘lumotlardan foydalangan holda ilmiy asoslangan tavsiyalar va takliflar ishlab chiqish eng dolzarb masalalardandir. Chet el tajribasidan foydalangan holda yer resurslarini boshqarishda har bir yer tuzish loyihalash ishlarida va ro‘yhatga olishda internet ma‘lumotlari va dasturlaridan unumli foydalanish va sohaga oid matematik modellashtirish va dasturlarni yaratishni mukammallashtirishdir. Chet el soha mutaxassislari bilan tajriba almashinish va yer resurslarini foydalanishga oid zamonaviy texnologiyalaridan foydalanishni joriy etishni ta‘minlashdir.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. Toshkent, O‘zbekiston, 2014 yil.
2. Qishloq xo‘jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qonun va me‘yoriy hujjatlari to‘plami. I va II qismlar. Toshkent, Sharq, 1998.
3. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni “Davlat yer kadastr to‘g‘risida”. Toshkent, 1998 yil.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 26.04.2019 yildagi 357-sonli «Qishloq xo‘jaligi korxonalarini tomonidan yetishtirilgan boshqoqli don ekinlari hosildorligi va yalpi hosilini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 12 fevraldagi 5209- son «O‘zbekiston Respublikasida kosmik tadqiqotlar va texnologiyalarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoyishi.
6. O‘zbekiston Respublikasining yer resurslarining holati to‘g‘risida Milliy hisobot. «Davergeodezkadastr» Davlat qo‘mitasi. T.: 2020.
7. O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasining ob‘ekt to‘g‘risidagi ma‘lumotlari
8. “O‘ZDAVERLOYIHA” instituti Buxvilerloyihaning ob‘ekt to‘g‘risidagi ma‘lumotlari
9. Buxoro viloyati Kogon tumani Yer resurslari va davlat kadastr bo‘limining ma‘lumotlari,(tumanning 2018 yil 1-yanvar holatidagi yer balansi)
Internet manbalari
O'quvchilarning bilish faollik darajasiga ko'ra;

- Tushuntirish, illyustrativ, muammoli, tadqiqot.

Bundan tashqari o'qitishning oddiy shakllari minimal miqdordagi usul va vositalarga asoslanadi va bir mavzuga bag'ishlanadi. Bularga quyidagilar kiradi:

- ✓ Suhbatlar
- ✓ Viktorina
- ✓ Ekskursiyalar
- ✓ Kreditlar
- ✓ Ma'ruzalar, kontsertlar

Ta'limning kompozit shakllari:

- ✓ Dars
- ✓ Bayram oqshomi
- ✓ Konferentsiya
- ✓ Musiqiy KVN

Ta'limning murakkab shakllari

- ✓ Ochiq eshiklar kuni
- ✓ Bolalarni himoya qilish kuni
- ✓ Musiqa haftaligi va boshqalar.

Ekran-ovoz vositalari (videolarni tomosha qilish, musiqa bo'yicha raqamli va o'quv resurslari to'plamidan foydalanish; fotosuratlar, animatsion jadvallar,

diagrammalar, kompakt disklar va audiokassetalar va boshqalar). Ta'limni rag'batlantirish va rag'batlantirish usullari - bir nechta usullarni birlashtiradi;

Musiqacha chalish usuli musiqacha asboblari yordamida, shuningdek, raqs harakatlarida va harakat mashqlarida amalga oshiriladi.

Ishtirok etish usuli - bu usul o'quvchilarni ijodiy jamoaning bir qismi sifatida his qilishlari, jamoaviy faoliyatga qo'shilishlari (xorda qo'shiq aytish, ansamblda o'ynash, o'yinda qatnashish) imkonini beradi.

Improvizatsiya usuli sizning tasavvuringiz, fantaziyangiz imkoniyatlarini ko'rsatishga, ijro mahoratingizni ko'rsatishga qaratilgan.

Ta'lim uslubi ijodiy muammolarni hal qilishda yo'llar va mazmunni topishga qaratilgan.

Ta'lim faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish usullari - musiqiy tasvirlarning rivojlanish qonuniyatlari va musiqiy matoning rivojlanishi bilan bog'liq;

"Musiqiy teatr" usuli - bolaga musiqani ko'rinadigan, aniq bo'lishiga yordam beradi. Musiqiy san'at bilan o'zaro ta'sir - tovushlar, raqs, imo-ishoralar, so'zlar, adabiy syujet, she'rlar orqali amalga oshiriladi.

Immersion usuli - bu usul muayyan musiqiy asarlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan turli xil hayotiy vaziyatlarda qo'llaniladi. Vaziyatlar haqiqiy adabiy manbalardan olingan real voqealarga asoslangan.

Loyihalar usuli - talabalar tomonidan ma'lumotlar bilan mustaqil ishlashda o'z bilim va ko'nikmalarini namoyon etishdan iborat. Loyiha - bu berilgan muammoni ishlab chiqish va bu muammo orqali maqsadga erishish yo'lidir. Erishilgan maqsad aniq natija (ommaviy taqdimot) bilan ifodalanishi kerak. Loyihaning turi bo'lishi mumkin: ijodiy, axborot, tadqiqot. Nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish usuli - bu tanqidiy fikrlashni rivojlantirish usuli. Talabalarga musiqacha haqidagi fikrlarini mantiqiy, dalillarga asoslangan holda qurishni o'rganishga yordam beradi.

Raqamli diktant - bu usul musiqacha asari haqidagi bilimingizni qisqa vaqt ichida tekshirish va baholash imkonini beradi.

Viktorina - bu musiqiy tarkibga oid bilimlaringizni sinab ko'rish imkonini beruvchi usul.

O'qitishning tadqiqot usuli - talabalar mustaqil ravishda adabiyotlarni o'rganish, kuzatishlar o'tkazish, muammo va topshiriq qo'yilgandan keyin boshqa manbalardan foydalanish, shuningdek, qisqa og'zaki yoki yozma ko'rsatmalar.

Ro'yxatga olingan o'qitish usullarining har biri ko'pincha texnika va vositalar bilan birga keladi.

Bolalar qo'lida "Musiqqa varaqlari" ni qabul qilish, qog'oz varaqlari shitirlash rolini o'ynaydi - yangrayotgan musiqaning ritmik jo'rliqi. So'z birikmalarida harakatlarning o'zgarishi va ritmik pulsatsiya kuzatiladi.

Qabul qilish "To'siq" - to'siq sifatida, berilgan asarga oid ba'zi bir bayonot ishlatiladi (adabiy asarlardan parchalar, she'rlar) Shunday qilib, talabalar musiqa asaridagi ma'lumotlarga o'z munosabatini tushuntira oladigan dalillarni izlaydilar. Ijodiy jamoalar tomonidan ishlab chiqilgan o'quv-uslubiy to'plamlar asosida ta'lim muassasalarida musiqa o'qitish texnologiyalarini faol joriy etish yo'lga qo'yilgan.

XULOSA

Idrok jarayonlarini rivojlantirish texnologiyasi talabalarning musiqiy va amaliy faoliyatining barcha turlarida amalda kuzatilishi mumkin: musiqani tinglash va fikrlash, bolalarning qo'shiq aytish qobiliyatini rivojlantirish, musiqiy ritmik harakatlar, cholg'u musiqasi va plastik intonatsiya, va boshqalar. Shuningdek improvizatsiya-nutq, vokal, ritmik, plastik, badiiylikdir. O'quvchilarning musiqa haqidagi tasavvurini shakllantirish musiqa asarlarini intonatsion-obrazli tahlil qilish jarayonida sodir bo'ladi. Maktabda ta'lim va tarbiyani uyg'unlashtirish muammosi nazariy va amaliyot uchun muhim va dolzarbdir. Uning dolzarbligi maktabga qo'yiladigan yangi ijtimoiy talablar hamda fan va ishlab chiqarish sohasidagi o'zgarishlar bilan bog'liq. Mavzuning tarqoqligi maktab bitiruvchisi dunyoqarashining parchalanishining sabablaridan biriga aylanadi, zamonaviy dunyoda esa iqtisodiy, siyosiy, madaniy, axborot integratsiyasi tendentsiyalari ustunlik qiladi. Demak, fanlarning mustaqilligi, ularning bir-biri bilan zaif aloqasi o'quvchilarda dunyoning yaxlit manzarasini shakllantirish jarayonida jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, madaniyatni organik idrok etishga to'sqinlik qiladi.

Ta'lim tizimiga fanlarning integratsiyalashuvining joriy etilishi hozirgi kunda maktab va butun jamiyat oldiga qo'yilgan vazifalarni hal qilish imkonini beradi. Integratsiyalashgan darslar bolalarda dunyoning yaxlit rasmini shakllantirishga, tabiatdagi, jamiyatdagi va butun dunyodagi hodisalar o'rtasidagi aloqalarni tushunishga yordam beradi. Integratsiyalashgan darsda didaktik maqsadlarga yaxshiroq erishiladi: kognitiv, rivojlantiruvchi va tarbiyaviy. Estetik sikl ob'yektlarining integratsiyasi bu aloqaning axloqiy va axloqiy tomoniga ta'sir qiluvchi inson - jamiyat - tabiat munosabatlariga erishishga imkon beradi. Tabiiy ravishda paydo bo'ladigan yo'llar mavjud. Bu shunchaki bir-birini to'ldiradigan Tasviriy san'at va badiiy mehnat, Tasviriy san'at va adabiyot, Tasviriy san'at va musiqa kabi kurslarni birlashtirish haqida. Shishkin va Levitanning lirik rasmlari Rossiyaning kengligi, qudrati, ulug'vorligini ochib beruvchi Chaykovskiy musiqasi

ostida yaxshiroq idrok etilgan. Aivazovskiyning san'at asarlari Shostakovich va Betxoven musiqasi bilan to'ldiriladi, bu halokatga uchragan odamlarning fojiasini va kemani parcha-parcha qilib tashlagan elementlarning to'liq kuchini his qilish imkonini beradi. Musiqa va tasviriy san'atning integratsiyasi esa o'quvchilarga darsda nafaqat tinglash, tasavvur va his-tuyg'ularni rivojlantirish, balki o'zlari ham ijodkorlik bilan shug'ullanish imkonini beradi.

Musiqa, tasviriy san'at va adabiyotning uyg'unlashuvi san'atning ma'naviy ufqlarini ochib berish uchun katta imkoniyatlar yaratadi, uni xalqlar o'rtasidagi muloqot tili, insoniyat xotirasi sifatida tanishtiradi, unda o'tgan davr odamlarining fikrlari, his-tuyg'ulari, ishlari va hozirgilar saqlanib qolgan. Har bir o'qituvchi dars rejasini tuzishda izlanish va hayajonning og'ir ahvolini biladi. Bu doimiy savollar: musiqa, nutq, yuz ifodalari, pauzalar va qarashlar, imo-ishoralar va turli assotsiatsiyalar, ichki tajribalar va mulohazalarni qanday, qanday qilib birlashtirish, birlashtirish. ijodiy faoliyat muhitini qanday yaratish kerak? Keyingi darsdan keyin talabalar qalbida nima qoladi?

Musiqa, she'riyat, tarix, tasviriy san'atning uyg'unligi o'qituvchiga darslarni o'quvchilar uchun qiziqarli va qiziqarli qilish uchun cheksiz imkoniyatlar beradi. Ammo ma'lum miqdordagi rasmlarni tomosha qilish, ma'lum miqdordagi musiqa qismlarini tinglash va biz ko'rgan va tinglayotgan narsalarga aralashish o'rtasida juda katta farq bor. Va muammo qanchalik eshitish, ko'rish yoki bajarish emas, balki qanday bajarish - ovoz bilan emas, balki yurak bilan, ko'z bilan emas, balki qalb bilan ko'rishda.

REFERENCES

1. Boshlang'ich sinflarda musiqa darslarini taxminiy rejalashtirish. (Tuzuvchilar D.Omonullaev va boshq.) -T., 1995.
2. Dmitrieva L.G. Chernoiivanenko N. Metodika muzo'kalnogo vospitaniya v shkole.- M., «Prosveshenie», 1989.
3. Omonullaev D. Bolalar bog'chasida musiqa. -T., «O'qituvchi», 1980.
4. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Musiqa, tasviriy san'at, jismoniy tarbiya. - T., 1999.
5. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyati fani bo'yicha sinov dasturi (1-7sinflar)- T., 1998.
6. Akmalova, P. D. (2019). The concept of moral personality development in creativity of thinkers of central asia. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 9(1), 135-141.

PEDAGOGIK MAHORATNING MUAMMOLI O'ZLASHTIRISH YO'LLARI

Egamberdiyev Oyatillox Alisher o'g'li

Fargona davlat universiteti Pedagogika-Psixologiya
fakulteti 3-kurs talabasi

Sotvoldiyeva Orzigul Ma'rufjon qizi

Farg'ona davlat universiteti Pedagogika Psixologiya
fakulteti 2-kurs talabasi

Turdaliyev Abror Yigitali o'g'li

Farg'ona davlat universiteti Pedagogika-psixologiya
fakulteti 3-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada pedagogik mahoratning muammolari, tavsifi, ularning kelib chiqish sabablari bayon etilgan. Shuningdek, pedagogic mahorat muammolariga yechim, pedagogik tavsiyalar va buyuk mutafakkirlarning pedagogikaga oid fikr-mulohazalari bayon etilgan.

***Kalit so'zlar:** pedagogika-psixologiya, mahorat darslari, metodik tavsiyalar, ta'lim tizimi, milliy dastur.*

ABSTRACT

This article describes the problems of pedagogical skills, their description, the reasons for their origin. It also provides solutions to problems of pedagogical skills, pedagogical recommendations and opinions of great thinkers on pedagogy.

***Keywords:** pedagogical psychology, master classes, methodical recommendations, education system, national program.*

АННОТАЦИЯ

В статье описаны проблемы педагогического мастерства, их описание, причины их возникновения. Здесь также представлены решения проблем педагогического мастерства, педагогические рекомендации и мнения великих мыслителей о педагогике.

***Ключевые слова:** педагогическая психология, мастер-классы, методические рекомендации, система образования, национальная программа.*

KIRISH

Jahon ta'limi taraqqiyoti tajribasi shundan dalolat beradiki, jamiyat taraqqiyoti shu jarayonda joriy etilgan ta'lim tizimining rivoji va takomillashuvi bilan chambarchas bog'liqdir. So'nggi o'n yillar orasida yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish,

kasbga o'rgatish, ularning aqliy va ma'naviy kamol topishlarini tashkil etishda jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablaridan kelib chiqqan holda ta'limning mazmuni qayta ishlab chiqildi. Bu omil ta'lim jarayoni tarkibiy qismlarini yangicha tartibda namoyon bo'lishini taqozo etadi. Ana shu tashkiliy-pedagogik jarayonda ta'lim qonuniyatlari va tamoyillariga mos holda yangi tamoyillarga amal qilish, ta'lim metodlarining paydo bo'lishi, ta'lim vositalarining takomillashuvi, ayniqsa, ta'limni tashkil etishda pedagogik mahoratning tarkibiy shakllari keng ko'lamda joriy etilishi kuzatilmoqda.

Mazkur o'zgarishlarning bir qismi mavjud didaktik yondashuvlarning tarkibidan o'sib chiqqan bo'lsa, yana bir qismi dunyodagi ta'lim tizimi rivojlangan mamlakatlar olimlarining pedagogik tajribalariga suyangan holda paydo bo'ladi. Shu o'rinda ilg'or pedagogik mahorat fanining mamlakatimiz ta'lim sohasiga kirib kelishi alohida e'tibor qaratadigan yo'nalishlardan biri ekanligini qayd etish zarur.

Ta'lim amaliyotidan ma'lumki, o'quvchi talabalikka qabul qilingandan boshlab har bir fanning ilmiy-na'zariy asoslarini chuqur o'rganish bilan birga kasb tayyorgarligiga alohida e'tibor qaratildi.

Haqiqatdan ham, mustaqillik yillarida ta'lim sohasida o'qitishni o'qituvchining yuksak pedagogik mahorati asosida tashkil etish hozirgi jamiyat taraqqiyoti talabidan kelib chiqmoqda. O'zbekistonda ham ushbu muammoga oid izlanishlar, tadqiqotlar olib borilayotgani sir emas, biroq bu jarayonning yahlit metodikasi, tizimi haligacha ishlab chiqilgan emas. Shu sababli ham bu holatni tuzatish uchun jiddiy e'tibor qaratish zarurligi dolzarb pedagogik muammo sifatida e'tirof etilmoqda.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati: pedagogik mahorat fanini o'zlashtirish jarayonini muammoli yondashuvlar asosida tashkil etish omillari, yo'llari, pedagogik shart-sharoitlari ko'rsatib berildi. Tadqiqot ishida ilgari surilgan nazariy qarashlar pedagogik mahorat fanini o'zlashtirish jarayonini mazmunan boyitadi, ushbu jarayonni takomillashtiradi hamda ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalaridan pedagogik mahorat fanini o'qitish ta'lim samaradorligini oshirish borasidagi adabiyotlar, qo'llanmalar hamda uslubiy ishlanmalarni yaratishda foydalanish mumkin.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tadqiqotning ilmiy farazi: pedagogik mahorat fanini o'qitishda muammoli ta'lim usullari vositasida ta'lim samaradorligiga erishish mumkin, agarda:

O'quv yurtlarida ta'limni tashkil etishga nisbatan muammoli yondashuv qaror topsa:

pedagogik mahorat fani bo'yicha o'quv jarayonini muammoli ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etishning didaktik imkoniyatlarining mazmuni, maqbul shakl, metod va vositalar tizimi asoslansa;

pedagogik mahorat fanini o'zlashtirish jarayonini muammoli yondashuv asosida tashkil etish jarayonida fanlararo aloqadorlikning ta'minlanishiga erishilsa;

pedagogik mahorat fanini o'zlashtirish jarayonida muammoli o'qitish usullari va texnologiyalardan foydalanish yo'llari amaliyotga tatbiq etilishiga erishilsa.

Pedagogik mahorat fanini o'zlashtirish jarayonida muammoli o'qitish usullari va innovasion texnologiyalardan foydalanishga oid metodik tavsiyalar ishlab chiqilsa.

Oliygozlarni tugatgan mutaxassislar ta'limni tashkil etishga nisbatan tarbiyani tashkil etish qiyinligidan zorlanadilar. Buning obyektiv sabablari mavjud. Tarbiya jarayoni ta'lim jarayoniga nisbatan keng tushuncha, chunki u shaxs tarbiyasi vositalari, bilish qobiliyatlarini rivojlantirish va mehnat qilish singarilarni o'zida aks ettiradi. Tarbiya san'ati, - deb yozgan edi Ushinskiy, - shunday xususiyatga egaki, deyarli barcha tanish va tushunarli, ba'zilariga esa juda oson ish bo'lib tuyuladi. - Odam bu ish bilan nazariy va amaliy jihatdan qanchalik kam tanish bo'lsa, unga bu shuncha tushunarli va oson bo'lib ko'rinadi. Deyarli hamma tarbiya sabr-toqatni talab etishini e'tirof qilishadi, ayrimlar buning uchun tug'ma qobiliyat va malaka, ya'ni ko'nikma kerak deb o'ylaydilar, lekin juda kam odam sabr-toqat, tug'ma qobiliyat va malakadan tashqari yana maxsus bilimlar kerakligi haqida ishonch hosil qilishadi.

A.S.Makarenko fikricha, tarbiya faoliyati avvalombor tashkilotchilik faoliyatidir. Ya'ni bolalar hayotini mohirona tashkil qilishni alohida ta'kidlagan edi.

Mahorat bu - pedagogik faoliyatni malakali tashkil eta olish, o'quvchilar rivojlanishini samarali ilxomlantirishdir.

Qisqa fursatlar jamoa va har bir o'quvchining qobiliyatlariga pedagogik ta'sirni ta'minlashni nazarda tutadi. Tarbiyachilik mahorati faqat bilimlar bilan qurollanishni amalga oshiribgina qolmasdan, balki tarbiya usullari va metodikalarini ijodiy hayotda qo'llashni?

Tarbiyachining mahorat mazmuni - bu bilimlar va asoslangan ko'nikma, malakalar tashkil etadi. Tarbiyachining mahoratini tubandagilar tashkil etadi. Turli pedagogik sharoitda jamoa va ayrim o'quvchilar dunyosida sodir bo'lgan voqyealarni to'g'ri qabul qilish ko'nikmasi;

maqсад vositalarni taqqoslab analiz qilish ko'nikmasi;

talab qilish va ishontira olish ko'nikmasi; bolalar bilan o'ynay olish qobiliyati vaziyatga har tomonlama to'g'ri baho berish ko'nikmasi;

rang-barang pedagogik asoslardan, eng muhimini ajrata olish;

tasodif hodisadan asosiysini aniqlash ko'nikmasi;

har xil vaziyatlar – ta'sir ko'rsatishning turli-tuman usullardan foydalanish ko'nikmasi;

o'z kayfiyati, hissiyoti, harakatlarni aniq ko'rsata olish malakasi.

Yuqorida ta'kidlab ko'rsatilgan ko'nikmalardan tashqari yana quyidagilarni o'zida shakllantirmog'i lozim;

O'quvchilar bilan o'qish, mehnat, sport va badiiy faoliyatlarda aloqa o'rnatish; individual yondashish, tahsabbuskorlikni o'stirish, qiyin damlarda yordam berish, jamoa va ayrim o'quvchi fikrini hisobga olish, hurmat qilish; ojizlarni himoya qila olish, o'z-o'zini boshqarishning turli formalaridan foydalanish; o'quvchining ishonchini suyistemol qilmaslik, har-bir o'quvchining ijobiy sifatiga asoslanib munosabatni tashkil eta olish;

O'quvchilarni yaxshi yoki yomonga ajratmaslik;

bolalarning axloqiy sifatlarini mo'ljallay olish;

o'quvchilarning adolatsizligi, axloqsizligi, shafqatsiz bo'lishi, o'quvchining saxiyliги va ziqnaligi haqida tasavvurlarga ishonish singari ko'nikmani ham o'zida shakllantirmog'i darkor.

A.S.Suxomlinskiy “...o'quvchi ruhining tetikligi, aqlning o'tkirligi, taassurotlarining sog'lomligi, hissiyotlarining ta'sirchanligi uzoq yillar saqlanishi uchun katta insonparvarlik talantiga, o'z mehnatiga, bolalarga bo'lgan cheksiz muhabbatga ega bo'lish kerak - bu sifatlarsiz pedagogning mehnati uqubatlarga aylanadi”.

Texnologik tuzum yoki texnologiya o'qituvchi, o'quvchi va jamoalarga konkret vositalar asosida ta'sir ko'rsatishda ko'ngildagidek muayyan natijalarga yerishish imkoniyatini yaratadi.

Tarbiyachining mahorat natijasi tubandagi vazifalarni bajarishda namoyon bo'ladi: har-bir o'quvchiga individual yondashib, shug'ullanayotgan faoliyatda uning faolligini uyg'otish, layoqatini o'stirish.

Tarbiyachi tarbiyaviy tadbirni olib borishda muhim talablarga amal qilishi zarur: har qanday tarbiyaviy tadbir tasodifiy holda olib borilmasligi va o'quvchilarni tarbiyalashning mustaqil tarkibi sifatida hal etilishi kerak.

Kattalar va bolalar o'rtasida o'zaro munosabatni, o'zaro jamoa ta'sirini tashkil etish mazmun va tuzilish jihatidan ham tarbiyachi faoliyatida muhim o'rin tutadi. Tarbiyachining mahorati - bu uning bolalarga moslashishi. Tajribali tarbiyachilar o'qituvchilar munosabatidagi sirli tamonlarni bilishi o'zlarining burchi deb biladilar.

Pedagogik mahoratni boshlangich ta'lim tizimida ommalashtirish eng mas'liyatli vazifalardandir. Chunki Respublikamiz ta'lim tizimining ana shu zvenosi eng yordamga muhtoj hisoblanadi. Chunki bu sohada pedagogik faoliyat ko'rsatuvchilarning atigi 20 % oliy ma'lumotlidir.

Uzluksiz ta'limning mazkur turida pedagogik mahoratni ommalashtirishning amaliy, og'zaki, ko'rgazmali turlaridan foydalanish bilan birga ilg'or, tajribali boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari yaratgan mahorat maktabini viloyat, respublika miqyosida matbuot vositasida yoyish katta ahamiyatga egadir. Bunday rag'batlantirish usulining ahamiyati shindaki, u kam tajribali o'qituvchi uchun ibrat, namuna, ilg'or o'qituvchi uchun esa rag'batlantirish hisoblanadi. Pedagogik mahorat sirlarini o'rta maktab (tayanch maktabi)da yoyish ancha yengilroq bo'lib, bu sohada katta tayyorgarlikka ega bo'lgan ilmiy, o'quv, pedagogik tajriba mavjud. Biroq, pedagogik mahoratning ijtimoiy tajriba ekanligini tushunmaydigan, o'z ustida ishlashni bilmaydigan yoki buni istamaydigan o'qituvchilarning mavjudligi sir emas. Shuning uchun ham pedagogik mahorat o'rta maktabda uzluksiz ravishda predmet-seksiyalari, metod birlashmalari yig'ilishlari, matbuotda targ'ib qilinishi lozim.

Oliy ta'lim tizimida pedagogik mahorat sirlari maxsus dastur asosida 50 soat davomida o'rganiladi, biroq bu hali oz. Universitet qoshidagi mintaqaviy malaka oshirish va qayta tayyorlash markazi dasturida ham pedagogik mahorat sirlarini o'rgatish rejalashtirilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Oliy ta'lim tizimida pedagogik mahorat sirlari quyidagi yo'nalishlarda o'rgatib boriladi:

Pedagogika va psixologiya mashg'ulotlarida;

Pedagogik mahorat kursini o'tish jarayonida;

O'z ixtisosligini egallash jarayonida (pedagogik amaliyot davrida);

Mustaqil tayyorgarlik davrida.

Savol tug'iladi: Pedagogik mahorat nima o'zi?

Pedagogik mahorat bu – fahm-farosat va chinakam ilmiy bilimlarning, tarbiyadagi qiyinchiliklarni yengishga qodir bo'lgan obro'li rahbarlikning, o'quvchilar qalbining qandayligini his qilish mahorati (empatiya), ichki dunyosi, nozik va zaif bo'lgan bola shaxsiga mohirona, avaylab yond ashish, donolik va ijodiy dadillik, ilmiy tahlil, xayol va fantaziyaga boy bo'lgan qobiliyat majmuasidir.

Pedagogik mahorat quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

O'qituvchi faoliyatida insonparvarlikning ustunligi.

Pedagogik iste'dod, qobiliyat.

Pedagogik texnika (san'at).

O'qituvchining shaxsiy intilishi.

Pedagogik mahorat nazariyasi va metodikasining ishlab chiqilmaganligi shunga olib keladiki, pedagoglarning har biri o'z-o'zicha, paypaslab ijodiy izlanish olib boradi: bolalar bilan, pedagogik jamoa bilan qanday qilib yaqindan til topishish mumkin? Qanday qilib qisqa muddat ishida bolalar o'rtasidagi munosabatlarning haqqoniy manzarasiga erishmoq mumkin? degan savollarga javob izlaydi.

Har bir insonda u yoki bu kasbga qobiliyat mavjud bo'ladi. Ba'zi taniqli ruhshunoslarning fikricha (F.Gonobolin, N.Kuzmina), pedagoglik kasbi uchun quyidagi 6 xil qobiliyatlar muhim hisoblanadi;

O'rtaga tusha bilish.

Tashkilotchilik.

O'zini idora eta bilish.

Mo'ljallay olish, chamalay bilish.

Kuchlilik, zehnlilik.

Faoliyatga ijodiy yondashish.

Bularning barchasi tarbiyaviy maqsad mavjud bo'lgan, insonparvarlik nuqtai-nazaridan turib yondashilgan taqdiridagina pedagogik qobiliyat tarkibiga kirishi mumkin.

Pedagogik texnika – pedagogik mahoratning asosiy qismlaridan biri bo'lib, u o'qituvchidan o'quvchilar bilan muomala qilganda zarur so'z, gap ohangi,

qarash, imo-ishorani tez va aniq topish, eng o'tkir va kutilmagan pedagogik vaziyatlarda osoyishtalik va aniq fikr yuritish, tahlil qilish qobiliyatini caqlab qolish imkonini beradi. Haqiqiy pedagogik ta'sir ko'rsatishda o'qituvchining pedagogik texnika sohasidagi barcha malakalari bir paytda yaqqol ko'rinadi. Nutq, imo-ishora, mimika harakat bilan birga sodir bo'ladi.

Pedagogik texnika pedagogning individual psixik-fiziologik xususiyatlari asosida tarkib topadi. Individual pedagogik texnika pedagogning jinsi, yoshi, mijozi, fe'l-atvori, anatomik-psixologik xususiyatlariga ham bog'liq bo'ladi.

Pedagogik texnika malakalarining shakllanish darajasi ma'lum darajada pedagogning umumiy tayyorgarlik darajasini, ya'ni shaxsning pedagogik imkoniyatlarini aks ettiradi. Pedagogning nutqi tartibsiz, qashshoq bo'lsa, o'zi jizzaki bo'lsa, didi past, madaniyatsiz bo'lsa, eng topib gapirgan to'g'ri so'zi ham tarbiyalanuvchilarga ta'sir etmaydi, balki teskari natijaga olib kelishi mumkin.

Shuning uchun ham, tarbiyachi avvalo o'zi tarbiyalangan, o'tirib-turish, suhbatlashish madaniyatini qon-qoniga singdirgan bo'lishi lozim.

Har yigitning aslin bilay desangiz

Ma'rakada o'tirib-turishin ko'ring.

(Maxtumquli)

O'qituvchining shaxsiy intilishi, munosabati pedagogik mahorat tarkibiy qismlari orasida muhim o'rinni egallaydi. Uning bunday shaxsiy munosabati unda

tegishli bir qolipdagi fikrlar sistemasi mavjudligi bilan izohlanadi, shu tufayli u ko'p hollarda deyarli avtomatik ravishda ta'sirlarga javob bera oladi. Chunonchi, o'quvchilar bilan albatta xushmuomalada bo'lish, dilkashlik o'quvchi shaxsiga prinsipial yondashishning yuqori darajada bo'lishi, o'zining birorta ham o'quvchisi yomon emasligi, buning ustiga ishonchsiz bo'lishi mumkin emasligiga ishonch kabilar.

Lekin bunday bir qolipdagi fikrlar salbiy rol o'ynashi ham mumkin. Masalan, hamkasbi o'quvchilar bilan haqiqatda noto'g'ri munosabatda bo'lganda unga qarshi turish o'rniga, uni himoya qila boshlaydi.

O'qituvchining xohish-istagi haqqoniylik va insonparvarlik xarakterida bo'lsagina bunday chekinishlarga yo'l qo'ymasligi mumkin bo'ladi.

Pedagogik faoliyat - yoshlarni hayotga, mehnatga, Vatan mudofaasiga tayyorlash uchun xalq oldida, davlat va jamiyat oldida javob beradigan, bolalarga ta'lim-tarbiya berish ishi bilan shug'ullanadigan va bu ishga maxsus tayyorlangan kishilarning mehnat faoliyatidir.

Maktab o'qituvchilarining faoliyati respublikamizda buyuk davlat-jamiyatni quruvchi va unda yashab mehnat qiluvchi yetuk, erkin fikrlovchi inson shaxsini shakllantirishga qaratilgan. O'qituvchining barkamol avlodni tarbiyalash va unda yangi insonga xos sifatlarni tarkib toptirish vazifasi eng oliyanob, yuksak va shu bilan birga eng sharafli va murakkab vazifadir. Har bir tarbiyalanuvchi o'z xulq-atvoriga, xarakteriga ega. Ularni o'qitish va tarbiyalashda ularning ana shu o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish nihoyatda murakkabdir. Bunga insonlar o'rtasida ijtimoiy munosabatlarning murakkabligini o'zida akz ettiruvchi maxsus usullardan foydalaniladi. Pedagogik faoliyatga tayyorgarlik ko'rayotgan yoshlar uning ana shunday xususiyatlarini bilishlari lozim.

O'qituvchilik ixtisosining bu xususiyatlari uning professiogrammasida o'z ifodasini topadi:

- 1) O'qituvchining shaxsiy xususiyatlari;
- 2) O'qituvchining pedagogik-psixologik tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar;
- 3) Maxsus tayyorgarlikning hajmi va tarkibi;
- 4) Ixtisosga oid metodik tayyorgarlik mazmuni.

XULOSA

Ijtimoiy taraqqiyot bilan uzviy aloqadorlikda rivojlanib borayotgan pedagogik mahorat fanining vazifalari doirasi kengayib bormoqda. Tabiiy ravishda zamonaviy fan-texnika yutuqlaridan samarali va unumli foydalana olish vazifasi mazkur fan oldiga ham qo'yilgandir. Ayni vaqtda Respublika ijtimoiy hayotiga keng ko'lamli va shiddatli tezlikdagi axborotlar oqimi kirib kelmoqda. Pedagogik mahorat faniga oid axborotlarni tezkor sur'atda qabul qilib olish, ularni tahlil etish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosalash hamda o'quvchiga yetkazib berishini yo'lga qo'yish ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Demak, bo'lajak o'qituvchini professional faoliyatga tayyorlashda pedagogik mahorat fanini innovasion ta'lim texnologiyalar yordamida o'zlashtirishning o'rni beqiyosligi hamda o'qituvchining diqqat markazida bo'lishi davr talabidir. Ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik mahorat komponentlarini pedagogik texnologiyalar asosida tatbiq etish mazkur muammoni ijobiy hal etishning pedagogik kafolatidir.

Ishlab chiqarish sohasining barkamol shaxs va malakali mutaxassis bilan ta'minlanishi ijtimoiy harakatni yuzaga keltiruvchi vosita, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashning eng muhim omilidir. Malakali kadrlarni tayyorlash jarayoniga nisbatan muammoli yondashuv ushbu jarayonning samaradorligini ta'minlashga olib keladi. Shu bois so'nggi yillar mobaynida ta'lim tizimida pedagogik mahorat komponentlaridan samarali foydalanish masalasiga respublika miqyosida alohida e'tibor berib kelinmoqda. Ta'lim muassasalarining faoliyat jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish bir qator shartlarga muvofiq amalga oshiriladi.

REFERENCES

1. Абдукаримов Х. Профессиональное воспитание личности учителя в процессе непрерывного педагогического образования.: Автореф. дисс. докт. пед. наук.-Т.: 1997.-46 с.
2. Абдуллажонов М.А. Формирование профессиональных качеств будущего учителя в процессе обучения в педвузах.: Автореф. дисс. канд. пед. наук.-Т.: 1991.-21с.
3. Abduqodirov A. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish muammolari //Uzluksiz ta'lim j. - 2002. №
4. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni tashkil etishning nazariy asoslari. Ped.fan.doktori. diss... avtoref.-Т.: 2003.-44 b.

INFORMATION AND PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES FOR STUDENTS IN TEACHING ENGLISH

Ikromova Maksuda Bakoyevna

Teacher of the Uzbek and Literature Department, Bukhara Branch of Tashkent
Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers, Uzbekistan,
Bukhara

ABSTRACT

This study is devoted to modern linguistic problems. Here, special attention is paid to the problem of parts of learning foreign languages. At the same time, you may see, that the modern linguists describe a number of linguistic problems, that existed in the age of antiquity. It describes the approaches and opinions of modern specialists to the problems of ancient linguistics.

Keywords: *multimedia, computer technology, Internet, the role of information and communication technologies (ICT) in teaching foreign languages, information society, the main goals in modern teaching methods, knowledge and skills, the self-cognitive activity of students.*

АННОТАЦИЯ

Данное исследование посвящено современным языковым проблемам. Здесь особое внимание уделяется проблеме частей изучения иностранных языков. В то же время вы можете увидеть, что современные лингвисты описывают ряд языковых проблем, существовавших в эпоху античности. Описаны подходы и мнения современных специалистов к проблемам древнего языкознания.

Ключевые слова: *мультимедиа, компьютерные технологии, Интернет, роль информационных и коммуникационных технологий (ИКТ) в обучении иностранным языкам, информационное общество, основные цели в современных методах обучения, знания и умения, самокогнитивная активность студентов.*

INTRODUCTION

Possession of information and pedagogical technologies is becoming as necessary as the ability to count. Therefore, it is logical that informatization is actively being introduced into the education system, fundamentally changing the technology of the process of training and education.

I must say that the informatization of society provides: the active use of the intellectual potential of society, the integration of information technology with scientific, industrial technologies, a high level of information services, the availability

of any member of the society to sources of reliable information, the visualization of the information presented, the materiality of the data used.

RESULTS AND DISCUSSION

The development strategy of modern information technologies is determined by the direction from information to knowledge. This direction largely determines one of the priority areas of the informatization process of modern society - the informatization of education - the introduction of new information technologies in the education system.

The possible classification of computer-based training programs can be conditionally divided as follows: demonstration programs; training programs; software testing and control of knowledge; software for mathematical modeling; simulators; information and reference systems; automated training systems; expert training systems; Intelligent learning systems and a special place in this series are electronic textbooks.

By goals and objectives, training computer programs are divided into illustrative, consulting, training programs, training control programs, and operating environments. Some of them are designed to consolidate knowledge and skills, others are focused on the assimilation of new concepts. Great opportunities are possessed by programs that implement problem-based learning.

Game programs contribute to the formation of learning motivation, stimulate initiative and creative thinking, develop the ability to act together, subordinate their interests to common goals.

The teleconference allows the teacher and the student, who are often far from each other, to organize a learning process similar to the traditional one. Here, collective work of students located in different localities, business games and the brainstorming method are possible. Studies show that today the main form of organization of educational activities of students in the network is a training telecommunication project.

In Uzbekistan, education is one of the priorities of state policy 75. In connection with the use of a single information network, a change in methodological principles and approaches in the field of science and education, more and more attention is currently being paid to the use of computer technology.

And, although the active computerization of the educational process began a few years ago, our schools today are not sufficiently equipped with computer technology. Currently, approximately 15% of secondary schools in the Republic

of Uzbekistan are equipped with modern computer technology. And a little over a tenth of them has access to the global network.

In order to transfer the course to computer technology of training, the teacher who sets the course must have an idea not only about the subject area, but also be a good methodologist, have the skills to systematize knowledge, be well informed about the possibilities of information technology, and also know what computer support is achieved another didactic technique. In addition, he must be informed about the technical tools and software that will be available to him both when creating application software (software), and when accompanying the educational process.

In the world community, much attention is paid to discussing approaches to solving these problems. Conferences, seminars and other events are held to exchange experience in the use of computer-based learning technology in a real educational process, where the positive and negative aspects of educational informatization are evaluated (in particular, the World Conference on Educational Multimedia and Hypermedia under the auspices of the AACE association)

So, information technology and education these two trends together become the spheres of human interests and activities that mark the era of the 21st century and should become the basis for solving the problems facing humanity.

In the light of the foregoing, a new promising subject area is beginning to take shape “Information pedagogical technologies in education”. This area includes the problems of intelligent learning systems, open education, distance learning, information educational environments.

This area is closely related, on the one hand, with pedagogical and psychological problems; on the other hand, with the results achieved in such scientific and technical areas as telecommunication technologies and networks; computer processing systems, and many others. Currently, the concept of pedagogical technology, that is, the art of teaching, has firmly entered the pedagogical vocabulary. Technology from the Greek words techno (art, craft, science) and logos (concept, teaching).

With the help of technology, intellectual information is translated into the language of practical solutions. Technology is both ways of activity and how a person participates in activities. Modern technologies in education are considered as a means by which a new educational paradigm can be implemented. The

most famous authors of modern pedagogical technologies abroad include J. Carroll, B. Bloom, D. Bruner, D. Hamblin, G. Gays, V. Coskarelli and others.

There are many interesting definitions of the nature of educational technology a term that has become quite popular in the last decade. Let us dwell only on some of them. In the documents of some international organizations, learning technology is considered as a systematic method for creating, applying and defining the entire process of teaching and mastering knowledge, taking into account technical and human resources and their interaction. This definition of technology, like many similar to it, cannot claim to be complete and accurate, despite the fact that new (environmental, space, information) technologies are constantly appearing. Pedagogical technology is a substantial technique for the implementation of the educational process. Technology is a set of techniques used in any business in art. Pedagogical technology is a description of the process of achieving the planned learning outcomes. Pedagogical technology is a meaningful generalization that incorporates the meanings of all the definitions of all previous authors. Sources of pedagogical technology are the achievements of pedagogical, psychological and social sciences, advanced pedagogical experience, folk pedagogy, all the best that has been accumulated in domestic and foreign pedagogy of past years.

In pedagogical practice, several classifications of pedagogical technologies are presented, that is: - subject-oriented teaching technologies: - technology of "complete assimilation"; - technology of level differentiation; - technology of concentrated training; - personality-oriented teaching technologies: - technology teachers of workshops; - technology of modular training; - technology of training, as educational research; - technology of collective thought activity; - technology of business games; - technology of educational design, etc. All this "fan" of technologies can be revealed and formed in the hands of an experienced teacher, because the conditions for their applicability depend on many factors; In addition, technologies are closely interconnected. Consider only the most common and widely used educational technologies in training.

For example, the concept of "gaming technology" includes a fairly extensive group of techniques for organizing the pedagogical process in the form of various pedagogical games. Unlike games in general, a pedagogical game has an essential feature - a clearly defined learning goal and the corresponding pedagogical result, which can be justified, highlighted explicitly and characterized by educational-cognitive orientation. The game form of classes is created in the lessons with the help

of game techniques and situations that act as a means of inducing, stimulating learning activities.

Having examined the main parameters of this technology, we can conclude that the game is a historically determined, natural element of culture, which is a type of voluntary activity of the individual. The game is the reproduction and enrichment of the social experience of previous generations, the development of the norms and rules of human life through the voluntary adoption of game rods, virtual modeling of the game space, the conditions of their own being in the world.

There is other pedagogical technology. For example, the concept of "project" in the broadest sense - everything that is conceived or planned. The technology of project training is considered in the system of personality-oriented education and contributes to the development of such personal qualities of schoolchildren as independence, initiative, creativity, allows to recognize their urgent interests and needs and is a technology designed for the consistent implementation of educational projects.

The purpose of project training is to create the conditions under which students: independently and willingly acquire the missing knowledge from various sources; learn to use the acquired knowledge to solve cognitive and practical problems.

Initial theoretical positions of project training:

- the focus is on the student, promoting the development of his creative abilities;
- the educational process is built not in the logic of the subject, but in the logic of activities that have a personal meaning for the student, which increases his motivation in learning;
- the individual pace of work on the project ensures that each student reaches his own level of development;
- an integrated approach to the development of educational projects contributes to the balanced development of the basic physiological and mental functions of the student;
- a deep, informed assimilation of basic knowledge is provided due to their universal use in different situations.

The most significant features of project training are its dialogism, problematic, integrative, contextual. Dialogue allows students in the process of project implementation to enter into dialogue with both their own I and others. It is in the dialogue that "free self-revelation of the personality" is carried out (M. M. Bakhtin⁷⁷) Problem arises when solving a problem situation, which determines the beginning of active mental activity, manifestations of independence in students, due to the fact that

they find a contradiction between the content they know and the inability to explain new facts and phenomena. Solving a problem often leads to original, non-standard methods of activity and results.

Context in design technology allows you to create projects close to the natural life of students, to realize the place they study science in the general system of human life.

CONCLUSION

Currently, there are various classifications of projects that disclose this technology. Summarizing them, we distinguish the following most characteristic:

- According to the content and nature of the work, the types of projects are distinguished: research, information, creative, game, practice-oriented;
- By the nature of contacts - domestic and international;
- By the number of participants - personal, paired, group;
- By the duration of their implementation - short-term (several lessons), medium-term (from a week to a month), long-term (several months).

The forms of project implementation are also different: it can be a printed work, an article, a conference report, a wall newspaper, an almanac, a multimedia presentation, a creative report. Project activity is one of the most promising areas in modern education for mastering operational knowledge in the process of specialization.

REFERENCES

1. Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan. 03/17/2020.
2. Bloom, B. S., Englehart, M. D. Furst, E. J. Krathwohl, D. R. (1956). The Taxonomy of educational objectives, handbook I: The Cognitive domain. New York: David McKay Co.Inc.
3. Bakhtin M.M. Aesthetics of verbal creativity. Publisher: Art. Place of publication: M. Year of publication: 1986.
4. BakhtinM. Estetika slovesnogo tvorchestva [The Aesthetics of Verbal Creation. Moscow: Iskusstva, 1979.
5. From the Prehistory of Novelistic Discourse. In: BAKHTIN, M. M. The Dialogic Imagination: Four Essays by M. M. Bakhtin. Edited by Michael Holquist; translated by Caryl Emerson and Michael Holquist. Austin: University of Texas Press, 1981, pp.41-83.
6. Toward a Methodology for the Human Sciences. In: Speech GenresOther Late Essays, Translated by Vern W. McGee. Austin: University of Texas Press 1986, pp.159-177

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR IJODIYOTI TADQIQOTCHISI

Sulaymonov Isroil Isomiddinovich

filologiya fanlari doktori (DSc)

Samarqand davlat universiteti

isroil-8103@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodiga yangicha talqinda ham ilmiy, ham badiiyat nuqtai nazaridan murojaat qilgan olim Aziz Qayumovning "Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiyoti"ga bag'ishlangan asari tahlil etilgan. Unda Bobur hayoti va ijodi haqida muallifning o'ziga xos tasvir usuli, tarixiy faktlar asosida badiiy tasvir yaratish mahorati kabi masalalar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: *Zahiriddin Muhammad Bobur, "Boburnoma", Aziz Qayumov, tarixiy fakt, badiiy talqin.*

АННОТАЦИЯ

в этой статье анализируется произведение выдающегося литературоведа Азиза Каюмова «Творчество Захириддина Мухаммада Бобура», в котором автор обращал внимания к жизни и творчеству Бобура по-новому научным и художественным взглядом. В статье речь идёт о тех вопросах, так как спецификационные методы описания и мастерство автора по созданию художественного описания по историческим фактам.

Ключевые слова: *Захириддин Мухаммад Бобур, «Бабур-наме», Азиз Каюмов, исторический факт, художественная трактовка.*

ANNOTATION

This article deals with the work of Aziz Qayumov, "Zahiriddin Muhammad Babur's work", which addresses the life and work of Zahiriddin Muhammad Babur in a new interpretation, both from a scientific and artistic point of view. It covers the life and work of Babur, as well as the author's unique style of description and his ability to create an artistic image based on historical facts.

Keywords: *Zahiriddin Muhammad Bobur, "Boburnoma", Aziz Qayumov, historical fact, artistic interpretation.*

KIRISH

Keyingi yillar o'zbek nasrida esselashuv jarayoni kechmoqda. Bu xususiyatni ilmiy maqolalar misolida ham ko'rishimiz mumkin. A.Qayumov, I.Haqqul, S.Olim va boshqa adabiyotshunoslarning keyingi o'n yillik maqolalarining esse janriga tobora yaqinlashayotganligi bugungi adabiy jarayonning tabiiy mahsulidir.

A.Qayumovning Bobur ijodiyotiga bag'ishlangan asari shu jihatdan xarakterlidir. A.Qayumov ushbu asariga yozgan so'zboshida mazkur bitiklarini risola ataydi. «Kitobxonni zeriktirib qo'ymaslik uchun uchun tasvir shakli badiiylashtirildi», - deb izoh ham beradi. Bizningcha, ushbu asarni esse janri talablariga muvofiqligini hisobga olgan holda shunday atash, ma'qulroq. Chunki esseda ham ilmiy, badiiy, publitsistik xususiyatlar shu tarzda uyg'unlashadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodiga yangicha talqinda, ham ilmiy, ham badiiyat nuqtai nazaridan murojaat qilgan olim akademik Aziz Qayumov sanaladi. Bobur tarjimai holi va ijodini o'rganishda, asarlarining nashr etilishida, ularning dunyo yuzini ko'rishida, keng ommaga etib borishida bu insonning xizmatlari benihoyadir. Ushbu tadqiqotda olimning so'nggi yillarda nashr etilgan [21] tadqiqotiga murojaat qilindi. Bu tadqiqotni yaratishda, muallif aytganidek, «Boburnoma»dagi tarixiy voqealar va faktlar asos bo'lgan va uni ilhomlantirib, badiiy-ilmiy asarlar paydo bo'lishiga sabab bo'lgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Akademik A.Qayumov o'zining Bobur hayoti va ijodiga bag'ishlangan «Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiyoti» nomli tadqiqotida (Қаюмов А. Асарлар. 10-жилдлик, 5-жилд. Захириддин Мухаммад Бобур ижодиёти. Тошкент, «Мумтоз сўз», 2009) «Boburnoma»dan konkret tarixiy voqea va faktlarni misol sifatida keltirib fikr bildirmaydi. Bobur asarlarini obdon o'rgangan olim o'zining asarlarida bulardan o'rinli foydalanadi. Shu sababdan o'quvchi ulardan Bobur hayoti va ijodining kichik epizodlarigacha aniq, hayotiy ma'lumotlarni bilib oladi.

Mavzuni yoritishda qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, biografik metodlardan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

A.Qayumov asarining «Zafar va mag'lubiyat» nomli qismida muallif aynan yuqoridagi uslub – tarixiy voqelarni ilmiy jihatdan umumlashtirib, uni badiiy talqin etadi va aytish mumkinki, bu ilmiy umumlashtirish olimga davr voqea-hodisalarini aniq tahlil qilish, uni kezi kelganda badiiy tasvirlash orqali maqsadga erishishni ta'minlaganki, bu uslub hozirgi boburshunoslikda, bayon tarzi bilan faqat Aziz Qayumovgagina xos, desak xato bo'lmaydi. Albatta, olim uslubiga ma'lum darajada ergashib, o'zlarining ayrim tadqiqotlarini, badiialarini yaratish tajribasi zamondosh boburshunoslarimiz, yozuvchilarimiz ijodida ham kuzatiladi, ammo ularning birortasi hali bu qadar ixchamlik, ilmiy ko'lam va badiiy mukammallikda akademik A.Qayumov darajasiga etganlari yo'q, deb o'ylaymiz.

Asarining «Zafar va mag'lubiyat» qismida muallif shunday yozadi: «905 (1499-1500) yili Bobur Farg'onadagi ichki kurashlar davomida Andijon, Axxi, O'shni qo'ldan berdi. Uning ahvoli juda tang bo'ldi. Shu payt Samarqand hokimi Muhammad Mazid Tarxon Boburni Samarqand viloyati hokimiyatiga chaqirdi. Bobur bu taklifni darrov qabul qildi. U Axxiga odam yuborib o'z g'animlari bilan sulh tuzdi va shu yili zulqa'da oyida Farg'onadan Samarqandga yo'l oldi. Muhammad Mazid Tarxon uning istiqboliga chiqdi. Ular hali Samarqandga etganlaricha yo'q ediki, Samarqandni Shayboniyxon egalladi, degan xabar keldi. Bobur Keshga ketdi. Bu erda Muhammad Mazid Tarxon Boburni qoldirib, Hisorga, Xisravshoh xizmatiga o'tib ketdi» [21; 212-213].

Muallif shuncha tarixiy dalillarni keltirsa-da, «Boburnoma»ni tilga olmaydi. Vaholanki, bu tarixiy faktlar aynan «Boburnoma»dan olingan. O'sha paytdagi mavjud siyosiy, ijtimoiy holatni tarixiy faktlar asosida qisqa umumlashtirib, o'quvchiga o'sha davr siyosiy holati, Samarqand taxti uchun kurash ishtirokchilari haqida umumiy ma'lumot bermoqda, xolos. Bu o'rinda muallif «Boburnoma»dagi faktik ma'lumotlarni keltirmasdan umumiy ma'lumot berish bilan kifoyalanadi. Ushbu matnning davomida ham shu aqidasiga sodiq qolib, Boburning g'oliblik va mag'lublik holatini faqat sharh berish orqali bayon etadi, xolos. «Boburnoma»dan biron bir iqtibos, parcha keltirmaydi. Bu uslub muallifning shu asari uchun qo'llagan bayon tarzi, tarixiy voqelikni ilmiy-badiiy talqinda berish uslubidir. Yuqoridagi matnning davomini ko'radigan bo'lsak: «Bobur va uning odamlari shahar va viloyatdan mahrum bo'lib, tentirab qoldilar. Ba'zi navkarlar Boburdan ajralib har tarafga keta boshladilar. Bobur o'ziga sodiq qolgan odamlar bilan tog'lar osha yaylovlarga o'ta Ko'hak daryosi bo'yiga etib keldi. Bu vaqtda Boburda ikki yuz qirq kishigina qolgan edi. Shu askar bilan Bobur 906 (1500) yili Samarqandga hujum qilib, uni egalladi. Shunda Bobur o'n to'qqiz yoshda edi. Bu Bobur tomonidan Samarqandni ikkinchi qayta egallashi edi. Samarqand a'yonlari Boburga sadoqat izhor qildilar... Atrof viloyatlardan Boburga yordam uchun qo'shinlar kela boshladi. Bobur katta kuch yig'ib, Saripul degan joyda Shayboniyxon qo'shini bilan to'qnashdi. Bu jangda Shayboniyxon qo'shini ustun chiqdi. Bobur o'z odamlari bilan shaharga kirib, darvozalarni berkitdi. Shayboniyxon Samarqandni qamal qildi. Bobur qo'shini va Samarqand xalqi qamalda og'ir azoblarni boshdan kechirdilar. Shaharda oziq-ovqat qolmadi. Hech qaerdan yordam kelmadi. Boburning ba'zi lashkarboshilari o'z odamlari bilan shahardan chiqib qocha boshladi.» [21; 212-213].

A.Qayumov Bobur tarjimai holi uchun o'ta muhim bo'lgan bu tarixiy faktdan foydalanib, turli darajadagi badiiy obrazlarni yaratishga muvaffaq bo'ladiki, bu

tarixiy faktlar badiiylik kasb etadi, kitobxonni muallif fikriga hamohang tarzda ko'hna tarix voqealariga oshno qiladi: «899 (1494) yil. Seshanba, ramazon oyining beshinchi kuni. Shahar hovlilarida baholi qudrat iftor tadoriki. Shohi to'quvchi Mulla Alijonning tashqari hovlisidagi mehmonxonada bugun iftor uchun kichik bir jamoa jam bo'lgan. Ular Qiyosiy, Jur'ar, Asiriy va xonanda Soatxon. Bu jamoat hammalari kosiblar, ammo tab'i nazm ahliga mansub kosiblar...» [21; 208].

Bu parcha A.Qayumovning «Asarlar»idan kiritilgan «Kutilmagan yangilik» nomli hikoyasi bo'lib, yuqorida nomlari keltirilgan shaxslarning barchasi muallifning tafakkuridagi xayoliy, badiiy obrazlaridir. Ular haqida «Boburnoma»ning biror bir o'rnida ma'lumot berilmaydi.

Muallif bu suhbatdoshlarning fikrini davom ettirar ekan, ularning nutqida qadim andijoniylarning shevasi yaqqol sezilib turadi. Bu bilan muallif asariga hayotiylik va haqoniylik baxsh etish maqsadida shunday yo'l tutadi: «Suhbatdoshlar turkiy (eski o'zbek) tilida so'zlashar edilar. Ularning talaffuzi, ifoda uslubi juda adabiy edi. Bu faqat tab'i nazm egalariga emas, balki butun Andijon xalqiga bir odat. Har bir savodli xonadonda, bunday xonadonlar Andijonda ko'p, kishilar Mir Alisher Navoiyning she'rlari turkiy tilning Andijon lahjasida yozilganini qayd etar ekan, bu bilan iftixor qilar edilar: yana mashhur musiqiy ustodi Xoja Yusufning Andijondan ekanini g'urur bilan eslatardilar... Suhbatdoshlarning iltimosiga ko'ra, Sabriy o'zining yangi bir she'rini o'qib berdi. Bu Navoiy g'azaliga bog'langan muxammas edi. Asiriy, Qiyosiy, Jur'at ham o'zlarining yangi she'rlarini o'qidilar [21; 209].

Bu bilan muallif Boburning «Boburnoma»da Andijon haqida keltirgan ma'lumotlariga ishora qiladi, go'yo: «Eli turkdur. Shahri va bozorida turkiy bilmas kishi yo'qdur. Elining lafzi qalam bila rosttur. Ani uchunkim, Mir Alisher Navoiyning musannafoti, bovujudki Hirida nash'u namo topibdur, bu til biladur» [13; 34].

Boburning Samarqand va Andijon orasida sargardon bo'lib yurgan payti. Mag'lublikka yaqin bu holat Boburga siyosiy bir xulosaga kelish, kimni do'stu kimni dushman ekanligini bilolmay sarson bo'lgan mahali: «Dakbusiyda Boqi tarxonni bosib Buxoro ustiga boribtur. O'roteppadin Bo'rka yaylog'i yo'li bila Sangzorg'a kelduk. Sangzor dorug'asi qo'rg'onni berdi. Qanbar Ali chun tutturub, oldirub keldi, ani Sangzorda qo'yub, o'ttik» [13; 77].

A.Qayumov ana shu tarixiy voqelik va dalillardan foydalangan tarzda badiiy yo'sinda Bobur va beki Qosimbekning badiiy obrazini to'ldirishga harakat qiladi: «Sangzor daryosi quvnab oqar edi. Sangzorning zilol suvlari toshdan-toshga urilib o'ynashayotgan to'lqinlar bilan to'la. Atrofdagi tog'lar keng dalalar bag'rinda daryo

yoqalab horg'in yo'l bosayotgan odamlar va otlarga beparvo boqadilar. Ularning ketidan otlari horg'in qadam tashlaydilar. Otlar ham ochlikdan shunday toliqqanlarki, endi ular odamlarni emas, odamlar otlarni tashimoqdalar.

– Faqat shukrona bilan yashamoq kerak, - deydi Qosimbek holdan toygan Boburga, – eng muhimi o'lim xavfi ortda qoldi. Dizakda Hofiz Muhammadbek do'ldoyning o'g'li Tohir do'ldoy hokimlik qiladi. U ko'p insofli va musulmonvash yigit. Kecha unga kishi yuborganman. Inshaolloh u sizni lozim hurmat bilan kutgisidir.

– Umidvormiz, - dedi Bobur g'amgin jilmayib, ammo mundin nari ne bo'lg'usini yolg'iz Allohu taoloning o'zi bilur.

– Mundin buyon ham Tangri inoyatiga umid bog'lab, o'z hokimiyatingizni barqaror etmoq sa'yingizda turingiz. Yoningizdagi beklar va yigitlar muhim sinovdan yaxshi o'tdilar. Ularga hamisha tayanmog'ingiz mumkin, - dedi Qosimbek qavchin. Shu payt uzoqdan bir guruh otliqlar ko'rindi... Kelayotgan otliqlarning boshida Tohir do'ldoy ko'rindi. Qosimbek uni darhol tanidi va buni Boburga aytdi... Shohona uchrashuv marosimining barcha qoidalariga binoan u Boburni kutib, Dizakka o'zi olib kirdi» [21; 214].

A.Qayumov «Boburnoma»da keltirilgan tarixiy shaxslardan Xoja Kalon haqida so'z yuritadi. U shaxsning Hindistondagi faoliyati davrida Bobur bilan bo'lgan munosabati, ular o'rtasidagi voqealar «Boburnoma»da ham batafsil berilgan. Jumladan: «Xoja Kalon chun Hinddin mutanaffir edi, borurida Dehlining uyining imoratlarning tomida bu baytning bitiburkim:

Agar ba xayru salomat guzar zi Sind kunam,
Siyahro'y shavam, gar havo Hind kunam³⁵.

Biz Hindistonda turub bunday zarofatomiz bayt aytmoq va bitmoq besuratdir. Ketmakdin bir kudurat bo'lsa bu nav' zarofattin ikki kuduratdur, men dag'i bir ruboiy aytib bitib yubordim:

Yuz shukr de, Boburki, karimu g'affor,
Berdi senga Sindu Hindu mulki bisyor.
Issig'lig'ig'a gar senga yo'qdur toqat,
Sovuq yuzini ko'ray desang G'azni bor» [13; 210].

Mazkur parchada ifodalangan Bobur va boshqa tarixiy shaxslar tasviridan muallif badiiy obraz yaratadi, tarixiylikni badiiylikka aylantiradi: «Bobur Kobulg'a sovg'alarni eltmoqni Xoja Kalong'a topshirdi. Uning qo'shini qalin bo'lganligi

³⁵Mazmuni: Agar sog'-salomat Hinddan o'tib ketsam, Hindistonni yana havas qilsam yuzim qaro bo'lsin.

uchun G'azna, Gardiz, Sulton Mas'udiy hazorani, Hinistondagi Ko'hrom parganasini Xoja Kalonga berdi... A.Qayumovning «Boburnoma»da mavjud bo'lmagan bu ma'lumotlarni keltirishdan maqsadi – Boburning Xoja Kalonga shunchalik himmat ko'rsatib Afg'oniston, Hindistonda ulkan shaharlar hadya etsa-da, u Boburga qarshi ish qiladi, uning davlatdorligiga ma'naviy ziyon etkazadi, noshukurlik qiladi: «...Oradan uch-to'rt kun o'tdi. Yana Agradagi daraxtzor. Uning bag'ridagi salqin yo'lakda Bobur va uning mo'ysafid arbobi sayr qilib suhbat tutmoqdalar. Bobur o'zining uzoq yillar sinalgan do'sti Xoja Kalonning ketmoq qaroridan xafa. Eng yaqin do'stlar ham, vaqti kelib o'zlikni do'stlikdan ustun qo'yadilar. Kun asta-sekin muhitga cho'kmoqda. Osmon yuzasini qorong'ulik tumani qoplash vaqti yaqinlashmoqda.

Bobur o'z suhbatdoshiga dedi:

– Xoja Kalon Hinddan mutanaffir edi. Uning ketar chog'i uyining devoriga yozgan baytini eshitdingizmi?

– Yo'q, taqsirim.

– Bo'lmasa mana o'qingiz.

Bobur qo'ynidan bir qog'oz olib suhbatdoshiga uzatdi.

Mo'ysafid kishi podshohning qo'lidan qog'ozni odob bilan oldi va uni ko'ziga yaqinlashtirib, o'qidi:

Agar ba xayru salomat guzar zi Sind kunam,

Siyahro'y shavam gar havoyi Hind kunam.

Qofiyani xo'b tushirgan. Ehtimol, yuzi qoraligidan tavba qilayotgandir, - dedi muysafid kishi, bu she'rdan tug'iladigan yoqimsiz taassurotni yumshatmoq maqsadida.

– Yo'q, dedi Bobur qat'iy ravishda, - bu bayt Xoja Kalonning yuzi qoraligiga iqroridir. Chunki, davom etdi o'z fikrini sharh etib, – biz Hindistonda turib, mundoq zarofatomez bayt aytmoq va bitmoq ko'rinmagan bir hol. Ketmog'idan bizga og'irlik bo'ldi, bu xil zarofatdan ikki bor malol etdi» [21; 244-245].

Bu o'rinda Bobur tarixiy shaxs bo'lsa-da, Mo'ysafid to'qima obraz bo'lib Bobur badiiy obrazini to'ldirishga, muallifning ushbu «Boburnoma»da keltirgan ruboiysidagi maqsadni ochishga xizmat qilmoqda. Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlash kerakki, ushbu ruboiy tahlilida A.Qayumov ijodkor adib emas, balki adabiyotshunos olim sifatida fikr yuritadi.

«Boburnoma»da No'yon Ko'kaldosh haqida keltirilgan tarixiy ma'lumotni X.Sulton va A.Qayumov asarlaridagi badiiy talqinlarini qiyosan tahlil etsa, ularda mualliflarning o'ziga xos yondashuvi ko'zga tashlanadi. Yuqorida “Boburiynoma”

tasvirida ko'rilgan ushbu parchani A.Qayumov asarida berilishi holatiga e'tibor qaratsak: «Bobur o'z kishilari bilan Piskentga kelgan payti bir fojea yuz bergan edi... Bobur Samarqand hokimiyatini egallaganda Mo'min uning huzuriga kelgan edi. Ammo bu qiligi sovuq, yoqimsiz odam Boburga yoqmadi. Uning g'iybat gaplarni ko'p gapirishi, qo'lidan bir ish kelmagani holda o'zgalarni qilgan yaxshi ishlarini o'ziniki qilib ko'rsatishga urinmog'i darhol bilinib qoldi. Boburning sadoqatli odamlaridan biri No'yon Ko'kaldosh Mo'minning yaramas ishlari to'g'risida Boburni mutaassil xabardor etib turgan edi» [21; 216], - deb badiiy manzara yaratgan muallif ushbu sirli fojining asl ildizini aniqlashga harakat qiladi. Bu shubhali o'limning asosiy tashkilotchisi Piskent hokimining ukasi Mo'min degan qat'iy xulosaga keladi.

X.Sulton No'yon Ko'kaldosh haqidagi tafsilotlarni berishda «Boburnoma»dagi tarixiy faktlarga tayanib, unga badiiy obraz sifatida yondashgan bo'lsa, A.Qayumov tarixiy haqiqatni xolisona izohlaydi, voqeilikka o'zining munosabatini bildiradi. Bu voqeaga aloqador tarixiy shaxslarning badiiy tasvirini berib, ular yashagan davrdagi siyosiy jarayonlar, ularning Bobur bilan bog'liq tomonlarini tahlil etishga harakat qiladi. Bu muallifning o'ziga xos uslubi – tarixiy voqealarni ilmiy sharhlash, ularni umumlashtirgan holda tasvirlab berishdan iborat. A.Qayumov tasviriga e'tibor bersak, birinchidan, ushbu sahna «Shubhali o'lim», - deb nomlanishidanoq ma'lum bo'ladiki, muallif tarixiy faktlarga tayanib, uni badiiy tasvirlashga kirishadi. Xayriddin Sultonda bu shaxsga oid tasvirlar Bobur badiiy obrazining atrofidagi kishilar bilan suhbat chog'ida bayon etiladi, unda badiiy tasvirlar A.Qayumovdan ko'ra kengroq bo'lib, muallif badiiy to'qimadan keng foydalangan. A.Qayumov tasvirida o'qiymiz: «Sadoqatli sipohi va do'sti No'yon Ko'kaldoshning bu shubhali o'limi yosh Boburga qattiq ta'sir qildi. Mo'minning qilg'iliqlarini tekshirish va haqiqatni aniqlashning vaqti emas, bunga imkoniyat ham yo'q edi. Shuning uchun alamini o'zidan olib yosh yigit uzun qish kechalari yum-yum yig'lab chiqar edi. Bir hafta-o'n kungacha shu ahvol davom etdi. Nihoyat Bobur o'zini qo'lga oldi...» [21; 217]. Muallif Bobur badiiy obrazini umumlashtirgan tarzda voqealarni ilmiy tahlil etadi va mazkur voqea mazmunini ilmiy bayon uslubida tugatadi. Shu bilan birga, A.Qayumov Boburning sodiq do'sti No'yon Ko'kaldoshning vafoti Boburning ma'naviy mag'lublik paytiga to'g'ri kelishini badiiy tarzda, chiroyli tasvirlar bilan bayon etadi. Boburning raqiblari uni mag'lub etish, ma'naviy ruhiy zarba berish maqsadida uning yaqin kishilaridan judo qilishini Bobur taqdirida juda ko'p bor kuzatamiz. Shu kabi taqdir sinovlarida toblangan Bobur o'zining buyuk maqsadlari sari dadil odimlaverdi, bu kabi sinovlar uning zohirini, ruhiyatini chiniqtirib, uning hayot haqidagi, insonlar haqidagi

qarashlarini shakllantirdi: «Bobur hayotning achchiq va chuchuklaridan bir qismini tatidi. Andijon va Samarqand taxtida g'oz o'ltirdi, g'alaba jomidan kayf qildi. So'ng mag'lubiyat zaharini totidi; ochlik, quvg'in, xiyonat nayzalaridan jarohatlandi» [21; 220]. Bobur yosh bo'lsa-da hayotning ko'p sinovlarini boshidan kechirdi, gohida g'alabadan masrur bo'lgan, undan sarxush lahzalarni ko'rgan bo'lsa, ba'zida mag'lublik alamini ham totib ko'rdi, hayotning naqadar beshafqat va bebaqoligini tushunib etdi. Yosh bo'lishiga qaramay, Bobur dunyoning o'tkinchi hoyu havaslari, shohlik minnati va insonlarning o'zaro munosabatlari xususida bir qarorga keldi. Shu lahzalarni xayolidan kechirayotgan Bobur Andijon va Samarqand o'rtasida sarson-sargardon kezgan, hech kimdan na yaqin qarindoshlaridan, na do'st birodarlaridan yordam bo'lmay aftoda holda yurgan damlarida Obburdan atrofidagi bir buloq boshiga keladi. Boshidan o'tgan voqealarni eslarkan, shu buloq boshida Sa'diyning «Bo'ston»idagi baytlar xayolidan o'tib, uni o'sha buloq bo'yidagi bir toshga yozib qo'yishga qaror qiladi. Mana o'sha bayt:

Shunidamki, Jamshidi farruxsirisht,

Ba sarchashmae bar cange navisht:

«Bar in chashma chun mo base dam zadand,

Biraftand to chashm bardam zadand.

Giriftem olam bo mardiyu zo'r,

Valekin naburdem bo xud ba go'r» [13; 88].

Harraru Bobur 917.

Mazmuni:

Eshitganim borki, Jamsheddek nomdor,

Boshbuloq toshiga yozdirdi yodgor:

«Bu buloq boshida ko'plar tin oldi,

Ko'z yumib ochguncha yitdi-yo'qoldi.

Mardligu zo'rlik-la jahonni oldik

Lekin qabristonga quruq yo'l soldik»

Men Bobur yozdim 1511-12.

Bu satrlardan anglash mumkinki, yosh Bobur fors tilini mukammal bilgan va Sharq mumtoz adabiyotidan yaxshi xabardor bo'lgan. Uning bu kabi falsafiy mazmundagi baytlar yozdirishining boisi, yuqorida aytganimiz, bir tarafdin do'sti No'yon Ko'kaldoshning o'limini unutilmayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan uning ma'naviy mag'lubiyati umidsizlik tuyg'ularini uyg'otgan edi. Yuqoridagi baytlar mazmuniga e'tibor bersak, u dunyoning yarmini egallagan Iskandar Zulqarnayn o'lgandan keyin qo'lini tobutdan chiqarib qo'yishini vasiyat qilgan falsafiy fikrlarga

hamohang keladi. Bobur bu vaqtda garchi hech narsasi yo'q, na mol mulki, na borar joyi bo'lmay turib bu mazmundagi baytni yozdirishi uning hayotiy xulosalari natijasidir desak, yanglishmaymiz. Balki shu lahzalarda Bobur shohlik minnatidan darveshlik qismatini afzal ko'rgan bo'lishi ham mumkin. Sababi u keyinchalik barcha narsaga – hisobsiz mol mulkka, cheksiz hududga ega davlatga erishgan paytlarida ham o'zini darveshona tutgani uni hayotida yuz bergan shu kabi sinovlar, o'zidan oldin o'tgan hukmdorlarning qismati bir umr saboq bo'lgan bo'lishi, ehtimol. Shuningdek, Bobur insondan faqat yaxshi nom, ezgu ishlargina meros qolishi lozimligini anglab etadi, go'yo Alisher Navoiy aytgan:

Bu gulshan ichra ki yo'qdur baqo guliga sabot,
Ajab saodat erur qolsa yaxshilik bila ot.
tarzidagi fikrlariga monand yo'l tutadi.

Ushbu vaziyatdagi holati haqida «Boburnoma»da ma'lumot bergan Bobur o'zining quyidagi baytini keltirib, «Bu matla'ni o'shul ayyomda aytib erdim», - deydi:

Takalluf har necha suratta bo'lsa ondin ortuqsen,
Seni jon derlar, ammo betakalluf jondin ortuqsen [13; 88].

XULOSA

Akademik Aziz Qayumov o'zining dunyoqarashi, badiiy mahorati va tasvirlash uslubidan kelib chiqqan holda «Boburnoma»ga murojaat qiladi. Muhimi, «Boburnoma»ga murojaat qilar ekan, muallif uning eng xarakterli, Bobur shaxsiyatini ochib beruvchi, unga bevosita daxldor bo'lgan voqeliklarga e'tibor qaratadi, qahramonning ichki kechinmalarini yoritib berishga harakat qiladi.

REFERENCES

1. Arat, Reşit Rahmeti [Doğu Türkçesinden Çeviren]. 1987, Gazi Zahirüddin Muhammed Babur. Vekayi Babur'in Hâtirati I, (=Türk Tarih Kurumu Yayinlari II, 5a1), Ankara.
2. Arat, Reşit Rahmeti [Doğu Türkçesinden Çeviren. İzahli İndeksi ve Notlari Hazirlayan], 1987, Gazi Zahirüddin Muhammed Babur. Vekayi Babur'in Hâtirati II, (=Türk Tarih Kurumu Yayinlari II, 5b1), Ankara.
3. Beveridge A.S. The Bābur-nāma in English (Memoirs of Babur), Translated from the Original Turki Text of Zahiru'ddin Muhammad Babur Padshah Ghazi by Annette Susannah Beveridge, 2 Vols., – London, 1922; Repr, in one Volume, – London, 1969; – New Delhi, 1970; – Lahore, 1975.
4. Bacque - Grammont J.L. Le livre de Babur. – Paris, 1980.

5. Zahiruddin Muhammad Babur Mirza. Bâburnâma I, (= Sources of Oriental Languages and Literatures 18), Cambridge: Harvard University Press, USA. Thackston, W.M., 1993.
6. Zahiruddin Muhammad Babur Mirza. Bâburnâma II, (= Sources of Oriental Languages and Literatures 18), Cambridge: Harvard University Press, USA. Thackston, W.M., 1993.
7. Zahiruddin Muhammad Babur Mirza. Bâburnâma III, (= Sources of Oriental Languages and Literatures 18), Cambridge: Harvard University Press, USA.
8. Eiji Mano. Bâbur-nâma (Vaqâyi). Critical Edition Based on Four Chaghatay Texts with Introduction and Notes. – Kyoto, Shōkadō, 1995.
9. Harold Lamb. Babur the Tiger. – New-York, 1961.
10. Вильям Рашбрук. Ўн олтинчи аср бунёдкори. (инглизчадан Гофуржон Сотимов ва Холида Сўфиева ўзбек тилига таржимаси). Тошкент: Шарқ нашриёт матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2011. – 206 б.
11. Гулбаданбегим. Ҳумоюннома. – Тошкент: Фан, - 1959. – 132 б.
12. Гулбаданбегим Заҳириддин Муҳаммад Бобур қизи. Ҳумоюннома. Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг вориси – Ҳумоюн подшоҳнинг воқеалари. Форс тилидан Аҳмад Қуронбеков таржимаси. Тошкент, 2015. – 104 б.
13. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов. Тошкент. Шарқ. 2002. – 335.
14. Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси. Тошкент.: Шарқ. 2014. – 744.
15. Низомиддинов Н.Ф. Буюк бобурийлар тарихи (XVI-XIX аср). Монография. Тошкент.: Fan va texnologiya, 2012 йил. – 516.
16. Румер Годен. Гулбадан. Тошкент: Шарқ нашриёт-матбаа акциядорлик компанияст Бош таҳририяти. 2007. – 175 б.
17. Sulaymonov I.I Analysis of Babur's opinion about Shaybanikhan // Philadelphiya, USA. ISJ Theoretical & Applied Science, 09 (53), 196-200.
18. Sulaymonov I.I. Description of Victorious and Vanquished Man psychology in «Boburnoma» // International Journal of Science and Research (IJSR). – India, 2018. Volume 7. Issue 1. – P. 1220-1223.
19. Sulaymonov I.I. An artistic interpretation of Babur's personality in world literature. Journal of critical reviews. Received: 24 April 2020 Revised and Accepted: 04 July 2020. – P. 6218-6223

20. Сулаймонов И. Роль суфийского ордена накшбандия в формировании и эволюции мировоззрения Бабура // Вестник Таджикского национального университета. – Душанбе, 2019. - №9. – Стр. 154-161.
21. Қаюмов А. Асарлар. 5-жилд. Заҳириддин Муҳаммад Бобур ижодиёти. Т.: Мумтоз сўз, 2009. – 303 б.
22. Muhiddinov M.K. System of Values and Sufis (The Image of Values and Sufis in the First Epics of "Khamsa"). International Journal of Psychosocial Rehabilitation // Vol. 24, Issue 05, 2020. –P. 6702-6712. ISSN: 1475-7192.
23. Mukhitdinova N. Muhammad Goziy and His Leiterary Heritage. Journal of Psychosocial Rehabilitation // ISSN: 1475-7192. Vol. 24, Issue 05, 2020. – P. 6713-6721.
24. Khasanova Mashkhura Jumanovna. The role of praises in the development of turkic odes. .Journal of critical reviews, 2020.07. 948-951.
25. Aslanova H. The concept of features of «Beauty» in the creative heritage of Gadoi. JOURNAL of CRITICAL REVIEWS (ISSN-2394-5125. Vol 7.ISSUE 15.2020. SCOPUS Q4, 6 H index). 2020, pp. 2672-2676.

“GULSHANI DILAFGOR” TO‘PLAMIDAGI SHE’RLAR TASNIFI

Sobir Mansurov

Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti universiteti katta o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada “Gulshani Dilafgor” to‘plamidagi ba’zi she’rlar tasnif qilindi. Shoir she’rlarining aksariyati Furqat, Muqimiy, Hamza, Xislat, Kamiy kabi shoirlarning millatparvarlik va ma’rifatparvarlik g‘oyalari bilan sug‘orilgan lirik asarlari bilan hamohang. Shoirning “Gulshani Dilafgor” to‘plamidagi lirik she’rlar tasnifi shundan dalolat beradiki, Dilafgor o‘zbek mumtoz she’riyatida shoirlarga yo‘ldosh bo‘lib kelgan mavzularni chetlab o‘ta olmagan. U ham o‘zidan oldin qalam tebratgan salafilar an’analarini davom ettirishda o‘z davrining ilg‘or g‘oyalariga tayangan.

Kalit so‘zlar: *Gulshani Dilafgor, g‘azal, devon, na’t, she’r, adabiyotshunoslik, manbashunoslik, matnshunoslik, tasnif, to‘plam, lirik asarlar.*

АННОТАЦИЯ

В этой статье перечислены некоторые стихотворения из сборника Гульшани Дилафгор. Многие стихотворения поэта гармонируют с лирическими произведениями таких поэтов, как Фуркат, Мукуми, Хамза, Хислат, Ками, проникнутыми националистическими и просветительскими идеями. Классификация лирических стихов в сборнике поэта «Гульшани Дилафгор» показывает, что Дилафгор не мог избежать тем, которые сопровождали поэтов в узбекской классической поэзии. Он также опирался на прогрессивные идеи своего времени, чтобы продолжить традиции своих предшественников.

Ключевые слова: *Гульшани Дилафгор, газель, девон, нат, стихотворение, литературоведение, источниковедение, текстология, классификация, сборник, лирические произведения.*

ABSTRACT

This article categorizes some of the poems in the Gulshani Dilafgor collection. Many of the poet's poems are in harmony with the lyrical works of poets such as Furqat, Muqimi, Hamza, Khislat, Kami, imbued with the ideas of nationalism and enlightenment. The classification of lyrical poems in the collection of the poet "Gulshani Dilafgor" shows that Dilafgor could not avoid the themes that accompanied the poets in Uzbek classical poetry. He also relied on the progressive ideas of his time to continue the traditions of his predecessors.

Keywords: *Gulshani Dilafgor, ghazal, devon, nat, poem, literary criticism, source studies, textual studies, classification, collection, lyrical works.*

KIRISH

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yashab ijod qilgan ma’rifatparvar ijodkorlar adabiy merosi dunyoning ko‘plab kutubxonalarida saqlanadi. O‘zbekiston davlat adabiyot va folklor muzeyi qo‘lyozmalar fondi ham xuddi shunday muqaddas dargohlardan biridir. Muzey fondida o‘rta asrlar bilan bir qatorda XIX – XX asrlarda yaratilgan ilm – fan va adabiyotning turli sohalariga oid ko‘pgina manbalar uchraydi.

Ishi o‘tmish bilan bog‘liq har qanday tadqiqotchi bu yerda hali hech kimga ma’lum bo‘lmagan ma’lumotlarni uchratib qolishi tabiiy va odatiy holdir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bizning “Gulshani Dilafgor” asariga duch kelishimiz xuddi shunday “odatiy” hollardan biri bo‘lgandi. “Dilafgor she’rlari “Gulshani Dilafgor” nomi bilan ilk bor kitob shaklida 1914 yili Toshkentda Yakovlev, keyin 1916 yilda G‘ulomiya matbaasida chop etilgan Ikkala nashr bir-birini takrorlaydi. Gulshani Dilafgor” kitobida shoirning g‘azal, murabba’, muxammas, musaddas, qasida, masnaviy, qit’a va chiston janridagi she’rlari kirgan. She’rlar devon talabiga ko‘ra joylashtirilmagan. Bunday holni kitob so‘ngida muallif quyidagicha izohlagan: “Muhtaram mushtariylarimizg‘a ma’lum bo‘lsunkim, ushbu she’ri ojizonam o‘lan “Gulshani Dilafgor”ning agarchi bebahra bo‘lsa ham ahboblarimiz nazarig‘a jilvagar qilduk. Insho olloh, ikkinchi tab’ining bahrlik qilib, ya’ni harf-hijo tartibi birla va “Devoni Dilafgor” ismi ila chof qilsamiz kerak”,-deya umid bildiradi³⁶. Mazkur to‘plam devonga xos adabiy talablar va qonun qoidalarga javob beradimi?

Devon qanday bo‘lishi kerak? Bizga ma’lum bo‘lgan manba va ilmiy adabiyotlarda ko‘rsatilishicha, devon ko‘p hollarda debocha (kirish qismi) bilan boshlanadi. Unda muallif ushbu she’riy to‘plam yozilish sabablari, nomlanishi, uning yozilishida ma’naviy yo moddiy quvvatlab turuvchilar (albatta agar ular bo‘lsa) haqida axborot beradi. “Gulshani dilafgor”da ham nasriy yo sa’jda yozilgan debocha yo‘q. Toshbosma:

*Zihi shohi arab, mohi ajam, ul sayyidi barno,
Xudo Qur’onda aydi vasfinga “Yosin” ilan “Toho”.*

“Gulshani Dilafgor” Nabiy (S.A.V)ga na’t bilan boshlangan.

³⁶ Дилафгор. Гулшани Дилафгор. – Тошкент: Яковлев литографияси, 1914. – Б. 48

Tabiiyki devondagi ketma ketlik gʻazallardan soʻng mustazod, muxammas, tarjiʻband, tarkibband, masnaviy, qasida, qitʻa, muammo, chiston, ruboiy, tuyuq, fard kabi ijodiy tur namunalari “Gulshani Dilafgor” da mavjud emas.

Lekin shoir adabiy merosi ilk manbalar asosida alohida tadqiqot oʻekti sifatida oʻrganilgan emas. Dilafgorning “Gulshani Dilafgor” toʻplamidagi lirik asarlarni adabiyotshunoslik hamda adabiy manbashunoslik va matnshunoslik erishgan soʻnggi yutuqlar asosida tadqiq etish dolzarb ilmiy vazifalardan hisoblanadi.

Dilafgor tarjimai holi va ijodiy merosiga doir maʼlumotlar unchalik koʻp emas. Mavjud manbalar ham mazkur ijodkor faoliyati haqida qisqa xabarlar shaklidadir.

Dilafgor shoir sifatida ancha barkamol lirik asarlar yaratgan. U ham ijodda ustoz soʻz sanʼatkorlaridan ilhomlangan, ularga oʻxshatmalar yozgan, sheʼrlariga taxmislari bogʻlagan. Fuzuliyga oʻxshatma gʻazallar yozgan. Yassaviy, Mashrab, Xislat, Haziniy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Miskin, Kamiy kabi shoirlar ijod namunalari muxammaslar bogʻlagan

Shoir Dilafgor sheʼriyati mavzular boʻyicha tasnif etilsa, adib estetik ideali qanday yoʻsinda oʻsib borganligini kuzatish imkoni tugʻiladi. Shoirning oʻz hisobidan Yakovlev tipografiyasida nashr etilgan “Gulshani Dilafgor” toʻplamiga 23 gʻazal, 20 muxammas, (1 muvashshah), 3 musaddas, (1 tarjeʻband), 1 chiston va 2 fard kiritilgan.

Bu haqda Dilafgor sheʼrlarini nashrga tayyorlagan Adham Mamatqulov va Jaloliddin Joʻraevlarning shoir ijodi yuzasidan bildirgan quyidagi fikrlari ayni haqiqatdir: “Dilafgorning maʼlum sheʼrlari mumtoz adabiyotda shakllangan anʼnaviy janr va mavzularda bitilgan. Ularda Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirgʻoniy, Fuzuliy, Huvaydo, Haziniy kabi ijodkorlar asarlarining taʼsiri seziladi”³⁷. Darhaqiqat, Dilafgor haqiqiy musulmon farzandi, qolaversa, shoir sifatida oʻz salafilariga ergashgan.

“Dilafgor sheʼriyati Haziniy sheʼrlariga yaqin turadi”, – deb yozgan edi Poʻlotjon domla Qayyumiy, shoir ijodiga mumtoz adabiyotimizning qaysi vakili taʼsiri koʻproq ekanligini qayd etib. Qayyumiy domlaning bunday xulosaga kelganini quyidagi omillar bilan bogʻlash mumkin:

*Ishqing oʻtigʻa, jono, bagʻrimni chu dogʻlarman,
Tigʻ ostida oʻlmogʻni Tohir kabi chogʻlarman,
Hajringda Dilafgordek vaslingni soʻrogʻlarman,*

³⁷ Маматкулов А., Жўраев Ж. Дилафгор ва унинг адабий мероси хақида. // Гулшани Дилафгор. – Тошкент.: МУМТОЗ СО‘З. 2011.– Б. 7.

*Naylayki ilojim yo 'q, har ko 'chada yig 'larman,
Tor o 'ldi Haziniyg 'a Farg 'ona tong otg 'uncha.*

Birinchiidan, bu g'azal o'z davrida juda mashhur bo'lgan. Hatto Mirzakalon Ismoiliy ham o'z romanini "Farg'ona tong otguncha" deb nomlagani ham bejiz emas edi. Haziniyning "Farg'ona tong otg'uncha" g'azaliga Dilafgorning muxammas bog'lagani Po'lotjon domla Qayyumiyning yuqoridagi xulosaga kelganiga undagandir, ehtimol. Qolaversa, "Gulshani Dilafgor" to'plami noshirlarining quyidagi xulosalari ham fikrimizni tasdiqlaydi:

"Shubhasiz, Muqimiy, Xislat, Kamiy kabi shoirlar ishtirokidagi adabiy suhbatlar Dilafgor dunyoqarashi, ijodidagi rang-baranglikning shakllanishiga ham zamin bo'lgan. Jumladan, uning asarlarida Muqimiy hajviyoti, Xislat va Kamiylarning millatparvarlik va ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan hamohang misralarni ham uchratamiz"³⁸.

"Gulshani Dilafgor"dagi lirik asarlarni o'rganish asnosida shu narsaga guvoh bo'ldikki, shoir madrasa tahsilini ko'rgan fozil, nuqtadon, she'r ilmidan xabardor inson bo'lib, asarlarida o'z iste'dodi va salohiyatini ko'rsata olgan. Shoir she'riyatining mavzu ko'lami keng va rang-barangdir. Dilafgor lirik asarlarining kattagina qismini g'azallar tashkil qilgan bo'lib, ular ifoda shakli hamda mavzusiga ko'ra ham turlichadir.

Ma'lumki, Dilafgor yashagan davr adabiyotimiz tarixida "Milliy uyg'onish davri" deb yuritiladi. Albatta har bir ijodkor asarida u yashagan davr, muhit qaysidir jihati bilan bo'y ko'rsatadi. Biz bu holni Dilafgor ijodida ham yaqqol ko'rishimiz mumkin. Shunga ko'ra shoir lirik asarlari mavzu ko'lamini *tasavvufiy ruh va mazmuni ifodalovchi, diniy-ma'rifiy, ilm - ma'rifatni tarannum etuvchi, sevgi-muhabbat kuylangan, ijtimoiy muammolar yoritilgan she'rlar* tarzida ajratish mumkin.

Dilafgor Yaratganga chin e'tiqod qilish barobarida o'z gunohlarini kechirishini so'rab munajotlar bitgan:

*G'aribmen, benavoman, g'am bila qadim duto, yo Rab,
Junun dashtida yotgan muztarib holim tabo(h), yo Rab.
Karamlik podshohim, sendin o'zga takyagohim yo 'q,
Tilab matlabni keldim dargahingga men gado, yo Rab.*

³⁸ Маматкулов А., Жўраев Ж. Дилафгор ва унинг адабий мероси ҳақида. // Гулшани Дилафгор. – Тошкент: MUMTOZ SO'Z. 2011. – Б. 7.

Dilafgor bir necha munojotlar turkumini yaratdi. Shoir munojotnomalari ham mumtoz adabiyot vakillari asarlari singari bir qator fazilatlardan xoli emas. Ana shunday xususiyatlardan biri - bandaning chin dunyoga imon bilan borishi masalasidir:

*Tavba qildim, tavbai maqbuli hidoyat aylagil,
Fazli ehsoning man osiyg 'a inoyat aylagil,
Bul munojoti Dilafgorni ijobat aylagil,
Rabbano, fag'firlano, ey Xoliqi har du jahon,
Aylasam rihlat bu olamdin, yiborg 'il boiymon.*

Musulmon Sharqida chahoryori bosafolar aytgan hikmatli gaplari mazmunida asarlar bitish an'anaga aylanganligi ma'lum. Masalan, Hazrati Ali (karamallohu vajhahu)ning "Nasru-l-laoliy" asaridan ilhom olgan mutafakkir shoir Alisher Navoiy o'zining "Nazmu-l-javohir" deya so'z duru javohirlarini tergan. Dilafgor ham Hazrati Abu Bakr Siddiq munojotlariga taxmis bog'lagan. Bu taxmis "*Kech gunohimni bahaqqi Hazrati Odam xalil*", - misrasi bilan boshlanib, shoirning Allohga bo'lgan chin tavbasi, tavallosi, ixlos bilan aytgan munojoti sifatida jaranglaydi.

Dilafgor payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ga chin ummat ekanidan sarvari koinotga bag'ishlab munosib na't bag'ishlaydi. G'azal quyidagi matla' bilan boshlanadi:

*Zihi shohi arab, mohi ajam, ul sayyidi barno,
Xudo Qur'onda aydi vasfinga "Yosin" ilan "Toho".*

Dilafgor ijodining mumtoz adabiyotimiz namunalaridan oziqlanishi tabiiy hol bo'lib, Mashrab she'riyati ham unga behad oziq berganini ta'kidlash kerak. Ma'lumki, Mashrab adabiyotimiz tarixida o'ziga xos yo'nalishda ijod qilgan hamda "Qalandariya" suluki asoschilaridan hisoblanadi. Mashrab ijodi ilohiy ishqni kuylovchi she'riyat ekani ham barchaga ma'lum. Uning:

*Har kishining dardi bo'lsa yig'lasin yor oldida,
Qolmasin armon yurakda etsin izhor oldida,-
g'azaliga Dilafgor quyidagicha tazmin bog'lagan:
Telba ko'nglum ko'z tutar, fursat topib yor oldida,
Aylasam hijron g'amin fil-jumla izhor oldida,*

*O'rtanib kuysam tong ermas, rashkdin ahboblar
G'ayrlar bazmi Skandar tuzsa dildor oldida.*

Vah nechun o'lmay tiriklay, shomdin to subhidam,

Bo 'lsalar doim raqib eli chamanzor oldida.

Dilafgor ijod namunalari ham o'z zamondosh shoirlari she'rlari kabi millat tuyg'usini shakllantirishda o'zgacha ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, uning millat haqidagi she'rlari Hamza, Abdulla Avloniylarning shu mavzudagi she'riyati bilan hamohang:

*Tun-kechalar choyxonada aytib hamisha safsata,
Ko 'k choy ichib, shilqillashib hech ish qilolmaymiz hanuz.*

Yoki yana bir she'rida ilmni tutgan taraqqiyotdan mosivo qolmasligini quyidagicha bayon etadi:

*Simsiz havoda teligrof yurguzdi ilmu fan ilan,
Biz bodparak, bedonadin o 'zga bilolmaymiz hanuz.*

*Ul Yo(v)rupo odamlari ilm yo 'lig 'a aylar jadal,
Bizlar chafan, ko 'krak ochuq, mahram bo 'lolmaymiz hanuz.*

Bu g'azalda Hamza she'rlariga xos hamohanglikni kuzatish mumkin. Ma'lumki, Hamza Hakimzodaning bir qancha ijtimoiy-siyosiy she'rlarida yevropa ilm tufayli borgan sari taraqqiyotga erishayotganligi ta'kidlanadi. Jumladan, shoirning 1914 yilda yozilgan "Vatandoshlarima xitob" she'rida bunday deyiladi:

*G 'aflat uyqusidin ko 'zung och, boq zamona,
Ilm ila maorif tutuni to 'ldi jahona,
Soldi hama millat bu maorifga xazona,
Biz millat etub or ila nomusi bahona,
Na maktaba ilm o 'ldi, na bozorda tijora,
Xushk o 'ldugimiz boisidin bo 'ldi kasolat.³⁹*

Ma'lumki, Hamza ham boshqa jadidlar singari millatni g'aflet va jaholatdan uyg'otishni maqsad-matlab deb bilgan, xalqni basoratga – dunyoga ochiq ko'z bilan qarashga da'vat etgan, ilm ila maorifdan bahra olishga chaqirgan.

Shoir g'azallarida ilohiy muhabbat, so'fiyona sevgi motivlari ham kuylanadi. Shoir aksariyat she'rlarida yer go'zaliga murojaat qilayotgandek bo'lsa ham, aslida Yaratganga bo'lgan sevgisini izhor etadi. Albatta, shu o'rinda "Al-majozu qantaratul-haqiqat" ("Majoz haqiqatga olib boruvchi ko'prikdir") ekanligini unutmazlik lozim:

Darig 'o, umrim o 'tdi, ey pari, hajringda jono deb,

³⁹ Хамза. Ватандошларима хитоб. // Садои Туркистон, 1914 йил 27-сон. (Бу шеър "Ўзбекистон адабиёти ва санъати" газетасининг 1994 йил 11 март сониди адабиётшунос И. Фафуров томонидан эълон қилинган).

Qarong‘u bo‘ldi olam ko‘zlarimg‘a, sho‘xu barno deb.

Bo‘libman misli Majnun, kil tarahhum, yori jononim,

Yutay tokayg‘acha qon laxta-laxta, oh Laylo, deb.

Qo‘yibman ostonangg‘a boshimni, ey jafopesha,

Jahon mahvashlaridin sen pari paykarni a‘lo deb.

Dilafgorning yuqorida ta‘kidlaganimizdek, “majoziy yo‘l bilan boruvchi ilohiy ishq” to‘g‘risidagi baytlari talaygina. Ulardan yana biri quyidagi matla‘ bilan boshlanadi:

Arsai olamda, jono, orazing chun oftob.

Lam‘ai anvor aksing ko‘kda go‘yo mohtob.

Adabiyotimiz tarixida Fuzuliydan bahramand bo‘lmagan turkiy tilli ijodkor bo‘lmasa kerak. Bir vaqtlar Fuzuliyning shirinzabonligidan uning tilida g‘azallar yozish ham urfga kirgan edi. O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov ham Fuzuliy dahosiga tan berib:

Mening shoirligim yolg‘onidir ammo,

Fuzuliy she‘riga oshiqligim rost, -

deb yozgan edi. Dilafgor ham salafлари singari fuzuliyona g‘azallar bitib, ushbu an‘anani qaysidir ma‘noda davom ettirdi. Jumladan, shoirning quyidagi matla‘ bilan boshlanuvchi g‘azali Fuzuliyga o‘xshatmadir:

Go‘zal mahvashlar ichra sen kabi hurliqo bo‘lmaz,

Qiyomingla nechun tashbih qilam tubo raso bo‘lmaz.

Rikobing bo‘sa etmazmi, go‘randa har nuchuk odam,

Ayo, ey ofati davron, saningla podshoh bo‘lmaz...

Xaloyiq bir-birina so‘ylashur husnung ko‘ran hola,

Duoya qo‘l ochib bo‘yla jahonda dilrabo bo‘lmaz.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, “Gulshani Dilafgor” to‘plami noshirlari Dilafgor ijodida Muqimiy, Xislat, Kamiy kabi shoirlarning ta‘siri kuchli bo‘lgan degan xulosalarga kelishsada, aslida shoir she‘riyatining mavzu ko‘lami ancha kengroqdir. Dilafgorning haqiqiy musulmon farzandi sifatida hazrati Abu Bakr Siddiq munojotlariga taxmis bog‘laganligi ham bunga dalildir. Dilafgor g‘azallarida ilohiy muhabbat, so‘fiyona sevgi motivlari ham kuylanadi. Shoir aksariyat she‘rlarida yer go‘zaliga murojaat qilayotgandek bo‘lsada, aslida ularda Yaratganga bo‘lgan sevgisini izhor qiladi.

REFERENCES

1. Дилафгор. Гулшани Дилафгор. –Тошкент: Яковлев литографияси, 1914. – Б. 48
2. Маматкулов А., Жўраев Ж. Дилафгор ва унинг адабий мероси ҳақида. // Гулшани Дилафгор. – Тошкент.: MUMTOZ SO‘Z. 2011.– Б. 7.
3. Ҳамза. Ватандошларима хитоб. // Садои Туркистон, 1914 йил 27-сон. (Бу шеър “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетасининг 1994 йил 11 март сониде адабиётшунос И. Ғафуров томонидан эълон қилинган).

YANGI O‘ZBEKISTON: QADRIYATLAR VA FALSAFIY FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI BO‘YICHA AYRIM MULOHAZALAR

Mustafayev Ulash Utayevich

Termiz davlat universiteti Falsafa kafedrası katta o‘qituvchisi, falsafa fanlari
nomzodi

ulashmustafoyev1957@gmail.com

tel: 998915850657

ANNOTATSIYA

O‘zbekistonda ma‘naviyat-ma‘rifat kengashlari faoliyati va Movarounnahr tarixida davlat rahbarlari va olimlarning jamiyat qadriyatlariga bo‘lgan qarashlari, ilm-ma‘rifatga munosabati borasidagi sa‘yi-harakatlari dalillar bilan keltiriladi. Bu sohada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qabul qilgan qarorlar va Vazirlar Mahkamasining qarorlariga asoslanib xulosalar berilgan. O‘zbekistonda ijtimoiy-gumanitar fanlar tadqiqot ob‘ekti va bu sohada yo‘l qo‘yilayotgan sustkashliklarning dolzarb masalalariga to‘xtalib o‘tilgan. Xususan, yoshlarda vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, ma‘suliyatlilik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi fazilatlarni shaklantirish va uni baholashning ilmiy asoslangan indikatori ishlab chiqishga to‘xaladi. Eng muhimi ijtimoiy-gumanitar fan vakillari bugun zamondan orqada qolayotganiga uchta omil sabab qilib ko‘rsatiladi. Ma‘naviyat-ma‘rifiy va qadriyatlarni o‘lchash indikatori bormi degan savol qo‘yiladi va muallif Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Temir daftar”, “Yoshlar daftari”, “Ayollar daftar” va “Mehr daftar”larini shunday indikator funksiyasini bajarmoqda degan xulosaga keladi. Olimlar bu indikatorning falsafiy va ijtimoiy ahamiyatini ochib berish shart. Jamiyatda shu narsaga ehtiyoj sezilmoqda. Bu vazifani esa faylasuflar, tarixchilar, sotsiologlar, siyosatshunoslar va pedagoglar amalga oshiradi degan xulosaga keladi.

Kalit so‘zlar: *ma‘naviyat-ma‘rifat, ta‘lim va tarbiya, ilm, vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, ma‘suliyatlilik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik, indikator, “temir daftar”, “yoshlar daftari”, “Ayollar daftari”, “Mehr daftari” tushunchalari.*

АННОТАЦИЯ

Доказана деятельность духовно-просветительских советов в Узбекистане и история Movarounnaxra, взгляды руководителей государства и

ученых на ценности общества, их усилия по отношению к науке и просвещению. Выводы основаны на решениях Президента и Кабинета Министров Республики Узбекистан. Обсуждаются объект исследования в области социальных и гуманитарных наук в Узбекистане и актуальные проблемы задержек в этой области. В частности, разработка научно обоснованных показателей для формирования и оценки таких качеств, как патриотизм, предприимчивость, сила воли, идеологический иммунитет, доброта, ответственность, толерантность, правовая культура, новаторское мышление, трудолюбие. Самое главное, есть три причины, по которым социальные и гуманитарные науки сегодня отстают. Возникает вопрос, существует ли индикатор для измерения духовности и ценностей, и автор приходит к выводу, что такими индикаторами служат «Железная книга», «Молодежная книга», «Женская книга» и «Книга милосердия» Президента Шавката Мирзиёева. Ученые должны объяснить философское и социальное значение этого индикатора. В этом есть потребность в обществе. Он заключает, что эту задачу выполняют философы, историки, социологи, политологи и педагоги.

Ключевые слова: *духовность, образование и воспитание, наука, патриотизм, предпринимательство, сила воли, идейный иммунитет, доброта, ответственность, толерантность, правовая культура, новаторское мышление, трудолюбие, индикатор, «Железной книги», «Молодежной книги», «Женской книги», «Книги милосердия» концепции.*

ABSTRACT

The activities of spiritual and enlightenment councils in Uzbekistan and the history of Movarounnahr, the views of state leaders and scholars on the values of society, their efforts to treat science and enlightenment are presented with evidence. Conclusions in this area are based on the decisions of the President of the Republic of Uzbekistan and the Cabinet of Ministers. The object of research in the social sciences and humanities in Uzbekistan and the current issues of delays in this area are discussed. In particular, the development of science-based indicators for the formation and evaluation of such qualities as patriotism, entrepreneurship, willpower, ideological immunity, kindness, responsibility, tolerance, legal culture, innovative thinking, diligence. Most importantly, there are three reasons why the social sciences and humanities are lagging behind today. The question arises as to whether there is an indicator for measuring spirituality and values, and the author concludes that President Shavkat Mirziyoyev's "Iron Book", "Youth Book", "Women's Book" and "Book of Mercy" serve as such indicators. Scientists must explain the philosophical

and social significance of this indicator. There is a need for this in society. He concludes that this task is performed by philosophers, historians, sociologists, political scientists and educators.

Key words: *spirituality-enlightenment, education and upbringing, science, patriotism, entrepreneurship, willpower, ideological immunity, kindness, responsibility, tolerance, legal culture, innovative thinking, diligence, indicator, “Iron Book”, “Youth Book”, “Women’s Book”, “Book of Mercy”.*

KIRISH

Dunyo xalqlari tarixida ma’naviyat va ma’rifat masalalariga har doim alohida e’tibor berib kelingan. Boshqa davlatlardan farqli o’laroq yangi O‘zbekistonda ma’naviyat va ma’rifat masalalari va uning Kengashiga Prezident rahbarlik qiladi. Hududlarda esa viloyat va tuman hokimlari bu ishlarga ma’sul qilib tayinlangan. Bu yangi O‘zbekiston modelidagi alohida o‘rganiladigan dolzarb mavzulardan biri sanaladi. Bugun yangi O‘zbekistonda ma’naviyat va ma’rifat masalalari davlat siyosati darajasida olib borilayotganligiga boshqa xalqlar va ularning siyosatchilari ham qiziqayotganligi bejiz emas. Shuning uchun ham Prezident Shavkat Mirziyoyevning ”...jamiyat hayotining tanasi iqtisod bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir”⁴⁰ degan g‘oyasi yangi O‘zbekiston modelida asosiy ustunlardan biridir. Ya’ni, O‘zbekistonda kuchli iqtisod barpo etish bilan bir qatorda shu yurtda yashayotgan xalqlarning ma’naviy qadriyatlarini e’zozlash hamda boy ma’naviy meroslaridan komil insonni tarbiyalash borasida ulardan oqilona foydalanish demakdir. Bu jarayon esa ma’naviyat va ma’rifat bilan ruyobga chiqadi. Ma’naviyat, ma’rifat, ta’lim va ilm iqtisodga jon, ruh berishi bilangina kuchli iqtisod vujudga kelishi bu isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Agar sharq xalqlari tarixi va turmush tarziga e’tibor berilsa ma’naviyat va ma’rifat, odob va axloq masalalariga davlat rahbarlari ham va mutafakkir olimlar e’tiborsiz qaramagan. Shu jumladan, Movarunnahrda ham bu masala e’tiqodni shakllantirishda asosiy ustun sanalgan. Chunki, e’tiqodni to‘g‘ri shakllantirmay turib kuchli iqtisodni shakllantirish mumkin emas. Iqtisodning zaifligi va ma’naviyat-ma’rifatdagi inson fazilatiga xos bo‘lmagan hatti-harakatlarning ro‘y berayotganligi e’tiqod bilan bog‘liqdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI (ЛИТЕРАТУРНЫЙ ОБЗОР, ANALYSIS OF REFERENCES)

⁴⁰ Шавкат Мирзиёев: Жамият ҳаётининг танаси иқтисодиёт бўлса, унинг жони ва рухи маънавиятдир.19.01.2021.

Bu soha bo'yicha adabiyotlarni tahlil qilinsa, birinchi navbatda buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiyning hayoti va asarlariga alohida e'tibor berish kerak bo'ladi. Chunki, Abu Nasr Forobiy ilm sohasi bo'yicha yetuk dunyo olimlari bilan munozara qilganda 17 yoshda edi. U qadimgi Shom(hozirgi Suriya) hududidagi madrasada o'tkazilgan katta anjumanda falsafa ilmi bo'yicha ma'ruza qiladi. Ma'ruzasi tugagandan so'ng Abu Nasr Forobiyga ishtirokchilardan yetmishta savol tushadi va u kishi savol egalariga ularning ona tili va ular lahjasida arabga arab tilida, yunonga yunon tilida savollariga javob bergan ekan. Shundan so'ng sharq va g'arb olimlari o'rtasida Abu nasr Forobiy 70 tilini biladi degan fikr keng tarqalib ketadi. Yaqin tariximizga nazar solsak, bundan 112 yil avval jadid ma'rifatparvar olimlardan Mahmudxo'ja Behbudiy esa yoshlarga murojaat qilib arab, fors, turk va rus tillarini mukammal o'rganishga da'vat qilgan edi. Chunki, zamon dunyoviy va diniy ilmlarni o'rganish uchun shu tillarni bilishni taqoza qilayotgan edi. Bugun yangi O'zbekistonda uchinchi renessansga poydevor qo'yish maktab ostonasidan boshlanar ekan, xorijiy tillarni o'rganish va bilish, eng so'ngi zamonaviy bilimlarni egallash va texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish uchun tilning ahamiyati muhimdir. Shuning uchun ham qabul qilinayotgan dasturlar azaliy ilmiy, ma'naviy va ma'rifiy qadriyatlarning uzluksiz tiklanishidan darak beradi. Yangi O'zbekistonda falsafiy fanlarni o'qitishda buyuk mutafakkirlarning hayoti va faoliyati, asarlari va bu asarlarning bugungi kun uchun ahamiyatini tarixiy metoddan foydalangan o'rganish yo'lga qo'yilayotganligi fuqarolarda vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, ma'suliyatlilik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi axloqiy fazilatlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga egadir. Jamiyat va undagi qadriyatlar ahamiyati haqida Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri", Abu Rayhon Beruniyning "O'tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar", Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" kabi noyob asarlari va bugungi kunda ijtimoiy-gumanitar olimlar tomonidan iliq kutib olingan va o'z munosabatlarini bildirayotgan muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asari jamiyatshunos olimlar uchun metodik dasturamal bo'lib xizmat qiladi. Faylasuf olimlardan I.Saifnazarov, Q.Nazarov, J.Yaxshilikov, N.Muhammadiyevlar so'nggi besh mobaynida jamiyat qadriyatlariga nisbatan yangicha yondoshuvlar vujudga kelayotganini o'z asarlarida bayon qilishdi.

MUHOKAMA (ОБСЕЖДЕНИЕ, DISCUSSION)

Prezidentimizning 2019 yil 5 martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori

ijrosini ta'minlash uchun 2019 yil 31 dekabrda Vazirlar Mahkamasi 1059-sonli "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"⁴¹ va chora-tadbirlar dasturini qabul qilgan edi. Prezident qarori va hukumat qabul qilgan konsepsiya ijtimoiy gumanitar, xususan falsafiy fanlarni o'qitishda mutlaqo yangicha yondoshuvlarni talab qiladi. Mustaqillik davrida oliy ta'lim muassasalari o'quv rejasining birinchi "gumanitar ijtimoiy – iqtisodiy" fanlar blokida falsafiy fanlar turkumiga kiruvchi falsafa, etika, estetika, mantiq, dinshunoslik, madaniyatshunoslik fanlari o'qitib kelindi. Bu fanlar bo'yicha o'nlab darslik, o'quv qo'llanmalar, monografiyalar va boshqa risolalar chop etildi. Auditoriyalarda minglab ma'ruzalar o'qildi. Bu soha olimlarining komil insonni shakllantirish va tarbiyalash borasida shijoatli mehnatini inkor qilmagan holda shuni ta'kidlash lozimki, bugun o'sha davrda yaratilgan adabiyotlar ma'naviy va ma'rifiy ishlarni ruyobga chiqarishda, yangi O'zbekiston fuqarolarini ma'naviy-axloqiy yetuk qilib tarbiyalashga ojizlik qilib qoldi. Buning bir nechta omillari mavjuddir. Birinchi omil bu o'sha sovetlar davrida shakllangan va o'sha tizim mafkurasiga xizmat qilgan falsafiy fanlardan meros bo'lib o'tgan "quruq nazariy fikrlar"ning ustunligi, ikkinchi omil shu soha vakillarining so'zi va amaliyoti orasidagi tafovutlar, uchinchi omil bu soha vakillari orasida kam sonli bo'lsada poraxo'rlikning mavjudligi falsafiy fanlar qadriga putur yetkazdi. Tarbiya ta'lim muassasalarida ustoz va shogird o'rtasida poraxo'rlikning sodir bo'lishi sharq milliy qadriyatlarida eng jirkanch unsur sifatida qoralab kelingan.*2020-2021 o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim muassasalari o'quv rejalaridagi o'zgarishlarga muvofiq "Majburiy fanlar" blokida bitta Falsafa fani o'qitilmoqda. Bu fan uch model bo'lib, "Falsafa", "Korrupsiyaga qarshi kurash", "Dinshunoslik" kabi tarkibiy bo'limlardan iborat. Fanga ajratilgan auditoriya soatlar hajmi 60 soat, ayrim ta'lim yo'nalishlarida esa 30 soatni tashkil etmoqda. Talabaga 60 yoki 30 soat hajmda(50/50) mustaqil ta'lim topshiriqlari berilgan. Ayrim oliy ta'lim muassasalari o'quv rejasida bu fan mavjud emas. Jamiyatda inson va uning qadri, inson turmushi bilan bog'liq milliy va diniy qadriyatlarni saqlash, "ommaviy madaniyat"ning salbiy xurujlaridan muhofazalash hamda bugungi kundagi internet tizimi bilan kirib kelayotgan qadriyatlarimizning devalvatsiyasiga(qadrlanish va qadrsizlanish) fuqarolarda tanlash, saralash qobiliyatni shakllantirishda ijtimoiy gumanitar fanlar, xususan falsafiy fanlarning ahamiyatini inkor etib bo'lmaydi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev "Milliy ma'naviyatimizni rivojlantirish, uni xalqimiz, ayniqsa yoshlarimiz hayotiga singdirishda ijtimoiy- gumanitar fanlar tizimining

⁴¹ Узлуksиз маънавий тарбия концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида .ВМ 1059-сонли қарори.2019 йил 31 декабрь

ahamiyati katta. Afsuski, hozirgi vaqtda bu fanlar rivoji, ular mansub ilmiy-amaliy va ta'lim-tarbiyaviy tizimni yangilash va optimallashtirish jarayoni zamondan ortda qolmoqda. Ayni paytda ijtimoiy fanlarni ta'lim bosqichlari va ixtisosliklar talablari va tamoyillariga mosligi, o'quvchilar, bakalavrlar va magistrnlarning ehtiyojlari va qiziqishlari, kasb xususiyatlariga muvofiqligi haqidagi aniq tasavvurlar ham yo'q"⁴² deb ta'kidladi. Ijtimoiy gumanitar fanlar, jumladan falsafa fan vakillari oldida turgan eng dolzarb vazifalarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va unin amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi dasturida aniq ko'rsatib qo'yilgan. Eng dolzarb masalaning **birinchisi** bu ma'naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorini ishlab chiqish bo'lsa; **ikkinchisi** esa ma'naviy tarbiyada uzluksizlik va uzviylik tamoiyiga amal qilib ona homiladorligidan tortib to 30 yoshgacha ma'naviy tarbiyaning yo'nalishlarini belgilab olish; **uchinchisi** esa vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlik, mas'uliyatlik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovasion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim qadriyatlarni bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish vazifa qilib qo'yilgan. Bu jarayonlar avvalo oilada, mahallada, maktabgacha, umumiy o'rta va kasb-hunar ta'limi tizimida va nihoyat oliy ta'lim muassaslarida amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan. Yuqoridagi ma'naviy-ma'rifiy tarbiya jarayonlari va ularni baholash uchun indikatorlarni ishlab chiqishga oid ijtimoiy gumanitar fan vakillari faylasuflar, tarixchilar, sotsiologlar va siyosatshunoslar hamda pedagoglarning mavzuga oid adabiyotlarga nisbatan jamiyatda ehtiyoj sezilmoqda. O'zbekiston Fanlar akademiyasining tarmoq sohasi bu jarayon uchun olimlarning salohiyatini birlashtirishi lozim bo'lmoqda. Endi masalaning ikkinchi bir tomoni bor. Tabiiy va aniq fanlarda narsa va hodisaning xususiyatini yoki mohiyatini aniqlash uchun indikator o'lchovidan foydalanish hech kimni ajablantirmaydi. Jumladan, elektr tokining kuchini aniqlash uchun eng oddiy buyumlardan foydalanishni har qanday fuqaro ham biladi. Ammo, ijtimoiy gumanitar fanlar tadqiqot ob'ekti bo'lgan ma'naviy -ma'rifiy va qadriyatlarni baholaydigan yoki o'lchaydigan indikatorni yaratish mumkinmikan degan savol paydo bo'lmoqda. Agar mumkin bo'lsa, buning yechimiga olimlar ikki yil bo'layaptiki taklif bermay sukut saqlab turibdi. Bu sohadagi muammoli vazifalarga ham Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan boshlangan va bugun komil ishonch bilan ruyobga chiqarilayotgan "Temir daftar", "Yoshlar daftari", "Ayollar daftari", "Mehr daftari" kabi dasturlar jamiyatda ma'naviy-axloqiy muhitni sog'lomlashtirib, ma'naviy-ma'rifiy va milliy hamda

⁴² Шавкат Мирзиёев Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент: -"O'zbekiston" нашриёти, 2021. 270 бет.

8. Қорақалпоғистон Республикаси Қишлоқ ва сув хўжалиги бошқармаси ва унинг тизимидаги корхона ва ташкилотлари йиллик ҳисоботлари (2015–2020 йй).

VENCHUR KAPITALI IQTISODIYOTNI INNOVASION RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA

Chulliyev Suhrob Rabbonaqlovich

Navoiy davlat pedagogika instituti, Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari
kafedrası katta o'qituvchisi

suhrobchulliyev@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada venchur kapitalining afzalligi, funksiyalari va o'ziga xos xususiyatlari nazariy jihatdan tadqiq qilindi. Uning iqtisodiyotda innovatsiyalarni moliyalashtirishdagi roli o'rganildi.

Tayanch so'zlar: Venchur investitsiya, venchur kapitali, innovatsiya, risk.

АННОТАЦИЯ

В статье теоретически исследуются преимущества, функции и особенности венчурного капитала. Изучена его роль в финансировании инноваций в экономике.

Ключевые слова Венчурные инвестиции, венчурный капитал, инновации, риск.

ANNOTATION

This article theoretically explores the advantages, functions and specific features of venture capital. Its role in financing innovation in the economy has been studied.

Key words Venture investment, venture capital, innovation, risk.

KIRISH

Zamonaviy sharoitlarda innovatsion faoliyatni rivojlantirishga kapital oqimini ta'minlashga qodir innovatsiyalarni moliyalashtirishning asosiy manbai venchur investitsiyalari hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlar venchur kapitalidan innovatsiyalarni moliyalashtirish vositasi sifatida foydalanib samarali natijalarga erishgan.

O'zbekiston uchun venchur kapitali orqali moliyalashtirish sinalmagan soha hisoblanadi. Mamlakatda faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yanada yaxshilashga to'sqinlik qiluvchi bir qator tizimli muammolar mavjudligi ularning yechimi bo'yicha hukumat tomonidan bir qator qaror va farmonlarining ishlab chiqilishiga olib keldi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 yanvardagi "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor

yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovatsion gʻoyalar va texnologiyalarni qoʻllab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi toʻgʻrisida"gi PF-5308-son farmoni, "Faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida"gi 2018 yil 5 maydagi PQ-3697-sonli qarorining, 2018 yil 21 sentyabrdagi PF-5544-sonli farmoniga asosan 2019-2021 yillarda Oʻzbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasi qabul qilinishi, Innovatsion rivojlanish va novatorlik gʻoyalarini qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmasi shakllantirilishi mazkur yoʻnalishdagi muhim bosqichlardan biri boʻldi.

Mazkur tadqiqotimizning maqsadi, Oʻzbekiston innovatsion iqtisodiyotini rivojlantirishda venchur kapitalidan foydalanish amaliyotining afzalliklarini oʻrganish, tahlil qilish, venchur moliyalash samaradorligini oshirishga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW)

Venchur kapitaliga aniq bir yondashuv, uning foyda olish uchun tadbirkorlik faoliyatida qoʻllaniladigan venchur kapitalining pul shaklidagi qiymati ifodasining oʻsishini koʻrsatuvchi taʼrif 20-asrning mashhur iqtisodchilari boʻlgan Dj.M.Keyns va Dj.R.Xiks [1,2] ishlarida oʻz ifodasini topgan.

Y.V. Vranovich va O.Y. Michurinalar tadqiqot ishida venchur kapitalini iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning instrumenti sifatida qarashgan. [17]

M.A. Fedotov [5] oʻz ishida venchur moliyalashtirishni innovatsion rivojlanishning asosiy omili sifatida taʼriflagan.

Oʻzbekistonlik olimlar O.M. Abdullayev, A.A. Fattaxov, K.Axmedovlar [6] oʻz ishlarida venchurli kapitalni firmaning innovatsion faoliyatini tijorat asosida moliyalashtirishning manbalaridan biri sifatida qarashgan.

D.Gʻ. Gʻozibekov [7] oʻz tadqiqot ishida venchur kapitalni katta risklar bilan bogʻliq boʻlgan, yangi faoliyat sohalarida yangi aksiyalar chiqarish deb talqin qilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY)

Mazkur maqolada venchur kapitali tushunchasini va uning oʻziga xos xususiyatlarini tahlil qilish, qiyoslash, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS)


Zamonaviy iqtisodiyot rivojlanishining oʻziga xos xususiyati innovatsion mahsulot ishlab chiqaruvchi kichik va oʻrta biznes korxonalarini yanada oshirish hisoblanadi. Mazkur kategoriyadagi muvaffaqiyatli korxonalar sonini faol oshirish

uchun ularni paydo bo'lishi va rivojlanishining ilk bosqichlarida moliyalashtirish muhim hisoblanadi. Innovatsion faol korxonalar rivojlanishining ilk bosqichlarida moliyalashtirish uchun yuqori riskli instrument hisoblanadi. Shu bois bunday korxonalariga moliyalashtirishning an'anaviy shakllari qo'llanilmaydi.

Innovatsion korxonalarni moliyalashtirishning an'anaviy shakllariga xos bo'lgan cheklovlar venchur kapitali kabi innovatsion shakl yordamida olib tashlanadi. [8, 25 b]

Tadqiqotlar natijasida venchur kapitali bu – rivojlanayotgan innovatsion kompaniyalar rivojining turli bosqichlarida bir vaqtning o'zida boshqaruvida ishtirok etgan holda ustav kapitaliga kiritiladigan uzoq muddatli investitsiyalarning an'anaviy-innovatsion shaklidir. Bu kompaniyalar yuqori riskli, lekin potensial yuqori daromad keltiruvchi kompaniyalar bo'ladi. "Venchur" atamasi inglizcha venture so'zidan olingan bo'lib, "riskli korxonalar yoki tashabbus" ma'nosini beradi. [10, 232 b]

Ilmiy adabiyotlar o'rganilib, 1-rasmda venchur kapitalining quyidagi funksiyalarini ajratib ko'rsatishimiz mumkin.



1-rasm. Venchur kapitalining asosiy funksiyalari.

Manba: muallif tomonidan ilmiy adabiyotlar tahlilidan manbalar asosida tuzildi.

Venchor kapitalining asosiy funksiyalaridan biz uning innovatsion va investitsion funksiyalarini iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishda ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida qarashimiz mumkin.

Innovatsion funksiyasi. Venchor kapitali iqtisodiyotning innovatsion transformatsiyalashuvi omili sifatida namoyon bo'ladi, innovatsion va ish faolligini jadallashtirishga yordam beradi, shuningdek innovatsion transformatsiyalashuv orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.

Investitsion funksiyasi. Venchor kapitali yuqori texnologiyali yangi innovatsion kompaniyalar faoliyatini moliyalashtirish uchun mo'ljallangan. Venchor kapitali yuqori riskli investitsiyalar shakli sifatida bunday kompaniyalarning faol rivojlanishi, o'sishi va shakllanishiga yordam beradi. Venchor investitsiyaning pirovard maqsadi loyiha muvaffaqiyatli amalga oshgan taqdirda foyda olish hisoblanadi.

Venchor kapitalining asosiy o'ziga xos xususiyatlarini 2-rasmda ko'rib o'tishimiz mumkin:



2-rasm. Venchor kapitalining o'ziga xos xususiyatlari.

Manba: muallif tomonidan ilmiy adabiyotlar tahlilidan manbalar asosida tuzildi.

Bizning olib borgan tadqiqotimiz yoʻnalishi boʻyicha venchur kapitalining oʻziga xos xususiyatlari orasida innovatsion loyihalarga yoʻnalganligini alohida koʻrishimiz mumkin. Chunki, venchur kapitalining ilmiy-texnik taraqqiyot bilan bogʻliqligi mablagʻlarning iqtisodiyotning innovatsion sektoriga yoʻnaltirilganligida namoyon boʻladi.

Venchur kapitali tushunchasining ajralmas tarkibiy qismi risk hisoblanadi. Risk venchur mablagʻlardan kutiladigan daromad bilan toʻgʻridan-toʻgʻri bogʻliq. Venchur kapitalisti innovatsion loyihani moliyalashtirishda oʻziga qancha koʻp riskni olsa, uning muvaffaqiyatli amalga oshishi natijasida shuncha koʻp daromad olishni kutadi.

Investitsiya loyihasini amalga oshirishda venchur kapitalining oʻziga xos xususiyati “yuqori risk – yuqori daromad” tamoyili hisoblanadi. Bu uni bank orqali moliyalashtirish va strategik moliyalashtirishdan farqlaydi.

Venchur kapitalining moliyalashtirishning boshqa turlaridan asosiy farqlari:

1. Venchur moliyalashtirishda kapital qoʻyuvchilar kiritilgan investitsiyalar yoʻqotish imkoniyatini va loyiha muvaffaqiyatli amalga oshgan taqdirda daromadning yuqori normasini oldindan baholaydilar.

2. Venchur moliyalashtirishda kapitalni oʻrtacha uch yildan besh yilgacha va undan ortiq vaqtga uzoq muddatli moliyalashtirish koʻzda tutiladi.

3. Moliyalashtirishning kredit shaklidan farqli ravishda venchur kapitali loyihaga ustav kapitaliga badal koʻrinishida investitsiyalanadi.

4. Venchur kapitalisti strategik sherigidan farqli ravishda kompaniya aksiyalari nazorat paketining egasi boʻlishni nazarda tutmaydi.

5. Venchur kapitalisti loyihaning muvaffaqiyatli amalga oshishidan shaxsan manfaatdor. Shuning uchun u loyiha rivojlanishi samaradorligini oshirish uchun tez-tez turli xil maslahat, boshqaruv va boshqa xizmatlarni koʻrsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS)

Shunday qilib, venchur kapitali tushunchasini va iqtisodiy mohiyatini oʻrganib, shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, venchur kapitali rivojlanishning innovatsion yoʻliga moʻljallangan iqtisodiyotning shakllanishida asosiy rol oʻynaydi. Bunga venchur kapitalini investitsiyalarning boshqa muqobil manbalari bilan solishtirgandagi alohida oʻziga xos xususiyatlari - rivojlanishi va shakllanishining dastlabki bosqichlaridagi innovatsion korxonalar kabi yuqori riskli obʻektlarga yoʻnaltirilishi evaziga erishiladi. Bunda venchur kapitali oʻz gʻoya va tashabbuslari muvaffaqiyatli amalga oshgan va kerakli moliyalashtirilgan taqdirda ilm talab mahsulot va xizmatlarga ishlov berish va ishlab chiqish hisobiga iqtisodiyotni innovatsion modernizatsiyalashga yordam beradi.

REFERENCES

1. Keynes J.M. Alternative Theories of the Rate of Interest//Economic Journal. – 1937. – June
2. Дж. Р. Хикс Стоимость и капитал. –М.: Изд.группа «Прогресс», 1993. - 488 с.
3. Gompers, Paul, and Josh Lerner. 2001. "The Venture Capital Revolution." Journal of Economic Perspectives, 15 (2): 145-168.
DOI: 10.1257/jep.15.2.145
4. Ю.П. Аммосов Венчурный капитализм: от истоков до современности. СПб.: РАВИ, 2004. – 372 с.
5. М.А. Федотов [HTML] Венчурное инвестирование как основополагающий фактор инновационного развития.// - Век глобализации, 2010 - cyberleninka.ru. (дата обращения 25.04.2020 г.)
6. Абдуллаев О.М., Фаттахов А.А., К.Ахмедов. Рақамли иқтисодиёт. – Т.:”LESSON PRESS” нашриёти 2020 йил. -686 бет. Ўқув қўлланма. Б. 518, 520-521, 530-531, 624-625.
7. Ғозибеков Д.Ғ. Инвестицияларни молиялаштириш муаммолари.//Иқтисод фанлари доктори илмий даражасини олиш учун диссертация 08.00.07.-Молия, пул муаммоси ва кредит. –Т.: 2002. Ўзбекистон Республикаси банк молия академияси. Б.18-19.
8. Белая книга. Приоритеты для прямого инвестирования в России. – СПб.: РАВИ, 2009.
9. Приходина Ю., Караева Э. Венчурные инвестиции: зона высокого риска и огромных доходов // РЦБ. – 2007. – № 4. – С. 19-20.
10. Жданова И.Ф. Русско-английский экономический словарь. –М.: Рус. яз., 1999. С. 880
11. Конкурентоспособность России в глобальной экономике. – М.: Международные отношения, 2007. – С. 120
12. Балабанов И.Т. Риск-менеджмент.М.:Финансы и статистика, 1996. – С.21,28
13. Национальная система венчурного инвестирования /А.Т.Каржаув, А.Н.Фоломьев. –М.:ЗАО Издательства “Экономика”, 2006. –С.28.
14. Семенова Е. Возможности инновационного типа развития//Экономист. – 2006. -№3. –С. 14-26
15. <https://www.nvca.org> – АКШ миллий венчур капитали ассоциацияси сайти.

16. <http://www.evca.co.uk> – Европа венчур капитали ва тўғридан-тўғри инвестициялаш ассоциацияси сайти.
17. Вранович Е.В., Мичурина О.Ю. Венчурный капитал в инновационном развитии экномики//Актуальные проблемы экономики и права. – 2013. - №4(28). –С. 113-118.

FARG‘ONA VILOYATI AHOLISINI ELEKTR ENERGIYASI TANQISLIGINI BARTARAF ETISHDA MIKRO-GESLARDAN FOYDALANISH

**U.S. Rustamov, E.J. Alixonov, A.X. Erkaboyev, S.X. Isroilova,
A.R. Boymirzayev**

Farg‘ona politexnika instituti

E-mail: saroylik@mail.ru

ANNOTATSIYA

Maqolada Farg‘ona viloyati gidrotexnika inshootlarida o‘rnatilgan ekologik toza elektr energiyasi ishlab chiqaradigan mikro-GES qurish taklif etiladi. Iste‘molchilarni elektr energiyasi va issiqlik bilan ta‘minlash uchun mikro-GES yaratish imkoniyatlari ko‘rsatilmoqda. Mikro-GESning past bosimli blokini o‘rganish natijalari keltirilgan.

***Kalit so‘zlar:** Mikro-GES, gidroinshootlar, past bosimli blok, asinxron dvigatel, gidroagregat, avtomatik boshqaruv tizimi.*

АННОТАЦИЯ

В статье предложена микро-ГЭС, вырабатывающая экологически чистой электроэнергии, устанавливаемой в гидротехнических сооружениях Ферганской области. Показана возможность создания микро-ГЭС для электроснабжения и теплоснабжения потребителей. Приведены результаты исследования низконапорного агрегата микро-ГЭС.

***Ключевые слова:** микро-ГЭС, гидротехнические сооружения, низконапорный блок, асинхронный двигатель, гидроагрегат, система автоматического регулирования.*

ABSTRACT

The article proposes a micro hydroelectric power station that generates environmentally friendly electricity installed in the hydraulic structures of the Fergana region. The possibility of creating micro hydroelectric power stations for electricity and heat supply to consumers is shown. The results of a study of a low-pressure unit of micro-hydroelectric power stations are presented.

***Keywords:** micro hydroelectric power station, hydraulic structures, low-pressure unit, induction motor, hydraulic unit, automatic control system.*

KIRISH


O‘zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirish strategiyasi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston

Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli farmoniga muvofiq, yoqilg'i-energiya balansini diversifikatsiya qilish, shuningdek elektr va issiqlik energiyasini dekarbonizatsiyalash jarayonini va umuman Respublika energetika tizimi va iqtisodiyot tarmoqlari faoliyati jarayonini yanada optimallashtirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida qaralmoqda.

O'zbekistonda "Qayta tiklanadigan energiya bo'yicha xalqaro agentlik ustavini (Bonn, 2009-yil, 26-yanvar) ratifikatsiya qilish to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Bu hujjat jahon tendensiyalari va standartlariga mos ravishda energetikani rivojlantirish bo'yicha yanada kengroq vazifalarni hal qilishga yo'l ochdi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 14-sentabrdagi "Mikrohidroelektrostansiyalarni qurish bo'yicha tajriba loyihalarini amalga oshirish hisobiga respublikaning gidroenergetikadan foydalanish salohiyatini kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 724-sonli qarori mikro-GESlar qurilishi bo'yicha tajriba loyihalarini amalga oshirishni nazarda tutadi.

MUXOKAMA NATIJALARI

Farg'ona viloyati sezilarli suv zaxiralariga ega. Bu yerda Sirdaryo va kichik daryolar - Isfara, So'x, Shaximardansoy va Isfayramsoy Olay tizmasidan pastga oqib tushgan va Sirdaryoga yetib bormagan. Norin daryosidan Katta Farg'ona, Janubiy Farg'ona, shuningdek Katta Andijon kanallari va boshqa ko'plab yirik sug'orish tarmoqlari kelib chiqadi.



1-rasm. Mikro-elektrostansiyalarni o'rnatish uchun Farg'ona viloyatining mavjud suv resurslari xaritasi.

Marg'ilonsoyning gidrologik ko'rsatkichlari

- | | | |
|-------------------------|---|-------------------------|
| 1. Qurilish yili | – | 1917 yil |
| 2. Uzunligi | – | 17,26 km |
| 3. Suv o'tkazuvchanligi | – | 50 m ³ /sek. |

4. Suv taqsimlovchi bo'g'inlar	–	12 dona
5. Hidropostlar	–	14 dona
6. Sharsharalar	–	2 dona
7. O'rtacha yillik suv oqimi	–	3,5-4 m ³ /s
8. O'rnatilgan Mikro-GESlar soni	–	20 dona
9. O'rnatilgan Mikro-GESlarning quvvati	–	1000 kVt/s

Gidroagregatlarning texnik ko'rsatkichlari

1. Hidrotubina diametric	–	2200-4000 mm
2. Hidrotubinaning kengligi	–	1500-2200 mm
3. Generator kuchlanishi	–	200/400 V
4. Aylanishlar soni	–	1500 rpm
5. Mikro-GES quvvati	–	50 kVt soat
6. Ishlash muddati	–	20 yil

Farg'ona viloyatidagi kichik kanallar, nasos stansiyalari va artezianlarning gidrologik ko'rsatkichlari


1. Kichik kanallarga o'rnatilgan Mikro-GESlar	–	123 dona
2. Suv tezligi	–	1,5-2 m/s
3. O'rnatilgan Mikro-GESlarining quvvati	–	6150 kVt/s
4. Artezianlar soni	–	500 dona
5. Suv tezligi	–	3-4 m/s
6. O'rnatilgan Mikro-GESning quvvati	–	7500 kVt/s

Mikro-GES o'rnatiladigan ariq-soydagi hudud tabiati, suv oqimi miqdori, atrofdagi ekin maydonlarining kichik miqdordagi suv ko'tarilishida zaxlamasligi, suvda yashovchi jonivorlarning ko'payish davri kabi omillarni e'tiborga olish hamda ekotizimni toza saqlash katta ahamiyatga ega. Shuningdek, mikro-GES ichiga turli chiqindi va oldiga shox-shabba, turli tashlangan chiqindilardan ekranlovchi qurilma o'rnatilishi kerak.

Gidroturbinaga kiruvchi suv miqdorini stabil boshqarish tizimi kiruvchi suv regulyatori, to'xtatish tizimi va gidroturbinadan chiquvchi suvni tortish qurilmasini o'z ichiga oladi. Ushbu qurilmalar sodda, oson ta'mirlanadigan bo'lishi bilan bir qatorda ixcham va tannarxining arzon, texnik tomondan yasash qulay bo'lishi zarur.

Biz taklif etayotgan charxpalak tipidagi Mikro-GES shunlarni inobtga olgan xolda suv jonivorlariga zartar yetkazmali. Asosiysi esa suvda oqib keluvchi turli

chiqindi va oldiga shox-shabba, turli tashlangan chiqindilarni to‘shib qolib Mikro-GES chumilariga ilinib qolish oqibati yuzaga qeladiga texni nozoliklarni olidin oladi.



1-rasm. Mikro-GESni umumiy ko‘rinishi.



2-rasm. Mikro-GES ni qurilish jarayoni.



3-rasm. Mikro-GESni ishlash jaryoni.

Mikro-GESning kinematik parametrlari

1. Hidro agregat diametri	–	D = 4000 mm;
2. Kengligi	–	V = 1500 mm;
4. Parraklar soni	–	18 ta
3. Hidroagregat vali aylanish soni	–	n = 10 ayl/min;
4. Tasmali uzatma uzatish soni	–	U ₁ = 6;
5. Reduktor uzatish soni	–	U ₂ =24
6. Umumiy uzatish soni	–	U=133
7. Generator aylanish soni	–	n = 1500 ayl/min
8. Generator quvvati	–	N = 50 kv

Mikro-GESlarni qurish uchun, erkin oqimli yoki 1 dan 10 m gacha suv sarfi 0,2 kub metr (200 l/s) bosim bilan oquvchi kichik suv xavzalaridan foydalanish mumkin. Suv bosimi daryo bo'yiga suv to'sish moslamasini o'rnatish, burilish kanalini, bosim havzasini va suv ta'minoti bosimi quvurini qurish orqali hosil qilinadi.

Bunday natijalar bilan olingan elektr energiya Farg'ona shahar Kashtanzor ko'chasini yoritish maqsadida qo'llanilgan.

XULOSA

Xozirgi kunda elektr energiyaga bo'lgan extiyojni ortib borishini inobatga olgan holda aholini uzliksiz elektr energiya bilan ta'minlash uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalari Mikro-GESlardan foydalanish eng samarali yechimlardan biridir.

REFERENCES

1. Khurshidjon, Y., Azamjon, T., Abdullajon, K., & Xusniddin, S. (2020). Transition photoelectric processes in a superfluid gas-discharge cell with semiconductor electrodes. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 100-109.
2. Рустамов, У. С. (2019). Микро-ГЭС для индивидуальных потребителей. *Евразийский Союз Ученых*, (11-4 (68)).
3. Умаралиев, Н., Матбабаев, М. М., & Эргашев, К. М. (2020). Установка для изучения оптоэлектронного датчика влажности воздуха. *Известия высших учебных заведений. Приборостроение*, 63(3), 237-241.
4. Эргашев, С. Ф., Рустамов, У. С., Кулдашев, А. Х., Тиллябоев, Т. Н., & Орипов, А. (2019). Микро-ГЭС мощностью 5 Квт для индивидуальных потребителей. *Известия Ошского технологического университета*, (2), 168-170.
5. Jamoldinovich, A. E. (2020). The importance of metrology and standardization today Alikhonov Elmurod. *International scientific and technical journal "Innovation technical and technology"*, 1(4), 1-3.

6. Otakulov, O. X., Ergashev, S. F., Kuldashov, O. X., & Rustamov, U. (2020). Modeling of geothermal Micro-GES. *Scientific-technical journal*, 24(2), 89-93.
7. Yuldashev, K. T., Akhmedov, S. S., & Ibrohimov, J. M. (2020). Damping cell from gallium arsenide with plasma contacts in an extreme gas discharge cell. *Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers*, 16(1), 36-41.
8. Эргашев, К. М., & Иброхимов, Ж. М. Особенности газового разряда при малых межэлектродных расстояниях в ионизационной системе. *Евразийский союз ученых (ЕСУ)*, 59.
9. Obidov, J. G., & Alixonov, E. J. (2021). Organization of the education process based on a credit system, advantages and prospects. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 1149-1155.
10. Эргашев, С. Ф., Рустамов, У. С., Абдурахмонов, С. М., & Кулдашов, О. Х. (2020). Автоматизированная система управления водными ресурсами на основе элементов компьютерной автоматики.
11. Алихонов, Э. Ж. (2021). Определение линейной плотности хлопковые ленты фотоэлектрическим методом. *Universum: технические науки*, 11(92).
12. Рустамов, У. С. (2020). Математическое и компьютерное моделирование Микро-ГЭС башенного типа. *Экономика и социум*, (12), 58-62.
13. Мамасадилов, Ю., & Алихонов, Э. Ж. (2021). Оптоэлектронное устройство для контроля линейной плотности хлопковых лент с функциональной разветкой. *Universum: технические науки*, 10(91).
14. Ergashov, K. M., & Madmarova, U. A. (2020). Technics of the infra-red drying of farm products. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 1351-1355.
15. Obidov, J. G., & Ibrohimov, J. M. (2021). Application and research of energy-saving lighting devices in engineering networks. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 1370-1375.
16. Мамасадилов, Ю., & Алихонов, Э. Ж. (2021). Оптоэлектронное устройство для контроля линейной плотности хлопковых лент с функциональной разветкой. *Universum: технические науки*, 10(91).
17. Yuldashev, K. T., & Akhmedov, S. S. (2021). Physical properties at the contact semiconductor-Gas discharge plasma in a thin gas discharge cell. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(9), 569-573.
18. Ergashov, K. M., & Madmarova, U. A. (2020). Research of metrological characteristics optoelectronic of devices for control of humidity of installations. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 1337-1341.

19. Khurshidjon, Y., Abdumalikovna, A. Z., Muminovna, U. G., & Mirzasharifovna, Q. G. (2020). The study of photoelectric and photographic characteristics of semiconductor photographic system ionisation type. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 72-82.
20. Боймирзаев, А. Р. (2019). Особенности свечения разряда в полупроводниковом газоразрядном преобразователе ИК-изображения. *Евразийский союз ученых*, (10-5), 19-20.
21. Xabibulloqli, E. A., & Abdukarimovna, M. U. (2021). Assesment of metrological reliability of measurements using the method of producing functions. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(8), 520-528.
22. Yuldashev, K. T. (2019). The study of processes current gain in a "Semiconductor-gas-discharge GAP" system. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(7), 13-17.
23. Yuldashev, K., Akhmadaliev, B., Ahmedov, S., & Ergashov, K. (2020). Analysis of kinetics of image formation on bismuth films under action of gas discharge. *Theoretical & Applied Science*, (4), 839-843.
24. Ibrokhimov, J. M. (2021). Features of methods of optimising calculation of parameters the combined solar power installations. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 1043-1047.
25. Obidov, J. G. O. (2020). About safety technique and issues of supplying electricity of the textile industry. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(9), 123-127.
26. Абдумаликова, З. И. (2019). Исследование кинетика пробоя в газоразрядной ячейке с полупроводниковым электродом. *Евразийский союз ученых*, (10-5), 14-18.
27. Yuldashev, K. T., Akhmedov, S. S., & Ibrohimov, J. M. (2020). Damping cell from gallium arsenide with plasma contacts in an extreme gas discharge cell. *Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers*, 16(1), 36-41.
28. Mamasadikov, Y., & Mamasadikova, Z. Y. (2020). Optoelectronic device for remote control of hydrocarbon concentration in air. *Scientific-technical journal*, 3(6), 3-7.
29. Yuldashev, H. T., & Mirzaev, S. Z. (2021). Investigation of background radiation and the possibility of its limitation in a semiconductor ionization system. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 1364-1369.

30. Kuldashov, O. H., Umaraliev, N., & Ergashev, K. M. (2021). Stabilization of the parameters of a two-wave optoelectronic device. *Scientific-technical journal*, 4(2), 51-61.
31. Ibrokhimov, J. M. (2020). Application of the solar combined systems consisting of the field of flat and parabolocylindrical collecting channels for hot water supply of the industrial factories. *Academicia: An international multidisciplinary research journal*, 10(12), 1293-1296.
32. Alikhonov, E. J. (2021). Determination of linear density of cotton ribbons by photoelectric method. *Science and Education*, 2(11).
33. Эргашев, К. М., & Мадмарова, У. (2018). Компьютерная модель микро-ГЭС с использованием потенциальной энергии геотермальных вод. In *Современные технологии в нефтегазовом деле-2018* (pp. 376-379).
34. Mamasodikov, Y., & Qipchaqova, G. M. (2020). Optical and radiation techniques operational control of the cocoon and their evaluation. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 1581-1590.
35. Kizi, M. S. H. Разработка системы менеджмента качества на промышленном предприятии development of a quality management system at an industrial enterprise.
36. Turgunov, B. M., & Muminov, N. S. (2019). Principles of assessment and management of quality systems in industrial enterprises. *Точная наука*, (44), 5-14.
37. Шаймардонович, Ж. Ҳ. (2020). Сиғим электродли дон ва дон маҳсулотларини намлигини ўлчаш ўзгарткичининг умумий ўлчаш хатолигини ҳисоблаш усули. *Science and Education*, 1(6).
38. Йулдашев, Х. Т., Эргашев, К. М., Алихонов, Э. Ж., Иброхимов, Ж. М., & Рустамов, У. С. (2021). Исследование процессов токового усиления в системе полупроводник-газоразрядный промежуток. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 114-123.
39. Ergashov, K. M., & Xabibulloqli, E. A. (2021). Selection of methods of acceptance inspection in production. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 1350-1355.

O‘ZBEKISTON ENERGETIKASIDA MIKRO GESNING TUTGAN O‘RNI VA ULARNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Yusupov Feruzbek Akbar o‘g‘li

TDTU Ef 2-bosqich magistranti

Panjiyev Sherzod Begimqul o‘g‘li

TDTU Ef 2-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: texnika fanlar doktori: **Pirmatov Nurali Berdiyrovuch**

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada mikro GES ning O‘zbekistonda tutgan o‘rni rivojlanishi, mikro GESning kamchiligi afzalligi ko‘rib chiqilgan. Vaqt o‘tib borgan sari, katta va kichik, mikro GES larning, rivojlanishini ko‘rishimiz mumkin. Buni yaqqol 2016-yildagi GESlarning raqamlari bilan, 2020-2030-yillarda konsepsiyasi doirasida mavjud elektr stansiyalarini modernizatsiya va rekonstruksiya qilish, elektr energiya ishlab chiqarish bo‘yicha energiya samarador texnologiyalardan foydalangan holda, yangi elektr stansiyalarini qurish bo‘yicha qilingan loyihalar bilan taqqoslashimiz mumkin. Mikro GESni qisqacha gidro turbinalari bosimga bog‘liqligi, ekspluatatsiya shartlari ko‘rsatilib o‘tilgan. Asosiy maqsadimiz suvning (tezligi, potentsiali, ya‘ni erkin harakatdagi) energiyasidan unumli foydalanishimizdir.

Kalit so‘zlar: kichik, o‘rta, mikro, GES quvvat, bosim, gidro turbina

АННОТАЦИЯ

В этой статье обсуждается развитие роли микро-ГЭС в Узбекистане, преимущества и недостатки микро-ГЭС. Со временем мы можем наблюдать развитие больших и малых микрогидроэлектростанций. Это наглядно можно сравнить с количеством гидроэлектростанций в 2016 году, модернизацией и реконструкцией существующих электростанций в рамках концепции 2020-2030 годов, строительством новых электростанций с использованием энергоэффективных технологий для выработки электроэнергии. Гидротурбины микрогидроэлектростанции кратко связаны с давлением и условиями эксплуатации. Наша главная цель - эффективно использовать энергию воды (скорость, потенциал, т.е. свободное движение).

Ключевые слова: малая, средняя, микро, мощность ГЭС, давление, гидротурбина.

ABSTRACT

This article discusses the role of micro-hydropower in Uzbekistan, the advantages and disadvantages of micro-hydropower. Over time, we can see the

development of large and small micro-hydropower plants. This can be clearly compared with the numbers of hydropower plants in 2016, the modernization and reconstruction of existing power plants under the concept of 2020-2030, the construction of new power plants using energy-efficient technologies for electricity generation. The hydro-turbines of the micro-hydropower plant are briefly related to the pressure and operating conditions. Our main goal is to use the energy of water (speed, potential, ie free movement) efficiently.

Keywords: *small, medium, micro, HPP power, pressure, hydro turbine*

KIRISH

O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridanoq davlat rahbariyatining energetika siyosati mamlakat energetika xavfsizligini ta'minlash hamda milliy energetika imkoniyatlaridan jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy muammolarini hal etish uchun foydalanishga qaratib kelinmoqda.[1, 101 b] O'zbekistonda elektr uzatish liniyalari yetib bormagan aholi punktlari yo'q deb aytilsa ham, biroq elektr energiya ishlab chiqaruvchi stantsiyalar va elektr tarmoqlari jihozlari eskirib ketganligi sababli, uzoq chekkalardagi aholi punktlarida elektr energiya tanqisligi seziladi. Ayniqsa, tog' zonalarida joylashgan, gidro energiya potentsiali mavjud bo'lgan, uzoq chekkalardagi kichik aholi punktlarini elektr energiya bilan ta'minlashda, kichik daryolarga o'rnatilishi mumkin bo'lgan kichik energetikadan katta umid qilish mumkin. GES lar qurilishida suv omborlarining ekologik zarari oldi olish, stantsiyalar qurilishida kichik kapital sarflar bo'lishi va kapital xarajatlarni tezda (5 yilgacha) qaytarish imkoniyatlari kichik energetikaning dunyo bo'yicha rivojlanishini keyingi o'n yilliklarda avj oldirib yubordi [1, 113 b]. 2016-yilning natijalariga qaraganda O'zbekiston gidroenergetikasini 1-jadval ko'rishimiz mumkin.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'zbekiston gidroenergetikasini raqamlarda

1-jadval

Nomlanishi	Ko'rsatkich
O'zbekistondagi suv arteriyalari	430 ta daryo
Daryolarning umumiy uzunligi	12,7 ming km
Har yili ishlab chiqariladigan energiya	60 mild kilovat/soat
GESlar hissasiga to'g'ri keladigan elektr energiya	6.5 kilovat/soat
O'rta muddatli istiqbolda GES salohiyati	Yiliga 27,4 mlrd kilovat/soat
2026 yilga kelib GES quvvati oshishi	1.7 marta

Gidroenergiya xissasi oshishi	12,7% dan 15,8% gacha
-------------------------------	-----------------------

Zamonaviy yangi O'zbekiston rivojlangan energetika tizimiga ega. Markaziy Osiyo davlatlari energetika tizimlari elektr energiya ishlab chiqaradigan quvvatlarining 50% O'zbekiston hududida joylashgan bo'lib, [1, 99 b] hukumat tomonidan 2030-yilgacha mamlakatni elektr energiya bilan ta'minlash strategiyasi qabul qilindi. Mazkur strategiya 2020-yildan 2030- yilgacha bo'lgan davrda mamlakatda elektr energiya bilan ta'minlash masalasi bo'yicha o'rta va uzoq muddatli maqsadlarni belgilaydi. 2030-yilgacha elektr energiya ishlab chiqarishni 5900 MW dan 29200 MW gacha ko'paytirish, elektr energiyasini ishlab chiqarishdagi tabiiy gaz sarfini 16,5 mlrd kubometrdan 12,1 mlrd kubometrgacha qisqartirish hamda elektr energiyani uzatishda yo'qotishlarni 2,35% ga, va uni taqsimlashda - 6,5% ga kamaytirish rejalashtirilgan.

Konsepsiyada quyidagi yo'nalishlar ustuvor sifatida belgilangan:

- mavjud elektr stansiyalarini modernizatsiya va rekonstruksiya qilish, elektr energiya ishlab chiqarish bo'yicha energiya samarador texnologiyalardan foydalangan holda yangi elektr stansiyalarini qurish;
 - elektr energiyasi hisobini yuritish tizimini takomillashtirish;
 - qayta tiklanadigan, mikro GES, quyosh energiyasi manbalarini rivojlantirish;
- qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirishda hozirgi paytda elektr energiyasi taqchil bo'lgan hududlarni energiya ta'minotini yaxshilashga alohida e'tibor qaratilgan [2].

Gidroenergetikani rivojlantirish 2020-2030-yillarda konsepsiyasi doirasida O'zbekiston Respublikasini elektr energiyasi bilan ta'minlash, rejalashtirilgan 62 ta loyiha ish bo'yicha, umumiy quvvati 1537 MW bo'lgan 35 ta GES qurish va mavjud 186 MW quvvatga ega 27 ta GES modernizatsiyalashdan iborat. O'rganilgan gidroenergetika resurslar yiliga 27,5 mlrd. kW/soatni tashkil etadi [3, 60 b].

Umuman olganda, O'zbekistonda energetika loyihalari narxi ko'rib chiqilganda 21 766,2 million dollardan, GES uchun - 2556,6 mln dollarni tashkil etib, rivojlanishi mumkin bo'lgan GESning investitsiya loyihalar ro'yxati 2-jadvalda berilgan.

O'zbekistonda rivojlanishi mumkin bo'lgan GESning investitsiya loyihalar ro'yxati ishlab chiqarish quvvatlari (01.04.2021 yil holatiga)

2-jadval

Loyiha nomi	Miqdori so'm mln.	Topshirish vaqti
Pskem daryosidagi Pskemskaya GESi (400 MW)	862,4	2019-2024
Mullalaki GESi (140 MW)	350,0	2020-2025
Verxnepskenskaya GESi (200 MW)	200,0	2023-2028
Oqbuloq GESi (60,0 MW)	160,0	2024-2027
Chotqol daryosida Nijnechatkalskaya GESi qurilishi (76 MW)	151,7	2020-2024
To'polang GESini modernizatsiya qilish	84,5	2019-2022
To'palang daryosidagi Zarchob GESlar kaskadi (75,6 MW)	80,4	2017-2021
"Farhod GES" DK modernizatsiyasi	72,4	2017-2021
Oxangaron daryosidagi Qamchiq GES (26,5 MW)	27,2	2017-2020
Oqsuv daryosida Rabot GESi qurilishi 6 MW quvvati	25,3	-
Oqsuv daryosida 8 MW quvvatga ega Chappasuyskaya GESi qurilishi	25,0	-
Oqdaryo-Oqsuv daryosida 10 MW quvvatga ega Tamshush GESi qurilishi	25,0	-
Sardoba suv omborida kichik GES qurilishi	24,1	2020-2022
Chirchiq-Bo'zsuv traktida "Kamolot" GESi (8,2 MW)	22,6	2017-2021
Darg'om kanalida 2-sonli "Bag'ishamal" GES qurilishi (6,45 MW)	21,7	2020-2022
Samarqand GESlari kaskadini modernizatsiya qilish (GES-2B)	21,7	2019-2021
Piket 102+00 punktida kichik GES qurilishi. Darg'om (6,4 MW)	21,0	2020-2022
Chirchiq GESlari kaskadini (GES-10) modernizatsiya qilish	18,6	2019-2021

Dargʻom kanalining PK135+50 da kichik GES qurilishi (7,4 MW)	15,7	2019-2021
Dargʻom kanalida Shaudar GES qurilishi (7,2 MW)	14,9	2019-2021
“Toshkent GESlar kaskadi” DKni modernizatsiya qilish (GES-1)	12.4	2019-2021

Shu bois ham yirik, oʻrta va mikro GESlarni loyihalashtirish, yangi gidroelektro-stansiyalar qurish va ishlab turganlarini modernizatsiya qilish boʻyicha “Oʻzbekgidroenergo” aksiyadorlik jamiyati bir qator loyihalarni amalga oshirmoqda. Tuyaboʻgʻiz suv ombori qoshida kichik GES, Katta Fargʻona kanalida kichik GESlar kaskadi qurilishi, Ohangaron daryosida Qamchiq kichik GES qurilishi, Toʻpolang daryosida Zarchob kichik GESlar kaskadi qurish shular sirasidandir. Strategik ahamiyatga ega boʻlgan ana shunday mikro GESlardan biri Toshkent viloyatining “Tuyaboʻgʻiz” suv ombori qoshidagi kichik GES qurilishi 2017-yilda boshlangan boʻlib, loyihani «Gidroproyekt» kompaniyasi amalga oshirdi va foydalanishga topshirildi [3]. U yiliga 41,2 mln kW.s elektr energiyasi ishlab chiqaradi. «GES loyihaviy qiymati 15,8 million dollarga teng boʻlib, shundan 8,1 million dollari XRR «Eksimbank” tomonidan moliyalashtirilgan.

Tuyaboʻgʻiz suv ombori qoshidagi ushbu mikro GES oʻn toʻrt oy ichida qurib bitkazildi. Ilgari bunday inshoot barpo etish uchun kamida uch yil vaqt sarflanar edi. Mutaxassislarning aytishicha, GESning umumiy quvvati 11,4 MWga teng. Bu yiliga oʻrtacha 41,2 million kW*soat elektr energiyasi ishlab chiqarilib, 1 ming 600 ta xonadonning elektr tokiga boʻlgan ehtiyoji toʻliq taʼminlanadi, deganidir. Shu sababli aynan kichik GES lardan foydalanib, ularni zarur boʻlganda avtonom rejimda ishlatib, qolgan vaziyatlarda tarmoqqa elektr energiya uzatish uchun oson ulanishlar yordamida tarmoq bilan parallel ishlatish, oqilona ish hisoblanadi.

Bundan tashqari, mikro GES:

- ishonchli, ekologik toza va muqobil energiya manbaidir;
- ishlab chiqarishda oddiy;
- suv havzalari va atrof-muhitni ifloslantirmaydi;
- maksimal soddalashtirilgan konstruksiyaga va minimal rostlovchi organlariga

ega;

- toʻla avtomatlashtirilgan, yaʼni ekspluatatsiya jaraʼnida xizmat qiluvchi personal mavjud boʻlishi shart emas;

- ekspluatatsiya jarayonida o'rnatish yoki xizmat ko'rsatish uchun minimal xarajatlar talab etiladi [1, 113 b];

- ishlab chiqarilayotgan elektr energiya barcha parametrlari (tok chastotasi, kuchlanish) bo'yicha standartga mos bo'lib, ham avtonom rejimda, ham tarmoq tarkibida bo'lishi mumkin;


- stantsiya ishlashining to'la resursi - 40 yildan kam emas (kapital ta'mirlagunga qadar kamida 5 yil).

Mikro GESning **bosh afzalligi** – kichik GESlarni qurish juda katta hududlarni suv ostida qoldirib, juda katta mablag'lar evaziga suv havzalarini tashkil etishni talab etmaydi. Bu degani - u aynan kichik suv oqimlariga mo'ljallanganligidir, zero O'zbekistonning barcha viloyatlarida aynan shunday havzalar ko'p uchraydi. Ularga sekundiga 3–5 metr tezlikda oquvchi ariqlar, soylar kiradi. Avvalambor, bu – toza energiya. Mikro-GES faoliyati ekologiyaga va suvga mutlaqo zarar yetkazmaydi. Masalan, 1 kW energiyani an'anaviy usulda ishlab chiqarish uchun, anchagina qazilma yoqilg'i talab etiladi, mikro-GESda esa biz tuganmas, qayta tiklanuvchi energiya manbai hisoblanadi [5].

Birinchi va eng **asosiy kamchiligi** – butlovchi qismlar tanqisligi. Konstruktsiyadagi eng qimmat detal generator sanaladi. Qish faslida suvning kamayishi muzlashi mikro gesning genarator ishiga salbiy ta'sir etadi. Uni qurishda va loyihalashda generator valiga mahkamlangan parraklari yuqori tezlikda aylanganida baliqlarga shikast yetkazmaydigan qilib loyihalash kerak. Baliqlar tom ma'noda suvni filtirlab turadi. Shu munosabat bilan, mikro GESni qurish uchun joy tanlashda mavjud minimal oqimning 10% dan ko'p bo'lmagan miqdorda foydalanishga harakat qilish kerak. Mikro GESlardan energiya ta'minoti samaradorligining texnik-iqtisodiy mezonlarini aniqlash uchun gidroenergetika resurslari kadastr orqali stansiyani o'rnatish uchun tavsiya etilgan maydondan quyidagi asosiy ko'rsatkichlarni aniqlash kerak:


1. Daryoning o'rtacha qiyaligi, $D N$ (m / km);
2. Yozgi quruq mavsumda suv oqimining o'rtacha miqdori, Q (m^3 / s);
3. Yozgi quruq mavsumda o'rtacha suv oqimining tezligi, v (m / s);
4. Kanal yoki daryoning yillik suv oqish soati, H .

Quyida 1-rasmdan 5-rasmgacha generatorning gidro turbinalari va ularning diametrining bosimga bog'liqligi bilan tanishib chiqamiz:




1-rasm. Pelton turbinasi

Bu turbina suv bosimi 40 m dan ortiq bo'lganda qo'llaniladi.




2-rasm. Tuzulishi rotorga o'xshab aylanasi bo'ylab parraklar mahkamlangan

Zamonaviy mikro GESlarda 2 dan 100 m gacha bo'lgan suv bosimlarda qo'llaniladi.




3-rasm. Kaplan pervanel aksenel turbina

Bu turbina suv bosimi 1-30 metr bo'lganda qo'llaniladi.



4-rasm. Frensis radial turbinasi



5-rasm Mikro-GESning quvvatini aniqlash uchun ko'rsatilgan nomogramma
Quvvati 10 kW bo'lgan mikro GESni ekspluatatsiya qilish shartlari bilan qisqacha tanishib chiqamiz:

Mikro GES energiya tizimidan ajratilgan iste'molchini, elektr energiyasi bilan ta'minlash uchun mo'ljallangan.

Ekspluatatsiya shartlari:

- havo harorati, 0C°
- quvvat bloki joylashgan joyda -10 dan +40 gacha;
- elektr shkaflari joylashgan bo'lgan joyda 0 dan +40 gacha;
- dengiz sathidan balandligi, m 1000 gacha;

(Mikro GESni 1000 m dan ortiq balandlikda o'rnatishda, maksimal quvvati cheklangan bo'lishi kerak)

- elektr shkaflari joylashgan joyda $t = + 25\text{C}^{\circ}$ nisbiy havo namligi 98% dan ko'p bo'lmasligi, 5 yil kompaniya mutaxassisleri ishtirokida montaj ishlarini nazorat qilish va ishga tushirish ishlarini olib borish tashish, saqlash va foydalanish qoidalariga rioya qilish sharti bilan jo'natilgan sana ko'rsatiladi. Mikro GESni yetkazib berishning to'liqligi 3-jadval, uning texnik ma'lumotlari 4-jadvalda ko'rishimiz mumkin.

Mikro GESni yetkazib berishning to'liqligi


3-jadval


Nomi	Og'irligi kg
Quvvat bloki	180
Balast yuk bloki BBN15	70
Avtomatik boshqaruv moslamasi UAR15M / 400	70
Suv olish moslamasi	35

Mikro GESning texnik ma'lumotlari

4-jadval

Parametr	Mikro GES 10Pr	
Bosim m	2-4,5	4,5-10
Suv sarfi l/s	0,07-0,14	0,095-0,2
Ishlab chiqariladigan quvvat, kW	4 gacha	10 gacha
Aylanish chastotasi, ayl/min	1000	1500
Kuchlanishi V	400(+25 -50)	
Chastota Hz	50±2	
Pervanel diametri, mm	235	
Suv quvurining diametri, mm	300	





5- rasm Quvvati 10 kW bo'lgan mikro GESning generatori va shkafi

XULOSA

O'zbekiston Respublikasini elektr energiyasi bilan ta'minlashda mikro-GESlar muhim rol o'ynaydi. Kichik gidroenergetika boshqa an'anaviy elektr energiyasi bilan solishtirganda elektr energiyasini ishlab chiqarishning eng tejimli va ekologik toza usuli hisoblanadi. 2016-yilda kichik va mikro GESlarning umuman GESlarni raqamlarda ko'rganimizda, 2021- yilga kelib yanada rivojlanganini yangi GES qurilishini guvohi bo'lishimiz mumkin. Asosiy maqsadimiz suvning energiyasidan unumli foydalanishimizdir. MikroGESlar (mikrogidroelektrik stansiyalar) nafaqat foydalanish bosqichida, balki qurilish jarayonida ham atrof-muhit va tabiiy landshaftni saqlash imkonini beradi. Quyosh, shamol kabi boshqa ekologik toza qayta tiklanadigan elektr energiyasi manbalaridan farqli o'laroq, kichik gidroenergetika ob-havo va vaqt sharoitlaridan amalda mustaqil bo'lib, iste'molchini barqaror elektr energiyasi bilan ta'minlashga qodir ekan.

REFERENCES

1. Toirov O.Z., Alimxodjeyev K.T., Alimxodjeyev SH.K. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari. -Toshkent.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2019.
2. Investitsii v vodno energeticheskiy kompleks sentral'noy azii. Vinokurov E., Axunbaev A., Usmanov N., Sukarev T., Sarsembekov T. (2021) Investitsii v vodnoenergeticheskiy kompleks Sentral'noy Azii. Almati, Moskva: Yevraziyskiy bank razvitiya.
3. <https://www.gazeta.uz/oz/2020/05/04/2030-energy-strategy>.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 maydagi "O'zbekgidro-energo" aksiyadorlik jamiyati faoliyatini tashkillashtirish chora tadbirlar to'g'ri-sida"gi PQ-2972-sonli qarori.
5. . Karabaeva G. O'zbekistonda gidroenergetika sohasi faoliyati samaradorligini oshirish yo'llari –Toshkent, 2017. – 79 bet.

CHARACTERISTICS OF HENRICH HAIN'S SONNS IN UZBEK TRANSLATION

Bozorova Mukhabbat Abdurakhmonovna

Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers

Bukhara Branch

Senior lecturer of the department "Uzbek language and literature".

mbozorova20@gmail.com

ABSTRACT

The article discusses the peculiarities of the Uzbek translation of Heinrich Hayne's works, among which the sonnets play an important role. Hayne's sonnets were translated into Uzbek by the well-known poet Abdulla Sher. While reading these sonnets, it can be seen that the translator entered the poet's psyche, and skillfully conveyed the delicacy and artistic brilliance of the German language in the Uzbek language.

Key words: sonnet, poetry, artistic delicacy, lyrical hero, romantic image.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются особенности узбекского перевода сонетов Генриха Хайна, среди которых сонеты играют важную роль. Сонеты Хайна были переведены на узбекский язык известным поэтом Абдуллой Шером. Читая эти сонеты, видно, что переводчик проник в психику поэта Хайна и умело передал тонкость и художественное величие немецкого языка на узбекском языке.

Ключевые слова: сонет, поэзия, художественная тонкость, лирический герой, романтический образ.

INTRODUCTION

Heinrich Hein is a thinker and poet of the German people. He lived and worked during the era of romanticism. The poet's poetry has many genres. Sonnets play an important role among them. It should be noted that the works of this genre constitute a unique bright page of world poetry after Shakespeare. Hain's sonnets were translated into Uzbek by the famous poet Abdullah Sher. Reading these sonnets, one can notice that the translator penetrated into the psyche of the poet Hein and skillfully conveyed the subtlety and artistic splendor of the German language in the Uzbek language.

RESULTS AND DISCUSSION

Among Heine's sonnets, the one dedicated to his mother stands out. "Onam von Geldern Қisi В. А poem called "Heinega" begins as follows:

Бошимни тутаман доимо мағрур,
Ҳеч қачон енгилмас ўжар идроким;
Қиролнинг бошида туриб ҳаттоким
Кўзимни мен ерга олмайман бир қур .

The above lines depict the state of the lyric hero, who is always "mag'ur" tutgan, "ўjar idroki" was never defeated, and who was so proud even in the presence of the king

Мен яна, онажон, таъкидлай масрур:
Бўй эгмам ҳеч кимга тирикман токим!
Ва лекин қошингда, жилмайганча жим,
Бош букиб тураман доимо махмур.

But the lyrical protagonist has a happy head in front of his mother. These lines have universal content. Mother, Tabiatning Buyuk Ichtirosi is great. In the face of the power of love in him, all humanity feels obligated. This beautiful feeling is at the very heart of the lines.

Ул сенинг руҳингми – келади ғолиб?
Ул сенинг руҳингми – ғулғула солиб,
Ёритар қалбимни чақин мисоли?

The skill of the translator is that he was able to convey the German tone with the elegance of the Uzbek language. In other words, the words "winner" and "put" do not belong to the same category as rhyming words. Nevertheless, you can see that the poetic content is expressed vividly.

In other words, the above lines artistically reflect the fact that the mother's spirit, which gives strength to the child, prevails over everything and always lives in the hearts. In this sense, the mother's spirit is compared to the light that illuminates the heart of the child.

Бошимни эгаман доим, эҳтимол,
Келтирганим учун сенга кўп малол,
Кечирганинг учун барини дарҳол?

These lines are concluding. Despite the fact that the child understands that he is always in debt to his mother, the bot hurts him. But a mother can also forgive her

child at any time. This quality inherent in the mother leads her up the ladder of greatness.

The next sonnet by Heinrich Heine is written on a moral theme. In this respect, it is in harmony with oriental poetry:

Эгилиб тақмайман тўнкага гултож
Олтинга беланган бўлса ҳам агар:
Қўлимни чўзмайман бойга таъмагар,
Номардга ўзимни қилмайман муҳтож.

In the first line, the poetic content is expressed in metaphor. It should be noted that the lyrical hero is an extremely brave and noble person. He doesn't want to put a flower on gilded tonka beans, he wants to get the rich man's treasures, he doesn't want to need a nomad.

Мен бузуқ аёлга очмайман қулоч
Фаҳшини яширса ҳамки безаклар;
Айбдор қилмайман, оломон магар
Такаббур ҳокимга сезса эҳтиёж.

Лирический герой - человек высоких нравов. Вот почему она не встречает “фаҳшини безаклар яширган бузуқ аёл”.

Биламан, чўрт синар ма-рур, чўнг эман,
Навда-чи, қутилар эгилиш билан, –
Табиат ҳайқириб, турганда бўрон.
Навданинг қисмати, ва лекин аён:
Бир куни у ҳасса – силлиқ, ялтироқ,
Ё кўйлак чангини қоқувчи таёқ!

Situations in nature correspond to the experiences of the lyrical protagonist. In this regard, the main content is loaded on the coats of arms of a large oak tree, a bar. After all, the branches of a large oak can break after years. As a result, it is no longer a branch of an oak tree, but something else - a smooth shiny stick, a stick for powdering. So now the vital function of the branch is changing. With this poetic conclusion, the poet turns to human life.

CONCLUSION

Both of Heine's sonnets we analyzed above are rich in romantic imagery and realistic LPs. Due to the nature of the sonnet genre, the main idea was expressed in the first eight verses, and the next six lines were the final ones. One more feature of the poet's sonnets should be noted. The questions raised in them are varied, the moral content prevails. This confirms that poetry drank water from oriental springs.

REFERENCES

1. Gain in the memoirs of contemporaries. - M., 1988.
2. Gijdeu S.P. Words by Henry Gein. - M., 1983.
3. Deich A. N. Fairy poets. Gelderlin. Cleist. Heine. - M., 1974.
4. Heinrich Hein "Book of Songs"
5. Hoshimov O. "World Affairs" 1982
6. Translations of Khurshid Davron
7. Translations by Abdullah Shera 2003
8. <https://kh-davron.uz/library/jahon/haynrrix-hayne-ishqiy-qoshiqlar-abdulla-she-tarjimalari.htm>

ИССЛЕДОВАНИЕ ВОЛЬТ – АМПЕРНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА В СИСТЕМЕ ПОЛУПРОВОДНИК – ГАЗОРАЗРЯДНЫЙ ПРОМЕЖУТОК

¹Д.Д. Хосилов, ¹М.Р. Мадаминов, ²Х.Т. Йулдашев

¹Ферганский филиал Ташкентского университета информационных технологий,

²Ферганский политехнический институт

E-mail: hurshid5704@mail.ru

АННОТАЦИЯ

В статье приводятся результаты исследования ВАХ полупроводниковой фотографической системы ионизационного типа путем введения металлического зонда в область газового разряда, не нарушая его природу.

Ключевые слова: газовый разряд, газоразрядная ячейка, фотоприемник, вольтамперная характеристика, металлический зонд, коэффициент ионизации Таунсенда.

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада ионизацион русумли яримўтказгичли фотографик системанинг газ-разряди табиатини бузмасдан унинг соҳасига кўшимча металл зондни киритиш орқали олинган ВАХ натижалари келтирилган.

Калит сўзлар: газ-разряди, газ-разряди ячейкаси, фотоприёмник, вольт-ампер характеристика, металл зонд, Таунсенд ионизация коэффициенти.

ABSTRACT

The article presents the results of a study of the current-voltage characteristic of a semiconductor photographic system of the ionization type by introducing a metal probe into the area of a gas discharge without disturbing its nature.

Keywords: gas discharge, gas-discharge cell, photodetector, current-voltage characteristic, metal probe, Townsend ionization coefficient.

ВВЕДЕНИЕ

Полупроводниковые фотографические системы и спектральные преобразователи изображений ионизационного типа [1-6] нашли достаточно широкое применение для высокоскоростной пространственно – временной фотографической диагностики лазерных инфракрасных излучений [7-15]. В настоящее время они являются одним из наиболее перспективных типов устройств, составляющих основу несеребряной высокочувствительной фотографии [16-21].

Управление оборотным капиталом как основа успеха коммерческого предприятия, данная проблема является одной из наиболее обсуждаемых в рамках современного финансового анализа и основывается на анализе соотношения "рентабельность-риск". В статье рассматривается понятие "оборотные средства" на коммерческих предприятиях, представлен процесс их обращения в хозяйственной деятельности.

Ключевые слова: *Процессы управления оборотными активами, оборотными средствами, управления кредиторской задолженностью, рентабельностью, анализ оборотных средств, контроль оборотных средств.*

ABSTRACT

Working capital management as the basis for the success of a commercial enterprise, this problem is one of the most discussed in the framework of modern financial analysis and is based on the analysis of the "profitability-risk" ratio. The

article discusses the concept of "working capital" at commercial enterprises, presents the process of their circulation in economic activity.

Keywords: *Processes of management of current assets, working capital, management of accounts payable, profitability, analysis of working capital, control of working capital.*

KIRISH

Zamonaviy sharoitda har bir tijorat korxonasi barqaror faoliyat va rivojlanishga intilmoqda. Shu bilan birga, yakuniy moliyaviy natijaning muhim qismini tashkil etuvchi aktivlarning mazmuni va tuzilishi. Bunday holatda turli ko'rsatkichlar va koeffitsientlardan foydalangan holda aylanma mablag'larni boshqarishni takomillashtirish masalalarini o'rganishning dolzarbligi oshadi [1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI.

Aylanma mablag'larning mohiyatini aniqlash uchun ko'plab yondashuvlar mavjud, ularning asosiy qismi jadvalda keltirilgan. (1-jadval)

1-jadval

Aylanma mablag'larning mohiyatini aniqlashga yondashuvlar

Yondashuvlar	Tarafdorlari	Tushunchalar va izohlar
Tashkiliy	Birman A.M., Gritsay A.P., Ivanov N.I., Chibisov N.D., Nevtyak N.P., Balabanov I.T., Usoskin M.M.	Aylanma mablag'lar - aylanma ishlab chiqarish fondlarining elementlari (xom ashyo, materiallar, yoqilg'i, tugallanmagan ishlab chiqarish va boshqalar) va aylanma mablag'lari (tayyor mahsulotlar, pul mablag'lari va hisob-kitoblardagi mablag'lar)
Ishlab chiqarish	Lavrushin O.I., Lisitsian N.S., Bunich P.G., Perlamutrov V.P., Sokolovskiy L.X., Ostapenko V.V.	Aylanma mablag'lar aylanma ishlab chiqarish fondlari va aylanma fondini shakllantirish uchun sarflanadigan xarajatdir, ya'ni korxonada resurslarining aylanish jarayoniga xizmat qiluvchi va faqat ishlab chiqarish funksiyasini bajaradigan kategoriya.
Pul mablag'lari	Parfanyak P.A., Radionova A.R., Rotshteyn L.A., Usatov I.A., Gruzinov V.P.	Aylanma mablag'lar aylanma ishlab chiqarish fondlari va aylanma fondlarga yo'naltirilgan pul mablag'lari sifatida qaraladi
Iqtisodiy	Blank I.A., Yefimova O.V., Kovalev V.V., Raitskiy K.A., Stoyanova Ye.S., SHeremet A.D., Ionova	Aylanma mablag'lar har bir davrda korxonada tomonidan joriy operatsiyalarga investitsiya qilingan mablag'lardir

	A.F.V.	
Buxgalteriya hisobi	Rayzberg B.A. Lozovskiy L.SH., Yefimova O.V.	Aylanma mablag'lar korxonada kapitalning harakatlanuvchi qismidir, bu asosiy kapitaldan farqli o'laroq, tezror va osonlik bilan naqd pulga aylanadi.

Yuqorida keltirilgan ta'rifga nisbatan turli yondashuvlarni umumlashtirib, aylanma mablag'lar korxonada balansida va ishlab chiqarish jarayonida bo'lgan mablag'larning bir qismi bo'lib, uning faoliyati davomida o'z qiymatini ishlab chiqarilgan mahsulotlarga, bajarilgan ishlarga yoki taqdim etilgan xizmatga to'liq o'tkazadi. Bir tomondan, ular aktivlarning bir qismini ifodalaydi: logistika zaxiralari, tugallanmagan hisob-kitoblar, pul mablag'lari va moliyaviy investitsiyalar. Boshqa tomondan, bu ishlab chiqarish va savdo jarayonining uzluksizligini ta'minlaydigan kapitalning bir qismi (majburiyatlar) [2].

TAHLIL VA NATIJALAR

Ko'pgina korxonalarining asosiy muammolaridan biri pul mablag'larining yetishmasligi bo'lib, qarzdorlikning tez o'sishi yoki tovar zaxiralarining asossiz o'sishi bilan bog'liq.

Aylanma mablag'larning har bir elementining ishlash xususiyatlari uni rejalashtirish usuliga olib keladi; ikkinchisi, o'z navbatida, turli muddatlarda (uzoq muddatli, o'rta va qisqa muddatli) ishlab chiqarish muammolarini hal qilishni nazarda tutadi. Muayyan boshqaruv vositasi qanchalik to'g'ri tanlanganiga qarab, oxir-oqibat, kompaniyaning butun faoliyati samaradorligi bog'liqdir.

Tahlil va nazoratning etarli bo'lmagan taqdirda, aylanma mablag'larning hajmi va tuzilishi bilan bog'liq xavflarning paydo bo'lishi mumkin:

- tovarlarning yetishmasligi, qo'shimcha xarajatlar xavfi yoki hatto korxonada faoliyatini to'xtatib turish bilan bog'liq;
- kelajakda likvidlikni yo'qotish bilan tahdid qiluvchi korxonaning kredit imkoniyatlarining yetishmasligi;
- ishlab chiqarish jarayonining uzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan mablag'larning yetishmasligi, majburiyatlarning bajarilishiga to'sqinlik qilish;
- aylanma mablag'larning ortiqcha miqdori moliyalashtirish xarajatlarini ko'paytirish va daromadni kamaytirish xavfiga olib keladi [3].

Aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligini tahlil qilishning strukturaviy va mantiqiy ketma-ketligi quyidagicha keltirish mumkun:

Birinchi bosqich - vertikal tizimli tahlil, uning asosiy maqsadi shakllantirish va foydalanish yo'nalishlari bo'yicha hajmi, tarkibi va tuzilishini aniqlashga qaratilgan individual va jami ko'rsatkichlar nisbatlarini aniqlash va baholashdan iborat. Aylanma mablag'larning umumiy hajmini tahlil qilish, ularning tarkibi va tuzilishini tahlil qilish, harakat, shakllanish manbalari, ayrim turlarni tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

Ikkinchi bosqich-gorizontal (trend) tahlil qilish-aylanma mablag'larning hajmi va tuzilishi dinamikasini o'rganish, vaqt o'zgarishining tendentsiyalarini aniqlash va miqdoriy baholash (mutlaq o'sish ko'rsatkichlarini aniqlash, o'rtacha o'sish, ularning tezligi). Shu bilan birga, tezkor boshqaruvni ta'minlash uchun o'rganilayotgan davr davomiyligi minimal bo'lishi mumkin - kun, hafta, oy, chorak. Shu bilan birga, strategik boshqaruvni ta'minlash uchun ob'ektning dinamikasi bir, uch, besh va undan ko'p yillar davomida o'rganiladi [4].

Uchinchi bosqich-qiyosiy tahlil, shu kabi rejali, oldingi, me'yoriy yoki mos yozuvlar ko'rsatkichlari bilan o'rganilayotgan davr ko'rsatkichlarini taqqoslashdan iborat.

To'rtinchi bosqich-koeffitsientlar-oldindan asoslangan ko'rsatkichlar tizimida aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligini baholashni nazarda tutadigan koeffitsient tahlil. Amalda, har bir korxonada ko'rsatkichlar tizimining bir martalik hisob-kitobini emas, balki ushbu analog korxonalar yordamida tendentsiyalarni, miqyoslarni va ularning o'sish sur'atlarini tahlil qiladi [5].

Beshinchi bosqich-aylanma mablag'larni boshqarish samaradorligiga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi muhitning asosiy omillarini aniqlashni o'z ichiga olgan omillarni tahlil qilish. Aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligiga ta'sir qiluvchi tashqi omillar quyidagilardan iborat:

- umumiy makroiqtisodiy vaziyat (YaIMning o'sish sur'ati, inflyatsiya darajasi, ishsizlik darajasi, siyosiy vaziyat, byudjet taqchilligi);

- kapital bozori (investitsiya bozorining rivojlanish tendentsiyalari, kredit resurslarining cheklanishi, to'lanmagan inqiroz, davlat pul-kredit siyosatining faolligi) [6];

•-bozor kon'yunkturasi(raqobat darajasi, jahon va ichki bozorning narx raqobati); [7].

Oltinchi bosqich-ko'p bosqichli omil modelini qurish orqali amalga oshiriladi ajralmas tahlil, natijasida ta'siri tartibi asosida guruhlangan turli omillar ta'siri natijasida faoliyatining asosiy samarali ko'rsatkichlar biri shakllanishini tavsiflovchi.

Ettinchi bosqich -umumiy xulosalarni shakllantirish va aylanma mablag'larni boshqarish tizimini kompleks baholash bo'yicha tahliliy hisobot tayyorlash.

Mavjud mablag'lardan foydalanish samaradorligini nazorat qilishning zamonaviy vositasi juda keng va ularning ishlash ko'rsatkichlari tizimi orqali amalga oshiriladi, bu uchta asosiy guruhga qo'shilishi tavsiya etiladi:

1. Muayyan sanada aylanma mablag'larning (umumiy hajmi, tuzilishi, moliyalashtirish yo'nalishlari va avans bo'yicha) holatini aks ettiruvchi aylanma mablag'larni shakllantirish samaradorligi ko'rsatkichlari (2-jadval).

2-jadval

Aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar guruhlari	Ko'rsatkichlar guruhlari ko'rsatkichlar
Hajmi va tuzilishi ko'rsatkichlari	Aylanma mablag'lar va ularning elementlari hajmi va tarkibi ko'rsatkichlari
	Aylanma mablag'larning ayrim guruhlarning ulushi(tovar-moddiy zaxiralar, debitor qarzdorlik, pul mablag'lari)
	Aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlik koeffitsienti
Moliyalashtirish manbalari holati ko'rsatkichlari	Moliyalashtirish manbalari davlat ko'rsatkichlari o'z aylanma mablag'lari hajmi
	Qarz oluvchi aylanma mablag'lar hajmi
	Aylanma mablag'lar tarkibida o'z kapitalining ulushi
	Aylanma mablag'lar tarkibida qarz kapitalining ulushi
	Aylanma mablag'lar tarkibida kreditorlik qarzlarning ulushi
	Manevrlik koeffitsienti
	Ishchi kapitalning manevrlik darajasi
	Qisqa muddatli majburiyatlarni qoplashda tovar-moddiy zaxiralarning ishtiroki koeffitsienti
	Tovar-moddiy zaxiralarni o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlash koeffitsienti
Daromad ulushi sifatida o'z aylanma ortiqcha (kamchiligi)	
Likvidlik ko'rsatkichlari	Likvidlik ko'rsatkichlari umumiy likvidlik darajasi
	Nisbiy likvidlik darajasi
	Mutlaq likvidlik darajasi
	Operatsion to'lov qobiliyati darajasi
	Aylanma mablag'larning o'rtacha likvidligi indeksi
Hajmni	Hajmni optimallashtirish ko'rsatkichlari aylanma mablag'larning minimal

optimallashtirish ko'rsatkichlari	darajasi koeffitsienti
	Aylanma mablag'larning maksimal darajasi

2. Aylanma mablag'lardan foydalanish ko'rsatkichlari: ularning aylanmasi, rentabellik ko'rsatkichlari va aylanma mablag'larni boshqarish samaradorligi tashkilotning ishlash ko'rsatkichlariga ta'siri (3-jadval).

3-jadval

Aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar guruhlari	Ko'rsatkichlar
Ayirboshlash ko'rsatkichlari	Aylanma mablag'lar aylanmasi
	Aylanma mablag'lar guruhlari aylanmasi
	Aniqlash koeffitsienti
	Aylanma davri
	Aylanma mablag'larning ayrim elementlarining aylanma davri
	Operatsion siklining uzunligi
Rentabellik ko'rsatkichlari	Rentabellik
	O'z aylanma mablag'larining rentabelligi
	Ayirboshlash tezlashishi natijasida daromad miqdorining oshishi
Tashkilotning ishlash ko'rsatkichlariga boshqaruv samaradorligining ta'siri ko'rsatkichlari	Aylanma mablag'larning o'rtacha (yillik, choraklik) summasini va aylanmani o'zgartirish orqali daromadlarning o'zgarishi
	Ayirboshlash davomiyligini o'zgartirish orqali operatsion xarajatlar darajasini o'zgartirish

Ushbu ko'rsatkichlar guruhi nisbiy xususiyatga ega va ularning o'rtacha qiymatlari va tashkilot faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari, xususan, aylanma mablag'lar, operatsion xarajatlar va foyda o'rtasidagi munosabatlarning prizmasi orqali aylanma mablag'larning holatini baholashga imkon beradi. Ushbu ko'rsatkichlar guruhini o'rganish aylanma mablag'lar va ularning elementlarini davr aylanish jarayonida vaqt omili bo'yicha foydalanish samaradorligini baholash imkonini beradi, aylanmaning yakuniy natijalarga ta'sirini tavsiflaydi.

Aylanma mablag'larning alohida guruhlarini (inventarizatsiya, debitorlik, pul mablag'lari va h.k.) boshqarish samaradorligi ko'rsatkichlari (4-jadval). Ushbu ko'rsatkichlar asosida nazorat ularni boshqarish jarayonida asosiy kamchiliklarni aniqlash, ishlab chiqarish jarayoni va amalga oshirish jarayonining uzluksizligini ta'minlash maqsadida boshqaruvning barcha darajalarida zaxiralarni aniqlashga

yordam beradi, bu esa aylanma mablagʻlarni tezkor safarbar etish imkonini beradi. [8].

4-jadval

Aylanma mablagʻlarning alohida guruhlarini boshqarish samaradorligi koʻrsatkichlari

Koʻrsatkichlar guruhlari	Koʻrsatkichlar
Zaxiralarni boshqarish samaradorligi koʻrsatkichlari	Zaxiralarning ayirboshlash darajasi
	Zaxiralarning aylanmasi davri
	Zaxiralarning qogʻozlar indeksi
	Zaxiralarning rentabelligi
	Zaxiralarning birligi uchun xarajat
	Zaxiralarni bilan ishlashning integral sifat koʻrsatkichi
	Zaxiralarni boshqarish samaradorligining integral koʻrsatkichi
	Zaxiralarni meyorga rioya qilish koeffitsienti
	Zaxiralarning konsentratsiyasi darajasi
	Joriy zaxiralarning faol qismi darajasi
	Zaxiralarning yangilash darajasi
	Zaxiralarning optimal hajmini hisoblash uchun koʻrsatkichlar guruhi
Debitorlik qarzlarni boshqarish koʻrsatkichlari	Aylanma mablagʻlarni debitor qarzga oʻtkazish koeffitsienti
	Debitorlik qarzlarning oʻrtacha inkassatsiya davri
	Debitorlik aylanmasi soni
	Qabul qiluvchilarning debitorlik aylanmasi (marta)
	Yetkazib beruvchi debitorlik aylanmasi (marta)
	Debitor qarzdorlik umumiy hajmida yuzaga kelishi muddatlari boʻyicha debitor qarzdorlikning ulushi
	Debitorlik toʻlov nisbati
	Debitorlik toʻlov koeffitsiyentining kritik qiymati
Pul mablagʻlarini boshqarish samaradorligi koʻrsatkichlari	Pul mablagʻlarini shakllantirish etarliligi koeffitsienti
	Majburiyatlarning darhol ijro etilish koeffitsienti
	Pul oqimining bir xilligi koʻrsatkichlari guruhi

Ayirboshlash koʻrsatkichlari qanchalik yuqori boʻlsa, investitsiya qilingan mablagʻlar tashkilotning oʻz majburiyatlari boʻyicha toʻlaydigan pulga aylanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, aylanma mablagʻlardan foydalanish samaradorligini uzluksiz nazorat qilishning asosiy jihatlariga qisqacha toʻxtalib oʻtamiz:

-pul mablag'larini sarflashni nazorat qilish (ularning haqiqiy harakatini tahlil qilish, pul oqimi prognozini tuzish, ya'ni pul tushumlari va pensiya, pul mablag'larining optimal darajasini hisoblash);

- debitorlik darajasini nazorat qilish(oldingi davrda uning darajasini tahlil qilish, debitorlik qarzdorligiga investitsiya qilinadigan moliyaviy mablag'larning mumkin miqdorini belgilash, kredit shartlari tizimlarini yaratish, ya'ni kredit davri, kredit miqdori, kredit qiymati; xaridorlarni baholash va kredit shartlarini farqlash; debitorlik inkassatsiya qilish operatsiyasi; debitorlik qarzining zamonaviy shakllarini joriy etish; qabul qiluvchilar bilan hisob-kitoblar holatini va debitorlik va kreditorlik nisbatlarini nazorat qilish va bir yoki bir nechta yirik xaridorlar tomonidan to'lanmaslik xavfini kamaytirish uchun iste'molchilar doirasini kengaytirish. Qabul qilinadigan qarzlarning sezilarli darajada oshishi tashkilotning moliyaviy barqarorligiga tahdid soladi, chunki qo'shimcha qimmatbaho moliyalashtirish manbalarini jalb qilish zarurligiga olib keladi) [9];

- kreditorlik qarzlari darajasini nazorat qilish (debitorlik darajasini nazorat qilish kabi);

-inventarizatsiya darajasini nazorat qilish (oldingi davrda inventarizatsiya inventarizatsiyasini tahlil qilish, inventarizatsiyani shakllantirish maqsadlarini aniqlash(xom ashyo va materiallar zaxiralari, tayyor mahsulotlar); joriy zaxiralar guruhlarining hajmini optimallashtirish; inventarizatsiyani baholashning buxgalteriya siyosatini tasdiqlash; asosiy vazifalari zaxiralarni to'ldirish buyurtmalarini o'z vaqtida joylashtirish va ortiqcha hosil bo'lgan hajmlarni aylanishga jalb qilish).

Shunday qilib, aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligini tahlil qilish joriy faoliyatning uzluksizligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, korxonaning barqaror va etarlicha to'lov qobiliyatini ta'minlashda investitsiya qilingan kapitalga daromadni maksimal darajada oshirish imkonini beradi. Bu jarayon juda mashaqqatli, jiddiy yondashuvni talab qiladi; samarali faoliyat yuritish uchun korxonada malakali siyosatni olib borishi va korxonaning yanada rivojlanishini rejalasi yuqori darajada bo'lishi kerak.


REFERENCES

1. Исманов, И. Н., & Хабижонов, С. К. У. (2019). Организация учета инвестиций в Капитальные вложения. Вестник науки и образования, (12-3 (66)).
2. Кудбиев, Д. К., & Турсунова, Д. Д. (2018). ОСНОВНЫЕ ПРИНЦИПЫ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ. In Бухгалтерский учет: достижения и научные перспективы XXI века (pp. 87-93).

3. Муминова, Э. А., Кундузова, К. И., & Умаралиев, З. Б. (2018). МОДЕРНИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ И ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА. In НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКИЙ ПРОГРЕСС: СОЦИАЛЬНЫЕ, ТЕХНИЧЕСКИЕ И ОБЩЕСТВЕННЫЕ ФАКТОРЫ (pp. 194-198).
4. Tashpulatov, A. (2020). Modern forms of self-employment under conditions of recession. ISJ Theoretical & Applied Science, 05 (85), 452-455.
5. Tolibjonovich, N. O. (2020). Global Economic Crises: The Global Economic Crisis In The Context Of The Coronavirus Pandemic And Its Elimination In Uzbekistan. Solid State Technology, 63(4), 5131-5145.
6. Эрматов, А. А. (2019). Важность аудита в управлении риском предприятия в период перехода к цифровой экономике. Проблемы современной науки и образования, (12-1 (145)).
7. Тошмаматов, Н. Т., Темиркулов, А. А., & Хабижанов, С. К. (2019). 4.1. Особенности организации внутреннего аудита промышленного предприятия на примере Республики Узбекистан. Аудит и финансовый анализ, (1), 77-81.
8. Фозилов, Х. Р., & Фозилов, И. Р. (2020). ЭКОНОМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ И ЕГО РОЛЬ В УПРАВЛЕНИИ ПРЕДПРИЯТИЕМ. In ВОПРОСЫ УПРАВЛЕНИЯ И ЭКОНОМИКИ: СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ АКТУАЛЬНЫХ ПРОБЛЕМ (pp. 16-19).
9. Kurbonaliyeva, I. G. (2021). The ways to improve the internal corporate governance mechanisms in joint-stock companies. Asian Journal Of Multidimensional Research, 10(6), 255-259.
10. Нурматов, О. Т. (2018). Вопросы соответствия международным стандартам национального стандарта бухгалтерского учёта Республики Узбекистан. Вопросы науки и образования, (11 (23)).
11. Kunduzova, K. I. (2020). The problems of accounting of liabilities in insurance organizations and its improvement. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 10(12), 312-318.
12. Shokiraliyevich, G. I. (2021). Role of information and communication technologies in accounting and digital economy. SOUTH ASIAN JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT RESEARCH, 11(5), 17-20.
13. Temirkulov, A. A. (2020). The correct acceptance of the investment decision is a factor of success of implementation of the process. ISJ Theoretical & Applied Science, 05 (85), 689-692.
14. Шоев, Д. А. (2019). Важные факторы повышения качества образования. Проблемы современной науки и образования, (12-2 (145)).

15. Ismanov, I. N., & Moydinov, E. D. (2020). Concept of importance in audit planning and execution. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(7), 381-391.
16. Абдураззаков, А., Фозилов, А. Н., & Ташпулатов, А. (2021). НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ОПТИМИЗАЦИИ РЫНКА ТРУДА. *The Scientific Heritage*, (76-2), 29-32.
17. Атабаева, З. А. (2019). Организация учета инвестиций на Капитальные вложения. *Проблемы современной науки и образования*, (12-1 (145)).
18. Якубов, В. Ф. (2020). ФИНАНСИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОГРАММ В МОДЕРНИЗАЦИИ ПРОИЗВОДСТВА. In МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИНИ ИНВЕСТИЦИЯЛАШНИНГ МОЛИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ ВА ИННОВАЦИОН ЖИҲАТЛАРИ (pp. 547-551).
19. Tohirovich, Q. N. (2021). International financial accounting standards in Uzbekistan. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 328-333.
20. Давлятшаев, А. А. (2020). СОЦИАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ. In МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИНИ ИНВЕСТИЦИЯЛАШНИНГ МОЛИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ ВА ИННОВАЦИОН ЖИҲАТЛАРИ (pp. 516-520).
21. Атабаева, З. А. (2019). Организация учета инвестиций на Капитальные вложения. *Проблемы современной науки и образования*, (12-1 (145)).

DAVLAT STANDARTI ASOSIDACHIZMALARNI TAXT QILISH

 10.24412/2181-1784-2021-10-734-745

Saydaliyev Saidkarim Saydnabiyevich

Toshkent arxitektura qurilish instituti «Chizma geometriya va kompyuterda loyihalash» kafedrası p.f.n., dotsenti
arxitektor_chizma@mail.ru

Gulomova Nozima Xotamovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti «Muhandislik va kompyutergrafikasi» kafedrası dotsent v.b.
gulomova.nozima@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbumaqola umumiy «rtata» limmuassasalaridachizmachilikfaninio «qitishda asosi yomillardan boʻlgan davlat standarti asosida chizmalarni taxt qilishga oid nazariya» lumotlar, qoidalar, uslublar haqida.

***Kalitsoʻzlar:** Standart, chizmalarni taxt qilish, oʻquvchi, samaralidars, tushuncha, zaruriyat, chizmachilik, mashgʻulot, ketma-ketlik, uzviylik, didaktik talab.*

АННАТАЦИЯ

Данная статья теоретических данных, правилах метода предмета черчения, на основе государственного стандарта, которая является одним из основных факторов при обучении черчению в общеобразовательных учреждениях.

***Ключевые слова:** Стандарты чертежи, пространственное мышления, ученики, репродуктивность урока, дидактические стандарты, правила, черчения, продолжительность.*

ABSTRACT

This article is about the theoretical data, rules, and methods of the subject of drawing, based on the state standard, which is one of the main factors in teaching drawing in educational institutions.

***Key words:** Standard, blueprint drawings, spontaneous thinking, pupils, lesson reproduction, didaktik standards, rules, readings, duration.*

KIRISH

Oʻquvchilar chizmalarni taxt qilish uchun standartlarni mukammal oʻzlashtirishlari muhim hisoblanadi. Chizmalarni tuzish, oʻqish, taxt qilish standartlar asosida amalga oshiriladi. Chizmadagi koʻp xatoliklar ham aynan standartlarni yaxshi

o'zlashtira omaslik oqibatida kelib chiqadi. Shuning uchun standartlar chizmalarni taxt qilish asosiy omil hisoblanadi.

Davlat standartlar. Ishlab chiqariladigan barcha mahsulotlarning sifatini yaxshilash ularni ma'lum o'lchamga va sifatga ega bo'lishini ta'minlash maqsadida xalqaro davlat standartlari belgilangan (qisqacha GOST). Bundan tashqari standartlarning qiyidagi turlari mavjud: OST– xalq xo'jaligi tarmoqlari standarti; RST–respublika standartlari; STP– korxonalar standartlari. Standartlar texnika taraqqiyotining o'sishida, ijtimoiy mehnat unumi va xalqning turmush farovonligini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. U barcha korxonalar, loyihalash tashkilotlari va o'quv yurtlari uchun qonun hisoblanadi. 1926 yildan boshlab barcha korxonalar mahsulotlarini standartlashtirish maqsadida chizmachilik kursiga standartlar tatbiq qilingan. 1928 yilning oxirida birinchi marta mashinasozlik chizmalari qoida va normalarining yagona sistemasi ishlab chiqildi hamda nashr qilindi. Chizmalar uchun davlat standarti OST 350–358. Shu vaqtdan boshlab barcha standartlar ustida ishlash to'xtamay davom etmoqda. 1934, 1939, 1946, 1952, 1959, 1965, 1966, 1968, 1972, 1980, 1986 va O'DS 2006 yillarda chizmalar standarti qayta ko'rib chiqildi. Standartlarning chizmachilikka tatbiq qilinishi chizmalarga bir xil talablar qo'yilishiga imkon yaratdi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR


Standartlar chizmalar chizishni tezlatish, o'qilishini osonlashtirish, yangiliklar kiritish, konstruktorlarning takliflarini kiritish maqsadida o'zgartirib boriladi.

1971 yilda «Konstruktorlik hujjatlarining yagona sistemasi» (ESKD) joriy qilindi. Standartlar barcha loyihalash tashkilotlari, sanoat va qurilish korxonalari hamda o'quv yurtlari uchun majburiy bo'lib, uni buzish va unga amal qilmaslik qat'iy man etiladi.

Chizma formatlari. Chizma listlarining formatlari, ramka o'lchamlari, asosiy yozuvlar (shtamplar). Chizmalarining ma'lum tartibida saqlanishini hisobga olgan holda ularni ixtiyoriy kattalikdagi qog'ozga chizmasdan, aniq o'lchamga ega bo'lgan asosiy formatlarga chiziladi.


Asosiy va qo'shimcha formatlar bo'lib, ularning o'lchamlari GOST301–68 ga asosan olinadi. Tomonlari 1189X841 mm, yuzasi 1 m² ga teng format asosiy format deyiladi. Chizmalar qanday (original, kopiya, dublikat, chizmaning asli, ko'chirilgan nusxa, ikkinchi nusxa, kalkadagi chizma) bo'lishidan qat'iy nazar ular chiziladigan formatlar yuqorida ko'rsatilgan GOST talabiga binoan bajariladi. Chizma listlarining formati ingichka chiziq bilan chizilgan tashqi ramka bo'yicha aniqlanadi (1-shakl). Asosiy formatlar 44, 24, 22, 12, 11 kabi belgilanadi va 44 formatning katta tomonini

ketma-ket teng ikkiga bo‘lib kichik, ya’ni 24, 22, 12, 11 formatlar hosil qilinadi. Asosiy formatlarning o‘lchamlari, GOST 9327–60 ga binoan ishlatilayotgan qog‘oz formatiga tegishli belgisi (spravka uchun) hamda formatning yuzasi (m²) ko‘rsatilgan. Formatlarning belgisini ifodalovchi ikki raqamli sonning o‘zaro ko‘paytmasi shu formatda 11-formatdan nechtasi borligini bildiradi.



1-shakl.

Masalan: 24 format, bunda $2 \times 4 = 8$, demak 24 format 8 ta 11 formatdan iborat. Yoki 2 raqam formatning eni $2 \times 297 = 594$ mm ekanligini, 4 raqam esa formatning bo‘yi $4 \times 210 = 841$ mm ekanligini aniqlaydi. Bunda 11 formatning haqiqiy o‘lchami 210×297 mm ($210,25 \times 297,25$ mm). Agar asosiy format enining uzunligi berilgan bo‘lsa, bo‘yining uzunligini aniqlash mumkin. Ishlab chiqarishning texnikaviy hujjatlarida va o‘quv yurtlarida 11 formatni teng bo‘laklarga bo‘lish natijasida hosil bo‘lgan kichik formatlardan ham foydalanishga ruxsat etiladi. Uning belgisi $-1/2-1$ (ya’ni 148×210 mm). Formatlar diagonallarining kesishish nuqtasi orqali teng ikkiga bo‘linadi. Qo‘shimcha formatlar hosil qilishda, masalan 11 formatning enini uchga ko‘paytirilsa 13 format, to‘rtga ko‘paytirilsa 14 format va hokazo formatlar hosil bo‘ladi. Asosiy va qo‘shimcha formatlarning hosil bo‘lish sxemasi 2-shaklda ko‘rsatilgan.




2-shakl


Bunda asosiy tutash chiziq bilan asosiy formatlar, ingichka tutash chiziq bilan qo‘shimcha formatlar tasvirlangan. Qo‘shimcha formatlarda 2.11 yoki 10.4 kabi tomonlarining o‘lchamlari nuqta bilan ajratib belgilanadi.

Chizma qog‘ozlari 24 formatlardan biroz kattaroq qilib, ya’ni knopka qadashga mo‘ljallab ishlab chiqariladi. Shu sababli chizma taxt bo‘lgandan so‘ng formatning ortiqcha qismini qirqib tashlash kerak. Bilim yurtlarida ko‘pincha chizma chizish uchun 12, 22, 24 (A1,A11,A111) formatlardan foydalaniladi.

Ramka. Odatda har bir chizma formatiga ramka chiziladi. Ramkani chizish misoli 3-shaklda ko‘rsatilgan. Qoldirilgan 20 mm masofa chizmalarni tikib albom tarzida saqlashga moslangan. Ayrim chizma formati albomdan katta bo‘lsa bu chizmani faqat formatlar o‘lchamida buklashga ruxsat etiladi.




3-shakl



Asosiy yozuv. Har qanday chizmaning asosi yozuvi bo‘ladi. Asosiy yozuv ichki ramka chizig‘iga taqab, formatning pastki o‘ng tomoniga joylashtiriladi. Agar chizma 11 formatga (297x 210) chizilsa, a 4-shakl v hamma vaqt formatning qisqa tomoniga joylashtiriladi (4-shakl).


Asosiy yozuv konstruktorlik hujjatlarida GOST 2.104—68 ga muvofiq bajariladi. O‘quv chizmalaridagi asosiy yozuvlarning formasi ishlab chiqarish chizmalaridagi yozuv formasidan farq qiladi. Shu sababli asosiy yozuvning o‘rnini to‘ldirishda O‘ziga xos talablar qo‘yiladi. GOST 2.104—68 ga muvofiq barcha chizmalar va sxemalar uchun hamda tekstli konstruktorlik hujjatlari uchun yozuvning formalari mavjud. Bu formalar haqida tushunchalar, asosan, mashinasozlik chizmalari bo‘limida beriladi. Biz geometriya, proeksion chizmachilik va qurilish chizmachilik bo‘yicha o‘quv chizmalarini bajarishda ishlatiladigan asosiy yozuv bilan tanishib chiqamiz. Bunday formani chizish misoli 5-shaklda tasvirlangan.



5-shakl

Birinchi, ikkinchi, ettinchi, sakkizinchi, to‘qqizinchi xonalardagi yozuvlarni 5- yoki 7- shriftlarda, qolgan xonalardagi yozuvlarni esa 3,5- yoki 2,5- shriftlarda yozish

tavsiya etiladi. Chizma ramkasi va asosiy yozuv chizig‘i asosiy tutash chiziqda asosiy yozuvning (6-shaklga qarang) ayrim chiziqlari ingichka tutash chiziqqa chiziladi.




6-shakl

Chizma chiziqlari. Chizmani bir xil yo‘g‘onlikdagi chiziqlar bilan chizilsa, uni o‘qish juda murakkab bo‘ladi. Chizmaning to‘g‘ri o‘qilishi, sifatli chiqishi chizma chiziqlarini o‘z o‘rnida ishlatishga bog‘liq.


GOST 2. 303–68 da tasdiqlangan to‘qqiz xil chiziq ishlatiladi. Lekin bu chiziq to‘rlario‘z-o‘zidan hosil bo‘lmasdan, ma‘lum tarixiy davrni bosib o‘tgan. XVIII asrda chizmaning asosiy chiziqlari sifatida kontur va shtrix-punktir chiziqlardan foydalanilgan. Shtrix-punktir chiziq chizmada ko‘rinmaydigan konturlarni, uzilish joylarni, keyinchalik chizmaga o‘lcham qo‘yish paydo bo‘lganidan so‘ng chiqarish va o‘lcham chiziqlarini tasvirlash uchun ishlatilgan. XIX asrning 40- yillaridan boshlab ko‘k rangli asosiy tutash chiziq bilan chiziqlari tasvirlangan. Yanabir qancha o‘zgarishlardan so‘ng, chizmani chizish va ulardannusxa ko‘chirish uchun qulay bo‘lgan 6-shaklda ko‘rsatilgan **chiziq** to‘rlari ishlatila boshlandi.

Asosiy tutash chiziqning yo‘g‘onligi (s) tasvirning kattaligi va murakkabligi hamda chizma formatiga qarab tanlanadi ($s=0,6 \dots 1,5$ mm). Bir xil masshtabda chizilgan chizmalar uchun shu chizmadagi hamma tasvirlarning yo‘g‘onligi bir xil bo‘lishi kerak, s ning yo‘g‘onligiga qarab boshqa chiziqlarning yo‘g‘onligi tanlanadi, s ning yo‘g‘onligi 0,9 mm dan kam bo‘lmasa hamda chizma tushda bajarilsa s yo‘g‘onlikdagi chiziqlarni ishlatishga ruxsat etiladi.



6-shakl

Eng ingichka chiziq va chiziqlar orasidagi eng kichik masofa chizmaning formatiga binoan tanlanishi kerak. Muhandislik grafikasi fanlarda chizmalarni bajarish uchun asosiy tutash chiziqlarning yo'g'onligini $S=0,8 \dots 1$ mm qilib tanlash maqsadga muvofiq. Chizmalarda chiziqlarning ishlatilishi 7-shaklda ko'rsatilgan.



7-shakl

Masshtab – bu buyum tasvirini chizmada asliga nisbatan necha marta kattalashtirilgan yoki kichiklashtirilganligini ko'rsatuvchi son yoki buyumning haqiqiy o'lchamlarini uning chizmasidagi (tasviridagi) o'lchamiga nisbatan masshtab belgilovchi nisbat oldiga M harfi qo'yiladi.


O'z DSt 2.302. 97 standartga muvofiq quyidagi masshtablar mavjud:

M 1:1 – bu buyumning haqiqiy kattaligini tasvirlash masshtabi.

Buyumni kichraytiruvchi masshtab: 1:2; 1:2,5; 1:4; 1:5; 1:10; 1:20; 1:25; 1:40; 1:50; 1:75; 1:100; 1:200; 1:400; 1:800; 1:1000.

Buyunning kattalashtirilgan masshtabi: 2:1; 2,5:1; 4:1; 5:1; 10:1; 20:1; 25:1; 40:1; 50:1; 75:1; 100:1; 200:1; 400:1; 800:1; 1000:1.

Asosiy yozuvda masshtab uning uchun belgilangan grafaga yozilgan bo'lsa M harfi tushirilib qoldiriladi. Qolgan hollarda M 1:1, M 1:2, M 2:1,..... tartibida yoziladi (8-shakl). Mahalliy ko'rinish yoki ayrim xarflar yoxud raqamlar bilan belgilangan tasvirlar masshtabi quyidagicha yoziladi: $\frac{A}{M2:1}$; $\frac{II}{M4:1}$.




8-shakl

Chizmadagi yozuvlarning ahamiyati. Barcha harf va raqamlarning bir xil yozilishini ko'zlab ular uchun umumiy xarakter, qiyofa beradigan grafikaviy belgilar yig'indisiga shrift deyiladi. Yozilishi, ya'ni shakli jihatidan shriftlar turli xil bo'ladi. Masalan, gazeta, kitob va plakatlarni bosishda ishlatiladigan topografik shriftlar, original badiiy shriftlar, ixtiyoriy shriftlar hamda chizma shriftlari. Texnikaning murakkablashib o'sib borishi, buyumlarning ko'plab ishlab chiqarilishi XIX asrning boshlariga kelib chizmalarga sonli o'lchamlar qo'yishni talab etdi. Bu o'lchamlar buyumlarni tayyorlash texnologiyasi va ularni yig'ish jarayonini tasvirlovchi yozuvlarda, o'qilishi va yozilishi oddiy bo'lgan harf va raqamlarda yozilishi kerak edi. Bunga erishish maqsadida «Rondo», «Kapitalniy», «Kursivniy», «Relefniy» va «Kirpichniy» kabi maxsus chizma shriftlari yaratildi. Bu shriftlar yozilishini soddalashtirish, bosmadan chiqishini yaxshilash maqsadida 1919 yilda yangi shrift joriy qilindi. Bu shriftlar OST 353 ga binoan 1926 yildan boshlab mashinasozlik chizmachiligiga tatbiq qilindi. 1934 yilda bu shrift qayta ishlanib, unga kichik (yozma) harflar kiritildi. 1939 yilda ayrim o'zgarishlar kiritilishi natijasida OST 353 o'rniga OST 7535—39 qabul qilindi. 1946 yilda shriftlarning yangi standarti GOST 3454—46, 1952 yilda esa GOST 3454—52 ni tasdiqladi, 1959 yildan boshlab GOST 3454—59 joriy qilindi. 1968 yildan GOST 2304—68 shriftlari ishlatilmoqda.

Standart shriftlar yozilishining oddiyligi, bosmadan chiqishining sifatligi va hokazolar bilan boshqa shriftlardan ustun turadi. Chizma yuqori sifatli chizilib, uning

o'Ichamlari, chizmaga tegishli yozuvlar standart shrift bilan yozilmagan bo'lsa, bunday chizmani o'qish qiyinlashadi va demak, bu chizma bo'yicha tayyorlangan mahsulot brak bo'lib chiqadi. Shuning uchun chizmalardagi yozuvlar aniq o'qiladigan standart shriftida yozilishi kerak.

Konstruktiv hujjatlarda, yozuvlar O'z DSt 2.304.97-da belgilangan chizma shriftlar bilan bajariladi. Bu standartlarda shriftni shakli, balandligi, yo'g'onligi (qalinligi), shriftlar orasidagi masofa va boshqalar ko'rsatilgan. Sanoatning hamma tarmoqlariga oid chizmalar va texnikaviy hujjatlar, chizmalar yozuvlari uchun chizma shriftlarini quyidagi o'Ichamlari berilgan: 2,5; 3,5; 5; 7; 10; 14; 20; 28; 40. Shriftlarni o'Ichami deb bosh harflarning millimetr hisobidagi balandligi h tushunish kerak. Texnik chizmalarda o'Ichami $h=2,5$ dan $h=14$ gacha bo'lgan shriftlar qo'llaniladi. O'z DSt 2.304. 97 bo'yicha kirill, lotin, yunon alfavitlarining harflari hamda raqamlardan iborat bo'lgan chizma shriftlari belgilangan. Bu standartlar asosan kirill va lotin alfavitlari harflari va arab sonlari tuzilish jihatdan asosi va enli shriftlarga bo'linadi. Asosiy shrift hamma chizmalarda va tekstli hujjatlardagi yozuvlarda qo'llaniladi. Keng shriftlar bir necha so'z bilan bir qatorni to'ldirish kerak bo'lgan hollarda va shuningdek, diagramma, jadval, ko'rgazma chizmalari, titil varaqlari va hokazolarda qo'llaniladi. Normal shrift asosiy chiziqqa nisbatan 75° og'ma qilib yoziladi (9-shakl).



9-shakl

Nomlarni, sarlavhalarni, asosiy yozuvdagi va chizma yuzasidagi belgilarni qiyalatmasdan to'g'ri yozish mumkin. Chizmalarni kompyuter yordamida bajarish jadal suratlar bilan rivojlanib bormoqda. Hozirgi vaqtda rus, lotin, arab, grek alfavitlarini chizmalarda va hujjatlarda yozish uchun O'zDSt 2.304.97- hamma talablarini kompyuter yordamida bajarish dasturlari tuzilgan va u kompyuter xotirasiga kiritilgan.

XULOSA

Bizga kerak bo'lgan shriftning parametrini kompyuterga kiritib xohlagan tekst yozuvini yozib uni printer yoki grafopostroitel yordamida chiqarish mumkin. Shuning uchun biz shrift yozish qoidalarni maqolada yoritmadik. O'quvchilar bu standartlarni mustaxkam o'zlashtirishlari muhimligi barcha texnik va badiiy oliy

ta'lim muassasalarida chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanlari o'qitiladi. Bu fanlar o'quvchilar tomonidan o'lashtirilgan standartlarga oid bilimlar asosida dars mashg'lotlari tashkil etiladi.

REFERENCES

1. Гервер В.А. Основы инженерной графики: Учебное пособие / В.А Гервер, А.А Рывлина. - [б. м.] : Кнорус, 2017 г. - 426 с. - Библиогр.: 384 с.
2. Кувшинов Н.С. Инженерная и компьютерная графика : Учебник / Н.С Кувшинов, Т.Н Скоцкая ; рец. И.Г Торбоев. - [б. м.] : Кнорус, 2017 г. - 234 с. Библиогр.: 230 с.
3. Saydaliyev S.S. Chizmageometriya va muhandislik grafikasi: O'quvqo'llanma. TDPU bosmahonasi. -335 b. 2017 y.
4. Георгиевский О.В. Инженерная графика для строителей : Учебник / О.В Георгиевский, В.И Веселов ; рец. И.М Рябикова. - [б. м.] : Кнорус, 2019 г. - 222 с. - Библиогр.: 220 с.
5. Туланова, Д. Ж., and Н. Х. Гуломова. "Технология и условия проведения дидактических игр в процессе преподавания черчения в вузе." Образование как фактор развития интеллектуально-нравственного потенциала личности и современного общества. 2018.
6. Валиев, Аъзам Неъматович, Дилноза Журахановна Туланова, and Нозима Хотамовна Гуломова. "Современные педагогические и инновационные технологии обучения на занятиях по черчению." Молодой ученый 3 (2018): 183-184.
7. Усмонов, Б. Ш., Дадабоева, Д. И., & Валиева, З. Т. (2021). NX-ЭТО ИНТЕГРИРОВАННОЕ РЕШЕНИЕ ДЛЯ ПРОЕКТИРОВАНИЯ ПРОДУКТОВ, РАЗРАБОТКА И ПРОИЗВОДСТВО. Scientific progress, 2(1), 825-834.
8. Аширбаев, А. (2021). ЧИЗМАЧИЛИК ТАЪЛИМИНИНГ УЗВИЙЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ ВА УНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. ГРААЛЬ НАУКИ, (6), 434-439.
9. Аширбаев, А. (2021). Chizmalarga o'Icham qo'yishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tipik xatolar va ularning oldini olish omillari. Общество и инновации, 2(3), 7-15.
10. Gulomova, N. (2021). Use of interactive methods for students in teaching drawing lessons (on the example of views). ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(1), 1637-1642.

11. Saydaliyev, S., & Gulomova, N. (2019). Development of Spatial Thinking of Students Based on the Traditions of Eastern Architecture. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 14(2), 210-214.
12. Gulomova, N., & Saidaliyev, S. (2020). Development of Emergency Image in Students Psychological-Pedagogical Problems. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 18(2), 181-186.
13. Гуломова, Н. Х., & Туланова, Д. Ж. (2017). Использование законов перспективы при обучении изобразительному искусству: Материалы науч.-практ. конф. Какандский государственный педагогический институт (Республика илмий амалий конференция мақолалари тўплами. Кукон Давлат педагогика институти). In Какандский государственный педагогический институт (Республика илмий амалий конференция мақолалари тўплами. Кукон Давлат педагогика институти).
14. Gulomova , N. (2021). CHIZMA GEOMETRIYA, CHIZMACHILIK DARSLARIDA TALABALARGA TESTLAR ORQALI ULARNING BILIMINI ANIQLASH. ГРААЛЬ НАУКИ, (4), 404-408. <https://doi.org/10.36074/grail-of-science.07.05.2021.075>
15. Саидалиев, С. С., Гуломова, Н. Х., & Туланова, Д. Ж. (2017). Методы эффективного использования законов перспективы при обучении изобразительному искусству. *Молодой ученый*, (7), 462-469.
16. Saydaliyev, S. S., & Gulomova, N. K. (2015). UMUMIY O 'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA TASVIRIY SAN'AT DARSLARINI SIFAT VA SAMARADORLIGINING OSHIRISH. FORMATION A CULTURE OF INDEPENDENT THINKING IN THE EDUCATIONAL PROCESS, 161.
17. Jabbarov, R. (2019). Formation of Fine Art Skills by Teaching Students the Basics of Composition in Miniature Lessons. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 17(1), 285-288.
18. Gulomova , N., Abdusalomova , X., & Abdusalomova , M. (2021). YOSH AVLODNI TARBIYALASHDA AMALIY SAN'AT TA'LIMINING O'RNI VA AHAMIYATI. Збірник наукових праць ЛОГОС. <https://doi.org/10.36074/logos-01.10.2021.v2.33>
19. Xadicha G'Ayratjon Qizi Abdusalomova, & Nozima Xotamovna Gulomova (2021). SAN'AT VA MADANIYAT SAHOSIDAGI ISLOHOTLAR BILAN ERTANGI KUNGA YANGICHA NAZAR. *Scientific progress*, 2 (2), 663-669.
20. Валиев Аъзамжон Нематович. (2021). Об Особенности Перспективы Простых Геометрических Фигур И Проблемах В Ее Обучении. *CENTRAL*

ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL & APPLIED SCIENCES, 2(4), 54-61.
Retrieved from

<http://cajotas.centralasianstudies.org/index.php/CAJOTAS/article/view/116>

21. Avazboyev, A., & Jamaldinova, M. (2021). Texnologiya fanini “STEAM-ta’lim” yondashuvi asosida o‘qitishning mohiyati va afzalliklari. Жамият ва инновациялар, 2(5), 109–115. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss5-pp109-115>

22. Gulomova, N. (2021). “Uzatmalar” mavzusini o‘qitishda “iSpring Quiz Maker” dasturidan foydalanib, talabalarga nostandart testlar orqali bilish faolligini faollashtirish. Жамият ва инновациялар, 2(5), 8–18. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss5-pp8-18>

23. Jabbarov, R. (2021). Sharq uyg‘onish davri yetuk san’atkori buyuk miniatyurachi musavvir Kamoliddin Behzod ijodi ta’sirida yuzaga kelgan o‘ziga xos yo‘nalish. Жамият ва инновациялар, 2(5/S), 59–67. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss5/S-pp59-67>

24. Xadicha G‘Ayratjon Qizi Abdusalomova, & Nozima Xotamovna Gulomova (2021). SAN‘AT VA MADANIYAT SAHOSIDAGI ISLOHOTLAR BILAN ERTANGI KUNGA YANGICHA NAZAR. Scientific progress, 2 (2), 663-669.

25. Malikov, K. G. (2020). Theory and practice of construction of axonometric projects. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(9).


26. Gafurovich, M. K. (2021). Axonometry New Practical Graphical Methods For Determining System Parameters. Psychology and Education Journal, 58(2), 5710-5718.

27. Valiev, A. (2021). ABOUT THE FEATURES OF THE PERSPECTIVE OF SIMPLE GEOMETRIC SHAPES AND PROBLEMS IN ITS TRAINING. Збірник наукових праць SCIENTIA. вилучено із <https://ojs.ukrlogos.in.ua/index.php/scientia/article/view/10540>

28. Muratov, H. (2021). THE IMPORTANCE OF ORGANIZATION AND MANAGEMENT INDEPENDENT EDUCATION IN THE LEARNING PROCESS. Збірник наукових праць ЛОГОΣ. <https://doi.org/10.36074/logos-09.04.2021.v2.40>

29. Xolmuratovich, M. X., & Ravshanovich, J. R. (2020). Amaliy va badiiy bezak san’ati. UO‘K, 76, 075.

O‘SMIR YOSHDAGI BOLALAR GARDEROBIDAGI KIYIMLARGA QO‘YILADIGAN TALABLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI TAHLILI

 10.24412/2181-1784-2021-10-746-751

Ma’suda Irgasheva

O’qituvchi, Kamoliddin Behzod nomidagi MRDI

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o’smir yoshdagi bolalar davriga xos kiyinish madaniyati va ularning turlari, yoshlar garderobiga qaysi kiyim turlari kirishi va ularning qanday jihatlariga e’tibor berish kerakligi, o’smir yoshdagi bolalar garderobidagi kiyimlarga qo’yiladigan talablarning o’ziga xos xususiyatlari tahlil etilgan.

Kalit so’zlar: *O’smirlar garderobi, zamonaviy liboslar, transformatsiya, milliy matolar, matolar kombinatsiyasi.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье проанализирована культура и виды одежды, характерные для детского подросткового возраста, какие виды одежды входят в молодежный гардероб и на какие аспекты следует обратить внимание, особенности требований к одежде в гардеробе детей подросткового возраста.

Ключевые слова: *подростковый гардероб, современная одежда, трансформация, национальные ткани, сочетание тканей.*

ABSTRACT

This article analyzes the culture and types of clothing characteristic of adolescent children, which types of clothing are included in the youth wardrobe and which aspects should be paid attention to, the specifics of the requirements for clothing in the wardrobe of teenage children.

Keywords: *teenage wardrobe, modern clothes, transformation, national fabrics, combination of fabrics.*

KIRISH

Bugungi kunda Respublikamizda o’sib kelayotgan yosh avlodning rivojlanishiga katta e’tibor berilmoqda. Shuningdek, bolaning o’sib rivojlanishiga, to’g’ri tarbiya va ta’lim olishiga katta imkoniyatlar yaratilgan. Hozirgi kunda ishlab chiqarilayotgan havfsiz mahsulotlar bilan bolalarni ta’minlash muammosi davlatimizning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi, chunki yosh avlodning sog’lig’i va kelajakdagi muvaffiqiyati bu vazifa yechimining natijasiga bog’liqdir. Shu bilan birga o’smir

yoshdagi bolalar kiyimining o'ziga xosligi ham muhim rol o'ynaydi. Bu yoshda bolalar kiyimiga qo'yiladigan talablar bir muncha o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'smir yoshdagi bolalar garderobidagi kiyimlarga qo'yiladigan talablarning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish jarayonida ilmiy bilish usullarining mantiqiylik, izchillik va ob'ektivlikdan keng foydalanilgan. "Libos dizayni" yo'nalishida bolalar kiyimlarining ahamiyati va uni zamonaviy moda va liboslar dizayni sanoatidagi istiqbollari haqida tahlil o'tkazildi. Maqolani yoritish jarayonida F.Z. Ataxanova, A.S.Saidiganieva, S.A.Karimova, G.E. Umarov, N.A.Abduqodirovalarning "O'zbekistonda badiiy dizayn ta'limi: kelib chiqishi, xususiyatlari, muammolari" sarlavhali maqolasida yoritilgan uslubiy ko'rsatmalari va S.A. Yunusxo'jaevaning "Yosh rassomga ta'lim berishda samarali usullardan foydalanish iqtidorli yoshlarning yetuk mutaxassis bo'lib yetishishining garovidir" nomli maqolasidagi fikrlar shuningdek, G.K. Xasanbayevaning "Yoshlar uchun kiyim-kechak dizayni spetsifikasi" kitobidagi ma'lumotlar o'smir yoshdagi bolalar garderobidagi kiyimlarga qo'yiladigan talablarning o'ziga xos xususiyatlarini taxlil etishda asos bo'lib xizmat qildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

So'nggi yillarda yangi materiallar paydo bo'lishiga yuzaga keladigan bolalar kiyim-kechagini loyihalash katta o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. O'smir bolalar gavdasining shakli, yangidan shakllantirish, standart usullari bo'yicha, ayni paytda juda mashhur ochiq uslub va trikotaj ishlab chiqarishda katta ulushini qo'shmoqda.

Shu bilan bir qatorda o'smir yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan kiyimlarga ko'pgina talablar qo'yiladi. Birinchi navbatda ular: qulay, sifatli va yorqin bo'lishi lozim va albatta tabiiy tolali matolardan tayyorlanishi maqsadga muvoffiqdir.

Sintetik kiyim turlaridan ajratilgan mikroplastikani yuvishda atmosferada va tuproqda to'planadi va sayyoramizni ifloslantiradi. Har yili dunyoda 150 milliard kiyim ishlab chiqariladi, shulardan faqat yarmi sotib olinadi. Haddan tashqari ko'p miqdordagi ishlab chiqarish tufayli sotilmagan tovarlar hajmi oshib boradi, sotilmagan tovarlar yo'q qilinadi yoki chiqindilarga tashlanadi [4].

Rassom materialni ongli ravishda tanlaydi, uning xususiyatlarini belgilaydi va sharhlaydi, mahsulotni umumiy shaklga, ya'ni badiiy va kompozitsion birbutunlikga yig'ish uchun muhandislik va texnologiya ishlarini bajaradi [5].

Odatda, barcha ko'rsatkichlarga mos tushuvchi kiyimlarni tanlash murakkab jarayon hisoblanadi. Aynan shuning uchun ham yoshlarbop zamonaviy liboslarni tanlashda uzoq vaqt va e'tibor talab qilinadi. Yoshlarbop zamonaviy liboslar nafaqat, kiyim, balki jamiyatda o'z o'rnini, o'z hohish-istak va qiziqishlarini ko'rsata olish ham demakdir. Buning uchun esa o'smir yoshlar uchun kiyimlarni aniq va to'g'ri tanlay olish kerak bo'ladi. Aynan, o'smirlar yosh davrida biror bir aniq guruhga xos bo'lishni hohlaydilar, ya'ni ma'lum bir uslub asosida kiyinishni istaydilar. Masalan, ijod bilan qiziquvchi yosh o'smirlar yorqin, ko'p yozuvli kiyimlarni ma'qul ko'radilar. Bundan tashqari, bunday kiyimlar juda yorqin tusda yaltirovchi ranglargacha ham bo'lishi mumkin. Bunday holatda o'smir bolalar atrofdagilarga ishga bo'lgan nostandart munosabatini va xarakterining yangi ko'rinishlarini ko'z-ko'z qiladilar. O'smirlar uchun zamonaviy liboslardan tashkil topgan garderob quyidagilarni o'z ichiga oladi: oddiy maykalar bilan birga rasmi bo'lgan maykalar, kalta va uzun yengli rasmi yoki yo'l-yo'l ko'ylaklar. Shuningdek, shimlar, jinsi, shorti, bridjilar va h.k. O'smirlar garderobida ko'pgina zamonaviy liboslarni ham uchratish mumkin. O'smirlar odatda, o'z garderobini ochganda nima kiyish kerakligi to'g'risida bosh qotirmaslikni xush ko'radilar. Yoshlar an'anaviy tarzda o'ziga qulay bo'lgan kiyimlarni tanlaydilar. Ular uchun keng shimlar yoki jinsi, keng ko'ylaklarni kiyish yetarli xolos. Albatta, o'smirlar orasida o'zini doimiy ravishda kuzatib yuruvchilar ham topiladi. Bunday o'smirlar uchun dizaynerlar bir oz tanaga yopishib turuvchi modellarni tavsiya qilishadi. O'smir qizlarda kiyimlar bo'yicha tanlov juda ham ko'p. Bular: turli bichimdagi ko'ylak va yubkalar, shimlar, jinsi, shorti va boshqalar. Yoshlarbop liboslar boshqa yoshdagi kiyimlarga nisbatan, bir-birini kombinatsiyalashi mumkinligi bilan ham ajralib turadi. Odatda, bunday kombinatsiyalash yaxshi natija beradi [1].

O'smirlar uchun tanlangan zamonaviy liboslar chiroyli va yangi dizayndan tashqari yana bir qator zarur va asosiy sifatlarga ham ega bo'lishi lozim. O'smirlar kiyimlari nafaqat, zamonaviy, balki, sifatli, chidamli, tana uchun zararsiz ham bo'lishi darkor. Ko'pgina mahsulot ishlab chiqaruvchilar ajoyib dizayn yaratadilar, ammo mahsulot sifatiga kam e'tibor beradilar, odatda kiyimlar uzoqqa chidamli bo'lmay, tez eskiradi, rangi chiqib, xiralashib qoladi. Ishlab chiqaruvchilar bunday kiyimlarni, odatda, sarf-harajatini o'ylab yaratadilar. Agar o'smirlar kiyimlarini mavsumiy kamaytirilgan narxda sotuvga qo'yilgan bo'lsa, birinchi navbatda uning sifatiga qarash lozimdir. Odatda, o'smirlar uchun kiyimlarni qimmatga ham olish noto'g'ri, sababi o'smir bolalar tez o'sib boradilar va ular garderobini kamida bir necha bor almashtirishga to'g'ri keladi. Shuningdek, o'smir bolalar kiyimlariga nisbatan mavsumiy narxining pasaytirish hollarida sifatli bo'lgan mahsulotlarni ham topib,

xarid qilish mumkin. Ular orasida urfdan qolgan yoki mavsumdan o'tgan kiyimlar ham bo'lishi mumkin. Bunday hollarda qilingan xarid ota-onalarga oilaviy byudjetiga putur yetkazmaydi. Shuningdek, kostyumning asosiy jihatlaridan biri bo'lgan poyafzal ham asosiy rol o'ynaydi. Bunday hollarda bir o'lcham katta bo'lgan poyafzalni xarid qilish mumkin, ammo o'ta katta oyoq kiyim bolaning yurishiga noqulayliklar tug'diradi. Tabiiy charmdan tayyorlangan poyafzallar o'smir bolalar uchun qulay va zararsiz hisoblanadi.

O'smir bolalar kiyimlari kattalar ko'ylaklari, pidjak va shimlaridan butunlay farq qiladi. Bular nafaqat, moda yoki uslubga tegishlidir, balki uni tayyorlashda ishlatiladigan materialga ham taaluqlidir. Yoshlarbop kiyim mustahkam, chidamli bo'lishi bilan birga zamonaviy urfga xos bo'lgan va chiroyli ham bo'lishi lozim. Shu bilan birga, o'smirlar kiyimlari narx jihatidan ham mos kelishi kerak.

Ma'lumki, yoshlik – bu orzu va umidlar, yorqin va unutilmas daqiqalar davri hisoblanadi. Har bir o'smir biror idealga taqlid qilgan holda, hech kimga o'xshamagan uslubda kiyinishni istaydi. Aksariyat hollarda, o'smirlar garderobi hoh u o'g'il bola yoki qiz bola bo'lsin onalar maslahatiga tayanib tanlanadi.

"Merry Mathematics-1", "Merry Mathematics-2" and "Mathematical Tales" by E.S. Sinitsyn includes stories, and the author reads stories at least once a week in additional classes that help students to form in schoolchildren a feeling of love for all creatures. He writes that as a result of their study, bad thoughts, aggression are completely removed from their consciousness and thinking. Students draw a picture based on the story. The author's book contains stories and mathematical tasks that need to be solved by the reader. The effectiveness of the method in this process lies in the fact that the reader thinks about how to draw a picture and how to write a story. When drawing, the reader chooses colors that lift the mood, and this has a healing effect on him. The methodology proposed by the author directly contributes to positive results in integrated learning.

The most effective way to instill a science-based culture in students in elementary school is when the student learns to consciously interact with the environment. The formation of a culture of environmental safety is of a control nature, in which the tasks set in connection with this are solved not on the basis of random actions, but on the basis of predetermined and carefully thought out plans. In the process of forming a culture of environmental safety, its goals, forms and methods, aspects of self-ecological education of the individual play an important role.

The integrated education system is based on such principles as paradox, including harmony, content, emotional attractiveness of information. Without them, the polyphonic meaning is lost, and the art of learning becomes a craft. To implement these principles, the integration of different disciplines is required. Integration and integrity is the belief of my system. It combines science and art. One class includes literature, drawing, mathematics, physics, and sometimes geography and history. [8]

Based on the components and phenomena of nature described in primary education, as well as the attitude of man to nature, the content and form of concepts related to environmental education, which should be mastered by students, were identified. It was noted that the identified concepts of environmental education are related to other concepts. Improvement of environmental concepts in primary school students on the basis of a creative approach was analyzed on the basis of the above-mentioned specific feature requirements[12].

THEORETICAL BACKGROUND

Periodization is based on the identification of age characteristics. Age features are the anatomical, physiological and mental qualities characteristic of a certain period of life. Since the biological and spiritual development of a person is closely related to each other, age-appropriate changes also occur in the mental sphere. [4]

This article highlights the question of techniques for the effective use of multimedia in improving the quality and effectiveness of reading lessons in primary grades[14]. Primary education is carried out with a wide and effective use of multimedia tools, active teaching methods, game technologies. With the techniques of effective use of multimedia, students develop the ability of active and logical thinking, attention, logical memory, mental ability. [5]

The article discusses the issue of the possibilities of using developing educational technologies for primary school students, provides arguments for the direct connection of creative activity with organizational and methodological activity. Also, the priorities of developing educational technologies of forms of education are identified, which make it possible to educate a comprehensively developed generation. [6]

That is why it is theoretically and practically important to focus on the innovative teaching and learning skills of teachers in the elementary school classrooms, and the problems of selecting and applying the most appropriate educational technologies.

Innovative learning technologies are a systematic way to create, apply and define technical and human resources and their interrelationships, with the goal of

enhancing the effectiveness of forms of learning throughout the learning and learning process. Widespread access to modern knowledge is one of the most important requirements of today. [3]

Environmental awareness and thinking in children is formed on the basis of environmental knowledge. A healthy and safe lifestyle is formed through an ecological attitude towards nature and the environment[13]. The goal of forming the foundations of ecological culture in children is to educate a harmonious, competent, creatively active and socially adapted personality, capable of feeling and understanding the outside world, sensitively and lovingly treating nature, appreciating and protecting it. By the ecological culture of primary schoolchildren, we mean the integrative quality of the individual, including ecological knowledge and ideas about spiritual and moral values; the need to take care of nature, an understanding of its many-sided value; ecological behavior focused on spiritual and moral values, which ensures harmonious interaction with nature in the system "man - society - nature".

In our study, the formation of a culture of environmental safety in primary school and the interdisciplinary linkage of education are theoretically and practically substantiated. At the stage of revealing the pedagogical experimental work, the diagnostics was carried out on the basis of methods, the results of which convinced us of the need for purposeful work to implement the model of education of the ecological culture of younger schoolchildren.

CONCLUSION

Urposefully, meaningfully, systematically and effectively organized work on the implementation of the model of upbringing the ecological culture of primary schoolchildren. A model of interdisciplinary formation of a culture of environmental safety in younger schoolchildren is proposed, the state of environmental knowledge and perceptions of students is studied, methods of formation of a culture of environmental safety are developed.

REFERENCES

1. Umumiy o'rtta ta'limning Davlat ta'lim standarti. T., 2017.
2. Синицын, Е. С. Как воспитать гения, или Несколько парадоксальных мыслей о педагогике: Российское здоровье и общество. - 2005. (s-genius.ru)
3. Muxtarova, L. A. (2021). Use of multimedia technologies in the educational process. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 1781-1785.

4. Эшбоева, С. К. (2018). ВЛИЯНИЕ ИНДИВИДУАЛЬНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ НА РАЗВИТИЕ И ВОСПИТАНИЕ ШКОЛЬНИКОВ. Гуманитарный трактат, (29), 48-51.
5. Мухтарова, Лобар Абдиманнаповна. "ПУТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОЗМОЖНОСТЕЙ МУЛЬТИМЕДИА В ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА И ЭФФЕКТИВНОСТИ УРОКОВ ЧТЕНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ." *Научные горизонты* 11-1 (2018): 247-252.
6. Мухтарова, Л. А. (2017). BOSHLANG'ICH SINFLARDA RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI. *Апробація*, (2), 93-94.
7. Abdimannobovna, M. L., Sharifovna, Y. D., & Zebuniso, A. (2019). WAYS TO USE MULTIMEDIA IN MODERN SCHOOL EDUCATION. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(12).
8. Мухтарова, Л. А. (2018). РАЗВИТИЕ И ФОРМИРОВАНИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У ШКОЛЬНИКОВ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ. *Гуманитарный трактат*, (24), 13-14.
9. Abdimannobovna, M. L. (2020). THE METHODS OF FORMATION OF THE CULTURE OF ECOLOGIC SECURITY IN STUDENTS IN THE TEACHING OF NATURAL SCIENCES. *International Engineering Journal For Research & Development*, 5(4), 5-5.
10. Muxtarova, L. A. (2021). Ways of formation of ecological culture in children of primary age. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 648-652.
11. Abdimannabovna, M. L. (2021). Formation of the Ecological Culture of Schoolchildren in the Study of Natural Science. *International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology*, 1(6), 73-76.
12. Eshboeva Surayyo Kahramon kizi (2021). Pedagogical Fundamentals of Improving the Creative Approach in the Formation of Ecological Concepts in Primary School Students. *International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology*, 1(6), 77–81. Retrieved from <http://openaccessjournals.eu/index.php/ijiaet/article/view/617>
13. Zokirov, Javohir Gaybullo Ogli, & Xurramov, Rustam Sayfiddinovich (2021). FORMATION OF ETHNOPEDAGOGICAL VIEWS AMONG STUDENTS THROUGH THE STUDY OF THE LIFE AND WORK OF ALISHER NAVOI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1 (10), 339-343.

ELEKTRON DARS LIKLAR INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING TURI SIFATIDA

Botirbekova Gulchehra Abdumutalovna

Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasasi assistenti

tugmacha@mail.ru

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola ta'lim jarayoni innovatsion texnologiyalarining bir qismi bo'lgan elektron darsliklarga bag'ishlangan bo'lib, ularning yutuq va kamchiliklari, darslik yaratish jarayonida e'tiborga olinishi kerak bo'lgan jixatlarga to'xtalib o'tilgan. Electron darsliklardan foydalanish ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali bo'lishiga, o'quvchilarni mustaqil ishlashini rivojlantirishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: ta'lim jarayoni, electron darslik, axborot texnologiyalari, motivatsiya, yutuq va kamchiliklar, masofaviy ta'lim.

ABSTRACT

This article is dedicated to e-books, which are part of the innovation technologies in education process, and discusses the advantages and disadvantages of e-books, the aspects that need to be considered in their creation. Using of e-books in education helps to make the learning process more interesting and effective, develop students' self-study.

Key words: learning process, e-book, information technologies, motivation, advantages and disadvantages, distance learning.

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена электронным учебникам, которые являются частью инновационных технологий образовательного процесса, и рассматриваются их достоинства и недостатки, а также аспекты, которые необходимо учитывать в процессе создания учебника. Использование электронных учебников помогает сделать процесс обучения более интересным и эффективным, а также развить у учащихся способность к самостоятельной работе.

Ключевые слова: учебный процесс, электронный учебник, информационные технологии, мотивация, сильные и слабые стороны, дистанционное обучение.

KIRISH

Zamon rivojlanishi natijasida kundalik hayotimizga turli xil innovatsion texnologiyalar hamda gadjetlar kirib keldi va ular yildan-yilga mukammallashib bormoqda. Bular inson hayoti mazmuniga aylanib qolganligi, ularsiz bir kunini ham tasavvur qila olmaydiganlarning mavjudligini ham inkor qilib bo'lmaydi. Albatta, ta'lim jarayonini innovatsion texnologiyalar bilan boyitish o'qitish sifatini oshirishga, qiziqarli, rang-barang qilishiga allaqachon amin bo'lganmiz va hozirda har bir o'qituvchi ulardan foydalanadi. Shu o'rinda, elektron darsliklarga to'xtalib, ularning yutuq va kamchiliklarini ko'rib chiqsak.

Electron darsliklar maxsus qurilma yoki dasturiy ta'minot bo'lib, ta'lim jarayonida an'anaviy qog'oz kitob o'rnini bosadi. Bugungi kunga kelib electron kitob tushunchasiga turlicha ta'riflar mavjud. Ayrim manbalarda ular an'anaviy qog'oz kitoblarning electron ko'rinishi deyilsa, boshqalarda matnlardan tashqari, o'quvchilarga taqdim qilish uchun ta'limiy multimediy materiallariga hamda markaziy manba tomonidan yangilanib turuvchi, bilimlarni nazorat qiluvchi interaktiv blokga ega elektr on qurilmalardagi murakkab dasturlar yig'indisi deya ta'riflanadi. Electron darsliklarning so'nggi vakillari ustida qayta ishlash jarayonlari olib borilayotganligi sababli zamonaviy electron darsliklar asosan tasvirli matnlardan iborat. Deyarli barcha o'qituvchilar ularning o'quvchilar tomonidan oson qo'llanilishi, texnik qurilma yordamida fanga bo'lgan qiziqish va motivatsiyaning ortgani, darsda va uyda maroq bilan foydalanishlari haqida ta'kidlaydi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ma'lumki, bugungi kunning eng asosiy vazifalaridan biri turli fanlar sohasini o'z ichiga olgan bilimlar omborini yaratishdir. Ya'ni, yangi axborot texnologiyalarini ta'limga tatbiq etish ta'limda an'anaviy o'qitish jarayonidan o'quvchining o'zi ta'lim jarayonini borishini aniqlaydigan yangi jarayoniga o'tishni ta'minlaydi. Bu orqali, bir qancha iqtidorli o'quvchilar o'z qobiliyati va qiziqishiga mos ravishda mustaqil bilim olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Electron darsliklarning maqsadi an'anaviy qog'oz kitoblar o'rnini bosish emas, balki keng imkoniyatga ega ta'lim quroliga aylantirish. Bu darsliklarning asosiy ustunligi – interaktivligida. Electron darsliklar bilan ishlovchi qurilma texnologiyasi matnlardan tashqari o'quvchilarga audio fayllar, videoroliklar, turli xujjatlar nusxasi, ensiklopediya va boshqa manbalardagi ma'lumotlarni ochish imkonini beradi. Bundan tashqari, dars jarayonida o'quvchilarning electron qurilmalarini yagona tizimga birlashtirish mumkin bo'lib, bu orqali o'qituvchi o'z qurilmasidan har bir talabaning ishiga munosabat bildirishi, vazifalar berishi va tekshirish imkoniga ega

bo'ladi. Bulardan tashqari, ularning ixchamligi, bir qurilma bir nachta kitobni o'z ichiga olishi, internetga ulanish imkoni bo'lganda istalgan ma'lumotni tortib olish imkoniyati, qog'ozga allergiyasi bo'lgan kishilarning foydalanishi uchun qulayligini sanab o'tish mumkin.

Shu o'rinda, elektron darsliklarning o'ziga yarasha kamchilik va noqulayliklari mavjud ekanligini ta'kidlab o'tish joiz. Bularga misol qilib quyidagilarni keltirishimiz mumkin: - bunday electron qurilmaning yangi modellari juda qimmat turadi; - an'anaviy qog'oz kitoblardan ko'ra tashqi ta'sirga chidamsizligi; - electron darslik qurilmalarining akkumulyatorini muntazam zaryadlab turish lozim.

Yana bir muammo tug'iladi. Yaxshi electron darslik yaratishda nimalarga e'tibor qaratish lozim? Qanday qilsa u ta'lim jarayoni samaradorligini oshiradi? Elektron darslik ishlab chiqishda uchta asosiy komponentga e'tibor qaratish lozim. Bular: o'quv materialni bayon etish, amaliy mashg'ulotlar bajarish va teskari aloqa (o'quvchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirganlik darajasini aniqlash jarayoni). Elektron darslik to'laligicha bir faylda bo'lishi maqsadga muvofiq emas. Har bir bob alohida hujjat sifatida tayyorlanishi kerak, bu narsa darslikni kompyuterga yuklashdagi tezlikni kamayishi va materialni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarga barham beradi.

Yaxshi elektron darslik ma'ruza mobaynida namoyish etish vositasi, kompyuter sinflarida tashkil etiladigan mustaqil ishlash mashg'ulotlarida repititor, mustaqil ta'lim olishga vosita, kompyuterda laboratoriya ishlarini bajarish mobaynida uslubiy yordamchi, o'quvchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirishini nazoratchisi, amaliy mashg'ulotlar uchun masala va mashqlar bilan ta'minlovchi bo'la oladi deyish mumkin.

Elektron darslik abstrakt mavjudotlar uchun emas, balki shaxs bilan ishlashga mo'ljallangan. O'quvchi o'zining qobiliyati, fanga qiziqishi va uning tayyorgarlik darajasiga qarab ta'lim usulini tanlashi kerak. Elektron darslik o'quvchini bilim olishini vaqt bo'yicha chegaralamaydi. Shuning uchun ham o'quv materialni o'zlashtirish vaqti o'quvchining xohishiga ko'ra qisqarishi yoki uzayishi mumkin.

Eng yaxshi electron darsliklar o'z ichiga trenajyorlar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun vazifalar, testlarni, bir vaqtni o'zida bilim berish va ularni o'zlashtirish jarayonini nazorat qiluvchi dasturiy ta'minotga ega bo'lishi kerak. Boshqacha aytganda unda kursning asosiy axborotli qismini bayon etuvchi taqdimot qilish tashkil etuvchisi; olingan bilimlarni mustahkamlashga mo'ljallangan mashqlar, o'quvchilarning bilimlarini oqilona baholash imkoniyatini beradigan test va topshiriqlar bo'lishi zarur.

Elektron darsliklarni yaratishda imkoni boricha uning zarur qismlarini printer orqali chop etish va o'quvchilar hohlagan paytda uni o'qish imkoniyati ham bo'lishini nazarda tutish kerak. Chunki matnni ekrandan ko'p o'qish o'quvchilar ko'ziga salbiy ta'sir etishi mumkin.

Ta'lim muassasalarida elektron darsliklardan foydalanish orqali o'quv-tarbiya jarayoni jadallashadi. O'quv-tarbiya jarayonini jadallashtirishning asosiy omillari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: bir maqsadga yo'naltirilganlik ko'rsatgichini oshirish; o'quvchilarning motivasiyasini kuchaytirish; o'quv mazmunining axborotli hajmini kengaytirish; o'quvchilarning o'quv-bilish harakatini faollashtirish; o'quvchilarning o'quv amaliy darajasini tezlashtirish.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, biron bir fandan to'laqonli elektron darslik yaratish juda mushkul ish. Hozirgi kunda yaratilgan va yaratilayotgan elektron o'quv adabiyotlar soni uncha katta emas. Ushbu ishni jadal odimlar bilan amalga oshirish va ta'lim muassasalarining o'quv jarayoniga joriy etish hozirgi kunda zaruratga aylangan. Qo'yilgan vazifani amalga oshirish uchun respublikadagi salohiyatli va tajribali o'qituvchi, uslubchi, olim va tizimli dasturchilarni birlashtirib maxsus elektron darslik yaratuvchi guruhlar, imkoniyatdan kelib chiqqan holda xatto markazlar tashkil etilmoqda. Bu bilan mustaqil respublikamiz kelajagini ta'minlaydigan yosh avlodni yangi axborot texnologiyalardan foydalangan holda o'qitib, bilimli, mustaqil fikrlaydigan va rivojlangan chet davlatlarining yoshlari bilan raqobatdosh kadrlar tayyorlashga zamin yaratilmoqda.

Lekin, hozirgi kunda ta'lim muassasalarining barchasida ham kompyuterli ta'lim sharoiti mavjud deya olmaymiz. Elektron darslik yaratish borasida anchagina ishlar qilanayotgan bo'lsada, hali darsliklarga oddiy kutubxonaning kitoblariga ega bo'lishdek ochiq tizimlar mavjud emas. Albatta, ta'lim tizimi rivojdanishi bilan bunday kamchiliklar asta-sekin yo'qolib boradi.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytib o'tish joizki, so'nggi 2 yil ichida respublikada elektron o'quv adabiyotlaridan foydalanishga mo'ljallangan axborot texnologiyalari vositalarini rivojlantirish, shuningdek, masofadan turib o'qitishni tashkil etish bo'yicha salmoqli ishlar olib borilmoqda. Elektron adabiyotlar yaratishning ilmiy-uslubiy tomonlari ko'pgina olimlar tomonidan tadqiq etilmoqda. Shunday ekan, tez orada ta'lim tizimida electron darsliklardan foydalanish oddiy darsliklar kabi kundalik ehtiyoj bo'lib qoladi.

REFERENCES

1. Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi //Karimov A.A., Imomov E.Z. va boshqalar.–T.: SHarq. 2002.-15 b.
2. Umumiy o'rta ta'lim konsepsiyasi //Xalq ta'limi, 1992, 2-son.
3. Роль компьютера в процессе обучения иностранному языку//Г.А Ботирбекова, И.К Ёкубов - Наука и образование сегодня, 2018, 11 (34)
4. Describing language learning and teaching//Irgasheva U.R.-современные проблемы филологии: вопросы теории и практики. - Материалы международной научно-практической конференции, 2020.-453-456ст.
5. <http://uz.infocom.uz/2010/12/20/elektron-kitoblar-endi-ozbekistonda/>

МОВАРОУННАХР ФАЛСАФИЙ-ИРФОНИЙ МАКТАБЛАРИ ВА ИБН АЛ-АРАБИЙ ТАЪЛИМОТИ

Холмўминов Жаъфар Муҳаммадиевич,

Тошкент давлат шарқшунослик университети

“Манбашунослик ва тасаввуф герменевтикаси” кафедраси доценти,

фалсафа фанлари доктори

jafarmuhammad@mail.ru

АННОТАЦИЯ

Ислом оламида “Шайх ул-акбар” номи билан шуҳрат қозонган ва ўзидан бой фалсафий-ирфоний мерос қолдирган буюк илоҳиётшунос, мутасаввиф, файласуф ва шоир, “Акбария” илмий-назарий тасаввуф мактаби асосчиси Муҳйиддин ибн ал-Арабийнинг (1165 – 1240) теологик-фалсафий таълимоти – “Ваҳдат ул-вужуд” аслида Ҳаким ат-Термизий (м. 820 – 932), Абу Наср Форобий (м. 873 – 950), Абу Али ибн Сино (м. 980 – 1037), Абў Исҳоқ Калободий (ваф.м. 991) ва Мустамлий Бухорий (ваф. ҳ.қ.434 / м. 1043) каби Мовароуннаҳр мутафаккирларининг диний-фалсафий қараишлари таъсири остида вужудга келган.

Мазкур мақолада Шайх ул-Акбар Ибн ал-Арабийнинг Марказий Осиёлик мутафаккирларнинг таълимотлари ва Мовароуннаҳр тасаввуф мактабларига муносабати ва улардан таъсирланиши масаласи ислом фалсафий-ирфоний тафаккурининг гарбий ва шарқий йўналишлари ўртасидаги маданиятлараро мулоқоти доирасида таҳлил ва тадқиқ этилади.

***Калит сўзлар:** Ислом, тасаввуф, ирфон, теология, калом, диний-фалсафий тафаккур, таълимот, теологик таълимот, Мовароуннаҳр, фалсафий-ирфоний мактаблар, Ибн ал-Арабий, Ваҳдат ул-вужуд фалсафаси, тажаллий, таъсир, муносабат, Марказий Осиё мутафаккирлари, Ҳаким ат-Термизий, Форобий, Ибн Сино.*

ФИЛОСОФСКО-СУФИЙСКИЕ ШКОЛЫ МАВЕРАННАХРА И УЧЕНИЕ ИБН АЛЬ-АРАБИ

Холмуминов Джафар Муҳаммадиевич,

доктор философских наук,

доцент кафедры «Истоковедения и герменевтики суфизма»

Ташкентского государственного университета востоковедения

jafarmuhammad@mail.ru

АННОТАЦИЯ

Философско-теологическое учения Вахдат уль-Вуджуд («Единства бытия», «Единое бытия») великого богослова, мистика, философа и поэта, прославившийся в исламском мире как «Шейх уль-Акбар» – Мухйиддин ибн аль-Араби (1165 – 1240) на самом деле возникался под влиянием религиозных и философских взглядов великих мыслителей Мавераннахра, таких как Хаким ат-Термизи (ум. 820-932), Абу Наср аль-Фараби (ум. 873-950), Абу Али ибн Сина (ум. 980-1037), Абу Исхак Калабади (ум. 991).) и Мустамли Бухари (ум. 434 / м. 1043).

В данной статье в кратком образе рассматривается и анализируется вопрос отношение Ибн аль-Араби к учениями мыслителей Центральной Азии и суфийских школ Мавераннахра в рамках межкультурных диалогов между западных и восточных направлениях исламской философско-мистической мысли.

Ключевые слова: *Ислам, религиозно-философский мысль, суфизм, ирфан (исламский мистицизм), теология, калам (исламская теология), Мавераннахр, философско-суфийские школы, Ибн аль-Араби, философия Вахдат уль-вуджуд («Единства бытия», «Единое бытия»), таджалли (озарение), учения, влияние, отношение, Центральная Азия, мыслитель, Хаким ат-Термези, Фараби, Ибн Сина.*

THE PHILOSOFICAL-SUFI SCHOOLS OF MAVERANNAHR AND THE DOCTRINE OF IBN AL-ARABI

Kholmuminov Jafar Muhammadiyevich,

Doctor of Philosophical sciences (DSc),

Tashkent State University of Oriental Studies,

associate professor of chair "Hermeneutics and Hermeneutics of Sufism"

jafarmuhammad@mail.ru

ABSTRACT

The philosophical and theological teachings of Wahdat ul-Wujud ("Unity of Being", "One Being") of the great theologian, mystic, philosopher and poet, who became famous in the Islamic world as "Sheikh ul-Akbar" - Muhyiddin ibn al-Arabi (1165 - 1240) actually arose under the influence of the religious and philosophical views of the great thinkers of Maverannahr, such as Hakim at-Termizi (d. 820-932), Abu Nasr al-Farabi (d. 873-950), Abu Ali ibn Sina (d. 980- 1037), Abu Ishak Kalabadi (d. 991).) and Mustamli Bukhari (d. 434 / m. 1043).

This article briefly examines and analyzes the issue of the attitude of Ibn al-Arabi to the teachings of the thinkers of Central Asia and the Sufi schools of Maverannah in the framework of intercultural dialogues between the western and eastern directions of Islamic philosophical and mystical thought.

Keywords: *religious and philosophical thought, Islam, Sufism, irfan (Islamic mysticism), theology, kalam (Islamic theology), Maverannah, philosophical-sufi school, Ibn al-Arabi, philosophy of Wahdat ul-wujud (“Unity of Being”, “One Being”), tajalli (insight), teachings, Central Asia, thinker, influence, attitude, Hakim at-Termezi, Farabi, Ibn Sina.*

Ибн ал-Арабий мактаби. Испан, форс, турк, лотин ва инглиз каби кўпгина Шарқ ва Ғарб тилларини яхши билган ва амалий фаолиятида улардан унумли фойдаланган Ибн ал-Арабий ўзидан жуда катта илмий-адабий мерос қолдирган. Унинг маънавий меросидан 200 таси бугунги кунгача етиб келган. Аммо унга том маънода шухрат келтирган икки асари – “Ал-Футуҳот ал-Маккия” (Макканинг очилиши; Макканинг фатҳ этилиши) ва “Фусус ул-ҳикам” (Ҳикмат дурдоналари; Ҳикмат гавҳарлари) буларнинг орасида алоҳида илмий аҳамиятга эга. Абдулваҳҳоб Шаъроний унинг асарлари сонини 400 дан ортиқ деб билса [19, Б.8], Мавлоно Жомий уларнинг сонини 500 дан ортиқ, дейди [5, Б.546]. Исмоил Пошшо Бағдодий эса Ибн ал-Арабийнинг 475 та асарини санаб ўтади [1, Б.114-121]. Олмон шарқшуноси Карл Брокельманнинг аниқлашича, уларнинг сони 150 жилдни ташкил этади [2, Б.571-582]. Эронлик тасаввуфшунос олим Муҳсин Жаҳонгирий эса Ибн ал-Арабийнинг 511 та асари рўйхатини келтиради [4, Б.108-134].

Олмон шарқшуноси Карл Брокельманн айтишича, “Фусус ул-ҳикам”нинг 35 та шарҳи бор, аммо “Ислом буюк доират ул-маорифи”да берилган маълумотларга кўра, Усмон Яҳё унга 120 та шарҳ ёзилганлигини таъкидлайди [6, Б.25]. В.В. Лавскийнинг таъкидлашича “Фусус ал-ҳикам”га 150 дан ортиқ шарҳлар ёзилган [13, Б.112]. Айтиш мумкинки, ислом фалсафий-ирфоний тафаккури тарихида бирор китоб “Фусус ул-ҳикам”чалик машҳур бўлган эмас.

Борлиқнинг бирлиги ва ягоналиги – *Ваҳдат ал-вужуд* таълимотининг асосчиси сифатида издошлари томонидан “Улуғ шайх”, “Афлотуннинг ўғли” деб ардоқланган Ибн Арабий таълимотининг ўзига хослиги шундаки, унда ғарбий ва шарқий тасаввуф анъаналари қоришиб кетган. Сўфий сифатида у рационализм ва схоластикага нисбатан интуитив билим – илоҳий файз афзаллигининг тарафдори эди. Унинг услуги асосини Қуръон ва Суннанинг мажозий тадқиқи, мутлақ қамровлилик ҳамда яхлитлилик ташкил этади.

Илоҳиёт соҳасида Ибн Арабий мистик-пантеист эди. Унинг асарларида худди ҳозирги замон теософияси каби теософик ва метафизик қарашлар, гоҳида ҳатто ақлга сиғмайдиган парадокслар қоришмаси ҳам мавжуд. У асос солган *Ваҳдат ул-вужуд таълимоти* ва *Илоҳий таҷаллий* назарияси, *иймон*, *нубувват* ва *валоят* масалаларига оид қарашлари ҳалигача ҳам аҳли сунна вал-жамоа ва ҳам шиъа йўналишидаги уламолар доирасида катта илмий-ақидавий баҳс-мунозараларга сабаб бўлиб келмоқда.

Ибн ал-Арабий Мовароуннаҳр фалсафий-ирфоний тафаккури таъсири остида

Шайх ул-Ақбар Муҳйиддин Ибн ал-Арабий фалсафий-ирфоний таълимотининг кейинги даврдаги тасаввуфий таълимотларга таъсири масаласини ўрганиш жараёни *Ваҳдат ул-вужуд* фалсафаси ва у билан алоқадор назариялар бўм-бўш майдонда вужудга келмаган экан, деган хулосани келтириб чиқарди. Бу борадаги тадқиқотлар Ибн ал-Арабий таълимотининг асл илдизлари биринчидан, ислом динининг бирламчи манбалари – Қуръони карим ва Ҳадиси шарифга бориб тақалса, иккинчидан тасаввуф таълимоти таркибида “Ҳақимия” номли илк фалсафий-ирфоний мактаб очган Ҳақим ат-Термизий, Шарқ аристотелизми (машшо) намояндалари – Абу Наср Форобий ва Абу Али ибн Сино, Бухоро илмий-назарий тасаввуф мактаби намояндалари – Абўисҳоқ Калободий ва Мустамлий Бухорий томонидан яратилган фалсафий-ирфоний таълимотларга бориб тақалишини кўрсатади.

Ибн ал-Арабий ирфон фалсафасининг ўзидан олдинги буюк намояндаси – Ҳақим ат-Термизий таълимотини чуқур ўрганган, унинг асарларидан кўплаб иқтибослар келтирган. *Ваҳдат ал-вужуд* таълимоти асосчиси ўзининг “Футуҳот ал-Маккия” номли асарида 155 та диний-фалсафий саволга Ҳақим Термизийнинг “Хатм ул-авлиё” китобига суянган ҳолда жавоблар ёзган. Айниқса, Ҳақим ат-Термизийнинг *нубувват* (пайғамбарлик), *валоят* (валийлик), *руъят* (уйғоқлик ва туш ўртасидаги ҳолат), *қалб* ва *нафс* ҳақидаги назарияларини қўллаб-қувватлаган ва янада такомиллаштирган.

Ибн ал-Арабий ўзининг “сўфийлик қомуси” деб аталган “Футуҳот ал-Маккия” асарини яратишда машҳур мутасаввифлар ва илоҳиётчилар қатори ат-Термизий асарларидан ҳам фойдалангани ҳақида Дж.С.Тримингэмнинг “Суфийские ордены” асарида қимматли маълумотлар берилган. Унда жумладан, шундай дейилган: “Ҳақим ат-Термизий ғоялари... Ибн ал-Арабийдек даҳо томонидан тикланмагунга қадар салкам хотиралардан ўчиб кетган эди” [15, Б.306]. Боязид Бистомий билан бир даврда яшаган, лекин лекин кўпроқ

назариётчи олим сифатида танилган Ҳаким ат-Термизийнинг ғояларидан таъсирланган Ибн ал-Арабий *нубувват* ва *валоят* тушунчаларини талқин этишда ҳам асосан унга таянган [15, Б.339]. Уларнинг ҳаёт ва фаолиятлари, илгари сурган ғояларининг бошқалар томонидан турлича талқин этилиши мисолида ҳам бир қанча ўхшашликларни кузатиш мумкин. Масалан, баъзи замондошлари ҳар иккисини ҳам одамларни зарарли бидъатга етаклашда, пайғамбарликни даъво этишда айблаганлар [16, Б.14; 7, Б.189]. Бу асоссиз ва мантиқсиз айбловлар Ҳаким ат-Термизий ва Ибн ал-Арабий издошлари, мухлислари ва тарафдорлари томонидан диний ва илмий жиҳатдан рад этилган. Жумладан, Ҳаким ат-Термизий таълимоти Абубакр Варроқ Термизий, Ибн ал-Арабий ва Хожа Баҳоуддин Нақшбанд каби буюк мутафаккирлар томонидан қўллаб-қувватланган бўлса, Ибн ал-Арабий таълимоти ўз навбатида Садриддин Қунявий, Фахриддин Ироқий, Абдураззоқ Кошоний, Хожа Муҳаммад Порсо Бухорий, Хожа Аҳрор Валий, Мавлоно Абдурахмон Жомий, Довуд Қайсарий, Камолиддин Ҳусайн Хоразмий, Алишер Навоий, Мирзо Абдулқодир Бедил ва бошқалар томонидан нафақат қўллаб-қувватланди, балки шунингдек, давом эттирилди.

Ваҳдат ал-вужуд таълимотида “нур” ва “тажаллий” ғояларидан кенг фойдаланилади. Бу ғояни илк маротиба буюк мутафаккир ва мутасаввиф Ҳаким ат-Термизий Ибн ал-Арабийдан уч юз йил муқаддам ўртага ташлаб, жумладан, шундай деган эди: “Аллоҳнинг азаматлигидан уларга (хой-ҳавасдан покланганларга) нур жилва (тажаллий) қилди”; Буларнинг барчаси Аллоҳ нури тажаллийси баракотидан содир бўлганлиги тўғрисидаги ғоялари ҳам яна бир бор тасдиқлайди [8, Б.38].

Бундан ташқари Ибн ал-Арабий “Шарҳ ул-масоил ар-руҳонийа аллатий суила аънҳо ал-Ҳаким ат-Термизий” (Ал-Ҳаким ат-Термизийдан сўралган руҳий масалаларнинг шарҳи) номли махсус асар ҳам яратган. Демак, “буюк аллома Ибн ал-Арабий термизлик донишманд ал-Ҳаким ат-Термизийнинг асарлари ва таълимотига алоҳида эътибор берган ҳамда унинг бой илмий-маънавий меросини кейинги авлодларга етиб келишида бекиёс хизматлар қилган” [16, Б.26].

Ҳаким ат-Термизийнинг “нубувват” (набийлик, пайғамбарлик) ва “валоят” (валийлик, авлиёлик) масалалари хусусидаги, айниқса, унинг тасаввуфда валийликнинг муҳим ўрни ҳақидаги қарашлари кейинчалик ислом тафаккури тарихида Ибн ал-Арабий томонидан янада ривожлантирилди. Ҳатто ушбу масалага бағишланган бир қатор асарларида Ибн ал-Арабийнинг ал-Ҳаким ат-

Термизий рисолаларидан бутун-бутун саҳифаларни сўзма-сўз кўчириб келтирган ҳоллари ҳам кўзга ташланади [16, Б.36].

Ислом оламининг буюк файласуфи Абу Наср Форобий (872-950) илк маротиба “вужуд”, “вужуди вожиб” (вожиб ул-вужуд) ва “вужуди мумкин” (яратилган вужуд) каби кейинчалик *Ваҳдат ул-вужуд* фалсафасида кенг қўлланилган атамаларни фалсафий категориялар даражасига кўтарди. Форобийнинг *Ваҳдат ул-вужуд* фалсафасининг шаклланишига қўшган ҳиссасини қуйидаги икки ҳолатда қайд этиш мумкин:

а) Форобий “Вужуд” (борлиқшунослик) фалсафий мактаби тарафдори, балки бу мактабнинг асосчиси ҳам эди. Зеро унинг асарларида “Вожиб” (зарурят, зарурлик), “Мумкин” (яратилган) ўртасидаги фарқларни аниқлаш, шунингдек, *Вужуд* (Борлиқ)нинг вожиблигига оид масалалар илк маротиба ўртага ташланади.

б) Форобий биринчи бўлиб “фаъол ва салоҳиятли (қудратли) Ақл” масаласи, шунингдек, инсоний ақлнинг амалий (тажрибавий) ва назарий ақлга бўлиниши ҳақида сўз очди. Натижада, Абу Али Ибн Сино “ақлларнинг Биринчи ақл (Ақли аввал)дан тажаллий этиши (эманацияси)” ҳақидаги назарияни ривожлантирди.

Ислом фалсафаси тарихида илк маротаба “Фусус ул-ҳикам” номи билан фалсафий асар ёзишни ҳам Форобий бошлаб берган. У бу асарда фалсафа – рационализм ва тасаввуф – иррационализмни бир-бирига яқинлаштиришга ҳаракат қилади. Шу мақсадда “рационал далилларни эътироф этиб, аниқ ғояларни баён этиш орқали сўфийларнинг мақсадга эришиш йўллари фалсафанинг рационал билимларини чуқурлаштиришга кўмаклашувчи восита деб баҳолайди” [18, Б.71]. Форобий “Фусус ул-ҳикам”нинг бир неча бобида “вожиб” (Худонинг мавжудлиги зарурати), “имкон” (яратилиш, яратилган), ҳаюло (рационал фалсафа нуқтаи назаридан бутун борлиқдаги вужуд иккига бўлинади: Вожиб ал-вужуд ва Мумкин ал-вужуд. Вожиб ал-вужуд борлиғи ўзига тегишли бўлган Зот – Худодир. Мумкин ал-вужуд борлиғи Вожиб ал-вужудга боғлиқ бўлган, яъни, ўзидан бор бўлолмайдиган, муайян бир вақтда мавжуд бўлиб, муайян бар вақтда йўқ бўладиган вужуддир. Бу олам (дунё), табиат ва унинг ичидаги мавжудотлар, нарсалар ва ашёлар ҳисобланади. Олам жавҳар (субстанция) ва араз (акциденция)дан иборат. Араз ўз вужудида жавҳарга муҳтож. Унинг вужудидаги жавҳар эса беш қисмдан иборат: ҳаюло, кўриниш, жисм, ақл ва нафс. Ҳаюло кўриниш (сурат) унга кўчадиган ёки ўтадиган жавҳар ҳисобланади. Бошқача айтганда, ҳаюло сурат учун жой

(макон)дир. Масалан, ёғоч – ҳаюло, сурат – кўринишга эга бўлса, стол ёки стулга айланади. Ҳаюло билан сурат бири-бирига чамбарчас боғлиқ: улар бир-бирисиз мавжуд бўла олмайди), Тангри таолонинг яккаю ягоналиги, ўз-ўзидан борлиги хусусида гапириб далиллар келтиради ва буни ақлий мушоҳада орқали исботлаб беради [18, Б.71]. Асарнинг барча бобларида Форобийнинг қалби битмас-туганмас ишқ нури билан порлаб туради ва Оятуллоҳ Ҳасанзода Омулий таъбири билан айтганда, “барча бобларни ўзаро боғлайдиган ҳалқа бўлиб, жами мавзуларнинг энг гўзали ҳисобланган муҳаббатга бағишланган” [12, Б.148].

Форобийнинг тасаввуфга бўлган қизиқиши ҳақида эронлик олим Аҳмад Тамимдорий шундай ёзади: “Форобий нафақат сиёсат ва фалсафа билан шуғулланиди, балки тасаввуфда ҳам юксак даражага эришди. Буни унинг оддий аскетик турмуш тарзини кечиргани мисолида яққол кўриш мумкин. Перипатетик фалсафа (машоиюн; Мусулмон Шарқи файласуфлари; Шарқ аристотелизми – Ж.Х.) принциплари асосида яратилган “Фусус ул-ҳикам” китоби диний мистика назарияси (ирфон) йўналишини белгилаб беради” [14, Б.12].

А.Тамимдорийнинг ёзишича, Ибн Сино, ўз фалсафасини “Ҳикмат ул-Машриқия” (Шарқ ҳикмати; Шарқ фалсафаси – Ж.Х.) деб атади” [14, Б.14]. Ибн Синонинг фикрича, олам ва ундаги бор нарсалар мавжуд бўлиш имкониятига эга, аммо бунда ўзидан ўзи бор бўлган Вужудга муҳтождирлар [14, Б.15]. Ибн Синонинг “Ўзидан ўзи бор бўлган Вужудга муҳтож бўлмоқ” ғояси кейинчалик Ибн ал-Арабийнинг Ваҳдат ул-вужуд фалсафасида марказий ўринлардан бирини эгаллади.

Ибн Сино ҳам тасаввуф таълимотига бефарқ бўлмаган. Буни унинг Шайх Абусаид Абулхайр билан бўлиб ўтган суҳбати мисолида ҳам, умрининг охирида яратган “Ҳайй ибн Яқзон”, “Саломон ва Абсол”, “Рисола ат-тайр” ва “Рисола фил-ишқ” каби бир қатор фалсафий-мажозий асарлари мисолида ҳам кўриш мумкин. “Рисола ат-тайр” кейинчалик Шайх Атторнинг “Мантиқ ут-тайр” асари яратилишига замин яратган бўлиши ҳам мумкин. Ибн Сино оламнинг Аллоҳ таоло томонидан яратилишида Унинг нури жилва этгани ҳақидаги ғояни ўртага ташлаган.

Қуръони каримда келтирилган Аллоҳ таоло нурининг жилва этиши (Тур тоғига) масаласи илоҳий нурнинг қалбга тажаллий этиши тарзида илк маротиба IX асрнинг буюк мутасаввифи Ҳаким ат-Термизий асарларида кузатилса [10, Б.42], X асрда Бухоро назарий тасаввуф мактабининг йирик намояндalари –

Калободийнинг “Китоб ат-Таъарруф”, Мустамлий Бухорийнинг “Шарҳи ат-Таъарруф ли мазҳаб ит-тасаввуф” номли асарларида “тажаллий” масаласи алоҳида бир назария, тасаввуфнинг муҳим тушунча ва категорияларидан бири сифатида махсус бобда ёритилади [3].

Таниқли тасаввуфшунос олим Н. Комиловнинг фикрича, буюк мутасаввиф Шайх Фаридиддин Аттор (1145-1221) *Ваҳдат ул-вужуд* ғояларини кичик замондоши – Ибн ал-Арабий китоблари ҳали Эрону Хуросонда тарқалмасдан олдин ўз асарларида ифодалаган эди. Шу нуқтаи назардан, Атторни *Ваҳдат ул-вужуд* таълимотининг асосчиларидан деб ҳисоблаш мумкин [9, Б.53].

ХУЛОСА

Испаниянинг Андалусия воҳасида туғилган Шайх ул-акбар Муҳйиддин Ибн ал-Арабий тасаввуф идеаллари таъсири остида ижтимоий фаолиятлардан эрта воз кечиб, сўфийликни қабул қилди. Дунёқараши сўфийлар тафаккури таъсири остида шаклланди, ўзига устоз – пир излаб Андалусия ва Шимолий Африка мамлакатларини кезди, Кичик Осиё ва Яқин Шарқ мамлакатлари бўйлаб сафарларга чиқди. 30 ёшларидаёқ фалсафий ва ирфоний фанларга қобилияти, билимдонлиги ва гўзал хулқ-одоби билан сўфийлар орасида юксак ҳурмат ва эътиборга сазовор бўлди. Аммо унинг фалсафий-ирфоний дунёқараши Мусулмон Шарқи мутафаккирлари, айниқса, Мовароуннаҳр ва Хуросон сўфийлари ва файласуфларининг таълимотлари асосида шаклланди. Жумладан, у асос солган *Ваҳдат ул-вужуд* фалсафасининг илмий-назарий илдизлари ундан олдин яшаб ижод этган Мовароуннаҳр мутафаккирларининг таълимотларидан озикланган экан, деган қатъий хулосага келиш мумкин.

REFERENCES

1. Бағдодий, Исмоил Пошшо. Ҳадят ул-орифийн. 2-ж. – Истамбул, 1951. Bagdadi, Ismail Poshsho. Hadyat al-`arifin. 2. – Istanbul, 1951.
2. Brockelmann, Carl. Geschichte Der Arabischen Litteratur, Volume 1 (German Edition). 2011. P. 571-582.
3. بخاري، خواجه امام ابو ابراهيم اسماعيل محمد مستملي. شرح التعرف لمذهب التصوف. ربع چهارم، مقدمه، تصحيح و تحشيه ي محمد روشن، تهران، 1366
Бухорий, Хожа Имом Абу Иброҳим Исмоил бин Муҳаммад Мустамлий. Шарҳ ат-таъарруф ли мазҳаб ат-тасаввуф. Рубъи чаҳорум. Бо муқаддима ва тасҳеҳи Муҳаммад Равшан. – Техрон: “Асотир”, 1363.
4. جهانگيري، محسن محيي الدين ابن العربي چهره ي برجسته ي عرفان اسلامي. انتشارات دانشگاه تهران، 1375 ه.ش

Jahangiri, Mohsen. Mohyi al-din ibn `Arabi, The distinguished figure of Islamic Mysticism. – Tehran University Press, 2004.

5. جامي، عبدالرحمن. نفحات الانس. به كوشش محمد عابدي. تهران، 1370 ه.ش.

Jami, Abdurahman. Nafahat al-ons. – Tehran, 1337.

6. Жузжоний, Абдулҳаким Шаръий. Тасаввуф ва инсон. – Т.: “Адолат”, 2001.

7. Каримов Э. Кубравийский вақф XVII-XIX вв.: письменные источники по истории сўфийского братства Кубравийа в Средней Азии. – Т.: “Фан”, 2008.

8. Кенжабек М. Термиз тазкираси. – Т.: “Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2001.

9. Комилов, Нажмиддин. Тасаввуф. Иккинчи китоб: Тавҳид асрори. –Т.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти; "Ўзбекистон". 1999.

10. Муҳаммад Ҳаким Термизий рисолалари. Ҳаким Термизий йўлининг бошланиши. Будувву шаън Абу Абдуллоҳ Термизий. Нафс одоби. Нафс риёзати. Касб – тирикчилик баёни. Таржимон: Жўрабек Чўтматов. – Т.: “Movarounnahr”, 2017.

11. Нишопурий, Фаридуддин Аттор. Тазкират ул-авлиё Муқаддимаси. / Форсийдан Мирзо Кенжабек таржимаси. // “Сино”, 2002, №8. – Б.47.

12. Омулий, Оятуллоҳ Ҳасанзода. Нусус ул-ҳикам. – Техрон, 1365.

13. Суфийская мудрость. Тўпловчи: В.В.Лавский. – М.: “Март”, 2007.

14. Тамимдари, Ахмад. История персидской литературы. – Санкт-Петербург: Петербургское Востоковедение, 2007.

15. Тримингэм Дж. С. Суфийские ордены в исламе. – М.: София ИД Гелиос, 2002.

16. Уватов У. Ал-Ҳаким ат-Термизий. – Т.: “Маънавият”, 2014.

17. Хидевжам, Хусайн. Муқаддима. / Абунаср Форобий. Эҳсо ул-улум. – Техрон: Интишороти Илм ва фарҳанг, 1364 х.к.

Хидевджам, Хусайн. Предисловие. / Абу Наср Фараби. Эҳса уль-улум. – Тегерен: Наука и культура, х.1364.

18. Хотамий, Саййид Муҳаммад. Ислом тафаккури тарихидан. / Таржимон Н.Қодирзода. – Т.: “Минҳож”, 2003.

Хатами, Сеййид Муҳаммад. Из истории исламской мысли. / Перев. Н.Кадирзаде. – Т.: “Минҳадж”, 2003.

19. Шаъроний, Абдулваҳҳоб. Ал-явоқит в-ал-жавоҳир. 1-ж. – Миср, 1343.

Sha`rani, Abd al-vahhab. Al-yavaqit va-l-javahir. 1. – Egypt, 1343.

GENDER TENGLIKNI TA'MINLASHDA XOTIN-QIZLAR HUQUQLARINING TA'MINLANISHI

Tursunova Olmos Fayziyevna

Samarqand davlat universiteti

Berdimurodova Xumora Abdunazar qizi

Samarqand davlat universiteti

ANNOTATSIYA

Maqolada ayollarning huquq, erkinliklariga alohida e'tibor berish, erkaklar va ayollar mehnatini bir xilda baholashni, teng rag'batlantirish, ayollarga nisbatan har qanday kamsitishlarni tugatish hamda bugungi kunda jahon miqyosida ayollarga qaratilayotgan e'tibor va yaratilayotgan shart sharoitlar haqida so'z boradi.

***Kalit so'zlar:** Demokratik huquqiy davlat, harakatlar strategiyasi, siyosiy huquqlar, teng huquqlilik, sog'lom muhit, jamiyat ustuni.*

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются права и свободы женщин, равная оценка мужского и женского труда, равные стимулы, устранение любой дискриминации в отношении женщин, а также внимание и условия, создаваемые для женщин в современном мире.

***Ключевые слова:** демократическое правовое государство, стратегия действий, политические права, равенство, здоровая окружающая среда, столп общества.*

ABSTRACT

The article examines the rights and freedoms of women, equal assessment of male and female labor, equal incentives, elimination of any discrimination against women, as well as the attention and conditions created for women in the modern world.

***Key words:** democratic rule of law, strategy of action, political rights, equality, healthy environment, pillar of society.*

KIRISH

Bugungi kunda respublikamiz hayotida kechayotgan o'zgarishlar har bir fuqaroni befarq qoldirmayapti. Yurtimiz demokratik huquqiy davlat qurish yo'lidan borar ekan, avvalo o'sha jamiyatning huquqiy poydevori mustahkam bo'lishi zarur. Jamiyatning asosiy bo'g'inini xotin-qizlar tashkil etganligini hisobga olgan holda, respublikamiz ayollarga doir bir qancha xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilgan. Bu haqda yurtboshimizning fikrlari buni tasdiqlaydi: "Bugungi tez o'zgarayotgan,

ziddiyatli davrda oilaviy masalalarni ilmiy asosda chuqur o'rganmasdan turib, ijtimoiy hayotdagi ko'plab murakkab savollarga javob topish qiyin"[1].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Prezidentimizning bugungi kunda O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilab berilgan maqsad va vazifalarga erishish maqsadida ayollarning huquq, erkinliklariga alohida e'tibor berilganligi tahsinga loyiq. O'zbekiston Respublikasi butun jahonga yuz tutdi, har sohada xorijiy davlatlar bilan aloqaga kirishyapti. Xalqaro munosabatlar nafaqat jamiyatga balki, har bir xotin-qizga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmyapti. Albatta bu munosabatlar xalqaro huquq normalari bilan tartibga solinadi. Xotin-qizlarimizning o'z huquqlarini bilishi bu obod turmushning kafolati, huquqiy demokratik davlatning poydevori, mustahkam oilaning tamal toshidir. Ushbu huquqiy hujjatlar bilan tanishish, bilish, targ'ib qilish ayollarimizning yana bir karra huquqiy madaniyatini oshirishga ko'maklashadi. Jumladan, 1952 yilning 28 iyunidagi "Onalikni himoya qilish to'g'risida"gi № 103 Konvensiya, 1979 yilning 18 dekabrindagi "Ayollarga nisbatan har qanday kamsitishlarni tugatish to'g'risida"gi Konvensiya, 1951 yilning 29 iyunidagi "Erkaklar va ayollar mehnatini bir xilda baholashni teng rag'batlantirish to'g'risida"gi № 100 Konvensiya, "Ayollarning siyosiy huquqlari to'g'risida"gi Konvensiya shular jumlasidandir. Ushbu ratifikatsiya qilingan hujjatlarning barchasida xotin-qizlarimizning shaxsiy, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy, ma'rifiy huquq va erkinliklari aks etgan.

Onalikni himoya qilish to'g'risidagi Konvensiyaning 2-moddasiga ko'ra: "Ushbu konvensiyaning maqsadidan kelib chiqqan holda "ayol" termini uning yoshi, millati, ijtimoiy kelib chiqishi va dini, nikohdan o'tgan yoki o'tmaganligidan qat'i nazar ayol jinsiga mansub har qanday ayol shaxsi, "bola" termini esa, uning ota-onasi nikohdan o'tgan yoki o'tmaganligidan qat'i nazar har qanday bola tushuniladi".

Ushbu Konvensiyaning 5-moddasiga ko'ra: "Agar ayol kishi o'zining bolasini ko'kragi bilan emizdirsa, u shu maqsadda ish kuni davomida bir yoki bir necha marta tanaffus qilish huquqiga ega, tanaffuslarning davomiyligi davlatning qonunchiligi bilan belgilanadi" [2]⁵².

Ayollarga nisbatan har qanday kamsitishlarni tugatish to'g'risidagi Konvensiyaning 2-moddasi q) bandiga ko'ra: "Jinoyat qonunchiligining ayollarga nisbatan kamsitishlar aks etgan barcha holatlari bekor qilinsin". Shuningdek, 6-moddasi: "Qatnashuvchi-davlatlar ayollar savdosining barcha turlari va ayollar

⁵² Узбекистан и международные договора по правам человека. Т.: Адолат, 1998. – с-397.

fohishabozligining ekspluatatsiyasini bekor qilish maqsadida barcha tegishli, jumladan qonunchilik choralari amalga oshirsin”.

Ushbu Konvensiyaning 9-moddasi 2-bandiga ko‘ra: “Qatnashuvchi-davlatlar ayollarga ularning farzandlariga fuqarolik berish masalasida erkaklar bilan teng huquqlar taqdim etadi”. 11-moddaning a) bandi: “Barcha kishilarning ajralmas huquqi bo‘lgan mehnat qilish huquqiga ega bo‘lish”, 13-moddaning a) bandi: “oilaviy ta‘minot olish huquqi” va hokazolar [3]⁵³.

Erkaklar va ayollar mehnatini bir xilda baholashni teng rag‘batlantirish to‘g‘risidagi Konvensiya o‘z ichiga jinsidan qat‘iy nazar barcha o‘z mehnatlari uchun teng taqdirlanishini bayon etadi. Ratifikatsiya qilingan ushbu Konvensiyada asosiy e‘tibor, tashkilotning barcha a‘zosi o‘z vositalari, rag‘batlantirishning tasdiqlangan mezonlari bilan, u yoki bu holda barcha mehnatkashlarni teng rag‘batlantirish prinsipi asosida, erkaklar va ayollarning mehnatini bir xilda baholanishini ta‘minlashga qaratilgan. Ushbu prinsip quyidagi usullar bilan qo‘llanishi mumkin: a) milliy qonunchilik asosida; b) rag‘batlantirish aniqlangan, qonunchilik bilan tan olingan yoki tasdiqlangan tizim asosida; s) tadbirkorlar va xodimlar o‘rtasida tuzilgan jamoaviy shartnomalar asosida; d) ushbu turli xildagi usullarning birikmalari asosida [2].

Ayollarning siyosiy huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyaga e‘tiborni qaratadigan bo‘lsak, BMT ustavida belgilangan, erkaklar va ayollarning teng huquqligini amalga oshirish maqsadida, ayollarning ham siyosiy huquqlardan foydalanish va ega bo‘lish erkinliklari ochib beriladi.

Jumladan, 1-moddada: «Ayollar hech qanday kamsitishlarsiz, erkaklar bilan teng sharoitlarda barcha saylovlarda ovoz berish huquqiga ega». 2-modda: «Ayollar ommaviy saylovlarni talab etadigan, milliy qonunchilik bilan belgilangan tashkilotlarga, hech qanday kamsitishlarsiz, erkaklar bilan teng huquqda saylanishlari mumkin». 3-modda: «Ayollar hech qanday kamsitishlarsiz, erkaklar bilan teng huquqda ijtimoiy-davlat xizmatida lavozim egallashlari va milliy qonunchilik bilan belgilangan barcha ijtimoiy funksiyalarni bajarishlari mumkin» [2].

Yuqoridagi normativ-huquqiy hujjatlar O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligida o‘z aksini topgan. Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 900 dan ortiq qonunlar qabul qilingani ma‘lum. Ularning aksariyati jamiyatimizning mo‘‘tabar zotlariga tegishli. Avvalo, birinchi tamal tosh bu O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidir. Ayollarning shaxsiy huquqlariga oid bo‘lgan qonunlardan «Ta‘lim to‘g‘risida»gi, «Sudlar to‘g‘risida»gi, «Davlat tili

⁵³ Ўша ерда, 419-б.

to‘g‘risida»gi qonunlarni, siyosiy huquqlariga daxldor «Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida»gi, «Fuqarolik to‘g‘risida»gi, ijtimoiy va iqtisodiy huquqlarga oid «Yer to‘g‘risida»gi, «Tadbirkorlik to‘g‘risida»gi, «Bank va banklar to‘g‘risida»gi qonunlardir. Qonunlar O‘zbekiston Respublikasi xotin-qizlariga davlatimizning barcha jabhalarida faol ishtirokini ta‘minlayapti.

Shuningdek, xotin-qizlarning jamiyatimiz hayotida nufuzini oshirish maqsadida «Jamiyatda ijtimoiy-ma‘naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Prezident farmoni qabul qilindi. Farmonga asosan Xotin-qizlarni va oilani har tomonlama qo‘llab-quvvatlash belgilab qo‘yildi. Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini o‘n to‘rt yoshga to‘lgan va o‘ttiz yoshdan oshmagan iqtidorli qizlarga berish bo‘yicha yangi tartib joriy etildi.

XULOSA

Shuni alohida ta‘kidlash joizki, o‘zbek xotin-qizlari huquqlariga doir normativ hujjatlarning eng asosiy xususiyati shundaki, ular birinchi navbatda ayollarga, bolalarga, umuman aholining barcha qatlamlariga siyosiy, huquqiy, ma‘naviy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy yordam bermoqda. Zero, ushbu jarayonda respublikamiz olib borayotgan ichki va tashqi siyosat – davlatimizning mustaqilligini mustahkamlash, barcha sohalarda qiyinchiliklarni bartaraf etish va xalqimiz turmushini yaxshilashning zarur sharti va g‘oyat muhim vositasidir. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak: «Oila va jamiyat ustuni, hayotimizning fayzi va ko‘rki bo‘lgan xotin-qizlarni e‘zozlash, ularga hurmat va ehtirom ko‘rsatish xalqimiz uchun azal-azaldan buyuk qadriyat bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi. Chunki sizlar bilan hayotimiz go‘zal va mazmunli, xonadonlarimiz obod va nurafshondir» - Prezident Sh.M.Mirziyoyev.

REFERENCES

1. Akmalova, P. D. (2019). The concept of moral personality development in creativity of thinkers of central asia. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 9(1), 135-141.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning xalqaro xotin-qizlar bayramiga bag‘ishlangan uchrashuvdagi nutqi. Zarafshon gazetasi, 2018-yil 8-mart, № 28 (22988). 1-b.
3. Узбекистан и международные договора по правам человека. Т.: Адолат, 1998. – с-397.

MA'NAVIY-MA'RIFIY SOHANING RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI MISOLIDA

Pardayev Sobit Abduvali o'g'li,

Samarqand davlat universiteti "Musiq ta'limi" kafedrası o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada butun dunyo yoshlari hayotida ma'naviy-ma'rifiy sohaning o'rni yuksak ahamiyat kasb yetishi yoritib berilgan.

***Kalit so'zlar:** Ma'naviy-ma'rifiy, jamiyat, madaniyat, sport, psixologiya, diagnostik, prognostik, uyushmagan yoshlar.*

АННОТАЦИЯ

В статье подчеркивается важность духовно-образовательной сферы в жизни молодежи во всем мире.

***Ключевые слова:** духовно-просветительская, социум, культура, спорт, психология, диагностика, прогноз, неорганизованная молодежь.*

ABSTRACT

The article emphasizes the importance of the spiritual and educational sphere in the lives of young people around the world.

***Keywords:** Spiritual-enlightenment, society, culture, sports, psychology, diagnostic, prognostic, unorganized youth.*

KIRISH

Rivojlangan mamlakatlarda ma'naviy-ma'rifiy sohaning tajribasini o'rganish bu jabhada ta'lim tizimi va oila bilan uyg'un faoliyat ko'rsatganini ko'rsatadi. Masalan, Amerika 2000: ta'lim strategiyasi»

(1991 y.) hukumat qarorida ta'lim muassasalari «yuksak rivojlangan jamiyat rivojini belgilab beruvchi markaz» ekanligi belgilab berilgan⁵⁴.

Yaponiya davlat byudjetining xarajat qismida «Maktab» so'zi o'rniga 1978 yildan boshlab «Maktab, madaniyat, sport» so'zlari kiritilgan. Bu byudjetdan nafaqat maktab, balki maktabdan tashqari ta'lim muassasalari (kutubxona, muzeylar, hordiq maskanlari, sport muassasalari va h.k.)lar bilan birga tushunilishi mustahkamlab qo'yilgan. Bu esa yapon maktablarini o'quvchilar hayotining markaziga aylantirgan⁵⁵.


1. Сначала посмотрите выступление без субтитров. Сконцентрируйтесь, попытайтесь понять сами как можно больше;

2. Посмотрите видео еще раз, но теперь с английским субтитрами. Обратите внимание на места, которые вы не поняли при первом просмотре;

3. Для тренировки произношения повторяйте слова по субтитрам вслед за диктором, сохраняя все интонации.

Freerice - это бесплатный веб-сайт, который позволяют игрокам жертвовать рис для нуждающихся семей, играя в викторину с несколькими вариантами ответов. В этом веб-сайте есть разные категории, которые включают в себя в общей сложности 24 различных предмета, в которые можно играть на 5 уровнях сложности, в зависимости от предмета.

На этой платформе для онлайн - изучения английского языка вы проверяете, знаете ли значение того или иного слова. Так вы увеличиваете словарь и запоминаете синонимы. Упражнение подходит для людей с любым уровнем знаний. Вы можете выбрать любую категория из предоставленных и проверить свои знания, насколько вы знаете значение того или иного слова, связанное с данной темой.

Lelang.ru – очень полезный сайт, который предлагает посетителям наиболее эффективные материалы для изучения английского и немецкого языка с нуля самостоятельно и бесплатно. Также помогает чтобы в изучении выбранного языка процесс был максимально увлекательным, легким и эффективным.

С помощью этого сайта вы сможете найти и скачать лучшие обучающие пособия и материалы для изучения английского, а также немецкого языка: аудиокурсы, видеоккурсы, программы, адаптированные книги, аудиокниги, самоучители, учебники, словари, разговорники, помогающих осваивать выбранный вами язык наиболее эффективно и увлекательно не выходя из дома.

News in levels - это замечательный веб-сайт для изучения английского языка. На сайте публикуются видеоролики из реальных новостных каналов. Специально выбираются простые темы, изложенные относительно простым языком. Сотрудники переписывают эти же новости упрощённым и очень упрощённым языком.

• **Три уровня сложности.** Все три уровня на сайте можно прослушать, а третий часто ещё и посмотреть в оригинале.

• **Значение слов.** Если в тексте есть незнакомые, сложные слова, то они разъясняются в самом тексте. И это даёт читателю легко понять суть текста.

Englishspeak - простой и бесплатный интернет-ресурс для изучения английского языка. Содержит 100 уроков для обучающихся в открытом доступе, также словарь с 1500 основных слов и 1000 самых часто используемых разговорных фраз в английском языке для начинающих.


ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Диалоги подразделяются на три уровня сложности. Кроме того, есть профессиональная озвучка двух видов- в обыкновенном темпе и в медленном- не только для фраз и диалогов, но и для отдельных слов.

REFERENCES

1. “Лекции TED Talks для тех, кто учит английский”. 2020
2. “English news in levels”
3. “Онлайн-ресурсы для изучения английского языка”. Maria Stefanovich. 2016
4. “Free Websites to Practice English at Home”. Hilary Schenker. 2020

КОРПОРАЦИЯНИ БОШҚАРИШДА ФИДУЦИАР МАЖБУРИЯТЛАР ВА УЛАРНИ ЎЗБЕКИСТОНДА ҚЎЛЛАШ ИМКОНИЯТЛАРИ

 10.24412/2181-1784-2021-10-841-853

Иброхимов Азимжон Абдумўмин ўғли,

Тошкент давлат юридик университети Фуқаролик ҳуқуқи кафедраси

ўқитувчиси,

Тел: 998-93 916 06 26

e-mail: yurist_0990@mail.ru

АННОТАЦИЯ

Корпоратив ҳуқуқда юридик шахсни бошқарув органларининг фидуциар мажбуриятлари марказий масалалардан бўлиб ҳисобланади. Юридик шахсни тўғри ва самарали бошқариш кўп жиҳатдан бошқарув органларининг фидуциар мажбуриятлари қай даражада тартибга солингани ва уларга риоя этилиши билан белгиланади. Шунингдек фидуциар мажбуриятларга риоя этмаслик бошқарув органлари учун юридик шахс олдида юзага келадиган жавобгарлик асоси саналади.

Мазкур ишда АҚШ, Россия Федерацияси қонунчилиги ҳамда суд амалиёти асосида юридик шахс бошқарув органларининг фидуциар мажбуриятлари таҳлил этилади ҳамда уларни Ўзбекистон Республикаси корпоратив ҳуқуқда қўллаш ва ушбу институтни такомиллаштириш истиқболлари муҳокама қилинади.

***Калит сўзлар:** фидуциар мажбуриятлар, лозим даражада гамхўрлик мажбурияти (duty of due care), содиқлик мажбурияти (duty of loyalty), ҳалоллик мажбурияти (duty of good faith), юридик шахс манфаатлари, ҳалоллик ва оқилоналик.*

ФИДУЦИАРНЫЕ ОБЯЗАННОСТИ В УПРАВЛЕНИИ КОРПОРАЦИЕЙ И ВОЗМОЖНОСТИ ИХ ПРИМЕНЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Иброхимов Азимжон Абдудумин угли,

преподаватель кафедры Гражданского права Ташкентского

государственного юридического университета,

Тел: 998-93 916-06-26,

e-mail: yurist_0990@mail.ru

АННОТАЦИЯ

В корпоративном праве одним из центральных вопросов являются фидуциарные обязанности органов управления юридического лица. Надлежащее и эффективное управление юридическим лицом во многом определяется степенью регулирования и соблюдения фидуциарных обязательств органов управления юридического лица. Несоблюдение фидуциарных обязательств также является основанием для ответственности органов управления перед юридическим лицом.

На данной работе анализируются фидуциарные обязанности органов управления юридических лиц на основе законодательства и судебной практики США и Российской Федерации и обсуждаются перспективы применить и совершенствовать эти обязанности в корпоративном праве Республики Узбекистан.

Ключевые слова: *фидуциарные обязанности, обязанность лояльности (duty of loyalty), обязанность должной заботливости (duty of due care), обязанность добросовестности (duty of good faith), интересы юридического лица, разумность и добросовестность*

FIDUCIARY DUTIES IN THE MANAGEMENT OF THE CORPORATION AND THEIR APPLICATION IN UZBEKISTAN

Ibrokhimov Azimjon Abdumomin ogli, The lecturer of Civil Law

Department of Tashkent State University of Law

Phone number: 998-93 916-06-26,

e-mail: yurist_0990@mail.ru

ABSTRACT

In corporate law, the fiduciary duties of the governing body of a legal entity are one of central issues. Proper and effective management of a legal entity is largely determined by the extent to which the fiduciary duties of the governing bodies are regulated and adhered to. Failure to comply with fiduciary duties is also the basis for liability of the governing body to the legal entity.

This paper analyzes the fiduciary duties of the management bodies of legal entities based on the legislation and judicial practice of the United States and the Russian Federation and discusses the prospects for applying and improving these duties in the corporate law of the Republic of Uzbekistan.

Key words: *fiduciary duties, duty of loyalty, duty of due care, duty of good faith, interests of a legal entity, rationality and good faith*

КИРИШ

Ҳозирда мамлакатимиз фуқаролик ҳуқуқини такомиллаштиришга оид кенг қамровли ислоҳотлар амалга оширилмоқда. Хусусан, янгиланаётган ижтимоий муносабатларга мос қоидалар белгилашни мақсад қилиб қўйган Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодекси лойиҳасида[1] муҳим ўзгаришлар назарда тутилмоқда. Буни корпоратив ҳуқуқий муносабатларга оид қоидаларда ҳам қўриш мумкин. Жумладан, Кодекс лойиҳасига мувофиқ корпоратив ҳуқуқий муносабатлар ўзига хос хусусиятларга эга алоҳида фуқаролик ҳуқуқий муносабат эканлиги эътироф этилган, юридик шахс мазмуни ва турларига оид янгиликлар назарда тутилган. Юридик шахс фаолиятига дахлдор ўзгаришлардан яна бири юридик шахс бошқарувчиларининг фидуциар мажбуриятларига оид бўлиб, қуйида унинг моҳияти ва амалиётда қўллаш истиқболларига тўхталиб ўтамиз.

ТАДҚИҚОТ МАТЕРИАЛЛАРИ ТАҲЛИЛИ ВА НАТИЖАЛАРИ.

“Фидуция” (*лот. ишонч*) тушунчаси қадимги Рим ҳуқуқида вужудга келиб, дастлаб, кейинчалик қайтариб олиш ҳуқуқи билан мулкни бошқа шахсга топширишни назарда тутган[2].

Умумий маънода фидуциар муносабатлар деганда икки ёки ундан ортиқ шахслар ўртасида пул маблағлари ёки бошқа мол-мулкни бошқариш билан боғлиқ ҳолда вужудга келадиган, ишончга асосланган ахлоқий ва ҳуқуқий муносабатлар тушунилади. Фидуциар муносабат моҳиятига кўра бир шахс (*фидуциарий*) бошқа шахс (*ишонч билдирувчи*) номидан унинг манфаатлари йўлида ҳаракат қилади ҳамда фидуциарийда тегишли мол-мулкка оид қарорларни қабул қилишда дискрецион ваколат мавжуд бўлади[3, 2-б].

Барча турдаги фидуциар мажбуриятлар қуйидаги хусусиятларга эга бўлиши қайд этилади: ишонч билдирувчига нисбатан содиқлик; ҳалол ҳаракат қилиш; ишонч билдирувчи розилигисиз фидуциарийга ишониб топширилган ишдан шахсий фойда олмаслик ва ўз ваколатларидан учинчи шахслар манфаати учун фойдаланмаслик; манфаатлар тўқнашувига йўл қўймаслик[4, 130-б].

Қадимги Рим ҳуқуқида ишончга асосланган муносабатлар топширик шартномаси (*mandatum*), шерикчилик шартномаси (*societas*), ссуда (*commadatum*), омонат сақлаш (*depositum*) каби битимларда акс этган[5, 26-б]. Фидуциар мажбуриятлар трастларда ишончли бошқарувчиларга нисбатан, вакиллик муносабатларида агентларга нисбатан, корпоратив муносабатларда эса корпорацияни бошқарувчи шахсларга нисбатан ҳам ўрнатилади[6, 2-б].

Қуйида охири қайд этилган шахсларнинг фидуциар мажбуриятларига атрофлича тўхталиб ўтамиз.

Инглиз-америка корпоратив ҳуқуқида корпорация директорининг фидуциар мажбуриятлари, умумий тарзда: лозим даражадаги ғамхорлик (*duty of due care*), содиқлик (*duty of loyalty*) ҳамда ҳалоллик (*duty of good faith*) мажбуриятларидан иборат эканлиги кўрсатилади.

АҚШ Корпоратив бошқарув принципларида директорнинг, асосан, икки фидуциар мажбурияти қайд этилади. Яъни директор ўз вазифаларини ўхшаш ҳолатларда оқилона шахс нуқтайи назаридан келиб чиқиб, компания манфаатлари учун энг мақбул тазрда ғамхўрлик кўрсатиб бажариши лозим (*duty of due care*). Компанияга содиқлик мажбурияти эса директорга компания билан битим тузишда ўз манфаатлари ёки учинчи шахслар манфаатларидан компания манфаатларини устун кўриш ҳамда тузилишидан манфаатдорлик бўлган битим ҳақида компанияни хабардор этиш ва бунга розилик олиш талабларини кўяди.

Америка юриспруденцияси корпорациялари (American Jurisprudence (Second) Corporations) директорнинг фидуциар мажбуриятлари сифатида ғамхўрлик (*duty of care*), содиқлик (*duty of loyalty*) ва ҳалоллик (*duty of good faith*) мажбуриятларини кўрсатади.

Лозим даражадаги ғамхўрлик кўрсатиш мажбурияти директордан компанияга нисбатан лозим даражада ҳаракатлар амалга ошириш, ғамхўрлик ва оқилона ақлий қобилият кўрсатиш (*reasonable intelligence*) кабиларни талаб қилади. Шунингдек, ушбу мажбуриятга кўра директор компания фаолияти бўйича юзага келадиган масалалар ҳақида тегишли маълумотлардан ҳам хабардор бўлиб бориши керак. Жумладан, директор компания манфаатлари йўлида лозим даражада ғамхўрлик кўрсатганлигига асос қилиб барча муҳим статистик маълумотларни, мутахассис маслаҳатларига мурожаат этганлигини келтириши мумкин [7].

Адабиётларда компания директорининг ғамхўрлик мажбуриятини таъминловчи хатти-ҳаракатлари кўрсатиб ўтилади. Жумладан, директор компания манфаатлари йўлида лозим даражада ғамхўрлик кўрсатиши учун компания фаолияти юзасидан қабул қилинадиган қарорлардан хабардор бўлиши; компанияни бошқаришда актив иштирок этиши, компания ишлари қай тарзда кетаётганлигини кузатиб бориши; махсус билим ёки катта куч талаб этиладиган масалалар юзага келган ҳолларда қўмиталар ташкил этиши, бунда қўмиталар бошқарув масалаларини ҳал этишда директорга кўмаклашувчи

субект бўлади, ушбу масалалар юзасидан жавобгарлик эса директор зиммасида қолаверади; директорлар йиғилиши баённомаларини аниқ ва лозим даражада юритилишини таъминлаши; компаниянинг бухгалтерия, молиявий ҳисоботлари каби ички ҳужжатлардан хабардор бўлиши; ташқи ёки ички аудит хизмати фаолияти воситасида компаниянинг бухгалтерия ва молиявий ҳисоботлари тўғрилиги ҳамда аниқлигини таъминлаши; компания мол-мулкини муҳофаза этилиши, сақланиши, бошқарилишини, шунингдек инвестиция қилинишини таъминлаши; шунингдек компания ходимлари ва мансабдор шахслари фаолияти устидан назоратни ташкил этиши, нотўғри фаолият ёки талон-тарож ҳақидаги хабарлар ва огоҳлантиришларни текшириши, ҳуқуқбузарлик аниқланган тегишли ҳолатларда ваколатли субектларни хабардор этиши лозим[8, 17-б].

Ғамхўрлик кўрсатиш мажбурияти юзасидан низо чиққан ҳолларда директорни жавобгарликдан озод қилувчи бизнес таваккалчилиги қоидаси (*business judgment rule*) ҳисобга олинади. Унга кўра компания манфаатлари йўлида, олдиндан кўриб бўлмайдиган одатдаги тижорат таваккалчилиги шароитида қабул қилган қарорлар кўзланган натижаларни бермаган бўлса-да, директор зиммасига зарарни қоплаш мажбуриятини юклаш истисно этилади[7].

Директорнинг компания манфаатлари йўлида ўзининг шахсий манфаатларидан компания манфаатларини устун қўйиб фаолият олиб бориши эса содиқлик мажбуриятини ташкил этади (*duty of loyalty*). Мазкур мажбурият бузиладиган энг кўп ҳолат директор томонидан компания номидан шахсий манфаатдорлик бўлган битим тузилишида намоён бўлади.

Мазкур фидуциар мажбуриятга оид суд прецедентларидан бири Делавер Штати Олий суди томонидан кўриб чиқилган *Guth v. Loft inc.* ишида[9] шаклланган. Унга кўра *Charlz Guth* карамел ва салқин ичимликлар ишлаб чиқарувчи *Loft Inc.* компанияси президенти бўлгани ҳолда *Pepsi-cola* компаниясини тузиб, *Loft Inc.* компаниясининг заводи, материаллари, молиявий маблағлари, ходимлари каби активларини ўз компаниясини ривожлантириш учун йўналтиради, шунингдек мазкур компания ишлаб чиқарган сиропларни *Loft Inc.* компаниясига сотади.

Loft Inc. компанияси ушбу ҳолат бўйича *Charlz Guth*га нисбатан судга мурожаат қилади. Мазкур иш доирасида Делавер Штати Олий суди томонидан компанияга содиқлик мажбуриятига оид бир нечта хулосалар шакллантирилган. Хусусан, содиқлик мажбурияти бўйича компания директори ўз ваколатларидан фақат компания манфаатлари йўлида фойдаланиши лозимлиги, шахсий

манфаатдорлик бўлмаслиги назарда тутилади. Содиқлик мажбурияти актив ва пассив шаклда бўлиши мумкин: директорнинг компания манфаатлари йўлида ҳаракат қилиши унинг актив мажбуриятларини назарда тутса, компания билан манфаатлар тўқнашувига йўл қўймаслик (яъни компания номидан тузиладиган битимлар, амалга ошириладиган операциялардан шахсий манфаат кўзламаслик), компаниянинг моддий мол-мулки, шунингдек номоддий активлари(тижорат сири, товар белгиси, гудвилл)дан компания фаолияти мақсадларидан бошқа мақсадларда фойдаланмаслик, компания билан рақобат қилмаслик директорнинг пассив мажбуриятларини ташкил этади.

Америка корпоратив ҳуқуқида ҳалоллик мажбуриятининг (*duty of good faith*) мустақил фидуциар мажбурият эканлиги юзасидан мунозарали фикрлар юзага келган. Жумладан, Делавер Штати Олий суди *Stone v. Ritter* ишида ҳам ҳалоллик мажбуриятига тўхталиб, унинг содиқлик мажбурияти элементи сифатида талқин этади. Унга кўра ҳалоллик мажбурияти содиқлик ва ғамхўрлик стандартлари каби алоҳида мажбуриятни ифодаламайди. Ҳалоллик бу содиқлик мажбурияти амалга ошишини таъминлашга хизмат қилади. Директор ўз мажбуриятларини қасдан бажармаса, онгли равишда мажбуриятларига лоқайдлик, эътиборсизлик билан муносабатда бўлса, ҳалоллик мажбурияти бузилган деб ҳисоблаш мумкин бўлади[8 29-б].

Немис корпоратив ҳуқуқида директорнинг фидуциар мажбуриятлари сифатида АҚШ мисолида санаб ўтилганлардан ташқари кузатув кенгаши розилигисиз бошқа юридик шахслар бошқарув органларида иштирок этмаслик, компания билан рақобат муносабатлари юзага келишига йўл қўймаслик, яъни компания фаолияти предмети ҳисобланган бизнес секторда мустақил фаолият олиб бормаслик ёки бошқа шахслар манфаатлари учун вакиллик қилмаслик, шунингдек компания фаолиятига доир сир тутилиши лозим бўлган ахборот махфийлигига риоя этиш кабилар бевосита мустаҳкамлаган[10, 339-б]. Инглиз корпоратив ҳуқуқида эса директорнинг иш юритишда учинчи шахслар таъсирдан ҳоли бўлган актив позицияни эгаллаб мустақил бошқарувчи бўлиш мажбурияти ҳам назарда тутилади[11, 101-б].

Ривожланган мамлакатлар корпоратив ҳуқуқида шаклланган қарашларга асосан ёндашадиган бўлсак, миллий қонунчиликда ҳам маълум даражада юридик шахс бошқарувчиларининг фидуциар мажбуриятларига оид қоидалар ўз аксини топган. Хусусан, Ўзбекистон Республикасининг “Масъулияти чекланган ва қўшимча масъулиятли жамиятлар тўғрисида”ги[12] ҳамда “Акциядорлик жамиятлари ва акциядорлар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш

тўғрисида”ги[13] Қонунларига асосан жамиятни бошқаришда манфаатлар тўқнашуви юзага келишини олдини олиш мақсадида жамият бошқарувчилари ва уларнинг афилланган шахслари доираси белгиланади ва улар билан битим тузишнинг алоҳида тартиби назарда тутилади. Худди шундай тартиб жамият томонидан йирик битимларни тузиш ҳолларида ҳам амал қилади. Жамият фаолияти, ундаги молия-хўжалик фаолияти жамият ҳисоботларида акс эттирилади. Ўзбекистон Республикасининг “Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида”ги Қонуни[14] 11-моддасига асосан жамиятларда бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботини ташкил этиш ва уларнинг белгиланган тартибда юритилишини таъминлаш жамият раҳбари зиммасидаги мажбурият ҳисобланади.

Бундан ташқари “Акциядорлик жамиятлари ва акциядорлар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тўғрисида”ги Қонуннинг 81-моддасида фақат акциядорлик жамияти шаклидаги юридик шахслар учун жавобгарлик ҳавфи билан бошқарув органлари мажбуриятлари назарда тутилади. Унга кўра, бошқарув органлари била туриб чалғитувчи ёки ёлғон ахборот тақдим этганлик; ушбу Қонунда белгиланган ахборот тақдим этиш тартибини бузганлик; жамиятга зарар етказилишига олиб келган йирик битимлар ва/ёки амалга оширилишидан манфаатдорлик бўлган битимларни тузишни таклиф этганлик, шу жумладан жамият билан бундай битимлар тузилиши натижасида ўзлари ёки ўз афилланган шахслари томонидан фойда (даромад) олиш мақсадида битимлар тузишни таклиф этганлик учун жамият олдида жавобгар бўлади.

Ўзбекистон Республикасининг “Масъулияти чекланган ва кўшимча масъулиятли жамиятлар тўғрисида”ги ҳамда “Акциядорлик жамиятлари ва акциядорлар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тўғрисида”ги Қонунларининг тегишлича 42 ва 81-моддаларига мувофиқ жамият бошқарув органлари ўз ҳуқуқларини амалга оширишда ва ўз мажбуриятларини бажаришда жамият манфаатларини кўзлаб ҳалол ва оқилона ҳаракат қилишлари лозимлиги мустаҳкамланган.

Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексининг[15] 45-моддасига кўра эса қонунга ёки юридик шахснинг таъсис ҳужжатларига мувофиқ юридик шахс номидан иш олиб борадиган шахс ўзи вакили бўлган юридик шахс манфаатлари йўлида ҳалол ва оқилона иш олиб бориши керак.

Ушбу нормаларда юридик шахсни бошқарувчи ва унинг номидан иш юритувчи шахсларнинг фидуциар мажбуриятлари сифатида “юридик шахс манфаатларини кўзлаб иш олиб бориш”, “ҳалоллик” ва “оқилоналик” талаблари назарда тутилади. Қонунчиликда юридик шахс манфаатлари, ҳалоллик ва

оқилоналик атамалари ишлатилгани ҳолда уларнинг мазмуни очиб берилмаган. Мазкур категориялар баҳоланувчи тушунчалар ҳисобланиб, фуқаролик обороти иштирокчилари ўртасидаги муносабатларнинг фактик ҳолатларига қараб уларнинг легал мазмуни суд томонидан аниқланиши керак. Адабиётларда мазкур тушунчалар мазмунига тўхталиб ўтилади. Хусусан, юридик шахс манфаатлари деганда, И.А. Турбина юридик шахснинг тизимли равишда фойда олиши ҳамда иштирокчилар/акциядорлар манфаатлари қондирилишини тушунади, шунингдек бунда контрагентлар билан муносабатларни мустаҳкамлаш, ходимлар манфаатлари, компания фаолиятини жамият ва атроф-муҳитга таъсири, компаниянинг ишчанлик обрўсининг таъминланиши каби жиҳатлар ҳисобга олиниши кераклигини таъкидлайди[11, 16-б].

Е.А. Сухановнинг фикрига кўра, оқилоналик деганда ҳолатни англаб етганлик, хулқ-атворнинг мантиқийлиги ва мақсадга мувофиқ эканлиги назарда тутилади.

Ҳалоллик эса шахснинг субъектив ҳолати ҳисобланиб, шахс ўзининг унга берилган ҳуқуққа номувофиқ ҳаракат қилаётганлигини билмаслиги ва билиши мумкин ҳам бўлмаслигида намоён бўлади. Шахс унга берилган ҳуқуқдан унинг мақсадларига мувофиқ тарзда фойдаланаётганлигини назарда тутиб ҳаракат қилади. Ҳалоллик категорияси ўзининг асосларини рим ҳуқуқида амал қилган "*bona fides*" - "езгу хулқ" принциpidан олади[16, 360-б].

Шу тарзда миллий қонунчиликда юридик шахсни бошқаришга оид фидуциар мажбуриятлар моҳиятини ташкил этувчи қоидалар турли қонун ҳужжатларида назарда тутилган. Бироқ ривожланган ҳуқуқ тизимларида мустаҳкамланган бир қатор фидуциар мажбуриятлар, жумладан, ташқи аралашувсиз мустақил фаолият олиб бориш, қарор қабул қилишда унга асос бўладиган зарур ва етарли даражада маълумот йиғиш ҳамда уларни инобатга олган ҳолда қарор қабул қилиш, юридик шахс фаолиятида сир тутилиши керак бўлган ахборот (масалан, тижорат сири) махфийлигини таъминлаш, юридик шахснинг бизнес имкониятларидан ўз манфаати йўлида фойдаланмаслик (масалан, компаниянинг моддий ва номоддий активларини ўзининг шахсий эҳтиёжларига, шахсий бизнесига йўналтирмаслик), тегишли фаолият соҳасида юридик шахс билан назорат қилувчи органлар розилигисиз рақобат қилмаслик кабилар бевосита белгиланмаган. Қолаверса, “юридик шахс манфаатлари йўлида ҳаракат қилиш”, “ҳалоллик” ва “оқилоналик” стандартлари мазмуни умумий тарзда белгиланган, уларнинг мазмунини аниқлаштиришга хизмат қиладиган йўналиш берувчи ҳолатлар кўрсатиб ўтилмаган, аниқ акс эттирилган

бошқарув органларининг алоҳида мажбуриятлари билан стандартлар мазмунининг тизимлаштирилган ҳолда мантиқий боғлиқлиги акс эттирилмаган.

Бу борада Россия Федерацияси корпоратив ҳуқуқига мурожаат қиладиган бўлсак, Фуқаролик кодексининг[17] 53 ва 53.1-моддалари, “Масъулияти чекланган жамиятлар тўғрисида”ги Қонуннинг[18] 44-моддаси ҳамда “Акциядорлик жамиятлари тўғрисида”ги Қонуннинг[19] 71-моддаси қоидаларида юридик шахс бошқарув органларининг юридик шахс манфаатларини кўзлаб ҳалол ва оқилона иш юритиши лозимлиги белгиланган ҳамда ушбу фидуциар мажбуриятлар бузилиши уларнинг юридик шахс олдидаги жавобгарлиги асоси сифатида мустаҳкамланган. Россия Федерацияси Олий Арбитраж Суди Пленумининг “Юридик шахс органлари таркибига кирувчи шахслар томонидан етказилган зарарларни қоплашнинг айрим масалалари тўғрисида”ги Қарорида[20] эса ҳалоллик ва оқилоналик стандартларини амалиётга тадбиқ этиш жараёнида уларнинг мазмунига оид йўналиш берувчи ҳолатлар санаб ўтилган. Жумладан, ушбу Қарорнинг 2-бандига кўра *қуйидаги ҳолатлар ҳалоллик стандартининг бузилиши ҳисобланади:*

директор (унинг аффилланган шахслари) ва юридик шахс манфаатлари тўқнашуви мавжуд бўлгани ҳолда фаолият юритиш, жумладан, амалга оширилишидан амалда (фактически) манфаатдорлиги бўлган битимларни тузиш, бундан манфаатдорлик ҳақида юридик шахс назорат қилувчи органларига ўз вақтида маълум қилиш ва белгиланган тартибда розилик олиш ҳоллари мустасно;

тузилган битимлар ҳақидаги маълумотларни юридик шахс иштирокчилари/акциядорларидан яшириш (жумладан, юридик шахс фаолиятига доир тегишли ҳисоботларга киритмаслик) ёки бундай маълумотларни бузиб кўрсатиш;

юридик шахс устави ва қонун ҳужжатларига асосан розилик олиш талаб этиладиган битимларни шундай розилик олмасдан тузиш;

ваколати тугатилганидан сўнг келгусида юридик шахс учун ноқулай оқибатлар келтириб чиқариши мумкин бўлган ҳолатларга тааллуқли ҳужжатларни ўзида ушлаб туриш ва тақдим этишдан бўйин товлаш;

тегишли ҳаракатни (ҳаракатсизликни) амалга ошириш чоғида унинг юридик шахс манфаатларига зид эканлигини билган ёки билиши лозим бўлган бўлса, масалан, юридик шахс учун фойдасиз эканлиги ёки контрагент (“Фирма-однодневка) бажара олмаслиги олдиндан аниқ бўлган битимларни тузган бўлса.

Қуйидаги ҳолатлар эса директор ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги) оқилоналик стандартига амал қилмаслик сифатида санаб ўтилади:

қарор қабул қилишда ўхшаш ҳолатларда иш юритиш амалиёти талаб қиладиган зарур ва етарли ахборотни олишга қаратилган чоралар кўрмаслик;

иш учун аҳамиятли бўлган ўзига маълум ахборотни ҳисобга олмасдан қарор қабул қилганлик;

ўхшаш битимларни тузишда одатда талаб қилинадиган ёки юридик шахснинг ички ҳужжатлари билан белгиланган процедурага риоя этмасдан қарор қабул қилиш (масалан, юридик бўлим ёки бухгалтер билан маслаҳатлашмаслик).

Булар тугал рўйхат эмас, иш ҳолатларига кўра бошқа хатти-ҳаракатлар ҳам ушбу стандартларга зид ҳолат сифатида баҳоланиши мумкин.

Мақоланинг кириш қисмида қайд этилганидек, фуқаролик ҳуқуқи соҳасида амалга оширилаётган ислохотлар баробарида корпоратив муносабатларга фидуциар мажбуриятларни олиб киришга қаратилган ҳаракатлар амалга оширилмоқда. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасининг фуқаролик қонунчилигини такомиллаштириш чоратадбирлари тўғрисида”ги Фармойишига[21] кўра миллий қонунчиликка юридик шахс директорининг фидуциар мажбуриятлари институтини киритиш вазифаси белгиланди.

Мазкур вазифа ижроси ўлароқ Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексининг янги лойиҳасида юридик шахслар органлари ва мансабдор шахсларининг фидуциар жавобгарлигини назарда тутувчи алоҳида норма акс эттирилди. Ушбу норма мазмунига кўра қонунга ёки юридик шахснинг таъсис ҳужжатларига мувофиқ юридик шахс номидан иш олиб борадиган шахс ўзи вакили бўлган юридик шахс манфаатлари йўлида ҳалол ва оқилона иш олиб бориши керак. Мазкур мажбурият нафақат юридик жиҳатдан, балки фактик жиҳатдан юридик шахсни бошқарувчи шахслар зиммасига ҳам юклатилади. Юридик шахс номидан иш олиб борувчи шахслар, юридик шахснинг коллегиял органлари ҳамда фактик бошқарувчилар айби билан етказилган зарар учун юридик шахс олдида жавобгар бўлади. Ушбу шахсларнинг юридик шахсга биргаликда етказилган зарари учун жавобгарлиги солидар хусусиятга эга. Коллегиял тартибда қарор қабул қилинган ҳолларда юридик шахсга зарар етказилишига олиб келган қарорга қарши овоз беган ёки ҳалол ҳаракат қилиб овоз беришда қатнашмаган шахслар жавобгарлиги истисно этилади.

Бизнингча, ушбу нормада белгиланган қоидалар аҳамияти, аввало, юридик шахс олдида фидуциар мажбуриятга эга субъектлар доираси кенгайганида намоён бўлади. Шунингдек, ушбу субъектлар жавобгарлиги асослари ва тартибига оид масалалар ҳам тартибга солинган. Бироқ фидуциар мажбуриятларнинг бевосита мазмунини аниқлаштиришда ўзгариш бўлмаган. Юридик шахс бошқарув органларининг фидуциар мажбуриятлари умумий тарзда “юридик шахс манфаатлари йўлида ҳаракат қилиш”, “ҳалоллик” ва “оқилоналик” стандартлари билан ифодаланган.

ХУЛОСАЛАР

Хулоса ўрнида фидуциар мажбуриятлар ишончга асосланган муносабатларни ташкил этади. Инглиз-америка корпоратив ҳуқуқида ушбу мажбуриятлар содиқлик, ҳалоллик ва лозим даражадаги ғамхўрлик стандартлари билан белгиланган, суд претцедентлари ҳамда намунавий ҳуқуқ манбаларида уларни қўллаш бўйича йўналиш берувчи ҳолатлар санаб ўтилган. Рус корпоратив ҳуқуқида ушбу мажбуриятлар компания манфаатларини кўзлаб ҳалол ва оқилона ҳаракат қилиш лозимлиги билан умумий тарзда мустаҳкамланган, шунингдек уларнинг мазмунини аниқлашга хизмат қилувчи ҳолатлар Олий Арбитраж Суди Пленуми Қарори билан тартибга солинган. Фидуциар мажбуриятлар белгиланиши корпоратив ҳуқуқда компания ва унинг бошқарувчилари манфаатлари мувозанатини таъминлашга, инвесторлар (иштирокчилар /акциядорлар) томонидан компания фаолиятига киритиладиган капитал ҳимояси, унинг тўғри бошқарилишига хизмат қилади, шунингдек компания директорлари ваколатларини ушбу ваколатлар мақсадларига мувофиқ тарзда амалга оширилишини таъминлайди. Фикримизча, миллий қонунчиликда мустаҳкамланаётган юридик шахс бошқарув органлари фидуциар мажбуриятларини такомиллаштириш, бу борада ривожланган мамлакатлар корпоратив ҳуқуқига яқинлашиш, шунингдек уларни амалиётга тадбиқ этиш имкониятларини ошириш мақсадида юқорида санаб ўтилган мамлакатларда шаклланган тажрибани ҳисобга олган ҳолда қонун ҳужжатлари ёки Ўзбекистон Республикаси Олий Суди Пленуми тушунтиришлари билан юридик шахс бошқарув органларининг фидуциар мажбуриятларини тизимлаштириш, умумий тушунчалар мазмунини талқин этишда йўналиш берувчи ҳолатларни акс эттириш мақсадга мувофиқ бўлар эди.

REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодексини тасдиқлаш ҳақида”ги Қонуни лойиҳаси // URL: <https://regulation.gov.uz/uz/d/29059>
2. Агламазова В.В. Концепция фидуциарных правоотношений и возможность ее применения в корпоративном праве России // URL: <https://lawfirm.ru/pr/index.php?id=4426>
3. Griffin, Jr. W. F. Fiduciary duties of officers, directors and business owners, 2011. – р. 2. // URL: https://www.davismalm.com/wp-content/uploads/2019/08/Griffin_CH8_Fiduciary_Duties.pdf
4. Беневоленская З. Э. Фидуциарные обязательства директора компании по английскому праву // Журнал российского права № 4. – 2006. – ст. 130. // URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/fidutsiarnye-obyazatelstva-direktora-kompanii-po-angliyskomu-pravu>
5. Дружинин Г.В. Правовая природа фидуциарных отношений // exlegis Правовые исследования № 1. – 2016. – ст. 26. // URL: http://exlegis.ru/ru/issue/docs/Exlegis_2016_1.pdf
6. Jendrzejek D.P. What Exactly Are the Duties of a Fiduciary? – 2011. – р. 1-2. [Электрон манба] // URL https://www.lawmoss.com/media/publication/724_DPJDutiesofFiduciary.pdf
7. Будылин С. Л. Разум и добрая совесть: обязанности директора в США, Великобритании // России «Вестник ВАС РФ». – 2013. – N 2 / URL: <https://center-bereg.ru/b2169.html>
8. Forrester C.M., Ferber C.S. Fiduciary Duties and Other Responsibilities of Corporate Directors and Officers. RR Donnelley, 2012. P. 29.
9. Guth v. Loft Inc, 5 A.2d 503, 23 Del. Ch. 255 (Del. 1939) [Электронный манба]. URL: <https://goo.gl/h4WBs6>
10. Andreas Cahn and David C. Donald, Comparative Company Law: Text and Cases on the Laws Governing Corporations in Germany, the UK and the USA. – 1st ed. – 2010, 339 p.
11. Турбина И. А. Гражданско-правовая ответственность исполнительных органов хозяйственных обществ в РФ, ЕС и США: дисс...канд. юр. наук. // Турбина Инга Александровна. Волгоград, 2016. – с. 101.;
12. Ўзбекистон Республикасининг “Масъулияти чекланган ва кўшимча масъулиятли жамиятлар тўғрисида”ги Қонуни, ЎРҚ-310-II-сон 06.12.2001 // URL: <https://lex.uz/docs/-22525>;

13. Ўзбекистон Республикасининг “Акциядорлик жамиятлари ва акциядорлар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тўғрисида”ги Қонуни, ЎРҚ-370-сон 06.05.2014 // URL: <https://lex.uz/docs/-2382409>;
14. Ўзбекистон Республикасининг “Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида”ги Қонуни, ЎРҚ-404-сон 13.04.2016 // URL: <https://www.lex.uz/ru/docs/-2931253>;
15. Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодекси // URL: <https://lex.uz/docs/111189>;
16. Гражданское право. В 4 т. Т. 1: Общая часть : учеб. для студентов вузов, обучающихся по направлению 521400 «Юриспруденция» и по специальности 021100 «Юриспруденция» / [Ем В.С. и др.] ; отв. ред. — Е.А. Суханов. — 3-е изд., перераб и доп. — М. : Волтерс Клувер, 2006. — 720 с.;
17. Гражданский кодекс Российской Федерации [Электронный ресурс] // URL: http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_5142/;
18. Федеральный закон Российской Федерации “Об обществах с ограниченной ответственностью” // URL: http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_17819/
19. Федеральный закон Российской Федерации “Об акционерных обществах” // URL: http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_8743/
20. Постановление Пленума ВАС РФ от 30.07.2013 N 62 "О некоторых вопросах возмещения убытков лицами, входящими в состав органов юридического лица" // URL: http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_150888/
21. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасининг фуқаролик қонунчилигини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармойиши // URL: <https://www.lex.uz/docs/-4272621>

UDK 631.312.44

TUPROQQA ISHLOV BERISHDA ENERGIYA VA RESURS TEJAMKORLIKKA ERISHISH YO‘LLARI

H.A.Ravshanov

TIQXMMI Qarshi filiali professori, t.f.d.

ANNOTATSIYA

Maqolada tuproqqa ishlov berish, uni ekishga tayyorlashda energiya-resurs tejamkorlikka erishish yo‘llari va chora-tadbirlari keltirilgan.

***Kalit so‘zlar:** tuproq, ishlov berish, energiya, resurstejamkorlik, texnologiya, mexanik ishlov, eroziya, ag‘darmasdan ishlov berish, texnik, texnologik, minimal, yonilg‘i, xom ashyo, unumdorlik.*

WAYS TO ACHIEVE ENERGY AND RESOURCES IN SOIL DEVELOPMENT

ABSTRACT

The article describes the ways and measures to achieve energy efficiency in the cultivation of soil, its preparation for planting.

***Key words:** soil, processing, energy, resource saving, technology, mechanical processing, erosion, tillage, technical, technological, minimal, fuel, raw materials, productivity.*

СПОСОБЫ ДОСТИЖЕНИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ И РЕСУРСНЫХ ОБЕСПЕЧЕНИЙ ПРИ РАЗРАБОТКЕ ПОЧВ

АННОТАЦИЯ

В статье приведены способы и меры по достижению энергоэффективности при обработке почвы, подготовке ее к посадке.

***Ключевые слова:** почва, обработка, энергия, ресурсосбережение, технология, механическая обработка, эрозия, безотвального обработка, технический, технологический, минимальный, топливо, сырье, производительность.*

KIRISH

Jahonda qishloq xo‘jalik ekinlarini yetishtirish, ulardan yuqori hosil olish uchun tuproq unumdorligini saqlagan holda energiya-resurs tejamkor va ish unumi yuqori bo‘lgan tuproqqa ishlov berish mashinalarini ishlab chiqish va qo‘llash yetakchi

o‘rinni egallamoqda. Dunyo qishloq xo‘jalik amaliyotida ekinlarni ekishdan oldin dalalarga asosiy ishlov berish bilan birga tuproqni ekishga tayyorlashning resurstejamkor texnologiyalari va ularni amalga oshiradigan texnika vositalarining yangi ilmiy-texnikaviy asoslarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Respublikamiz qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida mehnat va energiya sarfini kamaytirish, resurslarni tejash, yerlarni ilg‘or texnologiyalar asosida ekishga tayyorlash qishloq xo‘jalik ekinlarini ilg‘or texnologiyalar asosida yetishtirish va yuqori unumli qishloq xo‘jalik mashinalarini ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, jumladan, dalalarni ekishga tayyorlashda tuproqqa asosiy ishlov berish va bir vaqtda uni ekishga tayyorlash orqali kam energiya sarflab, barcha texnologik jarayonlarni sifatli bajarilishini ta‘minlaydigan texnik vositalarni ishlab chiqishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda eng ko‘p mehnat va energiya talab qiladigan texnologik jarayonlardan biri– bu tuproqqa ishlov berish hisoblanadi. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida mehnat va energiya xarajatlarining 70 foizi ekinlarni yetishtirish uchun sarflanadi, shu jumladan, tuproqqa ishlov berish esa uning 40 foizini tashkil etadi [1].

Hozirgi zamon jahon amaliyotida tuproqqa ishlov berishda energiya va resurstejamkor, tuproq unumdorligini oshiradigan, tuproqni ekologik himoyalaydigan texnologiya va texnik vositalarni ishlab chiqish hamda qo‘llash yetakchi o‘rinni egallaydi. Energiya va resurstejamkorlik traktor va qishloq xo‘jalik mashinalarining yurish qismlari ta‘siri ostida tuproqning zichlashishini oldini olish, mexanik ishlov berish sonini kamaytirish, tuproq unumdorligini saqlash, tuproqni himoya qilish, suv va shamol eroziyasini oldini olish, ishlab chiqarish xarajatlari va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tannarxini pasaytirish uchun dolzarb hisoblanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

O‘tkazilgan ilmiy-texnik va patent adabiyotlari tahliliga ko‘ra, tuproqqa ishlov berishda tejamkorlik omillari energiya-tejamkorlik va resurstejamkorlikdan iborat. Tejamkor texnologiyalar tuproqning unumdor qatlami va namlikni saqlashga, suv va shamol eroziyasiga qarshi kurashishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Bunday texnologiyalarda har bir operatsiya ish organlari bilan tuproqqa ag‘darib yoki ag‘darmasdan ishlov berish orqali amalga oshirilishi mumkin [2]. Ayrim texnologiyalarda esa, dala yuzasida o‘simlik poyalari va ildiz qoldiqlarini saqlagan holda, tuproqqa nol yoki minimal ishlov berishni qo‘llash asosida bajarilishi mumkin [3,4].

Qishloq xo‘jaligining asosiy vazifasi - tuproqqa sifatli ishlov beradigan va uni ekishga to‘liq tayyorlaydigan energiya va resurstejamkor texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish hisoblanadi.

Resurstejamkorlik - O‘zbekiston iqtisodiyotining ustuvor vazifalaridan biridir. Bu avvalo, ko‘plab resurs manbalarining noyoblighi bilan bog‘liq bo‘lib, ularning asosiylari 1-rasmda keltirilgan [5].

So‘nggi yillarda jahon amaliyotida nol ishlov berish va to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekish maydonini ko‘paytirish tendensiyasi yaqqol ko‘rinmoqda [3]. Ammo, bunday ishlov berish usullarida begona o‘tlar ko‘payadi, bu esa gerbisidlar va o‘simliklarni himoya qilish vositalaridan ko‘proq foydalanishni talab qiladi, natijada mahsulot tannarxi sezilarli darajada oshadi.



1- rasm. Tuproqqa ishlov berish va uni ekishga tayyorlashda asosiy tejamkorlik omillari

Qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirishda foydalanish xarajatlarini kamaytirish uchun bir o‘tishda bir nechta texnologik operatsiyalarni bir vaqtda bajarish, shuningdek, tuproqni himoyalab ishlov berish texnologiyalari va eroziyaga qarshi kurash mashina-qurollarini ishlab chiqish va joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun keng qamrovli hamda kombinatsiyalashgan tuproqqa ishlov berish mashinalari va agregatlari talab qilinadi. Tuproq unumdorligini saqlash, atrof-muhitni

himoya qilish va ekologiyani yaxshilash muhim ahamiyat kasb etib, bu gerbisidlardan minimal foydalanish yoki ulardan to‘liq voz kechishni taqozo etadi [5].


Energiya-rusurstejamkorlikka erishishning chora-tadbirlari va yo‘llari (2-rasm) quyidagilardan tashkil topgan bo‘lib,

ilmiy jihatdan – tuproqni ekishga tayyorlashning energiya-resurstejamkor yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish; innovation mashina va qurollarni tadbiriq qilish,

texnik jihatdan - kombinatsiyalashgan, ko‘pfunksiyali tuproqqa ishlov berish mashina va agregatlardan foydalanish; universal mashina va qurollarni qo‘llash;

tashkiliy ishlab chiqarish jihatdan - tuproqni ekishga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirish; tuproqqa ag‘darib va ag‘darmasdan ishlov berishni almashlab qo‘llash;

iqtisodiy jihatdan - ma‘naviy eskirgan texnikalarni o‘z vaqtida modernizatsiya qilish; yetishtiriladigan mahsulot tannarxini kamaytirishdan iborat.



2-rasm. Energiya-rusurstejamkorlikka erishish yo‘llari va chora-tadbirlari

Olimlarning tinimsiz izlanishlari asosida tuproqqa ishlov beradigan va uni ekishga tayyorlaydigan energiya va resurstejamkor kombinatsiyalashgan tuproqqa ishlov berish mashinalariga qo‘yiladigan talablar ishlab chiqilgan. Bunda barcha talablar o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq bo‘lib, bitta texnologik operatsiyani amalda joriy

etishda u boshqa texnologiyalar bilan ham kesishadi. Natijada, ular umumiy xarajatlarni kamaytirish, tuproq unumdorligini saqlash va hosildorlikni oshirish kabi yagona maqsadga erishishga qaratiladi. O'z navbatida, ushbu talablarning har biri ma'lum parametrlar bilan tavsiflanadi:

texnologik – tuproq unumdorligini saqlagan holda texnologik operatsiyalarni bir vaqtda bajarilishini ta'minlaydigan maksimal mukammallik;

texnik – oddiy konstruksiyali, ishchi qism va detallarni o'zaro almashinuvchanligi, barcha uzal va mexanizmlarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash imkoniyati mavjudligi, agregatning minimal uzunligi, massasi va mumkin bo'lgan maksimal kenglik;

energiyatejamkorlik – bir nechta operatsiyalarni bir vaqtda bajarilishini birlashtirish imkoniyati mavjudligi, minimal yonilg'i-moylash materiallari sarfi;

resurstejamkorlik – mashina va qurollarning metall hajmining minimal sarfi;

foydalanish – xavfsiz, yuqori manevrli, har xil relefli maydonlarda ishlashga qodir, maksimal samarador, texnologik operatsiyalarni yuqori sifatli bajaradigan, keng doirada rostlanadigan, texnik ishonchli;

iqtisodiy – texnik vositalarning minimal qiymati va foydalanish xarajati.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra quyidagilarni xulosa qilish mumkin:

1. Tadqiqotchilar va mutaxassislarining kuzatishlariga ko'ra, samarali energiya-resurstejamkor texnologiyalardan foydalanish agregatlarni daladan o'tishlar sonini kamaytiradi, tuproqqa ishlov berishni minimallashtiradi va uning unumdorligini saqlab qoladi, atrof-muhit ifloslanishining oldini oladi.

2. Resurstejamkor texnologiyalar tuproqni ekishga tayyorlashda yonilg'i va xom ashyo materiallarini eng kam sarf qilishi, mehnat sarfini kamaytirishi, hosildorlikni oshirishi, tabiiy resurslarni tejashi, tuproqni ekologik himoyalashi va atrof-muhitga zarar yetkazmasligi lozim.

REFERENCES

1. Ravshanov H.A. Tuproqni takroriy ekinlar ekishga tayyorlaydigan texnik vositalarni ishlab chiqishning ilmiy-texnik yechimlari: Diss. ... texn. fan. dokt. – Toshkent, 2020. – 206 b.

2. Курдюмов В.И., Зыкин Е.С. Энергосбережение при гребневом возделывании пропашных культур// Аграрный научный журнал. 2015. – № 4. – С. 52-56.

3. Милюткин В.А., Цирулев А.П. Возможности повышения продуктивности сельхозгодий влагосберегающими технологиями высокоэффективной техникой «AMAZONEN-WERKE» // Материалы между-народной научно-практической конференции: Современное состояние и перспективы развития агропромышленного комплекса. – Курганская ГСХА им. Т.С. Мальцева, 2016. – С. 220-224.
4. Милюткин В.А., Толпекин С.А., Орлов В.В. Энерго-ресурсо-влагосберегающие технологии в земледелии и рекомендуемые комплексы машин// Материалы Международной научно-практической конференции: Стратегические ориентиры инновационного развития АПК в современных экономических условиях. – Волгоград: Волгоградский ГАУ, 2016. – С. 232-236.
5. Мударисов С.Г., Юсупов Р.Ф., Балыкина А.В. Комбинированная посевная секция для нулевой технологии посева// Материалы Всероссийской научно-практической конференции в рамках XI Промышленного салона и специализированных выставок «Промэкспо, станки и инструмент», «Сварка. Контроль. Диагностика». – Уфа: Башкирский ГАУ, 2016. – С. 170-175.

УДК: 614.1-036. 86:614.21:61/071

ЗАБОЛЕВАЕМОСТЬ ПРЕПОДАВАТЕЛЬСКОГО СОСТАВА ВУЗА ТЕХНИЧЕСКОГО ПРОФИЛЯ

Ахмадалиева Нигора Одилловна
Ташкентская медицинская академия
Саломова Феруза Ибодуллаевна
Ташкентская медицинская академия
Садуллаева Хосият Абдурахманова
Ташкентская медицинская академия
Шарипова Сажида Ахметжановна
Ташкентская медицинская академия
Хабибуллаев Саидазиз Шохсуварович
Ташкентская медицинская академия

АННОТАЦИЯ

Исследована заболеваемость профессорско-преподавательского состава (ППС) с временной утратой трудоспособности (ВУТ) Ташкентского государственного университета имени Ислама Каримова (ТГТУ). Заболеваемость с ВУТ изучена в двух группах работников (основная и контрольная).

Результаты исследования свидетельствуют о том, что уровень заболеваемости женщин в расчете на 100 работающих соответствующего пола в 1,4-2,6 раз выше, чем мужчин.

Также проведен медицинский осмотр преподавателей вуза. При анализе результатов медосмотра обращает на себя внимание большая значимость таких форм заболеваний, для которых факторами риска могут быть некоторые особенности производственной среды: постоянное напряжение органов зрения, неблагоприятный микроклимат, рабочая поза стоя, высокое нервно-психическое напряжение и психологическое выгорание.

Ключевые слова: *временная нетрудоспособность; здоровье преподавателей вузов, заболеваемость преподавателей вузов*

ABSTRACT

The study investigates the morbidity of the teaching staff (TS) with temporary disability (TD) of the Tashkent State Technical University named after Islam Karimov (TSTU). The morbidity of TS was studied in two groups of workers (main and control).

The results of the study indicate that the incidence rate of women per 100 workers of the same sex is 1.4-2.6 times higher than that of men.

A medical examination of the university teachers was carried out. When analyzing the results of a medical examination, attention is drawn to the great importance of such forms of diseases, for which some features of the working environment may be risk factors: constant pressure on the eyes, an unfavorable microclimate, working in a standing position, high neuropsychic stress and psychological burnout.

***Keywords:** temporary disability; health of university teachers, morbidity of teaching staff*

ВВЕДЕНИЕ

Здоровье является основным компонентом человеческого капитала и основным резервом, обеспечивающим человеку успешное освоение специальности и эффективную профессиональную деятельность. Не вызывает сомнения значимость сохранения и укрепления здоровья основных участников образовательного процесса. Наиболее распространенным и доступным методом оценки здоровья является изучение и анализ заболеваемости.

При изучении условий труда исследователи, как правило, включают в число обязательной части таких работ оценку заболеваемости работающих с временной утратой трудоспособности (ВУТ). Это вполне закономерно, так как имеется в виду, что в процессе работы на работающих действуют неблагоприятные факторы производственной среды, что отражается на их заболеваемости и в определенной степени определяет трудовые потери.

МЕТОДЫ

Заболеваемость с временной утратой трудоспособности (ЗВУТ) является одним из видов заболеваемости по обращаемости и служит важным показателем при оценке здоровья работающего населения. ЗВУТ характеризует распространенность тех случаев болезни работающих, которые повлекли за собой невыход на работу, в связи с чем ее изучение и анализ имеют не только большую социально-гигиеническую, но и социально экономическую значимость. Основной задачей изучения ЗВУТ является подготовка научно-аналитических материалов для последующего обоснования и разработка комплекса конкретных мероприятий по снижению заболеваемости работающих в масштабах государства, отрасли, предприятия (организации), а также индивидуальной заболеваемости [8, 9].

Результаты научных исследований, касающиеся здоровья педагогов школ, свидетельствуют, что их труд включает в себе повышенный риск для развития различных заболеваний [1, 6, 7], а состояние здоровья неудовлетворительное, что диктует необходимость оказания медицинской и психологической помощи большинству из преподавателей [3, 4, 5].

Труд профессорско-преподавательского состава вузов представляет синтез различных форм умственной профессиональной деятельности и до настоящего времени мало изучен и не классифицирован [2].

Цель настоящего исследования – оценка показателей здоровья ППС вуза технического профиля на основе анализа данных о временной нетрудоспособности и материалов медицинского осмотра.

Методы исследования. На основе анализа материалов выкопировки листков нетрудоспособности (форма -16) изучена заболеваемость ППС с ВУТ Ташкентского государственного технического университета (ТГТУ). Заболеваемость с ВУТ изучена в двух группах работников: 1 группа – основная – ППС вуза; 2 группа – группа сравнения - административно-технический персонал. Заболеваемость с ВУТ исследована за период с 2014 по 2018гг. В 2018г на базе студенческой поликлиники проведен медицинский осмотр группы преподавателей со стажем работы более 30 лет. Оценка заболеваемости проведена в соответствии с МКБ-10.

Результаты исследования. В период проведения исследований численность ППС (основная группа) в ТГТУ колебалась от 775 до 938 человек, а численность административно-технических работников (группа сравнения) – от 834 до 1015 человек.

Уровень заболеваемости в этих обеих изучаемых группах по классификации Ноткина Е.Л. (1979) был низким: в основной группе он колебался от 6,9 до 26,4 на 100 работающих (в среднем – $13,0 \pm 4,3$), а в группе сравнения – от 9,7 до 22,4 (в среднем – $16,0 \pm 3,1$) на 100 работающих. Ежегодно в группе сравнения уровень заболеваемости был несколько выше, чем в основной группе, но различия средних показателей были недостоверны ($P > 0,05$) из-за большого разброса данных по годам.

В ТГТУ, в отличие от других вузов республики, в составе преподавательского корпуса больше мужчин, чем женщин. При проведении статистической обработки данных нами обращено внимание на более частые заболевания женщин, поэтому показатели заболеваемости с ВУТ нами рассчитаны с учетом пола.

Динамика уровня заболеваемости с ВУТ преподавателей-мужчин и женщин показана в таблице 1.

Таблица 1

Динамика уровня заболеваемости с ВУТ ППС ТГТУ

Год	Уровень заболеваемости на 100 работающих			
	мужчины		женщины	
	абс.	на 100 работающих	абс.	на 100 работающих
2014	44	7,7	38	11,2
2015	41	6,9	60	17,3
2016	68	13,9	105	36,6
2017	74	14,4	67	22,1
2018	47	8,5	86	26,4
среднем в год, M ±m	54,8± 6,3	10,1±1,4	71,2 ±7,2	22,2±4,9

Представленные данные свидетельствуют о том, что уровень заболеваемости женщин в расчете на 100 работающих соответствующего пола действительно в 1,4-2,6 раз выше, чем мужчин.

Расчет среднегодового уровня заболеваемости женщин без учета декретного отпуска по беременности, родам и послеродовым периодом показал, что уровень заболеваемости женщин в этих условиях все равно выше, чем у мужчин – 14,3±1,1 на 100 работающих (у мужчин – 10,1±1,3, p<0,05).

При анализе структуры заболеваемости рассчитаны средние за пять лет показатели частоты тех или иных форм заболеваний в соответствии с МКБ-10. Результаты исследования свидетельствуют о том, что структура заболеваний ППС нетипична для работающих – в большинстве исследований среди работающих чаще всего регистрируются болезни органов дыхания, органов пищеварения, системы кровообращения (у женщин на втором месте обычно состояния, связанные с беременностью и родами). В наших исследованиях в группе сравнения первые 6 мест в порядке значимости (исключая беременность, роды и послеродовый период) также занимают: болезни органов дыхания (25,1%), болезни системы кровообращения (8,7%), травмы (8,3%), болезни нервной системы (6,4%), болезни органов пищеварения (5,8%), болезни

мочеполовой системы (5,2%). В основной группе на первом месте – болезни системы кровообращения (26,7%), на втором месте – болезни органов дыхания (20,5%), на третьем - болезни костно-мышечной системы и соединительной ткани (6,1%), на четвертом – болезни нервной системы (5,2%), на пятом – травмы (5,1%), на шестом – болезни мочеполовой системы (3,8%).

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ

Безусловно, приоритетными образовательными целями становятся оптимальные условия для самоопределения и самореализации современной молодежи. В настоящее время происходит трансформация целей и задач в подготовке кадров, где происходит смещение акцентов в образовательной площадке. Наблюдается отчетливое понимание сути вопроса, где субъекты образования превращаются от репродуктивного слушателя на продуктивного участника определенной деятельности с качественным багажом знаний, умений и навыков. Об этом свидетельствует новое видение проблем и задач, в котором роль образовательных учреждений повышается, происходит качественный сдвиг в сторону полноценного обеспечения субъектов обучения с ориентацией на овладение участниками образования максимальной суммы информации и знаний, совершенствования когнитивного и конструктивного их потенциала.

REFERENCES

1. Алиев С.Н. Научно-педагогические основы формирования профессиональной компетенции будущих учителей иностранных языков в педвузах Республики Таджикистан (на материале английского языка). АДД. Душанбе, 2009.
2. Каримова И.Х. Теоретические основы гуманизации гуманитарного образования студентов таджикской школы. АДД. Душанбе. 2000.
3. Манаенков Б.С. Педагогические условия формирования коммуникативной компетентности будущего преподавателя в иноязычном образовании. АКД. Воронеж, 2011г.
4. Шарипов Ф.Ф. Системный подход к информатизации педагогического процесса в вузе - доминанта формирования профессиональных компетентностей студентов: автореф. дис. ... д-ра пед. наук /Ф. Ф. Шарипов. - Душанбе, 2013. -44 с
5. Фаткулин А. О современной технологии обучения // Вестник высшей школы. 1993. № 3. С. 29-30.

AMIR SAYYID OLIMXONNING ROSSIIYAGA KIRITGAN KAPITALLARI

Toshqobilov Umid Sharofiddinovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tarix va falsafa kafedrası 3-bosqich talabasi

Xoliqulov Asliddin Habibulloyevich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tarix va falsafa kafedrası 3-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Amir Sayyid Olimxonning hayot-faoliyati va taqdiri har jihatdan Rossiya bilan bo'liq bo'ldi. U 13 yoshga to'lgach, otasining istagi bilan Sankt-Petrburgda uch yil (1894-1897) harbiy bilim yurtida o'qidi. Rus tilini o'rgandi. Maxsus tuzilgan dastur asosida davlatni boshqarish va harbiy bilimdan ta'lim oldi.

Kalit so'zlar: Amir Sayyid Olimxon, investitsiya, ishlab chiqarish, amirlik, temir yo'llar, Buxoro banki.

ABSTRACT

The life and destiny of Amir Sayyid Alimkhan were closely connected with Russia. At the age of 13, at the request of his father, he studied at a military academy in St. Petersburg for three years (1894-1897). Learned Russian. He studied public administration and military education on the basis of a special program.

Keywords: Amir Sayyid Alimkhan, investment, production, emirate, railways, Bukhara bank.

АННОТАЦИЯ

Жизнь и судьба Амира Сайида Алимхана были тесно связаны с Россией. В 13 лет по просьбе отца он три года (1894-1897) учился в военной академии в Петербурге. Выучил русский язык. Он изучал государственное управление и военное образование по специальной программе.

Ключевые слова: Амир Сайид Алимхан, инвестиции, производство, эмират, железные дороги, Бухарский банк.

KIRISH

Vassal Buxoro amirligi taxtiga 1910-yilda o'tirgan amir Sayyid Olimxonning davlatni boshqaruvi, xalqaro siyosiy va iqtisodiy ahvoli Rossiyaga tabelikda kechdi. Bu esa o'z-o'zidan amirlik xazinasi va iqtisodiyoti Rossiya imperiyasi bilan bog'lanishga olib keldi. Amir, bir tomondan, Rossiya ishlab chiqarishiga ma'lum maqsadda katta miqdorda investitsiya kiritib, uning evaziga xazinani yanada

boyitishga biroz muvaffaq bo'ldi. Ikkinchi tomondan esa, Rossiyaga har yili katta-katta miqdorda o'lponlar to'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Amirlik xazinasiga oid xujjatlar va ma'lumotlarga suyanan holda amir Sayyid Olimxonning Rossiyaga kiritgan sarmoyalarini mazmuniga ko'ra to'rt xil turga bo'lish mumkin: 1) Rossiyadagi qurilishlar, ishlab chiqarish va manufakturalarga sarflangan sarmoya investitsiyalar; 2) Rus podshosi va amaldorlari yubileylari hamda boshqa munosabatlar bilan ularga berilgan qimmatbaho sovg'a-salomlar; 3) Rossiyaga urush olib borish va boshqa shu kabi favqulodda holatlar davrida oltin hisobida berilgan yordam mablag'lari; 4) Rossiya bilan savdo-sotiq ishlariga sarflangan mablag'lar.

Ma'lum bo'lishicha, amir Sayyid Olimxon iqtisodiyot-biznes sohasida ham o'zining muayyan siyosatiga ega bo'lgan. U taniqli rus ishbilarmonlari, savdo va qurilish hamda moliya sohalarining tshkilotchilari A.A Neratov va Ivan Staxeev kabi kishilar bilan shaxsan yaqindan hamkorlikda bo'lgan. Ular bilan ikki tomonlama manfaatdorlikka asoslangan moliyaviy hamkorlikni amalga oshirib, kattagina muvafaqqiyatlarni qo'lga kiritgan. Bunga esa, Rossiyada amirlik xazinasidan foydalanishga katta iqtisodiy ehtiyoj borligi sabab bo'lgan.

Rossiyada ishlab chiqarish va sanoat hamda savdo rivojlanishida amirlik xazinasining xissasi katta bo'lgan. Rossiyada o'nlab yirik temir yo'llar qurilishi, manufakturalarning ishga tushirilishi hamda banklarning faoliyat yuritishiga amir Sayyid Olimxon kattadan-katta investitsiyalar kiritgan. Bular Neva va Staro-Gorkin manufakturalari, Staxeev firmasi, Shuya va Shibanov korxonalari, Volga-Bogulma va Rus-Buxoro temir yo'llari, Rus-Osiyo, Rus-Buxoro banklari va boshqalardan iborat bo'lgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

1928-yil 17-martda VKP(b) Markaziy Qo'mitasining berilgan 0251-raqamli hamda unga oradan uch kundan keyin 20-martda qo'shimcha qilib yuborilgan 02256-ma'lumotnomalarda quyidagilar bayon etiladi: "Sayyid Olimxon o'z boyligini Rossiyadagi katta tadbirkorlarga berib, oltin va boshqa qimmatbaho toshlardan iborat maxsus fond tashkil etadi, hatto Gollandiyada qimmatbaho toshlar savdosini yo'lga qo'yadi. Inqilobdan oldin Rossiyada uning boyligidan foydalanuvchi katta bir fond ham paydo bo'ladi. Bunga taxminan 1914-yilda Rossiya Tashqi ishlar vaziri do'stining akasi oxirgi yillarda Rossiya moliya sarmoyasi rivojlanishiga katta xissa qo'shgan taniqli tadbirkor arbob A.A Neratov vositachilik qiladi. U orqali Buxoro

amir Sayyid Olimxo o'zining shaxsiy boyligini hissadorlik asosida Staxeevning firmasi korxonalariga uch bosqichda o'tkazgan. 1917-yilga kelib, Rossiyaga Buxoro amiri kiritgan sarmoyaning umumiy miqdori oltin hisobida 42.5 mln. so'mga yetgan. Staxeev esa amirdan olgan pullarga Rossiya to'qimachilik sanoatining bir necha yirik korxonalarini sotib olgan. Bularning qatorida gigant Neva manufakturasi ham bo'lgan. Amir bilan Staxeevning oldi-berdi muomalasi Rus-Osiyo banki hamda Birlashgan bank orqali amalga oshirilgan. Rus-Osiyo banki boyligining katta bir qismi, butun o'z boshqarmasi bilan birga Staxeevning tasarrufida bo'lgan".¹

Bu yirik rus korchaloni korxonalarining Markaziy boshqarmasi Parij shahrida

bo'lgan ekan. Yuqoridagi xujjatda qayd etilishicha, amir Sayyid Olimxon tomonidan Rossiyaga kiritilgan sarmoyalardan tushgan foydaning ma'lum bir katta qismi Parijdagi bankka ham oqib o'tib turgan. Shuni ham aytib o'tish kerakki, Rossiya banklari amirning sarmoyasini muomalaga kiritib katta foyda olganlar.

Katta tadbirkor A.A. Neratov Volga-Bogulma temir yo'li qurilishi boshqarmasi raisi bo'lgan. U biznesmen sifatida Buxoroda bir necha marta bo'lib, amir bilan yaqindan aloqa bog'lagan. Bevosita uning vositachiligida amir Rus-Osiyo savdo banki orqali Rossiyaning Katta Rus qog'oz ishlab chiqarish fabrikasiga 33 mln., Rus-Buxoro banki tashkil topishiga 2.5 mln., Rus-Buxoro hissadorlik jamiyatiga ham 2.5 mln., Buxoro temir yo'li qurilishiga esa 3.5 mln oltin hisobida sarmoya o'tkazgani xujjatlarda qayd etilgan.

Ikkinchi katta korchalon Staxeev amir Sayyid Olimxondan 8 foiz hisobida kredit olgan 25 mln. oltin pulni Neva, Sheva, Shibanov va Staro-Gorkin manufakturalariga sarflab, ularni oyoqqa turg'azadi. Bular esa, o'z o'rnida yaxshi faoliyat ko'rsatib Rossiyaga milliardlab foyda keltirgani, shu bilan birga uning iqtisodiyoti taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan ham aniq ko'rinib turibdi. Boshqacha qilib aytganda, amirlik xazinasi Rossiyada kapitalizm rivojiga sezilarli darajada madad bergan. Bu esa hozirgi kundagi O'zbekiston-Rossiya iqtisodiy hamkorligining tarixiy ildizlaridan biridir.

F. Xo'jayevning guvohlik berishicha, "Amir million-million so'mlik mablag'larni savdo sohasida, temir yo'l kompaniyalarida, rus va chet el firmalarining sanoat korxonalarida ishga solgan"². Shuningdek, u keltirgan Rossiya podsho hukumatining Buxorodagi vakolatli amaldori P. Vvedenskiy tomonidan 1920-yil 26-fevralda amir hukumatining talabi bilan yozilgan amir va rus hukumati iqtisodiy aloqalariga oid to'la bo'lmagan hisobatda ham e'tiborga molik ma'lumotlar uchraydi.

Ushbu hisobotda ko'rsatilishicha, amirga Buxoro banki va Buxoro temir yo'liga qo'yilgan sarmoyalardan belgilangan shartlar asosida foyda to'lanishi shart bo'lgan. Shuningdek, Ip yigiruv korxonasi qo'yilgan sarmoyadan amirga 7 foiz kafolatlangan foyda berilgan. Yana shu hisobotda ko'rsatilishicha, yuqoridagidan tashqari 1910-1917- yillarda Buxoro hukumatidan Rossiyaning Buxorodagi rezidentiga ham mablag'lar kelib turgan.

Buxoro amirligi eng boy mamlakat bo'lib, Rossiyaga salkam yarim asrlik vassalligi davrida behad ko'p miqdorda mablag' sarfladi. Bu haqda Fayzulla Xo'jayev shunday deb yozgan: "Juda katta miqdordagi million-million so'mlar amir tomonidan rus sanoati korxonalari, temir yo'llari kompaniyalari va savdosiga hamda chet el firmalariga sarflangan³.

Amir Sayyid Olimxonning Rossiyaga muruvvati Germaniya urush e'lon qilgan kuniyoq boshlangan edi. Bunga misol. "Туркестанские ведомости" gazetasining 1914-yil 2-avgust sonida "Благой почин" (Muruvvatli tashabbus) degan sarlavha ostida quyidagicha xabar bosiladi: "Buxoro amiri Hazrati oliylari sahiylik bilan "Qizil xoch"ga yuz ming oltin hisobida pul o'tkazib katta tshabbus ko'rsatdi. Bu tashabbus o'zidan so'ng bir necha katta miqdordagi ionalarga yo'l ochib berdi⁴.

Nikolay II amir Sayyid Olimxonning bu himmatlarini yuqori baholab, unga 1915- yil 30-dekabrda general-leytenant harbiy unvoning beradi. Amir haqiqatdan ham Rossiyaning urushda g'alaba qozonishiga katta yordam berdi. U 1914,1915, va 1916- yillarda Rossiyaga har yili bir milliondan jami 3 mln. oltin hisobida sarmoya beradi. Bulardan tashqari amir Nikolay II talabiga ko'ra, 1914-yilning o'zida Rossiyaga 10 dona to'p, 500 ta beshotar miltiq, 1500 ta chopqir ot va boshqa urush uchun kerakli narsalarni in'om etgani ham ma'lum⁵.

Bizga ma'lumki, Buxoro amirligi qadim-qadimdan tashqi mamlakatlar bilan tilla, kumush, qorako'l teri, zargarlik va gilamlar savdosini foyda asosida to'g'ri yo'lga qo'ygan mamlakat bo'lgan. Amir Syyid Olimxonning padari buzrukvor amir Abdulahadxon katta savdogar bo'lib, hatto uning o'zi ham xorijga karvonboshi sifatida savdo bilan chiqqani tarixda ma'lum. Bu ota kasb faqat amir Olimxon uchungina emas, balki barcha amirlar uchun ham begona bo'lmagan. Amir Olomxon otadan farqli o'laroq, karvonboshi bo'lib xorij savdosiga chiqmasa-da, o'zining bir necha karvonboshlariga ega edi. Ular amirniki yoki aniqrog'i, amirlikniki bilan birga o'zlarining ham mollarini xorijga olib chiqqanlar.

Mana shuning uchun ham amir Sayyid Olimxonning asosiy boylik orttirish va xazinani to'ldirish sohasidagi faoliyati faqat xalqqa soliq solish va zulm qilish emas,

balki tashqi va ichki savdoni hamda xalqaro iqtisodiy aloqa va tadbirkorlikni rivojlantirish bo'lganiga tarixning o'zi guvoh.

XULOSA

Umuman olganda, qadimdan savdogar boylar ko'p bo'lgani ham aniq. Buxoro jadidlarining paydo bo'lishi ham bevosita mana shu savdogarlar bilan bog'liq bo'lgan edi. Shuning uchun ham ularni sovet tarixchilari kommunistik mafkura nuqtai nazaridan "savdo burjuaziyasi ideologlari" deb ko'rsatganlari bejiz bo'lmagan. GPUning «Товар» va «Правители» deb nomlangan xujjatlar to'plami va boshqa yozma manbalarning ko'rsatishicha, amir Sayyid Olimxon savdo va boshqa iqtisodiy aloqa yo'llari bilan chet el mamlakatlari banklariga foyda olish uchun juda katta miqdorda sarmoya qo'ygan hamda savdo va ishlab chiqarish uchun xorijga oltin hisobida sarmoyalar kiritgan. Masalan, Fransiya, Angliya, Hindiston, Pokiston va Rossiya banklariga o'tkazilgan boyliklar shular jumlasidandir. Amirning bu tadbirlarini tasdiqlagan holda, uning o'g'li Sayyid Mansur shunday dedi: "amir Olimxon o'ziga qolgan barcha mulklarni, million- million dollarlarni xorij banklariga qo'ydi⁶ .

REFERENCES

1. Abdulg'anievich, S. (2020). BILMEDIĞİMİZ HOKAND HANI: Şahruh Han İbn Muhammed Ali Han'in Hükümranlığı Sorusu Üzerine. *Itobiad: Journal of the Human & Social Science Researches*, 9.
2. Zaripov, J. G., & Akhmadjon, A. A. (2020). THE ROLE OF AFGHANISTAN IN DIPLOMACY OF BUKHARA EMIRATE (XVIII-XIX CENTURIES). *Scientific reports of Bukhara State University*, 3(2), 226-230.
3. Louw, M. (2017). Moral Exemplars and Ordinary Ethics. *Constructing the Uzbek State*, 195.
4. USMONOV, Q., & Sodiqov, M. (2008). O 'ZBEKISTON TARIXI.

“ATOYI SHE’RINING LUTFI...”

Tog’ayeva Shaxnoza

Samarqand davlat universiteti magistranti (O’zbekiston)

Tel: +998973922606

*Jon yetibdur og’zima, derman labingga topshiray,
Lutfetib qilg’il meni jon birla tengsiz ne’mati!*
Alisher Navoiy.

ANNOTATSIYA

O’zbek mumtoz she’riyatida orif, sohibi irfon kabi obrazlar borki, bu obrazlarni shoirlar ilohiy ishqini tasvirlashda foydalanishgan. Tasavvuf lug’atlarida, xususan “G’iyos ul-lug’ot”da “orif” – irfon sohibi, anglagan va tanigan degan ma’nolarda keladi. So’fiylarning nuqtai nazarida irfon Alloh tuhfasini bo’lgani uchun ilmdan ustun erur. Orif–Allohnin shuhud, asmo va sifatlarini idrok etgan, mavhum borlig’idan kechib, Haq borlig’i ila bor bo’lgan kishidir.

Orif – aslida ilohiy ilmlar sohibi demak⁶⁹ dir. Ham diniy ham dunyoviy ilmlarning egasi bo’lgan orif Ollohnin jamolini orzusida yashaydi, uni sifatlarini anglash, tanish bilan umr o’tkazadi. Haqqa yetishish ilmini o’rganib, bu ilmni boshqalarga ham ulashaolgan insondir. Mumtoz she’riyat shoirlari orifona g’azallar yozib, o’z oshiqliklarining kulliyotini tasvirlashga urinishgan, ilohiy dunyosini she’rlarida aks ettirishgan. Haqning sifatlaridan xabardor bo’lgan, uni yagona yor atab, vasliga yetishish uchun go’zal riyozotlar chekkan oshiq holini tasvirlashgan.

Mumtoz she’riyatda go’zal g’azallar yaratolgan shoir Atoiy ham orifona g’azallari bilan o’z ijodini boyitgan. Uning ijodi o’rganilganda shoir she’rlarida Qur’on va hadislar mazmunini singdiradi. Muqaddas manbalardan iqtiboslar keltiradi. Tasavvufdagi may, qadah, mayxona, zulfu xol, qosh, ko’z, bel, zunnor, sanam kabi istilohlar vositasida murakkab ma’no-mazmunlarni ifodalaydi. Ushbu maqolamizda ham movlono Atoyining go’zal g’azallarining orifona g’oyalarini tadqiq qilamiz.

Kalit so’zlar: *orif, tasavvuf, N. Komilov, orifona g’azal, Atoiy, Navoiy, zohid, Yor, Horud, sarv.*

ABSTRACT

In Uzbek classical poetry, there are images such as Arif and Sahib Irfan, which were used by poets to describe divine love. In the dictionaries of mysticism, especially

⁶⁹ Н.Комилов. Тасаввуф. Тошкент. “Мовороннахр”-“O’zbekiston”. 278-6.

in Giyas ul-lughat, "arif" means the possessor of gnosis, the one who understands and recognizes. From the point of view of the Sufis, knowledge is superior to knowledge because it is a gift from Allah. Arif is the one who perceives the witness, the sky and the attributes of Allah, who transcends the abstract and exists with the Existence of the Truth.

Arif is, in fact, the possessor of divine knowledge. The master of both religious and secular sciences, Arif lives in the dream of the beauty of Allah, understands his qualities and lives with acquaintance. He is the one who has learned the science of attaining the truth and has been able to pass it on to others. Classical poets wrote orifona ghazals, trying to describe the whole of their love, reflecting the divine world in their poems. He described the state of a lover who was aware of the qualities of the truth, who called him his only companion and who underwent beautiful rites in order to attain his guardianship.

The poet Atoi, who created beautiful poems in classical poetry, also enriched his work with "arif" poems. When his work is studied, the poet absorbs the content of the Qur'an and hadiths in his poems. Quotes from sacred sources. It expresses complex meanings in Sufi terms such as may, goblet, tavern, zulfu hol, eyebrow, eye, waist, zunnor, idol. In this article, we will explore the ideas of the beautiful poems of Mevlana Atoi.

Keywords: *Arif, Sufism, N. Kamilov, Orifona Ghazal, Atoyi, Navoi, Zahid, Yor, Horud, Sarv.*

АННОТАЦИЯ

В узбекской поэзии присутствуют такие образы как «ори́ф», «сохиби ирфон», которые использовались поэтами для отображения высшей, духовной принадлежности любви. В словарях учения «Тасаввуф», в частности в словаре «Гиёс ул-лугат», «ори́ф» - происходит от слов понявший, достигнувший. С точки зрения суфиев любовь, будучи даром Аллаха, стоит выше знаний. Ори́ф – человек постигнувший нирвану на пути познания Аллаха и достигнувший высших знаний.

Ори́ф – человек постигнувший высшие духовные знания. Ори́ф постигший и как духовные, так и светские знания будет наделен местом в райских куцах рядом с Аллахом, посвящает свою земную жизнь постижению Аллаха, а соответственно способен поделится с окружающими своими знаниями. Поэты классики старались посвятить своих поклонников в свои лирические чувства влюбленных посредством написания газелей в стиле “орифона”, описывая в своих стихах райские

кущи. Здесь в образе возлюбленной вставал Всевышний, а поклоняющийся Всевышнему представлял в образе влюбленного.

Также и один из классиков восточной поэзии Атоий обогатил свое творчество элементами стиля “ориф”. При изучении его творчества наблюдается обилие содержания Куръана и хадисов. Приводятся цитаты из священных источников. Посредством образов вина, кубка, места распития вина, волос и родинок, бровей, глаз, талии, терминов “стан” и “красавица”, отображаются чрезвычайно сложные понятия. Мы также, в рамках настоящей статьи постараемся исследовать газели Мавлоно Атоий в стиле “орифона”.

Ключевые слова: Ариф, суфизм, Н. Камиров, Орифона Газаль, Атои, Навои, Захид, Йор, Хоруд, Сарв.

KIRISH

She’riyatni men sokin bog’ga o’xshataman. U yerga kirgan kishi hayollariga, hislariga erk beradi, hayoloti va ko’ngli taskin topadi. Bu dunyoga nega kelgani, nimalar qilayotgani, aslida nima qilishi kerakligini tinchgina o’ylayoladigan haqiqiy makon. U yerda faqat ko’ngil gapiradi, yurak so’zlaydi...

O’zbek mumtoz she’riyatida turli mavzular qalamga olingan. Ayniqsa g’azal janrining mavzu ko’lami keng. Ishqiy mavzuda yozilgan g’azallar aksarini tashkil qiladi. Ammo ilohiy ishqni kuylab yozilgan g’azallar borki, bunday g’azal yozish shoirdan diniy bilimni talab qiladi. Tasavvufda Haqni sifatlarini tanish, unga tomon to’g’ri yo’ldan yurish, amali, tashqi ko’rinishi va qalbi bilan boshqalarga o’rnak bo’lish oriflikni anglatgan. Orifning ko’ngli ilohiy nur – ilmu hikmat xazinasi, deganlar. Bu ilm parvardigor sifatlarini tanish, anglash bilan to’lishib boradi⁷⁰. Shundan kelib chiqib, she’riyatda tasavvufiy g’oyalarni aks ettirgan g’azallar – orifona g’azallar sanaladi. Bunday g’azallarni yozgan shoirlarning o’zi orif, sufiy, din ilmining bilimdoni bo’lgan. Shunday shoirlardan biri bo’lgan Atoiy go’zal she’rlari bilan o’zbek she’riyati tarixida chuqur iz qoldirgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Atoiy XV asrning o’rtalarida yashab, o’z davrida shuhrat topgan shoirdir. Hatto g’azal mulkining sultoni bo’lgan Alisher Navoiy ham o’zining “Majolis un-nafois” tazkirasida Atoiy e’tirof etib ketgan. Ma’lumotlarga ko’ra, Ayoiy Balx shaxrida yashagan Ismoil ota farzandlaridan bo’lib, xushtabiat, soda, darveshva va xushxulq kishi bo’lgan. Turkiyda ijod qilgan, o’z davrida she’rlari turklar orasida shuhrat

⁷⁰ Н.Комиров. Тасаввуф. Тошкент. “Моворounnahr”-“O’zbekiston”. 278-б.

qozongan. Shoir o'z devonida o'zini "shayxzoda Atoyi" deb qayd qilgan, demak u shayxlar- otalar avlodidan bo'lgan. Shuning uchun ham o'ziga Atoyi taxallusini olgan, asli ismi ma'lum emas. Atoyining bizgacha 260 g'azali jamlangan bir devoni yetib kelgan. Devondagi g'azallarning mazmuni juda tushunarli, o'noqi ohangda bitilgan. Agar she'rning mazasi bo'lganda edi Atoyining she'rlarini shirin deb atash to'g'ri bo'lar edi. Chunki bu she'rlardan "tatib" ko'rgan kishi rohatlanadi. She'rlarining ohangdorligi ham o'zgacha, kuyga oson tushadi. Notanish, g'aliz so'zlardan holi, samimiy yozilgan. Shundanmikin o'zi ham she'rlaridan faxriya tuygan:

Atoyi she'rining lutfini bilsa,

"Latofatnoma"dan kechgay Xo'jandiy.

G'azallarning mavzu ko'lamini keng, ularni quyidagicha tasniflash mumkin: Oshiqona g'azallar. Diniy-tasavvufiy g'azallar. Peyzaj xarakteridagi g'azallar. Ishqiy mavzudagi she'rlari ko'proqni tashkil qiladi. Sharq lirikasida ishq-muhabbatni kuylash asosiy mavzulardan bo'lib kelgan. Atoyi g'azallarining ham bosh g'oyasi va asosiy ohanglarini ishq va u bilan bog'liq kechinmalar tashkil etadi. Shoir ta'biricha, ishq «gavhari qimmatbaho», «azaliy hidoyat»dir. Atoyi g'azallarida faqat dunyoviy ishq va u bilan bog'liq kechinmalargina kuylangan emas. Haqiqiy ishq kuylangan g'azallar ham bor. Shoir haqiqiy ishqni kuylaganda go'zallik, hayot, koinot, inson haqida fikr yuritib, ularni ta'riflaydi va ulug'laydi. Shoir hayot, umrning o'tkinchi, g'animatligini ta'kidlaydi. Shoir she'rlariga diniy-tasavvufiy g'oyalarini singdirib, ilohiy ishqni ham kuylagan. Tasavvufdagi may, qadah, mayxona, zufu xol, qosh, ko'z, bel, zunnor, sanam kabi obrazlar orqali haqiqiy sevgisini kuylagan. Insonning azaliy hidoyati ishq yo'li, oshiqlik ekan, o'zini Olloh ishqida oshiq sanab, so'fi, orif, shayx deb atagan:

So'fi Atoyi holatini o'tkanur, vale,

Ishq ishidur kishiga azaldin hidoyati.

Bundan tashqari u Ollohninng sifatlarini zo'r mahorat bilan qalamga oladi:

Kotibi qudrat, xating tahrir etarda gul uza,

Nuqtayi xoling magar nogah qalamdin sachradi.

Baytda tabiatning zo'r rassomi bo'lgan parvardigor yorni yaratayotganda yuzining suratini chizayotib xolini gul uzra qora nuqtadek qilib tasvirlagan degan ma'no yotadi. Bu ajoyib o'xshatish orqali tabiatning buyuk yaratuvchisi bo'lgan Ollohninng sifatlaridan birini qalamga olib, undan hayratini yashirmaydi.

Shoir she'rlarida bunday baytlar ko'p uchraydi:

Jamoling ravzaning bog'i jinoni,

Labing obi hayot jovidoni.

Yuzing mohiyatin Tengri bilur bas

Ne haddi aql erur sharxu bayoni.

Boshdan oyoq ishq haqiqiyini kuylagan g'azallar ham uchraydi. Masalan, "Ikki la'lina qachonkim..." deb boshlanuvchi g'azalini tahlil qilsak, birinchi baytida shoir Yorning sifotlarini sanab, uning lablarini va ular orasidagi tishlarini ko'rinishini jannatdagi tiriklik chashmasinig o'likka jon bag'ishlashiga qiyoslaydi:

Ikki la'lina qachonkim, durj etar yoqutini,

Chashmayi hayvon ichinda ko'rguzur jon qutini.

Ikkinchi baytida mubolag'a san'atini mohirona qo'llagan. Bunda Yorning lablaridan chiqayotgan so'zlarning ozginasining mazasidan hatto jannatdagi hurlar ham Kavsar bulog'in suvini tatib ham o'tirmaydi deyiladi. Ajoyib qiyoslash!:

Hurlar Kavsar⁷¹ sharobin ichmagaylar ravzada,

Lablaring jomi mayining topsalar sarqutini.

Keyingi misralarda Yor ko'zining sifoti keltiriladi. Ko'zlar go'zalligining sehridan Bobil zindonidek bo'lib, oshiqni g'amga botgan ko'ngli huddi Xorutdek bandi bo'lgan. Bu yerda Qur'ondan misol keltirilgan. Yozilishicha, sehrgarlik qilib gunohga botgan ikki farishta Horut va Morut Bobildagi zindonga bandi qilingan ekan. Atoyi shu voqeaga ishora qilib ma'shuqa ko'zlarini sehrlab qo'yadigan darajada chiroyli demoqchi bo'ladi:

Chohi Bobiltek qilib g'am go'shasin sohir ko'zung,

Sheva birla muftalo qildi ko'ngul Xorutini⁷².

Atoyining Qur'onni mukammal bilgani ko'rinib turibdi. Bundan boshqa g'azallarida ham bir necha ishoralar berilgan. Orifona g'azal yozishning asosiy shartlaridan bo'lgan diniy bilimlarni bilish shoir uchun begona bo'lmagan, har xolda.

Xizarning suyin yashurdi shakkar og'zing sharbati,

Sabzayi la'li labing ham sabzi xat yoqutini.

Bu baytda ham yuqoridagidek Qur'onga ishora bor. Mubolag'a san'atidan ham mohirona foydalangan. Xizr alahissalomning o'likni tiriltiradigan suvi bo'lib, ma'shuqaning og'zining mazasi, yoqutdek labing hamda lab miyiqing shu suvdan ham kuchli qudratga ega. O'likka ham jon beradi.

⁷¹ Kavsar- jannatdagi buloqning nomi.

⁷² **Horut va Morut** – qilgan gunohlari uchun Bobildagi zindonga tashlangan ikki farishta ismi. Ular Qur'onda sehr bilimdonlari va uni o'rgatuvchilar, lekin uni qo'llash oqibatlaridan ularni ogoh etuvchilar sifatida qayd etilgan. (Qur'on, 2:102/96).

XULOSA

O'lgali yetti Atoyi, ul qadu qomat uchun,
Qilg'asiz sarvu sanubardin aning tobutini.

So'nggi baytda Oллоh visoli uchun o'limiga ham tayyorligini faxr bilan tilga olib, hatto tobutini eng tik o'suvchi daraxt bo'lgan sarvu sanobar daraxtidan yasashlarini do'stu yorlaridan so'raydi. Bu baytda Sarv daraxtining tik, chiroyli o'sishi bilan Yorning qaddi qomatini qiyoslash kuzatiladi. Demak yorning qomati tik va ravonligi bilan hech narsa tenglasholmaydi.

Xulosa o'rnida. Ushbu kichik tadqiqotimizda XV asrning so'z san'atkori bo'lgan Atoyining she'rlaridagi ishqi ilohiyini badiiy tadqiq qilishga urundik.

REFERENCES

1. Alisher Navoiy . Mukammal asarlar to'plami. 16-jild. –Toshkent, 2000. 35-36-betlar.
2. Berdak Yusuf. Mumtoz adabiy asarlar lug'ati. Toshkent, 2010
3. Н.Комилов. Тасаввуф. Тошкент. “Movorounnahr”-“O'zbekiston”. 278-б.
4. АлишерНавоий. Бадойиъул-бидоя. www.ziyouz.com/kytubxonasi
5. Otoy. Tanlangan asarlar. T., 1960.
<https://www.natlib.uz/search/tot/result?si=TOTAL&st=KWRD&lmtst=&lmtsn=&lmt0=&q=%D0%9E%D1%82%D0%BE%D0%B9%D0%B8>
6. https://navoiakm.natlib.uz/search/media/img/CAT000002046408?metsno=000000179200&fileid=M000000179200_FILE000001
7. Hayot vasfi. T.,1988.
8. Navoiyning nigohi tushgan. T., 1986.
9. Hayitmetov. Navoiy lirikasi. T., 1961.
10. S. Rafiddinov. Majoz va haqiqat. T., 1995.

KOREYS FRAZELOGIYASIDA “QUVONCH” KONSEPTINING SEMANTIKASI

(Koreys tili frazeologik lug‘atlari asosida tahlil)

Panjiyeva Shahodat Olimjonovna

Tel: 998994834092

Email:shaho200656@gmail.com

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

ANNOTATSIYA

Inson hayotida ko‘pdan ko‘p qo‘llaniladigan xursandchilik ifodasidagi iboralar orqali quvonchning borliqdagi nazariyalari bir-biriga yaqin turadi. Quvonch ifodasining tildagi o‘ziga xos xususiyati nimadaliqi va koreys xalqi quvonchni qanday anglab yetishini nazariy metaforalar orqali ko‘rib chiqamiz.

Kalit so‘zlar: *Frazeologizmlar, konsept, quvonch, lug‘at.*

АННОТАЦИЯ

Теории радости тесно связаны друг с другом в выражении радости, которое часто используется в жизни человека. Мы рассмотрим особенности выражения радости на языке и то, как корейцы воспринимают радость с помощью теоретических метафор.

Ключевые слова: *фраzeология, концепт, радость, лексика.*

ABSTRACT

Theories of joy are closely related to each other in the expression of joy, which is often used in human life. We will look at the specifics of the expression of joy in the language and how the Korean people perceive joy through theoretical metaphors.

Keywords: *Phraseology, concept, joy, vocabulary.*

KIRISH

Ikki yoki undan ortiq so‘zdan tarkib topgan va yaxlit bir ko‘chma ma’no ifodalaydigan, ta’sirchanlikka ega bo‘lgan til birligi ibora (frazeologik birlik) deyiladi. Frazeologizmlar o‘z ma’no xususiyatlari bilan so‘zlovchining boshqa odamlarga va muloqot predmetiga nisbatan emotsional ekspressiv qirralarga ega bo‘lgan subyektiv munosabatini ifodalaydi. Frazeologizmlar tarkibidagi so‘zlarning leksik-grammatik imkoniyatlari, ularning to‘g‘ri ma’nolari asosida birikishidan hosil bo‘lmaydi. Bundan tashqari ular tarkibidagi so‘zlarning semantik hamda grammatik munosabatida erkinlik ko‘rinmaydi. Chunki bu xil birikma, so‘zlarning erkin birikmasi bo‘lganidek, nutq momentining o‘zida tashkil topmay, balki ungacha tilda

bir butun holda qo‘llanib, yashab kelgan bo‘ladi. Uni bir butun holga olib kelgan hodisa tarkibidagi so‘zlarning bir ma’no markaziga kelib birlashishi, bu so‘zlarning birikib turib bir ma’noni ifodalashidir.

사전 종류	기쁨에 하위어 및 의미
두산동아 표준국어대사전 (1999)	<ul style="list-style-type: none"> -기쁘다: 마음에 즐거운 느낌이 나다. -감동: 크게 느끼어 마음이 움직임. -즐겁다: 마음에 거슬림이 없이 흐뭇하고 기쁘다. -만족하다: 마음에 흡족하다. -상쾌하다: 느낌이 시원하고 산뜻하다. -편안하다: 편하고 걱정이 없이 좋다. -자신감: 어떤 일을 해낼 수 있다거나 어떤 일이 꼭 그렇게 되리라는 데 대하여 스스로 굳게 믿음. -희망: 앞일이 대하여 어떤 기대를 가자고 바람. 앞으로 잘 될 수 있는 가능성.
한글학회 우리말큰사전 (1994)	<ul style="list-style-type: none"> -기쁘다: 좋은 기색이 드러나도록 마음에 즐거운 느낌이 나다. -감동: 느끼어 마음이 움직임. -즐겁다: 사뭇 기쁘거나 흐뭇하다. -만족하다: 마음에 모자람이 없이 흐뭇하다. -상쾌하다: 기분이 시원하고 산뜻하다. -편안하다: 몸과 마음이 거북하지 않고 걱정 없이 좋다. -자신감: 어떤일이 대하여 뜻한 대로 이루어 낼 수 있다고 스스로의 능력을 믿는 굳센 믿음. -희망: 앞일에 대한 바람, 가능성이나 가망.
동아대백과사전 (1992)	<p>일반적으로 욕구가 충족되었을 때 느끼는 감정.S 프러이드 (1856-1939) 기쁨을 선척적인 감정의 하나로 육체적인 쾌감이라 설명한다. 피부감각.포옹. 성감대에 자극 등에 의해 감각적 쾌락이 경험된다.</p>

Ushbu jadvalda koreys tilidagi “Quvonch” ma’nosini ifodalovchi konseptual lug‘atlar misollar bilan keltirilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Barchamizga ma'lumki tilda insonlar hayotida foydalaniladigan so'zlar ifodalanadi. Odatda insonlarda eski narsadan yangi narsa yasash qobiliyati bor. Insoniyatning shunday g'ayritabiiy holatini imkoni boricha sodda yoki keng tushuntirib berish maqsadida metaforadan ham foydalaniladi. Quvonch his-tuyg'ularni ifodalaydigan frazeologizmlar quyidagi 3 metafora asosida vujudga keladi:

I. Quvonch bu – hayotiy kuch, to'la-to'kis hayot kuchidir,

- a) Quvonch bu – titroq;
- b) Quvonch bu – iliqlik;
- c) Quvonch bu – umrni uzaytirish.

II. Quvonch bu – muloyimlashgan hayotiy kuchdir.

- a) Quvonch bu – xotirjamlik;
- b) Quvonch bu – yoqimlilik.

III. Quvonch bu – ko'tarilgan hayotiy kuchdir.

- a) Quvonch bu – mamnuniylik;
- b) Quvonch bu – yengillik.

IV. Quvonch bu – bayram.

- a) Quvonch bu – tabassum;
- b) Quvonch bu – raqs va qo'shiq;
- c) Quvonch bu – to'la-to'kislik.

V. Quvonch bu – umid.

- a) Quvonch bu – kengayish;
- b) Quvonch bu – yorug'lik;
- c) Quvonch bu – shijoat.

“Quvonch” degan yoqimli tuyg'uni yuqorida keltirilgan iboraviy metaforalar ma'nolar orqali aniq tushunib yetish mumkin. Shuningdek, koreys xalqining quvonch tuyg'usini qanday holatlarda his qilishini anglab yetish mumkin.

I. Quvonch bu – to'la-to'kis hayot kuchidir.

Quvonchning xususiyati shundaki, u hayotga kuch bag'ishlaydigan ilohiy kuchdir. Bu “Ta'sirlanish” degan tuyg'u bilan bog'liqdir. Inson ta'sirlansa, borliq kuchi to'qnash kelib hayajon va titroqni his qiladi. Sevgi yoki ta'sirlanish kabi tuyg'ular yurakdan his qilinadigan tuyg'ular bo'lib, shaxsning borliqdagi hayotini o'zgartirib yuborishi mumkin. Quvonchning bir qismi bo'lmish “ta'sirlanish” qalbni harakatga keltiradigan kuch bo'lib va bu tilda “titroq, iliqlik, shukronalik” kabi

soʻzlarda ifodalanadi. Quyida quvonch tuygʻularini ifodalaydigan iboralarga misolar keltirilgan:

I. Quvonchbu – titroq.

1. 가슴이 떨리다: [yuragi qaltiramoq] – yuragi xapqirib ketmoq; ichidan taʼsirlanib ketmoq.

Misol: 한강물 뒤집 혀용 솟음칠 그날이 다가온 감격에 가슴이 떨린다 - Xangan suvining orqa tarafidan koʻtarilib kelgan oʻsha kundan taʼsirlanib, yuragim xapqirib ketdi.

Birinchi misoldagi “가슴이 떨리다” iborasida hayotiy kuchning harakati orqali hayotga nisbatan ishtiyoq uygʻonish maʼnosi yotadi.

2. 심금/ 가슴을 울리다: [yurakni taʼsirlantirmoq] – qalbni taʼsirlantirmoq/ tashqaridan qandaydir taʼsir olib koʻnglida tuygʻu paydo boʻlishi.

Misol: 그 부인이 임종할때에 한만고에 심금을 울리는 유언으로 만인의 입에 곧잘 오르고 있다 ¹-Ayolni hurmat qiladigan bir gap qadimdan qalbni taʼsirlantiradigan vasiyatli soʻz sifatida ogʻizdan ogʻizga yetib kelmoqda.

Ikkinchi “가슴을 울리다” iborasida tuygʻu tashqaridagi taʼsir orqali nozik harakatga keltiradigan qalbni ‘*거문고의 떨림*’ yaʼni, “Komungoning titrashi”ga qiyoslagan holatda hisni qallda uygʻotish maʼnosida qoʻllanilgan.

3. 코끝이 찡하다/ 콧날이 찡하다: [burunning uchi jizzilamoq] – taʼsirlanib ketmoq.

Misol: 쏟아지는 공폭탄속에서도 의연한 모성에 우리는 코끝이 찡해 왔어 ²- Otilayotgan bombalar orasidan ham kuchli onaning mehridan bizning yuragimiz taʼsirlanib ketdi.

Uchinchi “가슴이 찡하다/ 코끝이 찡하다” iborada “qalbi toʻlib ketganidan bir marta titramoq” kabi maʼnoda tuygʻuni ifoda qiladi. Yaʼni, yuqorida keltirib oʻtilgan frazeologizmlarni jismoniy tajribalardan vujudga kelgan birikma deb ham atasak boʻladi.

4. 가슴에 와닿다/ 가슴에 파고 들다: [yuragiga tegib ketmoq] / [yuragini qazib olmoq] – qalbni teshib yuboradigan darajada; qalbgaga tegib ketadigan darajada taassurot uygʻotmoq, taʼsirlanmoq.

Misol: 나는 아들이 보냈던 편지를 읽고 가슴에 파고 들었다 ³-Menoʻgʻlim yuborgan xatni oʻqib taʼsirlanib ketdim.

¹ 조선일보. «이규태». 1992. 8. 쪽.

² 현대시. 박덕규. «이웃 황태자부처가우리마을에». 1992. 23. 쪽.

To'rtinchi “가슴에 와닿다 / 가슴에 파고 들다” iborasida biror bir narsadan judayam qattiq ta'sirlanganda ishlatilib, ushbu frazeologik iboradan koreys tilida unumli foydalaniladi.

5.눈시울이 시큰해지다 / 콧날이 시큰해지다:[ko'z qiri jimirlamoq]/[burni uchi jimirlamoq] – ko'z yosh chiqib ketadigan darajada ta'sirlanmoq.

Misol:마리아가 이웃이 모르게 도와 주고 있는 소식을 들은 내가 너무 감동 받아서 눈시울이 시큰해졌다 –Mariya qo'shnisiga bildirmasdan unga yordam berayotganini eshitib juda ham ta'sirlandim.

Beshinchi“눈시울이 시큰해지다/콧날이 시큰해지다”iborada nimadandir juda ham qattiq quvonish natijasida qattiq ta'sirlanish vujudga kelgan holat aks ettirilgan.

2. Quvonchbu – iliqlik.

Jonli mavjudotlarning barchasi iliq va tinch joyda yaxshi unib o'sadi. Bu quvonchning “iliqlik va yengillik”dagi ichki ma'nosi bilan bog'liq tushunchadir.

6.가슴이훈훈해지다: [ko'ngli yorishmoq] – qalbi yumshab, erib ketadigan darajada iliq taassurot olmoq.

Misol:이책을 덮으면 가슴이 훈훈해지고 잊고 지낸가난 조차 그리워진다 - Bu kitobni yopsam qalxim yumshab unut bo'lgan o'sha kambag'allikdagi hayotimni sog'inaman.

Oltinchi “가슴이 훈훈해지다” iborasi qalbni yumshatib, eritib yuboradigan darajada iliqlikni his qilganda yuzaga kelgan birikmadir.

7.가슴이 뜨거워지다: [yuragi qizib ketmoq] – hayajonlanmoq; juda ham kuchli hayajonlanmoq va katta ta'sir olmoq.

Misol:검푸른 하늘을 향해 가지를 툭툭 뻗고 있는 고목을 보면 내 가슴은 이상하게 뜨거워오니-Ko'm-ko'k osmonga qarab bo'yin cho'zib turgan quruq daraxt shoxlariga tikilib tursam agar/ Negadir yuragimga o'zgacha hayajon tushar.

Yettinchi “가슴이 뜨거워지다” iborasi qattiq sevilib va g'amxo'rlikni ko'rganda minnatdorchilik sifatida qalbida uyg'ongan tuyg'uni ifodalashdagi birikmadir. Bu yerda “yurak”xursandchilikni anglab yetadigan, asosiy ichki tuyg'uni his qildiradigan vazifani o'tayapti.

8.눈시울이 맵다: [ko'z qiri/ qarashi achchiq] – kuchli ta'sirlanmoq.

³ 현대시.박덕규.«이웃황태자부처가우리마을에».1992.26.쪽.

Misol: 나는 “파리에서 태어난 사랑”이라는 영화를 보면 항상 눈시울이 매워져요. – *Men “Parijdagi muhabbat” nomlikinoniko ‘rganimdahar doim qattiq ta’ sirlanaman.*

Sakkizinchi “눈시울이 맵다” iborasida ta’ sirlanganidan ko’tarilib ketgan harorat achchiq ta’ muga qiyoslangan.

9. 눈시울이 뜨거워지다: [ko’z qiri/ qarashi qizib ketmoq] – ko’z yoshlari chiqib ketadigan darajada qattiq ta’ sirlanmoq.

Misol: 언젠가 텔레비전에서 코미디 영화 장면을 보게 되면 눈시울이 뜨거워질 만큼 보는 것을 좋아한다 – *Qachon bo’lishidn qat’iy nazar televizordagi komedik kinolarni ko’radigan bo’lsam ko’z yoshim chiqquniga qadar tomosha qilishni yaxshi ko’raman.*

Toqizinchi “눈시울이 뜨거워지다” birikmasida ta’ sirlanganidan ko’z yoshlari to’kilganda yuzining harorati ko’tarilib ketganday “눈시울이 뜨겁다” iborasi bilan ifodalanadi.

10. 눈시울이 붉히다: [ko’z qiri/qarashini qizartirib yubormoq] – qattiq ta’ sirlantirmoq.

Misol: 어머니가 항상 내가 상을 받을 때마다 우신다 – *Onam men har doim medal olganimda qattiq ta’ sirlanganlaridan yig’laydilar.*

O’ninchi “눈시울이 붉히다” iborasida esa xursand bo’lganidayoki qattiq ta’ sirlanganda o’zi bilmagan holda ko’zi issib ketib ko’z yoshi chiqib ketishi yoki burni jimirlab ketish holatlarida qo’llaniladi.

3. Quvonch bu – hayajon namligining oshishi.

Hamma jonli mavjudotda hayajon bo’lib, faol hayotiy kuchda hayajon ko’tarilishi bilan bog’liqdir.

11. 가슴을 적시다: [ko’nglini namlantirmoq] – hayajonlantirmoq.

Misol: 지나던 발길절로 멈추어 / 한줄기 눈물 가슴을 적신다 – *Bosib kelgan qadamimdan to’xtab qoldim. Yum – yum oqayotgan ko’z yoshlar hayajonlantirar yuragim.*

O’n birinchi ibora tarkibidagi “적시다” – namlantirmoq so’zi qaysidir jihatdan suv bilan aloqadorlik jihatlari bor. Ya’ni, yurak quvonchni o’z ichiga olganligi bilan qiyoslangan bo’lib, xursandchilik tuyg’ulari qolipga solib tasvirlangan.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan iboralarda umid asosiy ramziy so’z bo’lib qatnashib kelgan. Bunday umid orqali insoniyat kelajakda o’z quvonchiga ega bo’ladi. Shunday

qilib, koreys tilida xursandchilik tuygʻusini ifodalaydigan frazeologizmlar somatik soʻzlar bilan oʻzaro bogʻlangan holda qoʻllanilar ekan. Xursandchilik 15 ta, yaʼni, koʻz, quloq, bosh, ogʻiz, yelka, qorin, kindik, bel, orqa, oyoq, boldir, ich, yurak, oʻt pufagi, oshqozon, kabi tana aʼzolari bilan ifodalangan. Bu bilan insoniyat quvonchni boshidan to oyogʻining uchigacha butun tanasi bilan his qilishini bilish mumkin. Yuqoridagi frazeologizmlardagi xursandchilikning maʼnosi “hayotiy kuch, bayram, umid” kabi birikmalar bilan taʼriflanadi. “Quvonch bu – hayotiy kuchdir” deb nomlanishida hayajon, jimirlash, iliqlik kabi tuygʻular ham birgalikda qoʻllaniladi. Quvonchni ifodalaydigan asosiy tana aʼzolaridan biri qalb hisoblanganligi sababli quvonchni ham qalb orqali his qilish tabiiydir. Qalb orqali hamisha insoniyat oʻz tuygʻularini ifodalay oladi.

REFERENCES

1. Karimov I.A. “Tinchlik va xavfsizligimiz oʻz kuch qudratimizga, hamjihatligimizga va qatʼiy irodamizga bogʻliqdir”. -T., Oʻzbekiston, 2004.
2. Bozorboev K.T. Oʻzbek soʻzlashuv nutqi frazeologizmlari: filol. f.n. ilmiy darajasini olish uchun taqdim qilingan diss. – Samarqand: A.Navoiy nomidagi SamDU. 2001. E.Gʻoziyev. “Psixologiya” Toshkent. 2000.
3. Hamroyev M.A. Oʻzbek tilidan maʼruzalar majmuasi. -T, 2007.
4. Raxmatullaev SH. Frazeologik birliklarning asosiy maʼno turlari. T.: Oʻz FA nashriyoti, 1997.
5. Umarov E.A. Frazeologik lugʻat, Toshkent, 1991.
6. Usmonova Sh.R. Oʻzbek va turk tillarida somatik frazeologizmlar: filol. f.n. ilmiy darajasini olish uchun taqdim qilingan diss. – T.: M.Ulugʻbek nomidagi ToshDU.1998.
7. Hojiyev A. Tilshunoslikning izohli lugʻati. - T., 1998.
8. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006.
9. Юсупов Ў.Қ. Маъно, тушунча, концепт ва лингвокультуре атамалари хусусида // Стилистика тилшуносликнинг замонавий йўналишларида. Илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2011.

ERKIN VOHIDOVNING ADABIY- TANQIDIY QARASHLARIGA DOIR

Mirsanova Moxira

Samarqand davlat universiteti magistranti (O`zbekiston)

Tel: +998 99 525 68 63

ANNOTATSIYA

Ijodkorlarning adabiy- tanqidiy qarashlarini o`rganish natijasida barcha adabiy asarlarni, she`rlarni to`g`ri tahlil qilishni o`rganamiz, adabiyotni chuqurroq anglaymiz, har bir atamalarning ma`nosini yaxshiroq tushunamiz. Qaysi adabiyotda adabiy- tanqidchilik rivojlansa o`sha adabiyotda yuksalish bo`ladi. Chunki tanqid xatolarni to`g`rilash uchun muhim vosita, shu sabab barcha adabiyotshunoslarimiz fikrlarini, qarashlarini o`rganishimiz va xulosa chiqarishimiz lozim. Shu o`rinda O`zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov ijodiga to`xtalsak, ijodkor o`zining sermahsul she`riyati bilan barchamizga ma`lum , bu she`riyat XIX asrning oxiri , XX asrning boshlaridagi o`zbek she`riyatining yuksak darajadagi namunalaridan biridir. Ijodkor asarlari tarkibidan doston va drammatik asarlar ham o`rin olgan, va bu janrda yaratilgan ajoyib asarlar qatorida turadi. Bulardan tashqari adabiyotshunoslikka oid “ To`la asarlar to`plami”ning 5-jildi “ Qalb sadoqati” deb nomlanadi va unda maqolalar, adabiy o`ylar, suhbatlar to`plangan. Bu jild orqali ijodkorning adabiy- tanqidiy qarashlaridan yetarlicha bahramand bo`lishimiz mumkin.

Ushbu maqolada Erkin Vohidovning o`zbek adabiyoti, umuman adabiyotshunoslik masalalari, she`riyat, shoirlik, san`at haqidagi adabiy- tanqidiy qarashlari, ijod nima? She`r nima? Ilhom nima? Kabi savollarga bergan mulohazalari to`g`risida so`z boradi.

Kalit so`zlar: *Erkin Vohidov, adabiyot, adabiyotshunoslik, she`r, shoirlik, iste`dod, ilhom, ijod, san`at,*

ABSTRACT

As a result of studying the literary-critical views of the creators, we learn to correctly analyze all literary works, poems, understand literature deeper, and better understand the meaning of each term. In the literature in which literary criticism develops, there is an increase in literature. Since criticism is an important tool for correcting mistakes, we need to study the views and opinions of all our literary critics and draw conclusions. If we talk about the work of the national poet of Uzbekistan Erkin Vakhidov, then we all know him with his prolific poetry, which is one of the highest examples of Uzbek poetry of the late ninth - early twentieth centuries. His works include epic and dramatic works and are among the greatest works of this

genre. In addition, the 5th volume of the Complete Collection of Literary Works is called *Loyalty to the Heart* and contains articles, literary thoughts, interviews. In this volume, we can enjoy the literary-critical views of the author. What are Erkin Vakhidov's literary-critical views on Uzbek literature, literary criticism in general, poetry, poetry, art and creativity in this article? What is a poem? What is inspiration? The following article discusses the the comments on issues.

Key words . Erkin Vahidov, Literature, Literary Criticism, Poetry, Poetry, Talent, Inspiration, Creativity, Art

АННОТАЦИЯ

В результате изучения литературно-критических взглядов создателей мы учимся правильно анализировать все литературные произведения, стихи, глубже разбираться в литературе, лучше понимать значение каждого термина. В литературе, в которой развивается литературная критика, увеличивается литература. Поскольку критика - важный инструмент для исправления ошибок, нам необходимо изучить взгляды и мнения всех наших литературных критиков и сделать выводы. Если говорить о творчестве народного поэта Узбекистана Эркина Вахидова, то все мы знаем его с его плодотворной поэзией, которая является одним из высших образцов узбекской поэзии конца девятого - начала двадцатого веков. Его произведения включают в себя эпические и драматические произведения и входят в число величайших произведений этого жанра. Кроме того, 5-й том «Полного собрания литературных произведений» называется «Верность сердца» и содержит статьи, литературные мысли, интервью. В этом томе мы можем насладиться литературно-критическими взглядами автора. Каковы в этой статье литературно-критические взгляды Эркина Вахидова на узбекскую литературу, литературную критику в целом, поэзию, поэзию, искусство и творчество? Что такое стихотворение? Что такое вдохновение? Поговорим о его комментариях по таким вопросам.

Ключевы слова. Эркин Вахидов, Литература, Литературная критика, Поэзия, Поэзия, Талант, Вдохновение, Творчество, Искусство.

KIRISH

Erkin Vohidov ijodi o`ziga xosligi va ko`p qirraliligi bilan alohida ahamiyatga ega. Uning ijodiyotini qamrab olgan milliylik, odamiylik, muhabbat tarannumi , falsafiylik, tarix zarvaraqlari bilimdoni ekanligi, va bu bilimlarni o`z o`rnida satrlar qatiga bita olish mahorati barchamizni hayratga soladi. Ijodkorning faqatgina she`riyati emas, balki dostonlar, drammatik asarlari ham alohida qimmatga ega.

Bundan tashqari adabiyotshunoslik borasida ham salmoqli ishlar olib borgan. Xususan, “Shoiru she`ru shuur” va boshqa asarlarida she`r, shoirlik mushohadasi, adabiyot, san`at, adabiyotshunoslik va boshqa ko`plab masalalarga alohida to`xtalgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yozuvchi yoki shoirlarning adabiy- nazariy, tanqidiy qarashlari badiiy asarlarni tahlil qilib, tushunishda muhim ahamiyatga ega. Bunday qarashlar ijodkorning badiiy- estetik olamini ochib beradi, shuningdek, adabiyotshunosligimiz adabiy – nazariy fikrlarga boyib boradi, adabiyot havaskorlari ularni o`rganib bilimlarini oshirishadi.

Bu borada o`zbek adabiyotining yorqin namoyondalari Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Oybek, G`afur G`ulom, Abdulla Oripov, O`tkir Hoshimov, Ozod Sharafiddinovlarning adabiyot, adabiyotshunoslik, adabiy tanqidchilik borasidagi xizmatlari beqiyos. Shuningdek, O`zbekiston xalq shoiri, adabiyotshunos olim Erkin Vohidovni ham alohida ta`kidlasak arziydi.

Ijodkorning “San`atning , adabiyotning sharti – barkamollik va mukammallikdir ” [143- bet] -degan qarashlariga to`xtalsak san`atimiz , adabiyotimiz uchun albatta mukammallik juda muhim, adabiyot mukammal asarlar bilan boyib borsa, shundagina unda yuksalish bo`ladi. Ijodkor dunyoqarashining kengligi, fikrining tiniqligiga tahsinlar aytmadan iloj yo`q.

Erkin Vohidovning she`r va shoirlik haqidagi qarashlariga nazar solsak: “She`r, shoirlik xotirjamlikning mevasi emas”[18-bet]⁷³.

She`r inson ko`nglini yuksaklarga ko`taradi, chinakam go`zal she`rni o`qigan yoki tinglagan qallda ko`tarinki kayfiyat albatta tug`iladi va satrlar ohangi va mazmuni beixtiyor hayolni band etadi. Rassom biror manzarani mo`y qalam va ranglar orqali tasvirlasa, shoir ahli so`zlar yordamida uni chizadi. Agar shoir so`zning sehr kuchidan ustalik bilan foydalansa, manzara tasviri jilolanib ko`ngilga shu`la soladi. She`rda jo`shqinlik, ko`tarinkilik baland bo`lmog`i lozim, chunki she`riyat ixlosmandlari xotirjamlikni yoqtirmaydi, ular o`ynoqilikni, hayotga muhabbatni ufirib turishini istashadi, va shunday she`rlarni qidirib topishadi.

Ijodkorning ” Shoir Qalbi” she`riga e`tibor qaratamiz:

Shoir qalbi go`yo anor,
She`ri uning sharbati.
Bo`lmas ekan she`r ahlining

⁷³ “Erk saodati”. Erkin Vohidov to`la asarlar to`plami. VI jild. Toshkent 2018

O`z qalbiga shafqati.
Tinmay ezar, ezar uni
Ammo shoir biladi-
Piyolasi to`lgan kun
Paymonasi to`ladi.

Naqadar te`ran ma`no va tashbihlarga boy satirlar , shoirlikning ham o`ziga yarasha mashaqqati, zahmatlari borki, ijodkor buni ifodalamoq uchun ajoyib topilmalar topgan, avvalo, shoirning qalbini qizil rangli anor donalariga o`xshatadi, nega anorga? Va nega qizil rangli narsaga o`xshatyapti? Bilamizki adabiyotda avvaldan qizil rang- qon rangi bo`lgani uchun dardlar, azoblar belgisi hisoblanadi. Shoir qalbi shunday dardlarga to`ladi, ular anor donalari kabi ko`p. O`sha anor donalariga shunday ishlov beradiki ular sharbatga, ya`ni she`rga aylanadi. O`z qalbiga shafqat bilmaydigan , uni tinmay ezadigan, o`rtaydigan she`r ahlining , ya`ni shoirning ham bir kun bu dardlardan paymonasi to`ladi. Bu dardlar qanday dardlarki, shoirga tinchlik bermay satrlarga aylanmoq uchun uni qiynaydi? Bu savolga javob topmoq uchun she`r yozilgan vaqtga murojat qilishimiz kerak. She`r 1968- yilda yozilgan. Erkni istagan va haqiqatni baralla aytish mumkin bo`lmagan davrda, chin gapni badiiy so`zlarga o`rab bo`lsada aytishdan qaytmagan shoir edilar.

Shoir – “ Yuraklarni larzaga soladigan she`riy so`zing bo`lmasa to`g`richa ayt, qo`y. Undan ham yaxshisi sukut qil” – degan edi, “Yurti obodning ko`ngli oboddir” maqolasida.[18-bet]⁷⁴

Chindan ham shoirning ko`ngli hamisha ana shuni uqtiradi va shunga intiladi. Ijodkor shu zamin, shu insonlar hayotiga chambarchas umrini, sarf etgan daqiqalarini aziz hisoblaydi. She`r – shoir qalbining tiniq ko`zgusi, shoirni iztirobga solgan kechinmalar, his-tuyg`ular, muammolar ham o`sha she`rda mujassamdir. She`riyat, adabiyot iste`dodli yoki majnunsifat kimsalarning qismatidir degan bobolarimizdan qolgan bir hikmat ham borki, u behudaga aytilmagan. Iste`dod ijod uchun juda muhim bo`lib, usiz chinakam mukammal asarlar yaratilishi mushkul. Shu o`rinda iste`dod so`zining tub ma`nosiga to`xtalsak, iste`dod bu – talant, ya`ni nihoyatda zo`r qobiliyat, biror sohada yuksak darajadagi layoqat. U idrok, tasavvur va tafakkur, xotira, kuzatuvchanlikning benihoya o`sganligida, kishining bilimlarni o`zlashtirishida, o`z bilimi va malakalarini turmushga tatbiq qila bilishida namoyon bo`ladi. Ijodkorning ijod mahsuli chinakam go`zal iste`dod bilan yozilgan bo`lsa, buni payqash qiyin emas. Erkin Vohidovning iste`dod haqidagi qarashlari ham

⁷⁴ “Erk saodati”. Erkin Vohidov to`la asarlar to`plami. VI jild. Toshkent 2018

nihoyatda qimmatli. Shoir yozadi: “Iste’dodning o’zi qolipga sig’maydigan, turli-tuman tabiatli va aql bilan anglash qiyin bo’lgan sirdir. Barcha iste’dodlar kabi shoirlik iste’dodi ham tug’ma bo’ladi va bolalikdan o’zini namoyon etadi. Bu kunduzdek ravshan haqiqatning o’zidek ayon. Tug’ma iste’dod egasi bo’lmagan, she’riyatga havas tufayli adabiyotga kirib qolganlar umr bo’yi havaskorlar bo’lib qoladilar”. [15-bet]⁷⁵

Iste’dodsiz kishi adabiyot olamida erkin nafas olishga qiynaladi, shuningdek, ular tomonidan yozilgan ijod mahsulining ham umri qisqa bo’ladi va bunday asarlar zavolga yuz tutadi. Yana shunday ijod ahli ham borki, ularga tug’ma iste’dod olloh tomonidan berilgan, ammo bu iste’dod yuzaga chiqishi uchun uni tarbiyalash zarur, shundagina u yuksaklarga parvoz qiladi. Ijodkor nafas oladigan havo adabiy muhitdir. Bu havo toza va musaffo bo’lmog’i kerak.

“Adabiyot bahs bilan tirik. Ammo biz ko’p hollarda halol ochiq-oydin tanqidiy gaplarga tayyor emasligimizni ko’rsatib qo’yamiz. Bizni tanqid qilgan yoki biz bilan bahs qilgan odamni dushman deb bilamiz. Qasdimizni olish payiga tushamiz. Biz o’z muhitimizda do’stona tanqid ruhini yaratib, millionlab o’quvchilarimiz qalbida shu ruhni, mardlik, tantilik, hayiqmaslik ruhini tarbiyalashimiz kerak” [125-bet]⁷⁶

Bobolarimizdan qolgan “Tanqid - kelajak mevasi” degan maqol zamiridagi ma’no mazmun benihoya kattadir. Qachonki biz o’zimizga nisbatan berilgan tanqidiy fikrni to’g’ri qabul qilsakgina, shunda o’zimizni tarbiyalab baland pog’onalarga ko’tarilamiz. Erkin Vohidov bir maqolasining nomini – “Dunyoga tinchlik, adabiyotga esa jang kerak” – deb nomlagan edilar. Bu qanchalar mulohazakorlik natijasida paydo bo’lgan fikr. Chindan ham adabiyot bo’stoni qizg’in bahslar natijasida gullab-yashnaydi, mukammallashib boradi. Yuksak saviyali ijodkorlar soni ko’payib boradi. Asarlarining qadr-qimmati ortadi. Bunday qizg’in bahslarning ko’payishi, avjiga chiqishi uchun adabiyot jonkuyarlari, ixlosmandlari va chin iste’dodlar ko’paymog’i darkor.

Ijod jarayoni juda mas’uliyatli jarayon hisoblanadi. Ijodkor qanday bo’lishi kerak? Nimalarga e’tibor berishi kerak? Va qanday xislatlar sohibi bo’lishi lozim degan savollarga yechim sifatida keltirilgan bu fikrlar naqadar o’rinli. Ijodkor sehrli so’zning sehrini ishlata olsa, so’z mo’jizakorligini namoyon eta olsa, so’zning bashoratchiligidan xabardor bo’lsa, buni amaliyotda, ijodida qo’llay olsa u haqiqiy iste’dodga ega ijodkor hisoblanadi. Ijod jarayoni shaxsni ilgariga tomon yetaklaydi,

⁷⁵ E.Vohidov “Shoiru she’ru shuur”. Adabiy o’ylar. Toshkent 1987.

⁷⁶ E.Vohidov “Shoiru she’ru shuur”. Adabiy o’ylar. Toshkent 1987.

g`ayratlantiradi, ko`ngilni "kir"lardan tozalab, unga orom beradi, insonni komillik tomon yetaklaydi.

Ijod jarayonining yuzaga chiqishida ilhom o`rnini ham alohida ta`kidlash joiz. Ayniqsa she`r va shoir uchun bu juda muhim. E.V."Talant tarbiyasi suhbatida badiiy iste`dodning eng sehrli xislati, bosh jabhalardan biri bo`lgan ilhomga alohida to`xtalib ta`rif beradi: "Men ilhom deb atalgan holatning tabiati haqida ko`p o`ylaganman. Bu g`ayrioddiy noyob holat. Shoir ilhom onlarida haqiqiy shoir bo`ladi. Boshqa vaqtda u o`zgalarga o`xshab fikr qiluvchi oddiy odam. Shoir ilhom onlarida bitgan satrlariga keyin o`zi hayron bo`lishi mumkin, Har qancha dunyoviy fikrlasam ham ilhom holatining ilohiy ekanligiga ishongim keladi, Ilhom uzluksiz izlanish, o`qish, o`rganish, mehnat qilish natijasidir. Shu ma`noda u ongli jarayon. Iste`dod to`qson to`qqiz qismi mehnat, degan so`zni men shunday tushunaman. Ilhom tuyg`ularning shoir qalbidan toshishi, Shoir xayolida tug`ulgan she`riy niyatning yetilishi va vujudni larzaga solishdir. Fikr va tuyg`ular esa izlanishidan dunyoga keladi" [...] Ilhomning kelishini ilohiy jarayon deb ishongim keladi degan fikrlarida chindan jon bor, chunki u kutmagan vaqtda, kutilmagan vaziyatlarda keladi, o`sha vaqti tug`ilgan g`oya yoki asar qog`ozga tushirilmog`i darkor.

Yana bir ijodkor aytgan edilar: "Ilhomning vaqti bo`lmaydi, u selday keladi" bu behudaga aytilmagan chunki selni bilamiz, u qish va asosan bahor faslida birdan to`polon bilan jarliklarni to`ldirib kelib qoladi. Ilhom ham shunday to`s-to`polon bilan ijodkor ongiga quyilib keladi va uni qog`ozga tushirmoq uchun ijodkor ahli beixtiyor qo`liga qalam oladi va quyilib kelgan satrlarni qog`ozga qoralaydi.

O`zbek tilining izohli lug`atida "ilhom" so`ziga qanday ta`rif berilganiga diqqat qilamiz:

Ilhom - ishontirish, ruhlantirish. Ijodiy zavq jo`sh urgan holat, ko`tarinki ijodiy ruh.

Ilhombaxsh-(bag`ishlovchi, beruvchi) Ko`tarinki ijodiy ruh bag`ishlovchi, Ilhom beruvchi.

Demak, ilhom ma`lum vaziyatdan, voqea-hodisadan yoki holat va manzara tasviridan ruhlanish va unga ishontirish ekan. Ijod qilish uchun zavq-shavq paydo bo`lgan, ko`tarinki ijodiy ruh, kuchaygan holatdir.

XULOSA

Erkin Vohidov ijodi, adabiy - tanqidiy qarashlari o`zining qimmatini, ahamiyatini yillar o`tgan sayin orttirib boryapti, ijodkorning adabiyotshunoslikka oid izlanishlariga ancha yillardan buyon murojat etilyapti, bundan buyon ham bu murojatlar davom etaveradi...

REFERENCES

1. Вохидов Е. Сўз латофати. Ўзбекистон”. Тошкент, 2014
2. Ерк саодати. Еркин Вохидов тўла асарлар тўплами. VI- жилд. Тошкент, 2018
3. Вохидов Е. Шоиру шеру Шуур. Адабий ўйлар. Тошкент, 1987.
4. То quyosh sochgayki nur. Erkin Vohidov hayoti va ijodi zamondoshlari nigohida. Toshkent, 2018.
5. Umurov H. Hamid Olimjon va Zulfiya. Samarqand, 2019
6. Вохидов Е. Ше`р дунйоси. 2-жилд, Шарқ , Тошкент, 2001.
7. Umurov H. Shoir va she`r dunyosi, SamDU nashri, Samarqand, 2021.
8. МУСЛИХИДДИН МУХИДДИНОВ, ИСРОИЛ СУЛАЙМОНОВ, МАШХУРА ХАСАНОВА, ХАФИЗА АСЛАНОВА, СИТОРА ШОМУРОДОВА. Одовый жанр и идейно-художественные особенности од Еркина Вахидова. Журнал «Современные проблемы бизнеса и власти». 2021\4\20. 1317–1323

**XIX ASR SHOIRALAR IJODIDA BADIY SAN'ATLAR JILOSI
(Uvaysiy, Nodira, Dilshodi Barno, Anbar Otin she'riyatida misolida)**

Navruzova Nozima Norqulovna

SamDU 2-kurs magistranti

ANNOTATSIYA

XIX asrning birinchi yarmida Qo'qon adabiy muhitida shoiralardan Uvaysiy, Nodira, Dilshodi Barno, Anbar Otin she'riyatida ma'noviy va lafziy san'atlar keng qo'llanilgan bo'lib, ular mazmun yetakchiligini ta'minlashga va she'r shaklining mazmunga mutanosib bo'lishiga xizmat qilgan, asardagi g'oyalarning ta'sirchan, hayotiy va jozibador chiqishini ta'minlagan.

Bu davrda shoiralarning tarix sahnasiga kirib kelishiga "malikayi davron" nomi bilan mashhur shoira Nodirabegim va Uvaysiyning ulkan hissasi bor.

***Kalit so'zlar:** XIX asr adabiy muhiti, "malikayi davron" Nodira, Uvaysiy, Dilshodi Barno, Anbar Otin, ma'noviy va lafziy san'atlar, talmeh, tashbeh, istiora*

ABSTRACT

In the first half of the XIX century in the literary environment of Kokand in the poetry of poets Uvaysi, Nodira, Dilshodi Barno, Anbar Otin spiritual and rhetorical arts were widely used, which provided content leadership and served to make the form proportionate to the content, provided an impressive, vital, and attractive output of the ideas in the work. The poets Nodirabegim and Uvaysi, known as the "Malikai Davron", made a great contribution to the entry of poets into the stage of history during this period.

***Keywords:** XIX century literary environment, "Malikai Davron" Nodira, Uvaysi, Dilshodi Barno, Anbar Atin, spiritual and verbal arts, talmeh, tashbeh, istiora*

АННОТАЦИЯ

В первой половине XIX века в литературной среде Коканда в поэзии поэтов Увайси, Нодира, Дильшоди Барно, Анбар Отин широко использовались духовные и риторические искусства. впечатляющий, жизненно важный и привлекательный результат идей в работе. Поэты Нодирабегим и Увайси, известные как «Эпоха Королевы», внесли значительный вклад в выход поэтов на историческую сцену в этот период.

***Ключевые слова:** литературная среда XIX века, «Принцесса Даврон» Нодира, Увайси, Дильшоди Барно, Анбар Атин, духовно-словесные искусства, талмех, ташбех, истиора.*

KIRISH

Qo'qon adabiy muhitida o'ziga xos o'rin tutgan Mohlaroyim Nodira, Jahon otin Uvaysiy va ularning ma'lum ma'nodagi izdoshlari Dilshodi Barno, Anbar Otin kabi shoirlar mumtoz adabiyotimizga o'zlarining benazir hissalarini qo'shish bilan birga shu davrdan boshlab shoirlar silsilasiga asos solganlar. Ular o'zlarining ijodlari bilan mumtoz adabiyotimizni har jihatdan boyitganlar. Shoirlar ijodining badiiyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ular badiiy san'atlarning o'ziga xos tarzda go'zal namunalari yaratishgan. Bular mumtoz adabiyotimizning bebaho boyliklaridan sanaladi. Ming yillik tarixga ega bo'lgan mumtoz adabiyotimizda badiiyat masalasi hamisha she'r ahlining diqqat markazida bo'lib kelgan. U yoki bu ijodkor salohiyati haqida so'z borganda, uning nimalarni tasvirlagani emas, asosan, qanday tasvirlaganiga e'tibor qaratilgan. Jumladan, adabiy asarlarda she'riy san'atlardan foydalanish mahorati hamma asrlarda badiiy san'atkorlikning asosiy qirralaridan biri sifatida baholangan.⁷⁷

Ma'lumki, she'riy san'atlar asardagi g'oyalarning ta'sirchan, hayotiyroq va jozibador chiqishi uchun xizmat qiladi. Shoirlarimiz ijodidagi badiiy san'atlarni ko'zdan kechirganimizda, ularning go'zal namunalari yaratilganligining guvohi bo'lamiz. Ularning she'riyatida eng ko'p qo'llanilgan badiiy san'atlar talmeh, tashbeh, tanossub, tazod, mubolag'a, tashxis, istiora kabilardir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mumtoz she'riyatda, shuningdek, shoirlar g'azallarida eng ko'p qo'llanilgan she'riy san'atlardan biri talmeh. Mumtoz adabiyotimizda ijodkorlar muhabbat mavzusidagi asarlarida ko'pincha Sharqda keng tarqalgan "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Vomiq va Uzro", "Tohir va Zuhro" kabi qissalar, dostonlarning qahramonlari nomiga ishora qiladilar. O'quvchi u yoki bu nomga ishorani ko'rar ekan, uning ko'z oldida o'sha qissa, doston, afsona mazmuni, uning qahramonlari hayoti, sevgisi, kurashi, fojiali taqdiri jonlanib, ijodkor demoqchi bo'lgan fikrni yorqinroq tasavvur qiladi, chuqurroq anglab yetadi. Zero, bu jarayonda o'quvchi o'zi mutolaa qilayotgan asar qahramoni hayoti, tuyg'ulari, ma'naviy qiyofasini o'sha mashhur qissa, afsona qahramoni bilan qiyoslaydi. Bu mumtoz adabiyotimizda o'ziga xos an'ana bo'lib, bu an'anani shoirlarimiz ham munosib ravishda davom ettirishgan. Nodira ijodida bu an'anani kuzatganimizda, o'zining muhabbat borasidagi kechinmalarini ularniki bilan qiyoslaydi va bu borada shoira yaratgan lirik qahramon iztiroblari oldida boshqalarniki hech narsa emas degan fikrga keladi.

⁷⁷ Bu haqda qarang: A. Хожиахмедов. Мумтоз бадийят малохати. Тошкент, 1999 й.

Farhod agar urisa menga lofi muhabbat,

Bir oh ila aylarman uni dog'i xijolat⁷⁸

misralari bilan boshlanadigan g'azalida Nodira o'zining ishqig'ami Farhod va Majnunlikidan, Yusuf va Zulayhonlikidan ming chandon ortiq ekanligini, ular bunga bardosh bera olmasligini ta'riflaydi. Shoirada bo'lgan ishq ularida bo'lganida edi, Farhod tog'ni talqon qilgan, Majnun olamga dod solgan, Zulayho esa Yusuf firoqig'azobidan omon qolmagan bo'lardi. Nodiraning ayriliq azobini chekayotgan lirik qahramonining iztirob-uqubatlari oldida Majnun-u Farhodlarning azoblari hech narsa bo'lmay qoladi. Ularning g'ami yuzta bo'lsa, Nodirada mingta hasratdir. Bunday ta'riflar Nodira ijodiga xos bo'lgan jihatlardan biri desak, yanglishmagan bo'lamiz, albatta. Bu misralarda shoira mubolag'a san'atiga keng o'rin beradi va badiiy mahoratining yuksak darajasini ko'rsatadi:

Gar bo'lsa Zulayxoda mening zarracha ishqim ,

Qolmas edi Yusufni firoqida salomat...

Yuzdin biri Majnunda agar bo'lsa g'amimni,

Bir oh ila olamg'a solur sho'ri qiyomat.⁷⁹

Shoira talmeh va mubolag'a san'atidan o'rinli foydalangan va bu qo'llash orqali o'z dardining naqadar kuchli ekanligini ko'rsatishga muvaffaq bo'lgan, shu ikki san'at orqali maqsadiga erishgan.

Menga barobar emas ko'hkan bilan Majnun,

Alarda yuz g'am edi , lek menda ming hasrat.⁸⁰

Nodira hali yosh ekanligida uning sevimli yori Umarxon (1822) vafot etdi, lekin Nodira umrining so'nggiga qadar yoriga sodiq qoldi. Shoiraning mana shu yillardan keyingi davrda yaratilgan ijodida ayriliq, hijron mavzusi yetakchilik qiladi, visol, shodlik va quvonch mavzusi chekinadi. Nodira ijodining ibtidosidan intihosigacha o'zini kuyladi: ma'shuqa bo'lib oshig'ini, Layli bo'lib Majnunini, Zulayho bo'lib Yusufni kuyladi. U sevib sevgini chuqur his etganligi uchun g'azallari his-hayajon bilan to'la, o'quvchi qalbiga tez yetib boradi.

Furqat ichra tushdi savdoyi Zulayho boshima,

Qimmatini Yusuf baho topti xaridoring'a ayt.⁸¹

Shoira she'rlarida bu obrazlar nomlarini keltirish orqali o'zini madh etgan, yoriga bo'lgan vafo va sadoqatini, dardini kuylagan.

⁷⁸ Нодира. (ғазаллар). Азиз Қаюмов. Т., 1958.

⁷⁹ Shu asar, 3-бет.

⁸⁰ Shu asar, 22-бет.

⁸¹ Нодира. (ғазаллар). Азиз Қаюмов. Т., 1958. 19-бет.

Uvaysiy ijodida yuqoridagi nomlar talmeh sifatida o'ziga xos tarzda tilga olingan:

Munosibliqqa deb bordim sanga, Yusuf-Zulayhosan -
Ki, aslo tushmasin o'trug'a bir g'ayri dadon, taqdir.⁸²

Uvaysiyning bu g'azali Qo'qon xoni Umarxonga murojaat tarzida yozilgan bo'lib, shoir Umarxon va shoira Nodiraning bir-biriga bo'lgan muhabbat va sadoqatini Yusuf va Zulayhoga o'xshatish orqali talmeh san'atini yaratgan. Ko'rinadiki, Uvaysiy bu o'rinda o'zining muhabbati haqida emas, balki real insonlar haqida so'z yuritmoqda. Shu jihatdan uning mazkur san'atni qo'llashdagi uslubi Nodirani kidan farqlanib turadi. U Nodira kabi o'z sevgisini qalamga olmagan, ammo o'zini va lirik qahramon muhabbatini madh etgan o'rinlar ham bor, albatta.

Uvaysiy, Dilshodi Barno va Anbar otinlarda Nodiradan farqli ravishda o'z sevgisini kuylash kamroq. Ayniqsa, Dilshodi Barno va Anbar Otinlar ijodi, asosan, ijtimoiy mavzuda bo'lganligi uchun Anbar Otinning bu obrazlarga murojaatida ham ijtimoiy ruh ko'rinib turadi. Dilshodi Barno ijodida esa bu obrazlar juda kam hollarda uchraydi. Ular bu obrazlardan ko'ra ko'proq ijtimoiy mavzuga aloqador bo'lgan, ya'ni shu mavzuda ijod qilganlarni tilga olib ularga ergashganlar.

Anbar Otin g'azal:

“Xotunlar mol misoli sotiladur”, deb mushtiparlarni,
Zulayho, Laylo, Shirinni tan olmog'onlarga o't tushsun.⁸³

Ko'rinadiki, shoira bu qahramonlarning sevgisini emas, balki ijtimoiy jihatini, bu obrazlar orqali ayollarning jamiyatdagi o'rnini qalamga olgan.

Shoiralar ijodida bulardan tashqari, yana ko'plab badiiy qahramonlar va tarixiy shaxslar ismlari keltirilgan. Masalan, Mashrab, Mansur Xalloy ismlari va ularning taqdiriga ishora an'anaga aylangan bo'lib, shoiralar ijodida ham bu an'ana davom etganligini ko'rishimiz mumkin. Bu ismlarni shoiralar Ollohga bo'lgan muhabbatni ifodalashda qo'llaganlar va bu bilan ifodaning yana ham ta'sirli chiqishiga erishganlar.

Uvaysiy g'azali:

Har kishi Mansurdek bersa “analhaq”dan xabar,
Ul zamon bo'lg'ay ani oldida dori ko'ndalang.⁸⁴

Baytda Mansur Xalloyning “analhaq”, ya'ni “men Xudoman” degani uchun dorga osilgani va uning taqdiridan boshqalarni ogohlantirish mavjud.

⁸² Тўхтасин Жалолов. Ўзбек шоирлари. Т., 1970 й. 64-бет.

⁸³ Анбар Отин. Шеърлар рисола. Т., 1970й

⁸⁴ Тўхтасин Жалолов. Ўзбек шоирлари. Т., 1970 й. 55- бет.

Nodiraning ifoda bayoni Uvaysiniki bilan o'xshash:

Analhaq, mojarosin aylading fosh,
Kel, ey Mansur, istiqboli dor et.⁸⁵

Dilshodi Barno g'azali:

Shayx Mansuri analhaq ila Mashrab pirimiz
Ishqsiz shayx ko'zini pirpiratgan o'zimiz.⁸⁶

Shoiralarimiz ijodida ko'p uchraydigan badiiy san'atlardan biri tashbeh san'atidir. Nodira ijodida ham uning go'zal namunalarini uchratamiz:

Chamanda jilva qildi sarvi gul ham sabza bosh egdi,
Qadi sarvu, yuzi gul, xatti rayhonimni sog'indim.⁸⁷

Shoira yorning qaddini sarv daraxtiga, yuzini gulga, xati (lablari ustidagi nozik tuk)ni esa xushbo'y rayhonga qiyoslab go'zal tashbehlar yaratgan. Shoiraning navbatdagi g'azalida shunga o'xshash tashbehlar laff va nashr ("yig'ish va yoyish" ma'nosini ifodalovchi ushbu san'at she'r baytida avval bir necha narsa yoki tushuncha nomini ketma-ket keltirib, keyin ular haqidagi hukmlarni ketma-ket bayon qilishni nazarda tutadi.⁸⁸) san'ati bilan uyg'un holda qo'llanilgan:

Yuzu gul-u, qadi shamshod, ko'zlari nargis,

Bahori yosumanimni tushimda ko'rsam edi.

Bunda ham yorning yuzi gulga, qadi shamshodga, ko'zlari esa nargis guliga qiyoslangan. Ko'rinadiki, yuqoridagi baytda yuz, qad, ko'z – bular laff hisoblansa, gul, shamshod, nargis – nashrdir. Shuningdek, shu kabi o'xshatish hamda laff va nashr Uvaysiy ijodida ham ko'zga tashlanadi:

Yuzu zulfu qadi ra'nosini ko'rganda dermishman

Ham ul **guldur**, ham ul **sunbul**, ham ul bir **naxli shamshodi**

baytining birinchi misrasidagi "yuz", "zulf", "qad" dastlab yig'ilgan va keyingi misrada "gul", "sunbul", "naxli shamshod"ga o'xshatilib, nashr etilgan, bitta-bitta izohlangan. Shoira ijodida yorning xatini endi sabza urayotgan rayhonga, labini kavsarga, mijjasini bo'stonga, yuzini gulga o'xshatib tashbeh san'ati yaratish ko'plab topiladi. Bunday tashbehlar mumtoz adabiyotimizda an'anaga aylangan va bu an'anani shoiralar Nodira va Uvaysiy o'ziga xos go'zal baytlarida ifodalab munosib davom ettirishgan. Shoiralar Dilshodi Barno hamda Anbar Otinlar esa bu an'adan biroz chekingan holda ijod qilganlar. Chunki ularni ijodi, asosan, ijtimoiy mavzuda

⁸⁵ Shu asar, 105- bet.

⁸⁶ Дилшоди Барно. Танланган асарлар. Т.,1972й. 37-бет.

⁸⁷ Нодира-Комила. Девон. Тошкент, 2001 й.

⁸⁸ А. Ҳожирахмедов. Мумтоз бадийят малохати. Тошкент, 1999 й. 42- бет.

bo'lib, ularda Nodira va Uvaysiy ijodidagi kabi ta'sirli tashbehlar kam uchraydi, ularda uchraydigan tashbehlar esa oddiy va xalqona.

Dilshodi Barno ijodidan keltirilgan quyidagi baytda ham tashbeh ijtimoiy mavzuga asoslangan:

Deyurlar tishlaring, Barno, misoli dur (va) yo olmos,

Bu tish mijgon o'qidek zulm qilguchiga otgonim.⁸⁹

Anbar Otin ijodida ham Dilshodi Barnodagi kabi biroz sodda tashbehlar mavjud:

Qay kuni bo'lg'ayki, san mandek gadolar holig'a,

Aylagaysan bir tarahhum bu maholimni ko'rub.⁹⁰

Shoiralar ijodida istiora (arabcha "biron narsani omonatga (vaqtincha) olmoq" degan ma'noni ifodalab, adabiy asarda so'zni o'z ma'nosidan boshqa bir ma'noda, aniqrog'i uni haqiqiy ma'nosida emas, balki majoziy bir ma'noda qo'llash⁹¹) san'atiga ham ko'p bora duch kelamiz. Nodiraning

Vaqt xirom, ey sanam, diydalarimga qo'y qadam,

Xoki rahingga aylaram chashmi go'harfishon fido

baytida "sanam", "chashmi go'harfishon", "diydalarimga qo'y qadam" istioralari keltirilgan. "Diydalarimga qo'y qadam" istiorasi Nodira g'azallarida tez-tez uchraydi va bu shoiraning o'ziga xos uslubi sanaladi.

Uvaysiy g'azallaridagi istioralar ham shunga o'xshash tarzda yaratilgan:

Muhabbat o'tini jismimga yoq, bag'rim kabob o'lsun,

Ko'zum husningda serob ayla andog'kim purob o'lsun.

Bu baytdagi birinchi misra to'laligicha istiora asosiga qurilgan, ya'ni muhabbat o'ti (olov) bilan jismni yoqish va bag'irni kabob qilish o'z ma'nosidan yiroqlashib ko'chma ma'noda qo'llangan va istiora san'atini hosil qilgan.

Dilshod va Anbar Otinlar ijodida ham istioralar ko'p o'rinda qo'llanilgan. Ayniqsa, Dilshodi Barno she'riyati istioralarga boy:

Bag'rim ochgach dil saroyin, asli manzil shul debon,

Mehr sozin ishlatib, ishq tanburini urdi ruh

baytida "dil saroyi", "mehr sozi", "ishq tanburi" istioralarini qo'llab ta'sir kuchini oshirishga erishgan.

Istiora tashbehdan kuchliroq bo'lgani uchun shoiralar bu san'atdan foydalanib yuqori ta'sirchanlikka erishganlar. Bu san'atni yaratishda shoiralarda an'anadan

⁸⁹ Дилшоди Барно. Танланган асарлар. Фафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. Т., 1972й. 56-бет.

⁹⁰ Анбар Отин. Шеърлар рисола. Фафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. Т., 1970й. 19-бет.

⁹¹ А. Ҳожиахмедов. Мумтоз бадиият малохати. Тошкент, 1999 й.

chekinishlar ko'rinadi. Ularda ayollarga xos bo'lgan jihatlar ko'proq ko'zga tashlanadi.

XULOSA

Nodira va Uvaysiy ijodini kuzatganimizda, ularda badiiy san'atlarning naqadar yuqori mahorat bilan o'z o'rnida qo'llanganligiga guvoh bo'lamiz. Ular ayollarning nozik qalbidagi hislarni badiiy san'atlarda aks ettirishgan. Dilshodi Barno va Anbar Otinlar ijodida ham she'riy san'at namunalarini ko'ramiz, ammo ular Nodira va Uvaysiyning ikididan biroz farq qiladi. Nodira va Uvaysiy ijodi o'zaro bir-biriniqiga o'xshash bo'lsa, shoirlalar Dilshod va Anbar Otinlar ijodi bi-biriga o'xshaashdir. Chunki shoirlalar turmush tarzi, ichki kechinmalaridan kelib chiqib ijod qilishgan. Nodira va Uvaysiy saroy muhitida yashashganligi uchun ularda ijtimoiy qiyinchiliklar deyarli bo'lmagan. Ayniqsa, Nodira mamlakat malikasi bo'lganligi uchun unda moddiylikdan qiynalgan, ijtimoiy qiyinchiliklar ko'rgan lirik qahramon obrazi deyarli yo'q. Dilshod va Anbar Otinlar esa saroydan tashqarida siyosiy vaziyat biroz murakkab bo'lgan muhitda yashashganligi uchun ularda ijtimoiylik kuchli. Shuning uchun ularning she'riyati Nodira va Uvaysiyning ikididan farq qiladi. Ularning ijodida bo'lgani kabi badiiy san'atlarni qo'llashda ham sezilarli farqni ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Bu davrga qadar adabiyotimizda faqat erkak ijodkorlar bo'lib, ayollarning muhabbati, dard-u alamleri, ularning nozik kechinmalari, onalik mehrlari qalamga olinmagan edi. Shoirlarning bu kechinmalarini ifodalashda badiiy san'atlarning o'rni beqiyos va u orqali tasvir vositasining yanada jozibali bo'lishiga erishishgan.

REFERENCES

1. Нодира-Комила. Девон. Тошкент, 2001 й.
2. Нодира. (ғазаллар). Азиз Қаюмов. Т., 1958.
3. Увайсий. Девон. Т.: ЎзФА нашриёти. 1959 й.
4. Увайсий. Кўнгил гулзори. Т. 1983 й.
5. Анбар Отин. Шеърлар рисола. Т., 1970й.
6. Дилшоди Барно. Танланган асарлар. Т., 1972й
7. Тўхтасин Жалолов. Ўзбек шоирлари. Т., 1970 й.
8. А. Ҳожиаҳмедов. Мумтоз бадиият малохати. Тошкент, 1999 й.
9. Хасанова М. Саккокий қасидаларининг “насиб” қисмида маъшуқа тимсоли // Шарқ аёли: кеча ва бугун. Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент, 2013. - Б. 172-176.

ALISHER NAVOIYNING “SAB’AI SAYYOR” DOSTONIDA DO‘ST TIMSOLINING YARATILISHI

Rasulova Nigora

Samarqand davlat universiteti magistranti (O‘zbekiston)

Tel: +998 97 578 21 23

ANNOTATSIYA

O‘zbek adabiyotida do‘st timsoli juda qadim zamonlardan qo‘llanib kelingan. Hayotda sadoqatli do‘st topish, do‘stlikning orqasidan baxt-saodatga erishish syujeti asosiy syujetlardan hisoblangan. Do‘stlikning maqomi xususida turli rivoyatlar, hikoyatlar to‘qilgan. Hazrat Mir Alisher Navoiy ham o‘z asarlarida do‘stlik tushunchasini juda ulug‘lagan. Hayoti davomida o‘ziga do‘st deb bilgan insonlarni juda izzat-ikrom qilgan. Ularga bag‘ishlab maxsus asarlar yaratgan. Shu bilan birga do‘st timsolini o‘z asarlarida ham keng qo‘llagan. Alisher Navoiy “Xamsa”ning to‘rtinchi dostoni bo‘lmish “Sab’ai sayyor” dostonida ham bir qator do‘st timsollari yaratilgan. Dostonning to‘qqizinchi bobini esa maktabdosh do‘sti Sulton Husayn Boyqaro madhiga bag‘ishlaydi. Uni cheksiz saxovat, chumoliga ham marhamatli adolat egasi deya ta’riflaydi. Shoh Bahromga atab qurilgan yetti qasrda yettita sayyoh tomonidan aytilgan yetti hikoyatda ham do‘st timsolining yorqin namunalari guvoh bo‘lishimiz mumkin.

Maqolada Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostonida keltirilgan hikoyatlarda do‘st timsolining yaratilishi, vafodor do‘st va do‘stlikka xiyonat kabilar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: “Sab’ai sayyor”, Farrux va Axiy, Zayd Zahhob, Juna va Mas’ud, Muqbil va Mudbil, do‘stga saqoqat, oliyjanoblik.

ABSTRACT

The image of a friend has been used in Uzbek literature since ancient times. Finding a loyal friend in life, the pursuit of happiness through friendship is one of the main plots. There are various legends and stories about the status of friendship. Hazrat Mir Alisher Navoi also glorified the concept of friendship in his works. He had a lot of respect for people he considered to be his friends throughout his life. He created special works dedicated to them. At the same time, he widely used the image of a friend in his works. Alisher Navoi's fourth story, "Sabai Sayyar," which is the fourth story of Hamsa, also depicts a number of friends. The ninth chapter of the poem is dedicated to his school friend Sultan Hussein Boyka. He is described as a man of infinite generosity and justice. The concept of friendship is widely used in the

stories of Farrukh and Ahi, Zayd Zahhab, Juna and his friend Mas'ud, Muqbil and Mudbil.

The article tells about the creation of the image of a friend in the stories of Alisher Navoi's "Sabai Sayyar", such as betrayal of a loyal friend and friendship.

Key words: "Sabai Sayyar", Shah Bahrom, Farrukh and Ahi, ZaydZahhab, Juna and Mas'ud, Muqbil and Mudbil,, friendliness, nobility.

АННОТАЦИЯ

Образ друга используется в узбекской литературе с давних времен. Найти в жизни верного друга, достижения счастья через дружбу - один из главных сюжетов. О статусе дружбы ходят разные легенды и рассказы. Хазрат Мир Алишер Навои также прославил в своих произведениях концепцию дружбы. Он очень уважал людей, которых считал своими друзьями на протяжении всей своей жизни. Им посвящены специальные произведения. При этом широко использовал образ друга в своих работах. В четвертом эпосе Алишера Навои «Хамса» «Сабай Сайяр» также есть несколько друзей. Девятая глава поэмы посвящена его школьному другу султану Хусейну Бойкару, который описывается как человек безмерной щедрости и справедливости. Понятие дружбы широко используется в рассказах Фарруха и Ахи, Зайда Заххаба, Джуны и его друга Масъуда, Мукбила и Мудбила.

В статье рассказывается о создании образа друга в рассказах Алишера Навои «Сабай Сайяр», таких как предательство верного друга и дружба.

Ключевые слова: «Сабай Сайяр», Шах Бахром, Фаррух и Ахи, Зайд Заххаб, Джуна и Масъуд, Мукбил и Мудбил, дружелюбие, благородство.

KIRISH

Do'stlik, do'stga vafoli bo'lish borasida badiiy adabiyotimizda juda ko'p rivoyatlar to'qilgan, hikmatlar bitilgan. Do'stlikning avvali tanishmoqlikdir. Ta'bir joiz bo'lsa, tanishish – do'stlik manziliga olib boruvchi bir yo'ldir. Agar bu yo'ldan to'g'ri bormay, poyintar-soyintar, egri-bugri qadam tashlansa, g'iybat, ig'vo, hasad ariqlaridan suv ichib turilsa, o'rtada dushmanlik paydo bo'lishi shubhasizdir. Haqiqiy do'st boshga kulfat tushganda bilinadi. ⁹²

Hazrat Mir Alisher Navoiy ham o'zining betakror ijodida do'stlik tushunchasiga alohida urg'u berganlar. Alisher Navoiy qalamiga mansub "Xamsa" dostonining to'rtinchi dostoni bo'lmish "Sab'ai sayyor" dostonida ham do'stlik tushunchasi, do'stga sadoqatli bo'lish, o'ziga ravo ko'rganini do'stiga ham ravo ko'rish tuyg'ulari

⁹² Тохир Малик, "Одамийлик мулки".-Т.: "Шарк". 2014.154- bet

hikoyatlar zamirida yoritib berilgan. Dostondagi shoh Bahromga aytilgan birinchi hikoyat, ya'ni hindistonlik musofir tomonidan qora qasrda hikoya qilingan Farrux va Axiy haqidagi hikoyatni olib ko'raylik. Shahzoda Farrux tushida ko'rgan maxvashni axtarib Halabga kelishi, uni bir bor uchratib, hushidan ayrilishi, saxovati bilan nom qozongan Axiyning g'am-anduhga chumib, qora palosga o'ranib iztirob chekayotgan Farruxni uchratib qolishi, uni uyiga taklif qilib mulozamat ko'rsatishi, u bilan suhbat qurib, uning dardidan voqif bo'lishi, Farruxning ishqi tushgan go'zal o'z yori ekanligini bilishi va yorini taloq qilib, do'sti Farruxga nikohlab berishi do'stlikning, oliyjanoblikning eng yuqori bosqichidir. Bu kabi do'stga nisbatan oliyjanoblik ko'rsatish holatini Farrux obrazida ham ko'rishimiz mumkin. Farrux nikohiga olgan go'zal yorning g'am- anduhga botib, nola qilishidan bor gapni bilib oladi. Axiyning mardligidan hayratga tushadi. Ayolni o'ziga singil kabi tutadi va do'stini izlaydi. Axiy ham ishi orqaga ketib, Hind mulkiga borib qoladi. U yerda ikki do'st topishadi. Farrux singlim deya Axiyning ayolini to'y-tomosha qilib o'ziga nikohlab beradi. Shu tariqa ularning do'stligi abadiiy bo'lib, bir-birlaridan yordam va mehrini ayamay, uzoq umr ko'rishadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Dostonga kiritilgan ikkinchi hikoyat, Zayd Zahhob haqidagi hikoyatda ham Rum mamlakati podshosining Zayd Zahhob ismli zargari, yaqin do'sti bo'lishi, hukmdor u bilan har bir ishda maslahat qilishi, shohning ishonchiga kirgan Zayd Zahhobning unga oltin taxt yasab berishini va'da qilib, xazinadan ikki ming botmon oltinni olishi, lekin taxtning faqat sirtini oltin qilib, ichki tomonini kumish bilan to'ldirishi, do'stlikka xiyonat qilib qolgan oltinlarni o'zlashtirib olishi voqealarini ko'rishimiz mumkin. Oxir oqibat Zayd Zahhobning dushmanlari shohga uning firibini ma'lum qiladi. Shoh Zayd Zahhobni zindonga tashlaydi. Zayd Zahhob zindondan qutilib, Qustantaniyaga qochadi va u yerda oxir –oqibat butxona rohibi bo'ladi. U butxonadagi oltindan yasalgan barcha buyumlarni o'zlashtirib, o'rniga shisha va boshqa metallardan yasab qo'yadi. So'ng o'z ixlosmandlariga bir maktub yozib, o'z yurtiga qaytayotganini ma'lum qiladi. Butparastlar qo'lidagi maktubda esa Zayd Zahhobning barcha kirdikorlari bayon qilingan edi. Zayd Rumga qaytib bemor shohni davolaydi. Qayda uning ishonchiga kiradi. Oltinlarni oshig'i bilan qaytarib beradi, dushmanlarini jazolaydi. Shohga sadoqatini izhor etadi.

Dostondan o'rin olgan to'rtinchi hikoyatda esa shoh Bahrom qizil qasrda navbatdagi sayyohdan Juna va uning do'sti Mas'ud haqidagi hikoyatni tinglaydi. Dehli sultoni hisoblanmish Juna shu darajada saxovatli ekanki, uning saxiyligi chegara bilmas ekan:

Adlu insof o‘lib sifoti aning,
Shohlar ichra Juna oti aning.
Yelga bazlu ato bila mashhur.
Olam ichra saxo bila mashhur.
Yelga laklarni bebaho berib,
Gar bahona topib xizona berib.
Bazlae gar debon suxansanje,
Silasig‘a ato qilib ganje.⁹³

Bir musofir uning mehmoni bo‘lib, unga rost gapirgan odamning yuzini oq, yolg‘onchining yuzini qora qilib ko‘rsatadigan ko‘zgu sovg‘a qiladi. Shoh olamda o‘zidan ham saxiyroq kishi bor-yo‘qligini so‘raydi. Musofir dastlab yo‘q deb javob beradi. Musofirning yuzi qorayib ko‘rinadi. Musofir unga ochig‘ini aytishga majbur bo‘ladi. Darhaqiqat, Junadan ham saxovatli kishi bo‘lib, u Taroz o‘lkasidan yashovchi Mas‘ud edi. Mas‘ud xabarini eshitgan shoh Tarozga yo‘l oladi va Mas‘ud bilan uchrashib, do‘st tutinadi. Mas‘ud unga o‘zi uchun eng aziz bo‘lgan narsalari: kuy va qo‘shiqda mohir bo‘lgan kanizagini, mayi tugamaydigan jomini, Gulgun laqabli otini hadya qiladi. Juna Mas‘udni Tarozga hokim qilib tayinlash to‘g‘risida farmon beradi, ammo o‘zining shoh ekanligini bildirmaydi. Farmondan xabar topgan Taroz hokimi qattol vaziri Ballu bilan reja tuzib, Mas‘ud bilan “sadoqatli do‘st” tutinishga qaror qiladi. Mas‘ud uning do‘stligiga ishonadi. Kunlarning birida Jaypur Mas‘udning uyiga keladi, shomga yaqin o‘zlarini tutolmaydigan darajada mast bo‘lishadi. Vaziyatdan foydalangan Ballu uni chohga soladi. Mas‘udni chohdan olib holdan toyguncha azoblashadi va yana chohga solishadi. Mas‘ud bu darajada qilinayotgan zulmning sababini bilmay lol bo‘ladi. Balluning go‘zal bir qizi bo‘lib, u Mas‘udga oshiq edi. Barcha voqeadan xabar topgan qiz Mas‘udni qutqarib, birga saroydan qochib ketadi. Yo‘lda ko‘p mashaqqat chekkan ikki sevishgan Juna saltanatiga kelib qoladi. Xizmat yuzasidan saroyga kirgan Mas‘ud o‘zi hadya qilgan narsalarni taniydi. Juna bilan topishadi. Do‘stini yo‘qotib, hajr azobida qolgan shoh Juna bag‘oyat shodlanib, do‘stiga ko‘p iltifotlar ko‘rsatadi. Jaypur bilan Balluni jazoga tortadi.

Payshanba kuni shoh Bahromning sandal qasrda eshitgan Muqbil va Mudbil haqidagi hikoyatida ham Boxtardan Xovarga yo‘l olgan ikki yo‘lovchining sarguzashti hikoya qilinadi.

Ul ikov yo‘ldin o‘lmayin ogoh,

⁹³ Alisher Navoiy .Sab‘ai sayyor.Mukammal asarlar to‘plami .20-jildlik.-T.:Fan,1992.10-jild.168-bet

Bo'yla vodida bo'ldilar hamroh.
Ko'rdilar chunki yo'l suubatini,
Ul balo dashtining uqubatini
Ki, nechakim aning kanorasi yo'q,
Qat' qilmoqtin o'zga chorasi yo'q.
Har balo qo'ysa yuz tahammul etib,
Kirdilar dasht aro tavakkul etib.⁹⁴

Ba'zan Mudbirning axmoqona gaplaridan Muqbil ko'p ozor chekar, undan voz kechmoqni qaror qilar, ammo Mudbir unga yolvorib, tovba qilardi. Ular shu tariqa safarni davom ettiradilar. Dengiz sohilida bir kemaga o'tirishadi, to'fon sabab kema g'arq bo'ladi. Ikkisi omon qoladi, qirg'oqqa chiqib, o'rmonga duch kelishadi. Shu yerdagi bir daraxt kovagida buloq bo'lib, undan suv ichgan odam, ochiqmasligi, suvsamasligi, ammo yolg'on gapirsa, yorilib o'lishi haqida yozilgan bo'ladi. Ikki do'st suvdan to'yib ichishadi. So'ng yozuvni o'qisalar, suvga boshi bilan sho'ng'ib cho'milgan odam g'aroyib narsalarni ko'rishi, faqatgina bu suvda rostgo'y odam cho'mila olishi imkonligi yozilgan bo'ladi. Mudbir ko'p yolg'on gapirgani uchun ham suvga tusholmaydi. Muqbir suvga sho'ng'ib, bir qasrga duch keladi, undagi bir maxvashni ko'rib oshiq bo'lib qoladi. Xushiga kelgach, yo'lga tushishadi. Qirg'oqda bir kemani uchratishadi. Kema sandal daraxti yog'ochi bilan to'la bo'lib, odamlari o'lib yotardilar. Ular kemada suzib, qirg'oqqa borganlarida, Xovar shohiga duch keladilar. Mudbir o'zini savdogar, yo'ldoshi Muqbilni esa qulim deb tanishtiradi va shu zahoti yolg'on gapirganligi sababli yorilib o'ladi. Muqbir bor gapni ro'yi rost aytganligi sababli shoh uni kiyov qilishga qaror qiladi. Muqbir go'zal mashvash vasliga erishadi. Hikoyatda o'z manfaatini ustun qo'yuvchi, yolg'onchi do'stlar qoralanadi.

XULOSA

Navoiy asarlarida hamisha va har gal bugunning gapini topaverasiz-da. Sababi – u hamisha o'z zamonasining oldi fikrini aytgan. Bir zamonda dolzarb bo'lgan masala aksaran boshqa davr uchun ham ahamiyat kasb etaveradi.⁹⁵

Darhaqiqat, Alisher Navoiy hikoyatlarida keltirilgan do'st timsoli bugungi kunimiz uchun ham juda muhim masaladir. Chunki inson hayotidagi mislsiz o'zgarishlar, inson boshiga qo'nadigan baxt qushi ham do'stlik tufayli yuzaga kelishi

⁹⁴ Alisher Navoiy .Sab' ai sayyor. Mukammal asarlar to'plami .20-jildlik.-T.:Fan,1992.10-jild.217-bet

⁹⁵ Султонмурод Олим. “Навоий – ёшларга.-Тошкент,2008. 64-bet

mumkin. Do‘stlik tushunchasi har bir davrda, qolaversa bugungi kunimiz uchun ham dolzarb tushunchadir.

REFERENCES

1. Alisher Navoiy . Sab’ai sayyor. Mukammal asarlar to’plami . 20-jildlik. -T. :Fan,1992. 10-jild
2. Hasanov С. Navoiyning yetti tuhfası. -T. :Adabiyot va san’at,1991.
3. Мадаев О. Навоий суҳбатлари. -Т. :Ўқитувчи,2018.
4. Муҳиддинов М. Нурли қалблар гулшани. -Т. :Фан,2007.
5. Сирожиддинов С,Юсупова Д,Давлатов О. Навоийшунослик. -Т. :Тамаддун,2019.
6. Султонмурод Олим. “Навоий –ёшларга. -Тошкент,2008.
7. Тохир Малик, “Одамийлик мулки”. -Т. :”Шарқ“. 2014.
8. Муҳиддинов М. Қ. Хусрав Дехлавий сўз фазилати бобида. POLISH SCIENCE JOURNAL ISSUE 6 (28) PART 2 INTERNATIONAL SCIENCE JOURNAL. 97-103
9. Хасанова М. Алишер Навоийнинг «Ҳилолия» қасидасида етти сайёра тимсоли. Сўз санъати халқаро журнали, 2020 йил 2-сон, 158-164-бетлар

BOBUR ADABIY MUHITI VA UNING MANBALARI

Xoliqulova Gulsanam Yorqulovna,

Samarqand davlat universiteti doktoranti (DSc),

filologiya fanlari nomzodi

e.mail: gulsanamyorqulovna@mail.ru

ANNOTATSIYA

Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan shakllangan Hindiston turkiy adabiyoti uning avlodlari tomonidan rivojlandi, gullab-yashnadi. Maqolada Bobur va boburiylar saroyi atrofida Hindistonda shakllangan adabiy muhit, mazkur adabiy muhitning vakillari, turkiy tildagi ijodkorlar haqidagi ma'lumotlar "Boburnoma" (Bobur), "Humoyunnoma" (Gulbadanbegim), "Tarixi Rashidiy" (Mirzo Haydar), "Muzakkiri ahbob" (Hasanxoja Nisoriy), "Majolisi Jahongiriy" (Qosim Lohuriy), "Ravzat us-salotin" (Faxriy Hiraviy), «Nafoisul-maosirot» kabi adabiy-tarixiy manbalardagi ma'lumotlar asosida umumlashtirildi. Shu jarayonda mavzuga doir olib borilgan tadqiqotlarga ham munosabat bildirildi.

Kalit soʻzlar: *Adabiy muhit, Bobur adabiy muhiti, Buyuk boburiylar saltanati, Hindistondagi turkiy adabiyot, ikki tillilik, adabiy-tarixiy manbalar.*

АННОТАЦИЯ

Индийская турецкая литература, созданная Захириддином Мухаммадом Бабуром, развивалась и процветала его потомками. В статье представлена информация о литературной среде Индии вокруг Бабура и дворца Бабуридов, представителях этой литературной среды, художниках на турецком языке «Бобурнома» (Бобур), «Хумоюннома» (Гульбаданбегим), «Тарихи Рашидий» (Мирзо Хайдар), «Музаккири ахбоб» (Хасанходжа). Нисари), «Маджолиси Джахонгирий» (Касим Лохурий), «Равзат ус-салотин» (Фахрий Хирави), «Наfoisул-маосирот» и другие исторические и исторические источники. В процессе исследования были также даны комментарии.

Ключевые слова: *литературная среда, литературная среда Бабура, Великое царство Бабури, турецкая литература в Индии, двуязычие, литературно-исторические источники.*

ABSTRACT

Indian Turkish literature, created by Zahiriddin Muhammad Babur, developed and flourished by his descendants. The article provides information about the literary environment of India around Babur and the Baburid palace, representatives of this literary environment, artists in Turkish "Boburnoma" (Bobur), "Humoyunnoma"

(Gulbadanbegim), "Tarihi Rashidiy" (Mirzo Haydar), "Muzakkiri ahhob" (Hasanhoja), Nisari, "Majolisi Jakhongiriy" (Kasim Lokhuriy), "Ravzat us-salotin" (Fakhriy Khirawi), "Nafoisul-maosirot" and other historical and historical sources. Comments were also given during the research.

Key words: *literary environment, literary environment of Babur, Great Kingdom of Baburi, Turkish literature in India, bilingualism, literary and historical sources.*

KIRISH

Ma'lumki, adabiy muhit muayyan saroy atrofida ijod etgan yirik shoir va adiblar ta'sirida yuzaga keladi. Adabiy muhitning vujudga kelishi, albatta, yirik ijodkorlar faoliyati, ular yaratgan ijodiy maktablar bilan bog'liq. O'zbek adabiyoti tarixida Hirot, Toshkent, Qo'qon, Buxoro, Samarqand va Xorazm adabiy muhiti va adabiy davralari mashhurdir.

Adabiy muhit o'zbek adabiyotining Alisher Navoiydan keyingi yirik vakili Zahiriddin Muhammad Bobur nomi bilan ham bog'liq. XVI asrda Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan Hindistonda o'rnatilgan "Buyuk Boburiylar saltanati" qariyb uch asrdan ko'proq vaqt mobaynida Hindistonda har tomonlama ravnaq topgan davlat sifatida gullab yashnadi. Bobur nafaqat siyosiy arbob, shuningdek, ijodkor sifatida o'zidan katta va qimmatli meros koldirishi bilan birga, o'z atrofida ilm-fan, ijod ahlini birlashtirdi. Buning natijasida XV asrning oxiri XVI asrning birinchi choragidagi siyosiy va ijtimoiy voqealar hamda iqtisodiy tanglik girdobida bo'lgan Hindistonga Movarounnahr va Xurosondan fan, san'at va adabiyot namoyandalaridan iborat yangi bir guruh kirib keldi.

Ma'lumki, 1526 yil 27 apreldan Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonning Panipat shahri atrofida Dehli saltanati hukmdori Sulton Ibrohimni (1517—1526) yengib, Shimoliy Hindistonda o'z hukmronligini o'rnatgach, Kobulga xat yozib, u yerda qolgan barcha qarindosh-urug'lari, din peshvolari va davlat arboblari, olimu shoirlar hamda butun haram ahlini Hindistonga chaqiradi. Bu tasvir "Humoyunnoma" asarida shunday ifodalangan: "Tevarak-atrofdagi hamma viloyatlarga elchilar jo'natilib, kimda-kim agar bizga kelib mulozimat qilsa, har tomonlama ra'iyat qilamiz, agar ular ichida ota-bobolarimizga xizmat qilgan kishilar bo'lsa, katta mukofotga sazovor bo'ladilar; Sohibqiron va Chingizxon avlodidan bo'lgan har bir kishi bizning dargohimizga qaytib kelsin; Xudo bizga Hindiston mamlakatini ato qildi, kelsinlar, to bu davlatni birga so'raylik, degan qat'iy buyruq yuborildi". [4.37] Gulbadanbegimning hikoya qilishicha, Kobuldan Hindistonga tashrif buyurganlar ichida Zahiriddin Bobur xonadoniga mansub 96 ta ayol ham bo'lgan. Ularning

hammalariga turar joy va ko'ngillari tilagan in'omlar tayin qilingan. Xuddi shunday munosabat olimu shoirlar, ijodkorlarga ham loyiq topilgan.

Temuriylar saltanatining qulashi, O'zbekxonlarning saltanat tepasiga kelishi, Xuroson va Movarounnahrda ijtimoiy-siyosiy hayotdagi talato'plar, adabiy muhitning ma'lum ma'noda parokandalashuvi kabi voqealar mahalliy aholining, ayniqsa, fan, san'at ahlining ma'lum bir qismi Hindiston sari azmi qaror qilishining asosiy sabablaridan biriga aylandi. E'tiborlisi, Bobur o'z faoliyati davomida uzluksiz jang-jadallarda yurganda ham adabiy davra suhbatlari, she'rxonliklar tashkil etishi, fan, san'at, madaniyat, adabiyot vakillariga alohida e'tibor qaratishi ko'pchilikka ma'lum edi. Shunday vaziyatda Zahiriddin Muhammad Boburning yuqoridagi kabi qarori e'tiborsiz qolmadi. Turli soha vakillari qatorida ijodkorlar ham Bobur saroyiga kelib adabiy muhit vakiliga aylandi.

Zahiriddin Muhammad Bobur bu kabi siyosiy harakatlaridan tashqari, o'zining realistik tasvirga to'yingan lirik va epik asarlari bilan ham o'z davri va o'zidan keyin bir qancha ijodkorlarga adabiy ta'sir ko'rsata oldi va Hindistonda turkiy tildagi adabiyotning vujudga kelishiga tamal toshini qo'ydi. Bu adabiy muhitning rivojlanishi, gullab-yashnashi Bobur avlodlaridan Humoyun Mirzo (1530-40-1556), Akbar (1556-1605), Jahongir (Shahzoda Salim, 1605-1628), Shoh Jahon (Shahzoda Xurram, 1628-1658), Avrangzeb Olamgir (1658-1707), Muazzamshoh (Bahodirshoh I, 1707-1712), Jahondorshoh (1712-1713), Farrux Siyar (1713-1719), Muhammad Shoh (1719-1749), Ahmadshoh (1749-1754), Olamgir (1754-1759), Ali Gavhar (Shoh A'lam, 1759-1806), Akbarshoh (1806-1837), Bahodirshoh II (1837-1858) hukmronligi yillariga to'g'ri keladi.

Bobur izdoshlari qisman hind, urdu, fors-tojik, arab tillarida yaratgan asarlari qatorida turkiy tildagi asarlari bilan tarixga muhrlandi. Jumladan, Bayramxon, Xumoyun Mirzo, Hindol Mirzo, Askariy Mirzo, Komron Mirzo, Abulqosim (Komron Mirzoning o'g'li), Azfariy, Forig'iy, Diyda, Johila, Yusuf Faryobiy, Saminiy-Fahm, Manzariy Samarqandiy, Mir Mahmud Mahviy, Ulfatiy, Yazdiy, Tazarviy Abhariy, Sheroziy, Fahmiy Kazviniy, Navidiy, Siyakiy kabi shoirlar Bobur asos solgan Hindiston turkiyzabon adabiyoti vakillaridir. [Bu haqda qarang:1, 2, 3, 6, 8, 9, 11, 12, 13]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bobur adabiy muhitining shakllanishiga doir fikrlar adabiy-tarixiy manbalar asosida berildi. Bunda "Boburnoma" (Bobur), "Humoyunnoma" (Gulbadanbegim), "Tarixi Rashidiy" (Mirzo Haydar), "Muzakkiri ahbob" (Hasanxoja Nisoriy),

“Majolisi Jahongiriy” (Qosim Lohuriy), “Ravzat us-salotin” (Faxriy Hiraviy), «Nafoisul-maosirot» kabi tarixiy, tazkira asarga tayanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonda tashkil etgan adabiy muhit vakillari haqida ma’lumotlar, ularning adabiy merosi va undan namunalar bir qancha qo‘lyozmalar, tarixiy va adabiy manbalar orqali yetib kelgan. Jumladan, Boburning “Boburnoma”, Gulbadanbегinning “Humoyunnoma”, Mirzo Haydarning “Tarixi Rashidiy”, Abulfazl Allomiyning “Akbarнома”, “Oyini Akbariy” (“Akbar tuzuklari”), Ahmad Hirotiyning “Tabaqoti Akbariy”, Jahongir bin Akbar “Jahongirнома”, Qosim Lohuriyning “Majolisi Jahongiriy”, Abdulqodir Badovoniyning “Muntaxab at-tavorix”, Abdulboqi Nihavandiyning “Maosiri Rahimiy”, Mirzo Olim Mushrufning “Ansob us-salotin” kabi tarixiy asarlari, Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob”, Mutribiy Samarqandiyning “Nusxai zeboyi Jahongir”, muallifi noma’lum bo‘lgan «Nafoisul-maosirot», Faxriy Hiraviyning “Ravzat us-salotin”, Sodiq Kitobdorning “Majma’ul-xavos”, Po‘lotjon Qayumiyning “Tazkirai Qayumiy” tazkiralari mavzuga doir qimmatli ma’lumotlar va adabiy matnlarni o‘zida qamraganligi bilan ahamiyatlidir.

Hindistondagi turkiy tildagi adabiyot haqidagi ilk ma’lumotlar Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”sida uchraydi. Garchi bu asarda yuqorida tilga olingan ijodkorlarning aksariyati nomlari uchramasa-da, asarning (“Boburnoma”ning – X.G.) Hindiston tasvirigacha bo‘lgan qismida tilga olingan Mavlono Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Shayxim Suhayliy, Husayn Ali Tufayliy, Osafiy, Binoiy, Sayfiy Buxoriy, Abdulloyi, Mir Husayn Muammoiy, Mulla Muhammad Badaxshiy, Yusuf Badiiy, Ohiy, Muhammad Solih, Shoh Husayn Komiy, Hiloliy, Ahliy kabi ijodkorlar va ularning ijodi an’alarining targ‘iboti ham bu yurtda Xuroson va Movarounnahrdagi turkiy va forsiy tildagi adabiyot haqida tasavvur beradi. [5.138-139] «Boburnoma»ning 1525-1526 yillar voqealari tafsiloti berilgan qismlari hamda undan keyingi saahifalarida ham tab’i nazmi bo‘lgan yana bir qator shohu shahzodalar, amaldorlar, turli ijtimoiy tabaqadan yetishib chiqqan shoirlar nomi eslatiladi, ular faoliyatiga doir ayrim ishoralar yo‘l-yo‘lakay bo‘lsa-da, o‘rtaga tashlanadi. Xususan, Shayx Abul Vajd⁹⁶[3.63], Shayx Zayn, Mullo Alixon, Turdibek, Xoksor, Bayramxon, Mirzoxon (Bayramxonning o‘g‘li), Xavofiy, Forig‘iy, Faqiriy, Mavlono Yusufi Tabib, Surx Vadoiy, «Maxzan ul-asror» vaznida masnaviy aytgan Mullo Baqoiy kabi turkiy va forsiyda ijod qiluvchi shoir va yozuvchilarning zikr

⁹⁶ Айрим адабиётларда Шайх Абдул Воҳид.

qilishi yoki Boburning Xo‘ja Kalon bilan turkiy va forsiydagi yozishmalari, shuningdek, o‘g‘illari Humoyun, Komron, Hindolga o‘zining ba‘zi tarjimalari, maktub hamda she‘rlarini yuborib turganligi ayni adabiy muhitning shakllanish kurtaklarini ko‘rsatadi.[5.185; 9. 100-101]

Manbalar ichida Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri ahhob” va Muhammad Haydar Mirzoning “Tarixi Rashidiy” asarlari Bobur va uning adabiy izdoshlari tasvirining mufasalligi bilan ajralib turadi. Jumladan, Hasanxoja Nisoriyning 1566 yilda yozilgan “Muzakkiri ahhob” tazkirasida Zahiriddin Muhammad Bobur, Humoyun Mirzo, Bayramxon, Komron Mirzo, Xoja Kalonbek kabi turkiy va forsiy tilda ijod etgan shoirlar va ularning hind diyori bilan bog‘liq faoliyati, ijod namunalari parchalar keltirilgan.

Shuningdek, tazkirada Mirzo Askariy, Hindol Mirzo, Mirzo Abdulqosim ibn Komron, Nizomiddin Abulbaqo Hindiy, Shayx Boyazid Puroniy, Mavlono Shahobiddin Muammaoiy, Mavlono Fozil Andijoniy, Mavlono Vosifiy, Shayx Zaynuddin, Alibek, Mahram Ko‘ka, Hamdam Ko‘ka, Xojazodai Kobiliy, Mavlono Mahramiy, Amir Muzaffar Turkman, Novidiy Nishoburiy, Mavlono Jomiy Yatimbon, Xoja Yarko, Shayx Muhammad Tohir, Xoja Husayn Marviy, Qosim Arslon, Sahmiy, Qosim Koxiy, Mavlono Zarifiy kabi Markaziy Osiyoning turli viloyatlaridan, ayniqsa, Xuroson va Movarounnahrda Hindistonga, umuman, boburiylar huzuriga borgan ijodkorlar ham tilga olingan va forsiy tildagi she‘riyatidan parchalar berilgan.[14] Lekin asarda bu ijodkorlarning turkiy tilda ijodi haqida ma‘lumot kuzatilmaydi. Shunday bo‘lsa-da, mazkur ijodkorlar Bobur va boburiylar atrofida birlashganlar hamda shu adabiy muhitning vakillari sifatida tarixda qolganlar.

Muhammad Haydar Mirzoning “Tarixi Rashidiy” asarida ham Zahiriddin Muhammad Bobur haqida ishonarli ma‘lumotlar berilgan. Muallif Boburning xarakteri, fazilatlarini, maqtovgaga loyiq jihatlari, ijodkorlik qobiliyati, adabiy merosi, tarjimonligi haqida gapirar ekan shunday yozadi: «U turli go‘zal fazilatlar, maqtovgaga loyiq sifatlarga ega podshoh edi. Barcha sifatlari ichidashijoat va muruvvatpeshaligi ustun kelardi. Turkiy she‘riyatda Mir Alisherdan keyin hech kim uningchalik ko‘p yozmagan. U turkiyda ajoyib totli devon tartib bergan. “Mubayyin” nomli she‘riy asar yaratgan – juda foydali kitob bo‘lib, odamlar uni fiqh dasturamali sifatida qabul qilishgan. U “Turkiy aruzni yozganki, bunday yetuk asarni – turkiy aruzni ungacha hech kim bitmagan. Hazrat Eshon (Xoja Ubaydulloh)ning “Risolai Volidiya” asarini nazmiy tarjima qilgan.

Uning “Vaqoe” (“Boburnoma”) nomida turkiy tildagi tarixiy asari borki, u juda ainq, tushunarli, shirali, sof jonli tilda bitilgan. Undan ayrim parchalar mazkur

“Tarix”da ham keltiriladi. Musiqiy va boshqa san’atlarda uning xonadonida ungacha bunday iqtidorli kishi bo‘lmagan”. [7. 250] Ushbu parchalardan ma’lum bo‘ladiki, Bobur shijoatli, muruvvatpesha inson bo‘lgan. Shoir, adabiyotshunos, tarjimon, fiqh bilimdoni, o‘zbek nasrining noyob va go‘zal namunasi bo‘lgan “Boburnoma”dek asarning muallifidir. E’tiborlisi shundaki, Muhammad Haydir Mirzo o‘z asarini yaratishda Boburning “Boburnoma”sidan bevosita o‘rni bilan foydalangan. Bu esa Muhammad Haydar mirzoning Bobur adabiy merosiga izdoshlik asosida yondashganligini ko‘rsatadi.

Boburiylar davri madaniyatiga oid qimmatli ma’lumotlarni qamragan yozma yodgorliklardan biri Abdusattor bin Qosim Lohuriyning 1612 yili Agra shahrida yozgan “Majolisi Jahongiriy” nomli asari. [Qarang: 2] Asarda Hindistonning o‘sha paytlardagi Yevropa va Movarounnahr davlatlari bilan siyosiy-diplomatik hamda madaniy aloqalari borasidagi ma’lumotlar havola etilgani holda, saroy muhitida turkiy (o‘zbek) tiliga alohida e’tibor qaratilganligiga ham urg‘u berilgan. Bu haqda adabiyotshunos Ismoil Bekjon shunday yozadi: “Chindan ham, o‘z tug‘ilgan vatani va ona tili mavqeini davlat, madaniy hayot maqomida tutgan Bobur vafotidan so‘ng Afg‘oniston, Hindiston kabi o‘lkalarda tug‘ilib o‘sgan keyingi boburiylar avlodida bu xislatlarning paydo bo‘lish jarayonini, bir tomondan, temuriylar sulolasining tarixiy shuhrati tufayli deb tushunib, ikkinchi jihatdan, bu holatni “Boburnoma”ning tarbiyaviy ahamiyati bilan bog‘lasak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz”. [2] Olim o‘z fikrlarini davom ettirar ekan, Jahongir bin Akbar “Jahongirnomi” asarida Kobulga ziyorat uchun borgani xotiralarini bayon etish asnosida Jahongirning katta bobosi Bobur podshoh tomonidan o‘z xati bilan ko‘chirilgan “Vaqoe” sini o‘qib chiqqanini, Hindistonda tug‘ilib-ulg‘ayganiga qaramasdan, turkiycha so‘zlashish va yozishdan benasib emasligini ta’kidlagan, saroyda turkiy tilni o‘qituvchi muallimlar haqida ham ma’lumot bergan. Ko‘rinadiki, Hindiston turkiy adabiyotining saroy atrofida rivoj topishida boburiy hukmdorlarning xizmati beqiyos bo‘lgan.

Manbalardan yana biri «Nafoisul-maosirot» nomli tazkira. Bu asar biz uchun yana shu bilan ham qimmatli, unda Hindistonga safar qilgan hamda u yerda turg‘un bo‘lib qolgan ko‘pgina mashhur o‘rtaosiyolik shoir va mutafakkirlar, jumladan, Bazmiy, Manzariy Samarqandiy, Judoiy Termiziy, Sahmiy Buxoriy, Mavlono Baqoiy Buxoriy, Badi’i Samarqandiy, Mushfiqiy, Nixoniy va boshqalar haqida ma’lumot va axborot yozib qoldirilgan. [8.50-51] «Nafoisul-maosirot» 1904 yili Xorazmda yetuk olim Mulla Sayyid Abdullo bin Avazxo‘ja Eshon tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Asarning tarjimasini Abu Rayhon Beruniy nomidagi O‘zFASHI xazinasida (inv.№810) saqlanadi.

Yana bir manba Faxriy Hiraviyning “Ravzat us-salotin” asaridir. Yetti bobdan iborat ushbu tazkiraning “She’rga mayl kursatgan va (she’r) aytgan Samarkand va Xurosonning Amir Temur Kuragon avlodidan bo‘lgan sultonlari zikrida” nomli uchinchi bobida Zahiriddin Muhammad Bobur podshoh va uning avlodlari, yaqinlaridan Muhammad Nosir Mirzo, Muhammad Humoyun podshoh, Komron Mirzo, Muhammad Askariy Mirzo, Muhammad Hindol Mirzo, Mirzo Haydar kabilar haqida qimmatli ma’lumotlar berilgan.[10. 68-75] Lekin ushbu ijodkorlardan Zahiriddin Muhammad Bobur va Komron Mirzoning turkiyda ijod etganligi qayd etilgan, xolos. Jumladan, Zahiriddin Muhammad Bobur “... turkiy va forsiy ash’orda va aruz va qofiyada yuksak mahorati bor edi... Forsiyda ham ravon va aniq ayta olardi. Ammo turkiy she’riyatga moyilroq edi” [10. 68] deya ta’riflanib, ijodidan bir bayt keltirilsa, Komron Mirzoga “... so‘z iqlimida tab’ va dulpazir nazm javohirida turk va tojikning xusravidir” [10.71] deb baho beriladi. Lekin uning turkiy she’riyatidan namunalar keltirilmagan.

XULOSA

Boburning serqirra ijodi va uning davridagi saroy adabiy muhiti ko‘pgina safdosh va yosh qalamkashlarni ilhomlantirib, Hindiston turkiyzabon adabiyotining ravnaqi uchun mustahkam asos yaratdi. Boburning ijodiy va siyosiy faoliyatining eng muhim jihati shundaki, shoh Bobur umrining so‘nggi yillaridagi orzusi – butun Hindistonni yagona kuch ostida birlashtirishga ulgurmagan bo‘lsa ham, ammo shoir Bobur o‘z xalqi adabiyotini osmono‘par Himolay tog‘laridan olib o‘tib, uning badiiyatini Hindistonda kengaytirish sharafiga muyassar bo‘ldi. Turkiygo‘y shoirlarning aksariyati o‘z tillari qatori ayni vaqtda forsiyda ham qalam surganlar.

REFERENCES

1. Азимджанова С. Индийский диван Бабур. – Т.: «Фан», 1966.
2. Бекжон И. Бобурийлар маданиятига оид манба. // «Ўзбекистон адабиёти ва санъати» газетаси, 2013 йил 23-сон.
3. Воҳидов Р. Биз билган ва билмаган Бобур. Адабий ўйлар. –Т.: “Маънавият”, 2008. – Б.120.
4. Гулбаданбегим Заҳириддин Бобур қизи. Ҳумоюннома. //Форс тилидан С.Азимжонова тарж.- Т.: “Маънавият”, 1998. – Б.104.
5. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. “Шарқ”, -Т.: 2002. – Б.336.
2. Solfege the melody of the piece while playing the piano.

3. Singing one of the voices of 2, 3 or 4 voice texture, with simultaneous performance of the rest, on the piano.

4. Singing entirely from the beginning to the end of the main themes, motifs of the work.

5. Vocal performance of melodic phrases alternating with piano performance.

6. Singing the whole from beginning to end of the main themes, motifs of the work.

Musical hearing in its manifestation in relation to timbre and dynamics is called timbre - dynamic.

The timbre is the dynamic hearing of the student, his auditory imagination depends largely on the teacher. A variety of effects create huge dynamic possibilities

of the piano, a wide range, the presence of a pedal. On the piano, you can imitate any sound, imitate any musical instrument.

A.G.Rubinshtein said: "You think a piano is one instrument, and that's a hundred instruments."

The remarks given by the composer indicate the correct reproduction of sound, aimed at its quality and beauty.

The methods of timbre - dynamic work should include:

1. Detailed identification of timbre -dynamic gradations in the text.
2. Work on shades, with the search for the finest nuances in the game and in the harmony of sounds.

3. Search for artistic and pictorial designs and ideas of the composer.

A special ability to represent and experience music without relying on external sound is inner hearing.

The methods of developing internal hearing include:

1. Hearing the subsequent unfolding of the music during the slow performance of the piece.

2. Playing the instrument keyboard without sound.

3. Reading the musical text when listening to a piece of music.

4. Reading the musical text with your eyes (to yourself).

5. Clear and clear auditory representations form the selection of music by ear, as a special type of piano activity.

The most important and difficult task of music pedagogy is the formation of a sense of rhythm. The most important component is a sense of the ratio of durations, orientation in rhythmic structures. Without the basics of rhythmic literacy, a musician cannot continue to move along the ascending line of professional development.

CONCLUSION

Thus, to engage in musical activity requires a set of abilities aimed at emotional responsiveness and experiencing the content of a musical work. In this direction, the role of a teacher is huge, who will be able to solve educational, educational and developmental tasks in a complex.

REFERENCES

1. Malinovskaya A. Piano - performing intonation. M. 1990
2. Teplov B.M. "Psychology of musical abilities" - M., 1978.
3. Theory and methodology of teaching piano playing M., VLADOS., 2001
4. Shchapov A.P. "Piano lesson in music school and college" - K., 2001

DEVELOPMENT OF LANGUAGE COMPETENCES IN HIGHER EDUCATION STUDENTS

Shaxnoza Nazarovna Saidrasulova

Senior teacher at the Department of English

Journalism and mass communications university, Uzbekistan

ANNOTATION

This article analyzes the formation of linguistic competence in foreign language teaching in higher education institutions and its stages of gradual development as a necessity. The importance of lexical skills in the context of interdisciplinary relations as an integral part of the lexical competence of a foreign language is emphasized, their specificity and conditions of formation are described, based on the advantage of structured lexical competencies of a foreign language on an interdisciplinary basis. This involves taking into account the linguistic characteristics of the students as well as the educational and cognitive activities.

Key words: *linguistic competence, speech situation, lexical skills, vocabulary, dynamic unity, professional process.*

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется формирование языковой компетенции при обучении иностранному языку в высших учебных заведениях и этапы его постепенного развития как необходимости. Подчеркивается важность лексических умений в контексте междисциплинарных отношений как неотъемлемой части лексической компетенции иностранного языка, описывается их специфика и условия формирования, исходя из преимущества структурированных лексических компетенций иностранного языка на междисциплинарном уровне. При этом учитываются лингвистические особенности учащихся, а также учебная и познавательная деятельность.

Ключевые слова: *языковая компетенция, речевая ситуация, лексические навыки, лексика, динамическое единство, профессиональный процесс.*

INTRODUCTION

It is known that the modern concept of higher education implies the organization of educational culture based on a set of basic competencies of a general cultural and professional nature and necessary in the relevant areas of activity. The tasks facing students in modern conditions are formed on the basis of professional vocabulary as

mastering all types of speech activities, as well as mastering professional communication skills.

Foreign language lexical competence is the linguistic basis of professional and communicative competence. They can be considered as a dynamic unit: lexical competence is formed in the process of students' communicative activity and improves with the development of lexical competence, i.e. their formation is interrelated.

Professional linguistic competence is a holistic concept that represents the ability of students to apply relevant vocabulary, skills and competencies formed on its basis, knowledge speech experience in different situations related to their future professional activity.

RESEARCH METHODS

The main purpose of teaching a foreign language at all stages of education in the Republic of Uzbekistan is the formation of communicative competence in students. Communicative competence is the ability to apply the knowledge, skills and competencies acquired in a foreign language in the process of communication.

Given the natural integration of lexical competence into the linguistic component of this article, we will focus on the knowledge, skills, and competencies needed to understand a foreign language participant in dialogue and create a unique model of speech behavior. To do this, the basic concepts of linguistics (methods, types, methods of linking sentences in the text, etc.) must be properly analyzed, analyzing the text and knowing the skills and communication skills, ie oral communication in relation to different areas and situations of communication skills need to be formed gradually. Communicative competence is the ability to exercise linguistic competence in different contexts of speech interaction, taking into account social behavioral norms and the communicative expediency of expression. A leading component in the process of forming communicative competence are speech (communication) skills and abilities, which in turn include expression and skills in all types of speech activities.

Linguistics is a set of words and combinations of lexical units that are functionally similar to them. The second is that things, events, words capable of naming their characters, stable expressions, or other linguistic units, so the concepts of "lexical unit" and "word" are synonyms, and here they are interchangeable. Specialty literature serves as the basis for a professional dictionary, and we teach students about the acquisition of a particular vocabulary in a professional field, in the field of their specialization, a vocabulary consisting mainly of terms we can talk.

In the context of this article, it is important to explain the concept of “terminological dictionary”, which, as a rule, has a single meaning and is applied in the field of professional activity, giving clear concepts regardless of the context.

Against the background of definitions and emphasis on the lexical component of the linguistic basis of communicative competence, it is necessary to distinguish between the concepts of "linguistic competence" and "linguistic competence" semantically, taking into account their interrelationship .

In the traditional interpretation, the essence of linguistic competence is a set of known elements that are interrelated. Language competence is defined as a set of knowledge, skills and competencies implemented in the process of activity (communication), the ability to change information in accordance with personal communication tasks, a set of rules for language analysis and synthesis. Sentence construction and analysis are units that allow the use of the language system for communication purposes.

In contrast to language competence, lexical competence is the acquisition of lexical knowledge, skills, and competencies that determine students' ability to find the contextual meaning of a word, compare its meaning in two languages, and use the word in the appropriate context. In other words, it is the organization and interdependence of learners 'vocabulary acquisition efforts with lexical units; it is to know the meaning of a lexical unit, its graphic structure and pronunciation, the grammatical forms of a word, and the rules of association with other lexical units.

Despite the definitions presented, the concept of “lexical competence” was incomplete, if it only covered lexical knowledge and skills, so lexical competence as a complex, structural formation would affect students 'linguistic, speech experience, and personal quality. also includes.

In the formation of foreign language linguistic competence, some researchers (A.E.Sizemina, A.N.Shamov) have conditionally distinguished several levels, based on which the process of forming the ability of students to solve communicative problems related to the practical use of a foreign language dictionary speech activities are used based on the knowledge, skills and abilities acquired.

RESULT AND DISCUSSION

Linguistic competence is the ability to use knowledge and vocabulary consisting of lexical and grammatical elements of language. In the process of forming lexical competence in a foreign language in a non-linguistic university, attention is paid to interdisciplinary relations as a condition for the effectiveness of the formation of relevant competence, which implies professionalization of teaching in the sense of

reflecting teaching. The specific features of the university or faculty within it. Given the factor of interdisciplinary communication, students' professional lexical competence in a foreign language is a set of knowledge, skills and competencies formed in the learning process as the ability to use active vocabulary independently in the interaction of oral speech. Previous mental activity (mnemonic work outcomes) expressed in the presence of knowledge and skills in certain disciplinary aspects that contribute to the formation of stable verbal-semantic connections as a result of associative-mental activity in the temporal aspect.

A foreign language professional linguistic competence can be defined as a resource quality that provides a special type of organization of students' knowledge and experience in the interpretation of certain knowledge acquired by the subject of educational activity. In the consistent formation of professional communicative competence in the profession-oriented intelligence, in the ability to engage and interconnect professional linguistic knowledge, in the process of interaction of oral speech is relevant to the implementation of the filling of oral structures ability and the ability to apply it. In this regard, as a conditional factor of relevant influence in the context of interdisciplinary relations, it is necessary to emphasize the quality of the full basis of linguistic skills and competencies as an integral part of the linguistic competence of foreign languages. It is interdisciplinary as an important feature and superior feature of relevant skills and competencies.

The complex scientific quality of lexical skills is based on the transfer of semantic associations to the conditions of this learning and cognitive activity, which is present in both speech and cognitive experience of students, and is a characteristic feature of lexical skills formed on an interdisciplinary basis. As a complex feature, it is effective in strengthening features such as lexical skills such as awareness, which means that there is a hidden rule in the minds of students and stability in fulfilling the ability to apply this rule in a difficult situation. Necessary speech practices, which are determined by the strength of lexical connections, are performed as complex process structures that underlie speech-thinking activity and perform psychophysiological interventions on verbal stimuli (linguistic units). Formation of such skills are the use of the mechanism of similarity and comparison, involuntary memorization, the regularity of the pattern falling on the brain of students, the complexity of mastering (combination of auditory, visual and motor images) meaningful imitation.

Formation of professional lexical competence of a foreign language is one of the important directions of improving the quality of language preparation of students. In order for university students who are non-philological to achieve a high level of

formation of lexical competence, it seems necessary to work to ensure the sequence of appropriate stages of its formation in the learning process and the organization of mastery. On the basis of interdisciplinary connections applied taking into account linguistic features, the linguistic material of the lexical material is also reflected in the knowledge, speech-thinking and educational activities of students .

Performing a nominative function and providing speech with meaningful material, vocabulary seems to be a unique phenomenon in terms of the range of functions it performs. Mastering vocabulary richness helps students develop a linguistic worldview. The meaning of lexical unity reveals the culture of another country, its history and the peculiarities of life. Therefore, the communicative activity-oriented approach has educational, general and communicative features and helps to increase the cognitive activity in the learning process.

CONCLUSION

Achieving a high level of development of linguistic competence is manifested in the ease with which a person can use direct lexical resources in direct and indirect communication, adequate use of phraseological expressions, proverbs, words specific to the speech of native speakers. Vitol A.B wrote, "... just as you cannot build a house without bricks, you cannot master a language without mastering the required number of words." The content is that the learning competence is a set of competencies for the study of foreign languages and cultures in the independent learning activities of the learner, the logical, methodological and general aspects associated with the use of modern educational technologies. 'lim includes tasks. Foreign language teaching is based on didactic, methodological, linguistic principles and the use of modern educational technologies.

The existence of special tasks in all forms of international examinations aimed at assessing the ability to use vocabulary in different types of speech activities also indicates the recognition of the special importance of lexical material mastery. This will help students establish a new vocabulary, ideas about the sound and graphic representation of a particular lexical unit, and the connections between a word in a foreign language and its meaning.

REFERENCES

1. Abdalina Ye.N. English textbook for students of non-philological universities T :. 1996 y
2. Daniyarov.B Issues of formation of basic competencies in teaching subjects in general secondary education 2016 y.

3. Daniyarov B.X. Improving the quality and efficiency of educational processes based on innovative technologies. Monograph. - T .: Sano-standart, 2014y.
4. Rapoport I.A., Sotter I. Foreign Languages in School, 1977y.
5. Ismoilov A.A., Sattarov TD .. Jalolov J.J., Ibragimxujayev. Educational-methodical complex from the practical course of English // For Threshold for teaching English in a foreign language in the non-philological direction and English in a foreign language in the philological direction. T .: UzSWLU. 2011 y.
6. Ishmukhamedov R. Ways to develop education to develop the innovation system. T. 2005 y.
7. Muxitdinova G.Sh. For higher education institutions // English textbook. T .: Uzbekistan. 1997 y.
8. Cherevko Yu.A. Philological sciences. Theory and practice questions, 2010.
9. Sizemina A.Ye. Techniques for developing students' linguistic competence based on the formation of student motivation.
10. Kand. Dis .: N. Novgorod, 2009y.
11. Starodubtseva O.G. As a linguistic basis of professional and communicative competence of university students. Siberian State Medical University, Tomsk 1997

HENRI LONGFELLONING “HAYAVATA HAQIDA QO‘SHIQ” SHE’RIY DOSTONI VA UNING TARIXIY - MADANIY ASOSLARI

Elova Umida Ro‘zimurodovna

JizPI “Xorijiy tillar kafedrası” assistenti

ANNOTATSIYA

“Hayavata haqida qo‘shiq” she‘riy dostoni “tarixiy va etnografik jihatdan qadimgi hindularning va ularning yo‘lboshchisi bo‘lmish, Hayavata haqidadir. Butun bir poemada Hayavata obrazi tufayli qadimgi hindularning hayot tarzi, ularning urf-odatları, turmushi va dunyo qarashi to‘g‘ri yoritiladi va haqiqiy Amerika hindularining mashaqqatli o‘tmishi dostonida o‘z aksini topadi.

Kalit so‘zlar: *Hayavata, tabiat hodisalari, onondaglar, irokezlar ittifoqi, mifologiya, Etnografik material, kalevala.*

АННОТАЦИЯ

Поэма «Песня о Хаявате» исторически и этнографически посвящена древним индусам и их вождю Хаявате. На протяжении всего стихотворения образ Хаявата точно передает образ жизни, обычаи, быт и мировоззрение древних индейцев, а в эпосе отражено трагическое прошлое истинных американских индейцев.

Ключевые слова: *Хаявата, явления природы, онондаги, союз ирокезов, мифология, этнографический материал, калевала.*

ABSTRACT

The poem "Song of Hayavata" is historically and ethnographically about Hayavata, the ancient Hindus and their leader. Throughout the poem, the image of Hayavata accurately portrays the way of life, customs, life, and worldview of the ancient Indians, and the tragic past of the true American Indians is reflected in the epic.

Keywords: *Hayavata, natural phenomena, onondags, iroquois union, mythology, ethnographic material, kalevala.*

KIRISH

Longfello poemasi haqida yana bir qiziqarli tadqiqot 1916 yili chiqdi – bu taniqli etnograf V.I.Yoxelsonning “Hayavata haqida qo‘shiq”ning alohida nashriga yozgan so‘zboshisi (Yoxelson 1916: 5). U mazkur so‘zboshisida Longfello ishlatgan manbalar – tarixiy, etnografik va materiallarni tahlil qiladi. Shu bilan birga, V. Svyatlovskiy ishidagi kabi, so‘zboshida Shimoliy Amerika qabilalari tarixi yoritiladi, irokezlar Ittifoqini tuzishda onondaglar yo‘lboshchisi Hayavataning o‘rni ko‘rsatib

beriladi. Yoxelson ulkan va qimmatli etnografik hamda tarixiy materiallarni keltiradi, poemaning badiiy-etnografik tahlilini beradi.

Shuningdek, tadqiqot muallifi Amerika hindu qabilalari mifologiyasiga murojaat qiladi, xususan, Hayavata, Manabozo va Tarongayovagon bilan bog‘liq rivoyatlarga e‘tibor qaratadi. Yoxelson irokez mifologiyasining mufassal ta‘rif-tavsifini va tasnifini beradi, undagi uch koinot bosqichini yoki mifologik asrni ajratib ko‘rsatadi. So‘z boshida olim Longfello ijod qilgan paytda hindular haqida haqiqiy ilmiy tadqiqotlar bo‘lmaganini afsus bilan qayd etadi.

Agar muallif asari yaratilgandan so‘ng paydo bo‘lgan qimmatli maqolalar va tadqiqotlardan foydalanganida Longfello poemasi butunlay boshqacha jaranglangan bo‘lardi, deb hisoblaydi Yoxelson: “Irokezlarning oilaviy-ijtimoiy munosabatlarining ajoyib o‘ziga xosliklari, voizlarining ta‘sirchan nutqlari, ular saxemlarining diplomatik san‘atlari, mag‘lublarga ularning yo‘lboshchilari ko‘rsatgan ezgu munosabatlari va Irokezlar Ittifoqi asosida yotgan umuminsoniy olam ideali shoir uchun qandayin ajoyib mavzuni taqdim etgan bo‘lardi. Zero, Longfello poemasining asosiy jozibasi, uning kitobxonga yetkazgan oddiy turmush, sof tabiat va hayotni sog‘lom his etishning jozibali tasvirlanganidadir” [Yoxelson 1916: 16].

Yoxelson fikr-mulohazalarini xulosalab, “Hayavata” muallifi foydalangan algonkin afsonalari va rivoyatlari hamda algonkin mifologiyasining motivlari yoki epizodlari – aynan hindularniki, deydi. Muallif fikricha, “Kalevala” “Qo‘shiq”ning poetik shakligagina biroz ta‘sirini o‘tkazgan, xolos.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Longfello oq tanlilar bilan hindularning “birodarligi” lavhalarini bitayotganida uning yana bir mo‘ljali bo‘lgan. XIX asr o‘rtalarida asl milliy amerika adabiyoti shakllangan. Longfello “Hayavata haqida qo‘shiq”ni milliy epos yaratish yo‘lidagi ilk qadam sifatida ko‘zda tutgan. Uning teran poetik va ertaknamo fantastik obrazi yuz yildan ziyod vaqtdirki butun dunyo kitobxonlari qalbini hayajonga solib keladi.

“Latif ehtiros va g‘am o‘g‘li” Hayavata yulduz – Venonaning qizi va makkor g‘arb shamoli Mejekivisdan tug‘ilgan. U mislsiz kuch-qudratga ega, qoyalarni qulatishi, “toshlarni qumday ezib-ushatib” tashlay oladi, uning sehrliligi mokasinalari (Shimoliy Amerika tubjoy aholisining yumshoq xom teridan tikilgan poyafzali) bor, ularda Hayavata har odimlaganda bir necha chaqirimni bosib o‘tadi”. Shu bilan birga, u g‘aroyib iste‘dodga ham ega: “borki parrandalar tilini o‘rgangan”, “borki hayvonlar tilini biladi”.

Longfello xalq eposiga xos an‘anaviy badiiy usullarga qat‘iy rioya qiladi: Hayavata tevaragidagi hamma narsa – shamollar, bulutlar, qushlar, hayvonlar, o‘t-

o‘lanlar jonli, odam qiyofasiga kirgan. Mans oltin tusli qo‘ng‘iroqsoch o‘smir sifatida gavdalantirilgan, u bilan Hayavata kurashadi va g‘olib bo‘ladi. Piroglarni (hindularning uzun tor qayig‘i) yasash jarayoni ertaknamo jozibali: Hayavata yosh oqqayindan – pustloq, mustahkam gujumdan – ustun va tomirlar, qarag‘aydan – qatron, jayradan – sixlar so‘raydi, ularni o‘t-o‘lanlar va danaklar sharbati bilan tiniq qilib bo‘yaydi va yarqiragan tus beradi. Inson mehnatining boshqa turlari: ekish va ekinni parvarishlash, baliq ovlash, ovchilik jozibali tarzda tasvirlangan. Hayavata-yarimxudo o‘z xalqiga bilim va san‘at quvonchini yetkazadi. U hindularni boshhoqli g‘alla o‘simliklariga, teriga ishlov berishga, qayiqlar yasashga, o‘tloqdan yovvoy guruch terib olishga, bayramlar uyushtirishga, qo‘shiq va raqslardan rohatlanishga, o‘g‘rilar va dushmanlardan saqlanish uchun duo qilishga, ajdodlarni xotirlab turishga o‘rgatadi. Shuningdek, u yozuv va rasm chizish san‘atining yaratuvchisi, birinchi davolovchi tabibdir.

Hayavataning o‘z otasi Mejekivis bilan jangi tasvirlangan epik sahna (epos uchun an‘anaviy urush manzaralari aks etgan sahna) teran matnosti mazmuniga ega: faqat odamgina tabiat kuchlarini jilovlashga va ularni o‘ziga xizmat qildirishga qodir.

Biroq Hayavata tabiat kuchlari bilan jonbozlik ko‘rsatib jang qiladi: u yovuz sehrigar – boylik Ruhini yengadi va afsungarning xazinasini xalqqa tarqatadi. Poemaga boshqa bir ijtimoiy motiv ham shiddat bilan kirib keladi: Hayavata hindularni oshiq o‘ynashga o‘rgatgan makkor Po-Pok-Kivisni ta‘qib qiladi. Badkor suv qunduziga, yovvoyi g‘ozga, qirg‘iyga aylanadi – u, odamga xos illatlardek, turfa qiyofali; uni yengish uchun Hayavatadan aql, qunt, sabr-bardosh talab etiladi. Bu fantastik poemaga muallif endi tamoman real ko‘rgulikni – ochlikni olib kiradi! Ochlik go‘zal ma‘suma Minnegagni – Hayavataning xotini olib ketadi.

Poema mavzulari ko‘lamiga ko‘ra keng – ushbu poetik kinoyaviy-istiotali asarda inson hayotidagi asosiy jihatlar: tug‘ilish va o‘lim, xursandchilik va mehnat, muhabbat, ijod, do‘stlik, dushmanlar bilan janglar gavdalantirilgan. Muallif didaktizmi bu o‘rinda shunchaki ochiq-oshkora pand-nasihatdan xoli. G‘aroyib afsonalar gulchambarini yaratib, tasvirlab, shoir pirovard natijada o‘quvchini dushmanlik va urushlardan xoli, oqilona va go‘zal hayot qurishga o‘rgatadi.

Mazmuni:

Whence these Legends and traditions with
the odours of the forrest,
With the dew and damp of meadows, With
the curling smoke of Wigwams.
[H.W.Longfello]

...O‘rmonlarning xush islarin,
Vodiylarning shabnamlarin,
Chaylarning ko‘k tutunin
Daryolarning shovvalarining...
[A.Abdurazzoq]

Poemada hayot Hoqoni Manito toshdan Tinchlik Trubkasini yo‘nib yasab, “barcha xalqlarni maslahatga” chorlaydi:

Mazmuni:

On the great red pipe- stone quarry,
Gitche Manito, the mighty,
Stood erect, and called the nation,
Called the tribes of men together.

[H.W.Longfello]

Barcha xalqni yaratgani,
Qodir Gitchi- haq Manito
Kelganlarga boqdi hamdard,
Shavqat bilan, mehr bilan.

[A.Abdurazzoq]

Shuni ta’kidlash joizki, olim va adabiyotchi, nozik poetik did egasi bo‘lgan Longfello tipik afsonalar, miflar va rivoyatlarni saralab, ular asosida bir necha hindu elatlari hayotining haqqoniy manzaralarini yaratgan eng yaxshi asarlaridan biri ana shunday ezgu g‘oya bilan nihoyalanaadi. Hindular tilining metaforaga boyligi, poetik mubolag‘alar, ko‘tarinki ruhdagi nasihatlar kinoyalar, qiyoslarning serhashamligi – bular barchasi o‘quvchiga teran va tiniq qoniqlik bag‘ishlaydi. Bu poemaning I.A.Bunin amalga oshirgan rus tiliga mukammal tarjimasida mumtoz asarning ruhi va uslubi to‘la saqlangan. Shuningdek, uni ruscha tarjima matnidan o‘zbekchaga o‘g‘irgan shoir Aziz Abdurazzoq ham asar mazmuni va shaklini tilimizda qayta yaratgan va dostonning poetik jihatlarini maksimal darajada saqlashga erishgan.

Hayavata “tarixiy va etnografik jihatdan mutlaqo ishonchsiz” poetiklashtirilgan, degan fikrini ma’qullash mushkul. Butun bir poemada Hayavata obrazi tufayli qadimgi hindularning hayot tarzi, ularning urf-odatlarini, turmushi va dunyo qarashi to‘g‘ri yoritiladi.

Longfello poemasi haqida yana bir qiziqarli tadqiqot 1916 yili chiqdi – bu taniqli etnograf V.I.Yoxelsonning “Hayavata haqida qo‘shiq”ning alohida nashriga yozgan so‘zboshisi [Yoxelson 1916: 5]. U mazkur so‘zboshisida Longfello ishlatgan manbalar – tarixiy, etnografik va materiallarni tahlil qiladi. Shu bilan birga, V. Svyatlovskiy ishida kabi, so‘zboshida Shimoliy Amerika qabilalari tarixi yoritiladi, irokezlar Ittifoqini tuzishda onondaglar yo‘lboshchisi Hayavataning o‘rni ko‘rsatib beriladi. Yoxelson ulkan va qimmatli etnografik hamda tarixiy materiallarni keltiradi, poemaning badiiy-etnografik tahlilini beradi.

Shuningdek, tadqiqot muallifi Amerika hindu qabilalari mifologiyasiga murojaat qiladi, xususan, Hayavata, Manabozo va Tarongayovagon bilan bog‘liq rivoyatlarga e’tibor qaratadi. Yoxelson irokez mifologiyasining mufassal ta’rif-tavsifini va tasnifini beradi, undagi uch koinot bosqichini yoki mifologik asrni ajratib ko‘rsatadi. So‘zboshida olim Longfello ijod qilgan paytda hindular haqida haqiqiy ilmiy tadqiqotlar bo‘lmaganini afsus bilan qayd etadi.

XULOSA

Agar muallif asari yaratilgandan soʻng paydo boʻlgan qimmatli maqolalar va tadqiqotlardan foydalanganida Longfello poemasi butunlay boshqacha jaranglagan boʻlardi, deb hisoblaydi Yoxelson: “Irokezlarning oilaviy-ijtimoiy munosabatlarining ajoyib oʻziga xosliklari, voizlarining taʼsirchan nutqlari, ular saxemlarining diplomatik sanʼatlari, magʻlublarga ularning yoʻlboshchilari koʻrsatgan ezgu munosabatlari va Irokezlar Ittifoqi asosida yotgan umuminsoniy olam ideali shoir uchun qandayin ajoyib mavzuni taqdim etgan boʻlardi. Zero, Longfello poemasining asosiy jozibasi, uning kitobxonga yetkazgan oddiy turmush, sof tabiat va hayotni sogʻlom his etishning jozibali tasvirlanganidadir” [Yoxelson 1916: 16].

Yoxelson fikr-mulohazalarini xulosalab, “Hayavata” muallifi foydalangan algonkin afsonalari va rivoyatlari hamda algonkin mifologiyasining motivlari yoki epizodlari – aynan hindularniki, deydi. Muallif fikricha, “Kalevala” “Qoʻshiq”ning poetik shakligagina biroz taʼsirini oʻtkazgan, xolos.

REFERENCES

1. Холбеков М.Н. Жахон адабиёти классиклари. Ўқув қўлланма. – Самарқанд: СамДУ нашри, 1993. – 112 б.
2. Америка адабиётининг асослари. – Тошкент: 1994.- 276.
3. Элова У.Р. XIX асрнинг биринчи ярми Америка адабиётида романтизм ва реализм шеърляти. Монография.- Тошкент: “мумтоз сўз”, 2020.- 99б.

OMONIMIYA VA LINGVISTIK TIZIMLARDA OMONIMLARNI ANIQLASH USULLARI

Abjalova Manzura Abdurashetovna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
dotsent v.b., filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

abjalova.manzura@gmail.com

ANNOTATSIYA

Omonimlikni aniqlash tabiiy tilni qayta ishlash (NLP, Natural Language Processing)da dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur masalada o'zbek tilidagi matnlarda uchraydigan omonimshakllarni aniqlash, tahlil qilishning bir necha usullari xususida so'z yuritildi.

***Kalit so'zlar:** omonimshakl, usul, yashirin Markov modeli, N-gramma, so'z birikmalari modeli.*

ABSTRACT

Determining homonymy is one of the most pressing issues in Natural Language Processing (NLP). There are several ways to identify and analyze homonymous forms in Uzbek texts.

***Keywords:** homonym, method, hidden Markov model, N-gram, phrase model.*

АННОТАЦИЯ

Определение омонимии - одна из самых актуальных проблем в обработке естественного языка (NLP). Существует несколько способов выявления и анализа омонимических форм в узбекских текстах.

***Ключевые слова:** омоним, метод, скрытая марковская модель, N-грамма, фразовая модель.*

KIRISH

Matnlarni avtomatik qayta ishlash bir necha bosqichga bo'linadi va ulardan biri morfologik tahlil bosqichi hisoblanadi. Mazkur bosqichda har bir so'zga morfologik tavsif beriladi: lemma [1]si (asosi), kelishigi, soni, darajasi, nisbati, shaxsi va hk. Morfoanalizning so'zlarni morfologik teglash vazifasi omonimshakllar bilan murakkablashadi.

Ma'lumki, omonim so'zlar shakli bir xil, ammo semantikasi turfa xil bo'lgan leksik birliklar hisoblanadi. Avtomatik qayta ishlashda omonimlik hodisasi quyidagi birliklarda mavjud:

1. so'z omonimligi – shakldoshlik so'z asosida bo'ladi, ya'ni muayyan so'z bir so'z turkumi yoki bir necha turkumga mansub ma'no beradi. Masalan:

ot	modal
Avval birliklarni, keyin oʻnliklarni qoʻshamiz.	Suv bor joyda hayot bor. Ruchkang bormi?
ot	hisob soʻz
Kuch – birlikda.	Bir necha bor taklif yubordim.
ot	ot
Ogʻirlik birliklari. Til birliklari	<i>Bor – kimyoviy element.</i>
	feʼl
	Ishga bormoq. Maktabga bormoq.

Birinchi ustunda “birlik” soʻzi bir soʻz turkumi doirasida omonim hisoblanadi: 1) oʻngacha boʻlgan butun son; grammatik koʻplik aksi (ot); 2) birlashish, hamjihatlik (ot); 3) bir turdagi miqdorlarni oʻzaro baholash uchun qabul qilingan oʻlchov; til qurilishiga xos termin (ot).

Ikkinchi ustunda “bor” soʻzi ikki xil turkumga mansub shakldoshlikni yuzaga keltirgan: 1) mavjud (modal); 2) marta, dafʼa, bora (hisob soʻz)

2. Qoʻshimcha omonimligi – muayyan qoʻshimcha vazifasiga koʻra qoʻshimchalarning turli guruhiga mansub boʻladi. Masalan:

-ki	<i>koʻchki, tepki, turtki ustki, ichki, kechki</i>	(ot yasaydi) (sifat yasaydi)
-	<i>uying, kitobing, ishing</i>	(shakl yasaydi: sintaktik mun.shakli – egalik qoʻshimchasi)
(i)ng	<i>koʻring, boring, tayyyorlang</i>	(shakl yasaydi: sintaktik mun.shakli – shaxs-son qoʻshimchasi)

3. Iboralar omonimligi – shakli, yaʼni tuzilishi bir xil, ammo semantikasi turlicha boʻlgan frazeologik birliklar.

qattiq shovqin soldi	yuksak darajada izzat-hurmat qildi
<i>uyini boshiga koʻtarmoq</i>	<i>onasini boshiga koʻtarmoq</i>

4. Gap omonimligi – muayyan gap ifoda maqsadi yoki mazmuniga koʻra farqlanadi.

darak gap	soʻroq gap
Ishni bajarmadim.	Ishni bajarmadim?

MANBALAR TAHLILI

Rus tilida omonimlik turlarida soʻzlarning turkumligi boʻyicha omonimlik, morfologik omonimlik va leksik omonimlik farqlanadi [2]. Eʼtiborli jihati shundaki soʻzlarni morfologik va leksik omonimligi boʻyicha guruhlanishi tabiiy tilni qayta ishlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Morfologik omonimlikda bir turkumga mansub boʻlgan shakldosh soʻzlar lemma (asosi)si turlicha, ammo muayyan shakllaridagina omonimlikni yuzaga keltiruvchi soʻzshakllar eʼtiborga olinadi. Masalan:

lemmasi *ter*

terim – mening terim

(-im egalik qoʻshimchasi: I shaxs, birlik)

lemmasi *terim*

terim – hosil

Leksik omonimlikda bir lemmaga mansub soʻz turli maʼnolarni beradi:

ot

bogʻ – toʻdalab bogʻlangan holat

ot

bogʻ – oʻsimlik va daraxtlar
koʻp ekilgan joy

Bogʻlamoq, bogʻlam. Bir bogʻ
piyoz

bogʻ-rogʻ, bogʻ-boʻston;
Uzumini ye, bogʻ ini surishtirma.

Omonimshakllarning morfologik va leksik guruhlanishi matnlarni qayta ishlovchi dasturiy taʼminot va tizimlarda lemmatizatsiya va stemming jarayonlari uchun muhim sanaladi [3]. Har ikki texnologiya soʻz yoki soʻzshaklning asosini topishga yoʻnaltirilgan boʻlib,

Taʼkidlash oʻrinliki, omonimlik hodisasi avtomatik qayta ishlash jarayonida eng dolzarb masala hisoblanadi. Shu bois NLPda omonimshakllarni aniqlash va ularni tahlil qilish maxsus oʻrganiladi, hatto bir necha usullar ham ishlab chiqilgan.

METODLAR

Omonimlikni aniqlash metodlarining barchasi ikki guruhga boʻlinadi:

1. Qoidalarga asoslangan usullar. Oʻz navbatida, ular quyidagilarga boʻlinadi:


a) Qoidalarni qoʻlda kiritish usullari.

b) Qoidalarni avtomatik ishlab chiqarish usullari.

2. Statistika asoslangan usullar.

Ushbu guruhlarning har birining oʻziga xos afzalliklari va kamchiliklari mavjud. Bunday vaziyatlarda tez-tez sodir boʻladiganidek, ikkala guruhning xususiyatlarini

(va afzalliklarini) bir usulda birlashtirish avval erishilgan natijalarga qaraganda yaxshiroq natijani ko'rsatishi mumkin. Bunday usul gibrid usuli deb nomlanadi.



1-sxema. Omonimlikni aniqlash usullari.

Mazkur usullarga tayanuvchi tizimlar o'z navbatida quyidagi guruhni tashkil etadi:

1. Qo'lda yaratilgan qoidalarga asoslangan tizimlar.
2. Ehtimoliy modellar asosida yaratilgan va tavsiflangan korpuslarga tayanadigan tizimlar.
3. Ehtimollik modellari va qoidalarga asoslangan gibrid tizimlar.

Omonimiyani aniqlash uchun har bir so'zshaklni "tasniflash" kerak, ya'ni uning lemmasi, so'z turkumi va bir tegga birlashuvchi morfologik xususiyatlar to'plami bilan bog'lab qo'yiladi.

Yashirin Markov modeli Baum L.E. va uning hamkasblari tomonidan ishlab chiqilgan [6] mazkur model omonimlikni aniqlashning statistik metodi statistik jarayonda yuzaga keladigan barcha variantlar ehtimoligini hisobga olishga yordam beradi. Masalan, ma'lum bir matnda ot turkumiga oid so'zlar bog'lovchiga nisbatan tez-tez va ko'p uchrasa unda ayni kontekstda mavjud omonim katta ehtimollik bilan bog'lovchi emas, ot turkumiga oid so'z bo'ladi, keyingi ehtimollikda bog'lovchi sifatida hisobga olinadi. Kontekstni tavsiflash uchun N-grammadan foydalaniladi. N-gramma – matnlarga avtomatik ishlov berishda keng qo'llaniladigan matematik hisob vositasidir. O'zbek kompyuter lingvistikasida S.Rizayev harf birikmalarini bigramm, trigramm terminlari bilan ifodalagan [5].

N-gramma – so'zlar yoki teglar kabi N-identifikator elementlarning ketma-ketligini ifodalaydi. Ikki element ketma-ketligi – bigramma, uch element ketma-ketligi esa trigramma, deyiladi. Masalan, *old qo'shimcha+ot* holati bigrammaga misol bo'ladi.

Omonimlikni aniqlashning oddiy statistik metodi va boshqa shu kabi metodlarning tavsifini keltirish uchun quyidagi usullar ishlatiladi:

– w_i – jumladagi i -o‘rinda joylashgan so‘z, t_i – ushbu so‘zning identifikatori (tegi).

– $D_{(w)} = \{t_1^w, t_2^w, \dots, t_k^w\}$ w so‘zining barcha mumkin bo‘lgan belgilar majmui. Ushbu ma’lumotlarni morfologik lug‘at yordamida olish mumkin. Agar so‘z lug‘atda bo‘lmasa uni Brill usulida bajarilganidek, ot so‘z turkumi sifatida hisoblash mumkin, ammo lingvistik ta’minot ishonchli bo‘lishi uchun barcha mumkin bo‘lgan teglarni qo‘yib chiqish kerak.

– C – korpusdagi muayyan holatlar soni (n -gramm). Bunda $C(t)$ – t teglar soni; va $C(t_1, t_2)$ – bigrammalar soni (t_1, t_2).

– $C_t(w, t)$ – t tegli w so‘zlar soni.

– $F(w, t)$ – w so‘zida t tegi mavjudligi ehtimoli. Tavsiflar quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$F(w, t) = \frac{C_t(w, t)}{C(t)}$$

– $P(t_i|t_{i-1})$ – bu t_{i-1} tegidan keyin t_i tegining kelish ehtimollik holati. Bunda $i = 1$ bo‘lganda t_i tegi gapda birinchi teg hisoblanadi. Hisoblash formulasi quyidagicha:

$$P(t_i|t_{i-1}) = \frac{C(t_{i-1}, t_i)}{C(t_{i-1})}$$

Yashirin Markov modeliga asoslanib, omonimlikni aniqlashning statistik metodi yordamida ishlash natijasida n uzunlikdagi jumlada $T_i \in D(w_i)$ bo‘lganda $T = \{T_1, T_2, \dots, T_n\}$ teglarning ehtimoliy ketma-ketligi topiladi [7].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, dunyo kompyuter lingvistikasida omonimlikni bartaraf etish usullari o‘rganilganida, bu xususdagi tajribadan foydalanib o‘zbekcha matnlardagi so‘zshakllarning tegishli tekshirish formulasi yaratildi. Omonimlikni bartaraf etish uchun har bir so‘zni “tasniflash” kerak, ya’ni uni lemma – gap bo‘lagi va morfologik xususiyatlar majmui bilan taqqoslash mumkin, ular qulaylik uchun bir tegga qo‘shiladi. Barcha mumkin bo‘lgan teglarni o‘rganish uchun morfologik lug‘atdagi so‘zlarga tegishli havolalarni topish yoki MyStem kabi morfologik analizatorni ishlatish yetarli bo‘lib, u so‘z teglarini topishda yordam beradi. Shundan so‘ng bir nechta teglar orasidan faqat tegishli tegni tanlash kerak bo‘ladi.

Omonim soʻzshakllarni tahlil qilishda qoʻllanilgan optimal lingvistik usul matnlarni tahrir va tahlil qilish, mashina tarjimasini, matnlarni qayta ishlash jarayonlarida muhim omil boʻladi.

REFERENCES

1. Большакова Е.И. Автоматическая обработка текстов на естественном языке и компьютерная лингвистика. Учебное пособие / Большакова Е.И., Клышинский Э.С., Ландэ Д.В., Носков А.А., Пескова О.В., Ягунова Е.В. – Москва: МИЭМ, 2011. – 272 с.
2. Порохин А.А. Анализ статистических методов снятия омонимии в текстах на русском языке. Вестник АГТУ. Сер.: Управление, вычислительная техника и информатика. – 2013. № 2. – С. 168-174.
3. Rahmatullayev Sh. Oʻzbek tili omonimlarining izohli lugʻati. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1984. – B.5.
4. Abjalova M. Tahrir va tahlil dasturlarining lingvistik modullari: Monografiya. – Toshkent, 2020. – B. 25-27.
5. Rizayev S. Oʻzbek tilshunosligida lingvostatistika asoslari. – Toshkent: Fan, 2006. – B . 18.
6. Baum, L. E.; Sell, G. R. [Growth transformations for functions on manifolds](#). Pacific Journal of Mathematics. 27 (2) 1968. – P. 211–227.; https://en.wikipedia.org/wiki/Hidden_Markov_model.
7. http://www.academia.edu/15517740/Анализ_статистических_алгоритмов_снятия_морфологической_омонимии_в_русском_языке.

SAKKOKIYNING NA'T QASIDASI

Xasanova Mashxura Jumanovna

SamDU katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

ikaroy84@mail.ru

ANNOTATSIYA

Adabiyotshunoslikda Mavlono Sakkokiy nomi turkiy she'riyat an'alarida o'ziga xos xislat bilan tilga olinadi. Chunki shoir eng go'zal va ko'p she'rlar yaratishi bilan mashhurdir.

Sakkokiy ijodida 1 hamd, 1 na't va 11 maqto'v bor. Madhiyalardan biri Xoja Muhammad Porsoga, biri Xalil Sultonga, beshtasi Ulug'bek Mirzoga (bu she'rlardan biri Shohruh Sultonga bag'ishlangan), to'rttasi Arslonxo'ja Tarxonga bag'ishlangan. Sakkokiy devoni davr an'anasiga binoan hamd va na't bilan boshlanadi. Avval qasidalar keyin g'azallar tartiblanadi. Devonda 11 madh qasida: Itasi Xoja Muhammad Porsoga, Itasi Xalil sultonga, 5tasi Ulug'bek Mirzoga (keyingi yillarda adabiyotshunoslar shoirning «Keldi» radifli qasidasi Ulug'bek mirzoga emas, Shohrux sultonga bag'ishlangan degan fikrlarni ilgari surishmoqda. Ammo bu qasida devonda "Dar Madhi Ulug'bek Mirzo..." sarlavhasi bilan keltiriladi, shundan 4 tasi yuqorida zikr etilgan Arslon Xoja Tarxonga bag'ishlangan bo'lib, jami misralar soni 407 bayt yoki 814 misrani tashkil etadi. .

Tayanch iboralar: Muhammad (s.a.v.), Xoja Muhammad Porso, Xalil Sulton, Ulug'bek Mirzo, Arslon Xoja Tarxon, Odam, Kuntu Kanzan, Meeraj, Amin, "Xannona", falsafiy, tasavvufiy qarashlar, she'rdagi islom dinining mohiyati aks etgan.

ABSTRACT

In literary criticism, the name of Mavlono Sakkaki is mentioned side by side in the tradition of Turkish poetry. Because the poet is known for creating the most beautiful and many poems.

There are 1 hamd, 1 naat and 11 praise in the madness of Sakkaki. One of the hymns is dedicated to Khoja Muhammad Porso, one to Khalil Sultan, five to Ulugh Beg Mirza (one of these poems is dedicated to Shahrukh Sultan), and four to Arslan Khoja Tarkhan. According to the tradition of the Sakkaki devon, it begins with praise and naat. First the poems are composed, then the ghazals. In Devon 11 Madh ode: 1 to Khoja Muhammad Porso, 1 to Khalil Sultan, 5 to Ulugh Beg Mirza (in the following years, literary critics have argued that the poet's "come" titled ode was dedicated not to Ulugh Beg Mirza, but to the Shahrukh Sultan. However, this ode is quoted in the devon under the title "Dar Madhi Ulugh Beg Mirza...", 4 of which are

dedicated to the above-mentioned Arslon Khoja Tarkhon. The total number of verses is 407 bytes or 814 lines.

Keywords: *Muhammad (saas), Khoja Muhammad Porso, Khalil Sultan, Ulugh Beg Mirza, Arslan Khoja Tarkhan, Adam, Azazil, Kuntu Kanzan, Meeraj, Amin, "Hannona", philosophical, mystical views, poem reflects the essence of Islam*

АННОТАЦИЯ

В литературной критике имя Мавлоно Саккаки упоминается бок о бок в традициях турецкой поэзии. Потому что поэт известен созданием самых красивых и множества стихотворений.

В безумии Саккаки есть 1 хамд, 1 наат и 11 похвал. Один из гимнов посвящен Ходже Мухаммаду Порсо, один - Халилу Султану, пять - Улугбеку Мирзе (одно из этих стихотворений посвящено Шахрукху Султану) и четыре - Арслану Ходжа Тархану. Согласно традиции Саккаки девон, он начинается с хвалы и наат. Сначала сочиняются стихи, потом газели. В Девоне 11 Мадхода: 1 Ходже Мухаммаду Порсо, 1 Халилу Султану, 5 Улугбеку Мирзе (в последующие годы литературные критики утверждали, что ода поэта «приди» была посвящена не Улугбеку Мирзе, а Однако эта ода цитируется в девоне под названием «Дар Мадхи Улугбек мирза...», 4 из которых посвящены уже упомянутому Арслану Ходжа Тархон. Общее количество стихов составляет 407 байт или 814 строк. .

Ключевые слова: *Мухаммад (саас), Ходжа Мухаммад Порсо, Халил Султан, Улугбек Мирза, Арслан Ходжа Тархан, Адам, Азазил, Кунту Канзан, Мирадж, Амин, «Ханнона», философские, мистические взгляды, стихотворение отражает суть ислама.*

KIRISH

Adabiyotshunoslikda turkiy qasidachilik an'anasi bilan Mavlono Sakkokiyning nomi yonma-yon tilga olinadi. Chunki, shoir eng go'zal va ko'p qasidalar yaratganligi bilan mashhurdir.

Sakkokiy devonida 1 hamd, 1 na't va 11 madh qasida mavjud. Madh qasidalarining 1tasi Xoja Muhammad Porsoga, 1tasi Xalil sultonga, 5tasi Ulug'bek Mirzoga (ushbu qasidalarining 1 tasi Shohrux sultonga bag'ishlangan degan fikrlar ham mavjud), 4tasi Arslon Xoja Tarxonga bag'ishlangan. Sakkokiy devoni davr an'anasiga binoan hamd va na't bilan boshlanadi. Avval qasidalar keyin g'azallar tartiblanadi. Devonda 11 madh qasida: 1tasi Xoja Muhammad Porsoga, 1tasi Xalil sultonga, 5tasi Ulug'bek Mirzoga (keyingi

yillarda adabiyotshunoslar shoirning «Keldi» radifli qasidasi Ulug‘bek mirzoga emas, Shohrux sultonga bag‘ishlangan degan fikrlarni ilgari surishmoqda. Ammo devonda ushbu qasida «Dar madhi Ulug‘bek mirzo...» sarlavhasi bilan keltirilgan), 4tasi yuqorida tilga olingan Arslon Xoja Tarxonga bag‘ishlangan.

Devondagi ikkinchi qasida «Dar na’ti Nabiy sallallohu alayhi va sallam» sarlavhali 24 baytdan iborat, ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan na’t qasidadir [1, 16-26]. Qasida Muhammad (s.a.v.)ning gunohkor ummatlarining panohi, oxiratda gunohkorlarni vositachilik bilan shafolat etuvchilik sifatini ulug‘lash, Uning sunnati johillik, nodonlik chohiga qulab tushgan kishilarni chiqarmoq uchun xaloskor arqon ekanligini tasvirlash bilan boshlanadi:

Osi(y) ummatning panohi, yo Shafe’ al-muznibin⁹⁷,

Jahl chohidin chiqorg‘a sunnating hablul-matin⁹⁸.

Yo‘lg‘a kirg‘anlarg‘a xulqungdur yaqin sarmoyasi,

Yo‘l yangilg‘anlarga sha‘ring shohrohedur⁹⁹ mubin¹⁰⁰.

Kun chiqib yulduz qamug‘ mansux¹⁰¹ bo‘lg‘ondek qachon,

Chiqli ersa sunnating mansux bo‘ldi o‘zga din[1, 1b].

To‘g‘ri yo‘lga kirganlarga Sening xulqung asos bo‘lsa, yo‘ldan adashganlarga shariatning ulug‘ yo‘l ekanligi ravshandir. Keyingi baytda quyosh chiqqandan so‘ng yulduzlarga hojat qolmaganligidek islom dinining paydo bo‘lishi, Qur‘oni Karimning nozil qilinishi bilan boshqa dinlar iste‘moldan to‘xtatilganligi, bekor etilganligi ta‘kidlanib, boshqa dinlar yulduzlarga, islom dini quyoshga o‘xshatiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Adabiyot tarixida Qur‘oni Karimning sura nomlari yoki oyatlarini, Hadisi shariflarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri iqtibos qilish, ba‘zan esa, ularning ma‘nosiga iqtibos qilish holatlari ko‘p uchraydi. Ushbu qasidada ham, shunday iqtiboslar mavjud. Jumladan, Alloh ikki olamni Muhammad (s.a.v.)ning haqqiga paydo qilganligi, avval Nuri Muhammadiya paydo bo‘lganligi, u Odam (a.s.)ga omonatga qo‘yilganligi, buni anglamaganlar «mardudi la’in» bo‘lganligi; «Kuntu kanzan», (Alloh (j.j.) aytadi: «Men bir maxfiy Xazina erdim,

⁹⁷ Шафеъ ал-музнибин – гуноҳкор осийларни воситачилик қилиб шафоат қилувчи

⁹⁸ Хаблул-матин – ҳабл – ип, арқон, нодонлик чоҳига қулаб тушган кишиларни чиқармоқ учун халоскор арқон

⁹⁹ Шохроҳ – улуғ йўл

¹⁰⁰ Мубин – очик, равшан

¹⁰¹ Мансух – амалдан тўхтамоқ, ишламай қолмоқ

tanilmoqlikni istadim. Olamni yaratdim, to qudratimni namoyon etsam, Odamni yaratdim, to o‘zimni (rahmatim va mag‘firatimni) oshkor etsam») xazinasining xazinaboni bo‘lganligi; me‘roj kechasi, kechadagi voqealarga ishoralar, barmog‘i ishorati bilan ko‘kdagi oyni ikkiga ajratganligi, bir hovuch tuproq bilan dushman ko‘zini ko‘r qilganligi, pishgan echki go‘shti tilga kirganligi, masjididagi ustun yig‘laganligi, o‘rgimchak uyining mustahkam qal‘a bo‘lganligi, U barcha gunohkorlarni shafolat etishni istasa, Haq Unga baxshida etishi mumkinligi, chunki bu xalq avvalu oxir uning uchun yaratilganligi, bu nur O‘zi (Alloh (j.j.)ning nuridan yaralganligi kabi oyat, hadis ma‘nolariga ishoralar etiladi.

Keyingi baytlarni ko‘zdan kechiramiz:

Bo‘lsa ham oriz¹⁰² erur zotingg‘a bu jismu bashar

Bo‘ldi ne bo‘ldi, necha kun dur sadaf ichra makin¹⁰³.

Odam o‘g‘li sen vale, Haq garchi odam suratin,

Qildi rahmat suyini qudrat ili¹⁰⁴ birla ajin¹⁰⁵.

Nur bahridin arig‘ zoting erur duri yatim¹⁰⁶,

Ne deb ayto yin aningdek gavhar aslin movu tin¹⁰⁷.

Avval odamg‘a vadi‘at¹⁰⁸ qo‘ydi nuringni¹⁰⁹ O‘g‘on¹¹⁰,

Ushbu sirni bilmag‘onlar bo‘ldi mardudi¹¹¹ lain¹¹²[1, 1b-2a].

Bu jismu bashar Sening zotingga omonatga olinib, bu dur (Nuri Muhammadiya), bir necha vaqtlar sadaf ichida yashirin bo‘ldi. Ya‘ni, Muhammad (s.a.v.) tug‘ilguniga qadar U bir nechta Odam zurriyodi tanasida yashirin bo‘lganligi ravshandir. Sen Odam (a.s)ning zurriyodisan (Haq qudrati bilan rahmat suvini qo‘shib xamir qorib, Odam (a.s) suratini barpo etgan bo‘lsa-da), u Nur sababdan pok zoting, sadaf ichida bir o‘zi yetilgan yirik durdir, men shunday gavharning aslini qanday qilib, suv va loy deya olaman, deb muammo qo‘yadi shoir.

¹⁰² Ориз – ориятга олинган, омонатга олинган.

¹⁰³ Макин – макон тутган, жой олган

¹⁰⁴ Ил - қўл

¹⁰⁵ Ажин – хамир қормок

¹⁰⁶ Дурри ятим – бир садаф ичида якка ўзи етилган донатор дур

¹⁰⁷ Мо – сув, тин – лой, балчик

¹⁰⁸ Вадиъат қўйди – омонат қўйди

¹⁰⁹ Нурингни – Аввал Аллоҳ Мухаммад с.а.в.нинг нурларини яратди ва Одам а.с.га омонатга берди.

¹¹⁰ Ўғон - Аллоҳ

¹¹¹ Мардуд – рад этилган

¹¹² Лаин – лаънатланган. Шайтонга ўхшаб сирни билмаганлар.

Keyingi baytda ushbu muammo ochiladi. Shu sababli ham Azozil Odam(a.s.)ni tuproqdan yaratilgan, deb sajda qilmaydi va la'natlanadi. Chunki u sirni bilmagan edi. Haq Taolo Sening nuringni avval Odam(a.s.)ga omonat qo'ygan edi.

«Kuntu kanzan»¹¹³ din xazoyin Xozini¹¹⁴ zoting erur,
Ore-ore¹¹⁵ ul amonatg'a kerak sentek Amin¹¹⁶.
«Li ma'alloh»¹¹⁷ hujrasinda sendin o'zga sig'madi,
Mahram ermas sir saroyinda sanga Ruhul-amin¹¹⁸.
Sen basharsan, ming malak bandangdurur, ey joni pok!
Ofarin ul pok joningg'a, xazonon ofarin.
Anbiyoyu¹¹⁹ mursalin¹²⁰ xalqa tutub o'ltursalar,
Barcha bir angushtariyu¹²¹ sen ular aro nigin¹²²[1, 2a].

«Kuntu kanzan» xazinasining xazinaboni Sening zotingdir. Albatta, shunday omonatga sendek ishonchli amin (omonatga xiyonat qilmaydigan. Muhammad (s.a.v.)nig sifatlaridan biri) kerakdir.

Keyingi bayt Me'roj kechasi haqida bo'lib, U oqshom payg'ambar s.a.v. Buroq otiga minib, Jabroil a.s. uni yetaklab yetti qat osmonni sayr qildirib, sidratul-muntaho degan manzildagi daraxtgacha yetkazdilar. Shu joyda Jabroil (a.s.) qolib, payg'ambar (s.a.v.) tanho Alloh mehmonsaroyi tomon boradilar. «Li ma'alloh» (men Alloh bilan birga) hujrasiga, ya'ni, sir saroyiga Ruhul amin (Jabroil (a.s.) ham sig'magan, mahram bo'la olmagan.

Sen insonsan, ming farishtalar Sening bandangdur, Sening pok joningga ming-ming ofarinlar bo'lsin.

Payg'ambarlar bir xalqa bo'lib, aylana bo'lib o'tirganda ular bir uzuk bo'lsa, Sen uning ko'zidirsan.

Ne bashar topti bu johu¹²³ manzilatni, ne malak,

¹¹³ Аллоҳнинг каломига ишора. Аллоҳ (ж.ж.) айтади: «Мен бир махфий Хазина эрдим, танилмоқликни истадим. Оламни яратдим, то кудратимни намоён этсам, Одамни яратдим, то ўзимни (рахматим ва мағфиратимни) ошкор этсам»

¹¹⁴ Хозини – хазиначи

¹¹⁵ Ore-ore – ха-ха, албатта, албатта

¹¹⁶ Амин – омонатга хиёнат қилмайдиган. Муҳаммад (с.а.в.)нинг сифатларидан бири

¹¹⁷ «Ли маъаллоҳ» - мен Аллоҳ билан бирга

¹¹⁸ Рухул-амин- Жаброил а.с.нинг бир номлари. Бу байт Муҳаммад с.а.в.нинг меърож кечаси ҳақида баён этади. Ул оқшом пайғамбар с.а.в. Буроқ отига миниб, Жаброил а.с. уни етаклаб етти қат осмонни сайр қилдириб, сидратул-мунтаҳо деган манзилдаги дарахтгача етказдилар. Шу жойда Жаброил а.с. қолиб, пайғамбар с.а.в. танҳо Аллоҳ меҳмонсаройи томон борадилар. Яъни, сир саройида Рухул амин ҳам маҳрам бўла олмаган.

¹¹⁹ Анбиё – набийлар, пайғамбарлар

¹²⁰ Мурсалин – пайғамбарлар. Ўзаги «расала» - юборилганлар.

¹²¹ Ангуштари - узук

¹²² Нигин – узукнинг кўзи

O‘z qulig‘a Xojadin izzat hamin bo‘lg‘ay hamin¹²⁴.
Ey Muhammad otingu Mahmud zotingga maqom,
Qullaringg‘a kamtarin nuzli¹²⁵ erur Xuldi barin¹²⁶.
Qul qilur G‘ilmon¹²⁷ o‘zin, topsa Buroqing soyasin,
Subsa¹²⁸ qilg‘oy zulfini, qilsang kanizak Huri iyn¹²⁹.
Bugungi globallashuv kuchaygan davrda har qaysi jamiyat kreativ shaxslarga ehtiyoj sezadi. Bu tabiiy hol albatta. Chunki dunyoda har daqiqada sodir bo'layotgan o'zgarishlar shuni taqozo qilmoqda.

Shu munosabat bilan turli soha olimlarining e'tibori pedagogik jarayon sharoitida talaba shaxsining kreativ salohiyatini ochish va rivojlantirish muammosiga qaratilgan. Demak, zamonaviy ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonni tashkil etishning yangi paradigmatic asoslarini ishlab chiqish zarurati tug'iladi va bu esa pedagogikaning yangi innavotsion yo'nalishi ya'ni kreativ pedagogikaga murojaat qilishga imkoniyat yaratadi.

Kreativ pedagogika muammolari yaxlit pedagogik nazariya va boshqa ijtimoiy fanlar tizimida: pedagogika tarixi va ta'lim falsafasi, umumiy va kasbiy pedagogika va psixologiya, o'qitish va tarbiyalash usullari va texnologiyalari, kasbiy etika va boshqalarda ko'rib chiqiladi.

Doimiy o'zgarib turadigan tashqi va ichki dunyo, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va faoliyat mazmuniga mos keladigan kreativ shaxsning shakllanishi va rivojlanishi inson ontogenezining butun davri - tug'ilishdan to umrining oxirigacha davomiylik, uzluksizlik va qamrab olishni talab qiladi. Mahalliy pedagogikada shaxsning kasbiy va ijodiy salohiyatini shakllantirish va rivojlantirish asosida uning kasbiy va ijodiy faoliyati tajribasini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar deyarli yo'q. An'anaviy professional tajriba bilim, ko'nikma va malakalarning birlashuvi sifatida aniqlanadi. Bu faoliyatni o'zlashtirish jarayonida tajribaning shakllanishi o'z-o'zidan sodir bo'lishini anglatadi. Ijodiy faoliyat tajribasini o'rganish masalasi umuman ko'tarilmaydi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Kreativlik nima? Amerikalik psixolog Avraam Maslouning fikricha, bu har bir kishiga xos bo'lgan, lekin mavjud tarbiya, ta'lim va ijtimoiy amaliyot tizimi ta'sirida ko'pchilik tomonidan yo'qolgan ijodiy yo'nalishdir.

Kreativlik qobiliyati "Xudoning in'omi" va shuning uchun kreativlikni o'rgatish mumkin emas degan ancha keng tarqalgan fikrdan farqli o'laroq, M.M. Zinovkina boshqacha yondasuvga ishora qiladi. Texnologiya va ixtirolar tarixini o'rganish, atoqli olim va ixtirochilarning ijodiy hayoti tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning barchasi yuqori (o'z davri uchun) fundamental bilimlar bilan bir qatorda maxsus bilimlar ombori yoki algoritmik fikrlash, shuningdek, ma'lum bilimlar, shu jumladan evristik usullar va texnikalarga ega bo'lishgan [4].

Ingliz psixologi E.P.Torrens kreativlikning quyidagi jihatlarini ilgari surgan:

- muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish;
- taxminlarni tekshirish va o'zgartirish;
- qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash;
- muammoni hal qilishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan sezgirlikni ifodalash. [1]

Lotinchada "**kreativlik**" tushunchasi quyidagicha. "**Creatio**" - "yaratish", "ijodkor" - "yaratuvchi", degan ma'nolarni anlatadi, lekin mohiyatan bu tushuncha insonning ijodiy qobiliyatining namoyon bo'lishidir.

Ijodkor shaxslar - bu rassomlar, haykaltaroshlar, yozuvchilar, shoirlar, fotosuratchilar - turli xil ijod turlarida o'z qobiliyatlarini amalga oshiradigan odamlar. Ijodkorlik, qoida tariqasida, ishbilarmonlarga xos xususiyatdir: dizaynerlar, reklama beruvchilar, marketologlar, brend-menejerlar va boshqalar.

Kasbiy va ijodiy faoliyatni faol o'zlashtirish, uni samarali amalga oshirish nafaqat ko'nikma va ko'nikmalarni rivojlantirish va integratsiyalashuvini, kasbiy ishni bajarishning individual uslublari va usullarini ishlab chiqishni, balki kasbiy ijod metodologiyasini o'zlashtirishni, ijodiy fikrlashni rivojlantirishni va o'z ichiga oladi. Ijodiy shaxsning shakllanishini amalga oshirilgan ijodiy faoliyatga va olingan ijodiy natijalarga mos keladigan shaxsning shakllanishi va rivojlanishi deb ta'riflash mumkin. Bu jarayonning sur'ati va traektoriyasi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning o'z faoliyati va ijodiy fazilatlari, shuningdek, sharoitlar, hayotiy voqealar va kasbiy jihatdan aniqlangan omillar bilan belgilanadi. Ijodkor shaxsni shakllantirish va ijodiy ta'lim o'rtasida yaqin bog'liqlik mavjuddir.

Asosiy qism. Ijod madaniyat singari, inson hayotiga, demak, ta'lim tizimiga ham kirib borishi kerak. Binobarin, ijodiy pedagogikaning ijtimoiy fanlari tizimida

ya'ni pedagogikaning yangi tarmog'i sifatida rivojlanishi uchun qator shart-sharoitlar mavjud.

Kreativ pedagogika - bu ijodiy ta'lim fani va san'atidir. Bu pedagogikaning majburlash pedagogikasi, hamkorlik pedagogikasi, tanqidiy pedagogika kabi pedagogika turlariga qarama-qarshi bo'lgan pedagogikaning bir turi hisoblanadi. Kreativ pedagogika o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, kelajagini yaratuvchisi bo'lishga o'rgatadi.

Kreativ pedagogika, har qanday fanga, xoh matematika, xoh fizika, xoh tillar, xoh iqtisod bo'lsin, qo'llanilish mumkin bo'lgan pedagogikadir. Ma'lum darajada aytish mumkinki, uning metodologiyasi o'qitish va o'rganish jarayonini o'zgartiradi.

Rivojlangan kreativlik shaxs ijodkorligining muhim tarkibiy qismidir. U shaxsning kognitiv maqsadga erishish, boshlangan ijodiy ishni davom ettirish, bilish faoliyatidagi qiyinchiliklarni bartaraf etish, aqliy harakatlarni rejalashtirish va ketma-ketlashtirish, maqsadga erishish variantlari va usullarini izlash istagida ifodalanadi; Shuningdek shaxsda stenik tuyg'ular (kognitiv va ijodiy faoliyatdan quvonch hissi, ixtirolar jarayonida qiyinchiliklarni engishga tayyorlik, kognitiv yoki ijodiy maqsadga erishishdan g'ururlanish, biror narsa o'ylab topish imkoniyatidan zavqlanish, ijodiy ish boshlanishidagi optimistik faollik, uning ijobiy natijasini kutish, muvaffaqiyasizliklar holatida xotirjamlik va boshqalar) ham hosil bo'ladi.

Inson aql-zakovati sohasidagi mutaxassislar ijodiy jarayonni ta'minlash uchun konvergent (mantiqiy, ketma-ket, chiziqli) va divergent (yaxlit, intuitiv, aloqador) tafakkurning kombinasiyasi zarur deb hisoblaydilar. Tafakkur xususiyatlarining bunday kombinasiyasi natijasi ongning ravonligi va moslashuvchanligi, shuningdek, o'ziga xoslik, hukmning aniqligi bilan uyg'unlikda namoyon bo'ladi. [3]

Pedagogik jarayonda ijodkorlikni rivojlantirish uchun shaxs salohiyatini oshirishga, ijodiy faolligini oshirishga yordam beradigan o'qitish metodlari va texnologiyalaridan foydalanish zarur. Ushbu texnologiyalar shaxsning o'zini o'zi qadrlashni shakllantirishga, o'z imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni oshirishga va voqelik bilan adekvat aloqada bo'lishga to'sqinlik qiladigan psixologik qiyinchiliklarni rivojlanishiga yordam beradi.

Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchi faoliyatining ustuvor yo'nalishi. muloqotning dialogik usullariga, yechimni birgalikda izlashga va turli ijodiy faoliyatga beriladi. Bularning barchasi o'qitishning interfaol usullarini qo'llash orqali amalga oshiriladi. Interfaol ta'lim jarayonida o'quvchilar tanqidiy fikrlashni, vaziyat va tegishli ma'lumotlarni tahlil qilish asosida murakkab masalalarni yechishni, muqobil fikrlarni topishni, puxta o'ylangan qarorlar qabul qilishni, muhokamalarda

qatnashishni o'rganadilar. Buning uchun darslar juftlik va guruh usullari asosida tashkil etiladi, ilmiy-tadqiqot loyihalari, rolli o'yinlar qo'llaniladi.[1]

Kreativlikni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini tahlil qilish natijalari bo'lajak o'qituvchining pedagogik amaliyot davridagi kreativligini rivojlantirishning tarkibiy-funksional modeli tamoyillarini ajratib ko'rsatish imkonini beradi. Bu tamoyillar quyidagilardan iborat

1. Muammoli tamoyili.

Muammoli tamoyilidan foydalanish pedagogik faoliyat uchun yangilik emas. Kreativlikning mohiyati muammoli xarakterga ega bo'lib, u muammoning nostandart yechimini topishdan iborat. Pedagogik amaliyotda bo'lajak o'qituvchilarning kreativligini muammolilik tamoyiliga muvofiq rivojlantirish ijodiy muammoli vazifalarda namoyon bo'ladi, masalan, "Gipotezani ilgari suring va uni sinab ko'rish rejasini tuzing ...", "Dastlabki natijani baholash ...", "O'quv materialini boshqacha taqdim eting ..." va hokazo. [2]

2. Ijodiy yo'nalish tamoyili.

Bu tamoyil nafaqat reproduktiv, balki ijodiy faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi. Kreativlikni rivojlantirish faqat maqsadli xarakterga ega bo'lmasligi kerak, ya'ni erishilayotgan natija amaliyot so'ngida natijaga erishish degan fikrdan yiroq bo'lishi lozim. Bu holatda talaba topshiriqlarni tez va hech qanday hissiyotlarsiz bajarishlari kerak. Chunki bu holat mashg'ulot sifatiga, diagnostika natijalariga, umuman, barcha tajriba-sinov ishlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Agar kreativlikning rivojlanishi bosqichli xususiyatga ega bo'lib, har bir vazifa yoki faoliyat turi sinovning keyingi bosqichi sifatida qaralmasdan, balki o'z-o'zini sinab ko'rish, o'zini o'zi anglash va qiziqarli faoliyat uchun imkoniyat sifatida yo'naltirilgan bo'lsa, u holda bajarilayotgan ish yuqori sifatli va o'rganilayotgan konsepsiya ko'rsatkichlari o'sish darajasida bo'ladi.

4. Butunlilik va izchillik tamoyili.

Bu tamoyil ijodkorlikni rivojlantirish dasturi tuzilmasi yaxlitlilik, izchillik, to'liqlilikni talab qiladi. Faqat shu holatda qo'yilgan maqsadga erishish uchun vosita va usullarni tanlashning maqsadga muvofiqligi haqida gapirish mumkin. Kreativlikni bo'lajak o'qituvchining yaxlit qiyofasiga hamroh bo'ladigan sifatlar tizimining tarkibiy qismi sifatida qarash lozim.

5. Individuallashtirish tamoyili.

Ushbu tamoyilning asosiy jihati har bir talabaning individual tarbiyaviy ish uslubini, uning shaxsiy rivojlanishining o'ziga xos trayektoriyasini va ruhiy jarayonlarning ishlash xususiyatlarini hisobga olishdan iborat. Shunda dasturning har

bir ishtirokchisining individual natijasi, shaxsiy xususiyatlar sifatida kreativlikning shakllanish darajasiga mos keladigan ijodiy yutug‘i bo‘ladi.[8]

Kreativlikning rivojlantirishning bosh maqsadi bu o‘quvchilarning aqliy faoliyati va mantiqiy fikrlashini rivojlantirishdan iborat. Buning uchun biz talaba erishgan rivojlanish darajasiga emas, balki bir oz oldinroq qadam tashlab, uning fikrlash qobiliyatidan biroz yuqoriroq bo‘lgan talablarni qo‘yishimiz kerak. [5]

Shuningdek kreativlikni rivojlantirish quyidagi vazifalarni hal qilishga ham yordam beradi:

1. Talabalarni turli yo‘nalishlarda fikrlashga o‘rgatish;
2. Nostandart vaziyatlarda muammoning yechimlarini topishni o‘rgatish;
3. Aqliy faoliyatning o‘ziga xosligini rivojlantirish.
4. Talabalarni mavjud muammoli vaziyatni turli tomonlardan tahlil qilishga o‘rgatish;
5. Tez o‘zgaruvchan dunyoda yanada samarali hayot va moslashish uchun zarur bo‘lgan fikrlash xususiyatlarini rivojlantirish.

Shu bilan birgalikda pedagogik kreativlikni rivojlantirish sharti o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda insonparvarlik psixologiya tamoyillarini amalga oshirishdir. Ushbu tamoyillar quyidagilarni nazarda tutadi:

1. Har bir talabaning g‘oyasini yuqori baholash, bu barcha g‘oyalar va javoblarni ijobiy mustahkamlash, xatodan tanish narsaga yangicha qarash imkoniyati sifatida foydalanishni nazarda tutadi.

2. O‘zaro ishonch, psixologik xavfsizlik muhitini yaratish.

3. Tanlash va qaror qabul qilishda mustaqillikni ta‘minlash. [7]

Kreativ salohiyatga ega o‘qituvchi quyidagi sifatlarga ega bo‘ladi:

- Kreativ fikrlashi kengayadi ;
- Tadqiqot ko‘nikmalarini yaxshi egallaydi;
- Pedagogika yoki maxsus fan yutuqlaridan hamda ilg‘or tajribalardan foydalanish imkoniyatlarini mustaqil tahlil qiladi;
- Professor-o‘qituvchilar tomonidan olib borilayotgan ijodiy loyihalar va ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda faol ishtirok etadi.

Kreativ fikrlaydigan o‘qituvchiga qo‘yiladigan zamonaviy talablar shundan iboratki, u axborotchi emas, balki o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda muvofiqlashtiruvchi (koordinator), boshqaruvchi (menejer), muloqot tashkilotchisi, maslahatchisi bo‘lishi kerak. O‘qituvchi bilimlarni o‘zlashtirishning eng samarali usullarini izlashni qo‘llab-quvvatlaydi va boshqaradi, qiziqarli

kashfiyotlarni ragʻbatlantiradi, muvaffaqiyasiz urinishlarni tahlil qiladi, oʻquvchilarni magʻlubiyat va gʻalabalarni amalga oshirishga undaydi.

XULOSA

Demak, kreativlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari sinfda maqsadli ravishda yaratilgan ijodiy tarbiyaviy muhitga bogʻliq boʻlishi mumkin; oʻqituvchining ijodiy xulq-atvori namunasining mavjudligi va talabalarning ijodiy qobiliyatlarini ifodalovchi sifatida oʻqituvchining shaxsiyati; talabalar va oʻqituvchilarning birgalikda yaratilishi; ijodiy faoliyatdagi subʻektiv oʻrni; ijodiy muhitni saqlash va muvaffaqiyat holatlarini yaratish. Talabalar ijodining eng samarali rivojlanishi ijodiy taʼlimning uzluksiz tizimi sharoitida maqsadli, har tomonlama pedagogik taʼsir koʻrsatish orqali taʼminlanadi. Bu va boshqa masalalarni ishlab chiqish bilan fundamental amaliy pedagogika sohasi sifatida kreativ pedagogika shugʻullanishi lozim. Shuningdek nostandrt fikrlovchi, qiyin vaziyatlarda xotirjam, muammoning yechimini topishda bir tomonlama emas, turli tomonlama yondashadigan salohiyatli mutaxassislarni yetishtirishdan iborat.

REFERENCES

1. Torrance E.R. Creativity and futurism in education: Retooling Education 1980. Vol 100 P
2. Vygotsky L. S. Selected psychological studies. M., 1956.
3. Ermolaeva-Tomina L. B. The study of factors determining individual differences in the manifestation of creative activity // Psychology of creativity. M., 1990. pp. 117-130.
4. Zinovkina M. M. NFTM-TRIZ: Creative education of the XXI century (Theory and practice): Monograph. M., 2007.
5. Barnokhon R., Bakhtiyor P. The formation of creative thinking in teaching physics //International Engineering Journal For Research & Development. – 2020. – T. 5. – №. ICIPPS. – C. 5-5.
6. Ruzimatova Barnokhon, Polvonov Bakhtiyor. “Development of students’ creativity in the course of studying general physics at technical universities.” “Scientific-technical journal: Vol. 2 : Iss. 2 , Article 4.
7. Fakhriddin Y. et al. Physics student participation test in the online group homework forum //International Engineering Journal For Research & Development. – 2020. – T. 5. – №. 8. – C. 4-4.

8. Yusupov F. T. O. G. L. et al. Use of vernier digital laboratory in lessons and lesson activities //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – T. 1. – №. 10. – C. 86-94.
9. RakhmonovTokhir, YusupovFakhriddin, and TolaboyevDilmuhammad, “A study in showing logical strategy and demeanor in the middle school”, IEJRD - International Multidisciplinary Journal, vol. 5, no. 7, p. 7, Nov. 2020.

УДК 37.012.3

**RESEARCH OF PROMISING TRENDS IN PEDAGOGY WHICH
INFLUENCE THE SUCCESS OF THE EDUCATIONAL PROCESS**

Shakirov Tuigunjon Turgunovich

Cand. tech. Sciences, Associate Professor, Head. Chair
Department of Technology of Building Materials, Products and Structures,
Tashkent Institute of Architecture and Civil Engineering
Tashkent, Uzbekistan Address: 100002, Uzbekistan,

Muminova Nilufar Abdulla kizi

Basic doctoral student of the department
Department of Technology of Building Materials, Products and Structures,
Tashkent Institute of Architecture and Civil Engineering
Tashkent, Uzbekistan Address: 100095, Uzbekistan,
Tashkent city, Phone: +998 (90) 926-33-92
E-mail: muminovanilufar145@gmail.com
ORCID ID <https://orcid.org/0000-0002-5695-2022>

ABSTRACT

In order to implement an effective educational process of the researcher, new versions of concepts, theories and teaching methods have been repeatedly proposed. The experience of introducing and using educational theories and concepts has shown that every innovation in education after a short period has been criticized. This does not mean that all innovations in the educational field were initially irrelevant. As for the methods of education, the traditional methods for these purposes have long been beliefs, the teacher's personal example, pedagogical tact and preventive measures, which are not enough for the implementation of the modern educational process.

Keywords: *mentoring process, personal qualities, ego motives, psycho-didactics.*

АННОТАЦИЯ

В целях реализации эффективного образовательного процесса исследователя неоднократно предлагались новые версии концепций, теорий и методов обучения. Опыт внедрения и использования образовательных теорий и концепций показал, что каждое нововведение в образовании по прошествии короткого периода времени подвергалось критике. Это не значит, что все нововведения в образовательной сфере изначально были неактуальными. Что касается методов обучения, то традиционными методами для этих целей

давно стали убеждения, личный пример учителя, педагогический такт и профилактические меры, которых недостаточно для реализации современного учебного процесса.

***Ключевые слова:** процесс наставничества, личностные качества, мотивы эго, психодидактика.*

INTRODUCTION

The current stage of development of educational technologies is characterized by new experimental studies of modernized theories, concepts, methods of teaching and upbringing. At the moment, the modern education process is characterized by a trend of a progressive lagging behind the introduction of innovative teaching methods from the results of scientific and technological progress. Achievements of science and technology in all spheres of production are interconnected with the formation of new requirements for the qualifications of specialists in all available professions, which in turn requires a revision and adjustment of educational programs and methods of their implementation.

RESEARCH METHODS

The methodological basis of research, based on the multifaceted nature of the factors influencing the educational process, is a complex application of complementary approaches, the main of which are system-activity, humanistic, competence-based and personality-oriented.

Methodology of psychodidactic in the preparation of teaching materials Psych didactics is a relatively new scientific theory that combines didactic, psychological and methodological knowledge. The psych didactic approach to education, in essence, should cover all the main components of training and education. But despite the fact that the new scientific theory has existed for more than two decades, to date, no unified understanding of the tasks of psych didactics has been developed. Each researcher presents the methodological apparatus of psych didactics in his own way.

To date, the main focus of research in the field of psychodidactics is focused on the study of methodological, didactic and subject-specific components of the educational process. As for the psychological component of psychodidactics, which determines the selection of the mental functions of a person, taking into account age, individual and personal characteristics that contribute to the achievement of the set didactic goal, this part of knowledge requires new research, based on the results of which it is necessary to create appropriate methods for diagnosing and correcting personality traits.

The sources of research were the works of Kazakhstani, Russian and foreign scholars on didactics, textbooks on Pedagogy of the twentieth century, UNESCO recommendations on the development of teaching strategies.

On the one hand, the section overviews, and on the other hand, the results of a practical study on the use of innovative teaching methods by teachers, and understanding of their strengths and weaknesses are presented.

Changes in didactics in the twenty-first century have been studied in the following areas, which lead to the active use of innovative teaching methods:

the features of the expansion of the subject of pedagogy—“education” have been analyzed;

approaches in modern foreign didactics on teaching the digital generation of students have been analyzed and generalized, taking into account their specific features;

attention is focused on pedagogical innovation as a direction for the development of didactics;

a survey of teachers on the using of traditional and innovative teaching methods has been conducted.

Comprehensive application of existing theories, concepts and teaching methods. In the context of the massive use of cognitive learning systems and training programs, no single existing concept or theory of learning can be universal. Even within the framework of one discipline in each individual lesson, it is advisable to use elements of various educational theories and teaching methods. The most optimal will be to form the components of theories and concepts of education individually for each topic of a specific discipline.

Aspects of cognitive pedagogy. The main accents of cognitive pedagogy are focused on the realization of human cognitive capabilities, including the perception of new information, its processing, memorization and assimilation [4-6]. It is certainly not advisable to focus the entire learning process only on the methodology of cognitive pedagogy, but it is simply unacceptable not to take into account the elements of its capabilities in the modern educational process.

Significant increase

the effectiveness of perception, memorization and assimilation of new knowledge by students occurs when the rhythms of the brain are activated in different frequency ranges, namely:

- Activation of delta rhythms of the brain during wakefulness helps to reduce anxiety and stress.

- The effect of theta waves on the human brain helps to reduce anxiety, improve psycho-emotional state and memory, and also contribute to the activation of intuition and creativity.

- Most subjects perceive the pronounced activity of alpha rhythms as a great creative inspiration. "In the range from 8 to 10 Hz, a person's ability to perceive and understand new information sharply increases.

- When alpha waves are emitted at a frequency of 8.22 Hz, a person's creativity is significantly activated.

- When alpha waves are emitted at a frequency of 10 Hz, a person is in a clear consciousness and in high spirits, he has an increase in the presence of serotonin, in case of malaise, a decrease in pain is noted.

- When alpha waves are emitted at a frequency of 11 Hz, a person is in a relaxed state.

The most pronounced activation of the rhythms of the brain is noted in people who practice meditation. This is confirmed by the research of Professor Takahashi, as well as the study from Harvard Medical School. According to studies carried out in Kyrgyzstan, practitioners working with egomotives according to the method of A. V. Krutikov noted the activation of brain rhythms in the ranges corresponding to the activation of cognitive and creative abilities

The activation of the radiation of the rhythms of the human brain can occur not only spontaneously, but also with the help of attuning a person's awareness to the perception of new knowledge. Methods that contribute to attunement of awareness to a forced mode of perception of new knowledge are psychocorrectional work with egomotives and the formation of basic personal qualities of students, focused on the upbringing of spiritual and moral qualities of the individual. Methods of attunement of perception are described in detail in work

The educational component of the educational process. The upbringing of young people is one of the most important tasks of education. Of course, traditional teaching methods, persuasions, the teacher's personal example, pedagogical tact, preventive measures, playing psycho-trainings, have a positive effect on the education of schoolchildren and students, but this it is not enough for the correction and formation of the basic personal qualities of students, which are the basis for the interaction of a young person in the family, at school, at the university and in society.

One of the main problems that worsen the effectiveness of the educational process is insufficient training of teachers. Not any words will have the proper corrective effect on the student if the teacher himself does not possess the spiritual

and moral values that he is talking about. Therefore, the upbringing of schoolchildren and students should begin with the upbringing of teachers and teachers.

Aspects of pedagogical interaction. Any learning process is primarily pedagogical, and for its implementation it is necessary to form an active two-way pedagogical interaction. Any communication process is inherently a perceptual component of communication, in which there is a mutual active perception and analysis of the interlocutors' reactions to their mutual behavior. A schoolboy and a student, as a rule, do not have the necessary amount of knowledge in order to be an equal interlocutor with a teacher. In these conditions, the teacher's skill lies in his ability to create conditions under which the process of pedagogical communication will not be one-sided.

Taking into account personal individual characteristics in training. There are no completely identical people, each person is an individuality. Each person is characterized by manifestations of character, imagination, perception in accordance with the peculiarities of the yoke of individuality. And of course, it is simply unacceptable to ignore the individuality of a person when teaching. Consideration of individuality is of particular relevance in preschool institutions. It is at the preschool age that it is advisable to identify the mental, cognitive and creative characteristics of the child, and in the event of their obvious deviations, it becomes possible to provide the child with timely qualified assistance.

CONCLUSIONS

In modern conditions, the success of the educational process can be realized, in the preparation of teaching materials, developed taking into account didactic, psychological and methodological knowledge; with an effectively established pedagogical interaction between teachers and students, in which the individual and personal characteristics of both students and teachers will be taken into account. when organizing work in educational institutions for the diagnosis, correction and formation of personal qualities of both students and teachers.

REFERENCES

1. Sergeev S. F. Cognitive pedagogy: peculiarities of learning and education of adults // Bulletin of the North-Eastern Federal University. M.K. Ammosov. Series: Pedagogy. Psychology. Philosophy. 2016. No. 3 (03). S. 30-35.
2. Cold M.A. Cognitive styles: On the nature of the individual mind. M. ; PERSE, 2002.304 p.

3. Sergeev S.F., Sergeeva A.S. Educational communication and interface in computer educational systems and environments // Open education. 2014. No. 5 (106). S. 41-48. [https://doi.org/10.21686/1818-4243-2014-5\(106-41-48](https://doi.org/10.21686/1818-4243-2014-5(106-41-48)
4. Krutikov A. V. Personal psychologist. Singharmonic psycho-training. M. 2012.244 p.
5. Tsybov N.N. Factors affecting the effectiveness of the learning process in technical universities // Bulletin of Science and Practice. 2019.Vol. 5.No. 7. S. 345-357.

ISHNI SUDGA QADAR YURITISH BOSQICHIDA EKSPERTIZA XULOSALARINI BAHOLASH

Nurumbetova Sadoqat Allayarovna

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

Dastlabki tergov va kriminalistika kafedrası dotsent v.b., podpolkovnik, yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ANNOTATSIYA

Maqolada davlat sud-ekspertiza muassasalari tomonidan beriladigan ekspertiza xulosalarining tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki sud tomonidan baholanishi va amaliyotdagi ahamiyatli tomonlari tahlil qilingan. Shu bilan bir qatorda mazkur ekspertiza xulosalarini baholash uchun qo'yilgan mezonlar bo'yicha milliy qonunchiligimizdagi mavjud bo'shliqlarni to'ldirish yuzasidan muayyan taklif va tavsiyalar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *sud-ekspertiza muassasalari, ekspertlik faoliyati, xulosalarni baholash, ekspert, tadqiqot, prokuror orderi, ma'lumotlar, ehtimoliy xulosa, sud jarayoni, xulosaning ob'ektivligi.*

ОЦЕНКА ЗАКЛЮЧЕНИИ ЭКСПЕРТИЗЫ НА ЭТАПЕ ДО СУДЕБНОГО ПРОИЗВОДСТВА

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется оценка экспертных заключений государственных судебно-медицинских учреждений должностным лицом, дознавателем, следователем или судом органа, проводящего предварительное следствие, и анализируются важные аспекты практики. В то же время были внесены конкретные предложения и рекомендации по заполнению существующих пробелов в нашем национальном законодательстве в отношении критериев, установленных для оценки результатов этой экспертизы.

Ключевые слова: *судебно-медицинские учреждения, экспертная деятельность, оценка выводов, эксперт, исследование, постановление прокурора, данные, вероятное заключение, судебное разбирательство, объективность заключения.*

ASSESSMENT OF THE EXPERT OPINION AT THE STAGE PRELIMINARY INVESTIGATION

ANNOTATION

The article analyzes the assessment of expert opinions of state forensic medical institutions and their important aspects in practice. At the same time, specific proposals and recommendations will be made to fill the existing gaps in our national legislation in relation to the criteria established for assessing the results of this examination.

Key words: *forensic medical institutions, expert activity, assessment of conclusions, expert, research, prosecutor's order, data, probable conclusion, trial, objectivity of the conclusion.*

KIRISH

Inson, uning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish tizimi, jinoiy ish yuritishning barcha bosqichlarida xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajribani joriy etish sud-tergov faoliyatini yanada takomillashtirishning muhim yo'nalishlarini belgilaydi. Amaldagi qonunchilik tahlili, jinoyat protsessida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini ta'minlash bo'yicha mexanizmlar to'liq ishga solinmaganligini va jinoyat ishlarini tergov qilish bo'yicha huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vakolatlarini aniq belgilash bilan bog'liq bo'shliqlar mavjudligini ko'rsatmoqda.

Ma'lumki, jinoyatchilikka qarshi kurashda sud ekspertizalarning imkoniyatlaridan foydalanish masalalariga mamlakatimizda alohida e'tibor qaratiladi. Bu faoliyatni takomillashtirish, sohadagi mavjud muammolarni aniqlash va bartaraf qilish masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Buning tasdig'i sifatida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ichki ishlar organlarining jinoyatlarni tergov qilish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2017 yil 18 aprel PQ-2898-sonli qarori hamda 2019 yil 17 yanvardagi «Sud ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4125-sonli qarorlarini keltirish mumkin.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bugungi tergov amaliyoti ekspertning xulosasi surishtiruvchi, tergovchi yoki sud uchun muqarrar daliliy kuchga ega emasligi va xulosaga qo'shilmaslik qarorda yoki ajrimda asoslab berilishi lozimligiga asoslanadi. Chunki, Jinoyat-protsessual kodeksining 187-moddasida ekspert xulosasini baholash deb nomlangan bo'lib, unga ko'ra tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki sud tomonidan jinoyat ishi yoki tergovga qadar tekshiruv materiallari bo'yicha to'plangan boshqa dalillar bilan birgalikda uning ilmiy asoslanganligi va ekspertiza o'tkazish uchun belgilangan barcha protsessual

qoidalarga rioya etilganligi nuqtai nazaridan baholanish tartibi aniq ko'rsatib qo'yilgan. Lekin bundan boshqa normativ-huquqiy hujjatda ekspertiza xulosasini baholashda nimalarga e'tibor qaratish lozimligi belgilanmagan.

Yuridik adabiyotlarni tahlil qilish ekspert kriminalistika faoliyatini va tergov faoliyatini takomillashtirish va ishga oid ma'lumotlarning tekshirilishi yuzasidan turli fikrlar berilganligini ko'rsatadi. Xususan, D.M. Mirazovning fikricha, jinoyatlar to'g'risidagi ma'lumotlar, dalillarning asoslilikining tekshirilishi va ular asosida jinoyatlar qo'zg'atish yoki qo'zg'atmaslik, ish yurituvi davomida to'g'ri baholash lozimligi ko'rsatilgan.

Rivojlangan davlatlar tajribasiga, ya'ni AQSh qonunchiligi amaliyotiga ko'ra tergovga qadar tekshiruv surishtiruv bilan tenglashtirilgan bo'lib, jinoyat sodir etilgan deb baholash uchun yetarli ma'lumotlar mavjud bo'lsa, polisiya prokurorga order berish to'g'risida murojaat qilishi mumkinligi, shuningdek prokuror polisiya tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni o'rganib chiqib, ularning qonuniyligi va kelgusi sud jarayonida foydalanishi mumkinligi yuzasidan ko'rib chiqib, order berish yoki bermaslik to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin.

Aynan shu holat biroz boshqacharoq bo'lsada milliy qonunchiligimiz asosida jinoyat ishini qo'zg'atishga ekspertiza xulosasining asos bo'lishiligi amaliyotimizda ko'rish mumkin. Shunday ekan, ekspertiza xulosasining aniq va ilmiy jihatdan asoslangan va qonun talabalariga mos ravishda yozilganligini, ishga qanchalik ahamiyatli ekanini baholash zarurati mavjud.

Nazariy va qonuniy jihatdan ekspertiza tadqiqotlarining to'liqligini aniqlashda quyidagi omillar inobatga olinadi: ekspertiza tayinlagan shaxs yoki organning barcha savollariga ekspertning javob berganligi, savollar taalluqli bo'lgan barcha ob'ektlar tekshirilgani, kerakli tadqiqotlarni o'tkazish va qo'yilgan savollarga javob berish uchun zarur bo'lgan hamda ekspertning ixtiyorida mavjud bo'lgan maxsus metod (usul) va texnik vositalarning qo'llanilishi va h.k.

Ekspertiza tadqiqoti to'liq bo'lishi uchun ekspert oldiga qo'yilgan barcha savollarga javob berilishi va ularning hech biri e'tiborsiz qoldirilmasligi lozim.

Amaliyot xodimlarining ish o'rni tahliliga ko'ra barcha tergovchilarda ham ekspertizalarni mustaqil o'tkazish guvohnomasiga ega bo'lish va tadqiqotlar o'tkazish mumkin emasligini ko'rish mumkin. Bu tabiiy hol, chunki bu guvohnomalar ekspertlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar uchungina beriladi. Shunday ekan, tergovchi, surishtiruvchi yoki sud o'z ichki ishonchlaridan tashqari ekspertiza xulosasining ilmiy asoslangan holda o'tkazilganligini ham tekshirishlari lozim bo'ladi.

Bu borada tergovchi nimalarga e'tibor qaratishi lozimligi birorta normativ-huquqiy hujjatda belgilab berilmagan.

Agar tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki sudning ekspertiza xulosasiga o'z ichki ishonchiga asoslangan holda baho berishi to'g'ri bo'ladigan bo'lsa, barcha protsessual harakatlar aynan qonunchilikda muayyan bir talabalar asosida amalga oshirilishini hisobga olganda, demak bu harakatni ham aniq bir belgilangan mezonlari bo'lishi maqsadga muvofiq.

Mazkur baholashni amalga oshirish uchun tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki sud nimalarga e'tibor qaratishi lozim va bu mezonlarni amalga oshirishida tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki sud ekspert xulosasida nimalarga e'tibor qaratishi lozim bo'ladi?

Xulosaning ob'ektivligini baholashda, uni bu ishdan manfaatdor bo'lmagan, maxsus bilimlar asosida va tekshirish natijalariga ishongan shaxslar tomonidan berilishi asos bo'ladi. Bu talabning buzilishiga ekspertning isbotlanmagan, rad qilingan va to'liq bo'lmagan dalillar asosida, ekspert vakolati doirasiga kirmaydigan harakatlar doirasida baholashi va xulosa berishi kiradi.

Shuningdek, JPKning 68-moddasiga ko'ra ekspertning majburiyatiga ekspertiza ob'ektini saqlash va to'liqligini ta'minlash kiradi. Agar ob'ekt ekspertiza qilish jarayonida to'laligini yo'qotgan yoki qisman buzilgan yoki shakli o'zgargan bo'lib, buning natijasida qayta ekspertiza o'tkazish imkoniyati qolmaydigan xolatga kelishi mumkin bo'lgan taqdirda, ekspert jinoyat ishini yuritayotgan organdan tegishli ruxsat olishi va bunday natijalarning bo'lishi to'g'risida ogohlantirib qo'yishi shart.

Ekspertiza natijalari va ekspert xulosasini rasmiylashtirish faoliyatini takomillashtirish bo'yicha quyidagilarni taklif qilish mumkin:

birinchidan, ekspertiza uchun taqdim etilgan ob'ektlar bilan ishlashda va ularni qabul qilishda qonunchilikda belgilangan talablarga rioya qilinganligini va ularni barchasini fotojadvalda aks ettirilganligiga e'tibor qaratish;

ikkinchidan, ob'ektning umumiy va xususiy (agar mavjud bo'lsa) belgilari bilan ishlanganligiga;

uchinchidan, aynan shu belgilarning mos kelgan yoki kelmaganligini ask ettiruvchi, qo'yilgan talablar asosida rasmda ko'rsatilganligini inobatga olish;

to'rtinchidan, tadqiqotlarni o'tkazishda ilmiy asoslangan adabiyotlardan va aynan shu tadqiqot turiga tegishli bo'lgan adabiyotlardan foydalanganligini tekshirish;

beshinchidan, berilgan savollarning har biriga aniq va to‘hri javob berilganligiga;

oltinchidan, tadqiqotlarni o‘tkazishda tegishli texnik-kriminalistik vositalardan foydalanilganligi;

yettinchidan, agar ekspert tomonidan ehtimoliy ya’ni bo‘lishi mumkin degan javoblar berilgan bo‘lsa uni asoslantirib berishiga e’tibor qaratishi lozim.

Lekin bu mezonlarni ishlab chiqishdan oldin ayrim jihatlarni, ya’ni tergovchining bilim doirasiga ekspert faoliyatining bilim doirasida belgilangan talablarning barchasini yoki ko‘p qismini bilish talabini qo‘yish noto‘g‘ri bo‘ladi. Chunki, ekspertiza yo‘nalishlarining o‘nlab turlarining mavjudligi, kerak bo‘lsa har birining o‘ziga xos xususiyatlarga egaligi va alohida bilimlarni talab etishi bor. Shuning uchun tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki sud uchun ekspertiza xulosalarini baholashda soddalashtirilgan holda ishlab chiqarilgan mezonlarni qo‘llashi lozim bo‘ladi.

Xususan, yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan takliflar to‘g‘ridan-to‘g‘ri ananaviy va noananaviy turdagi ekspertizalarni baholash uchun to‘g‘ri keladi, lekin bir nechta ekspertlar tomonidan o‘tkaziladigan kompleks, komissiyaviy yoki ayrim noananaviy turdagi ekspertizalarni baholashda ekspertlar tarkibida berilgan natijalarga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Bu talablar ekspert tomonidan tadqiqotlar jarayonida amalga oshirilishi lozimligi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 5 yanvardagi 5-sonli “Davlat sud-ekspertiza muassasasi yoki boshqa korxon, muassasa, tashkilot tomonidan sud ekspertizasini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi qarorida batafsil belgilab qo‘yilgan.

Shu o‘rinda yana bir narsani ta’kidlash joizki, ekspertiza xulosalarini baholash yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Fuqarolik ishlari bo‘yicha ekspertiza tayinlash, o‘tkazish va ekspert xulosasiga baho berishda sud amaliyotida kelib chiqadigan ayrim masalalar haqida”gi 2008 yil 12 dekabrda 24-sonli qarorida ekspertiza xulosalarini baholashda ekspertning ehtimol tutilgan xulosasi sud qaroriga asos qilib olinishi mumkin emasligi shuningdek, qo‘shimcha, qayta, kompleks va komissiyaviy ekspertiza tayinlash asoslari va tartibini qat’iy farqlashlari lozimligi ko‘rsatib o‘tilgan.

XULOSA

Yuqoridagilardan kelib chiqib, milliy qonunchiligimizda ko‘rsatilgan ekspertiza xulosasini baholash mezonlarining mavjud emasligini ya’ni mavjud bo‘shliqni

to'ldirish maqsadida JPK 187¹-moddasini yangi tahrirda "ekspertiza xulosasini baholash mezonlari" deb nomlash va unda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki sud tomonidan ekspertiza xulosalarini baholashda qo'llanishi mumkin bo'lgan mezonlarni kiritish lozim bo'ladi.

Bu mezonlarning qonunchilikda mustahkamlanib qo'yilishi tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki sudning ekspertiza xulosalarini baholash harakatlarida aniqlikga, qabul qilingan ekspertiza xulosalarining qay darajada mustahkam dalil ekanligini belgilashlaridagi samaradorlikga erishishlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикасининг 2010 йил 2 июндаги "Суд экспертизаси тўғ'рисида"ги Қонуни. // <https://lex.uz/docs/1633102>
2. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси. <https://lex.uz/docs/111460>.
3. Суд-экспертлик фаолиятини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғ'рисида. ПК-4125-сон қарори. <https://lex.uz/docs/4172023>
4. *Маматкулов Т. Б., Закурлаев ва бошқ А. К.* Ўзбекистон Республикасининг «Суд экспертизаси тўғ'рисида»ги қонунига шарҳ. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2017. – 176 б.
5. Об утверждении Концепции развития экспертно-криминалистических подразделений органов внутренних дел Российской Федерации на среднесрочную перспективу (2016–2018 гг.): приказ МВД России от 24 ноября 2016 г. № 758. Доступ из справ.-правовой системы «Консультант Плюс».
6. *Ш.Х. Иномжонов.* Жиноят процессида далилларни тақдим қилиш ва улардан фойдаланиш муаммолари. Монография. Т-2006. 177 б.
7. <http://diss.natlib.uz/ru-RU/Researchwork/OnlineView/34231>.
8. <https://www.xabar.uz/huquq/firibgarlik-ozini-nima-nega-odamlar-tez-va-kop-alदानadi>

KONSTITUTSIYA VA QONUNLARDA BOLA HUQUQLARINING HIMOYASI

**Maqsudova Gulbahor,
Sattorova Muxarram Abdurazoqqovna**
Toshkent shahar yuridik texnikumi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola bola huquqlari, ya'ni inson huquqlari avvalambor O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlanganligini, Konstitutsiyamizning bosh yo'nalishi - insonni va uning hayotini ulug'lash ekanligini, inson va uning hayoti, eriknligi, sha'ni, qadr-qimmatini hamda boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanishini yoritishga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: *Demokratiya, Konstitutsiya, qadr-qimmat, erkinlik, huquq, burch, qonun, jamiyat.*

PROTECTION OF CHILDREN'S RIGHTS IN THE CONSTITUTION AND LAW

**Maqsudova Gulbahor,
Sattorova Muxarram Abdurazoqqovna**
Tashkent city law technical school

ABSTRACT

This article states that the rights of the child, ie human rights, are first of all enshrined in the Constitution of the Republic of Uzbekistan, the main direction of our Constitution is the glorification of man and his life other inviolable rights are devoted to the elucidation of the highest value.

Keywords: *Democracy, Constitution, dignity, freedom, law, duty, legislation, society.*

ЗАЩИТА ПРАВ ДЕТЕЙ В КОНСТИТУЦИИ И ЗАКОНЕ

**Максудова Гульбахор,
Сатторова Мухаррам Абдуразаковна**
Ташкентский городской юридический техникум

АННОТАЦИЯ

В данной статье говорится, что права детей, то есть права человека, закреплены в первую очередь в Конституции Республики Узбекистан, главное

направление нашей Конституции - прославление человека и его жизненных ценностей и других неотъемлемых прав.

Ключевые слова: Демократия, Конституция, достоинство, свобода, закон, долг, законодательство, общество.

KIRISH

Bola huquqlari, bu umuman olganda inson huquqlari hamdir. Bola huquqlari, ya'ni inson huquqlari avvalambor O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan. Konstitutsiyamizning bosh yo'nalishi-insonni va uning hayotini ulug'lashdir. Asosiy qonunimizning 13-moddasida: "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erikligi, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.

Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi", deb mustahkamlab qo'yilgan.

Konstitutsiyaning II-bo'limi aynan inson va fuqarolarning huquq va erkinliklariga oid normalarni o'z ichiga oladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining VII, VIII, IX, X, XI-boblarida inson va fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy huquqlari, burchlari, shuningdek bu huquqlarni ta'minlash kafolatlari ham belgilab berilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani yozish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik tamoyillardan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Konstitutsiyasining VII, VIII, IX, X, XI-boblarida konstitutsiyaviy normalarga ko'ra inson dunyoga kelishi bilanoq, o'zining tabiiy huquqlariga, ya'ni shaxsiy huquqlariga ega bo'ladi. Masalan, Bosh Qomusimizning 24-moddasiga e'tibor qaratsak, unda: "Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir",-degan qoida mustahkamlangan. Yashash huquqi inson tug'ilishi bilan vujudga keladi, uning vafot etishi bilan tugaydi. Bu normada yashash huquqidan biror bir shaxsni mahrum qilish yoki uning hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyat ekanligi ta'kidlanib, bunday jinoyat uchun O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining tegishli normalarida jinoiy javobgarlik belgilangan.

Bola huquqlariga to'xtaladigan bo'lsak, shuni ta'kidlash lozimki, davlat sog'lom bolaning tug'ilishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Sogʻlom avlod jamiyatning eng katta boyligi hisoblanadi. Yosh avlod qadrlanmagan jamiyat hech qachon mukammal va tez rivojlana olmaydi. Kelajakni ishonib topshirish uchun har qanday jamiyat oʻsib kelayotgan yosh avlodni qadrlamogʻi, uning har tomonlama sogʻlom qilib tarbiyalanishiga sharoit yaratib bermogʻi lozim.

Konstitutsiya va boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq har bir bolaga inson hamda fuqaro huquqlari va erkinliklari tegishli boʻladi hamda davlat tomonidan kafolatlanadi.

Maʼlumki, keyingi vaqtlarda Oʻzbekiston milliy qonunchiligining xalqaro standartlarga uygʻunligini taʼminlash sari dadil olgʻa siljimoqda. Fikrimizning dalili sifatida shuni aytish mumkinki, davlatimiz bola huquqlari kafolatlari toʻgʻrisida, Odam savdosiga qarshi kurashish toʻgʻrisida va bola huquqlarini himoya qilishga doir boshqa qator qonunlarni qabul qildi.

Barchamizga maʼlumki, 1948 yil BMT Bosh Assambleyasi tomonidan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilingan. 1989 yil 20 noyabrda esa Bosh Assambleya rezolyusiyasi asosida “Bola huquqlari toʻgʻrisida”gi Konvensiya qabul qilindi. Oʻzbekiston davlati bu konvensiyani 1992 yil 9 dekabrda ratifikatsiya qildi. Keyinchalik 2008 yil 7 yanvarda Oʻzbekiston Respublikasining “Bola huquqlari kafolatlari toʻgʻrisida”gi Qonuni qabul qilinib, unga koʻra bola huquqlarini himoya qilish boʻyicha davlat siyosatining asosiy yoʻnalishlari belgilab berildi.

Bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish, bola huquqlarining kafolatlarini taʼminlash va ushbu sohadagi xalqaro majburiyatlarni bajarishning taʼsirchan tizimini yaratish maqsadida 2019 yil 22 aprelda yana bir huquqiy hujjat: Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-4296-son qarori qabul qilindi va unga koʻra Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari boʻyicha vakili (Ombudsman) oʻrinbosari – Bola huquqlari boʻyicha vakil lavozimi joriy etildi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bola huquqlari toʻgʻrisidagi konvensiyasini bajarish strategiyasini va bola huquqlari masalalari boʻyicha boshqa hujjatlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish huquqiga ega boʻldi.

Darhaqiqat, *“Bola huquqlarini taʼminlash hozirgi zamonning global muammolaridan biri boʻlib, uni hal etish bilan bogʻliq masalalar jahon*

hamjamiyatining doimiy diqqat e'tiborida turibdi. Bu bejiz emas, chunki yosh avlod jamiyat taraqqiyoti va istiqbolini ta'minlovchi yetakchi kuch hisoblanadi".¹⁶²

Shuning uchun davlatimiz yuqoridagi qarorda belgilangan vazifalarni bajara borib, jismoniy va yuridik shaxslar, shu jumladan, bolalar hamda ular qonuniy vakillarining bola huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilishi to'g'risidagi murojaatlarni ko'rib chiqish orqali bolaning huquqlari, erikliklari va qonuniy manfaatlarni himoya qilinishi kafolatlarini ta'minlab beradi.

Ayniqsa, imkoniyati cheklangan bolalar, shuningdek yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar tarbiya muassasalarini tamomlagandan keyin ularning ijtimoiy moslashuviga, qonun hujjatlari talablariga javob beradigan turar joy bilan ta'minlanishiga ko'maklashadi.

Bola huquqlarini yanada keng doirada kafolatlash maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 maydagi "Inson huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi navbatdagi qarori Bola huquqlari bo'yicha vakil o'z vakolatlarini mustaqil hamda davlat organlari va ularning mansabdor shaxslariga tobe bo'lmagan tarzda bajarishi, daxlsizlik huquqidan foydalanishi va u O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining roziligisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi yoki sud tartibida beriladigan ma'muriy jazoga tortilishi mumkin emasligi kabi qoidalarni qat'iy belgilab qo'ydi.

Davlat bolaning shaxsi, uy-joy daxlsizligini, xat-xabarlari sir tutilishini ta'minlaydi hamda bolani ekspluatatsiya va zo'ravonlikning barcha shakllaridan, shu jumladan jismoniy, ruhiy va jinsiy zo'ravonlikdan, qiynoqlarga solishdan yoki shafqatsiz, qo'pol yoxud inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa shakldagi muomaladan, shahvoniy shilqimliklardan, huquqbuzarliklar va g'ayriijtimoiy harakatlar sodir etishga jalb etilishidan himoya qilinishini amalga oshiradi.

Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganda, shu jumladan ota-ona (ulardan biri) yoki ota-onaning o'rnini bosuvchi shaxslar bolaga ta'minot, tarbiya va ta'lim berish bo'yicha majburiyatlarini bajarmaganda yoki lozim darajada bajarmaganda yoxud ota-onalik huquqlarini suiiste'mol qilganda bola o'z huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini so'rab vasiylik va homiylik organiga, shuningdek boshqa davlat organlariga mustaqil ravishda murojaat qilishga haqli. Bunday murojaatlarni bola to'liq muomala layoqatiga ega bo'lmaganligi sababli ko'rib chiqmasdan qoldirishga yo'l qo'yilmaydi.

¹⁶² Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi."Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya va uning fakultativ protokollari". Toshkent-2009, 7-b.

konvergentsiyani nima bilan izohlash mumkin? Axir, orqada qolganlar yetakchilardan tezroq o'sishi kerak emasmi, agar ular boshqalarga taqlid qilishlari kerak bo'lsa, hatto eskirgan texnologiyalardan ham sakrab o'tib ketsalar? Nega ular shuncha vaqt davomida tezroq o'smadi va nega endi shunday qilishyapti? Nega endi ba'zi davlatlar bir-biriga yaqinlashmoqda, boshqalari esa ajralishda davom etmoqda? Bu savollarga javoblar ko'p bo'lishi mumkin. Ammo men mumkin bo'lgan tushuntirishni aytib o'tmoqchiman, agar bu haqiqat bo'lsa, bugungi kunda rivojlanish strategiyalari barcha mamlakatlar uchun muhim ahamiyatga ega. So'nggi ikki asrdagi iqtisodiy kengayish nima va qanday qilish mumkinligi haqidagi bilimlarning portlashiga asoslangan. To'g'ri metafora Scrabble o'yinidir: tovar va xizmatlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini - kirishlar, texnologiyalar va vazifalarni birlashtirish orqali yaratiladi - xuddi so'zlar harflarni birlashtirish orqali yaratilgan. Ko'proq imkoniyatlarga ega bo'lgan mamlakatlar ko'proq turli va murakkab mahsulotlarni yaratishi mumkin, xuddi ko'proq harflarga ega bo'lgan Scrabble o'yinchisi ko'proq va uzunroq so'zlarni yaratishi mumkin. Agar biror mamlakatda harf bo'lmasa, u ishlatadigan so'zlarni yasay olmaydi. Bundan tashqari, mamlakatda qanchalik ko'p harflar bo'lsa, u sotib olgan har qanday qo'shimcha harfdan foydalanish soni shunchalik ko'p bo'ladi. Bu buyuk divergensiyaning markazida joylashgan tinchlik tuzog'iga olib keladi. Kam "harf"lari bo'lgan mamlakatlarda ko'proq harf to'plash uchun rag'bat yo'q, chunki ular qo'shimcha harflar bilan ko'p ish qila olmaydi. Masalan; agar sizda televizor bo'lmasa, siz televizorning masofadan boshqarish pultiga ega bo'lishni xohlamaysiz, agar teleko'rsatuv kompaniyasini ham xohlamaysiz sizning potentsial mijozlaringiz elektr energiyasidan mahrum bo'ladi. Bu siyosiy tuzoq alifbo qanchalik uzun bo'lsa va so'zlar qanchalik uzun bo'lsa, chuqurroq bo'ladi. So'nggi ikki asrda texnologiyalar - harflar va ular yordamida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan tovarlar va xizmatlarning murakkabligida portlash kuzatildi. Bu portlash siyosiy o'yinlarni chetlab o'tib, qoloq mamlakatlarda iqtisodiy taraqqiyot uchun ham zamin yarataoldi. Shunday qilib, texniklar texnikaga ega bo'lishadi, ortda qolganlar esa orqada qolishadi. Qoloq mamlakatlarda innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish jarayonini quyidagi sxema ko'rinishida aks ettirish mumkin¹⁸⁴:

$Ft \leftrightarrow At \leftrightarrow I \leftrightarrow L \leftrightarrow Q \leftrightarrow O' \leftrightarrow Si \leftrightarrow M \leftrightarrow S$

bu yerda, Ft-fundamental tadqiqot; At-amaliy tadqiqot; I-ishlanmalar; L-loyihalashtirish; Q-qurilish; O'-o'zlashtirish; Si-sanoat ishlab chiqarishi; M-marketing; S-sotuv.

¹⁸⁴ X.M.Abdusattorova Innovatsiya strategiyasi o'quv qo'llanma.-T.: TDIU, 2011

Qoloq mamlakatlar eng asosiy Fokus Strategiyasiga e'tiborni qaratishi kerak, fokus strategiyasi – bu mamlakatda ma'lum bir tarmoqlar ixtisoslashuv guruhiga diqqatini qaratish hisoblanadi. Fokus strategiyasini turli ko'rinishda qo'llash mumkin. Bu strategiya asosida mamlakat tor doiradagi maqsadlarga erishishi keng qamrovli maqsadlarga nisbatan osonroq amalga oshadi degan taxmin yotadi fokus strategiyasini qo'llagan mamlakatlar oxir oqibat ishlab chiqarish differensiyasi yoki xarajatlarni kamaytirishga erishadi. Bunda ham mamlakat asosiy e'tibor qaratgan tarmoqda o'rtacha foydadan yuqori foyda olish imkoniyatiga ega bo'ladi, ammo jahon miqyosida kata ulushga ega bo'la olmasligi ehtimoli ham mavjud. Rivojlanish daromad va iste'molni oshirishi va ulanishni oshirishi bilan individual harakatlarning ta'siri kuchayadi. Ushbu tarqalishlarning aksariyati ijobiydir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki urbanizatsiya va rivojlanish o'rtasidagi yaqin bog'liqlikni o'z ichiga oladi. Odamlar birlashganda, ular hech qachon mustaqil ravishda erisha olmaydigan narsalarni qilishlari mumkin. Biroq, daromadlar oshgani sayin, ko'pincha kutilmagan salbiy ta'sirlar ham ko'payadi, masalan, semirish, diabet, iqlim o'zgarishi, antibiotiklarga chidamlilik va biologik xilma-xillikning yo'qolishi. Tengsizlikning kuchayishi va ijtimoiy hamjihatlikning buzilishi ham xavflarni kuchaytiradi. Ana shunda ijtimoiy xavflarni oldini olishda aholi tafakkurini kengaytirish va ularning xatti- xarakatlarini o'zlarining kuchlarini o'zlariga ishlatish kerak. Agarda davlat aralashadigan bo'lsa aholining mamlakatga bo'lgan ishonchi yuqoladi va mamlakat taraqqiyoti uchun o'z hissasini qo'shmaydi. Ba'zilar bu strategiyani rad etib, mamlakatlar faqat boshqa odamlarning narsalarini yig'ish bilan yakunlanadi, deb ta'kidlaydilar. Ammo, mashhur astronom Karl Sagan aytganidek : "Agar siz noldan olma pirogi yasamoqchi bo'lsangiz, avvalo koinotni kashf qilishingiz kerak"

XULOSA

Yakuniy xulosada shuni aytish joyizki, o'tgan 75 yil ichida zamonaviy iqtisodiyotda taraqqiyot haqidagi g'oyalar mustamlakachilik va bir davlatning ko'magi nuqtai nazaridan kambag'al davlatlar o'z-o'zidan rivojlanishga, taraqqiy etishga qodir emas va boy mustamlakachi davlatlarning yo'l-yo'rig'i va yordamini kutib yashash talab qiladi degan qarashdan, har bir davlatning birlamchi o'ziga xosligi bor degan qarashga o'tdi. Ya'ni o'z taraqqiyoti yo'liga ega rivojlanayotgan mamlakatlarning rivojlangan mamlakat yoki xalqaro birlashmalardan yordam kitgan mamlakat albatta qoloqlik tomon qo'ygan ilk qadamlari hisoblanadi. Sababi, Iqtisodiy suyanch, qaramlilik davlatning mavjud bo'lgan barcha optimal resurslardan,

inson kapitalidan maxrum etadi. Biroq, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning o‘zaro ta’siri haqidagi oddiy mustamlakachilik va marksistik g‘oyalar obro‘sizlansa-da, xorijiy kuchlar va xalqaro hamjamiyat rivojlanishga chuqur ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shunday ekan har bir qoloq mamlakat o‘z harakatlarini optimal darajada baholay olishi va o‘zining yetakchi tarmog‘ini aniqlab, muassasaviy bog‘liqlik orqali innovatsion iqtisodiy taraqqiyotni yo‘lga qo‘yishi va o‘zining inson kapitaliga bo‘lgan e’tiborini kuchaytirishi zarur. Ana shunda qoloq mamlakatning rivojlanish strategiyasi hamda uning say harakatlari ijobiy tomonga ustuvor yo‘nalis isfatida jahon hamjamiyatida muhim rol o‘ynaydi.

REFERENCES

1. Michael Lewis “Travels in the New Third World” Paperback, Published September 4th 2012 by W. W. Norton Company.
2. Фигурнова, Н. П. Международная экономика: учеб. пособие / Н.П. Фигурнова. — Москва: Издательство «Омега-Л», 2007
3. Nazarova G.G., Xalilov X.X., Xanova I.M., Hakimov N.Z., Bobojonov B.R. Jahon iqtisodiyoti. T.: MChJ “RAM-S”, 2007 y
4. Shodiyev R.X. Jahon iqtisodiyoti. T.: G’ofur G’ulom, 2005
5. Международные стратегии экономического развития: Учеб. пособие / Под ред. Ю.В.Макогона.- К.: Знания, 2007.
6. Nazarova G.G., Xaydarov N.X. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. – T.: TDIU, 2005.
7. Экономика зарубежных стран. Назарова Г.Г., Адилова З.Д., Мухамеджанова Г.А. Т.:ТГЭУ, 2007 г.
8. Horst Siebert “The World Economy” ISBN 9780203815359 Published April 27, 2018 by Routledge 2nd Edition
9. Daron Acemoğlu, James A. Robinson “Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity, and Poverty” Published March 20th 2012 by Crown Business (first published March 2012)

Internet ma’lumotlari

1. <https://www.statista.com/statistics/270180/countries-with-the-largest-gross-domestic-product-gdp-per-capita/>
2. <https://en.wikipedia.org/wiki/Backwardness>
3. https://en.wikipedia.org/wiki/Economic_growth
4. https://en.wikipedia.org/wiki/Alexander_Gerschenkron

IKKIYOQLAMA SOLIQQA TORTMASLIK PRINSIPINING AHAMIYATI

Imomniyozov Doniyorbek Baxtiyor o'g'li.

Toshkent davlat yuridik universiteti
Fuqarolik huquqi kafedrası o'qituvchisi.
d.imomniyurov@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada xalqaro xususiy huquqning asosiy prinsiplaridan biri sanalgan ikkiyoqlama soliqqa tortmaslik prinsipining mazmuni, mohiyati, shuningdek mazkur prinsipning globallashuv jarayonidagi ahamiyati huquqiy tahlillar asosida ochib berilgan. Mazkur maqolada ikki yoqlama soliqqa tortishning kelib chiqish sabablari, turlari va ularni bartaraf etishga qaratilgan choralar, shu bilan birga ikkiyoqlama soliqqa tortmaslik prinsipini qo'llash bilan bog'liq nazariyalar, ilmiy qarashlar va xalqaro xususiy huquq normalari o'rganilgan.

***Kalit so'zlar:** soliq rezidenti, soliq to'lovchi, ikkiyoqlama soliqqa tortmaslik, soliq imtiyozlari, soliq bazasi, soliq manbai, soliq chegirmalari, xalqaro investitsiya.*

ВАЖНОСТЬ ПРИНЦИПА ДВОЙНОГО НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ

Имомниёзов Дониёрбек Бахтиёр угли

Ташкентский государственный юридический университет
преподаватель кафедры гражданского права
d.imomniyurov@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В данной статье на основе правового анализа раскрыты содержание, сущность принципа двойного налогообложения, являющегося одним из основных принципов международного частного права, а также значение данного принципа в процессе глобализации. В данной статье изучены причины возникновения, виды двойного налогообложения и меры, направленные на их устранение, а также теории, научные воззрения и нормы международного частного права, связанные с применением принципа двойного налогообложения.

***Ключевые слова:** налоговый резидент, налогоплательщик, двойное налогообложение, налоговые льготы, налоговая база, источник налогообложения, налоговые вычеты, международные инвестиции.*

THE IMPORTANCE OF THE PRINCIPLE OF DOUBLE TAXATION

Imomniyozov Doniyorbek Bakhtiyor ugli

Tashkent State law university
lecturer department civil law
d.imomniyurov@gmail.com

ANNOTATION

On the basis of legal analysis, this article reveals the content, essence of the principle of double taxation, which is one of the basic principles of private international law, as well as the significance of this principle in the process of globalization. This article examines the causes, types of double taxation and measures aimed at eliminating them, as well as theories, scientific views and norms of private international law related to the application of the principle of double taxation.

Key words: *tax resident, taxpayer, double taxation, tax incentives, tax base, source of taxation, tax deductions, international investments.*

KIRISH

Ma'lumki, iqtisodiy faoliyat jivojlangani sari milliy chegaralarni kesib o'tib, transchegavraviv faoliyatga aylanadi, xalqaro miqyosda ish yurita boshlaydi. Soliqqa tortish vakolati esa davlatga tegishli ya'ni davlat yurisdiksiyasidan chetga chiqa olmaydi. Ushbu nomuvofiqlikdan kelib chiqadigan muammolardan biri bu ikkiyoqlama soliqqa tortishdir. Oddiyroq qilib aytganda soliq to'lovchi ro'yxatdan o'tgan davlat (solig rezidenti) va solig to'lovchi daromad olgan ya'ni solig manbai bo'lgan davlatlar o'rtasida soliqqa tortish yurisdiksiyasining takrorlanishidan kelib chiqadi. Agar ikkala davlat ham soliqqa tortish bo'yicha o'z kuchlarini to'liq ishga salsalar, unda xalqaro investitsiyalar uchun solig yuki milliy investitsiyalarga nisbatan ancha yuqori ko'rsatkichni qayd etadi. Buning oldini olish uchun hukumatlar ikki baravar soliqqa tortilmaslik choralarni ko'radi.

Quyida ikkiyoqlama soliqqa tortish tushunchasi, uni vujudga keltiruvchi sabablar, turlari va uni bartaraf etish usullari haqida to'xtalib o'tamiz.

Yuridik adabiyotlarda ikki yoqlama soliqqa tortish tushunchasiga ko'plab tariflar keltirilgan. Xususan, ularning birida "ikkiyoqlama soliqqa tortish - bu bir xil daromadga (daromad solig'i bo'yicha), aktivga (kapital solig'i bo'yicha) yoki moliyaviy operatsiyaga (savdo solig'i bo'yicha) ikki yoki undan ortiq yurisdiksiyalar

tomonidan soliqlarni undirish”¹⁸⁵ deya tushuntirilgan. Shuningdek, yana bir adabiyotda potensial ikki tomonlama soliqqa tortish bir davlat soliq to‘lovchining yashash joyi (fuqaroligi) asosida, ikkinchisi esa daromad joyiga qarab soliqqa tortish huquqini talab qilganligi sababli paydo bo‘lishi mumkinligi keltirilgan¹⁸⁶. Shu bilan birga ikki tomonlama soliqqa tortish har ikki davlat soliq to‘lovchining o‘z rezidenti ekanligini da’vo qilganda yoki har ikki davlatning har biri unda daromad olinganligini da’vo qilganda ham paydo bo‘lishi mumkin. Bunday munosabat kelib chiqishiga har bir davlat soliq siyosatini mustaqil amalga oshirishi, soliq qonunchiligini o‘z yurisdiksiyasi doirasida mustaqil belgilashi sabab bo‘ladi. Fikrimizni quyidagicha tushuntiramiz. Misol uchun O‘zbekiston Respublikasida tashkil etilgan “Best” MCHJ xalqaro miqyosda faoliyati bilan shug‘ullanadi. Uning boshqa davlatlarda filiallari yoki doimiy muassalari bor deylik. Ayonki ushbu MCHJ O‘zbekiston Respublikasida ham, uning tashqarisda ham daromad oladi. Soliq kodeksining (yangi tahrir) 32-moddasiga muvofiq mazkur MCHJ O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxsi deb e’tirof etiladi. SK 294- moddasining mazmuniga ko‘ra u foyda solig‘ining to‘lovchisi hisoblanadi. Bizga jami daromad va xarajatlar o‘rtasidagi farq foyda solig‘ining obyektiga ekanligi ma’lum¹⁸⁷. Yuridik shaxsning jami daromadlari mazkur yuridik shaxs tomonidan O‘zbekiston Respublikasidagi va uning tashqarisidagi manbalardan hisobot (soliq) davri mobaynida olingan daromadlardan iboratligi yuqoridagi kodeks 297- moddasida belgilangan. Aynan shu yerda ikki yoqlama soliq solish vujudga kelishini ko‘rish mumkin. Negaki boshqa davlatning soliq qonunchiligida ham shunga o‘xshash qoida belgilanishi tabiiy. Misol uchun Rossiya Federatsiyasi Soliq kodeksining 247- moddasi ikkinchi qism uchinchi bandiga muvofiq xorijiy tashkilotlarning Rossiya Federatsiyasidagi manbalardan olgan daromadlari foyda solig‘ining obyektiga ekanligi belgilangan¹⁸⁸.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yuqoridagilarga ko‘ra agar “Best” MCHJ Rossiyada faoliyati olib borsa, u Rossiya Federatsiyasidagi manbalardan olgan daromadi uchun ham Rossiya Federatsiyasida, ham O‘zbekiston Respublikasi soliq to‘lashi kerak degan xulosa kelib chiqadi. Bu esa biz tahlil qilayotgan ikki yoqlama soliqqa tortishga yaqqol misol bo‘ladi. Shuningdek, bir mamlakatda ishlab chiqarilgan, so‘ngra boshqa

¹⁸⁵ Козырин А.Н. Налоговое право зарубежных стран: вопросы теории и практики. М.: Манускрипт, 1993.

¹⁸⁶ Тедеев ААПарыгина В.А. Налоговое право: Учебник. М.,2004.

¹⁸⁷ O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (yangi tahriri) 295-moddasi ikkinchi qism birinchi bandi.

¹⁸⁸ Статья 247 Налогового кодекса РФ в новой редакции с Комментариями и последними поправками на 2020 год (nkodeksrf.ru)

mamlakatga o'tkazilgan daromadlar (tadbirkorlikdan olinadigan foyda, dividendlar, foizlar va boshqa daromadlar) odatda ushbu ikkala mamlakatda ham qonunlariga muvofiq soliqqa tortiladi. Agar bunday "xalqaro" daromatlarni soliqqa tortish har ikki mamlakat soliq qonunchiligi tomonidan muvofiqlashtirilmagan bo'lsa, bu "ortiqcha" (ikki baravar) soliq solishga olib kelishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, kapitalning bir mamlakatdan ikkinchisiga tomon harakatlanishida nomaqbul o'zgarishlarga va kapitaldan foydalanish samaradorligining pasayishiga olib keladi.

Ushbu tahlillar shuni ko'rsatadiki, ikkiyoqlama soliq solish, yuqorida aytib o'tilganidek, ayni bir subyektning bir xil daromadi yoki mol-mulki ikki yoki undan ortiq mamlakatda bir xil soliqqa tortilganda yuz beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, ikki tomonlama soliqqa tortish soliq miqdorini arifmetik ravishda ikki baravar ko'paytirish emas, balki soliq to'lovchining soliq yuki keraksiz o'sishi hisoblanadi. Soliq yukining ortishi esa har qanday tadbirkorlik subyektining rivojlanishiga tomonda ma'noda haqiqiy to'siq hisoblanadi. 2013 yilgi Business Europe tadqiqoti shuni ko'rsatadiki, ikki tomonlama soliq Yevropa davlatlaridagi soliq to'lovchilar uchun transchegaraviy savdo va investitsiyalar uchun to'siq bo'lgan. Xususan, bunda foizlarni kamaytirishga doir cheklovlar, xorijiy soliq imtiyozlari, doimiy muassasa bilan bog'liq muammolar va malaka yoki talqinlar bo'yicha nomuvofiqliklar tashvishga soladigan joylardir. Yuqoridagi tadqiqot doirasida Germaniya va Italiya ikki tomonlama soliqqa tortish holatlari eng ko'p bo'lgan a'zo davlatlar sifatida aniqlandi¹⁸⁹.

Ikkiyoqlama soliqqa tortmaslik prinsipi esa yuqoridagi holatning kelib chiqishining oldini olishga qaratilgan eng muhim omil hisoblanadi.

Biz yuqoridagi tahlil natijasida ikkiyoqlama soliqqa tortish nima ekanligini aniqlab oldik. Endi esa uni keltirib chiqaruvchi sabablarni ko'rib o'tamiz. Ayrim nazariyalarda ikkiyoqlama soliqqa tortishni keltirib chiqaruvchi bir qator sabablar keltirilgan. Jumladan:

- shaxs (yuridik yoki jismoniy) ikki yoki undan ortiq mamlakat qonunchiligiga muvofiq soliq rezidenti hisoblanishi;
- olingan daromad har ikki davlat soliq tizimida soliq solish obyektini hisoblanishi va soliq solish bazasi deb e'tirof etilishi;
- turli davlatlarda yuridik yoki jismoniy shaxsning xarajatlari toifasi farqlanishi (ya'ni soliq bazasini aniqlashda chiqarib tashlanadigan xarajatlarning turlichaligi);
- umume'tirof etilgan yashash va hududiylik prinsiplarining o'zaro

¹⁸⁹ Двойное налогообложение - Double taxation - qaz.wiki

to'qnashuvi ikkiyoqlama soliqqa tortishga olib keluvchi muhim sabablar hisoblanadi¹⁹⁰.

Ta'kidlash lozimki, ikki tomonlama soliqqa tortishga munosabatni belgilaydigan soliq tizimlarining bu ikki prinsipi:

- yashash prinsipi - bu bir mamlakatda doimiy yashash joyiga ega bo'lgan jismoniy shaxslarning, shuningdek, shu mamlakatda ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarning barcha daromadlariga, shu jumladan chet elda olinganlarga ham soliq solishni;

- hududiylik prinsipi - daromad olayotgan shaxslarning doimiy yashash joyi yoki ro'yxatdan o'tgan joyidan qat'i nazar, ushbu mamlakatlar hududida olingan daromadlardan soliq undirishni keltirib chiqardi. Shunga ko'ra har bir davlat o'z soliq qonunchiligini qo'llashga haqli bo'ladi.

Ayrim olimlar ikkiyoqlama soliqqa tortish xalqaro miqyosdagina sodir bo'ladi degan nazariyani ilgari surishadi. Y a'ni shaxs ikki davlatda soliq solinadigan daromadga ega bo'lgandagina ikki tomonlama soliqqa tortilishi mumkinligini ta'kidlashadi. Ayrimlari esa ikki tomonlama soliqqa tortish mahalliy soliq tizimida ham bo'lishi mumkinligini keltirishadi. Unga ko'ra ikkiyoqlama soliqqa tortishning ikki turi mavjud. Bular:

- Ichki (mahalliy);
- Tashqi(xalqaro)¹⁹¹.

Birinchi tur istalgan davlatning soliq qonunchiligida bo'lishi mumkinligi tushuntiriladi. Bunda "ikki tomonlama soliqqa tortish" atamasi ma'lum daromadlarga yoki faoliyatga ikki marta soliq solishni anglatadi. Masalan, korporativ foyda birinchi navbatda korporatsiya tomonidan ishlanganda (korporativ soliq) va yana foyda dividendlar yoki boshqa taqsimot (dividend solig'i) shaklida aksiyadorlarga taqsimlanganda soliq solinishi mumkin.

Buni quyidagi misol yordamida tushuntirishga harakat qilamiz. "Atlas" AJ faoliyati natijasida olgan foydasi yuzasidan foyda solig'ini to'laydi. Biz yuqorida foyda solig'ining obyektini jami daromad va jami xarajat o'rtasidagi farq ekanligini keltirgan edik. SK 317-moddasi mazmunidan dividendlar chegirib tashlanmaydigan xarajatlardan biri ekanligi ma'lum bo'lmoqda. Dividend esa kompaniyaning barcha xarajatlarni to'lagandan keyin qolgan foydasi (foyda solig'i ham shuning ichida yotadi) hisobidan to'lanadi. Shunga ko'ra "Atlas" AJ aksiyadorlariga foydasidan

¹⁹⁰ Devereux M., Griffith R., Klemm A. Corporate income tax reforms and international tax competition// Economic Policy. Vol.

¹⁹¹ Толстопятенко Г.П. Тенденции развития налогового права ЕС//Финансовое право. Юбилейный номер, октябрь 2004.

dividend to'laydi.

Ushbu kodeks 381-moddasiga muvofiq dividendlar va foizlar tarzidagi daromadlarga 5 foizlik soliq stavkasi bo'yicha soliq solinadi. Aynan manashu joyda ikki yoqlama soliq solish paydo bo'lganligini ko'rish mumkin bo'ladi. Chunki bunda soliq manbasi bitta ya'ni "Atlas" AJning olgan foydasi. Bu yerda foyda va dividend uchun bitta soliq manbasidan soliq solinmoqda.

Biroq bizningcha bu nazariya o'zini oqlamaydi. Chunki masalaga ikkinchi tomondan qaraganda bu yerda ikkiyoqlama soliqqa tortish elementi yo'qligini ko'rishimiz mumkin. Bunday xulosga kelishimizning asosiy sababi ikki yoqlama soliq solish tushunchaning mazmunidan kelib chiqadi. Avval ta'kidlanganidek, bitta shaxsning bitta daromadidan ikki marta soliq to'lashiga ikkiyoqlama soliq solish deyilardi. Yuqoridagi holatda esa foyda va dividend uchun alohida subyektlar soliq to'lovchi bo'lib chiqmoqda. Ya'ni foyda solig'ining to'lovchisi "Atlas" AJ, olingan dividend uchun soliq to'lovchi aksiyador - jismoniy shaxs bo'lmoqda. Shu bilan birga bu vaziyatda soliq solish bazasi ham bir biridan farq qiladi. Bundan xulosa qiladigan bo'lsak, bu vaziyatda ikki yoqlama soliq solish kelib chiqmaydi.

Ikkinchi tashqi ikki yoqlama soliq solish turining kelib chiqishi va qo'llanilishini yuqoridagi tahlillar natijasida ko'rib o'tdik.

Endi esa o'z navbatida ikki tomonlama soliq solishning oldini olish usullari haqida fikr yuritamiz. Buning ham ikki xil usuli mavjud. Ya'ni ikki tomonlama soliqqa solishni cheklashni milliy soliq qonunchiligi bilan va xalqaro konvensiyalar, shartnomalar orqali belgilash mumkin.

Birinchi usulda har bir davlat o'z yurisdiksiyada soliq qonunchiligiga ayrim qoidalarni kiritishi kerak bo'ladi. Xususan:

- chet el manbalaridan olingan daromadlarni soliqdan ozod qilish;
- soliq chegirmalarni yaratish. Bunda davlat chet elda to'langan soliqlar miqdorini hisobga olgan holda foiz yoki miqdor ko'rinishida soliq chegirmasi belgilaydi;
- soliq kreditlarini joriy etish orqali ikki yoqlama soliqqa tortishni to'xtatish¹⁹².

Soliq kodeksining 400-moddasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasining norezidenti bo'lgan jismoniy shaxsga daromadlarni to'lash to'lov manbaida soliqni ushlab qolmasdan yoki ushbu Kodeksning 6-moddasiga muvofiq ikkiyoqlama soliq solishga yo'l qo'ymaslik masalalarini tartibga soluvchi O'zbekiston

¹⁹² Толстопятенко Г.П. Тенденции развития налогового права ЕС//Финансовое право. Юбилейный номер, октябрь 2004.

Respublikasining xalqaro shartnomasi qoidalariga va xalqaro shartnomalar bo'yicha soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlashning oldini olishga doir maxsus qoidalarga muvofiq pasaytirilgan stavkani qo'llagan holda amalga oshiriladi. Biz yuqorida keltirgan soliq chegirmasini qo'llash usulini mazkur normaning mazmunidan ko'rishimiz mumkin bo'lmoqda.

Ikkiyoqlama soliqqa tortmaslikning navbatdagi usuli bu xalqaro miqyosda konvensiyalar yoki davlatlar o'rtasida ikki tomonlama shartnomalar imzolashdir. Buni quyidagicha amalga oshirish mumkin:

- normativ-huquqiy hujjatlar doirasida ishlatiladigan aniq tushunchalarni shakllantirish ya'ni soliq qonunchiligida qo'llaniladigan terminogiyani unifikatsiya qilish;

- ikkiyoqlama soliqqa tortishni tugatish sxemasini ishlab chiqish, bunda har bir davlat alohida soliq solinadigan bazani tanlaydi. Soliqning ma'lum bir daromaddan olinishi;

- soliq to'lovchini boshqa mamlakatda kamsitadigan soliqqa tortishni bekor qilish ya'ni milliy rejim prinsipini qo'llash orqali xorijiy va mahalliy soliq to'lovchilar uchun soliqlarni bir xil stavkalarda belgilash;

- majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash yoki qonunni suiste'mol qilishning oldini olish uchun dolzarb ma'lumotlarni almashish¹⁹³.

Ta'kidlash lozimki, Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar ma'lumot almashish bo'yicha ko'p tomonlama bitim tuzdilar. Bu shuni anglatadiki, ularning har biri (boshqa har qanday yurisdiksiyadagi Ahdlashuvchi tomonga) daromadlari kelib chiqqan davlat rezidentlari emasligi sababli mahalliy soliqlardan ozod qilishni talab qilgan shaxslar ro'yxatini oshkor qiladi¹⁹⁴. Bundan ko'zlangan maqsad ushbu shaxslarning o'z davlatida chet elda olingan daromadlar bo'yicha soliq deklaratsiyalarini topshirish va bu orqali soliqdan bo'yin tovlashning oldini olishdir.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi ham ko'plab davlatlar bilan ikkiyoqlama soliq solishning oldini olish bo'yicha shartnomalar imzolagan (1-ilovada).

Misol uchun 08.07.2013 yilda O'zbekiston Respublikasi bilan Ispaniya Qirolligi o'rtasida imzolangan "Ikkiyoqlama soliqqa tortishga yo'l qo'ymaslik hamda daromad va kapital soliqlarini to'lashdan bosh tortishning oldini olish to'g'risida"gi Konvensiyaning 6-moddasiga muvofiq bir Ahdlashuvchi Davlat korxonasi foydasi, agar korxonada o'z tadbirkorlik faoliyatini boshqa Ahdlashuvchi Davlatda joylashgan doimiy muassasa orqali amalga oshirmayotgan bo'lsa, faqat ushbu

¹⁹³ Двойное налогообложение доходов. Как избежать (assistentus.ru)

¹⁹⁴ Двойное налогообложение - Double taxation - qaz.wiki

Davlatda soliqqa tortiladi. Agar korxonaga o'z faoliyatini yuqorida aytilganidek amalga oshirayotgan bo'lsa, korxonaning foydasi boshqa Davlatda mazkur doimiy muassasa faoliyatiga tegishli bo'lgan qism doirasida soliqqa tortilishi mumkin.

Shuningdek, ushbu konvensiyaning 19-moddasiga asosan Ahdlashuvchi Davlatlardan birida faqat o'qish yoki ta'lim olish maqsadida yashab turgan talaba yoki amaliyotchi boshqa Ahdlashuvchi Davlatning rezidenti hisoblansa yoxud birinchi Ahdlashuvchi Davlatga kelguniga qadar mazkur Davlatning rezidenti hisoblangan bo'lsa, ular tomonidan olinayotgan yashash, o'qish va ta'lim olish uchun mo'ljallangan to'lovlar, basharti mazkur to'lovlar shu Davlat hududidan tashqaridagi manbalardan yuzaga kelayotgan bo'lsa, ushbu Davlatda soliqqa tortilmaydi.

Mazkur qoidalarning mazmunidan davlatlar shartnoma yoki konvensiyalar tuzgan holda ikki tomonlama soliqqa tortishning oldini olish choralarini ishlab chiqishini ko'rish mumkin.

XULOSA

Yuqoridagi tahlillar asosida xulosa chiqaradigan bo'lsak, ikkiyoqlama soliqqa tortmaslik prinsipi hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadbirkorlik subyektlarining bir davlat doirasidan chetga chiqqan holda faoliyati olib borishi bu ikki davlatda ham uning soliq munosabatlariga kirishini anglatadi. Mazkur prinsip o'z navbatida tadbirkorlik subyektiga soliq yukini kamaytirish, uni yanada rivojlanishiga tayanch vazifasini bajaradi.

Mazkur mavzuni organish davomida quyidagi takliflarni tayyorladik:

Birinchi, ikkiyoqlama soliqqa tormaslik prinsipi yuzasidan organishlar doirasida shunga amin boldikki, milliy yuridik adabiyotlarimizda ushbu mavzu yuzasidan yozilgan ilmiy ishlar, yuridik maqolalar deyarli mavjud emas. Mazkur mavzu milliy yuridik soha olimlari tomonidan hali organilmagan. Shu tufayli bu prinsip haqida o'rganmoqchi bolgan talabalar qiyinchilikka duch kelishi tabiiy. Shu nuqtayi nazardan nafaqat bu mavzu, balki xalqaro investitsiya huquqi prinsiplari doirasida soha olimlari, mutaxassisleri tomonidan ilmiy ishlar qilinsa, maqsadga muvofiq boladi.

Ikkinchi, Ozbekiston Respublikasi boshqa davlatlar bilan ikkiyoqlama soliqqa tortmaslik boyicha shartnomalar imzolagan bo'lsa-da, biroq milliy qonunchilikda soliqqa tormaslikning aniq mexanizmi belgilanmagan. Shuning uchun ikki tomonlama soliq tormaslik boyicha reglament ishlab chiqilishi xorijiy kompaniyalarni soliqqa tortishni huquqiy jihatdan tartibga solinishiga olib keladi.

REFERENCES

1. Козырин А.Н. Налоговое право зарубежных стран: вопросы теории и практики. М.: Манускрипт, 1993.
2. Тедеев А.А. Парыгина В.А. Налоговое право: Учебник. М.,2004.
3. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (yangi tahriri) 295-moddasi ikkinchi qism birinchi bandi.
4. Статья 247 Налогового кодекса РФ в новой редакции с Комментариями и последними поправками на 2020 год (nkodeksrf.ru)
5. Двойное налогообложение - Double taxation - qaz.wiki
6. Devereux M., Griffith R., Klemm A. Corporate income tax reforms and international tax competition// Economic Policy. Vol.
7. Толстопятенко Г.П. Тенденции развития налогового права ЕС//Финансовое право. Юбилейный номер, октябрь 2004.
8. Двойное налогообложение доходов. Как избежать (assistentus.ru)
9. Isayeva F.B. Soliq huquqi. Bakalavriatning 5240100 – yurisprudensiya yo‘nalishi talabalari uchun darslik. / Mas’ul muharrir: prof.v.b. X.S.Islamxodjaev – Toshkent: TDYU, 2016 – 267 b.
10. Soliq nazariyasi: O‘quv qo‘llanma / Mual.: Jo‘raev A., Meyliev O., Safarov G’. – T.: Toshkent Moliya instituti, 2004 y.
11. Соколов А.А. Теория налогов- М. ООО ЮрИнфор. Прессе, 2003 г.
12. Chet mamlakatlar soliq tizimi. ToshmurotovT. Soliq Akademiyasi.– 2004 y.
13. Chet mamlakatlar soliq tizimi. Jo‘raevA.-T.: TMI, 2005 y.
14. Soliqlar va soliqqa tortish: Darslik / Hammual.: Vahobov A., Jo‘raev A. – T.: “Sharq” nashriyoti – 2009 y.

YOSH VOLEYBOLCHILAR JISMONIY SIFATLARINING O'ZARO ALOQADORLIGI

Raxmatov Ne'matulla Sharofovich

Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali o'qituvchisi

Telefon: +99891 321 40 63

Sattarov Ashraf Eshaliyevich

Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Yosh voleybolchilarni tayyorlashda jismoniy sifatlarning ahamiyati. Har xil sport turlarning spesifik jismoniy sifatlari bir-biridan farq qilishi. Voleybolchilar jismoniy sifatlarning o'zaro aloqadorligi.

Kalit so'zlar: *spesifika- maxsus tuzilishi, intensiv –jadallik.*

АННОТАЦИЯ

Значение физических качеств в тренировке юных волейболистов. Конкретные физические качества разных видов спорта отличаются друг от друга. Взаимосвязь физических качеств волейболистов.

Ключевые слова: *spesifika - технические характеристики, intensiv – интенсивность.*

ABSTRACT

The importance of physical qualities in training young volleyball players. The specific physical qualities of different sports differ from each other. The relationship of physical qualities of volleyball players.

Keywords: *spesifika – specifications, intensiv – intensively.*

KIRISH

Jismoniy tayyorgarlik to'rtta masalani: sog'liqni mustahkamlash, jismoniy kamolot darajasini oshirish, organizm funksional imkoniyatlarni ko'paytirish, jismoniy qobiliyatlarni tarbiyalash masalasini hal qiladi.

Pedagogik nuqtai-nazardan jismoniy tayyorgarlik umumiy tayyorgarlik va maxsus tayyorgarlikka ajratiladi. Umumiy jismoniy tayyorgarlik yuqorida ko'rsatib o'tilgan sog'liqni mustahkamlash va jismoniy kamolot darajasini oshirishga xizmat qilsa, maxsus jismoniy tayyorgarlik esa organizm funksional imkoniyatlarini ko'paytirish va jismoniy qobiliyatlarni tarbiyalaydigan asosiy poydevor hisoblanadi. Voleybolchi umumiy jismoniy tayyorgarligini oshirishning asosiy vositasi sifatida buyumlar bilan va buyumlarsiz bajariladigan umumiy rivojlantiruvchi gimnastika mashqlari, bajariladigan harakatlar intensivligini muntazam ravishda almashtirgan

holda juft-juft bo`lib mashq qilish, harakatli va sport o`yinlari, estafetalar, kross yugurish, suzish va boshqalardan foydalaniladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Kishining jismoniy qobiliyati yoki sifatlarini uning harakat qilish imkoniyatlari (kuchi, tezkorligi, chaqqonligi, chidamliligi) deb qabul qilingan. Ularni takomillashtirish asosida organizmning o`z ishlash qobiliyati darajasidan takroriy ortiqcha jismoniy yuklamalarga javob bera olishi yotadi. Bu yagona jarayonda, mashq qilishning dastlabki bosqichlarida umumiy jismoniy tayyorgarlik, chuqurlashtirilgan mashq qilish bosqichida esa, aksincha maxsus jismoniy tayyorgarlikning afzallik tomonlari bor.

Har xil sport turlarning spesifik jismoniy sifatleri bir-biridan farq qiladi. Og`ir atletikachilarning kuchi yoki gimnastikachilarning chaqqonligi, uzoq masofaga yuguruvchi sportchilarning chidamliligi voleybol o`ynashda uyg`unlikni ta`minlab beradi. Voleybolchining kuchi dinamik xarakterga ega bo`lishi va start, birdan to`xtash hamda harakat yo`nalishini o`zgartirish, sakrash, to`pni blokda raqibidan olib qo`yish, to`pga zarba berish kabi harakatlarda namoyon bo`lishi kerak. Ma`lumki voleybolchi spesifikasi vaznining og`ir bo`lishini talab qilmaydi, balki o`z gavdasi va to`p inersiyasini engishi bilan baholanadi.

Shuning uchun ma`lumki, voleybolchilar oyoqlari va qo`llari kuchli bo`lishga alohida ahamiyat beriladi. Lekin o`yin faoliyati bel va qorin muskullarining ham yaxshi rivojlanishini talab etadiki, murakkab harakatlarni bajarish va bir taraflama tayanchda, yuqori elka kamarining muskullari kattalashganda muvozanat saqlash imkonini beradi.

Kuchni rivojlantiruvchi mashqlar.

Boshlang`ich tayyorgarlik bosqichida 9-10 yoshda hamma muskul guruhlarini rivojlantirish uchun mashqlarni qo`llash kerak. Ular aytish mumkinki, nafas olish muskullarini mustahkamlaydigan mushak korsetini tashkil qiladi. Bu maqsadda gimnastika narvonida, to`ldirma to`plar, voleybol to`pi, juft mashqlar (3-7 kompleksli) suzish, harakatli o`yinlar, yengil buyumlarni uzoqqa uloqtirish, yugurib kelib balandlikka sakrash singari umumiy rivojlantiruvchi mashqlardan foydalaniladi.

11-13 yoshda yumshoq cho`ziluvchi rezina, to`ldirma to`plar, arg`amchi, shuningdek juft-juft bo`lib bajariladigan kuch mashqlari, uzunlikka va balandlikka sakrash, ko`psakrashlar (8-12 kompleksli) mashqlar qo`llaniladi. Shuni yodda tutish kerakki, jismoniy yuklamalar hajmi gavda og`irligining 3-4% dan oshmasligi kerak. Masalan, vazni 40 kg bo`lganda og`irligi 1,5 kg li gantel, to`ldirma to`plar bilan mashq qilish mumkin.

14-15 yoshda maksimal vaznning 15-20% ni tashkil qiluvchi tortilish mashqlaridan foydalanish mumkin. Bunda harakatlarni (masalan, gavdani engashtirish, o'tirish yoki sakrashlar) maksimal darajada bor kuch bilan tez, qismlarga bo'lib 5-10 marta, har bir qism orasida 2,5 daqiqadan dam olib bajarish kerak. Qismlarda takrorlashlar soni tayyorgarlikka bog'liq bo'ladi, ammo bunda boshlang'ich sxemaga ko'ra 5 marta takrorlashlar (3Q x 5T) uch qismdan oshmasligi kerak. Olti haftalik mashq qilish siklida (5M x 10T) ko'rinishida bo'ladi.

Bunday mashqlar tezkorlik kuchni rivojlantiradi, ular muskullarning nisbatan baland sakrash va zarba berish va erga tushish, raqibdan blokda to'pni olib qo'yish qobiliyatni shakllantiradi.

Oyoqlar va gavdaning yoziladigan muskullarining "portlovchi" kuchini rivojlantirish uchun zo'riqish shart emas, chunki ular birdan yugurish, sakrashlarda nomoyon bo'lib, minimal vaqtda ancha kuchlanishga ega bo'ladi. Muskullarning zarb kuchini oshirish uchun o'z gavda massasidan foydalaniladi: 50 dan 70 santimetr gacha (bo'yga qarab) balandlikdan pastga sakrashdan keyin gavda yuqoriga yoki yuqoriga oldinga shunday kuch bilan siltanadiki, bunda erga tushish paytida oyoqning tizzadan bukilishi kamida 90% ga teng bo'ladi (yengil atletikaning past to'siqlaridan sakrab o'tganda). Voleybol mashg'ulotiga kirishgan yosh boshlovchilar bunday sakrashlarni 2M x 5T sxemasida, ancha tayyorgarlik ko'rganlar esa 4M x 8T sxemada etarli darajada dam olib, muskullarni bo'shashtirish mashqlarini qo'shib bajarishlari kerak.

Oyoqlarning "portlash" kuchini rivojlantirish uchun arg'amchi, qiya narvonda yugurish va sakrash mashqlari, ko'psakrashlar, uch hatlab sakrash, 5-6 metrli qisqa zarbdan keyin yuqoriga bir yoki ikki oyoqlab deysinib sakrashlar (13-14 kompleks) juda foydalidir. Kuchni rivojlantirishda quydagi mashqlar yordam beradi.

— kuchni rivojlantirish va muskullarni bo'shashtiruvchi mashqlarini almashtirib bajarish;

— mashqlarni qo'ydagi izchillikda tanlash: avvalo qo'l va yuqori elka kamari, keyin gavda (kurak, qorin), oyoqlar kuchini rivojlantirish mashqlari;

— mashqlar oralig'ida nafas rostdash etarlicha, kuch yuklamasi hajmiga qarab 1 daqiqadan 2,5 daqiqagacha bo'lishi kerak;

— sistemali ishlashda muskullarni ancha zuriqtirish bilan kuchni oshirib borish mumkin.

Tezkorlikni rivojlantiruvchi mashqlar.

Voleybolchining tezkorligi, qattiq aniq masofaga signal bo'yicha start oladigan yengil atletikachining tezkorligidan farq qiladi.

Voleybolda tezkorlik odatda qo`ydagi ko`rsatkichlarda namoyon bo`ladi: reaksiya tezligida va taktik idrokda, start olish va bir harakatdan ikkinchisiga o`tish tezligida. Voleybolchi tezkorligini tashkil etuvchi bu komponentlarning hammasi bir-biriga bog`liq emas va ularni ham alohida-alohida, ham o`yin mashqlari kompleksida mashq qildirish mumkin. O`yindagi voleybolchi to`p uzatilishidan oldin to`pni ko`ra bilishi, vaziyatni baholashi, bir qarorga kelishi kerak. Shu narsa aniqlanganki, bularning hammasi uchun voleybolchi bir soniyagacha vaqt sarflab, shu vaqtning 70% to`pni ko`ra bilishga to`g`ri keladi. Shuning uchun o`yinda to`pni ko`rish uchun uni ko`rish maydonidan chiqarimaslik kerak. Ko`rib harakatlantirish reaksiyasidek murakkab reaksiya tezligi ko`zni tezda predmetni ko`ruvchan, harakat apparatini esa qanday harakat qilishni tez oshiradigan mashqlarda takomillashtiriladi. Reaksiya tezligini tarbiyalovchi mashqlarni jift-juft bo`lib bajarish ayniqsa qiziqarlidir:

Voleybolchi hujumdan oldin asosan oyoqlarning “portlash” kuchiga va qisman qadam uzunligini oshirib borishga bog`liq. Oyoqlarning “portlash” kuchini va qadam uzunligini takomillashtirishga qo`ydagi mashqlar yordam beradi:

- 10 -15 metrga sakrab-sakrab yugurish;
- turli holatlardan turib 7-10 metrga tez yugurish;
- cho`nqayub o`tirgan holatdan shartli signalga ko`ra 10 metrga tez yugurish, iloji boricha guyo qo`l bilan to`p urilayotgandek balandroq sakrash va qayta cho`nqayib, yana signalga ko`ra shu mashqning o`zini takrorlash va hokazo;
- bir o`yinchi to`pni balanblatib boshqa o`yinchiga tashlab beradi, unisi esa baland sakrab qo`li bilan unga qaytaradi. 3-4 daqiqadan keyin o`yinchilar o`rin almashadilar;

Voleybolchi tezkorligini rivojlantiruvchi boshqa turdagi mashqlar sifatida tez yugurib darhol to`xtash, bir harakatdan boshqa harakatga darhol o`tish tezkorligi kabi mashqlarni qo`llash mumkin:

- 15-30 metrga “mokkisimon” yugurish;
- 5-10 metrga tez yugurish; darhol to`xtash, sakrab turib yoki yiqilayotib qo`l bilan to`pga zarba berish;

Tezkorlikning ba`zi turlarini takomillashtirishning katta imkoniyatlari har xil sport o`yinlari, estafetalar va harakatli o`yinlardadir.

Chaqqonlikni rivojlantiruvchi mashqlar.

Chaqqonlik — bu voleybolchining yangi harakatlarini tez egallab olishi va o`yin vaziyatiga qarab moslashishdir. Boshqacha qilib aytganda, chaqqonlik — bu tezkorlik, kuch, koordinasiya imkoniyatlarining birligidir.

Chaqqonlik mashqlariga qo`yiladigan majburiy talablardan biri — bu yangilik elementidir. Shuning uchun ko`proq harakatli va sport o`yinlari o`ynash foydali, chunki ularda vaziyat doimiy yangiligi bilan ajralib turadi. Umumiy chaqqonlikni rivojlantirishning yaxshi vositasi — akrobatika elementlari, yugurish sakrashlar, murakkab harakatlar (emaklash, tortilib chiqish, surilish) va boshqa aralash mashqlarni bajarishdir. Ammo chaqqonlikni rivojlantirishga tayyorgarlik ko`rishning barcha bosqichlarida voleybol mashqlaridan foydalaniladi. Voleybolda uchta, jismoniy sifat – kuch, tezkorlik va chaqqonlik bir-biri bilan uzviy bog`liq bo`lib, ularni tarbiyalash zamirida qo`ydagi umumiy qoidalar yotadi. Bu sifatlarni organizm charchamaganda, ya`ni yozilish mashqlaridan keyinroq rivojlantirish kerak. Har bir mashq maksimal zo`riqish bilan bajariladi. Har bir mashqdan keyin to`la tiklanish bo`lishi kerak. Yana shuni ta`kidlash kerakki, jismoniy sifatlar texnik tayyorgarlik bilan o`zaro bog`liq. Agar voleybolchilar tegishli kuch, tezkorlik va chaqqonlikka ega bo`lmasalar, o`yinning texnik usullarini bajara olmaydilar.

Voleybolchilar jismoniy sifatlarining o`zaro aloqadorligi.

Voleyboldagi jismoniy sifatlarni tarbiyalash ularning garmonik rivojlanishiga olib kelishi kerak, ammo bu narsa shunday mutanosiblikda bo`lishi kerakki, ular voleybolchilarning o`yin faoliyatiga eng yuqori darajada samara keltirsin. Butun mashg`ulot jarayonida singdirilgan g`oya — voleybolchi faqat oddiy tezkor yoki kuchli hamda egiluvchan, epchil bo`libgina qolmasligi kerak, degan fikrdir. O`yinchi bu sifatlarning har birini kerak meyorda, aqlan qo`lga kiritsin.

XULOSA

Voleybolchilar jismoniy sifat va ijrochilik mahoratining o`zaro aloqasida mukammal darajaga intilishlari lozim. Ularning butun fikr-zikri jismoniy sifatlardan shunday asos yaratishga qaratilishi lozimki, bu sifatlar bora-bora o`yin texnikasining takomillashuviga imkon bersin. Shu o`rinda aytish lozimki, yutuk gavda tufayli emas, balki o`yin texnikasi hamda mantiqiy idroki bilan o`ynash tufayli voleybolchilar, Vatanimiz peshqadamlari darajasiga erishishlari lozim.

Mashhur sportchilardan biri shunday digan edi : “Atletizmning bilmasligi yoki etishmasligi texnik mahorati va o`yinni jamoaviy taskil etishdagi yutuqlar bilan to`ldiriladi. Biroq, atletizmni ehtiyot qilmaslik, uning muhimligini tan olmaslik murabbiyning eng yomon xatosi bo`lur edi”. Shunday qilib, voleybolchi atletizmi deganda jismoniy sifatlarining shunday aloqasini tushunish kerakki, u o`yin faoliyatining bir qator samarali bo`lishiga, uning yuqori texnik mahoratiga erishuviga ko`maklashsin.

Ana shunda, ya'ni atletizm ijrochilik mahoratini ochib berishga eng yuqori darajada ko'maklashgandagina voleybol uchun jismoniy sifatlarning garmonik rivojlanishi haqida gapirsa bo'ladi.

REFERENCES

1. Клешев Ю.Н., Айрапетьянц Л.Р., Паткин В.Л., Волейбол.Ташкент. Абу Али Ибн Сино. 1995.
2. Aliyev M.B., Usmonxo'jayev T.S., Sagdiyev N.N., Sattarov E. Sport o'yinlari-FUTBOL. Toshkent, Ilm ziyo, 2012.
3. Ayrapetyans L. R., Pulatov A.A., Isroilov Sh.X. Voleybol. Toshkent. 2009.

CHIZMACHILIK VA DIZAYN FANLARINI INTEGRATSIYALASH ORQALI TAKOMILLASHTIRISH

B.R.Haqberdiyev

AndDU TSMG kafedrası mudiri

Sh.F.Otaxonova

AndDU TSMG 2-bosqich talabasi

D.I.Qodirova

AndDU RTD 3-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Bu maqolamiz orqali o'rta maktablarda chizmachilik va dizayn fanlarini integratsiya orqali o'qitishda o'quvchilar fazoviy tasavvurlarini oshirish, o'quvchilarda bu ikki fanga tegishli bo'lgan bog'liqliklarni aniqlab shu manbalardan foydalanishni yoritib berganmiz.

***Kalit so'zlar;** chizmachilik, dizayn, integratsiya, o'qitish, tasavvur, ixtiro, xotira, metodika, detal, aksonometriya, shriftlar, monografiya.*

АННОТАЦИЯ

В этой статье мы подчеркнули использование этих ресурсов для повышения пространственной осведомленности учащихся при обучении рисованию и дизайну в средних школах посредством интеграции, а также для выявления связей между этими двумя дисциплинами.

***Ключевые слова:** рисунок, дизайн, интеграция, обучение, воображение, изобретение, память, методология, детализация, аксонометрия, шрифты, монография.*

ABSTRACT

In this article, we have highlighted the use of these resources to increase students' spatial awareness in the teaching of drawing and design in secondary schools through integration, and to identify the connections between these two disciplines.

***Keywords:** drawing, design, integration, teaching, imagination, invention, memory, methodology, detail, axonometry, fonts, monograph.*

KIRISH

Muhandislik grafikasini o'qitishda mavzularini o'rganishning samarali usuliyari, chizmaiami o'qish va bajarish ko'nikmalarini shakllantirish, grafik masalalarning roli va ulardan o'qitishda foydalanish uslublari kabilar o'rganiladi. Muhandislik grafikasini o'qitish chizmachilik kursining nazariy masalalarini o'rganadi. Bunda:

chizmachilik kursini maktabda o'qitishning maqsad va vazifalari; o'qitishning tashkiliy shak va metodlarini ishlab chiqish; o'qitishning metodik vositalari (o'quv - ko'rgazmali qurollar va jihozlar)ni tanlash, ishlab chiqish va tadqiqot qilish; chizmachilikning boshqa fanlar bilan aloqalarini (matematika, geometriya, dizayn.) hamda kurs mazmunini ochib beruvchi tushunchalarni aniqlash va hokazolar kiradi.

Chizmachilik va dizayn fanlarini integratsiyalab o'qitishnida bu ikki fanni aloqadorligini o'rgatish talabalarga dizayn, chizmachilik va arxitektura fanlarining asosiy turlari va ularni bog'liqliklari haqida tushunchaga ega bo'lish imkoniyatini beradi. Talabalarining fazoviy tasavvurlarini shakllantirishdan tashqari, bunday ikki fanni integratsiyalash ularga o'zlarining qiziqishlarini, keyingi ta'limdagi ixtisoslik yo'nalishlarini aniqlashga yordam beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

XVIII asrning oxirlari va XX asrni haqli ravishda —dizayn asrini deb atash bo'ladi. Dizayn fani ham o'z tarixi va insonning predmetlar olami muhitiga bo'lgan munosabatini o'rganuvchi madaniy, falsafiy, psixologik nuqtai nazardan o'z nazariyasiga ega bo'lgan fan sohasi ekanligini e'tirof etish mumkin. Bu sohadagi dunyo olimlari, xorijiy va mamlakatimiz tadqiqotchilarining izlanishlarini umumlashtirib, boshqa gumanitar va tabiiy fanlar, texnika yutuqlari, pedagogik, psixologik metod va texnologiyalarni qo'llab kelishmoqda.

Dizaynni ko'pchilik turli atamalar orqali atashadi; —dizayn inglizcha so'z bo'lib;

- | | |
|-------------------------|--------------------------------|
| - loyiha, | - chizma, |
| - obraz, | - hisob-kitob, |
| - fikr, | - konstruksiya, |
| - g'oya, | - eskiz, |
| - g'ayrioddiy faoliyat, | - rasm, |
| - reja, | - naqsh, |
| - maqsad, | - kompozitsiya san'ati, |
| - mo'ljal, | - san'at asari kabi ma'nolarni |
| - ijodiy ko'zlama, | anglatadi. |

Dizayn – bu bir qator maxsus loyihalash faoliyati bo'lib, badiiy buyumlar ijodkorligi va ilmiy asoslangan muhandislik amaliyotini sanoat ishlab-chiqarishi tizimida birlashishi. Muhandislik grafikasi siklidagi arxitektura - qurilish chizmachiligi uslublarining shakllanishiga, birinchi navbatda, bino rejasini chizmasi, zamon ruhiyati, diniy qarashlar, obrazli fikr yuritish jarayonlari, davlat tizimi, ishlab-

chiqarish va ijtimoiy munosabatlar, milliy oʻziga xoslik hamda tabiiy muhit, iqlim sezilarli taʼsir koʻrsatadi. Muhandislik grafikasi va dizayn fanlarini integratsiya orqali oʻqitishni takomillashtirishni orqali:

Chizmachilik va dizayn fanlarini aloqadorlik turlari, arxitektura-qurilish chizmachiligi uslublari asoslarini oʻrganish;

Chizmachilik va dizayn fanlari tarixini integratsiyasida jahonga mashhur arxitektor - quruvchilarning asarlari bilan tanishish;

Chizmachilik va dizayn fanlarini tendentsiyalari gʻoyasini shakllantirish;

Chizma geometriya va dizayn fanlarini integratsiyalashda geometrik figuralarni fazoda grafik tasvirlash va ularning dizaynda birlamchi koʻnikmalarini shakllantirish;

Chizmachilik va dizayn fanlarini integratsiyalashda talabalarning oʻz-oʻzini tarbiyalashi, eskizlar va loyihalarni yaratishda ijodiy oʻzini oʻzi anglashi uchun sharoit yaratish;

Chizmachilik va dizayn fanlarini integratsiyalash orqali takomillashtirishda loyihalar va eskizlarni hayotda sinab koʻrish, shuningdek, loyiha faoliyatini introspektsiya qilish uchun dizayn tanlovlarida ishtirok etishga jalb qilish.

Chizmachilik va dizayn fanlarini integratsiyalash orqali takomillashtirishda estetik didni, rang va shakl uygʻunligi tuygʻusini, foyda va funkcionallik bilan goʻzallikni tarbiyalash;

Chizmachilik va dizayn fanlarini integratsiyalash orqali takomillashtirishda fikrlashni rivojlantirish. Chizmachilik va dizayn fanlarini integratsiyalash orqali takomillashtirishda strukturaning fazoviy koʻrinishini rivojlantirish .

XULOSA

Chizmachilik va dizayn fanlarini bir-biriga moslari tanlanib integratsiyalash mumkin, chunki unda bu ikki fanning turli sohalari (tasviriy sanʼat, fizika, matematika, qurilish, arxitektura va boshqalar) boʻyicha bilimlar toʻplami talabalarda mavjud. Integratsiyalashning oʻziga xos xususiyati – fanlarni qaysidir qismlarini koʻp yoki qisqa qilib toʻldirishdan iboratdir. Chizmachilik va dizayn fanlarini bir-biriga bogʻliqliklariga bagʻishlangan mavzular mavjud boʻlib, ularda talabalar oʻzlarining sevimli mashgʻulotlariga muvofiq oʻzlarini ochishlari mumkin.

REFERENCES

1. Haqberdiyev, B. R. (2021). Goals and objectives of pedagogical experimental work. *International Engineering Journal For Research & Development*, 6(3), 2-2.
2. Haqberdiyev, B. R., & Rustamov, U. (2021). Creative design of buildings and structures. *current research journal of pedagogics (2767-3278)*, 2(09), 76-78.

3. Haqberdiyev, B. R. (2020). Contents, value of interdisciplinary relations. *Solid State Technology*, 63(6), 203-206.
4. Хакбердиев Б.Р. Метод моделирования в интеграции дисциплин дизайна и инженерной графики. *вестник Ошского государственного университета № 3*, 2018, 23.
5. Nasritdinova, U., & Khahkberdiyev, B. (2020, July). Results theoretical study of the form of a front surface of a chisel-cultivator stand. In *IOP Conference Series: Materials Science and Engineering* (Vol. 883, No. 1, p. 012108). IOP Publishing
6. Valiyev A.N., Haqberdiyev B.R., Gulomova N.X., Boboyeva Z.A. “Drawing” (mechanical drawing) Tashkent 2020
7. Haqberdiyev Bakhtiyor Rustamovich Designing of architectural elements DOI: <http://doi.org/10.5281/zenodo.4716849> Primedia E-launch LLC, 5518 Flint St, Shawnee, 66203, USA

“Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences”.
Ilmiy jurnal. Uzbekistan: www.oriens.uz. 2021. - 1193 b.

ISSN 2181-1784

Mazkur to'plamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6-noyabrda "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-sonli Farmonida ko'zda tutilgan vazifalarni ijrosini ta'minlash maqsadida "Oriental Renaissance" MChJ tomonidan ta'sis etilgan **“ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES (oriens.uz)”** ilmiy jurnalining 10-soni o'rin egallagan.

Mas'ul muharrir:
falsafa fanlari nomzodi, dotsent M. Qodirov

Ilmiy kotib:
J.B. Sulaymonov
SH.N. Pulatov
I.R. Ikramova

Texnik muharrir:
Sh.S.Jurayev

